J.X. ATANIYAZOV

XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

J.X. ATANIYAZOV

XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI

O‘zbekiston Respublikasi oliy va
o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2020

UO‘K: 39.72(075)
KBK: 65.5

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor N.X. Jumayevning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar: *i.f.d., dots.* **S.E. Elmirzayev;**
i.f.d., dots. **D.A. Raxmonov**

A 87 Xalqaro moliya munosabatlari: *Darslik* / J.X. Ataniyazov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 612 b.

Darslikda “Xalqaro moliya munosabatlari” fanining asosiy masalalari qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan.

Ushbu darslikda jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro moliyaviy markazlar, jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimi, xalqaro moliya bozori va uning rivojlanish xususiyatlari, xalqaro valyuta operatsiyalari, jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari, xalqaro moliya munosabatlarida valyuta risklarini boshqarish, moliyaviy derivativlar bozori, yevrobozorlarning yuzaga kelishi va ulardagi operatsiyalar, xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi, xalqaro hisob-kitoblar va ularning asosiy shakllari, xalqaro moliya munosabatlarida to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya munosabatlari taraqqiyotidagi o‘rni, xalqaro korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi, xalqaro moliya tizimida moliya-sanoat guruhlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari, jahon moliya tizimi barqarorligini ta’minlashda xalqaro moliyaviy xavfsizlikning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro moliya munosabatlariga integratsiyalashuvi kabi masalalar yoritilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga, ilmiy izlanuvchilarga hamda mazkur fanni o‘qitadigan professor-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 39.72(075)
KBK: 65.5

ISBN 978-9943-13-878-0

© J.X. Ataniyazov, 2020
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2020

KIRISH

Bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani milliy iqtisodiyotni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni yangi davr darajasiga ko‘tarish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish va jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga jadal kirib borish xalqaro moliya munosabatlarini barqaror rivojlantirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilish va shu asosda raqobatbardoshlikka erishish, jahon bozorlaridan mustahkam o‘rin egallash, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq. Mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o‘rin tutadi.

“Xalqaro moliya munosabatlari” fani ixtisoslik fanlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Mazkur darslik oliy ta’limning bakalavriat bosqichida o‘qitiladigan “Xalqaro moliya munosabatlari” fani ixtisoslik fanlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan. Shuningdek darslikdan amaliyotchi-mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar va mazkur sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Darslikning asosiy maqsadi moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro moliya munosabatlarida yuzaga keladigan jarayonlarni o‘rganish, hamda xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan talabalarda tegishli nazariy fikr va taassurotlarni hosil qilish, amaliy ko‘nikma va bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu darslikda jahon iqtisodiyoti rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, xalqaro

moliyaviy markazlar, jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimi, xalqaro moliya bozori va uning rivojlanish xususiyatlari, xalqaro valyuta operatsiyalari, jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari, xalqaro moliya munosabatlarida valyuta risklarini boshqarish, moliyaviy derivativlar bozori, yevrobozorlarning yuzaga kelishi va ulardagi operatsiyalar, xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi, xalqaro hisob-kitoblar va ularning asosiy shakllari, xalqaro moliya munosabatlarida to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya munosabatlari taraqqiyotidagi o‘rni, xalqaro korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi, xalqaro moliya tizimida moliya-sanoat guruhlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari, jahon moliya tizimi barqarorligini ta’minlashda xalqaro moliyaviy xavfsizlikning o‘rni, O‘zbekistonning xalqaro moliya munosabatlariga integratsiyalashuvi kabi masalalar bayon qilingan.

Ushbu fanni chuqur o‘rganish orqali talabalar mamlakatimizning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini faollashtirish, makroiq-tisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish borasida tegishli nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Shu bilan birgalikda, mazkur fanni o‘qitish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni samarali tarzda amalga oshirishga qaratilgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Darslik muallifi ma’lumotlarni aniq, mantiqiy ketma-ketlik asosida bayon etishga harakat qilgan. Har bir bob yakunida tayanch so‘z va iboralar, takrorlash uchun savollar, mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar hamda test savollari keltirilgan.

Ushbu darslikni yanada takomillashtirish yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar uning yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Shu boisdan, bildirilgan taklif va mulohazalar uchun muallif oldindan o‘z minnatdorchiligini izhor etadi.

1-BOB. JAHON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING ROLI

1.1. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va rivojlanish omillari

1.2. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o‘rni

1.3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati

1.1. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va rivojlanish omillari

Xalqaro moliya – davlatlar, kompaniyalar, yuridik va jismoniy shaxslarning xalqaro iqtisodiy va boshqa faoliyatlarining barcha shakllarini amalga oshirish uchun zarur valyuta mablag‘larini shakllantirish va foydalanish bo‘yicha munosabatlari yig‘indisidir. Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari o‘ziga xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro kredit munosabatlari, xalqaro investitsiya munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari, mamlakatlar to‘lov balansini boshqarish, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar kabi munosabatlarni qamrab oladi.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonining keskinlashuvi natijasida – xalqaro savdo hajmining o‘sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, kapitalning xalqaro oqimini rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlar xalqaro harakatining kuchayishi sodir bo‘ldi. Mazkur o‘zgarishlar xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, bu holat jahon moliya bozorlarining, xalqaro moliyaviy korporatsiyalarning yuzaga kelishiga, davlatlararo moliyaviy munosabatlarning va xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jihatlarini murakkablashuviga olib keldi.

Xalqaro moliya doimiy o‘zgaruvchan xalqaro pul tizimlarining holati va rivojlanishini, alohida mamlakatlar to‘lov balansining o‘zgarishini, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro moliyaviy korporatsiyalar, xalqaro bank va investitsion faoliyatni namoyon etadi. Xalqaro moliya tizimining asosiy ishtirokchilar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: banklar, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar va xalqaro rasmiy qarzdorlar. Shunday ekan, xalqaro moliyaviy operatsiyalar alohida mamlakatlarning moliya tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi kuch hisoblanadi.

Xalqaro moliya o‘zida obyektiv asosga ega bo‘lgan moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Uning moddiy asosi bo‘lib mamlakatlar o‘rtasida amalga oshiriladigan xalqaro moliyaviy oqimlar, jumladan, pul oqimlari – import qilingan mahsulot va xizmatlarning to‘lovlari hamda mahsulot va xizmatlar eksportidan kelgan valyuta tushumlari, ushbu oqimlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini ifodalashi mumkin, lekin ular turli mamlakatlarga tegishli bo‘ladi, shu boisdan mamlakatlar o‘rtasidagi pul oqimlari harakatini namoyon etadi. Shuningdek, kredit mablag‘lari oqimi ham ikki tomonlama bo‘lib hisoblanadi, bir tomondan qarzning berilishi bo‘lsa boshqa tomondan esa, uning qaytarilishi va foizlarning to‘lanishi namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, mazkur oqimlar asosida moliyaviy resurslarning mamlakatlar o‘rtasidagi harakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi bir tomondan valyuta kurslari asosida ikkinchi tomondan esa, bojxona tariflari asosida boshqariladi.

Moliyaviy resurslar xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari faoliyati jarayonida shakllanadi va foydalaniladi. Mazkur institutlar va tashkilotlar davlatlararo tuzilmaga ega bo‘lib muayyan funksiyalarni bajaradi. Ularning moliyaviy ta’minoti umumlashgan (masalan, BMT byudjeti) yoki maqsadli (aniq dasturlar va tadbirlar uchun mo‘ljallangan) fondlar orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarning muayyan qismini xalqaro darajada markazlashuvi jahon xo‘jaligi ehtiyojlarini ta’minlaydi, bunday resurlarni shakllantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari bo‘lib, iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi, turli sohalardagi xalqaro loyiha va

dasturlarni amalga oshirishda mamlakatlarning ishtiroki, kredit va savdo munosabatlarini rivojlanishi hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro moliya – bu xalqaro moliya bozori va xalqaro institutlar tomonidan shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishini o‘z ichiga olgan moliyaviy resurslar harakati asosida hosil bo‘lgan munosabatlar tuzilmasi bo‘yicha murakkab tizimdir.

Mamlakat davlat moliyasining xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– bitta mamlakat hududidan chiqmaydi;

– xorijiy subyektlarni jalb qilmaydi;

– milliy qonunchilik asosida amalga oshiriladi;

– mamlakat ichida amalga oshiradigan hisob-kitoblarni o‘zida ifodalaydi.

Xalqaro moliya esa turli xildagi jihatlarni o‘rganadi. Bularga:

– iqtisodiy kategoriya sifatida – moliyaviy resurslarning fondlari bo‘lib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish asosida tashkil etilgan hamda xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy ehtiyojlarni qondirish va jahon darajasida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning rentabelligini va uzluksizligini ta’minlash uchun foydalaniladi.

– institutsional jihatdan – bu banklar, valyuta va fond birjalari, xalqaro moliya institutlari, mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari, xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalar majmui bo‘lib ular orqali jahon moliyaviy oqimlarining harakati amalga oshiriladi.

– iqtisodiy munosabat sifatida – bu, jahon bozorida kapital, xizmatlar, tovarlar harakati vaqtida milliy mahsulotlarning qayta taqsimlanishi jarayonida yuzaga keluvchi pul ko‘rinishidagi munosabat. Davlatlararo va transmilliy moliya-kredit munosabatlarini o‘z ichiga oladi va ularda xorijiy elementlar ishtirokini ifodalaydi.

Xalqaro moliyaning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

– taqsimlash funksiyasi;

– nazorat funksiyasi;

– takror ishlab chiqarish jarayoniga moliya yordamida xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining aralashuvi bilan bog‘liq tartibga solish funksiyasi;

– barqarorlashtirish funksiyasi. Mazkur funksiya jahon xo‘jaligi tizimida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar uchun barqaror sharoitni yaratishda namoyon bo‘ladi.

Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Jahon bozorlarining vujudga kelishi, ayniqsa tovar bozorlari;
2. Xalqaro mehnat taqsimoti;
3. Iqtisodiy aloqalarning baynalmilallashuvi va globallashuvi;
4. Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda integratsiya jarayonlarining kuchayishi;
5. Ilmiy-texnika taraqqiyoti;
6. Xalqaro moliya munosabatlarining ko‘p tomonlama tartibga solish tizimini takomillashtirilishi;
7. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning keskinlashuvi.

Xalqaro moliya jahon xo‘jaligining aniqlovchi tizimlaridan biri hisoblanib, milliy va jahon iqtisodiyotiga aniqlovchi ta’sir ko‘rsatadi.



1.1-rasm. **Xalqaro moliya munosabatlari va xalqaro qayta ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi**

Xalqaro moliya yaxlit tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi va uning elementlariga quyidagilar kiradi:

Jahon valyuta tizimi – milliy va zaxira valyutalar, xalqaro jamoaviy valyutalar, o‘zaro konvertirlash shartlari, valyuta pariteti, valyuta kursi, valyuta kurslarini tartibga solishning milliy va xalqaro mexanizmlaridan tashkil topgan.

Xalqaro hisob-kitoblar – moliyaviy instrumentlar, ishlab chiqarish omillari, tovarlar harakati, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni aks ettiruvchi to‘lov balansiga xizmat qiladi.

Xalqaro moliya bozorlari va muayyan moliyaviy instrumentlar savdosi mexenizmlari – valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar.

Xalqaro soliqqa tortish – pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish metodi sifatida.

TMKlarning xalqaro moliyaviy menejmenti, bunda transmilliy moliyalashtirish, risklarni boshqarish, xalqaro investitsiyalash jarayoni asosiy o‘ringa chiqadi.

1.2. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o‘rni

Jahon iqtisodiyotining tizim sifatidagi faoliyati tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan bog‘liq. Ushbu bog‘liqlik asosida xalqaro moliya munosabatlari yuzaga keladi.

Xalqaro moliya munosabatlari bu xalqaro moliya bozori ishtirokchisi bo‘lgan shaxsning qaroriga muvofiq tarzda o‘ziga tegishli bo‘lgan xorijiy valyutalarning harakat jarayonini tavsiflovchi fundamental iqtisodiy kategoriyadir.

1970- yillarda xalqaro moliya tizimida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va mazkur o‘zgarishlar ta’sirida zamonaviy jahon valyuta-moliya tizimi shakllana boshladi. Jahon moliya tizimidagi o‘zgarishlar va xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan trasmilliy korporatsiyalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular tomonidan butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish hamda barcha resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan global strategiya amalga oshirildi. Shuningdek, xalqaro moliya munosabatlari

rivojlanishida moliyaviy jihatdan barqaror hamda ko‘p sonli xorijiy filiallarga ega bo‘lgan transmilliy banklar muhim rol o‘ynadi.

Xalqaro kreditlashdan foydalanish xususiyatining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda xalqaro kredit bozori hajmi keskin ortib bordi. Uning oxirgi yo‘nalishi nafaqat xalqaro ayirboshlash sohasi, (mahsulotlar, xizmatlar va boshq.) balki ishlab chiqarish sohasi ham bo‘ldi. Bu holat, birmuncha yirik kreditlarni uzoq muddatlarga jalb etishni, shuningdek, moliya-kredit xizmatlari majmuasini rivojlantirishni talab etardi. 1970- yillarda xalqaro kreditni to‘lov balansining taqchilligini bevosita yoki bilvosita moliyalashtirish uchun foydalana boshladilar. Xususiy firmalar bilan bir qatorda yirik qarzdorlar sifatida hukumatlar, davlat tashkilotlari va korxonalar hamda xalqaro kredit tashkilotlari yuzaga keldi.

Ushbu davrda neft import qiluvchi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar to‘lov balanslari jami taqchilligining qariyb 60% xalqaro kapital bozorlari hisobiga moliyalashtirildi. Xalqaro kredit hajmining oshishi nafaqat yevrokreditlarning o‘sishi hisobiga, balki xorijiy kreditlash bozorlari kengayishi hisobiga ham sodir bo‘ldi. Yaponiya milliy valyutasi “iyena” hisobiga xorijiy kreditlar bozori hajmining oshishi natijasida Tokioda iyenadagi xorijiy obligatsiyalar emissiyasi hajmi keskin ortdi. Mazkur holat natijasida Yaponiya iyenasi yevrovalyuta bozorida keng qo‘llanila boshlandi.

1970- yillarda xalqaro kapital bozori kengayishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatdi va natijada xalqaro resurslar aylanishi va likvidligi oshib bordi. Ushbu davrda jahon iqtisodiyoti ikkita neft inqirozini boshdan kechirdi va neft narxining birdaniga keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Mazkur holat natijasida neft eksport qiluvchi mamlakatlarda yirik valyuta ortiqchaligi, neft import qiluvchilarda esa, jumladan ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda joriy hisoblar bo‘yicha taqchillik yuzaga keldi. Bu taqchillik asosan retsipient-mamlakatlarga xalqaro banklar, yevroobligatsiyalar bozori orqali tushgan neftedollarlar hisobiga qoplandi.

Jahon iqtisodiyotida ro‘y bergan boshqa muhim o‘zgarishlar ham xaqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga ijobiy va salbiy jihatdan

sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu o‘zgarishlar jumlasiga, jahon va hududiy valyuta tizimlaridagi o‘zgarishlar, valyuta tizimi tamoyillarining o‘zgarishi, qarzdorlik inqirozlari, mamlakatlar tomonidan iqtisodiy integratsion birlashmalarning tuzilishi, xalqaro va mintaqaviy moliya tashkilotlarining vujudga kelishi, transmilliy korporatsiya va banklar faoliyatining kengayishi, jahonda ro‘y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni kiritish mumkin.

Xalqaro moliyaning barcha tashkiliy elementlari jahon moliyaviy muhitida birlashadi.

Jahon moliyaviy muhiti – investorlar va korporatsiyalar moliyasi, banklar boshqaruvchilari qabul qiluvchi qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi hamda jahon moliya bozori o‘sishi sharoitini aniqlaydi.



1.2-rasm. **Xalqaro moliyaning tuzilmasi**

Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari sifatida quyidagilar ishtirok etadi: davlat, korxona, tashkilotlar, firmalar hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, birjalar, jismoniy shaxslar. Xalqaro moliya munosabatlari turli mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasida, davlat va boshqa mamlakatlar hukumatlari hamda xalqaro tashkilotlar o‘rtasida, davlat va korxonalar bilan xalqaro moliya institutlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin.

Davlat xalqaro moliya sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy subyekt hisoblanadi.

Markaziy banklar – bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish organlari bo‘lib, ularga monopol tarzda banknotalar chiqarish, pul muomalasi, kredit va valyuta kursini tartibga solish, valyuta zaxiralarini saqlash vazifalari biriktirilgan.

Xalqaro tashkilotlar – ular xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan bo‘lib, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi organlarga ega bo‘lgan holda jahon xo‘jaligi birliklarining iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga yordamlashish vazifalarini bajaradi.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari – jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish uchun davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan iqtisodiy tashkilotlardir.

Xalqaro moliyaning rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar kabi subyektlar faol rol o‘ynaydi.

1.3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanish evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo‘jaligining shakllanishi jarayonida alohida o‘rin tutadi.

Xalqaro moliya munosabatlari asta-sekin jahon xo‘jaligining tarkibiy elementiga aylana bordi. Hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlarini jahon xo‘jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin.

Jahon xo‘jaligi – bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o‘zaro bog‘liq milliy iqtisodiyotlar yig‘indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir.

Jahon xo‘jaligining barqaror rivojlanishida alohida olingan milliy iqtisodiyotlar holati muhim o‘rin tutadi. Chunki, milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy subyekti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida uning tashqi dunyo bilan aloqalari holati, mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining kuchayishida xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini samarali tarzda tashkil etish bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta’kidlash joizki, xalqaro moliya munosabatlarining predmeti ikkita muhim tarkibiy qismni o‘ziga qamrab oladi, ya’ni xalqaro moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirish mexanizmi. Ma’lumki, mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro moliya munosabatlari muayyan mexanizm orqali amalga oshiriladi, bunda xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me’yoriy normalar, davlatlararo darajadagi shartnoma va bitimlar, mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro qabul qilingan kelishuvlarga amal qilinadi.

Xalqaro moliya munosabatlari mexanizmiga huquqiy normalar va ularni amalga oshirish vositalari (shartnomalar, kelishuvlar, bitimlar, rezolyutsiya va konventsiya) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan yo‘l-yo‘riqlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi xalqaro moliya tashkilotlari kiradi.

Xalqaro moliya munosabatlari jahon xo‘jaligi tizimida tez-tez takrorlanib turuvchi turli xil darajadagi kompleks, alohida olingan bir mamlakat va ularning hududiy birlashmalari va subyektlari, alohida tashkilotlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro moliya munosabatlari tuzilmaviy jihatdan quyidagilarni o‘rganishni taqozo etadi:

- xalqaro valyuta munosabatlari;
- xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlar;
- xalqaro savdo munosabatlari;
- investitsiyalar va kapitalning xalqaro harakati;
- mamlakatlar to‘lov balanslarini boshqarish;
- xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- xalqaro moliya tashkilotlari faoliyati va boshq.

Xalqaro moliya munosabatlarining obyektiv asosini xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jaligi hamda undagi iqtisodiy aloqalar

tizimi tashkil qiladi. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi milliy iqtisodiyotlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan global iqtisodiy tizim bo‘lib, bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga, xalqaro mehnat taqsimotiga, ishlab chiqarish va kapitalning xalqaro harakatiga muvofiq tarzda o‘zgarib boradi.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta’siri quyidagi muhim xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi:

- Moliyaviy globallashuv jarayoni. Mazkur jarayon quyidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

– mamlakatlarni jahon iqtisodiyotidagi jarayonlarga jalb etish;

– ishchi kuchi, texnologiya, kapital, mahsulotlar va xizmatlarning global bozorlarini barpo etish;

– jahon xo‘jalik aloqalarining global infratuzilmasini yaratish;

– xalqaro moliya munosabatlari bilan milliy iqtisodiyotning qoidalarini universallashtirish;

– yirik ishlab chiqarishga asoslangan xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish.

- Iqtisodiy integratsion hudud va birlashmalarning tashkil topishi. Milliy iqtisodiyotlarning xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan holda iqtisodiy jihatdan birlashish jarayoni hisoblanadi.

- Xalqaro moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar. Milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan moliya institutlarining jahon moliya bozorlaridagi ishtirokini muvofiqlashtirib boradi.

- Global raqobatlashuv jarayonining keskinlashuvi. Ushbu holat, milliy iqtisodiyotlar tomonidan jahon bozorlarida o‘rin egallash uchun yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida vujudga keladi.

- Transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar rolining ortib borishi. Bu holat, jahon iqtisodiyotida transmilliylashish jarayoni kuchayishi, ya’ni, alohida mamlakatlarga yoki bir nechta mamlakatlarga tegishli xalqaro kompaniyalar va banklar faoliyatining rivojlanishi, ular tomonidan xorijiy filiallarning kengaytirilishi orqali yuzaga keldi.

- Mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi. Mazkur holat, milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo uchun ochiqlik

darajasi orqali ifodalanadi. Bunda, xalqaro moliya munosabatlarining ishtirokchilari uchun muayyan shart-sharoitlarning yaratilishi, xususan, xalqaro savdoda bojlarning pasaytirilishi, xorijiy investorlarni keng jalb etishga qaratilgan qulay investitsiya muhitining yaratilishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi kabi tadbirlar amalga oshirilishi muhim o‘rin tutadi.

- Tashqi iqtisodiy aloqalarning xalqaro me’yoriy-huquqiy bazasini qabul etilishi.
- Mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni xalqaro jihatdan tartibga solish va nazorat qilish tizimini tashkil qilinishi.

Alohida olingan milliy iqtisodiyotning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini bir necha miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan tavsiflash mumkin:

– eksport kvotasining miqdori, bunda eksport hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

– import kvotasining miqdori, bunda import hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

– tashqi savdo kvotasining miqdori, bunda tashqi savdo aylanmasi hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkichlarni hisoblash asosida mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini baholash mumkin.

Jahon iqtisodiyotida ro‘y bergan o‘zgarishlar xalqaro moliya munosabatlarining istiqbolda rivojlanish tendensiyalarini belgilab berdi:

– xalqaro moliya munosabatlari sohasida ikki tomonlama munosabatlardan ko‘p tomonlama munosabatlarga o‘tish;

– jahon xo‘jaligida xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

– xalqaro savdo munosabatlarining an’anaviy tovarlar savdosidan milliy ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita xizmat ko‘rsatish vositasiga aylanib borishi;

– kapital migratsiyasining globallashuvi;

– hududiy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yanada kengayishi va jadallashuvi.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida kapitalning xalqaro harakati, ayniqsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar shaklida u yoki

bu mamlakatga kirib borishi, shuningdek, xalqaro savdoning mahsulotlar, turli xizmatlar ko‘rsatish, texnologiyalar sohasidagi rivoji ijobiy omil sifatida ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon savdosining o‘sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, xalqaro kapital harakatining rivoji, chegaralararo tovarlar, xizmatlar hamda ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishiga, shuningdek, jahon moliya bozorlarining taraqqiy etishiga hamda transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishiga, xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jabhalarini jadallashuviga imkon yaratdi.

Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro moliyaning vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– milliy iqtisodiyotlarning yagona xalqaro tizimga integratsiyalashuvini ta’minlash;

– xalqaro savdo hamda tovarlar, xizmatlar va kapital ayirboshlashning oqilona harakatini tashkil etish;

– milliy iqtisodiyotlarni xalqaro iqtisodiy va moliyaviy o‘zgarishlarga moslashtirish;

– mamlakatlarning milliy moliyaviy siyosatini yuritishida tavsiyalar berish.

Xalqaro moliya munosabatlari tarkibiga xalqaro aylanmaga kelib tushgan va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda, ya’ni rezidentlarning tashqi dunyo bilan yuzaga keladigan munosabatlarida qo‘llaniladigan moliyaviy munosabatlar tizimi kiritiladi. Xalqaro moliya quyidagilarga xizmat qiladi:

birinchidan, turli mamlakat rezidentlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga va o‘zaro hamkorlikka;

ikkinchidan, jahon mamlakatlarining turli xil moliyaviy institutlar bilan yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlariga;

uchinchidan, turli mamlakatlar rezidentlarining xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalarini tashkil etishga.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida xalqaro moliya munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Bunda, avvalo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlarining taraqqiy etishi alohida o‘rin

tutmoqda. Ushbu holat o‘z navbatida xalqaro valyuta munosabatlari va xalqaro hisob-kitoblarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

To‘lov balansi, xalqaro moliya tizimi, transmilliy korporatsiyalar, portfel investorlar, eksport, import, fond birjalari, yevrokreditlar, valyuta kursi, iqtisodiy integratsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro moliya munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro moliyaning asosiy funksiyalarini izohlang?
3. Xalqaro moliya munosabatlari shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar nimalardan iborat?
4. Xalqaro moliyaning elementlarini izohlang?
5. Jahon moliyaviy muhiti nima?
6. Xalqaro moliya tizimining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
7. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlarini sanab o‘ting?
8. Xalqaro moliya munosabatlari mexanizmiga nimalar kiradi?
9. Xalqaro moliya munosabatlari tuzilmaviy jihatdan nimalarni o‘rganadi?
10. Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga xos bo‘lgan tendensiyalarni izohlang?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro moliyaning mohiyatini izohlovchi asosiy tushunchalardan “klaster” tuzing.
2. O‘zbekistonning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni baholang.
3. Jahon iqtisodiyotining o‘sish sur’atlarini o‘rganing.
4. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro moliya – bu:

a) tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

b) xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

d) faqatgina milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

e) korxonalardagi ichki moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.

2. Globallashuv jarayoni – bu

a) milliy iqtisodiyotlarni jahon xo‘jaligidagi o‘zgarishlardan himoyalashga zamin yaratadi;

b) xalqaro moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishini chegaralaydi;

d) jahon savdosining o‘sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, kapitalning xalqaro oqimini rivojlanishi, xizmatlar va mahsulotlarning xalqaro harakati xalqaro moliyaning rivojlanishiga zamin yaratadi;

e) xalqaro savdo munosabatlari rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

3. Xalqaro moliyaning funksiyalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) taqsimlash, nazorat, tartibga solish va barqarorlashtirish;

b) taqsimlash, nazorat, rag‘batlantirish;

d) taqsimlash, nazorat, tartibga solish;

e) taqsimlash, nazorat, likvidlikni ta’minlash.

4. Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) davlat, korxona, tashkilotlar, firmalar hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, birjalar, jismoniy shaxslar;

b) xalqaro tashkilotlar, transmilliy banklar, birjalar, soliq organlari;

d) Markaziy bank, Moliya vazirligi, korxona va tashkilotlar;

e) investitsiya fonlari, moliya-sanoat guruhlari, byudjet tashkilotlari.

5. Eksport kvotasi ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

a) import hajmining YaIMga nisbati orqali;

b) eksport hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi;

d) eksport hajmining o‘sish sur’atlari orqali;

e) jami sanoat ishlab chiqarishida eksportning ulushini aniqlash orqali.

6. Jahon xo‘jaligi – bu

a) bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o‘zaro bog‘liq milliy iqtisodiyotlar yig‘indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir;

b) alohida mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarini tartibga solishning global tizimi;

d) jahon iqtisodiyoti rivojlanishini ta’minlovchi munosabatlar majmuasi;

e) jahon iqtisodiyotidagi mavjud moliyaviy munosabatlar tizimi.

7. Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

a) moliyaviy globallashuv, iqtisodiy integratsiya, xalqaro mehnat taqsimoti, jahon bozorlarining vujudga kelishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti;

b) moliyaviy globallashuv, iqtisodiy integratsiya, xalqaro mehnat taqsimoti, proteksionizm;

d) moliyaviy globallashuv, iqtisodiy integratsiya, jahon bozorlarining vujudga kelishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, demping siyosati, yuqori bojlarning o‘rnatilishi;

e) moliyaviy globallashuv, iqtisodiy integratsiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti, valyutaviy cheklovlarning o‘rnatilishi.

2-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI

2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tushunchasining mohiyati va uning asosiy jihatlari

2.2. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari, omillari va rivojlanish bosqichlari

2.3. Globallashuvning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri

2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tushunchasining mohiyati va uning asosiy jihatlari

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon iqtisodiyotida yangi termin globallashuv degan tushuncha paydo bo‘lgan edi. Ushbu jarayon hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan alohida ilmiy muammo sifatida tadqiq etilmoqda.

Globallashuv jarayonining rivojlanishi natijasida butun dunyo yagona global tizimga aylanishi sodir bo‘ladi. Globallashuv jarayoni 1990- yillardan boshlab juda dolzarb masalaga aylandi, biroq mazkur jarayonning turli xil jihatlari ilmiy tadqiqotlarda 1960–1970- yillardan boshlab jiddiy muhokama qilina boshlagan edi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – bu, dunyo maydonini yagona hududga aylanishini anglatadi va bunda tovar va xizmatlar, kapital, axborotlar oqimining erkin harakati yuzaga keladi. Shuningdek, mazkur jarayon natijasida zamonaviy institutlar rivojlanishini rag‘batlantiruvchi g‘oyalarning tarqalishi va ularni tashuvchilarning erkin harakatlanishiga imkon yaratiladi.

Globallashuv jarayoni zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim tendensiyalaridan hisoblanadi. Chunki ushbu jarayon jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan boshqa tendensiyalar kuchsiz namoyon bo‘layotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham kuzatilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyat qismi transmilliylashish, integratsiyalashish va industriallashish jarayonlarnga kam jalb etilgan. Shu bilan bir vaqtda ushbu mamlakatlar jahon tovarlar, xizmatlar,

kapital (asosan iqtisodiy yordam ko‘rinishida), ishchi kuchi (eksporterlar sifatida) va texnologiyalar bozorining faol ishtirokchilari sanaladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli ishlab chiqarish soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo‘jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni unga teskari jarayon iqtisodiy faoliyatning hududiy integratsiyalashuv jarayoni bilan birga kechmoqda. Ushbu jarayon cheklangan miqyosda, tovarlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatiga asoslangan mamlakatlar guruhini qamrab oladi.

Hududiy integratsiyalashuv, bir tomondan, turli mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan birlashish jarayonini rag‘batlantirsa, ikkinchi tomondan, alohida iqtisodiy guruhlar o‘rtasida qarama-qarshilik va raqobatni kuchaytirish orqali jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini sekinlashtiradi.

Globallashuv jarayonining quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

– moliyaviy markazlashuvning kuchayishi;

– iqtisodiyotda axborotlar ahamiyatining oshishi. Shuningdek, axborot almashinuv darajasining keskin sur’atlarda kuchayishi;

– global oligopoliyaning to‘xtovsiz kengayishi;

– transmilliy korporatsiyalar sonining ortishi;

– iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va rivojlanishi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining quyidagi asosiy sohalari bo‘yicha keng rivojlanmoqda:

– tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk obyektlarining xalqaro savdosi;

– ishlab chiqarish omillarning xalqaro harakati;

– xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalari;

– ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborotlar sohasidagi hamkorlik.



2.1-rasm. **Jahon iqtisodiyoti globallashuvi**

Iqtisodchi olimlar fikriga ko‘ra jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni quyidagi holatlarni o‘z ichiga oladi:

– mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtiradi;

– xo‘jalik yuritishni to‘liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotini ochiqligini ta’minlaydi;

– istalgan bozorlarga barcha ishtirokchilarning qarshiliksiz kirishini ta’minlaydi;

– moliyaviy va savdo operatsiyalarni amalga oshirishga tegishli tartiblarni universallashtiradi;

– bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me’yorga keltiradi, ya’ni unifikatsiya qiladi;

– kapitalni joylashtirish, investitsion jarayonlar va umumjahon to‘lov- hisob tizimiga qo‘yilgan talablarni standartlashtiradi.

2.2. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari, omillari va rivojlanish bosqichlari

Globallashuv tushunchasi yagona xalqaro iqtisodiy, huquqiy va madaniy-axborot makonini shakllanishini anglatadi. Globallashuv jarayoni iqtisodiy doiradan chiqqan holda jamiyat hayotining barcha asosiy sohalariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon XX oxiri XXI asr boshida jahon iqtisodiyotida alohida rol o‘ynab, xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi tizimini shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Birinchidan, globallashuv mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy masofani qisqartiruvchi aloqa vositalari va transport sohasida ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashuvini, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvini hamda dunyo rivojlanishining obyektiv omillarini yuzaga keltiradi. Bu holat, dunyoning istalgan nuqtasidan zarur axborotni xohlagan vaqtda olish va tezda qaror qabul qilishga imkon beradi, telekommunikatsiyaning zamonaviy tizimlari kapitalni xalqaro investitsiyalashni amalga oshirishni yengillashtiradi. Dunyoning axborot integratsiyalashuvi sharoitlarida xo‘jalik yuritishning xorijiy tajribasini o‘zlashtirish va texnologiyalarni o‘tkazish birmuncha tezlashadi.

Globallashuvning ikkinchi manbasi – proteksionizm siyosatini cheklashga sabab bo‘luvchi va jahon savdosini erkinlashtiruvchi savdoning liberallashuvi hamda iqtisodiy liberizatsiyaning boshqa shakllaridir. Buning natijasida turli xil savdo tariflari jiddiy ravishda pasaydi, tovarlar va xizmatlar savdosidagi boshqa ko‘plab to‘siqlar bartaraf etildi. Boshqa liberizatsiya tadbirlari ishlab chiqarishning qolgan omillari va kapital harakati kuchayishiga olib keldi.

Baynalmilallashuv jarayonining uchinchi manbasi va globallashuvning asosiy manbalaridan biri transmilliylashuv hodisasi bo‘ldi. Ushbu holatda transmilliy kompaniyalar yetakchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi va ular bir vaqtning o‘zida baynalmilallashuv jarayonining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni barcha mamlakatlar iqtisodiyotida kuzatilmoqda. Ushbu jarayon mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar

ko‘rsatish, ishchi kuchlaridan foydalanish, investitsiya va texnologiyalarni bir mamlakatdan boshqalariga tarqalishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi pirovardida ishlab chiqarishning samaradorligi, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikning oshishida namoyon bo‘ladi. Aynan globallashuv jarayoni xalqaro raqobatlashuvni kuchayishiga olib keldi.



2.2-rasm. **Globallashuv jarayonining asosiy manbalari**

Zamonaviy transmilliy korporatsiyalar, oldingi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan TMKlardan farqli ravishda, asosan axborot va moliyaviy bozorlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur bozorlarning global miqyosda birlashuvi sodir bo‘lmoqda va natijada yagona jahon moliyaviy-axborot makoni shakllanmoqda. Bunga muvofiq tarzda TMKlarning va ular bilan chambarchas aloqador bo‘lgan milliy iqtisodiy tuzilmalar hamda tashkilotlarning roli oshib bormoqda.

Hozirgi paytda yangi texnologiyalarning 80% TMKlar tomonidan yaratilmoqda, ayrim holatlarda ularning daromadlari ayrim yirik mamlakatlarning yalpi milliy daromadidan oshib ketmoqda. Aytish joizki, dunyoning 100 ta yirik iqtisodiyoti ro‘yhatida 51 ta o‘rinni TMKlar egallagan. Ular faoliyatining muhim qismi gipertexnologiyalarni (yoki metatexnologiyalar) ishlab chiqish bilan bog‘liq. Bular jumlasiga, yangi kompyuterlar avlodi, kompyuter dasturlari, ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologiyalarni va boshqalarni kiritish mumkin.

Globallashuv jarayonining yana bir muhim jihati texnologik innovatsiyalar rivojlanishiga tegishli bo‘lib, yangi texnologiyalar globallashuvni harakatga keltiruvchi kuch bo‘lishi bilan birgalikda xalqaro raqobatlashuvni kuchaytirgan holda uning rivojlanishini va mamlakatlar o‘rtasida tarqalishini rag‘batlantiradi.

Globallashuvning to‘rtinchi manbasi sifatida erkin savdo tizimini va bozor iqtisodiyotini baholashda global hamfikrlikka erishishni keltirish mumkin.

Aytish joizki, jahon iqtisodiyoti globallashuvining yana bir muhim xususiyati, XX asrning oxirgi yillarida moliya bozorlarining jadal rivojlanishida namoyon bo‘ldi. Moliya bozorlarining (valyuta, fond, kredit va boshq.) yangi roli keyingi yillarda jahon iqtisodiyoti arxitekturasini keskin o‘zgartirdi. Bir necha o‘n yillar ilgari moliya bozorlarining asosiy maqsadi iqtisodiyotning real sektori faoliyatini ta’minlashdan iborat edi. Hozirgi davrda esa, jahon moliya bozoridagi o‘zgarishlar butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Moliyaviy globallashuv jarayoni ayniqsa jahon iqtisodiyotining uchta asosiy markazlarida kuchaygan bo‘lib, ularga AQSh, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya kiradi. Moliyaviy spekulyatsiya operatsiyalari ham aynan mazkur uchtalik chegaralaridan tashqi dunyoga tarqaladi. Valyuta bozorining global aylanmasi bir kun davomida 1-1,5 trln. AQSh dollariga yetadi.

2.1-jadval

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining bosqichlari

Bosqichlar	**Bosqichlarning xususiyatlari**
I-bosqich. 1870–1920-yillar	**Xomashyo manbalarining egallanishi** Tabiiy resurslarning kapital va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni eksport qiluvchi mamlakatlar nazorati ostidagi hududlarda ishlatilishi.
II-bosqich. 1920–1970-yillar	**Yangi bozorlarning vujudga kelishi va egallanishi** Xorijiy investitsiyalarni tayyor mahsulotlar eksportiga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarga safarbar etilishi.
III-bosqich. 1970- yildan hozirgi davrgacha	Sanoati rivojlangan mamlakatlarda tabiiy resurslarga egalik qilishdan tashqari quyidagi maqsadlarning yuzaga kelishi: – investitsiyalar tarkibini samarali taqsimlash; – global yoki hududiy iqtisodiy integratsiya afzalliklaridan foydalanish; – qo‘shimcha texnologik, tashkiliy yoki bozor imkoniyatlariga ega bo‘lish; – global raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash.

Globallashuv jarayonini rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologik omillar:

– ishlab chiqarish ko‘lamining keskin kuchayishi;

– ishlab chiqarishning yangi texnologik usullariga – yuqori, ilmiy sig‘imli texnologiyalarga o‘tish;

– mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlari harakatidagi to‘siqlarga barham berilishi;

– mahsulotlar va xizmatlarni tezlik bilan tarqatishni ta’minlovchi transport va aloqaning sifatli tizimi yaratiladi;

– ilmiy va intellektual bilimlarni almashishning samarali tizimi vujudga keladi.

2. Tashkiliy omillar:

– ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning xalqaro shakli sifatida transmilliy korporatsiyalarning yuzaga kelishi;

– nohukumat tashkilotlarining ko‘p millatli yoki jahon darajasiga chiqishi;

– ko‘p millatli kompaniyalar va boshqa tashkilotlarning global iqtisodiyotda asosiy rol o‘ynovchi xususiy yoki davlat tashkiloti sifatida o‘zgarishi.

3. Iqtisodiy omillar:

– kapital bozori, mahsulotlar va xizmatlar savdosining erkinlashuvi hamda jahon savdosini erkinlashtiruvchi va proteksionizm siyosatini cheklovchi iqtisodiy erkinlashuvning boshqa shakllarini keng joriy etilishi;

– kapital to‘planishi va markazlashuvining kuchayishi, hosila moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq operatsiyalarning oshishi, valyutaviy bitimlarni amalga oshirish vaqtining keskin qisqarishi;

– xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlarini joriy etilishi va boshqa iqtisodiy siyosatga oid talablarning bir xillashtirilishi;

– standartlashtirish tendensiyasining kuchaytirilishi. Barcha mamlakatlar tomonidan texnologiya, ekologiya va moliyaviy tashkilotlar faoliyatida, shuningdek, buxgalteriya va statistik hisobotlar tizimida yagona standartlardan foydalanishning keng joriy etilishi.

4. Axborot omillari:

– moliyaviy, iqtisodiy ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarishga oid ma’lumotlarni almashinish tizimining tubdan o‘zgarishi. Ma’lumotlarni

taqdim etish, qabul qilish va qayta ishlashning mutlaqo yangi tizimlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi nou-xau va professional xizmatlarni o‘z ichiga olgan moliyaviy va mahsulot bozorlarini birlashtiruvchi global tarmoqni yaratishga yordam berishi;

– bitta markaz orqali turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarishlarni boshqarishga imkon beruvchi tizimning shakllanishi;

– mahsulotlarni realizatsiya qilishning yangi shakllari vujudga kelishi.

Yuqoridagi qayd etilgan omillar ta’siri natijasida globallashuv jarayoni kuchaygan holda jahon iqtisodiyotining barcha soha va bo‘g‘inlarini egallab boradi.

2.3. Globallashuvning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri

Jahon iqtisodiyotida zamonaviy globallashuv jarayonlari eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi iqtisodiy past rivojlangan mavqeini salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globallashuv jarayonini subyektlariga emas, balki obyektlariga aylantirishi mumkin. Demak, globallashuv jarayonining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sirining darajasi ushbu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rniga bog‘liqdir.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv darajasini quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida ifodalash mumkin:

– xalqaro tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi hamda uning o‘sish sur’atlari;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va dinamikasi;

– kapitalning xalqaro markazlashuvi hajmi va dinamikasi;

– yirik, murakkab xalqaro investitsiya loyihalari (loyihaviy moliyalashtirish) hajmi va dinamikasini mazkur loyihalarning umumiy ko‘rsatkichiga (ham ichki, ham tashqi) nisbati;

– tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi hajmi va dinamikasini yalpi milliy mahsulotga nisbati;

– patentlar, litsenziyalar, nou-xau bilan bog‘liq xalqaro operatsiyalar miqyosi;

– bank va boshqa kredit muassasalarining xalqaro operatsiyalar hajmi va dinamikasini ularning umumiy faoliyati hajmi va dinamikasi hajmiga nisbati;

– xalqaro fond bozorlari hajmi va dinamikasi;

– valyuta bozorlari hajmi va dinamikasi.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsion birlashmalarning iqtisodiy faolligini oshirib, savdo va investitsiya munosabatlaridagi to‘siqlarni bartaraf etgan holda erkin savdo hududlarini tashkil etish asosida yuzaga keladi.

Globallashuv jarayonlari davlatlararo xo‘jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o‘zaro kelishuvlarni qamrab oladi.

Bundan tashqari globallashuv jarayoni dunyoning yirik mintaqalarida xo‘jalik yuritishning bozor tizimini maqsadli shakllantirishga qaratilgan davlatlararo muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida yuzaga keladi. Ko‘pgina yirik transmilliy korporatsiyalar global miqyosda harakat qiladi va shu jihatdan transmilliy korporatsiyalar globallashuv jarayonining subyekti bo‘lib, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

Globallashuv jarayonining afzalliklari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– globallashuv xalqaro raqobatning kuchayishini yuzaga keltirdi. Bozorlarning kengayishi va undagi raqobat jarayonining kuchayishi nafaqat milliy darajada, balki jahon miqyosida ishlab chiqarishning o‘sishini rag‘batlantiruvchi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga hamda ixtisoslashishiga olib keladi.

– ishlab chiqarish tarmoqlarida tejamkorlikning ortishi. Bu holat, narxlarni pasayishi va xarajatlarni qisqarishiga, pirovardida barqaror iqtisodiy o‘sishga olib kelishi mumkin.

– globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri – erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi;

– xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy-texnik, texnologik yangiliklarini amaliyotga tatbiq etish natijasida iqtisodiy barqarorlikka erishilishi;

– globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo‘shiladi va natijada narxlarni pasaytirish va yuqori sifatli mahsulotlarni tanlash imkoniyatini beradi;

– globallashuv jarayoni xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy-texnik, texnologik va nisbatan kam xarajat talab qiladigan yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini beradi. Bunda jahon miqyosidagi innovatsiyalarni amaliyotga uzluksiz tatbiq etilishiga imkon yaratiladi.

Globallashuv jarayonining salbiy oqibatlarini yuzaga keltiruvchi muammolar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– globallashuv afzalliklarining milliy iqtisodiyotlar alohida tarmoqlari o‘rtasida bir xil taqsimlanmasligi;

– milliy iqtisodiyotda sanoatlashishning sekinlashuvi;

– ayrim mamlakatlarda milliy iqtisodiyotni nazorat qilish jarayoni mustaqil hukumatdan boshqalarga, jumladan kuchliroq davlatlarga yoki transmilliy korporatsiyalar ixtiyoriga o‘tishi;

– jahon miqyosida milliy iqtisodiyotlarning o‘zaro bog‘liqligi tufayli global beqarorlikning yoki mintaqaviy darajada moliyaviy sohadagi beqarorlikning yuzaga kelishi. Milliy iqtisodiyotlarda yuzaga keluvchi iqtisodiy turg‘unliklar yoki inqirozlarning mintaqaviy hatto global darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi;

– globallashuv milliy va jahon iqtisodiy rivojlanishining beqarorligi va notekisligini kuchaytiradi. Ushbu holat milliy xo‘jalik majmualarining global bozor sharoitlarida samarali faoliyat yurita olmaydigan eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish bo‘g‘inlariga bo‘linishi bilan bog‘liq;

– globallashuv davlatning makroiqtisodiy darajada tartibga solish rolini sezilarli darajada cheklaydi va davlatning ichki, tashqi iqtisodiy

aloqalarga ta’sir ko‘rsatishining an’anaviy dastaklarini o‘zgartirib yuboradi;

– globallashuv ishlab chiqarish va iste’molda salbiy tashqi omillarning ommaviy tarqalishiga olib keladi. TMKlarning global jahon bozorlariga chiqishi va globallashuv jarayonidan foyda olishga intilishi borasidagi kuchli raqobat ularning atrof-muhitni ifloslantiruvchi ishlab chiqarish yoki sog‘liq uchun zararli transgen mahsulotlarni yaratish kabi jamiyat uchun zararli faoliyat bilan shug‘ullanishlariga olib keladi.

Globallashuv jarayoni mamlakatlar uchun yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana ko‘plab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan:

– rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik jarayon ortda qolishining kuchayishi;

– ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlarga ajralishning ortishi, marginalizatsiya xatari (jahon darajasidagi iqtisodiy o‘sishdan qolib ketishning kuchayishi);

– aholining asosiy qismida qashshoqlashuvning ortishi;

– moliyaviy barqarorlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchayishi;

– TMKlar tomonidan mamlakatlarda milliy iqtisodiy siyosatni yuritishga to‘sqinlik qilinishi;

– kelajakdagi taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi tashqi qarz darajasining o‘sishi va boshq.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida ta’kidlash mumkinki, globallashuv – bu obyektiv, murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, uning asosini jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynalmilallashuv jarayonlari tashkil etadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Globallashuv, global oligopoliya, baynalmilallashuv, nou-xau, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro savdo, xalqaro migratsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuv tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari nimalardan iborat?
3. Globallashuv jarayoni rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining bosqichlarini izohlang?
5. Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat?
6. Jahon iqtisodiyotining globallashuv darajasini qanday ko‘rsatkichlar yordamida ifodalash mumkin?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Globallashuv jarayoni mohiyatini izohlovchi asosiy tushunchalardan “klaster” tuzing.
2. Jahon iqtisodiyoti globallashuviga xos bo‘lgan tendensiyalarni o‘rganing.
3. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi –

a) barcha mamlakatlar tomonidan milliy iqtisodiyotni himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishini anglatadi;

b) dunyo maydonini yagona hududga aylanishini anglatadi va bunda tovar va xizmatlar, kapital, axborotlar oqimining erkin harakati yuzaga keladi;

d) faqatgina milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

e) jahon miqyosida tovarlar, xizmatlar va kapital harakatining erkinligini chegaralashga qaratilgan tadbirlar tizimini anglatadi.

2. Jahon iqtisodiyotining globallashuv darajasini qanday ko‘rsatkichlar yordamida ifodalash mumkin:

a) korxonalardagi moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasi orqali.

b) xalqaro tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, kapitalning xalqaro markazlashuvi hajmi, xalqaro fond bozorlari hajmi, energetika resurslari ishlab chiqarish hajmi va dinamikasi orqali;

d) xalqaro tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, kapitalning xalqaro markazlashuvi hajmi, xalqaro fond bozorlari hajmi, valyuta bozorlari hajmi va dinamikasi orqali;

e) mamlakatlardagi tijorat banklari kapitali hajmi va dinamikasi orqali.

3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining bosqichlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

a) I-bosqich 1870–1920- yillar, II-bosqich 1920–1970- yillar, III-bosqich 1970- yildan hozirgi davrgacha;

b) I-bosqich 1910–1920- yillar, II-bosqich 1925–1975- yillar, III-bosqich 1975- yildan hozirgi davrgacha;

d) I-bosqich 1890–1920- yillar, II-bosqich 1945–1970- yillar, III-bosqich 1970- yildan hozirgi davrgacha;

e) I-bosqich 1890–1920- yillar, II-bosqich 1945–1960- yillar, III-bosqich 1960–1975- yillar, IV bosqich 1975- yildan hozirgi davrgacha**.**

4. Globallashuv jarayonini rivojlantiruvchi asosiy omillar qaysi qatorda to‘liq va to‘g‘ri keltirilgan:

a) ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologik omillar, savdo omillari;

b) ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologik omillar, tashkiliy omillar, iqtisodiy omillar, axborot omillari;

d) ishlab chiqarish, iqtisodiy omillar, axborot omillari, ichki omillar;

e) tashqi omillar, savdo omillari, investitsion omillar, bevosita va bilvosita omillar.

5. Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv –

a) davlatlar va integratsion birlashmalarning iqtisodiy faolligini oshirib, savdo va investitsiya munosabatlaridagi to‘siqlarni bartaraf etgan holda erkin savdo hududlarini tashkil etish asosida yuzaga keladi;

b) davlatlar va integratsion birlashmalarning iqtisodiy faolligini pasaytirib, savdo va investitsiya munosabatlaridagi to‘siqlarni yuzaga keltirish asosida namoyon bo‘ladi;

d) milliy iqtisodiyotlarning ichki xo‘jalik munosabatlarida sodir bo‘ladi;

e) xalqaro tashkilotlar faoliyatini kuchaytirib, ularning jahon xo‘jaligini nazorat qilish funksiyasida namoyon bo‘ladi.

3-BOB. JAHON MOLIYAVIY ARXITEKTURASI VA XALQARO MOLIYA TIZIMI

3.1. Jahon moliyaviy arxitekturasining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi

3.2. Xalqaro moliya tizimining mohiyati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari

3.3. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlari

3.1. Jahon moliyaviy arxitekturasining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi

Globallashuvning jiddiy oqibatlaridan biri bo‘lib xalqaro moliya tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi hamda uning moliyaviy arxitekturasini shakllantiruvchi sifat jihatidan yangi xalqaro moliya-kredit munosabatlarini shakllantirish hisoblanadi. Xalqaro moliya-kredit munosabatlarini shakllantirish, global, mintaqaviy hamda milliy darajalarda moliyaviy munosabatlarni samarali boshqarishning yagona majmui sifatida xalqaro moliya tizimi namoyon bo‘ladi. Mazkur tizim doirasida jahon mamlakatlarining va mamlakatlar bilan xalqaro moliya tashkilotlarining o‘zaro moliyaviy munosabatlari amalga oshiriladi. Shu boisdan, xalqaro moliya tizimi va undagi munosabatlarning barqarorligi jahon iqtisodiyoti rivojida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy xalqaro moliya tizimini rivojlantirishning institutsional xususiyatlari iqtisodiy o‘sish va tuzilmaviy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligini, xalqaro moliya tizimi rivojlanishining tayanch elementlari va tamoyillarini hamda asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

U yoki bu tizimning institutsional tuzilmasi, birinchi navbatda, unga qo‘yilgan maqsadlarga qanchalik mos kelishi; ikkinchidan, ushbu tizim doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishning qanchalik samarali ekanligi; uchinchidan, tizim doirasida moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning uzluksizligini ta’minlash va ularni tartibga solish darajasi bilan belgilanadi.

Xalqaro moliya tizimining institutsional tuzilmasi uning arxitekturasi bilan belgilanadi.

Jahon moliyaviy arxitekturasi deganda doimiy rivojlanish jarayonida bo‘lgan xalqaro moliya tizimining institutsional tuzilmasi tushuniladi.

Jahon moliyaviy arxitekturasi – o‘zaro funksional aloqalarni belgilovchi va uning tarkibiy elementlarini shakllantiruvchi xalqaro moliya tizimining institutsional tuzilmasidir.

3.1-jadval

Jahon moliya tizimining tarkibiy elementlarini tizimlashtirish

Funksional-boshqaruv yondashuvi	Institutsional yondashuv	
	Tartibga soluvchi institutlar	Tartibga solish obyektlari
Xalqaro moliya tizimi	– xalqaro huquqiy normalar va shartnomalar; – xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar (standartlar, kodekslar va boshqalar).	– xalqaro moliya-kredit tashkilotlari; – transmilliy banklar, transmilliy kompaniyalar; – xalqaro moliya bozorlari va boshqalar.
Milliy moliya tizimlarining integratsiyalashuvi	– hukumatlararo bitimlar; – mintaqaviy birlashmalar doirasida qabul qilingan qoidalar, standartlar va axloq kodekslari.	– mintaqaviy moliya-kredit tashkilotlari; – moliya bozorlari va boshqalar.
Milliy moliya tizimlari	– milliy huquqiy normalar; – o‘z-o‘zini boshqarish organlari.	– milliy moliya-kredit tashkilotlari; – moliya bozori va boshqalar.

Jahon moliyaviy arxitekturasining mohiyatini chuqur tadqiq etish uning funksiyalarini ajratishga va jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida ularni amalga oshirish vositalarini aniqlashga imkon beradi.

Jahon moliya tizimining tarkibiy qismlari va funksiyalarining yaxlitligi nuqtayi nazaridan barqaror muvozanatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Natijada, globallashuv jarayonining

ta’sirini inobatga olgan holda, xalqaro moliya-kredit munosabatlarini rivojlantirish uchun aniq tamoyillarni belgilash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, ehtimoliy risklarni pasaytirish mumkin. Mazkur holatda, xalqaro moliya tizimining institutsional muhitini sifat va miqdor jihatdan o‘zgartiruvchi asosiy omil sifatida moliyaviy globallashuv jarayoni namoyon bo‘ladi. Bir qator milliy moliya bozorlarining umumiyligida global moliya bozorining shakllanishi bu o‘zgarishlarni aniq ko‘rsatib beradi.

Jahon moliya tizimi institutsional tuzilmasining tarkibiy qismlari yagona institutsional tuzilma tarkibiga kirgan holda, uning asosiy negizini tashkil etadi. Bu jarayonda tartibga solishning asosiy obyekti sifatida institutsional tuzilma va uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Jahon moliyaviy arxitekturasi milliy, mintaqaviy va global miqyosda shakllantirilgan hamda o‘z ichiga institutlarni, moliya bozorining turli xil vositalarini, shuningdek, moliyaviy globallashuv sharoitida moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning ichki va tashqi muvozanatliligini ta’minlashga yo‘naltirilgan majburiyat va qoidalarni olgan global moliya tizimining institutsional tuzilmasidir.

Quyidagi keltirilgan rasmda zamonaviy jahon moliyaviy arxitekturasining tuzilmasi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar keltirilgan.

Moliyaviy globallashuv sharoitida jahon moliyaviy arxitekturasining barqarorligiga erishishda uning tarkibiy qismlari hisoblangan milliy iqtisodiyotlardagi valyutaning barqarorligi, ichki moliyaviy sektorni liberallashtirish darajasi va uning moliyaviy ta’minoti holati muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda, mamlakatlar tomonidan kapital harakatidagi cheklovlarning bekor qilinishi va kapitalning erkin harakati uchun sharoit yaratish hamda barqaror valyuta siyosatini shakllantirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samarali amalga oshirilishi muhimdir.

Jahon moliyaviy arxitekturasining keyingi muhim tarkibiy qismi bo‘lib faoliyati yirik miqdordagi o‘tkazmalarni amalga oshirish, iqtisodiyotning o‘sishi uchun investitsion resurslarni shakllantirish va aktivlarni taqsimlash bilan bog‘liq ko‘p tomonlama murakkab shartnoma munosabatlarini ifodalovchi moliyaviy institutlar hisoblanadi.



3.1-rasm. **Moliyaviy globallashuv sharoitida jahon moliyaviy arxitekturasining tuzilmasi**

Ularni isloh etish moliyaviy-iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili bo‘lib milliy, mintaqaviy va global iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va bozorlari jiddiy omillar ta’siriga uchramoqda. Bular jumlasiga, takrorlanuvchi va ta’sir doirasi keng bo‘lgan moliyaviy va valyuta inqirozlarini; rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy sektorning zaifligini; offshor moliyaviy markazlar sonining ko‘payishini; xususiy kapital hajmiga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishda xalqaro institutlarning cheklangan imkoniyatlarini; xalqaro investorlarning yangi turlari paydo bo‘lishini; investitsiya institutlari, moliyaviy vositalar va operatsiyalar hajmining ko‘payishini kiritish mumkin. Mazkur omillar xalqaro moliya tizimini isloh qilish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Jahon moliyaviy arxitekturasi tuzilmaviy o‘zgarishlarning ta’siri ostida bo‘lib, bu holat xalqaro moliya tizimining barcha ishtirokchilari faoliyat yuritish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish va ular faoliyatini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahon moliyaviy arxitekturasi faoliyatining quyidagi tamoyillarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish jarayoniga jahon moliyaviy arxitekturasining barcha ishtirokchilarini jalb qilinishi.

2. Jahon moliyaviy arxitekturasining barcha ishtirokchilari uning isloh etilishidan manfaatdor bo‘lishi.

3. Jahon moliyaviy arxitekturasining institutsional rivojlanishining, shu jumladan, qaror qabul qilish qoidalari va tartiblari hamda ularni amalga oshirishning shaffof bo‘lishi.

4. Jahon moliyaviy arxitekturasining institutsional rivojlanishida barcha ishtirokchilarning asosiy qadriyatlari va manfaatlari xavfsizligining ta’minlanishi.

5. Jahon moliyaviy arxitekturasining institutsional rivojlanishida ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish shakllarining xilma-xil bo‘lishi.

Jahon moliyaviy arxitekturasining zamonaviy rivojlanish bosqichini tahlil qilish natijasida uning tarkibiy jihatdan yaxlitligini ifodalovchi institutlar va ularning faoliyat yuritish mexanizmlaridan, shuningdek, jahon moliyaviy arxitekturasini isloh qilishning tegishli jarayonlaridan kelib chiqqan holda jahon moliyaviy arxitekturasi rivojlanishining zamonaviy bosqichiga xos bo‘lgan quyidagi uchta asosiy jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) milliy moliya tizimlari o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligining kuchayishi (moliyaviy globallashuv); 2) milliy va xalqaro darajada tartibga solish, shuningdek moliyaviy sohalarni tartibga solish tizimining rivojlanishi; 3) moliyaviy inqirozlar.

Zamonaviy jahon moliyaviy arxitekturasi rivojlanishining quyidagi yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

1. Jahon moliyaviy tizimining barqarorligi, global moliyaviy inqirozlardan himoya qilish va ularning rivojlanishini oldini olish. Dunyoda integratsiyalashuv jarayonining kuchayganligi va ko‘plab yirik bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kapital oqimi uchun yanada ochiqroq bo‘lganligi sababli jahon moliyaviy tizimining barcha bozorlaridagi o‘zgarishlarga ta’sir etish doirasi oshdi. Moliyaviy globallashuvning yangi to‘lqini pul-kredit va moliyaviy inqirozlarning juda halokatli turlarini yaratdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiy jarayonlarida ortib borayotgan roli tufayli ularning iqtisodiy va moliyaviy muammolari umumiy jahon iqtisodiyoti uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimoli kuchaymoqda.

Biroq, ayrim davlatlarda moliya tizimidagi mavjud muammolarni hal qilish jarayonlarini barqarorlashtirish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishdagi chora-tadbirlar yetarlicha amalga oshirilmayapti. Shu munosabat bilan xalqaro pul-kredit va moliya munosabatlarining asosiy ishtirokchilari pul-kredit va moliyaviy o‘zgarishlarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirishlari lozim. Shu boisdan, jahon moliyaviy arxitekturasi rivojlanishining hozirgi bosqichida barqarorlikni ta’minlash uchun yangi institutsional mexanizmlarni shakllantirish zarur.

2. Konvergensiya (yaqinlashish) va integratsiyalashuv jarayonida yuzaga keladigan global moliyaviy tizimning institutsional innovatsiyalarini soddalashtirish va himoyalash.

Hozirgi vaqtda milliy moliya tizimi miqyosida xalqaro standartlar, kodekslar va umume'tirof etilgan qoidalarga rioya etish holatini, shuningdek, ularning milliy standartlar bilan yaqinlashuv darajasini va eng muvaffaqiyatli institutsional namunalardan foydalanish imkoniyatlarini baholashning dolzarbligi ortmoqda

Ushbu baholashning maqsadi quyidagilardan iborat: moliyaviy tartibga solish sohasidagi zaif tomonlarni aniqlash; moliyaviy sektorni baholash natijalarini tizimlashtirish; mamlakat moliyaviy rivojlanishini xalqaro standartlar asosida baholashda davlat moliyaviy tuzilmalariga yordam ko‘rsatish.

Moliya tizimining turli shakllarda faoliyat yuritishi bo‘yicha eng muvaffaqiyatli tajribalarni tizimlashtiruvchi va mamlakatlar amaliyotida joriy etishni ta'minlovchi xalqaro moliya tashkilotlarining roli oshib bormoqda.

Milliy moliya institutlari tomonidan xalqaro moliya tashkilotlarining maxsus dasturlari va tavsiyalaridan foydalanish jahon moliyaviy arxitekturasini global boshqaruvning institutsional mexanizmlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Jahon moliyaviy arxitekturasi tarkibiy qismlarining manfaatlarini uyg‘unlashtirish pirovardida xalqaro moliyaviy tizimda barqarorlikning oshishiga xizmat qiladi. Bu borada, mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, hamkorlikning yangi shakl va mexanizmlarini joriy etish muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro moliya institutlarining faoliyatini isloh qilish. Xalqaro moliya institutlarining faoliyatini isloh qilish jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarini faollashtirish sharoitida ushbu tashkilotlar faoliyatining maqsad va vazifalarini muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon xalqaro moliya-kredit institutlarining faoliyat yuritish sohalarini o‘zaro muvofiqlashtirishga, xalqaro darajadagi moli-

yaviy bozorlarni tartibga solishni tashkil etishning yangi institutsional shakllarini faol joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyati xalqaro moliya tizimini global tartibga solish jarayonini isloh etishning ikkita variantini tavsiya etmoqda: 1) global tartibga solish institutini tashkil etilishi; 2) moliya bozorini tartibga solish bo‘yicha xalqaro institutlar faoliyatini global darajada muvofiqlashtirilishi. Global tartibga solish instituti faoliyatini tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri jahon mamlakatlari milliy moliya tizimining rivojlanish darajasidagi farqlanish hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbolli jarayon bo‘lib, ular faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

3.2. Xalqaro moliya tizimining mohiyati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari

Xalqaro moliya jahon iqtisodiyotidagi valyuta, kredit va moliya munosabatlarini, barcha moliyaviy oqimlarni, xalqaro kreditlarni, kapitalning xalqaro harakatini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro moliya doimiy o‘zgaruvchan xalqaro valyuta tizimi holatini va rivojlanishini, alohida mamlakatlarning to‘lov balansi, xalqaro moliya bozorlari, xalqaro korporatsiyalar faoliyati, xalqaro bank va investitsiya faoliyatidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Xalqaro moliyaning globallik xususiyati butun jahon iqtisodiyotini qamrab olishidan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda barcha milliy moliyaviy, xalqaro iqtisodiy, siyosiy tuzilmalar va institutlar o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat yuritadi. Xalqaro moliya tizimining rivojlanishi jahon siyosiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining butun majmuasi bilan bog‘liq holda bu jarayonlarning barcha jihatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro moliya munosabatlarining holati xalqaro moliya tizimining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalqaro moliya tizimi xalqaro huquq me’yorlari, xalqaro va mintaqaviy kelishuvlarda hamda xalqaro moliyaviy munosabatlarda ishtirok etayotgan mamlakatlarning milliy qonunchiligida qayd etilgan pul oqimlarini

tashkil etish va tartibga solishning shakli hisoblanadi. Xalqaro moliya tizimining faoliyati va barqarorligi uning tamoyillarini jahon xo‘jaligi tuzilmasiga hamda yetakchi mamlakatlar manfaatlariga muvofiqlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, xalqaro moliya bir tomondan moliyaviy munosabatlarning jahon xo‘jaligi aloqalarida kengayishi, boshqa tomondan esa, jahon iqtisodiyotining quyi moliya tizimlari paydo bo‘lishi va rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. Jahon iqtisodiyotining bir qismi bo‘lgan xalqaro moliya dunyo moliyaviy resurslari majmuini o‘zida ifodalaydi.

Xalqaro moliya tizimi jahon pul mablag‘lari harakati bilan bevosita bog‘liqlikka ega bo‘lgan o‘zaro munosabatlar majmuini o‘z ichiga oladi hamda xalqaro biznes (tashqi savdo faoliyati, kredit berish, turizm, ilmiy-texnik hamkorlik va boshq) va davlatlararo moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Xalqaro moliya tizimi barqarorligini ta’minlash va uning samarali rivojlanishiga erishishning asoslari ishlab chiqarish va biznesni rivojlantirish, muvozanatli davlatlararo valyuta bozorini shakllantirish, mehnat resurslarining xalqaro taqsimotini va yagona global xo‘jalik tizimini tashkil etish orqali yaratiladi.

Xalqaro moliya munosabatlarining barqaror tizimini ishonchli moliya institutlarini tashkil etmasdan yaratish mushkul, chunki bu tizim global darajada pul-kredit munosabatlarini tartibga solish shaklini o‘zida ifodalaydi.

Zamonaviy xalqaro moliya tizimi – bu global valyuta munosabatlarining samarali tashkil etilgan shakli bo‘lib, u turli davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Xalqaro moliya tizimining tarkibiy tuzilmasi bir nechta qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Jahon pul – valyuta munosabatlari ifodasi bo‘lib xizmat qiladigan jahon pul tizimi.

2. Valyuta kursi – bir davlat pul birligining boshqa davlat pul birligida ifodalangan narxi.

3. Milliy valyuta bozorlari. Bunday bozorning birinchi ko‘rinishi oltin bozori bo‘ldi. Uning savdosi rasmiy narxda amalga oshirildi. Bu holatda rasmiy narx tushunchasi xalqaro kelishuvlar bilan belgilanadigan narxni o‘z ichiga oldi. Oltin narxining kelishilgan darajasini saqlab qolish uchun markaziy banklar intervensiyasini qo‘llashdi. Biroq, jahon moliya tizimidagi o‘zgarishlar natijasida oltinning belgilangan narxini saqlab turish imkoni bo‘lmadi va u bosqichma-bosqich o‘zgarib bordi.

4. Xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari. Mazkur tashkilotlar xalqaro moliya tizimi barqarorligini ta’minlash va jahon iqtisodiyoti mamlakatlarini rivojlantirish maqsadlarida tashkil etildi.

Xalqaro moliya tizimining tarkibiy tuzilmasi quyidagi rasmda ifodalangan.



3.2-rasm. **Xalqaro moliya tizimi elementlari**

Xalqaro moliya tizimining barcha elementlari har bir milliy moliya tizimiga xosdir. Umuman olganda, xalqaro moliya operatsiyalarining aksariyat qismi milliy moliya tizimlari tuzilmasida amalga oshiriladi va ular xalqaro moliya tizimining elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu operatsiyalarning farqli tomoni shundaki, ularda tomonlarning kamida bittasi har doim norezident hisoblanadi. Bunday operatsiyalar uchun milliy qonunchilikda har doim ularni amalga oshirishning maxsus qoidalari va tartiblar ishlab chiqiladi. Ularning xususiyati, maqsadga muvofiqligi va samaradorligi doimo tadqiqotchilar va davlat organlarining diqqat markazida bo‘lishi kerak.

Xalqaro moliya tizimining rivojlanishi bilan birga aynan xalqaro moliya munosabatlarining harakatiga bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha umumqabul qilingan me’yorlar, faoliyat qoidalari va tuzilmalar yuzaga keladi. Ularning funksiyalari va milliy tuzilmalar bilan o‘zaro munosabatlarining xususiyati doimo iqtisodiy fanning tadqiqot mavzusi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, xalqaro moliya tizimi – bu moliyaviy resurslarning jahon bozorlarida xalqaro kelishuvlar asosida o‘zaro hamkorlik qiluvchi va ishlab chiqarishning kapital kabi omili harakatida ishtirok etuvchi transmilliy banklar va korporatsiyalar, mintaqaviy tartibga soluvchi organlar, dunyo mamlakatlarining milliy moliya tizimlarini o‘z ichiga oluvchi jahon iqtisodiyoti moliyaviy globallashuvining asosiy omillari majmuasidir.

Xalqaro moliya tizimining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– valyutalar ayirboshlash va hisob-kitob tizimi shartlarining birxillashuvi;

– xalqaro moliya munosabatlarining yagona shakllarini joriy etish;

– valyuta kurslari rejimlarini tartiblashtirish va valyuta cheklovlarini tartibga solish;

– xalqaro valyuta likvidliligini tartibga solish;

– kredit, sug‘urta, investitsiya va fond operatsiyalari xalqaro qoidalarini birxillashtirish;

– mazkur funksiyalarni amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi xalqaro moliya institutlarini tashkil etish.

Uning asosiy funksiyalari tarkibida, birinchi navbatda, xalqaro moliya munosabatlarining yagona shakllarini joriy etishni ajratib ko‘rsatish lozim, buning natijasida xalqaro moliya bozorida muvozanatning ta’minlanishiga erishiladi. Bu funksiya xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarining qoidalarini birxillashtirish, valyutalarning o‘zaro almashinuvi shartlarini belgilash, valyuta kurslarini tartibga solish, valyuta va moliyaviy cheklovlarni davlatlararo tartibga solish hamda xalqaro kreditlash, investitsiyalash va sug‘urta qilishning yagona qoidalarini yaratish orqali xalqaro moliyaviy tashkilotlarni tashkil etishda amalga oshiriladi.

Xalqaro moliya tizimining eng muhim elementi sifatida valyuta kurslarini shakllantirish, xalqaro to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash, mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga salmoqli ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lgan jahon valyuta tizimi namoyon bo‘ladi. Mazkur tizim doirasida valyuta ayirboshlash tartiblarini belgilash, valyuta kurslarining keskin tebranishlarini tartibga solish, turli moliyaviy risklarni oldini olish va boshqarish kabilar amalga oshiriladi.

Zamonaviy moliya tizimi iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan moliyaviy vositalar, mexanizmlar va tartib-qoidalar, o‘zaro bog‘liq va birgalikda faoliyat yurituvchi institutlarning murakkab majmuasini o‘zida ifodalaydi.

Jahon iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan moliya tizimi doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ta’sirini inobatga olgan holda, moliya tizimi rivojlanishining mezoni sifatida quyidagi institutsional o‘zgarishlarni qayd etish lozim:

– jahon moliya tizimining tranzaksion xarajatlari hajmi;

– moliyaviy bozorlar va milliy moliya tizimlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotning to‘liqligi;

– yagona ishlab chiqarish jarayoni doirasida global moliya tizimining faoliyat yuritish tamoyillari va usullarini amalga oshirish.

Jahon moliya tizimining globallashuvi sharoitida mamlakatning milliy moliya tizimi tabiiy ravishda xalqaro talablarga javob beradigan o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari va shakllarini joriy etishni hamda milliy manfaatlarga javob beradigan eng muhim va samarali moliyaviy institutlar va vositalarni saqlab qolishni talab qiladi.

Xalqaro moliya tizimi rivojlanishining quyidagi asosiy xususiyatlarini keltirish mumkin:

– jahon bozorining hamda jahon moliya tizimi turli ishtirokchilari o‘rtasidagi amalga oshiriladigan moliyaviy bitimlarning keskin o‘sishi;

– soxta kapital va spekulyativ operatsiyalarning o‘sishi;

– xalqaro moliya tizimida moliyaviy tuzilmalarning faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan va barcha uchun umumiy bo‘lgan huquqiy me’yorlarning yo‘qligi;

– yuqori va kam rivojlangan davlatlar o‘rtasidagi tafovutning kengayishi;

– xalqaro qarzdorlik muammosining kuchayishi;

– milliy va yevrovalyuta kapital bozorlarining birlashishi;

– xalqaro kapital harakatidagi institutsional to‘siqlarning kamayishi;

– bozor iqtisodiyotidagi yetakchi mamlakatlar investorlari aktivlarining xalqaro diversifikatsiyalashuv darajasining sekinlashishi;

– moliyaviy globallashuvning yuzaga kelishi va kuchayishi;

– xalqaro bozorning valyuta bozori bilan birlashishi.

3.3. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlari

Xalqaro moliya tizimini isloh qilishning asosiy sabablari qatorida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: xalqaro tashkilotlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish imkoniyati xususiy kapital oqimining hajmiga nisbatan cheklanganligi; xalqaro tashkilotlarning inqirozlarni oldini olish, ularga qarshi kurashish, takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning tarqalish sohalarini cheklashga qodir emasligi; moliyaviy va valyuta inqirozlarining takrorlanish va ta’sir etish ko‘lamining kengayishi; jahon iqtisodiyotining globallashuvi bir vaqtning o‘zida bir qator

rivojlanayotgan mamlakatlarda faoliyat yurituvchi va investitsiyalarni amalga oshiradigan mamlakatlarda moliyaviy vaziyatni beqarorlashtirishga qodir bo‘lgan yangi xalqaro investorlarning yuzaga kelishiga hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy bozorlarni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini kamaytiradigan offshor hududlar miqdorining o‘sishiga imkon yaratdi; xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtirish dasturlarini amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan nizolarning chuqurlashuvi; moliyaviy bozorlardagi, ayniqsa, qarz majburiyatlari bozoridagi operatsiyalar hajmining o‘sishi hamda xalqaro moliya bozorining yuqori darajada rivojlanishi o‘rtasida keskin farqlanish hamda uni tartibga solish uchun tegishli institutsional tuzilmaning yo‘qligi va h.k.

Xalqaro moliya tizimini isloh qilish jarayoni tuzilmaviy muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, moliya tizimining barqarorligini ta’minlash masalasini hal qilish bilan birga amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda moliya tizimini mustahkamlash jarayonida quyidagi chora-tadbirlar namoyon bo‘ladi:

– bank nazoratining xalqaro standartlarini yaratish;

– iqtisodiy ma’lumotlarning ommaviy ravishda oshkor etilishi uchun xalqaro standartlarni takomillashtirish;

– XVFning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

– XVFning yangi kreditlash mexanizmlarini yaratish;

– moliyaviy bozorlarni tartibga solish bo‘yicha hech bo‘lmaganda mintaqaviy darajada yagona me’yoriy-huquqiy hujjatlarni joriy etish.

Xalqaro moliya tizimini isloh qilish masalasi jahon iqtisodiyotida ro‘y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro moliya tizimini isloh etish tuzilmaviy jihatdan turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Biroq, xalqaro moliya tizimini isloh etishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish hamda ular faoliyatini takomillashtirish;

– yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish;

– xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish;

– yangi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni quyida batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. Moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish:

– xalqaro moliya tizimini mustahkamlash, bank tizimi, fond bozori va boshqa moliyaviy institutlarni tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha xalqaro prinsiplar va standartlarni ishlab chiqish hamda joriy etish orqali milliy moliyaviy institutlarni isloh qilish;

– to‘lov tizimlari, buxgalteriya hisobi va auditning takomillashgan standartlarini hamda bankrotlik tartib-qoidalarini ishlab chiqish va joriy etish orqali moliya tizimi infratuzilmasini mustahkamlash;

– rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy operatsiyalarni nazorat etishning mustahkam huquqiy tartibini joriy etish;

– hosilaviy qimmatbaho qog‘ozlar bozorini va xalqaro darajadagi investitsion loyihalarni nazorat qilish;

– qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish va kredit mablag‘laridan foydalanish orqali yanada samarali investitsiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish;

– offshor hududlar faoliyatida xalqaro tartiblarni to‘liq joriy etish uchun sharoit yaratish;

– xalqaro kapital harakatini qattiq nazorat qilish.

2. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish:

– ichki bozorlarning faoliyat yuritish erkinligini kengaytirish va rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarida valyutani tartibga solishning samarali mexanizmini joriy qilish hamda xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishi uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratish;

– ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning xalqaro transfertlari tizimida baravarlikni ta’minlash;

– xususiy biznesni davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy imtiyozlarni obyektiv taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– inqiroz jarayonlarining ta’siri ostida aholining moliyaviy yo‘qotishlarini kamaytirish variantlarini o‘rganish, shuningdek,

jamiyatning eng zaif qatlamlari himoyasini ta’minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish;

– xususiy va davlat sektori, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish.

3. Xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish:

– xalqaro moliya institutlari faoliyatida asosiy ustuvorlikni milliy iqtisodiyotlardagi muammolarni hal etishga yo‘naltirish;

– xalqaro kreditlashdan xalqaro moliyalashtirish tizimiga alohida e’tibor berish;

– iqtisodiy inqiroz oqibatlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarga investorlarning ishonchini oshirish;

– iqtisodiy rivojlangan davlatlardagi inqirozning chuqurlashishiga qarshi kurashish;

– moliyaviy inqirozlar xavfini kamaytirish, ularning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sir etish ko‘lamini kamaytirish;

– inqiroz jarayonlarini bartaraf etishga qaratilgan moliyaviy xarajatlar darajasini qisqartirish, shuningdek, ularni qisqa muddatda bartaraf etish;

– kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan inqiroz jarayonlari ta’sirida investorlarning moliyaviy yo‘qotishini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– risklarni minimallashtirish va jamiyatning eng zaif qatlamlarini himoya qilish salohiyatiga ega bo‘lgan hamda jahon bozorining afzalliklaridan va kapital harakatidan samarali foydalanadigan xalqaro moliya tizimini shakllantirish;

– davlat darajasida moliyaviy va makroiqtisodiy muvozanatsizlikka qarshi kurashish;

– xalqaro moliyalashtirish tizimida islohotlar o‘tkazish;

– inqiroz jarayonlarini bartaraf etish mexanizmlarining samaradorligini oshirish va iqtisodiy inqirozlarni bashorat qilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishda xususiy biznesni jalb qilish yo‘llarini shakllantirish;

– davlatlarning kapital harakati va moliya sohasidagi siyosatini Xalqaro valyuta fondi tomonidan yanada samarali monitoring qilinishi;

– XVF tomonidan a’zo mamlakatlarning, ayniqsa, moliya va kapital oqimlari sohasida olib borilayotgan siyosatini nazorat qilishni hamda XVF faoliyati ustidan davlatlarning nazorat qilishini kuchaytirish, uning kam rivojlangan kreditga qaram mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sirini kamaytirish;

– davlat darajasida makroiqtisodiy siyosatni takomillashtirish.

4. Yangi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish:

– yuqori sur’atdagi inflyatsiyani bartaraf etish va aholini ish bilan ta’minlash darajasini oshirishga qaratilgan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosat sohasidagi sa’y-harakatlarini yanada samarali muvofiqlashtirish uchun maxsus davlatlararo institutni shakllantirish yoki mavjud xalqaro moliya tashkilotlarining vakolatlarini kengaytirish;

– Global operatsiyalarda ishtirok etadigan tashkilotlar faoliyatini nazorat etish va tartibga solishning yagona qoidalarini ishlab chiqishga qaratilgan xalqaro tartibga soluvchi moliya tizimini shakllantirish. Ushbu jarayonda muhim omil tartibga solish siyosatini amalga oshirishga bag‘ishlangan forumlarni o‘tkazishda G-7 davlatlarining moliyaviy boshqaruv organlari vakillari, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari vakillarining doimiy uchrashuvlari bo‘lishi mumkin. Bunday masalalarni hal qilishning imkoniyatlari sifatida Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) va Qimmatli qog‘ozlar komissiyalari xalqaro tashkiloti (IOSCO) kabi xalqaro institutlarni ular faoliyatida iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarning keng ishtirok etishini ta’minlash sharti bilan qayta tashkil etish lozim.

Tayanch so‘z va iboralar

Jahon moliyaviy arxitekturasi, xalqaro moliya tizimi, xalqaro moliya tashkilotlari, moliyaviy inqiroz, tashqi savdo, eksport, import, xalqaro investorlar, offshor hududlar, makroiqtisodiy siyosat, iqtisodiy integratsiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Jahon moliyaviy arxitekturasi deganda nimani tushunasiz?

2. Jahon moliyaviy arxitekturasining tarkibiy tuzilmasini izohlang?

3. Jahon moliyaviy arxitekturasi faoliyatining asosiy tamoyillarini ayting?

4. Zamonaviy jahon moliyaviy arxitekturasining rivojlanish yo‘nalishlariga nimalar kiradi?

5. Xalqaro moliya tizimi deganda nimani tushunasiz?

6. Xalqaro moliya tizimining tarkibiy tuzilmasiga nimalar kiradi?

7. Xalqaro moliya tizimi rivojlanishining asosiy xususiyatlarini izohlang?

8. Xalqaro moliya tizimini isloh qilishning asosiy sabablari nimalardan iborat?

9. Xalqaro moliya tizimini isloh etishning asosiy yo‘nalishlarini izohlang?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro moliya tizimining mohiyatini izohlovchi asosiy tushunchalardan “klaster” tuzing.

2. Xalqaro moliya tizimining rivojlanish tendensiyalarini baholang.

3. Jahon moliyaviy arxitekturasidagi o‘zgarishlarni o‘rganing.

4. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Jahon moliyaviy arxitekturasi –

a) tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

b) o‘zaro funksional aloqalarni belgilovchi va uning tarkibiy elementlarini shakllantiruvchi xalqaro moliya tizimining institutsional tuzilmasidir;

d) faqatgina milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

e) korxonalardagi ichki moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.

2. Zamonaviy xalqaro moliya tizimi –

a) bu milliy iqtisodiyotlarni jahon xo‘jaligidagi o‘zgarishlardan himoyalashga qaratilgan tizimdir;

b) bu global valyuta munosabatlarining samarali tashkil etilgan shakli bo‘lib, u turli davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi;

d) valyuta munosabatlari ifodasi bo‘lib xizmat qiladigan jahon pul tizimi;

e) xalqaro savdo munosabatlari rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tizimdir.

3. Xalqaro moliya tizimi – bu

a) o‘zaro funksional aloqalarni belgilovchi va uning tarkibiy elementlarini shakllantiruvchi xalqaro moliya tizimining institutsional tuzilmasidir;

b) faqatgina milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

d) moliyaviy resurslarning jahon bozorlarida xalqaro kelishuvlar asosida o‘zaro hamkorlik qiluvchi va ishlab chiqarishning kapital kabi omili harakatida ishtirok etuvchi transmilliy banklar va korporatsiyalar, mintaqaviy tartibga soluvchi organlar, dunyo mamlakatlarining milliy moliya tizimlarini o‘z ichiga oluvchi jahon iqtisodiyoti moliyaviy globallashuvining asosiy omillari majmuasidir;

e) xalqaro moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi tizimdir.

4. Xalqaro moliya tizimining asosiy elementlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) jahon valyuta tizimi, xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar, xalqaro soliqqa tortish, TMKlarning xalqaro moliyaviy menejmenti;

b) tijorat banklarining aktiv operatsiyalari, milliy valyuta tizimi, korxonalarni soliqqa tortish;

d) investitsion munosabatlar, valyuta kurslarini aniqlash, milliy buxgalteriya standartlari;

e) investitsion loyihalarni moliyalashtirish, milliy valyuta devalvatsiyasi, to‘lov balansi taqchilligini moliyalashtirish.

5. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish –

a) transmilliy korporatsiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi;

b) tuzilmaviy muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, moliya tizimining barqarorligini ta’minlash masalasini hal qilish bilan birga amalga oshiriladi;

d) moliyaviy inqirozga qarshi kurashish amalga oshiriladi;

e) xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi.

6. Xalqaro moliya tizimini isloh etishning asosiy yo‘nalishlari nimalarni o‘z ichiga oladi?

a) moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish hamda ular faoliyatini takomillashtirish; yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish; xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish; yangi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish;

b) moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish hamda ular faoliyatini takomillashtirish; yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish; xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish; eksportni oshirish;

d) moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish hamda ular faoliyatini takomillashtirish; yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish; xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish; importni oshirish;

e) moliyaviy bozorlar va investitsiya institutlarini tartibga solish hamda ular faoliyatini takomillashtirish; jami sanoat ishlab chiqarishida eksportning ulushini oshirish; xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilish; yangi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish.

7. Xalqaro moliya institutlari tizimini isloh qilishda qaysi jihatlarga e’tibor berish lozim?

a) xalqaro moliya institutlari faoliyatini tugatish;

b) yangi turdagi xalqaro moliya institutlarini tashkil etish;

d) xalqaro moliya institutlari faoliyatida asosiy ustuvorlikni milliy iqtisodiyotlardagi muammolarni hal etishga yo‘naltirish hamda davlatlarning kapital harakati va moliya sohasidagi siyosatini Xalqaro valyuta fondi tomonidan yanada samarali monitoring qilish;

e) xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish.

8. Xalqaro moliya tizimini isloh qilishning asosiy sabablari nimalardan iborat?

a) xalqaro tashkilotlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish imkoniyati xususiy kapital oqimining hajmiga nisbatan cheklanganligi; xalqaro tashkilotlarning inqirozlarni oldini olish, ularga qarshi kurashish, takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning tarqalish sohalarini cheklashga qodir emasligi; moliyaviy va valyuta inqirozlarining takrorlanish va ta’sir etish ko‘lamining kengayishi;

b) xalqaro tashkilotlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish imkoniyati xususiy kapital oqimining hajmiga nisbatan cheklanganligi; xalqaro tashkilotlarning inqirozlarni oldini olish, ularga qarshi kurashish, takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning tarqalish sohalarini cheklashga qodir emasligi; moliyaviy va valyuta inqirozlarining takrorlanish va ta’sir etish ko‘lamining kengayishi; qarz majburiyatlari hajmining kamayishi;

d) moliyaviy globallashuv, iqtisodiy integratsiya, jahon bozorlarining vujudga kelishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, demping siyosati, yuqori bojlarning o‘rnatilishi;

e) xalqaro tashkilotlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam berish imkoniyati xususiy kapital oqimining hajmiga nisbatan cheklanganligi; xalqaro tashkilotlarning inqirozlarni oldini olish, ularga qarshi kurashish, takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularning tarqalish sohalarini cheklashga qodir emasligi; moliyaviy va valyuta inqirozlarining takrorlanish va ta’sir etish ko‘lamining kengayishi; antidemping siyosati va bojlarning pasaytirilishi.

4-BOB. XALQARO MOLIYAVIY MARKAZLAR VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

4.1. Jahon moliyaviy markazlari: zamonaviy nazariyalar, rivojlanish bosqichlari va shakllantirish shart-sharoitlari

4.2. Global va xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tizimi

4.3. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar va masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanish xususiyatlari

4.1. Jahon moliyaviy markazlari: zamonaviy nazariyalar, rivojlanish bosqichlari va shakllantirish shart-sharoitlari

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida global va mintaqaviy moliyaviy markazlar puxta o‘ylab ishlab chiqilgan, iqtisodiy-moliyaviy, huquqiy-me’yoriy mexanizmlar majmui asosida turli mahalliy va xorijiy moliya institutlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni ma’lum bir joyda moddiy-iqtisodiy manfaat yuzasidan to‘planishini ta’minlaydi. Natijada, mamlakat moliya bozoridagi aktivlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar turini ko‘paytiradi, innovatsion mahsulotlar bilan takomillashgan, iqtisodiy mustahkam, murakkab infratuzilmani yuzaga keltiradi. Moliyaviy institutlarning bir joyga to‘planishi, yoki akkumulyatsiyasi hisobiga shakllangan moliya bozoridagi kuchli raqobat ular ko‘rsatadigan xizmatlarning iste’molchilar talabi asosida son va sifat jihatdan oshishiga olib keladi.

Bugungi kun jahonda iqtisodiyoti tez sur’atlarda o‘sib borayotgan, global moliyaviy markazlar taraqqiy etgan mamlakatlar tajribalarini o‘rganib, ularni o‘zimizga moslashtirib, mamlakatimiz moliya bozorini rivojlantirish yo‘lida foydalanishni talab qilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida moliya sektorining rivojlanish xususiyatlarini o‘z ilmiy ishlarida tadqiq etgan bir qator iqtisodchi olimlar global, xalqaro, mintaqaviy va mahalliy moliyaviy markazlarning o‘ziga xos jihatlarini yoritishga harakat qilishgan.

L.N. Krasavina fikricha, jahon moliyaviy markazlari bu xalqaro moliyaviy oqimlar va yirik hajmdagi operatsiyalarning nisbatan foydali bo‘lgan sohalar bo‘yicha taqsimoti natijasida ma’lum bir joyda

to‘planishi yoki marzkazlashuvini anglatadi. Tarixan, ular milliy bozorlar negizida, keyinchalik jahonning valyuta, kredit, fond va oltin bozorlari asosida paydo bo‘lgan. Shuning uchun, jahon moliyaviy markazlari tarkibida moliya bozorining barcha sektorlari joylashgan[1].

A.N. Azriliyan xalqaro moliyaviy markazlar – xalqaro ssuda kapitallari bozorining markazlari deb ta’rif beradi[2]. Uning lug‘atida, birinchi navbatda Nyu-York, Tokio, London, Parij, Frankfurt-na-Mayn, Tsyurix, Lyuksemburg, rivojlanayotgan mamlakatlarda Gonkong, Singapur, Bahrayn va boshqalar xalqaro moliyaviy markazlar sifatida qayd etiladi. Banklar va boshqa moliya-kredit institutlarining yuqori konsentratsiyalashuvi, kompyuter texnologiyalariga asoslangan kuchli aloqa tizimi bunday markazlarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Lug‘atda moliyaviy markazlarning ixtisoslashuvi kuchayib borayotganligi ko‘rsatilgan. Masalan, Parij, Frankfurt-na-Mayn, Syurix obligatsiya shaklidagi qarzlar savdosi va aksiyalar bilan bitimlarga, Gonkong va Singapur qisqa muddati banklararo kreditlar bozoriga, Bahrayn neft-dollar[3] operatsiyalarini o‘tkazishga ixtisoslashmoqda.

V.V. Klimachev ham o‘z ilmiy tadqiqotlari natijasida xalqaro moliyaviy markazlar tushunchasiga o‘z ta’rifini bergan. Unga ko‘ra, xalqaro moliyaviy markazlar – bu valyuta kurslari, foiz stavkasi va boshqa iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlar bilan banklar, fondlar orqali global moliya-kredit operatsiyalarni legallashtirish vositasida global renta[4]ni undirish markazlaridir deyilgan[5]. U, xalqaro moliyaviy markazlar rivojlangan mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda jahon moliyaviy arxitekturasini qayta qurish, isloh qilish va mustahkamlash bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyani ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etishda muhim rol o‘ynaydi deb

[1] Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 576 с: ил. С. 295.

[2] Большой экономический словарь / Под ред. А.Н.Азрилияна. – 7-е изд., доп. – М.: Институт новой экономики, 2007. – 1427 с. С. 1395.

[3] Izoh: (ingl. Petrodollar, 1974 yildan boshlab ko‘llaniladi) Neft mahsulotlari bilan ta’minlangan AQSh dollari, yoki neft ishlab chiqaruvchi-mamlakat-rezident-kompaniyalari oladigan daromad, yohud energiya resurslari eksportidan neft eksport qiluvchi-mamlakatlar oladigan davlat daromadlari.

[4] Izoh: renta bu yerda, xizmat ko‘rsatganlik uchun komission to‘lov, yoki ustama foiz, foyda me’yoridir.

[5] Климачев В.В. Международные финансовые центры в глобальной финансовой системе. Автореф. дис. … кан. экон. наук. – М., 2011. – 24с.

A.A. Saxarovning xalqaro moliyaviy markazlarga doir qarashlarini boyitgan.

Hozirgi kunda moliyaviy markazlar xalqaro sanalishi uchun kamida quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Birinchidan, markaz joylashgan mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashgan bo‘lishi, unda barqaror valyuta asosida doimiy iqtisodiy o‘sish ta’minlanishi va samarali moliyaviy siyosat yuritilishi lozim.

Ikkinchidan, markazda moliyaviy operatsiyalar va investitsiyalarga to‘sqinlik qilmaydigan, mablag‘larni samarali taqsimlash imkonini beruvchi liberal soliq va huquq tizimi amal qilishi kerak.

Uchinchidan, moliyaviy markazda bank, birja va sug‘urta tizimini o‘z ichiga olgan, samarali nazorat yuritiladigan, rivojlangan moliyaviy infratuzilma mavjud bo‘lishi zarur.

Moliyaviy markazlar shunday siyosiy barqaror, qulay iqtisodiy geografik hududlarki, ularga quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi.

Birinchidan, moliya bozoridagi talabni yuzaga keltiradigan kapitalni bir joyda jamlash.

Ikkinchidan, moliya bozoridagi vositachilar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar, ya’ni taklifining eng samarali mexanizmi va usullarini o‘zida namoyon etgan moliyaviy (investor mablag‘larini taqsimlovchi) vositalar majmuini yaratish.

Uchinchidan, moliyaviy kapital harakati yo‘nalishini o‘zgartirish va uning ustidan nazoratni amalga oshirish, natijada moliya tizimini isloh qilish imkoniga ega bo‘lish.

To‘rtinchidan, unda eng zamonaviy axborot texnologiyalari asosida jihozlangan samarali moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy markazlar milliy moliyaviy markazlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- moliya bozorning xorijiy ishtirokchilar uchun mo‘ljallanganligi va xalqaro miqyosda ochiqligi, xalqaro aloqalar erkinligi;
- markazda xorijiy moliya muassasalari, vositachilar, investorlar yetakchiligi bois, xalqaro moliyaviy kapital harakatini yuzaga keltirishi, pirovardida jahon moliya tizimini isloh qilish imkoniga ega bo‘lishi;

-jahon miqyosidagi intellektual salohiyatdan foydalangan holda markazni moliya bozorining innovatsion taraqqiyotini ta’minlashi va h.k.

Xalqaro moliya bozorini xorijiy valyutalar bilan bitimlar tuzish geografiyasi nuqtayi nazaridan tasniflanganda, ularni ikkita alohida segmentga ajratish mumkin, ya’ni xalqaro moliyaviy markazlar (London, Nyu-York, Tokio, Frankfurt, Tsyurix, Singapur, Gonkong) va offshor zonalar (Kipr Respublikasi, Kayman, Men orollari va h.k).

Moliyaviy markazlarni xalqaro, mintaqaviy, mahalliy, offshor markazlarga bo‘lish maqsadga muvofiq.

Xalqaro moliyaviy markazlar shakllanish va rivojlanish jarayonini beshta shartli bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich XVII asrdan XVIII asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mazkur bosqichda mintaqaviy, kam rivojlangan, sanoqli moliyaviy vositalar bilan kichik hajmli bitimlar tuzilgan qimmatli qog‘ozlar bozori shakllangan. Bunday moliya markazlariga Lion, Antverpen va G‘arbiy Yevropadagi boshqa markazlar kirgan[6]. Ular mamlakat iqtisodiyotiga tayangan holda rivojlangan, boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri esa sezilarli darajada bo‘lmagan.

Ikkinchi bosqich (“birja” bosqichi, XVIII asrning 70- yillaridan XIX asrning 70- yillarigacha). Xalqaro moliya markazlarni rivojlanishinng ushbu bosqichida fond birjalari o‘ziga tegishli infratuzilmani shakllantirgan holda markazlar faoliyatining asosini tashkil qilgan. Bu davrda, xalqaro moliyaviy markazlar Yevropa hududi (London, Parij, Berlin) va AQSh (Nyu-York, Chikago)da jadal sur’atlar bilan rivojlangan va moliyaviy markazlar faoliyatini jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’siri ko‘paygan.

Uchinchi bosqich (XIX asrning 70- yillaridan XX asrning 50- yillarigacha). Bu davr, oltin standartiga asoslangan Parij (1867), Genuya (1922), Bretton-Vuds (1944) xalqaro valyuta tizimlari, jahon iqtisodiy inqirozi (1930), I va II jahon urushi, Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tashkil etilishi bilan bog‘liq, asosan xalqaro moliyaviy

[6] Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 576 с: ил. С. 26, 57-67, 294-296.

markazlar taraqqiyotida global valyuta-moliyaviy beqarorlik aks etgan bosqichdir.

To‘rtinchi bosqichda, ya’ni XX asrning 50- yillaridan 80-yillarigacha bo‘lgan davrda, asosiy moliyaviy markazlardan uzoqda joylashgan jahonning boshqa mintaqalarida xususan, Osiyo mintaqasida[7] ham moliyaviy va offshor markazlar[8] paydo bo‘ldi. Jahondagi ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqligi kuchaydi, yevrovalyuta, yevrokapital xamda fond birjalari samaradorligi oshdi, moliyaviy markazlar tarkibi va faoliyatida shaffoflik ortdi.

Beshinchi bosqich. Xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanishining zamonaviy bosqichi bo‘lib, 1980-yildan hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va unda moliya sektorining roli ortdi, tarixan yetakchi Nyu-York va London global, Singapur va Gonkong esa xalqaro moliyaviy markaz[9] maqomiga ega bo‘ldi, yana yangi moliyaviy markazlar[10] paydo bo‘lmoqda, ularning faoliyatida ixtisoslashuv va raqobat kuchaymoqda.

Bugungi kunda, xalqaro moliyaviy markazlar son va sifat jihatdan jadal sur’atlarda, asosan valyuta, qarz munosabatlari bilan bog‘liq moliyaviy operatsiyalar bilan rivojlanmoqda. Xalqaro moliyaviy markazlar turli davlatlar va firmalarga kerakli moliyaviy aktivlar va maxsus xizmatlarni ko‘rsatishning eng samarali bozor mexanizmlaridan foydalanish imkonini beradigan “biznes-maydoni” bo‘lmoqda.

Jahon moliyaviy markazlari mamlakatdagi va xorijiy mamlakatlardagi kapitalni boshqarish imkonini berishi, ularni milliy moliya bozorlarida shakllantirish va rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotda global moliyaviy markazlar quyidagi shart-sharoitlar yaratilganda shakllanadi va rivojlanadi:

---

[7] 1878- yilda Tokio fond byuirjasiga asos solingan bo‘lsada, u 1949- yildan barqaror jadal sur’atlar bilan rivojlangan. Koreya fond birjasiga 1956- yilda Dayxan fond birjasi nomi bilan asos solingan. Singapur 1965- yildan, mustaqilligini qo‘lga kiritgandan boshlab, o‘z hududida moliyaviy markazlarni shakllantirishga harakat qilgan.

[8] Федякина Л.Н. Международные финансы. – СПб.: Питер, 2005. — 560 с: ил. - (Серия “Академия финансов”). С. 159-162, 168, 176.

[9] IMF Working Paper, Strategy, Policy and Review Department. Why Complementarity Matters for Stability - Hong Kong SAR and Singapore as Asian Financial Centers. Prepared by V. Le Lesle, F. Ohnsorge, M. Kim, S. Seshadri. Authorized for distribution by Tamim Bayoumi. July 2014, 46 pp.

[10] Izoh: Shanxay va Shenchjen fond birjalariga 1990 yilda asos solingan.

- markazning asosini tashkil etadigan va uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi, katta miqdorda operatsiyalar amalga oshiriladigan moliya bozorining mavjudligi va ushbu bozorga nisbatan markazning qulay joylashuvi;

- kapitallar, mehnat resurslari, nomoddiy aktivlar va h.k. erkin harakati uchun iqtisodiyotning ochiqligi;

- soliq, bojxona siyosati orqali rag‘batlantiruvchi leberal, immigratsion va boshqa shu kabi qonun hujjatlirini mavjudligi;

- ma’muriy xarajatlarni, biznes yuritish va hukumat o‘rtasidagi norasmiy munosabatlarda qiyinchiliklar va korrupsiya darajasini kamligi, moliya bozorida bitimlarni ro‘yxatga olish, rasmiylashtirish tartibining soddaligi, oddiyligi;

- buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, nazorat va tartibga solish tizimining zamonaviy, jahon standartlariga mosligi;

- rivojlangan moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi (birjalar, banklar, sug‘urta, investitsiya kompaniyalari va fondlari, trast va maslahat kompaniyalari va boshq.);

- biznesni moliyaviy ta’minlash, bo‘sh turgan pul mablag‘larini real va moliya sektoriga jalb etish vositalarining turli-tumanligi, ko‘pligi, samarali mexanizmining mavjudligi (aksiyalar, obligatsiyalar, hosila moliyaviy vositalar, indekslar va h.k);

- mamlakatida makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlikni, aholi turmush farovonligini ta’minlanganligi (milliy iqtisodiyotning yuqori o‘sish, barqaror rivojlanish sur’atlari).

Xulosa qilib aytganda, jahonda moliyaviy markazlar mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kapitallarning xalqaro harakatiga yaratilgan shart-sharoitlar asosida ma’lum bosqichlarda shakllangan va rivojlanib kelmoqda.

4.2. Global va xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tizimi

Zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan innovatsion rivojlanish, farovon turmush tarzi turli munosabatlar bilan bog‘liq moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Shu bilan birga, an’anaviy moliyaviy markaz

shaharlarda ham yangi o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ayni paytda, yurtimiz shaharlarini kompleks qurish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Urganch, Qarshi, Termiz, Samarqand va boshqa ko‘plab shaharlarimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu esa, mamlakatimiz shaharlarini iqtisodiy-moliyaviy qudrati va infratuzilmasini rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e’tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy markazlarga ilmiy, obyektiv va kompleks baho berish, ularning tajribalarini jamlash asosida milliy moliya bozorini, shu jumladan masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va bu borada yangi innovatsion ishlanmalarni yaratish mumkin.

Tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, moliyaviy markazlar rivojlanishida avval, moliyaviy resurslar bozoridagi kuchli raqobat hisobiga xalqaro integratsiyalashgan moliya bozorida barqaror va samarali raqobat yuzaga kelgan bo‘lsa, bugungi kun va kelajakda moliyaviy markazlar taraqqiyotini innovatsion moliyaviy markazlar belgilamoqda[11]. Fikrimizcha, istiqbolda markazlarning xususiyatlari tarmoqlarning global darajada bog‘liqligining kuchayishi hisobiga, bir nechta yoki barcha moliyaviy markazlarga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Tahlillarimiz natijalariga ko‘ra, xalqaro moliyaviy markazlar jahon miqyosidagi shaharlarning o‘zaro aloqalarining kengayishi va undagi moliyaviy oqimlarning ortishi natijasida shakllanadi. Ma’lum shaharning xalqaro moliyaviy markaz sifatida rivojlanishi moliya bozorida yaratilgan shart-sharoitga, iqtisodiy o‘sish va rivojlanish imkoniyatlariga, sanoatning qo‘llab-quvvatlanishiga, shaharda xizmat ko‘rsatish darajasi va standartlari, umummilliy muhit holatiga bog‘liqdir.

Keyingi yillarda xalqaro moliyaviy markazlarning geografik joylashuvida Sharq mamlakatlarining jahon iqtisodiyoti va savdosida

[11] Xinhua-Dow Jones International Financial Centers Development Index – 2014. National Financial Information Center Index Research Institute, Standard & Poor’s Dow Jones Index Co. November, 2014, 9/79 p.

asosiy rol o‘ynayotgani, u yerda barqaror va yangi xalqaro moliyaviy markazlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Avval “Dow Jones Index Service Co.” hozirda esa, “The Standard & Poor’s Dow Jones Index Co” egasi hisoblangan “Chicago Mercantile Exchange Group (CME)” bilan “Xinhua News” Agentligi birgalikda 2010 yilda Sinxua-Dou-Djons xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanish indeksi (Xinhua-Dow Jones International Financial Center Development Index (IFCD Index))ni amaliyotda e’lon qildi. Mazkur indeks global miqyosda tanilib, yangi, innovatsion xalqaro moliyaviy markaz shaharlarni barpo etishga xizmat qilmoqda.

Sinxua-Dou-Djons xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanish indeksi bahosiga ko‘ra, asosiy 10 ta xalqaro moliyaviy markazlarni yuqori reytingdan pastga qarab sanaydigan bo‘lsak, dastlab Nyu-York bo‘lsa, keyin London, Tokio, Singapur, Gonkong va Shanxay (o‘zaro aloqador), Parij, Frankfurt, Pekin va Chikago shaharlari hisoblanadi. Birinchi 10 ta xalqaro moliyaviy markaz shaharlarning o‘rni o‘zaro o‘zgarib turgan bo‘lsada, umuman, mazkur indeksdagi 45 ta shahar barqaror mavqei va o‘z o‘rnini o‘zgartirmasdan saqlab kelmoqda.

Mazkur indeks modelining tarkibiy tuzilishi moliyaviy markazning mintaqaviy raqobatbardoshlik, ekologik tizimga javobgarlik (ekotizim), injiniring-muhandislik tizimi, iqtisodiy sikl va resurslar aylanishi, shahar qurilishi nazariyalariga asoslanadi.

IFCD indeksi markaz shaharlar moliyaviy raqobatbardoshligini ikki xil usulda ilmiy asosda umumlashgan bahosini o‘zida aks ettiradi. Moliyaviy markaz shaharlarning reytingini aniqlash imkonini beradigan har bir omil subyektiv so‘rov va obyektiv ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi va ular indeks hisobida o‘ziga xos qariyb teng vaznlarga ega (4.1-rasm).



*Har bir omilning indeksdagi salmog‘i, koeffitsiyentlarda. Ularning yig‘indisi yaxlitlashdagi xatoliklar hisobiga 1 ga teng emas.

4.1-rasm. **Xalqaro moliyaviy markazlarning rivojlanish indeksi (International Financial Centers Development Index, IFCD Index)ning tarkibiy tuzilishi**

Mazkur indeksni hisoblash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Birinchidan, ma’lumotlarni birxillashtirish. Olingan ijobiy va salbiy natijalar qayta ishlanib ko‘rsatkichlarni solishtirish uchun normal taqsimot holatiga keltiriladi. Bunda ekstrimal, ya’ni ma’lumotlarni tekislashga salbiy ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar to‘plamdan chiqarib tashlanadi va aniqlangan baholar standart mezon asosida taqqoslash uchun tayyor holga olib kelinadi.

Ikkinchidan, vaznlar taqsimoti. Indeksning har bir elementi ikkita bir xil vaznga ega ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Shuningdek, yakuniy bahoni beruvchi omillar ham umumiy reytingga bir xil ta’sir

etish imkoniyatiga ega. Har bir bosqichda aniqlanadigan baholar ko‘rsatkichlar soniga teng taqsimlangan holda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, beshta har bir omil bahosini hisoblash. Har bir omil bo‘yicha olingan obyektiv va subyektiv baholarning o‘rtacha arifmetik qiymati hisoblanadi.

To‘rtinchidan, yakuniy baho. Beshta har bir omil yakuniy bahoga o‘zining ta’sir etish darajasi, salmog‘i bo‘yicha hisoblanib, ya’ni omil bahosining salmog‘iga ko‘paytirilib, yoki jami 5 omil bahosini o‘rta arifmetik qiymatini topib, markaz shahar reytingi aniqlanadi.

Indeksdagi obyektiv ko‘rsatkichlar tizimi va vazni zamonaviy iqtisodiy holatga qarab o‘zgarib, takomillashib boradi. Har yili indeks ko‘rsatkichlarini ishonchligi, to‘g‘riligi va iqtisodiy ahamiyati o‘rganilib, IFCD indeksini hisoblashda foydalanish mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Zamon talablariga ko‘ra indeksning ayrim ko‘rsatkichlari, xususan ularning nomi muvofiqlashtirilgan, soni tartibga solingan, ayrim yangi indikatorlar qo‘shilib, ba’zilari tizimdan chiqarib tashlangan (4.1-jadval).

4.1-jadval

Xalqaro moliyaviy markazlarning rivojlanish indeksida vazni balanslashgan 2-bosqich ko‘rsatkichlar tizimi

Obyektiv ko‘rsatkichlar tizimi (asosiy 5 omil bo‘yicha)	**2-bosqich ko‘rsatkichlar tizimi**
Moliya bozori (Financial market)	Kapital bozori (Capital market)
	Valyuta bozori (Foreign exchange market)
	Bank va sug‘urta bozori (Banking and insurance market)
O‘sish va rivojlanish (Growth & development)	Bozor (kapital bozori)ning o‘sishi (Market growth)
	Iqtisodiy o‘sish (Economic growth)
	Innovatsiyalarni o‘sishi (Innovation growth)
Sanoatni qo‘llab-quvvatlanishi	Sanoat sohasidagi munosabatlar (Industrial relationship)

(Industrial support)	Sanoat sohasidagi ta’lim va intellektual kapital (Industrial talents)
	Sanoat sohasiga yaratilgan muhit (Industrial climate)
Xizmatlar (Service level)	Infratuzilma (Infrastructure)
	Ijtimoiy (sotsial) boshqaruv (Social management)
	Ish va hayot (Job and life)
Umumiy muhit (General environment)	Iqtisodiy muhit (Economic environment)
	Siyosiy muhit (Political environment)
	Ijtimoiy muhit (Social environment)

Indeksdagi obyektiv ko‘rsatkichlar tizimining tarkibi umumiy holda quyidagilardan iborat:

Moliya bozori. Kapital bozori shahardagi fond bozori, obligatsiya, tovar xomashyo bo‘yicha fyuchers bitimlari hajmi, qimmatli qog‘ozlar bozorining baynalminallashuv darajasi orqali hisoblanadi. Valyuta bozori hududning global fyuchers birjalaridagi ulushi, xorijiy valyuta zaxiralari, undagi valyuta kurslarining o‘zgarishi orqali aniqlanadi. Bank va sug‘urta bozori esa markazda yirik banklarning bosh ofislari soni, sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta xizmatlari bilan hisoblanadi.

O‘sish va rivojlanish. Bozor (kapital bozori)ning o‘sishi moliyaviy markazda joylashgan birja listingida yangi obligatsiyalar, kompaniyalar sonini, aksiyalar bo‘yicha bitimlar hajmining o‘sish sur’ati orqali aniqlanadi. Hududning iqtisodiy o‘sishi oxirgi besh yilda YaIMning yillik o‘sish sur’ati, oxirgi uch yilda aholining xarid quvvatini o‘sish sur’ati, ijtimoiy himoya darajasi va soliq stavkalarini o‘sishi orqali baholanadi. Innovatsiyalarning o‘sishi esa, texnologik innovatsiyalar, oxirgi 5 yilda davlatning fan va taraqqiyot, ilmiy tadqiqot ishlariga xarajatlari, shuningdek, mazkur davrda ushbu xarajatning 1 million aholidan 1 kishiga nisbatan yillik o‘sish sur’atiga asoslanadi.

Sanoatni qo‘llab-quvvatlanishi. Sanoat sohasidagi munosabatlar jami tashqi savdo miqdori, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchilarning mustahkamligi, multimilliy kompaniyalar indeksi orqali hisoblansa,

sanoat sohasidagi ta’lim va intellektual kapital iqtidorli mutaxassislarning to‘planishi, oliy ta’limga investitsiya, ta’lim darajasi bilan aniqlanadi. Sanoat sohasiga yaratilgan muhit ishlab chiqarish sanoati, xizmat ko‘rsatish va yuqori texnologiyalar sanoati muhiti bilan baholanadi.

Xizmatlar. Markaz infratuzilmasi yuk tashish ishlari, aeroportlarning pasajirlar bilan ishlashi va axborotlar bilan ishlash imkoniyati bilan baholansa, ijtimoiy (sotsial) boshqaruv xizmatlar sohasidagi ish o‘rinlarining jami ish o‘rinlaridagi salmog‘i, soha ustidan nazoratning sifati, hukumatda raqamli boshqaruv va ishsizlik darajasi orqali aniqlanadi. Hududdagi ish va hayot darajasi yashashning minimal qiymati, aholi punktlari darajasi, ish muhiti bilan o‘lchanadi.

Umumiy muhit. Moliyaviy markaz shaharning iqtisodiy muhiti unda biznes yuritish qulayligi, narx indeksi, iqtisodiy mustaqillik darajasi bilan aniqlansa, siyosiy muhiti siyosiy barqarorlik va majburlashlarning yo‘qligi, davlatning korrupsiyadan holilik indeksi bilan hisoblanadi. Ijtimoiy muhit esa, ijtimoiy baynalminallashuv darajasi, axborotlashtirish darajasining taniqliligi, aholini o‘z turmush tarzidan xursandligi, baxtlilik indeksi orqali baholanadi.

IFCD indeksining subyektiv so‘rov tizimi asosan quyidagi maqsadli savollar bilan amalga oshiriladi:

1. So‘rovnoma orqali 45 ta namunaviy shaharlarning 5 ta jihatiga, ya’ni moliya bozori, o‘sish va rivojlanishi, sanoatni qo‘llab-quvvatlanishi, xizmat ko‘rsatish standartlari va mamlakatdagi umumiy muhitga baho berish;

2. Subyektiv baholash orqali mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimida yuqorida sanalgan 5 ta omilning nechog‘lik ahamiyatli ekanligi, yoki muhimligini aniqlash.

3. BRICS[12] mamlakatlarida moliyaviy markazlar rivojlanishining ishonchliligini o‘rganish.

Tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, xalqaro moliyaviy markazlarda mahalliy bozor faoliyati samarasiz bo‘ladi. Bunga, mamlakatlardagi moliya markazlarining yuqori darajadagi ochiqligi, xorijiy shaxslarning

[12] Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika Respublikasi.

markazga kirib kelishi, undan chiqib ketishi va moliyaviy markazdagi faoliyat erkinligi to‘liq ta’minlanishi, shuningdek, ushbu markaz xalqaro bozor ishtirokchilari bilan kuchli bog‘langan bo‘lishi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

2007- yildan boshlab e’lon qilinib kelayotgan global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI)[13] ko‘rsatkichlarida Nyu-York va Londondan yirik global moliyaviy markazlar sifatida, Gong-Kong va Singapur moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning barcha turlari global moliyaviy markazlar bo‘yicha dunyoda tan olinib kelinmoqda.

Jahon bo‘ylab e’lon qilinadigan GFCI ikkita alohida ma’lumotlar manbasi, ya’ni vositali omillar (instrumental factors) va onlayn so‘rov natijalari bo‘yicha 110 ta moliyaviy markazlarning reyting bahosi va xalqaro moliya tizimida tutgan o‘rni, turli ko‘rsatkichlar majmui asosida qisqacha tavsifini aniqlab ko‘rsatadi. Tadqiqotlarimiz vositali omillarning qator tamoyillarga asosan tanlab olinganligini ko‘rsatadi. Xususan:

- ma’lum soha holatini o‘zida aks ettiruvchi indeksning jahondagi reytingi yuqori ya’ni, taniqli, shuningdek, uni hisoblash metodologiyasi tushunarli va puxta o‘ylab ishlab chiqilgan bo‘lishi;
- indeksdan istalgan joyda, ommaviy foydalanish imkoniyatining mavjudligi va u har olti oyda yangilanib borilishi;
- indeksda imkon qadar vaznli koeffitsiyent qo‘llanilmasligi;
- GFCIni hisoblash modeliga vositali omillarni iloji boricha tuzatishlarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri olishga, shuningdek, uning jahondagi reytingiga, hosilaviy bahosiga va qiymatiga, taqsimotining o‘rtacha qiymati yoki etalloniga e’tibor berib, ularning tanlanishi;
- agar tanlab olingan vositali omil mahalliy darajada bo‘lsa, mazkur omildan faqat ushbu mamlakatda joylashgan moliyaviy markazlarni baholashda foydalanish, jahon moliyaviy markazlarini baholashda imkon qadar mahalliy ko‘rsatkichlardan foydalanmaslik;

[13] Dastlab, global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI) 2007- yil mart oyida “Z/Yen Group” tashkiloti tomonidan e’lon qilingan bo‘lib, har 6 oyda yangilanib kelinmoqda. 2018- yil martda “GFCI”ning 23 nashri e’lon qilingan.

- agar vositali omil hisoblangan indeks shahar yoki millatning o‘ziga xos ko‘plab qadriyat va an’analarini aks ettirsa, ulardan moliyaviy markaz uchun eng muhimi tanlangan holda aniqlangan bahoga katta e’tibor qaratishning maqsadga muvofiqligi.

GFCIni hisoblash mexanizmiga ko‘ra, moliyaviy markazning xalqaro miqyosda tan olingan, o‘ziga xos yutuqlarini inobatga olmagan holda, vositali omilning oldindan belgilangan metodologiyasi bilan aniqlanilgan salbiy yoki ijobiy reytingi haqiqiy deb topilishi kerak. Chunki, tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, markazlarni qiyosiy baholashda yagona metodologiyaga tayanmasdan, markazlar xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilgan alohida-alohida usullardan foydalanish turli darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan:

- vositali omil hisoblangan indekslar turli shakllarda e’lon qilinishi mumkin. Ya’ni, o‘rtacha yoki bazis nuqtasi 100 bilan baholanadigan, oddiy muayyan tartib-qoida asosida joylashtiriladigan, joriy qiymat asosida aniqlanadigan (masalan, 100 metr kvadratga to‘g‘ri keladigan mehnat xarajati (AQSh dollarida)), murakkab usulda hisoblanadigan va h.k;
- indekslar asosida aniqlanadigan me’yoriy-tartib turlicha bo‘lishi, masalan eng yuqori yoki eng past baho ijobiy reyting sanalishi, shuningdek, ushbu indekslar orqali barcha moliyaviy markazlar baholanmasligi, mazkur indekslarda vaznli koeffitsiyentlar ko‘p qo‘llanilgan bo‘lishi ham mumkin.

Onlayn so‘rovlar orqali moliyaviy markazlarni baholovchi mutaxassislar GFCIni hisoblashda quyidagi tamoyillarga e’tibor berishi talab etiladi:

- davriy yangilanish. Belgilangan muddat davomida mutaxassislar, yoki manfaatdor tomonlarning elektron pochtasiga jo‘natilgan anketa savolnomalarga onlayn shaklda bergan davriy javoblari navbatdagi GFCI e’lon qilish uchun to‘planadi;
- baholarning modelda saqlanishi. Mutaxassislarning moliyaviy markazlarga bergan baholari onlayn shaklda olinganidan boshlab 24 oy davomida GFCIni hisoblash modelida saqlanadi;

- o‘rtachalik tamoyili yoki ishonarsiz baholarni hisobga olmaslik. Mutaxassisning moliyaviy markazga bergan bahosi 3 tadan kam bo‘lsa, yoki markazlarga berilgan baholarning umumiy miqdorining yarmidan ko‘p bo‘lsa, ular GFCIni hisoblash modeliga kiritilmaydi;
- oshkoralik va asoslanganlik. Onlayn anketa savolnomalarga javob beruvchi mutaxassislarning qayerda ishlashi to‘g‘risidagi ma’lumotni to‘g‘ri bo‘lishi talab etiladi;
- mutaxassislarning hozirgi bahosini oldingilaridan ko‘ra ahamiyatining yuqoriligi. Yangi GFCIni e’lon qilingan oyda ma’lum bir mutaxassisning markazlarga bergan bahosi GFCIni hisoblashda yuqori vaznga ya’ni 1 koeffitsiyentga teng, markazlarni baholashda avval ishtirok etgan mutaxassislarning bahosi esa GFCIni hisoblashda kichikroq vaznga ega bo‘ladi.

Moliyaviy markazlarni baholash onlayn ravishda berilgan savollarga javoblarni va vositali omillar ma’lumotlarini o‘zida qayta ishlab, moliyaviy markazlar reytingini aniqlovchi – vektorlar bazasi bilan ishlovchi model (support vector machine (SVM)) orqali amalga oshiriladi. SVM statistik usullar asosida o‘tgan davrning murakkab ma’lumotlarini tasniflab, qayta ishlab yangi prognoz ko‘rsatkichlarni aniqlab beradi. Shuningdek, SVM diskret, ma’lum kategoriyalarga tegishli hamda uzluksiz sonli yoki davriy ketma-ketliklar ustidagi amallarni ham yaxshi bajaradi.

GFCIni aniqlash jarayoni 4.2-rasmda ko‘rsatilgan. Bunda, vositali omillar va onlayn savollarga berilgan javoblar, SVM modelidan moliyaviy markazlarni baholashda foydalanish jarayoni o‘z aksini topgan.



4.2-rasm. **Global moliyaviy markazlarning reytingini aniqlash mexanizmi**

Xususan:

- bir necha indekslar moliyaviy markazning ma’lum bir soha raqobatbardoshligini aniqlovchi omil sifatida foydalaniladi;
- kuchli xalqaro ekspertlar guruhining GFCIni aniqlashdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Bunda ular markazning moliya-sanoat sohalarining raqobatbardoshligini ham baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- GFCIni aniqlash jarayonida SVM modeli orqali markazning raqobatbardoshligi va moliya sohasini baholovchi omillarni boshqa kichik omillarga nisbatan ta’sirchanligi ham aniqlanadi. SVM modelida 10 mln dan ko‘p turli shakldagi ma’lumotlar qayta ishlanadi. Natijada, model orqali aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlar haqiqiy ko‘rsatkichlar bilan doimo qiyosiy tahlil etib boriladi.

SVM modeli orqali moliyaviy markazlar raqobatbardoshligini baholashga katta ta’sir etuvchi asosiy birinchi beshtalikdagi omillar sifatida markazdagi malakali kadrlar qobiliyati, sohani tartibga solish

muhiti, xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyati, biznes infratuzilmasining qulayligi, iste’molchilarni jalb etish holatini qayd etib o‘tish mumkin.

Vositali omillar moliyaviy markazning raqobatbardoshligini ta’minlashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan omillarning alohida guruhi hisoblanadi. Xususan, moliyaviy markazda biznes yuritish muhiti, moliya sektori rivojlanishi, infratuzilma, inson kapitali, markazning jahon miqyosidagi nufuzi va boshqa omillar vositali omillar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur omillarning asosini sohalar bo‘yicha jahonda e’lon qilinadigan bir qator xalqaro reytinglar, ko‘rsatkichlar tizimi tashkil etadi.

Moliyaviy markazlar raqobatbardoshligini baholashning qayd etilgan beshta guruh omillari, yoki sohasi tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlarni umumiy ravishda quyidagi ko‘rinishda tizimlashtirish mumkin.

Birinchi guruh, biznes yuritish muhitini baholashda siyosiy barqarorlik va qonun ustuvorligi, institutsional faoliyat va tartibga solish muhiti, makroiqtisodiy muhit, soliqlar va qiymat bo‘yicha raqobatbardoshlik kabi omillardan foydalaniladi.

Ikkinchi guruh, moliya sektorining rivojlanish holatini o‘rganishda moliya bozorida savdo hajmi va operatsiyalarni amalga oshirish tezligiga, moliyaviy tashkilotlar kapital yetarliligiga, faoliyatining turli-tumanligi (kengligi) va mustahkamligi (chuqurligi)ga, iqtisodiyot va moliya sektoridagi ishlab chiqarish va bandlik darajasiga baho beriladi.

Uchinchi guruh, iqtisodiy infratuzilma holatini aniqlashda uy-joy, korxona va tashkilotlar, transport faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi, ekologik holat barqarorligi va unga g‘amxo‘rlik qilish shart-sharoitlari ko‘rib chiqiladi.

To‘rtinchi guruh, inson kapitalini baholashda malakali kadrlar tayyorlash darajasiga, ta’lim va rivojlanish uzviyligiga, mehnat bozori va amaliy tajribalarni o‘zgarishiga, turmush farovonligi yoki sifatiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Beshinchi guruh, markaz nufuzi va umumiy holat – shahar brendi va tarovati, yangiliklarni yaratish holati, madaniyat va jozibadorlikning

turli-tumanligi, boshqa markazlarga nisbatan tutgan qiyosiy o‘rni kabi ko‘rsatkichlar tizimi orqali o‘rganiladi.

Moliyaviy markazlarning turli ko‘rsatkichlar asosida raqobatbardoshlik darajasini aniqlash imkonini beradigan uchta muhim yo‘nalish mavjud.

Birinchi yo‘nalish, markazning aloqalari, ya’ni markazning jahon miqyosidagi qanchalik yaxshi taniqlik darajasini, norezident mutaxassislarning markazni boshqa moliyaviy markazlar bilan aloqasi to‘g‘risidagi bahosini o‘zida mujassam etadi. Mutaxassislardan faqat ular yaxshi biladigan moliyaviy markazlarni baholash talab etiladi. Markazning aloqalari ushbu markaz ichida va tashqarisida joylashgan mutaxassislar fikri bilan baholanadi. Agar markazning o‘rtacha bahosi boshqa moliyaviy markaz eng yuqori reytingining 50 foizidan ko‘p bo‘lsa “global”, 40 foizidan ko‘p bo‘lsa “xalqaro” moliyaviy markaz deb qayd etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish, markaz moliyasining diversifikatsiyasi (kengligi), ya’ni markazdagi moliyaviy xizmat turlarining ko‘pligi, turli-tumanligi, ushbu faoliyat taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Markazni baholashning mazkur yo‘nalishi juda ko‘p iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ya’ni vositali omillarga asoslanadi. Yuqori baho markazdagi moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar turli-tumanligidan, moliyaviy innovatsiyalarga qulay shart-sharoit yaratilganligidan, past reyting esa, biznesni yuritishning moliyaviy mexanizmi yaxshi emasligidan dalolat beradi. Faqat diversifikatsiyalashuv bo‘yicha yetakchi global moliyaviy markazlar sifatida Amsterdam, Chikago, Milan, Moskva va Vashington shaharlari baholanmoqda.

Uchinchi yo‘nalish, markazning ixtisoslashuvi (chuqurligi), yoki moliyaviy markaz iqtisodiyotning moliya, bank, sug‘urta tizimidagi professional xizmat turlarini, moliya sohasini tartibga soluvchi jamoaviy va davlat organlarini, shuningdek, investitsiya faoliyatini boshqarish samaradorligini, mazkur boshqaruvning chuqur va puxta o‘ylab ishlab chiqilganligini o‘zida namoyon etadi. Moliyaviy markazning ixsoslashuvi uning GFCI va moliya sanoat sektorini baholash bo‘yicha to‘plagan reytingi o‘rtasidagi farq asosida hisoblanadi. Faqat

ixtisoslashuv bo‘yicha yetakchi global moliyaviy markazlar sifatida Shenchjen va Lyuksemburg qayd etilmoqda.

Ayni paytda, markaz moliyasining diversifikatsiyasi, ixtisoslashuvi va boshqa moliyaviy markazlar bilan aloqalari bo‘yicha global darajada yetakchi shaharlar Abu-Dabi, Pekin, Dubay, Dublin, Frankfurt, Gonkong, London, Nyu-York, Parij, Seul, Shanxay, Singapur, Sidney, Tokio, Toronto, Syurix hisoblanmoqda.

4.3. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar va masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanish xususiyatlari

Hozirgi kunda jahon moliya bozori taraqqiyotini zamonaviy axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Bunday texnologiyalar dastlab dunyo miqyosida tan olingan moliyaviy markazlarda yaratiladi va sinovdan o‘tib kelmoqda. Bugungi sharoitda, internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, “Elektron hukumat” tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ayni paytda, Osiyoda jahonda birinchi bo‘lgan global moliyaviy markazlar shakllanmagan bo‘lsada, yaqin yillarda mazkur hududda bir nechta global va mahalliy moliyaviy markazlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilganligini tahlillar natijasida aniqlash mumkin. Shuningdek, mamlakatimiz moliya bozori taraqqiyoti ko‘p jihatdan, Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi, moliya bozorining “Yevropa” modeliga mos kelishi, ushbu mamlakatlardagi moliyaviy markazlarning rivojlanish xususiyatlari va omillarini o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi.

1960- yillarda xalqaro, ayniqsa valyutaviy cheklovlarni bekor qilgan holda, xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi G‘arbiy Yevropada va Yaponiyada, shuningdek, boshqa mintaqalarda bank – moliyaviy markazlarni paydo bo‘lishi AQShning jahon moliyaviy markazi sifatidagi monopol maqomini kamaytirdi[14].

Jahon xo‘jaligida Yaponiyaning raqobatbardoshlik bo‘yicha maqomini ortishi, chet el banklararo aloqalarning kuchli tizimini

[14] Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 576 с: ил. С. 294-296.

yaratishi, xalqaro iqtisodiyotda iyenadan keng foydalanish amaliyotining paydo bo‘lishi, valyuta cheklovlarini bekor qilinishi, mamlakatning sof kreditorga aylanishi Tokioni jahon moliyaviy markaziga aylanishiga olib keldi. Yaponiya banklari jahonda, xususan xalqaro operatsiyalar bo‘yicha ayrim AQSh va G‘arbiy Yevropa banklarini orqada qoldirgan holda yetakchilik qiladi. 1990- yillar oxirida Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasida yuz bergan valyuta-moliyaviy, iqtisodiy inqiroz natijasida Yaponiyaning xalqaro maqomida vaqtinchalik pasayish kuzatilgan.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, o‘tgan asrning 50- yillaridan keyin Osiyo mintaqasida ham xalqaro moliyaviy va offshor markazlar shakllandi. Ushbu hududdagi yangi xalqaro moliyaviy markazlarning bozor qonuniyatlari asosida erkin faoliyat yuritishi jahondagi ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqligini kuchaytirdi, kapitalning xalqaro migratsiyasi, xalqaro valyuta va yevrovalyuta, yevrokapital, pul bozori hamda fond birjalari samaradorligini oshirdi. Moliyaviy markazlar tarkibi va faoliyatida shaffoflik ortdi.

Xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanishining zamonaviy bosqichi (1980-yildan hozirgacha)da mintaqaviy moliyaviy markazlar hisoblangan Singapur va Gonkong jahonning yetakchi xalqaro moliyaviy markazlariga aylandi.

Oxirgi 25 yil davomida moliyaviy markazlarning ixtisoslashuvi sodir bo‘moqda. Buning asosiy sababi, moliyaviy markazlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi, markazda faoliyat yurituvchi asosiy moliyaviy institutlar, transmilliy banklar faoliyatining universallashuvi hisoblanadi.

Xususan, Gonkong va Singapur qisqa muddati banklararo kreditlar bozoriga ixtisoslashmoqda. Shuningdek, Singapur Osiyo-tinch okeani mintaqasidagi moliyaviy oqimlarni bir joyga to‘playdi va qayta taqsimlaydi, Syangan (Gonkong) esa, xalqaro sindikatlashgan kredit operatsiyalari bo‘yicha ham ixtisoslashgan.

Osiyoda yetakchi moliyaviy markaz sifatida tan olingan Yaponiya o‘zining milliy moliya tizimini rivojlantirish modelidan kelib chiqqan holda, mamlakat moliya bozorida xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishga sharoit yaratgan bo‘lsada, ushbu bozorda mahalliy operatsiyalar hajmi xalqaro operatsiyalarga nisbatan ancha ko‘p

ekanligi, u yerda ichki bozor ustunligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda, Malayziyaning Kuala-Lumpur shahri esa, islom moliyasi taraqqiyotining asosiy markazlaridan hisoblansa, Gonkong va Singapur Osiyodagi eng yirik xalqaro moliyaviy markazlar sifatida qayd etib kelinmoqda. Ular Osiyo va jahonning qolgan mamlakatlari bilan kuchli moliyaviy aloqalarni ta’minlaydi.

Gonkong va Singapur hajmi yoki ko‘lami jihatdan o‘rtacha moliyaviy markazlar sifatida qayd etilgan, moddiy, siyosiy va hududiy imkoniyatlari cheklangan bo‘lsada, mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalari tez o‘sib bormoqda. Bu esa, jahon miqyosida moliyaviy markaz sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan aloqalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning tarmoqlarni boshqarishdagi ahamiyati shuncha yuqori bo‘ladi. Moliyaviy markazlar bilan taqqoslaganda, ikki mamlakat bank tizimi Avstraliya bilan aloqalar singari o‘rta darajada bir-biri bilan bog‘langan. Qarz munosabatlari, ayniqsa fond bozori rivojlanishi bo‘yicha mazkur mamlakatlar o‘zaro aloqalarning rivojlanishi kapitalga nisbatan Xitoydan, qarz munosabatlarini rivojlanish holatiga ko‘ra Shveytsariyadan keyingi o‘rinni egallab, jahondagi birinchi o‘ntalik moliyaviy markazlari qatoriga kirgan.

Gonkong va Singapur mamlakatlarida moliyaviy-iqtisodiy markaz-lashuvning ortishiga 2008- yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy inqirozi katta ta’sir ko‘rsatgan. Jahonning boshqa moliyaviy markazlarida disbalansning kuchayishi va Osiyoning jadal rivojlanayotgan mam-lakatlarida iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan qayta tiklanishi Gonkong va Singapurning xalqaro moliyaviy-iqtisodiy jozibadorligini oshirdi. Xalqaro munosabatlarning kengayishi Singapurni jahon bank tizimi va qarz munosabatlari bilan, Gonkongni jahon fond bozori bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘paytirdi.

Yaqin istiqbolda Gonkong – fond bozori bo‘yicha, Singapur esa qarz munosabatlarini ifodalovchi moliyaviy vositalar bozori bo‘yicha xalqaro aloqalarining o‘sish darajasi London yoki Nyu-York moliyaviy markazlariga nisbatan yuqori bo‘lishini, shuningdek, ushbu markazlar global iqtisodiyotda muhim moliyaviy markazlarga aylanishini

koʻrsatmoqda. GFCI tadqiqotlarida ham investorlarning qiziqishlari mazkur ikki mamlakatga ortib borishi kutilmoqda. Xalqaro moliyaviy markaz sifatidagi maqomi ortib borayotgan Xitoy bilan birga Osiyodagi boshqa yetakchi shaharlar global moliyaviy markaz shaharlarning birinchi oʻntaligida yetakchilik qilmoqda.

Gonkong moliyaviy infratuzilmasining samarali va xavfsiz faoliyati natijasida xalqaro moliyaviy markaz, ayniqsa yuan biznes offshor markazi sifatida mavqei va raqobatbardoshligi yil sayin ortib bormoqda. Xususan, mazkur holat Xalqaro valyuta fondi tomonidan ham Moliyaviy sektorni baholash dasturi (Financial Sector Assessment program (FSAP))da ham qayd etilgan. Mazkur hujjatda, Gonkongda operatsiyalarni samarali nazorat qilish imkonini beradigan, eng ilgʻor texnologiyalar asosidagi, zamonaviy koʻp valyutali moliya bozori infratuzilmasi shakllanganligi ham koʻrsatilgan.

Gonkong monetar siyosatni olib boruvchi organi mintaqaviy va global barqarorlikni ta’minlash masalasida ham turli darajada oʻtkaziladigan xalqaro kengashlar va muhokamalarda ishtirok etib keladi. Xususan, 2014- yilda Gonkong monetar (pul-kredit) organi mintaqada markaziy bank xodimlari uchun muhim ilmiy-tadqiqot va oʻquv markazi hisoblangan Janubiy-Sharqiy Osiyo markaziy banklari (The South-East Asian Central Banks (SEACEN)) guruhiga qoʻshildi. Mazkur tashkilot Sharqiy Osiyo va Tinch okeani markaziy banklari rahbarlari kengashi (The executives' Meeting of east Asia-pacific Central Banks (EMEAP)) tomonidan tashkil etilgan. Pul-kredit va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash qoʻmitasini boshqarib keladi[15]. Qoʻmita Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy va moliyaviy holatni doimo kuzatib borib, umumiy manfaatli masalalarni hal etadi.

Gonkong pul-kredit organi xalqaro moliya tizimini isloh etishda muhim rol oʻynaydigan Moliyaviy barqarorlik kengashi (Financial

[15] EMEAP Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi 11 ta markaziy bank va pul-kredit organlarining kooperativ forumi. Unga Avstraliya zaxira banki, Xitoy xalq banki, Gonkong monetar (pul-kredit) organi, Indoneziya banki, Yaponiya banki, Koreya banki, Negara Malayziya banki, Yangi Zellandiya zaxira banki, Filippin markaziy banki, Singapur monetar (pul-kredit) organi va Tailand banki kiradi.

Stability Board (FSB))[16]ga kabi ko‘p tomonlama tashkilotlarning turli kengashlarida ham ishtirok etadi.

Gonkong pul-kredit organi ASEAN+3[17] organlari bilan yaqin hamkorlik qilib keladi. Xususan, ASEAN+3 Makroiqtisodiy tadqiqotlar tashkiloti (ASEAN+3 Macroeconomic Research office) doirasida ham hamkorlik mavjud bo‘lib, u mintaqaviy nazorat va iqtisodiy tahlil bo‘yicha mustaqil tashkilot hisoblanadi va Chiang Mai (CMIM)[18] qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Gonkong yuan bo‘yicha asosiy offshor biznes markaz sifatida rivojlanishiga Xitoy rezidentlari uchun yuandagi depozitlar konversiyasi uchun qo‘yilgan cheklovning olib tashlanishi katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa, savdo bilan bog‘liq hisob-kitoblarda, obligatsiyalar emissiyasida, hisob-kitoblar va to‘lovlarni banklar tomonidan kreditlashda yuan bilan operatsiyalarni barqaror oshishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, yuan bilan bog‘liq xalqaro pul oqimlarini Xitoy bo‘ylab ko‘payishiga va Gonkong yuan offshor biznes markazini yanada rivojlanishiga Shanxay-Gonkong fond birjalarini o‘zaro uzviy aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi o‘z ta’sirini ko‘rsatishi kutilmoqda.

Gonkong moliya infratuzilmasidagi turli mexanizmlar o‘zaro bir-biriga xalaqit bermagan holda faoliyat yuritib kelmoqda. Markaziy pul bozori tizimi (the Central Moneymarkets unit (CMU))ni kuchaytirilishi hisobiga bir kunlik va overnayt (bir kechalik) REPO bitimlarini Gonkong pul-kredit organi orqali amalga oshirilishini ta’minlanmoqda. Shuningdek, birjadan tashqari savdo depozitariysini Gonkong xalqaro moliyaviy markazida o‘z faoliyatini boshlashi, hududda mazkur moliyaviy vositalar bilan bog‘liq operatsiyalarni ko‘paytirgan holda xalqaro derivativlar savdosini rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi.

---

[16] FSB – Xalqaro valyuta fondi tomonidan 2009- yil aprelda, global moliyaviy inqiroz boshlanganidan keyin global moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida samarali tartibga solish, nazorat qilish va boshqa strategiyalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish hamda global moliya tizimidagi zaifliklarni bartaraf etish uchun Global barqarorlik forumi o‘rnida tashkil etilgan. Mazkur kengash tarkibiga mamlakatlarning turli moliyaviy organlari, markaziy banklari va moliya tizimini tartibga soluvchi tashkilotlari, moliya vazirliklari, xalqaro moliyaviy institutlar, standartlarni belgilovchi turli organlar hamda markaziy banklarning eksport qo‘mitalari kirgan.

[17] ASEAN+3 tarkibiga 10 ta ya’zo mamlakat, ya’ni Bruney, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Myanma, Filippin, Singapur, Tailand, Vetnam va yana 3ta mamlakat Xitoy, Yaponiya va Koreya kiradi.

[18] Chiang Mai initiative Multilateralisation (CMIM) – 2010- yil martda tashkil etilgan moliya bozorining samarali mexanizmi hisoblanib, mintaqadagi bozor intirokchilarining AQSh dollariga nisbatan qisqa muddatli likvidlilik muammosini hal etishga yordam beradi. 2012 yil mayda mazkur mexanizm fondi ikki barobarga, ya’ni 240 mlrd. AQSh dollariga oshirilib, inqirozli holatlarni oldini olishga xizmat qilmoqda.

Gonkong moliyaviy infratuzilmasida moliya bozori segmentlari yaxlit bir tizimda, xalqaro aloqalar bilan uzviy aloqa qilgan holda faoliyat ko‘rsatadi. Ya’ni, bu yerda bir qator moliyaviy mexanizm va institutlar bir vaqtda, tez va samarali o‘zaro faoliyat yuritishadi.

BAHTNET – Tailand bankining real vaqt ichidagi yalpi hisob-kitoblar (Real Time Gross Settlement (RTGS))i (Tailand batida ishlaydigan RTGS tizimi);

BI-RTGS – Indoneziya bankining real vaqt ichidagi yalpi hisob-kitoblari (Indoneziya rupiyasidagi RTGS tizimi);

CCDC (China Central Depository & Clearing Co., Ltd.) – Xitoy markaziy depozitariysi va kliring kompaniyasi MChJ (Xitoyda qarz qimmatli qog‘ozlari bilan hisob-kitob tizimi);

CDFCPS (China’s Domestic Foreign Currency Payment System) – Xitoy ichki xorijiy valyutalar to‘lovi tizimi (Xitoyda xorijiy valyuta to‘lovlari bilan ishlaydigan RTGS tizimi);

CLS (Continuous Linked Settlement) – Davomli aloqali hisob-kitoblar (global ko‘p valyutali naqd pulli (kassali) hisob-kitoblar tizimi (global multi-currency cash settlement system);

CMU (Central Moneymarkets Unit) – Makaziy pul bozori bo‘limi (qarz qimmatli qog‘ozlari bilan hisob-kitob tizimi);

CNAPS (China National Advanced Payment System) – Xitoy milliy zamonaviy to‘lov tizimi (Xitoyda yuan (renminbi) bilan ishlaydigan RTGS tizimi);

CSDs (Central Securities Depositories) – qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariylari;

HKCC (HKFE Clearing Corp Ltd) – Gonkong kliring korporatsiyasi MChJ (fyucherslar bilan hisob-kitoblar va kliringni amalga oshiruvchi markaziy kontragent);

HKSCC (HK Securities Clearing and Co Ltd) – Gonkong qimmatli qog‘ozlar kliringi kompaniyasi (aksiyalar bo‘yicha kliring va hisob-kitoblar tizimi operatori);

KSD (Korea’s central securities depository) – Koreya qimmatli qog‘ozlar depozitariysi;

RENTAS – Mablag‘lar va qimmatli qog‘ozlarni real vaqt ichida elektron tarzda o‘tkazish (Malayziya ringitida ishlaydigan RTGS tizimi);

SEOCH (SEHK Options Clearing House Ltd) – opsionlar kliringi (opsionlar bilan hisob-kitoblar va kliringni ta’minlovchi markaziy kontragent);

TDCC (Taiwan Depository and Clearing Corporation) – Tayvan depozitariysi va kliring korporatsiyasi (Tayvan qimmatli qog‘ozlar hisob-kitob tizimi);

DvP (Delivery-versus-Payment) – ta’minot (moliyaviy mahsulot)ga to‘lov qilish;

PvP (Payment-versus-Payment) – to‘lovga qarshi to‘lovni amalga oshirish.

Xalqaro moliyaviy markaz sifatida tanilgan Singapur moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni qo‘llab quvvatlashda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olgan:

- e-savdo platformalarini kengaytirish;
- to‘lovlar samaradorligini oshirish;
- risklarni boshqarish maqsadida va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishonchli axborotlarni to‘plovchi sanoat platformalari va texnologik vositalarni rivojlantirish.

Shuningdek, Singapur davlati moliyaviy institutlar tomonidan yangi xizmat turlari yaratilishini, biznesni rivojlantirish ishlarini hamda tashqi va ichki bozorda moliyaviy innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni sinovdan o‘tkazilishini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sharqiy Osiyo mamlakatlari moliya tizimini taraqqiy etishida davlat asosiy rol o‘ynagan va bu o‘z navbatida moliya bozorida yuzaga kelish mumkin bo‘lgan inqirozli holatlarni oldini olish imkonini bergan. Investitsion jarayonlarni erkinlashtirish natijasida Osiyoda bir nechta global va mahalliy moliyaviy markazlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliyaviy markaz, innovatsion mahsulotlar, moliyaviy arxitektura, kliring, kontragent, fyuchers, vositali omillar, inson kapitali, yevrokapital

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy markaz tushunchasini izohlang?
2. Xalqaro moliyaviy markazlarga ta’rif bering?
3. Moliyaviy markazlarning qanday xususiyatlari mavjud?
4. Moliyaviy markazlar xalqaro sanalishi uchun qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
5. Xalqaro moliyaviy markazlar vujudga kelishiga qaysi omillar sabab bo‘lgan?
6. Xalqaro moliyaviy markazlarning milliy moliyaviy markazlardan qanday farqli jihatlari mavjud?
7. Moliyaviy markazlarning qanday turlari mavjud?
8. Milliy iqtisodiyotda global moliyaviy markazlar qanday shart-sharoitlar asosida shakllanadi?
9. Xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tartibini izohlang?
10. Moliyaviy markazlar raqobatbardoshligini baholashning asosiy omillari nimalardan iborat?
11. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar rivojlanish holatini izohlang?
12. Gonkong va Singapur mamlakatlarida xalqaro moliyaviy markazning tashkil topish jarayonini izohlang?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro moliyaviy markazlarning jahon moliyaviy muhitiga ta’sirini tahlil eting.
2. Moliyaviy markazlarni baholash amaliyotini o‘rganing.
3. Jahonda moliyaviy markazlar rivojlanishini tahlil eting.
4. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro moliyaviy oqimlar va yirik hajmdagi operatsiyalarning nisbatan foydali bo‘lgan sohalar bo‘yicha taqsimoti natijasida ma’lum bir joyda to‘planishi yoki marzkazlashuvini anglatadigan, tarixan, milliy bozorlar negizida, keyinchalik jahonning valyuta, kredit, fond va oltin bozorlari asosida paydo bo‘lgan, tarkibida moliya bozorining barcha

sektorlari joylashgan iqtisodiy tushuncha to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) Jahon moliyaviy markazlari;

b) Offshor markazlar;

d) Moliyaviy globallashuv;

e) Xalqaro moliyaviy integratsiya.

2. Xalqaro ssuda kapitallari bozorining markazlari bo‘lgan, banklar va boshqa moliya-kredit institutlarining yuqori konsentratsiyalashuvi, kompyuter texnologiyalariga asoslangan kuchli aloqa tizimiga ega iqtisodiy tushuncha to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) Xalqaro moliyaviy markazlar;

b) Offshor markazlar;

d) Moliyaviy globallashuv;

e) Xalqaro iqtisodiy integratsiya – valyuta ittifoqi.

3. Moliyaviy va maslahat xizmatlarining majmuini, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliyaviy institutlar tizimini, geosiyosiy jihatdan moliya bozori ishtirokchilariga sifatli xizmat ko‘rsatishga, moliyaviy resurslarini jalb etishga va qayta taqsimlashga imkon beradigan infratuzulmaga ega bo‘lgan global shaharlarni o‘zida aks ettirgan iqtisodiy tushuncha to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) Moliyaviy markazlar;

b) Offshor hududlar;

d) Xalqaro port shaharlar;

e) Yevrobozorlar.

4. Rivojlangan mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda jahon moliyaviy arxitekturasini qayta qurish, isloh qilish va mustahkamlash bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyani ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etishda muhim rol o‘ynaydigan, valyuta kurslari, foiz stavkasi va boshqa iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlar bilan banklar, fondlar orqali global moliya-kredit operatsiyalarni legallashtirish vositasida global rentani undirish hududlari bu...

a) Xalqaro moliyaviy markazlar;

b) Offshor hududlar;

d) Erkin iqtisodiy zonalar;

e) Moliyaviy integratsion hududlar.

5. Moliyaviy markazlarga xos xususiyatlar keltirilgan javobni toping?

a) Moliya bozoridagi talabni yuzaga keltiradigan kapitalni bir joyda jamlash, eng zamonaviy axborot texnologiyalari asosida jihozlangan samarali moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi;

b) Moliya bozoridagi vositachilar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar, ya'ni taklifining eng samarali mexanizmi va usullarini o'zida namoyon etgan moliyaviy (investor mablag'larini taqsimlovchi) vositalar majmuini yaratish;

d) Moliyaviy kapital harakati yo'nalishini o'zgartirish va uning ustidan nazoratni amalga oshirish, natijada moliya tizimini isloh qilish imkoniga ega bo'lish;

e) Barcha javoblar to'g'ri.

6. Xalqaro moliyaviy markazlarni milliy moliyaviy markazlardan ajratib turuvchi xususiyatlar keltirilgan javobni toping?

a) Moliya bozorining xorijiy ishtirokchilar uchun mo'ljallanganligi va xalqaro miqyosda ochiqligi, xalqaro aloqalar erkinligi;

b) Markazda xorijiy moliya muassasalari, vositachilar, investorlar yetakchiligi bois, xalqaro moliyaviy kapital harakatini yuzaga keltirishi, pirovardida jahon moliya tizimini isloh qilish imkoniga ega bo'lishi;

d) Jahon miqyosidagi intellektual salohiyatdan foydalangan holda markazni moliya bozorining innovatsion taraqqiyotini ta'minlashi;

e) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Moliyaviy markazlar turlari to'liq tasniflangan javobni toping?

a) Global, zonali va mintaqaviy, xalqaro va offshor hududli;

b) Nyu-York va London shartlari asosida faoliyat yuritadigan;

d) "Ostona" shaklida, "Geografik lokatsiya"ga asoslangan, "Moliyaviy getto" shaklidagi;

e) Barcha javoblar to'g'ri.

8. "The Economist" jurnali mutaxassislari "kapitalga boy poytaxtlar" nomi bilan jahon moliyaviy markazlari sharhida ko'rsatilgan moliyaviy markazlar turlari keltirilgan javobni toping?

a) Yetakchi va boshqa markazlar;

b) Xalqaro, mintaqaviy rivojlangan, davlatlarning siyosiy va iqtisodiy poytaxti bo‘lgan “o‘rta” darajadagi va infratuzilmaning rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan, kichik markazlar;

d) Global, transmilliy va mintaqaviy (lokal), milliy;

e) “Ostona” shaklida, “Geografik lokatsiya”ga asoslangan, “Moliyaviy getto” shaklidagi.

9. “Xinhua News” Agentligi “Chicago Mercantile Exchange Group (CME)” bilan birgalikda e’lon qiladigan Sinxua-Dou-Djons xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanish indeksi (Xinhua-Dow Jones International Financial Center Development Index (IFCD Index))da ko‘rsatilgan moliyaviy markazlar turlari keltirilgan javobni toping?

a) Yetakchi va boshqa markazlar;

b) Xalqaro, mintaqaviy rivojlangan, davlatlarning siyosiy va iqtisodiy poytaxti bo‘lgan “o‘rta” darajadagi va infratuzilmaning rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan, kichik markazlar;

d) Global, transmilliy va mintaqaviy (lokal), milliy;

e) Nyu-York va London shartlari asosida faoliyat yuritadigan.

10. “Z/Yen Group” London kompaniyasi tomonidan e’lon qilinadigan jahonga mashhur global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI)da ko‘rsatilgan moliyaviy markazlar turlari keltirilgan javobni toping?

a) Yetakchi va boshqa markazlar;

b) Xalqaro, mintaqaviy rivojlangan, davlatlarning siyosiy va iqtisodiy poytaxti bo‘lgan “o‘rta” darajadagi va infratuzilmaning rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan, kichik markazlar;

d) Global, transmilliy va mintaqaviy (lokal), milliy;

e) “Ostona” shaklida, “Geografik lokatsiya”ga asoslangan, “Moliyaviy getto” shaklidagi.

5-BOB. XALQARO MOLIYA BOZORI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

5.1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati va xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi

5.2. Xalqaro moliya bozorining rivojlanish va xalqaro kapital harakatining zamonaviy tendensiyalari

5.3. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullari va mexanizmi

5.1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati va xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi

Xalqaro kapital harakati sifatida mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy resurslar oqimi milliy investitsiya va jamg‘arma o‘rtasidagi nomutanosiblik oqibatida kelib chiqadi. Xalqaro kapitallar harakati – ayni vaqtda nisbiy ortiqcha bo‘lgan pul yoki tovar moddiy mablag‘larni mamlakat chegarasidan chetga joylashtirilishidir. Bu iboraning sinonimi kapital eksporti yoki kapitalni chiqarishdir.

Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro kapitallar harakatida o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

– jahonda kapitalning notekis joylashishi. Bunda kapital resursi kapitalga boy mamlakatdan kapitalga muhtoj mamlakatga qarab oqib boradi;

– ko‘p mamlakatlarda jamg‘arma va investitsiyaning nomutanosibligi. Buning natijasida investitsiya uchun ortiqcha mablag‘lar yoki defitsit sodir bo‘ladi. Oqibatda mos ravishda kapitalning sof eksporti yoki importi vujudga keladi;

– mamlakatlarning investitsion muhitidagi, shuningdek, kapital qo‘yilmalar uchun sharoitlardagi farqlanishlar;

– kapital egasining kapitaldan foydalanish samaradorligidagi farqlar va uning boshqa chet eldagi kapitalni egallashga qaratilgan harakatlari hamda kapitaldan samarasiz foydalanayotgan joydan o‘rin olishga harakat qilishi;

– iqtisodiy resurs sifatida odatda kapitalni yuqori darajada safarbar etilishi. Bu holat jahon iqtisodiyoti globallashuvi, erkinlashuvi, transmilliylashuvi va integratsiyalashuvi sharoitida yanada ko‘proq kuchga ega bo‘ladi.

Xalqaro kapitalning asosiy shakllari sifatida rasmiy kapital, xususiy kapital, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli, tadbirkorlik kapitali, ssuda kapitali, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalarni keltirib o‘tish mumkin. Ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va milliy iqtisodiyot uchun qanday shaklda qo‘yish afzal ekanligini 5.1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

Xalqaro kapitalning asosiy shakllari sifatida rasmiy kapital – davlatlararo tashkilotlar va hukumat qarorlari asosida davlat byudjeti mablag‘larini chet eldan qabul qilish yoki chet elda joylashtirishdir.



⟶ - milliy iqtisodiyot uchun afzalligi yuqori

5.1-rasm. **Mamlakat moliya bozori konsepsiyasi va xalqaro kapital harakatining asosiy shakllari**

Xususiy kapital – xususiy yuridik shaxslar (firma, korxona, tashkilot, banklar va boshqalar)ning mablag‘larini ularning boshqaruv organlarining qarorlari asosida chet ellarda joylashtirishdir.

Jahon kapital eksportida xususiy kapital yetakchi bo‘lib, o‘z navbatida davlat kapitali, xalqaro tashkilotlarning kapitali keyingi o‘rinlarda turadi. Odatda davlat va xalqaro tashkilotlar chetga kapitalni ssuda shaklida, kredit va qarz ko‘rinishida hamda moddiy yordam ko‘rinishida chiqaradi. Rasmiy va xususiy kapital xalqaro kapitalning ikki xil: tadbirkorlik va ssuda kapitali shaklida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tadbirkorlik kapitali tadbirkorlik foydasini olish uchun chet elda bevosita va bilvosita mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qo‘yilgan mablag‘lar hisoblanadi.

Xalqaro ssuda kapitali esa muddatlilik, qaytarishlilik, to‘lovlilik shartlari asosida, foiz ko‘rinishida daromad olishni ta’minlovchi, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga chiqarilgan kapitalga aytiladi. Xalqaro ssuda kapitali chet el valyutasidagi depozitlar yoki chet elga bank depozitlari va boshqa qo‘yilmalar, shuningdek, kredit va qarzlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Statistikada ssuda kapitali ko‘rinishidagi investitsiyalarni “boshqa investitsiyalar” sifatida aks etadi.

Tashqi kreditlar va depozitlarning hajmi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qilib kelmoqda. Oxirgi o‘n yillikda ularning hajmi uch barobardan ko‘proqqa oshgan. Bunday kapitalning ¾ qismi banklar orqali xalqaro harakatga keladi. Xalqaro ssuda kapital harakatining asosiy elementlaridan yana biri xalqaro sindikatlashgan kreditlar hisoblanib, ularng rivojlanishi tendensiyasi xalqaro kredit va depozitlar bilan bir xil bo‘lmoqda va jami xalqaro ssuda kapitali harakatidagi ulushi atigi 2%ni tashkil etmoqda.

Rasmiy kapitalni xalqaro miqyosda ssuda kapitali tarzida tashkillashtirishning mamlakat iqtisodiyoti uchun afzallik taraflari kattadir. Ssuda kapitalining afzalligi foyda me’yori va qaytarilishida iqtisodiy risk darajasi kamligidir.

Xalqaro xususiy kapitalning tadbirkorlik kapitali sifatida qo‘yishning afzalligi uni yuqori darajada foyda olishni ta’minlashida va

foyda olish maqsadida tadbirkorlik kapitali mablag‘lari elastikligi yuqoriligida namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik kapitali investorga o‘z mulkidan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va portfel investitsiyalar shaklida foyda olishni ta’minlaydi. Tadbirkorlik kapitali o‘z navbatida to‘rt xil: to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, o‘rta, uzoq muddatli hamda qisqa muddatli xalqaro kapital qo‘yilmalar shaklida namoyon bo‘ladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – mamlakatga uzoq muddatli iqtisodiy foydani ko‘zlab qo‘yilgan kapital bo‘lib, u investorga kapital joylashtirilgan obyekt ustidan nazorat olib borishni ta’minlaydi. Bu odatda korxonaning 10 foizdan kam bo‘lmagan aksiyasi yoki ulushiga ega bo‘lishni talab etadi.

Xalqaro portfel investitsiyalar – chet el qimmatli qog‘ozlari (qarz majburiyatini va ulush munosabatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar va boshqalar)ga qo‘yilgan kapital bo‘lib, u investorga kapital joylashtirilgan obyekt ustidan real nazorat olib borish huquqini bermaydi. Odatda amaliyotda bunday investitsiyalar aksiya, obligatsiya, veksel va boshqa qarz majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlarning kichik paketi, shuningdek, ba’zan portfel investitsiyalardan alohida shakl kasb etuvchi qimmatli qog‘ozlarning hosilalari ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘rta va uzoq muddatli xalqaro kapital qo‘yilmalar – 1 yildan ko‘p muddatga, qisqa muddatlilari esa 1 yilgacha bo‘lgan kapital qo‘yilmalarga aytiladi.

Xalqaro tadbirkorlik kapitalini mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar shaklida jalb etishning afzalligi katta. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar mamlakatda YaIMni yaratishda, aholi bandligini oshirishda, xorijiy mamlakatlardan yangi texnika-texnologiyani jalb etishda, import mahsulotlarini o‘rnini bosadigan eksportbob mahsulotlarni ishlab chiqarishni oshishida bevosita ishtirok etadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalardan o‘rta va uzoq muddatli foydalanish yaxshi samara beradi. Qisqa muddat ichida to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar iqtisodiy samarasining kam bo‘lishiga investitsion faoliyatni mamlakatdagi bozor muhitiga moslashish jarayonini, ishlab

chiqarilgan mahsulotning bozordan o‘rin olishi, sotilishi, ijtimoiy muhit, aholi daromadlari va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro portfel investitsiyalar qisqa muddatli yuqori foyda olishni maqsad qiladi. Bunda investorning qimmatli qog‘ozlar portfeli shakllantiriladi va investor uni boshqarish ya’ni portfelning foydasini maksimallashtirish hamda ushbu portfelning risk darajasini kamaytirish orqali o‘ziga maksimal foydani ta’minlaydi.



5.2-rasm. **Xalqaro moliya bozorining tarkibiy ko‘rinishi**

Xalqaro kapital harakatida ssuda kapitali ham ikki xil ko‘rinishda: o‘rta, uzoq muddatli hamda qisqa muddatli xalqaro kapital qo‘yilmalar shaklida namoyon bo‘ladi. Xalqaro kapital harakatida ssuda kapitalini qisqa muddatli tashkillashtirish afzal hisoblanadi. Ssuda kapitalini shartlari o‘zgaruvchanlikka moyilligi kamligi uchun, mamlakatda iqtisodiy muhit o‘zgara boshlasa, ushbu kapitalning iqtisodiy risk darajasining oshishi, uni qisqa muddatda tashkillashtirishni afzal qilib ko‘rsatadi.

Oxirgi o‘n yillikda xalqaro kapital harakati tarkibida jiddiy o‘zgarish yuz berdi. To‘g‘ridan – to‘g‘ri investitsiyalar miqdori o‘sdi, undanda jadalroq sur’atda portfel investitsiyalar miqdori o‘sdi. Kapitalni ssuda shaklida chiqarish miqdori 2004- yildan boshlab portfel investitsiyalar hajmidan ortib ketdi. 2008- yilda sodir bo‘lgan

inqirozning salbiy ta’siridan ko‘proq xalqaro ssuda kapitallar bozori (boshqa investitsiyalar) aziyat chekdi. Jahonda to‘g‘ridan to‘g‘ri va portfel investitsiyalardan ko‘ra, ssuda kapitali miqdorining ko‘payishiga asosiy sabab xalqaro moliya bozorda arzon kreditlarga asoslanuvchi transmilliy jarayonlarning bo‘lishidir.

Mamlakatdan chetga chiqarilgan kapitallar xalqaro moliya bozori orqali dunyoning qolgan mamlakatlariga qayta taqsimlandi. Xalqaro moliya bozori xalqaro kapitallarga bo‘lgan talab va taklif shakllanadigan, baho beriladigan, jahon iqtisodiyotining moliya sektorida xalqaro moliyaviy aktivlar oldi-sotdi qilinadigan sohadir.

Xalqaro moliya bozori xalqaro valyuta, kredit (depozit), investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, sug‘urta, oltin va hosila moliyaviy vositalar kabi segmentlaridan tashkil topadi (5.2-rasmga qarang).

Xalqaro moliya bozori orqali mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilvosita (kredit (depozit) bozori) va bevosita (qimmatli qog‘ozlar) moliyalashtirilishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy aktivlar o‘zida quyidagi xususiyatlarni jamlaydi:

1. Mehnat natijalarini o‘zida mujassamlashtirgan holda mustahkamlik, ishonchlilik xususiyati. Moliyaviy aktivlarning ishonchli bo‘lishiga tovarlar iste’moli, ayirboshlash va ishlab chiqarishning barcha jarayonlari hamda vaqt omili sabab bo‘lgan.

2. Likvidlilik. Moliyaviy aktivlarning bu xususiyati ularni istalgan vaqtda, tezda boshqa tovarlarga ayirboshlash xususiyatini ko‘rsatadi.

3. Harakatchanlik. Zamonaviy iqtisodiyotda aynan moliyaviy aktivlar jahonning qaysi bir joyida samarali foydalanish imkoniyati paydo bo‘lsa, shu erga tezda etib borish xususiyatiga ega.

4. Universallik. Hozirgi davrda barcha iqtisodiy munosabatlar moliyaviy munosabatlar bilan birga bo‘lmoqda.

5. Real aktivlar taqsimlanmagan holda moliyaviy aktivlarni bo‘linish xususiyati. Ularning bunday xususiyati investitsiyalarni tashkil etishda nafaqat yirik investorlarni, balki kichik investorlar mablag‘larini ham jalb etish imkonini yaratadi, vaqt omilini tejaydi, investitsiyalar aylanish tezligini oshiradi, kapitalning daromadligini ko‘paytiradi.

Kichik investorlar uchun investitsion portfellarini diversifikatsiyalash va o‘z daromadlarini ko‘paytirish imkonini beradi.

6. Qimmatli qog‘ozlarning tovarga o‘xshash xususiyati. Qimmatli qog‘ozlarni oldi – sotdisidan keyin u iste’mol qilinmaydi, qimmatli qog‘ozlar so‘ndirilmaguncha muomaladan chiqmaydi. Qimmatli qog‘oz egasi ixtiyoriy vaqtda ularni bozorga olib kelib sotishi mumkin.

Bir mamlakat moliya bozoridagi salbiy va ijobiy o‘zgarishlarni boshqa bir mamlakat moliya bozoriga ta’siri moliya bozorining globallashuv darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon milliy fond bozorini xalqaro fond bozoriga integratsiyasini ta’minlovchi vositalar orqali amalga oshiriladi va ularning nechog‘lik rivojlanganligini o‘zida namoyon etadi. Milliy fond bozorini xalqaro fond bozoriga integratsiyasini ta’minlovchi vositalar bu xalqaro qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.



5.3-rasm. **Xalqaro qimmatli qog‘ozlarning asosiy shakllari**

Xalqaro qimmatli qog‘ozlar erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarda nominal narxi o‘rnatiladigan, xalqaro fond bozori qoidalari asosida xalqaro anderrayterlar orqali ushbu bozorga joylashtiriladigan qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Xalqaro qimmatli qog‘ozlarning quyidagi asosiy shakllari mavjud (5.3-rasmga qarang).

Chet el obligatsiyalari va yevroobligatsiyalar ko‘rinishidagi qarz qimmatli qog‘ozlari xalqaro qimmatli qog‘ozlarning asosiy shakllaridan biridir. Shuningdek, ularning global aksiyalar ko‘rinishidagi xalqaro aksiyalar va amerika depozitar tilxatlari (aksiyalari) kabi shakllaridan ham amaliyotda foydalaniladi.

Agar xalqaro qimmatli qog‘ozlar bir mamlakat ichidagi ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida turli investorlar orasida muomalada bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida ular mamlakat ichidagi kapitalni qayta taqsimlash vositasiga aylanishi mumkin, shuningdek, xalqaro qimmatli qog‘ozlarni birlamchi joylashtirish mamlakatlar o‘rtasidagi kapitalni qayta taqsimlash xususiyatiga ham ega bo‘ladi.

5.2. Xalqaro moliya bozorining rivojlanish va xalqaro kapital harakatining zamonaviy tendensiyalari

Jahon iqtisodiyotida xalqaro moliya bozorining segmentlari tadrijiy ravishda muayyan bosqichlarda shakllangan (5.1-jadvalga qarang). Mazkur bozor taraqqiyotining oxirgi bosqichida fond segmenti va xalqaro derivativlar bozorlari jadal rivojlangan.

5.1-jadval

Xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi va uning shakllanish bosqichlari

Bosqichlar	Yillar	Xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlar
Birinchi bosqich	1860-yillar	Tashqi savdoning rivojlanishi. Xalqaro oltin-valyuta bozorining paydo bo‘lishi
Ikkinchi bosqich	1950-yillar	Milliy kredit bozorlaridagi operatsiyalarning baynalminallashuvi
	1960-yillar	Xalqaro kredit bozorining shakllanishi

Uchinchi bosqich:	1970-yillar	Uzoq muddatli kapitallar xalqaro bozorining shakllanishi. Milliy fond bozorlarining erkinlashtirilishi. Xalqaro fond bozorining shakllanishi
	1980-yillar	Transmilliy banklar va kompaniyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi. Xalqaro fond bozorlarining yanada kengayishi. Xalqaro sug‘urta bozoridagi dastlabki tizimli operatsiyalarning amalga oshirilishi. Xalqaro kredit bozoridagi operatsiyalarning rivojlanishi
To‘rtinchi bosqich	1990-yillar	Xalqaro moliya bozori fond segmentining jadal rivojlanishi. Xalqaro derivativlar bozorining shakllanishi
	2000-yillar	Xalqaro derivativlar bozorining jadal rivojlanishi

Zamonaviy xalqaro moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Moliya bozori barcha sektorlarining jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan birga kechayotgan baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi;
2. Transmilliy kompaniyalar, banklar va global moliya muassasalari, shuningdek, alohida davlatlar va davlatlar guruhlari o‘rtasidagi xalqaro raqobatning kuchayishi;
3. Chegaralarni oshib o‘tadigan moliyaviy oqimlarning yuqori sur’atlarda harakatlanishi va moliya bozorining tuzilmaviy sektorlari o‘rtasidagi aloqadorlikning oshishi;
4. Axborot tizimlari va elektron aloqa vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi;
5. Bozorni bevosita tartibga solishning susaytirilishi;
6. Moliya bozori ishtirokchilari faoliyatining an’anaviy sohalari o‘zgarishi (universal banklar fond sektorida anderrayter, tashkillashtiruvchi va treyderlarga aylanmoqda; investitsiya banklari sindikatlashgan kreditlarni tashkillashtirmoqda, shuningdek, loyihalarni moliyalash bilan shug‘ullanmoqda; tijorat banklari, o‘z navbatida, investitsiya banklarining an’anaviy faoliyatlariga aralashmoqda va h.k.);

7. Moliya bozori ishtirokchilarining ixtiyoriy qo‘shilishi yoki yirik ishtirokchilar tomonidan o‘z tarkibiga olinishi jarayonlari kuchaymoqda, bu esa, o‘z navbatida, moliya bozorining barcha sektorlarida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘lgan universal moliyaviy xoldinglarning yuza kelishiga sabab bo‘lmoqda;

8. Moliya bozoridagi operatsiyalar riskini kuchayishiga sabab bo‘luvchi derivativlar bilan bitimlar hajmi o‘sish tendensiyasiga ega;

9. AQSh dollari mavqeining tushishi va qadrsizlanishi, bu, o‘z navbatida, xalqaro moliya bozoridagi muvozanatning buzilishiga, zamonaviy moliya bozorining inqirozdan keyingi rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro kapital harakatining zamonaviy holati bilan bog‘liq quyidagi tendensiyalar jahon iqtisodiyoti amaliyotda kuzatilmoqda:

1. Jahondagi kapitalni eksporti va importida rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

2. Xalqaro tadbirkorlik kapitali harakati tarkibida portfel investitsiyalar tomonga siljish tendensiyasi mavjud. Xalqaro portfel investitsiyalar hajmining oshib borishi bugungi kun jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining kelib chiqishiga asosiy sabablardan bo‘lmish “moliyaviy ko‘pik”larning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

3. Xalqaro kreditlar va depozitlarning jahon investitsiyalari tarkibidagi ulushi jahon moliyaviy inqirozidan keyingi davrda kamayib bormoqda.

4. Jahon kapital eksportidagi Xitoyning ulushi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan bir sharoitda, kapital importida AQShning ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Shunga qaramay jahon kapital importida AQShning ulushi hali-hamon saqlanib qolmoqda.

5. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda chet el investitsiyalarini joylashtirishning asosiy sohasi bank – moliya sektori, xizmatlar sohasi (buning ichida axborot telekommunikatsiya sohasi eng yetakchidir), farmatsevtika, biotexnologiya, elektron sanoat, ilmiy va texnologik mashinalar ishlab chiqarish bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda avvalgidek to‘g‘ridan – to‘g‘ri chet el investitsiyalar neft – gaz qazib

chiqarishga, mashinasozlikning alohida sektorlariga, agrosanoat kompleksiga jalb etilmoqda;

6. Tadbirkorlik kapitali migratsiyasida sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida ayniqsa “Uchlik” (AQSh, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya) mamlakatlari asosiy salmoqqa ega;

7. Jahon chet el investitsiyalari bozorida asosiy subyekt sifatida TMKlarning roli oshmoqda.

Xalqaro fond bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalari quyidagilarda o‘z aksini topmoqda:

1. fond bozorining tobora kengayib va chuqurlashib borishi;
2. xalqaro fond aktivlari bilan hosila moliyaviy vositalar savdosining o‘sishi;
3. jahonning yetakchi moliyaviy markazlarida bozorning konsentratsiyasi;
4. bozorning yangi vositalarni yaratishi;
5. bozorning kompyuterlashuvi;
6. xalqaro fond bozorida rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlarining ahamiyatini ortishi.

Bundan tashqari, global moliyaviy inqiroz sharoitida fond bozorlarida quyidagi tendensiyalar yuzaga keldi:

- xalqaro fond bozorida kapitalni jalb etishning va operatsiyalarning asosini tashkil etgan holda, xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlari va xalqaro aksiyalar bozorining oxirgi o‘n yillikdagi hajmi olti barobardan ko‘proqqa oshgan, 2008- yil inqiroz davrida ularning o‘sishi sekinlashgan, xalqaro aksiyalar bozorining hajmi asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga qisqargan bo‘lsada, hozirda ularning hajmi yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda hamda yetakchilik qilmoqda;
- xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar va aksiyalar bozorida rivojlangan mamlakatlar moliyaviy institutlarning yetakchiligi saqlanib qolmoqda.
- rivojlanayotgan mamlakatlar fond bozorining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha diversifikatsiyalashuv darajasini kichikligi inqiroz davrida uning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan;

- moliyaviy inqiroz sharoitida jahonning rivojlangan mamlakatlari fond birjalarida aksiyalar bozori kapitallashuvining YaIMga nisbatan salmog‘i keskin pasaygan. Jahon mamlakatlari YaIMga nisbatan aksiyalar bozori kapitallashuvi inqiroz davrida 55%ni, oxirgi besh yillikda rivojlangan mamlakatlarda qarz munosabatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar YaIMga nisbatan kamida 100%ni tashkil etishi kuzatilgan;

- rivojlanayotgan mamlakatlar fond birjalarida jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida aksiyalar va obligatsiyalar bo‘yicha savdolar hajmi kamaygan.

5.3. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullari va mexanizmi

Xalqaro moliya bozorini tartibga solishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- moliya bozori barcha sektorlarini moliyaviy barqaror bo‘lishiga ko‘maklashish (foiz stavkalarini, moliyaviy, investitsion va sug‘urta faoliyatidagi risklarni tartibga solish);

- inflyatsiyasiz iqtisodiy o‘sishni ta’minlash (targetirlangan inflyatsiya, valyuta kurslari va pul massasini tartibga solish);

- tarmoqlararo va davlatlararo kapital harakatini (pul oqimini) ta’minlash (valyuta kurslari va to‘lov balansini tartibga solish);

- moliya bozori barcha sektorlarida moliyaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozorini rivojlanishiga qarab, uning ishtirokchilari faoliyatini ikki xil tartibga solish amaliyoti taraqqiy topgan, ya’ni ular davlat va bozor munosabatlariga mos yoki bozor orqali tartibga solish shakllari hisoblanadi. Moliya bozorini bozor orqali tartibga solish iqtisodiyotning qiymat va talab-taklif qonuniga asoslanadi. Moliya bozorida ushbu qonunlarning amal qilishi raqobat muhitida jahon iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos ravishda xalqaro moliyaviy oqimlarni ta’minlab beradi. Iqtisodiy agentlar alohida moliyaviy vositalar narxining (kursi yoki foiz stavkasi) o‘zgarishi, shakllanishi orqali ularni sotib oluvchilarning talablarini va ularga

bo‘lgan taklifni aniqlaydilar. Bunda, xalqaro moliya bozori o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi (5.4-rasmga qarang).

Iqtisodiyot sektorlaridagi turli bozorlarga o‘xshab, moliya bozori ham o‘z-o‘zini tartibga solish imkoniyatiga qaramasdan mutlaq barqaror tizim sifatida namoyon bo‘lmaydi, turli sharoitlarda tizimning turli kamchiliklari oshkor bo‘ladi. Moliya bozori ko‘plab subyektiv omillar, ya’ni siyosiy, ijtimoiy, informatsion, madaniy va boshqa omillar ta’sirida har doim ham o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyatiga ega emas. Bunday holatda davlat aralashuvi talab etiladi. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, xalqaro moliya bozori rivojlanishining zamonaviy bosqichida ham monetarizm va keynschilik tamoyillaridan birgalikda foydalanib, jarayonlarni tartibga solish maqsadga muvofiqdir.



5.4-rasm. **Xalqaro moliya bozorini tartibga solishning bozor mexanizmi**

.

Moliya bozorini davlat va bozor orqali tartibga solinishi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boradi. Birinchidan, raqobat asosida bozorda rivojlanish uchun rag‘bat paydo bo‘ladi (monetarchilar g‘oyasi), ikkinchidan moliya bozorini bozor orqali tartibga solishda yuzaga kelgan ziddiyatlarni oldini olishda davlat turli chora-tadbirlari bilan ishtirok etadi (yangi keynschilik g‘oyasi). Iqtisodiy inqirozlar, urushlar, siyosiy nizolar, iqtisodiyotning to‘laligicha beqarorligi sharoitida davlat orqali tartibga solish katta o‘rin tutsa, moliyaviy-iqtisodiy holatni yaxshilash, modernizatsiyalash, innovatsiyalarni yaratish uchun moliya bozorini erkinlashtirish, raqobatni kuchaytirishga katta e’tibor beriladi, bu esa tartibga solishning bozor mexanizmi orqali ta’minlanadi. Bozor mexanizmi orqali moliya tizimini tartibga solish bo‘yicha hukumat doimo o‘z nazoratini olib boradi, zarur bo‘lganda unga ko‘mak beradi, sharoit yaratadi.

Moliya bozorini davlat va bozor mexanizmi orqali tartibga solish usullarini quyidagi mantiqiy juftliklarga birlashtirish mumkin:

- iqtisodiy tizim xususiyatiga ko‘ra: bevosita (mazkur bozorning barcha segmentlariga bir xilda ta’sir etuvchi hukumat, xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan farmon, farmoyish va qarorlar, qonuniy-huquqiy, me’yoriy hujjatlar ko‘rinishida) va bilvosita (xalqaro moliya bozorida iqtisodiy shart-sharoitlar qanchalik erkin bo‘lsa, shunchalik ushbu bozorga bilvosita ta’sir etish darajasi kengayib boraveradi, ya’ni iqtisodiy agentlar manfaatiga qaratilgan tartibga solish usullari bozor qonuniyatlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, Markaziy banklarning ochiq bozor, xorijiy valyutalar bilan bog‘liq intervensiya, svop operatsiyalari, hisob (qayta moliyalash) stavkasini o‘zgartirish, majburiy zaxira me’yorlarini o‘zgartirish, REPO va h.k. kabi) usullar;

- bozor turi, ko‘lami va uning segmentlariga ko‘ra: umumiy (bozorning barcha segmentlariga birdek ta’sir etuvchi) va maxsus (bozorning alohida bir segmentiga ta’sir etish uchun qo‘llaniladigan) usullar;

- amal qilish muddatiga ko‘ra: tarkibiy (o‘rta va uzoq muddatli, strategik maqsadlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan) va joriy (bozorga operativ (tezkor) ta’sir etishga mo‘ljallangan, taktik) usullar.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, yuqoridagi barcha usullar moliya bozorida sinxron tarzda, ya’ni bir-biriga mos holda, o‘zaro bir-birini to‘ldirib ishlaydi.

Xalqaro moliya bozoridagi investitsiyalar oqimini tartibga solishda xalqaro moliya tashkilotlari, davlatlararo tashkilotlar hamda nodavlat institutlari muhim o‘rinni egallashadi. Bunday tashkilotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- BMTning maxsus tashkilotlari (XVF, jahon banki guruhi, YuNKTAD – BMTning savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi, YuNIDO – sanoat rivojlanishi bo‘yicha tashkilot, xalqaro savdo palatasi, xalqaro fond birjalar federatsiyasi);
- qimmatli qog‘ozlar komissiyasi bo‘yicha xalqaro tashkilot;
- moliya bozori ustidan nazorat organlarining xalqaro tashkiloti;
- kreditorlarning Parij va London klublari;
- mintaqaviy moliyaviy tashkilotlar.

Xalqaro moliya bozorini tartibga solishda huquqiy asos bo‘lib xalqaro konvensiyalar va kodekslar, xalqaro investitsion kelishuvlar hamda XVF, Jahon banki guruhi, YuNKTAD hujjatlarida chet el investorlarining ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanish qoidalari belgilangan turli-xil yo‘riqnomalar hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi davrda xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullarini mantiqiy izchil tizimi amal qilmoqda. Xalqaro moliya bozorida asosiy tartibga soluvchi organlar sifatida hukumat va xalqaro moliyaviy institutlarni, ya’ni XVF, jahon banki guruhi, xalqaro qarzdorlik masalalarini hal qiluvchi klublar, mintaqaviy banklar, xalqaro, hududiy, mahalliy investitsion va sug‘urta kompaniyalari, fond va valyuta birjalari, alohida mamlakatlarning markaziy banklari, davriy ravishda tashkil etiladigan xalqaro moliyaviy-iqtisodiy anjumanlar va konferensiyalarni ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro moliya bozorini tartibga soluvchi usulni joriy davr uchun eng maqbulini tanlab olish bozor segmenti va iqtisodiy tizim turiga, iqtisodiyotning beqarorlik darajasiga bog‘liqdir.

5.2-jadval

Xalqaro moliya bozorini tartibga solish mexanizmlarining rivojlanishi

<table>
<tr><th rowspan="2">Xalqaro valyuta bozorini tartibga solish mexanizmlari</th><th colspan="4">Xalqaro moliya bozorining rivojlanishi</th></tr>
<tr><th>1867–1913-yillar</th><th>1922–1936-yillar</th><th>1944–1973-yillar</th><th>1976-yildan hozirgi vaqtgacha</th></tr>
<tr><td rowspan="3">Oltin universal tartibga soluvchi mexanizm sifatida</td><td colspan="2">Oltin paritetlari</td><td rowspan="3">Dollarning oltinga konvertat-siyalanishi; Boshqa valyutalar-ning oltinga almashinishi dollar orqali amalga oshiriladi; Bozorni tashqi tartibga solish</td><td rowspan="3">Oltinning rasman demoneti zatsiyalani-shi; Bozorni tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Oltin zaxira va tartibga soluvchi vosita sifatida</td></tr>
<tr><td>Barcha valyutalarni oltinga konvertat-siyalanishi; O‘zini-o‘zi tartibga soluvchi bozor</td><td>Dollar, funt va frankning oltinga konvertatsiya lanishi; O‘zini-o‘zi tartibga soluvchi bozor</td></tr>
<tr><td>Valyuta kursi rejimini tartibga solish</td><td>Oltin nuqtalar doirasida o‘zini-o‘zi tartibga solish (kurslarning erkin tebranishi)</td><td>Oltin nuqtalarsiz o‘zini-o‘zi tartibga solish (cheklanma-gan erkin tebranish)</td><td>Qat’iy belgilangan paritetlar va kurslar; Qattiq tartibga solish (±0,75; ±1,0%)</td><td>Erkin suzish; Tartibga solishning bilvosita usullari</td></tr>
</table>

Xalqaro moliya institutlari orqali bozorni to‘g‘ridan to‘g‘ri tartibga solish	Konferen-siya	Konferen-siya, yig‘ilish	XVF – bevosita tartibga solish. Jahon banki guruhi va mintaqaviy tartibga soluvchi banklar va fondlarning tashkil etilishi hamda ularga a’zo bo‘lish (JB, OTB, ATB, YeTTB, XHKB)[19]	XVF va boshqa xalqaro tartibga soluvchi organlar, kattalik davlatlari sammitlari

Xalqaro moliya bozorini tartibga soluvchi usulni joriy davr uchun eng maqbulini tanlab olish bozor segmenti va iqtisodiy tizim turiga, iqtisodiyotning beqarorlik darajasiga bog‘liqdir. Bozordagi holatni aniqlash uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar kundalik moliyaviy monitoring olib borishadi. Hozirda moliya bozorini tartibga soluvchi u yoki bu usulni qo‘llash elektron aloqa vositalari yordamida o‘tkaziladigan monitoring natijalariga bog‘liq bo‘lmoqda.

Moliyaviy inqiroz davrida moliya bozoriga bo‘lgan ishonchni tiklash va mustahkamligini oshirish uchun uni tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarurati ortib boradi.

Xalqaro moliya bozorini tartibga solish mexanizmlari o‘z taraqqiyot yo‘lida uch bosqichni bosib o‘tgan:

[19] XVF – Xalqaro valyuta fondi, JB – Jahon banki, OTB – Osiyo taraqqiyot banki, ATB – Amerikaaro taraqqiyot banki, YeTTB – Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, XHKB - Xalqaro hisob-kitoblar banki

1) 1867–1944- yillar – xalqaro moliya bozori o‘zini-o‘zi tartibga solish rejimida faoliyat yuritgan;

2) 1944–1976- yillar – xalqaro moliya bozori qat’iy tashqi bevosita tartibga solish rejimiga amal qilgan;

3) 1976- yildan hozirgi vaqtgacha – o‘zini-o‘zi tartibga solish va tashqi tartibga solish rejimlari uyg‘unligida faoliyat yuritmoqda (5.2- jadvalga qarang).

Bugungi kunda xalqaro moliya bozorini tartibga solish oltinning rasman demonetizatsiyalanishi, bozorni tartibga solishning bevosita va bilvosita usullarining qo‘llanishi, erkin suzib yuruvchi kurslar rejimi orqali tartiblashni, XVF va boshqa xalqaro tartibga soluvchi organlarni, kattalik davlatlari sammitlaridagi turli qarorlar va kelishuvlarni o‘zida aks ettirmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalqaro kapital harakati, rasmiy kapital, xususiy kapital, qisqa, o‘rta va uzoq muddatli, tadbirkorlik kapitali, ssuda kapitali, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, mamlakat moliya bozori konsepsiyasi, investitsiya bozori, kredit (depozit) bozori, valyuta bozori, oltin bozori, sug‘urta bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, hosila moliyaviy vositalar bozori, xalqaro moliyaviy aktivlar, xalqaro qimmatli qog‘ozlar, Amerika va global depozit tilxatlari, xalqaro obligatsiyalar va aksiyalar, aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi, LIBOR stavkasi, sug‘urta bozori mukofotlari, YaIM, xalqaro investitsion pozitsiya aktivlari, xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullari, moliya bozoridagi raqobat, monetaristlar, keynschilik, valyutaviy intervensiya va svop, hisob stavka, qayta moliyalash, majburiy zaxira me’yorlari, REPO, xalqaro va mintaqaviy moliyaviy tashkilotlar, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy anjumanlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va yuzaga kelish shart-sharoitlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2. Xalqaro kapitalning qanday asosiy shakllari mavjud, ularning mohiyatini, farqli jihatlarini aytib bering?
3. Xalqaro moliya bozori nima va uning tarkibiy tuzilishi qanday?
4. Xalqaro moliyaviy aktivlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
5. Qanday qimmatli qog‘ozlar xalqaro qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi?
6. Xalqaro moliya bozorining shakllanish bosqichlarini aytib bering xalqaro moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
7. Xalqaro kapital harakatining zamonaviy holati bilan bog‘liq qanday zamonaviy tendensiyalar mavjud?
8. Xalqaro moliya bozorini tartibga solishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nimalardan iborat?
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro moliya bozorining ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish amaliyotining qanday turlari mavjud, ularga izoh bering?
10. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullarining asosiy guruhlarini va ularning asosiy xususiyatlarini aytib bering?
11. Xalqaro moliya bozoridagi investitsiyalar oqimini tartibga solishning institutsional va huquqiy tizimi qanday?
12. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish mexanizmlarining rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Jahon, milliy va xalqaro moliya bozorini o‘zaro bog‘liqligini va ushbu jarayonda xalqaro moliya bozorini tutgan o‘rnini chizma ko‘rinishida tasvirlang. Bunda mamlakatning ichki va tashqi operatsiyalari ham ishtirok etsin.

2. Milliy moliya bozorini xalqaro moliya bozori operatsiyalarida ishtirokini aniqlovchi omillarni quyidagi jadval bo‘yicha tasniflang.

Makroiqtisodiy omillar		**Geosiyosiy omillar**
Milliy iqtisodiyot bo‘yicha	**Mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni bo‘yicha**	
(masalan, milliy moliya tizimining rivojlanish darajasi va h.k.)	(masalan, to‘lov balansi holati ko‘rsatkichlari va h.k.)	(masalan, jahon moliya tizimiga integratsiya darajasi, geografik joylashuv va h.k.)

3. Xalqaro moliya bozori ishtirokchilarini quyidagi xususiyatlar bo‘yicha klaster ko‘rinishida tasniflang:

– subyektlarning xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarda ishtiroki;

– ushbu bozorda ishtirok etishdan maqsadi va manfaati;

– xalqaro moliya bozoridagi investorlarning turlari.

4. Xalqaro investitsion pozitsiya aktivlari va xalqaro moliyaviy vositalar o‘rtasidagi bog‘liqlik modelini yaratishda dastlabki tuzilgan regression tenglamaning parametrlarini belgilangan kritik me’zonlar asosida baholab chiqing?

Test savollari

1. Xalqaro moliya bozorining ish vaqti rejimi ... davom etadi.

a) London vaqti bilan soat 8^{00} dan 18^{00} gacha;

b) London vaqti bilan soat 6^{00} dan 20^{00} gacha;

d) London vaqti bilan soat 4^{00} dan 22^{00} gacha;

e) kecha va kunduzi to‘xtamasdan.

2. Mamlakatning suveren kredit reytingining oshishi ...

a) milliy moliya bozorining jahonda integratsiyasini kuchaytiradi;

b) illiy moliya bozorining jahonda integratsiyasini kamaytiradi;

d) milliy moliya bozorining jahondagi integratsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi, ya’ni integratsiya darajasi avvalgi holatda saqlanib qoladi;

e) milliy moliya bozorining jahondagi integratsiyalashuv darajasidagi o‘zgarishlarni avvaldan aytib bo‘lmaydi.

3. A mamlakat xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etadi. B mamlakat esa, o‘z-o‘zini ta’minlash va tashqi iqtisodiy aloqalar hajmini kamaytirish siyosatini olib bormoqda. Boshqa shartlar bir xil bo‘lgan holatda, ikki mamlakatdan qaysi birining milliy moliya bozori jahonga integratsiyalashuvi yuqori bo‘ladi?

a) A mamlakat;

b) B mamlakat;

d) har ikkala mamlakat;

e) aytib bo‘lmaydi.

4. Xalqaro moliya bozoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etuvchi subyektlarning xarajatlari ...

a) vositasi orqali qatnashgandan ko‘ra yuqori bo‘ladi;

b) vositasi orqali qatnashgandan ko‘ra kam bo‘ladi;

d) vositasi orqali qatnashgan bilan bir xil bo‘ladi;

e) vositachilik xarajatlariga nisbatan olganda kam yoki ko‘pligini aytib bo‘lmaydi.

5. Xalqaro moliya bozorining quyidagi ishtirokchilaridan qaysi birining operatsiyalarini qolganlariga nisbatan riski yuqori?

a) spekulyant-treyderlar;

b) arbitrajyorlar;

d) vositachilar;

e) xedjerlar.

6. Xalqaro moliya bozorining quyidagi ishtirokchilaridan qaysi birining operatsiyalari ko‘proq hosilali moliyaviy vositalar bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi?

a) xedjerlar;

b) treyderlar;

d) arbitrajyorlar;

e) vositachilar.

7. Moliyaviy globallashuv sharoitida mintaqaviy yoki mahalliy moliyaviy inqirozlarning sodir bo‘lishi ...

a) uni zaiflashtiradi;

b) unda hech qanday o‘zgarishlar sodir qilmaydi;

d) jahon moliya bozorida tizimli inqirozni yuzaga keltiradi;

e) sog‘lom moliya tizimini yuzaga keltiradi.

8. Jahon moliya bozoridagi spekulyativ operatsiyalar ...

a) bozor likvidligini va undagi narxlar barqarorligini oshiradi;

b) bozor likvidligini va undagi narxlar barqarorligini kamaytiradi;

d) bozor likvidligini oshiradi va undagi narxlar barqarorligini kamaytiradi;

e) bozor likvidligini kamaytiradi va undagi narxlar barqarorligini oshiradi.

9. Mamlakatdagi barqaror siyosiy holatni ta’minlab turilishi ...

a) milliy moliya bozorining jahonga integratsiyasini kuchaytiradi;

b) milliy moliya bozorining jahonga integratsiyasini kamaytiradi;

d) milliy moliya bozorining jahonga integratsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi, ya’ni integratsiya darajasi avvalgi holatda saqlanib qoladi;

e) milliy moliya bozorining jahonga integratsiyalashuv darajasidagi o‘zgarishlarni avvaldan aytib bo‘lmaydi.

10. XXI asrning dastlabki 10 yilligida xalqaro moliya bozorida institutsional investorlarning roli ...

a) ortib bormoqda;

b) kamaymoqda;

d) o‘zgarmasdan qolmoqda;

e) aniq bir tendensiya bilan o‘zgarmayapti, ya’ni beqaror holatda.

11. Zamonaviy moliya bozorida uning ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobat ...

a) ortib bormoqda;

b) kamaymoqda;

d) o‘zgarmasdan qolmoqda;

e) aniq bir tendensiya bilan o‘zgarmayapti, ya’ni beqaror holatda.

12. Xalqaro moliya bozori ko‘lamining kengayishi ... uchun foydali, ya’ni afzalliklari ko‘p hisoblanadi:

a) sanoati rivojlangan davlatlar;

b) yuqori daromadli davlatlar;

d) neft import qiluvchi rivojlanayotgan davlatlar;

e) bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi mamlakatlar.

13. Hozirgi sharoitda xalqaro moliya bozoriga kimlarning mablag‘lari nisbatan ko‘proq jalb etilgan?

a) xalqaro moliyaviy tashkilotlar va transmilliy banklar;

b) transmilliy kompaniyalar;

d) rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlarining mablag‘lari;

e) rivojlangan davlatlarning hukumatlarining mablag‘lari.

14. Zamonaviy xalqaro moliya bozorining asosiy xususiyati keltirilgan javobni tanlang.

a) zamonaviy aloqa va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish;

b) muomalada bo‘luvchi bozor instrumentlarining yuqori darajadagi diversifikatsiyasi, ya’ni turli-tumanligi;

d) operatsiyalar hajmining juda kattaligi, yoki ko‘pligi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

15. Milliy moliya bozorining xalqaro bozorga integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi omil keltirilgan javobni toping:

a) xalqaro kapital harakati bilan bog‘liq qonunchilikning erkinlashtirilishi;

b) mamlakatdagi siyosiy holatning barqaror bo‘lishi;

d) mamlakatda yaratilgan qulay investitsiya muhiti;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

16. Zamonaviy xalqaro moliya bozorining asosiy xususiyati keltirilgan javobni tanlang:

a) spekulyativ operatsiyalarning ko‘pligi;

b) bozor segmentlari orasida moliyaviy kapitalning erkin harakati;

d) moliyaviy “pufak”larning shakllanishi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

17. Xalqaro moliya bozorining asosiy funksiyasi keltirilgan javobni tanlang:

a) jahon iqtisodiyoti bo‘yicha moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash;

b) xorijiy valyutadagi moliyaviy aktivlarga bo‘lgan talab va taklif asosida, ularning haqiqiy bozor bahosini aniqlash;

d) moliyaviy risklarni minimallashtirishga qulay sharoitlarni yaratish;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

18. Xalqaro moliya bozori rivojlanishining oxirgi bosqichida mazkur bozorning qaysi segmenti jadal sur’atlar bilan rivojlandi.

a) xalqaro fond bozori;

b) xalqaro kredit bozori;

d) xalqaro valyuta bozori;

e) xalqaro hosila moliyaviy vositalar bozori.

19. Xalqaro moliya bozori rivojlanishining zamonaviy bosqichiga xos asosiy tendensiya keltirilgan javobni toping:

a) bozor ishtirokchilari o‘rtasida xalqaro raqobatning kuchayishi;

b) xalqaro moliya bozorini tartibga solish tizimining susayishi;

d) moliya bozorining tuzilmaviy sektorlari o‘rtasidagi aloqadorlikning oshishi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

20. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro moliya bozorini rivojlanishiga qarab, uning ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish amaliyotining qanday turi taraqqiy topgan?

a) davlat va bozor munosabatlariga mos yoki bozor orqali tartibga solish;

b) to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita tartibga solish;

d) maxsus va umumiy usullar orqali, shuningdek, makroprudensial tartibga solish;

e) tarkibiy va joriy usullar orqali, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlar orqali tartibga solish.

6-BOB. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI

6.1. Valyuta kursi va uning turlari
6.2. Valyuta operatsiyalarining mohiyati
6.3. Valyuta siyosati
6.4. O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi

6.1. Valyuta kursi va uning turlari

Valyuta kursi (exchange rate) bir mamlakat pul birligining ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan bahosi hisoblanadi.

Valyuta yoki ayirboshlash kursi ma’lum bir mamlakatni tashqi dunyo bilan bog‘lab turadi, shuningdek, milliy iqtisodiyot holatini tashqi dunyo bilan taqqoslash, xalqaro iqtisodiy operatsiyalar samaradorligini baholash imkonini beradi. Valyuta kursi mamlakatning joriy iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy holati va istiqboldagi rejalari to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Iqtisodiyoti nisbatan ochiq mamlakatlar uchun valyuta kursi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Chunki uning iqtisodiyotga bevosita yoki bilvosita ta’sir etishi, valyuta kursidagi keskin o‘zgarishlar esa, milliy iqtisodiyotda inqirozli holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Xususan, valyuta kursining o‘zgarishi mamlakatdagi umumiy talab hajmiga, narxlar darajasiga, foiz stavkalar o‘zarishiga, mamlakat ichidagi daromadlar taqsimotiga va iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Milliy valyuta kursini amaldagi zamonaviy talablar va qonunchilik me’yorlariga mos ravishda o‘rnatish tartibi **valyuta kotirovkasi** (currency quotation) deyiladi. Jahon amaliyotida 2 xil turli valyuta kotirovkalaridan foydalaniladi:

To‘g‘ri kotirovka – xorijiy valyuta birligi qiymatining milliy valyuta birligida ifodalanishi.

Teskari kotirovka – milliy valyuta birligi qiymatining xorijiy valyuta birligida ifodalanishi.

Ma’lum bir davriy oraliqda, belgilangan tartibda aniqlangan valyuta kursining eng kichik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq “**punkt**” deb yuritiladi.

To‘g‘ri va teskari kotirovkalar orasida quyidagi bog‘liqlik mavjud: S(UZS/USD) = 1/S(USD/UZS)

Turli anglashilmovchiliklarni sodir etmaslik uchun mavzuga tegishli keyingi holatlarni izohlashda to‘g‘ri kotirovkadan foydalanamiz.

Xalqaro hisob-kitoblarda **kross-kurs**lardan keng foydalaniladi. Kross-kurs uchinchi valyuta (USD) orqali ikki valyuta (UZS, JPY, GBP) o‘rtasidagi kursni aniqlashdir.

Kross-kurslar ikki xil usulda aniqlanadi. Bunda bazaviy valyuta (USD va h.k.) va kotirovka qilinayotgan valyutalar (UZS, JPY, GBP va h.k.)dan foydalaniladi. Ya’ni valyuta kursidagi 1 birlikka teng valyuta bazaviy, boshqa ma’lum qiymatga teng valyuta esa, kotirovka qilinayotgan valyutadir. Masalan, 1 USD (bazaviy) = 8486 UZS (kotirovka qilinayotgan) yoki 1 GBP (bazaviy) = 1,4USD (kotirovka qilinayotgan).

1. Ma’lum ikki valyuta kursining bazasi bir xil valyuta bo‘lsa, bunda ushbu kurslarning o‘zaro nisbati orqali uchinchi valyuta kursi topiladi. Masalan, 1 AQSh dollariga 8486 so‘m (UZS/USD) yoki 150 Yapon yenasi (JPY/USD) almashtirib berilsa, unda 150 JPY = 8486 UZS bo‘ladi va bundan 1 JPY = 56,57 UZS kelib chiqadi, ya’ni 1 JPY/UZS= 56,57 yoki 1 = 56,57 UZS/JPY

Shunday qilib, 1 holat bo‘yicha: *Kross-kurs*

$$UZS/JPY = \frac{UZS/USD}{JPY/USD} = UZS/JPY$$

2. Kross-kursni topish uchun ishlatiladigan uchinchi valyuta ma’lum ikki valyuta kursining birida bazaviy ikkinchisida kotirovka qilinayotgan valyuta bo‘lsa, bunda ushbu kurslarni o‘zaro ko‘paytirish orqali uchinchi valyuta kursi topiladi. Masalan, 1 AQSh dollari 8486 so‘m (UZS/USD) va 1 Buyuk Britaniya funt sterlingi 1,4 AQSh dollari (USD/GBP) bo‘lsa, unda 1 GBP = 1,4 * 8486 UZS bo‘ladi va bundan 1 GBP = 11880,4 UZS kelib chiqadi, ya’ni 1 GBP/UZS= 11880,4 yoki 1 = 11880,4 UZS/GBP

Shunday qilib, 2 holat bo‘yicha: Kross-kurs $\frac{UZS}{GBP} = \frac{USD}{GBP} \cdot \frac{UZS}{USD}$

Valyutalarni oldi-sotdi qilish bo‘yicha bitim tuzayotganda spot va forvard valyuta kurslaridan foydalaniladi.

Spot kurs (spot rate) – valyuta oldi-sotdi bitimini tuzish paytida belgilangan, valyuta bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan, joriy valyuta kursi bo‘lib, bu kurs bo‘yicha tuzilgan bitimlarda uning ishtirokchilari kelishilgan valyutalarni qisqa vaqt (bitim tuzilgan kundan boshlab 2 ish kuni) ichida yetkazib berishni o‘z zimmalariga oladilar.

Forvard (muddatli) valyuta kursi (forward rate) – kelajakda, odatda, 2 ish kunidan ortiq muddatda valyutalarni o‘zaro ayirboshlash uchun foydalaniladigan, joriy valyuta kursi asosida belgilangan muddat uchun taxminiy hisoblangan valyuta kursidir. Shartnomada belgilangan muddat kelganda, bitimda ko‘rsatilgan kursdan joriy kurs farq qilsa, bundan bir tomon foyda oladi, boshqa tomon esa, zarar ko‘radi.

Valyutalar bilan tuziladigan bitimlardan ikkita maqsad ko‘zlangan bo‘lishi mumkin, ya’ni:

- bitim ishtirokchilarini katta zarar ko‘rishidan himoyalash yoki sug‘urtalash;
- valyuta kurslari (forvard va spot kurslari) farqidan spekulyativ foyda olish.

Hozirgi kunda barcha turdagi xalqaro hisob-kitoblar bevosita banklar orqali amalga oshiriladi. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalari bank daromadlarini oshirish manbalaridan biri hisoblanib, banklar o‘z mijozlariga valyutalarni sotish yoki ulardan sotib olishda, 2 turli valyuta kurslarini belgilashadi, ya’ni ular **valyutalarni sotish va sotib olish kurslari**dir. Bankning valyutalarni sotish va sotib olish kurslari o‘rtasidagi farq marja yoki spred deb nomlanadi va ushbu farq bankning valyuta operatsiyalari bilan bog‘liq operatsion xarajatlarini qoplashi hamda unga foyda keltirishi lozim. Valyuta kurslari bo‘yicha spred hajmi banklarda turli valyutalar va mijozlar bo‘yicha bitim hajmiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Xalqaro biznes natijalari nafaqat tegishli mamlakatlar valyuta kurslari, balki milliy va xorijiy bozorlardagi aniq bir mahsulot va

xizmatlar turining narxi bilan ham eksport va import operatsiyalari hajmi qiymati aniqlanib, o‘zaro taqqoslanadi. Shu jihatdan, valyuta kurslarining ikki turi, ya’ni real va nominal valyuta kurslari farqlanadi.

Valyuta kurslari o‘zgarishining erkinlik darajasiga ko‘ra valyuta kurslari qat’iy belgilangan, chegaralangan egiluvchan, suzuvchi valyuta kurslariga bo‘linadi.

Qat’iy belgilangan valyuta kursida milliy valyutalar o‘rtasidagi rasman o‘rnatilgan nisbatning vaqtinchalik 2,25 foizdan oshmagan miqdorda tebranishiga ruxsat beriladi.

Chegaralangan egiluvchan valyuta kursida milliy valyutalar o‘rtasidagi rasman o‘rnatilgan nisbatning belgilangan qoidaga muvofiq katta bo‘lmagan miqdorda tebranishiga ruxsat beriladi.

Suzuvchi valyuta kursi talab va taklif ta’sirida erkin o‘zgaradigan almashuv kursi bo‘lib, ma’lum sharoitlarda davlat valyuta intervensiyasi orqali unga ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Nominal valyuta kursi (nominal exchange rate) – bir milliy valyuta birligining xorijiy valyuta birligida ifodalangan bozordagi bahosi yoki ikki valyuta o‘rtasidagi joriy kursdir.

Real valyuta kursi (real exchange rate) – nominal valyuta kursi asosida ikki mamlakatdagi bir xil turdagi tovar va mahsulotlar narxlari darajasini o‘zaro nisbati orqali hisoblangan valyuta kursidir. Real ayirboshlash kursi xalqaro iqtisodiy nazariyada “savdo shartlari” (terms of trade)dan birini o‘zida namoyon etadi. Jahon iqtisodiyotida milliy iqtisodiyotlarni, xususan, YaIM, YaMD (Yalpi milliy daromad)ni o‘zaro solishtirish odatda, real valyuta yoki valyutalarning xarid quvvati pariteti (RRR) bo‘yicha hisoblangan kurslari orqali amalga oshiriladi.

Real ayirboshlash kursi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$S^* = S\frac{P_f}{P_d}$$

Bu yerda, *S* – nominal valyuta kursi; P_d – milliy pul birligida ifodalangan ichki bozordagi narxlar darajasi; P_f – chet eldagi narxlar darajasi (xorijiy valyutada hisoblangan).

Shuningdek, real valyuta kursi mamlakatdagi u yoki bu mahsulotning nisbiy narxlarini o‘zida aks ettirgan holda, mamlakatning xalqaro savdodagi raqobatbardoshlik darajasini ham ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan misoldagi ma’lum bir tovarlar narxlari darajasi o‘rniga foizlarda yoki koeffitsiyentlarda ifodalangan mamlakatlarning iste’mol narxlari indeksi (consumer price index, CPI)ni, yoki inflyatsiya darajasini tegishli ravishda qo‘ysak, mamlakatlar bo‘yicha real valyuta kursini hisoblagan bo‘lamiz.

Real valyuta kursi, nominal valyuta kursi va xorijiy mamlakatlardagi iste’mol narxlari indeksiga to‘g‘ri, milliy iqtisodiyotdagi iste’mol narxlari indeksiga esa teskari proporsional ravishda o‘zgaradi.

Real valyuta kursining ortishi (ya’ni haqiqatda kamayishi, yuqoridagi misol bo‘yicha 4 barobardan 3 barobarga tushishi) bu mamlakatda ishlab chiqarilgan ma’lum bir tovar narxining boshqa mamlakatga nisbatan ortganligini, ya’ni qimmatlashganligini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu mamlakatning mazkur mahsulot turi bo‘yicha xalqaro raqobatbardoshligini pasayganligidan dalolat beradi.

Real valyuta kursining pasayishi (ya’ni haqiqatda ortishi yuqoridagi misol bo‘yicha 4 barobar 5 barobarga o‘sishi) bu milliy pul birligida ifodalangan xorijiy mahsulotlar bahosining ortishini anglatib, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirib, mahsulotlar eksportini yanada kengayishiga sabab bo‘ladi.

Agar mamlakatlardagi iste’mol mahsulotlarini va xizmatlarning narxlar darajasi bir xil bo‘lsa, real valyuta kursi nominal valyuta kursiga teng bo‘ladi.

Milliy valyutani qanday valyutaga kotirovka qilinishiga qarab valyutalar kursi turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni milliy valyuta kursi ma’lum bir turdagi xorijiy valyutaga nisbatan ortsa, boshqa bir turiga nisbatan pasayadi. Valyuta kursining ma’lum bir turdagi xorijiy valyutaga emas, balki kotirovka qilingan barcha turdagi, yoki ma’lum bir guruh valyutalarga nisbatan oshishi yoki tushishiga, ya’ni dinamikasiga baho berish uchun samarali valyuta kurslari hisoblanadi. Mazkur valyuta kursini hisoblashda mamlakatning asosiy tashqi savdo

hamkorlari bo‘lgan mamlakatlar valyutalari olinadi, chunki eksportyorlar o‘zlarining mahsulotlari va xizmatlari uchun to‘lovlarni asosan ushbu valyutalarda qabul qiladi, shuningdek, bozorda importyorlar tomonidan ularga talab ko‘p bo‘ladi.

Nominal samarali valyuta kursi (nominal effective exchange rate, NEER) – bu mamlakatdagi valyuta operatsiyalarida tashqi savdoda asosiy hamkor bo‘lgan mamlakatlar valyutalarining salmog‘ini inobatga olgan holda hisoblangan, indeks ko‘rinishidagi valyuta kursidir.

NEER quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E_n^e = \sum (P_n^E * W_i)$$

Bu yerda:

E_n^e – nominal samarali valyuta kursi;

$\sum_i$ – mamlakat ko‘rsatkichlari yig‘indisi;

i – tashqi savdoda hamkor mamlakat;

$P_n^E = \frac{E_1}{E_0}$ – tashqi savdo hamkori bo‘lgan har bir mamlakat bo‘yicha bazaviy yil valyuta kursi (E_0)ga nisbatan joriy yildagi nominal valyuta kursi (E_1)ni o‘zgarish indeksi;

$W_i = \frac{EX_i + IM_i}{EX_{total} + IM_{total}}$ – asosiy hamkor mamlakatlar bilan qilingan savdosi (EX_i+IM_i)ning mamlakat tashqi savdosi (EX_{total}+IM_{total})dagi salmog‘i.

Nominal samarali valyuta kurslarini hisoblashda ekspertlarning bahosi muhim ahamiyatga ega. Masalan, XVF metodologiyasi bo‘yicha nominal valyuta kurslarini hisoblash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlab olish zarur:

1. Qolgan barcha valyuta kurslari indekslari hisob-kitob qilinadigan bazaviy yilni tanlab olish;

2. Yil davomida shakllangan valyuta kurslarining o‘rtacha qiymatini hisoblash usulini belgilash;

3. Mamlakatning tashqi savdoda hamkor asosiy davlatlarini aniqlash;

4. Tashqi savdoda hamkor asosiy davlatlar bilan amalga oshirilgan xalqaro operatsiyalarning milliy tashqi savdo hajmidagi ulushini aniqlash;

5. Tashqi savdoda hamkor asosiy davlatlar valyutalariga nisbatan milliy valyutaning o‘rtacha yillik ayirboshlash kursi indeksini bazaviy yilga nisbatan hisoblash;

6. Tashqi savdoda hamkor asosiy davlatlar bilan amalga oshirilgan xalqaro operatsiyalarning milliy tashqi savdo hajmidagi ulushini ushbu davlatlar valyutalariga nisbatan hisoblangan milliy valyutaning o‘rtacha yillik ayirboshlash kursi indeksiga ko‘paytirish va natijalarni umumlashtirish.

Biroq, nominal samarali valyuta kursi nafaqat valyutalar qiymatidagi o‘zgarishlarni, balki hamkor davlatlardagi narxlarning o‘zgarish darajasini ham o‘zida mujassam etadi.

Real samarali valyuta kursi (real effective exchange rate, REER). Nominal samarali valyuta kursidan real tendensiyalarni aniqlash, ya’ni inflyatsiya ko‘rsatkichlarini chiqarib tashlagan holda mamlakatlardagi ishlab chiqarish, iste’mol xarajatlarini solishtirish uchun real samarali valyuta kursi hisob-kitob qilinadi.

REER quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E_r^e = \sum (P_r^E * W_i)$$

Bu yerda:

E_r^e –real samarali valyuta kursi;

$\sum_i$ – i mamlakat ko‘rsatkichlari yig‘indisi;

i – tashqi savdoda hamkor mamlakat;

$P_r^E = \frac{E_r}{E_0}$ – tashqi savdo hamkori bo‘lgan har bir mamlakat bo‘yicha bazaviy yil valyuta kursi (E_0)ga nisbatan joriy yildagi real valyuta kursi (E_r)ni o‘zgarish indeksi;

Agar milliy valyutaning real samarali kursi oshsa ushbu mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi kamayadi, ya’ni ekport tovarlari qimmatlashib, uning miqdori qisqaradi, import mahsulotlari esa, aksincha arzonlashib, miqdori ortib boradi.

Real samarali valyuta kursining rivojlanishi odatda nominal samarali valyuta kursining o‘zgarish tendensiyasiga mos holatda harakatlanadi. Ular o‘rtasidagi katta o‘zgarishlar turli hamkor mamlakatlarda keskin holatda yuzaga kelgan yirik darajadagi inflyatsiya sur’atlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Valyutalarning xarid qobiliyati pariteti (purchasing-power parity (PPP)) asosida hisoblangan valyuta kursi – turli mamlakatlardagi sifati, miqdori va boshqa xususiyatlari bir xil bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarning milliy valyutada ifodalangan qiymatni o‘zaro tenglashtirish orqali aniqlanadigan valyuta kursidir.

Valyutalarning xarid qobiliyati bo‘yicha kurslar odatda, iste’mol savati tovarlari narxlari bo‘yicha hisoblanadi, ya’ni:

$$PPP = \frac{P_A}{P_B}$$

Bu yerda, P_A – A mamlakat iste’mol savatidagi tovarlar va xizmatlarning jami bahosi; P_B – V mamlakat iste’mol savatidagi tovarlar xizmatlarining bahosi.

Biroq, valyutalarning xarid qobiliyati pariteti valyuta kurslari bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Buning asosiy sabablarini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. Har ikki mamlakat iste’mol savatidagi o‘xshash tovarlarni bir xil deb hisoblanishi (ularni yetishtirish, yaratish yoki tayyorlash texnologiyalari va sharoitlari turlicha bo‘lishi, natijada sifati va narxi ham farq qilishi mumkin);

2. Mamlakatlar iste’mol savatidagi tovarlar va xizmatlar turlari sonining har xilligi (bir mamlakatda 100 xil tovar va xizmatlar iste’mol savatiga kirsa, solishtiriladigan boshqa mamlakatda 500 xil va h.k.)

Valyutalarning xarid qobiliyati (yoki tovar) pariteti bilan birga mamlakatlarning valyuta munosabatlari taraqqiyotida **valyutalarning oltin va valyuta paritetlari** ham amalda bo‘lgan. Valyutalarning oltin-valyuta paritetlari jahon valyuta tizimidagi fiksirlangan (qat’iy) belgilangan kurslar rejimi paytida davlatlarning muomaladagi milliy valyutasini uning oltin-valyuta zaxirasiga nisbati orqali topilgan nisbatga

aytilgan. Masalan, oltin tanga standarti (Parij, 1876–1913- yillar) davrida 1 unsiya oltin AQShda $20.67, Buyuk Britaniyada £4.2474ga tenglashtirilgan. Ya’ni ma’lum miqdordagi AQSh dollari yoki funt sterlingni bankka topshirilsa, belgilangan nisbat bo‘yicha ular zaxiradagi oltinga almashtirib berilgan yoki Bretton Vuds valyuta tizimi (AQSh, 1944–1976- yillar) davrida 1 unsiya oltin $35ga almashtirib berilgan. Bu shakldagi valyutalarning oltin tarkibi valyutalarning oltin pariteti deb nom olgan. Shuningdek, valyutalarning oltin tarkibi, yoki oltin pariteti orqali valyuta kurslari ham aniqlangan. Xususan, ($20.67/ 1 unsiya oltin) / (£4.2474 / 1 unsiya oltin) = $4.8665/£.

Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi fundamental omillarning 4 turini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Xususan:

1. Iqtisodiy omillar. Iqtisodiy omillarning asosiylari sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (YaIM, sanoatning o‘sishi, ishsizlik va aholining mehnat bilan bandligi, inflyatsiya, foiz stavkalar va h.k.)ning o‘zgarishi (6.1-jadvalga qarang), mamlakatlar markaziy banklari boshliqlarining chiqishlari va yig‘ilishidagi qarorlar, valyuta intervensiyasi, moliya bozorining valyutadan tashqari boshqa bozorlaridagi o‘zgarishlarni qayd etib o‘tish mumkin.

2. Siyosiy omillar. Siyosiy omillarning asosiylari sifatida prezident, davlat va hukumat boshliqlarini saylash jarayoni va uning natijalari, ularning iste’foga chiqishi, shuningdek, markaziy banklar yoki pul-kredit siyosati bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari rahbar kadrlar almashinuvi, geosiyosiy to‘qnashuv va inqirozlarni ko‘rsatish mumkin.

3. Turli xabarlar va kutishlar. Global valyuta bozorida investorlarni harakatga keltiruvchi shunday ibora bor, ya’ni “turli xabarlar, mish-mish gaplar, ovozalar asosida valyutalarni sotib ol va fakt (dalil, isbot)larga asoslangan holda ularni sot”. Global valyuta bozorida oltin qoidaga aylangan ushbu ibora, shuningdek, boshqa psixologik omillar investorlarning bozordagi harakatini faollashtirishi yoki susaytirishi mumkin.

4. Fors-major holatlari. Favqulodda sodir bo‘lgan hodisalar, masalan, suv toshqini, zilzila, yirik ko‘lamli yong‘in, turli zararli epidemiyalarni, gaz va boshqa zarralarni ommaviy tarqalishi, kuchli to‘fon yoki dovullar va h.k.lar natijasida turli darajadagi vayronagarchilikni yuzaga kelishi. Shuningdek, mamlakatda terroristik xurujlarni, hujum va harakatlari sodir etilishi ham valyuta kurslari o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Valyutalarning eng asosiy xususiyatlaridan biri bu uning konvertatsiyasi, ya’ni ayirboshlanish qobiliyati hisoblanadi. **Valyuta konvertatsiyasi** bu milliy valyutaning xorijiy valyutaga erkin ayirboshlanish, xorijiy mahsulot va xizmatlarni to‘lash qobiliyatidir.

Valyutalar konvertatsiya darajasiga qarab, asosan 3 turga bo‘linadi:

1. Erkin konvertatsiya qilinadigan;
2. Qisman konvertatsiya qilinadigan;
3. Konvertatsiya qilinmaydigan.

Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarga milliy iqtisodiyoti mustahkam, iqtisodiy o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lgan, milliy valyutasiga chet ellik hamkorlar ishonadigan, odatda sanoati rivojlangan mamlakatlar ega bo‘ladilar. O‘zining milliy valyutasining erkin konvertatsiyasini ta’minlash maqsadida davlatlar ichki bozorda mahsulotlar va xizmatlarning jahon bozoridagi narxlarini shakllantirishgan va unga ta’sir ko‘rsatmagan holda erkin tashqi savdo rejimini tashkil etishlari zarur bo‘ladi. Buning uchun esa, mamlakat Markaziy banki valyuta ayirboshlash operatsiyalarini tartibga solish, xorijiy valyutani olib kelish va chiqib ketish bo‘yicha ma’muriy cheklovlarni joriy etmasdan, o‘zida yetarlicha oltin-valyuta zaxirasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Mamlakatlar tomonidan milliy valyutaning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan to‘liq konvertatsiyasiga rasmiy ravishda (ya’ni, amalda esa boshqacha bo‘lgani holda) erishish mamlakat uchun katta miqdorda iqtisodiy zarar keltirishi mumkin.

6.1-jadval

AQShning iqtisodiy rivojlanish koʻrsatkichlarini milliy valyuta kursi (qadri)ga taʼsiri

Koʻrsatkichlar	**Eʼlon qilish davri**	**Koʻrsat-kichning oʻzgarishi**	**Milliy valyuta kursi (qadri)-ning oʻzgari-shi**	**Iqtisodiy mazmuni va taʼsir koʻrsatishi**
Yalpi ichki mahsulot (YaIM) (GDP - Grossdomesticproduct)	Har chorak	Oʻsishi	Oshadi	Mamlakatning investitsiyalarni jalb etish jozibadorligi ortadi
Savdo balansi (Tradebalance)	Har oy	Salbiy qoldiq (saldo)ning oʻsishi (defitsitning koʻpayishi)	Pasayadi	Markaziy bank va hukumatning pul siyosatiga, eksport va import operatsiyalari bilan shugʻullanuvchi kompaniyalar daromadiga taʼsir koʻrsatadi
Isteʼmol narxlari indeksi (Consumerpriceindex (CPI))	Har oy	Oʻsishi	Pasayadi	Chakana savdo mahsulotlari narxida inflyatsiya darajasini koʻrsatadi
Sanoat mahsulotlari narxi indeksi (Producer price index (PPI))	Har oy	Oʻsishi	Pasayadi	Ulgurji savdo mahsulotlari narxida inflyatsiya darajasini koʻrsatadi
Iqtisodiyotning qishloq xoʻjaligidan tashqaridagi tarmoqlarida yaratilgan yangi ish oʻrinlari miqdori (Nonfarm payrolls)	Har oy	Oʻsishi	Oshadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini koʻrsatadi va ishsizlik darajasidan darak beradi

Ishsizlik darajasi (Unemployment rate)	Har oy	O‘sishi	Pasayadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini ko‘rsatadi
Ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish uchun berilgan arizalar (Jobless claims (Initial claims))	Har oy	O‘sishi	Pasayadi	Mamlakatdagi aholining mehnat bilan bandligini ko‘rsatadi
Chakana savdo (Retail sales)	Har oy	O‘sishi	Oshadi	Iste’molchilarning xarajatlarini va unga mos ravishda daromadlarini, shuningdek, korxonalar foydasini ko‘rsatadi
Uzoq muddatli (odatda 3 yildan ortiq) foydalanish uchun mo‘ljallangan (qimmat) mahsulotlarga buyurtmalar (Durable goods orders)	Har oy	O‘sishi	Oshadi	Iste’molchilar daromadlarini, korxonalar foydasini, shuningdek, ularning uzoq muddat davomida daromad yoki foyda olishlaridagi ishonchini ifodalaydi
Yangi turar-joy, uylarni qurish (Housing starts)	Har oy	O‘sishi	Oshadi	Iste’molchilarning uzoq muddatli davriy oraliqda ko‘p daromad olishlarini anglatadi
Sanoat sohasida mahsulotlar ishlab chiqarish (Industrial production)	Har oy	O‘sishi	Oshadi	Mamlakatdagi ishlab chiqarish darajasini ko‘rsatadi va unga investitsiyalarni jalb etish jozibadorligini oshiradi
Chikagodagi menejerlar uyushmasining (Chicago PMI index)[20], Filadelfiyadagi	Har oy	O‘sishi	Oshadi	Valyuta bozori ishtirokchilari va investorlar psixologiyasiga ta’sir

[20] Purchasing Manager Index PMI – xarid bo‘yicha menejerlarning kutishi indeksi bo‘lib, sanoat, yangi byurtmalar, takliflar va ish bilan bandlik indekslaridan tashkil topadi va Chikago Menedjerlar Assotsiatsiyasi tomonidan e’lon qilinadi. Agar indeks ko‘rsatgichi 50 punktdan ortiq bo‘lsa ish faolligi yuqoriligidan dalolat beradi. Ushbu ko‘rsatkich Chikagoda kompaniyalarning mahsulotlar ishlab chiqarish faolligini bashoratlash va ular bo‘yicha investitsion qarorlar qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Federal zaxira bankining (Philadelphia Fed index)[21] ish faolligi, Michigan universitetining iste'molchilarning iqtisodiy ruhiyati* (Michigan consumer sentiment Index), shuningdek, iste'molchilarning ishonch* (Consumer confidence index) indekslari				ko‘rsatadi
Fond bozori indekslari: DJI - (The Dow Jones Industrial); S&P – 500; NASDAQ-100; FTSE; Xetra DAX; Nikkei-225	Doimiy	O‘sishi	Oshadi	Bozor iqtisodiyotining “barometri” bo‘lib, ularda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi barcha hodisalar o‘z aksini topadi
Federal zaxira tizimining qayta moliyalash stavkasi (Federal funds and Discount rates, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholashda asosiy foylaniladigani - Federal funds rate)	Doimiy	O‘sishi	Oshadi	Kreditlash hajmi qisqaradi, muomaladagi dollar miqdori kamayib, uning qadri ortadi

[21] Philadelphia Fed Index , - Filadelfiyadagi Federal zaxira bankining ish faolligi indeksibo‘lib, AQShning Pensilvaniya, Nyu-Djersi va Delaver hududlarida umumiy iqtisodiy holatni ko‘rsatuvchi indeks hisoblanadi. U joriy iqtisodiy holatga xududdagi ishlab chiqaruvchilarning munosabatini ifodalaydi, so‘rovnomalar natijasida har oyda e'lon qilinadi. Agar indeks “0”dan yuqori bo‘lsa, hududda iqtisodiy faollik ortayotganidan, agar indeks manfiy, ya'ni “0”dan kichik bo‘lsa, aksincha iqtisodiy faollikning pasayib borayotganidan dalolat beradi. Indeks sarmoyadorlar tomonidan investitsion qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

*Oxirgi har ikkala indeks iste'molchilarning joriy iqtisodiy holatga ishonchini va bugungi kundagi xarajatlarga moyilligi yoki xohishini ifodalaydi. Iste'molchilar xarajatlarining ortishi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarning ma’lum bir qismi zaxira valyutalari hisoblanadi. **Zaxira valyutalari** boshqa mamlakatlar markaziy banklari tomonidan saqlanadigan va xalqaro hisob-kitoblar uchun zaxira vositasi hisoblangan valyutalardir. Bugungi kunda, zaxira valyutalar sifatida AQSh dollari, funt sterling, yevro, Yaponiya yenasi, Shveytsariya franki qayd etilmoqda.

Qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalar cheklangan miqdordagi xorijiy valyutalarga ayirbosh qilinib, barcha turdagi xalqaro to‘lovlarda foydalanilmaydi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari, jumladan asosan rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning valyutalari qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalar sifatida qayd etiladi.

Konvertatsiya qilinmaydigan valyutalar boshqa mamlakatlar valyutalariga ayirboshlanmaydi. Ular faqat mamlakat ichida milliy pul birligi sifatida foydalaniladi.

Valyuta kurslarini prognozlash (bashoratlash) – kelajakda yuzaga keladigan valyuta kurslarini hisoblashdir. Bunday hisob-kitoblarnng keng tarqalgan turi bu forvard kursini hisoblashdir.

Shu o‘rinda **Fisher[22]ning xalqaro effekti (Fisher samarasi)**ni keltirish o‘rinlidir. Fisher effekti bu tovar, mahsulot narxiga inflyatsiya qanday ta’sir ko‘rsatsa, bank foiz stavkalariga ham xuddi shunday ta’sir ko‘rsatadi deb ta’kidlab, uni isbotlashga harakat qilgan.

Xususan, mamlakatlarda investorlarning depozit foiz stavkalaridan ko‘radigan real daromadlari bir xil bo‘lgan sharoitda nominal depozit foiz stavkalari uchun $(1+\frac{r_n}{100}) = (1+\frac{\rho}{100})\cdot(1+\frac{i_n}{100})$ (10) tenglik o‘rinli bo‘lsa, (1) formula o‘rinli bo‘lishini isbotlab ko‘rsatgan.

$$\frac{r_1 - r_2}{100 + r_2} = \frac{i_1 - i_2}{100 + i_2} (1)$$

[22] Irvin Fisher (Irving Fisher, 1867—1947) — taniqli amerikalik iqtisodchi olim, metematik, monetarizm asoschilaridan biri. U o‘zining “Foiz nazariyasi” ("The Theory of Interest". — N.J.: MacMillan, 1930) nomli asarida nominal foiz stavkalaring o‘zgarishi investitsiyalardan keladigan real daromadlarga emas, balki ko‘proq inflyatsiya sur’atlariga bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. Taniqli iqtisodchi va matematikning qobiliyati ham 1929- yilda yuz bergan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz “Buyuk depressiya” oqibatlaridan qutqara olmadi. Natijada ular oilasining moliyaviy holati fond birjasidagi inqiroz natijasida 9 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ni yo‘qotgan holda og‘ir ahvolga tushib qolgan.

Bu yerda, r – depozitlarning nominal foiz stavkalari; i – inflyatsiya darajasi; n – turli mamlakatlar; ρ- investorlarning depozitlardan oladigan real foiz stavkasi, yoki daromad darajasi.

$$\frac{F_k - S_k}{S_k} = \frac{r_1 - r_2}{100 + r_2} = \frac{i_1 - i_2}{100 + i_2} \quad (2)$$

(2) tenglik Fisherning xalqaro samarasini o‘zida to‘liq ifoda etib, xalqaro kapital va valyuta bozorida valyuta kurslari, nominal foiz stavkalar va inflyatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatni aks ettiradi.

6.2. Valyuta operatsiyalarining mohiyati

Valyuta bozorlarida banklar va kompaniyalar valyuta operatsiyalarini, ya’ni valyutalarning oldi-sotdisini amalga oshiradilar.

Valyuta bozorlari – bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir. Ya’ni, valyuta bozori – bu chet el valyutasini oldi-sotdisini va chet el valyutasidagi qimmatbaho qog‘ozlarni hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz hisoblanadi. Valyuta bozori moliya bozorining muhim va asosiy qismini tashkil qiladi.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalarning asosi bo‘lib, tashqi savdo bo‘yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati hamda chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog‘liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo‘lmaydi. Demak, mamlakatlar o‘rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

Hozirgi zamon valyuta bozorlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular zamonaviy elektron aloqalar orqali bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Turli mamlakatlarda joylashgan xalqaro valyuta bozorlari valyutalarni oldi-sotdi qilish jarayonida bir-biriga nisbatan doimiy ta’sirda bo‘ladi. Jahon valyuta bozorlari asosan valyutaviy

cheklashlar bo‘lmagan yoki zaif tarzda mavjud bo‘lgan mamlakatlarda joylashgan.

Valyuta bozorlarining, asosan, 3 turini ko‘rsatish mumkin, ular milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlaridir.

Valyuta bozorida sotib oluvchi sifatida – talab va sotuvchi sifatida – taklif, bir-biri bilan uchrashadi. Sotib oluvchi yoki sotuvchi sifatida qatnashayotgan har qanday iqtisodiy subyekt, ya’ni davlat, xo‘jalik subyekti yoki fuqaro o‘zining moliyaviy qiziqishlariga ega bo‘ladi. Bu moliyaviy qiziqishlar bir-biri bilan mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Manfaatlar bir-biri bilan mos kelgan taqdirda, valyuta qimmatliklarini oldi-sotdisi haqida bitim tuziladi. Shuning uchun, valyuta bozori valyuta qimmatliklarini sotuvchi va xaridorning qiziqishlarini namoyon qiluvchi o‘ziga xos iqtisodiy instrument hisoblanadi.

Funksional nuqtayi nazardan qaraganda, valyuta bozorlari o‘z vaqtida xalqaro hisob-kitoblarni, valyuta risklarini sug‘urtalashni, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalashni, valyuta intervensiyasini amalga oshiradigan va valyuta bozorida qatnashuvchilarning kurslari o‘rtasidagi farq natijasida keladigan daromadni o‘zida namoyon qiladi.

Institutsional nuqtayi nazardan qaraganda, valyuta bozorlari vakolatli banklarning, investitsion kompaniyalarning, birjalar, brokerlik idoralari, chet el banklari tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini o‘zida namoyon qiladi. Tashkiliy-texnik nuqtayi nazardan qaraganda, valyuta bozori jahonning turli mamlakatlari bilan xalqaro hisob-kitoblar va boshqa valyuta operatsiyalarini bir-birini o‘zaro bog‘lovchi telegraf, telefon, teleks, elektron aloqa vositalari va shu kabi kommunikatsiya tizimlari yig‘indisini o‘zida namoyon qiladi.

Valyuta bozorida sotuvchi va xaridor o‘rtasida chet el valyutasini oldi-sotdi qilishda dallol bo‘lib, faqatgina **banklar** qatnashadilar. Valyuta bo‘limining asosiy vazifasi bo‘lib, o‘zining mijozlariga ma’lum bir valyutadagi aktiv va kapitallarini boshqa bir xorijiy valyutaga konvertirlashni ta’minlash hisoblanadi. Bu jarayon “naqd bitim”, ya’ni spot operatsiyasi yoki “muddatli bitimlar”, ya’ni ularning keng tarqalgan shakli – forvard operatsiyalari shaklida bo‘lishi mumkin.

Jahon valyuta bozorida valyuta oldi-sotdisi tunu-kun amalga oshiriladi. Bunga asosiy sabab, jahon hududiy valyuta bozorlarining turli soat millarida joylashganligi bilan bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda Osiyo - Tokio, Gonkong, Singapur, Melburndagi markazlari bilan, Yevropa - London, Frankfurt-na Mayne, Syurix, Amerika - Nyu-York, Chikago, Los-Anjeles valyuta bozorlari jahon valyuta bozorlarining asosiy qismini egallagan.

Xorijiy valyutadagi bitimlar dunyoning ko‘plab banklarida, taxminan, ertalab soat 9^{00} da boshlanadi, biroq, dilerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Har kuni ertalab, chet el valyutasi bo‘yicha mas’ul xodim (bo‘lim boshlig‘i) o‘zining xodimlarini bitimlar tuzish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar, hamda zaruriy ma’lumotlar va yangiliklar bilan ta’minlaydi.

Jahonning hududiy valyuta bozorlarida odatda barcha valyutalar kotirovka qilinmaydi, balki faqatgina, ushbu bozorda qatnashayotganlarga kerakli bo‘lgan valyutalar, ya’ni mahalliy pul belgilari va bir qator yetakchi erkin konvertirlanadigan valyutalar, birinchi navbatda, zaxira valyutalar (AQSh dollari, Yaponiya iyenasi, yevro, Shveytsariya franki va shu kabi valyutalar)dan keng foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, kurs asosan, yirik banklar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning market-meykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif o‘rtasidagi farqqa bog‘liq holda o‘rnatiladi.

Market-meykerlar – bu turli valyutalarni bitimlar bo‘yicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muassasalari hisoblanadi.

Albatta, market-meykerlar faqatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan holatda chet el valyutalarini o‘zlarini kotirovkalarini ham amalga oshirishlari mumkin.

Umuman, ma’lum bir valyutalarni emitenti bo‘lgan mamlakatlarda shu valyuta bo‘yicha market-meykerlar mazkur mamlakatda joylashgan bo‘ladi. Yevro bo‘yicha yetakchi market-meykerlarni Germaniyadan,

Shveytsariya franki bo‘yicha esa, Shveytsariyadan topish mumkin. Market-meykerlar o‘zi mutaxassis bo‘lib hisoblangan valyutani oldi-sotdi kursi kotirovkasini amalga oshiradi.

Nisbatan kam banklar, butun dunyo bo‘yicha valyuta kotirovkasini beradilar, shunday bo‘lsada, Buyuk Britaniyaning keng tarmoqli kliring banklari kabilar o‘z mijozlariga keng ko‘lamda kotirovkalarini taklif etadi.

Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan bog‘liq operatsiyalarni tijorat banklarida diling bo‘limini o‘zi emas, balki qo‘shimcha bo‘limlar amalga oshiradilar. Kam uchraydigan valyutalar, asosan, valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarda yoki chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarga ma’lum bir cheklovlar qo‘yilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat hududiga valyuta kirib kelishiga emas, balki ko‘proq chiqib ketishiga joriy qilinishi keng qo‘llaniladi. Agar, banklar ushbu (kam qo‘llaniladigan) valyutalar bo‘yicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular o‘zlarining filiallari yoki boshqa valyutalarda pul qabul qilish yoki to‘lovni amalga oshirish maqsadida vakillik banklaridan foydalanadilar.

Naqd kassa bitimi deganda, odatda, spot operatsiyalari tushuniladi.

Spot operatsiyasi, qoida bo‘yicha, bitim kunini hisobga olmagan holatda, ikki ish kuni davomida valyutani ayirboshlash bitimini bildiradi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, valyuta operatsiyalari ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani spot operatsiyalaridir va ushbu bozorlarda tijorat banklarining ulushi sezilarli darajada. Tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining tarkibiga qaraladigan bo‘lsa, unda spot operatsiyalari hajmi jami valyuta operatsiyalarining 80 foiz miqdorini tashkil etadi.

Shuning bilan birga, spot operatsiyalari tijorat banklarining valyuta operatsiyalari ichida eng ko‘p riskka tortilgani bo‘lib hisoblanadi. Bunga asosiy sabab, spot operatsiyalarining qisqa muddatliligi va ularni sug‘urtalashning imkoniyatini yo‘qligidir. Shu sababli, tijorat banklariga **valyuta pozitsiyalari bo‘yicha limit**lar joriy etilgan.

Vakolatli banklarning ochiq valyuta pozitsiyasi yuritilishi haqidagi hisobotni tahlil qilishning zarurati Markaziy Bank tomonidan

respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklari kamaytirilishiga qaratilgan siyosati bilan izohlanadi.

Valyuta pozitsiyasiga limit har bir davlatning iqtisodiy holati va mamlakat moliyaviy tizimining o‘ziga xosligidan kelib chiqib o‘rnatiladi.

Xorijiy valyutalar qator sabablarga ko‘ra spot shartlari asosida oldi-sotdi qilinadi. Xususan, import mahsulotlari, shuningdek, chet el aktivlari (obligatsiya, ko‘chmas mulk va h.k.) uchun to‘lovlarni amalga oshirish, chet elga sayohat yoki xizmat safarlarini moliyaviy ta’minlash va boshq. Spot operatsiyalari orqali banklar o‘z mijozlarining xorijiy valyutadagi ehtiyojlarini qondiradi, arbitraj (spekulyativ) operatsiyalarni amalga oshiradi, xorijiy valyutadagi qisqa muddatli kapital harakatini yuzaga keltiradi.

Spot shartlari asosida valyutalar savdosida keng tarqalgan usullardan biri marja asosidagi savdo hisoblanadi. Spot bitimida marja boshlang‘ich kapital vazifasini bajarib, dilerlik yoki kliring, birja, savdo markazi uchun o‘tkaziladigan operatsiyalarga garov rolini bajaradi. Savdo tashkilotchisiga taqdim etilganidan so‘ng uni kredit “yelkasi” yoki “richagi” orqali bir necha barobar (1:30, 1:40, 1:50 yoki 1:100 va h.k.)ga oshirgan holda valyutalar savdosini amalga oshirish mumkin. Natijada, qo‘yilgan summadan bir necha barobar katta mablag‘ bilan valyutalar oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirib, qo‘yilgan marjadan ko‘p bo‘lmagan zarar bilan katta miqdordagi foydani olish mumkin bo‘ladi. Kurslar o‘zgarishidan ko‘rilgan zarar hajmi birjaga qo‘yilgan marjadan chegirib (ayirib) olinadi, natijada garov ta’minotingiz kamayib boradi. Aksincha, spot bitimida valyuta kurslari tebranishidan foyda ola boshlasangiz, ular marja ustiga qo‘shilib boradi.

Arbitraj operatsiyalari – valyuta kurslari farqidan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan spekulyativ operatsiyalardan biridir. Bunda odatda, arbitrajyor ma’lum bir qisqa vaqt oralig‘ida turli joylardagi valyuta bozorlarida shakllangan bir turli valyuta kurslari farqidan foyda oladi. Ya’ni, bir joydan valyutani arzon sotib olib, boshqa bir joyda qimmatroqqa sotadi. Bu kabi, qisqa muddatli valyuta arbitraji operatsiyalarida risk darajasi uzoq muddatli valyuta

operatsiyalariga nisbatan kam bo‘ladi. Arbitrajyorlar valyuta bozordagi kurslarning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash maqsadida doimo ularni kuzatib boradilar, yirik banklar faoliyati natijalarini prognozlash, bozorga keskin ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Ayni bir yoki turli moliya markazida ma’lum bir qisqa vaqt oralig‘ida bozor kursi o‘rtacha kursdan sezilarli darajada farq qilsa, u holda turli narxlar natijasida foyda olish maqsadida jarayonni amalga oshiruvchi valyuta arbitraji operatsiyalarining davomiyligi orqali kurslar muvozanatga keltiriladi, ya’ni o‘zaro tenglashtiriladi, tartibga solinadi. Shu orqali valyuta biznesi pul tizimini muhim tartibga soluvchisi sifatida harakat qiladi.

Agar arbitrajda ikkita valyuta ishtirok etsa, ikki tomonlama, uchta valyuta ishtirok etsa, uch tomonlama arbitraj deb nomlanadi. Uch tomonlama arbitraj kross-kurslar natijasida aniqlangan, turli bozorlardagi valyuta kurslarining o‘zaro mos kelmasligi hisobiga amalga oshiriladi va undan foyda olinadi.

Masalan, bir bozorda quyidagi valyuta kurslari shakllangan: 1 USD = 1.6 CHF (Shveytsariya franki); 1 USD = 27.5 RUR (Rossiya rubli); 1 CHF = 16.5 RUR. Mazkur holat bo‘yicha quyidagi tartibda arbitraj operatsiyasini amalga oshirib foyda olish mumkin:

1. AQSh dollarini Rossiya rubliga sotiladi (1 USD = 27.5 RUR).

2. Rossiya rubliga Shveytsariya franki sotib olinadi (1.67 CHF (27.5/16.5) = 27.5 RUR).

3. Shveytsariya frankiga yana AQSh dollari sotib olinadi 1.67 CHF= 1.04 USD (1.67/1.6).

Ushbu operatsiyadan ko‘rilgan foyda 0.04 AQSh dollarini tashkil etadi. Bu qiymat bitim summasi qanchalik katta bo‘lsa, shunchalik yiriklashib boradi.

Ikki tomonlama arbitraj kabi uch tmonlama arbitraj ham qaysi moliyaviy markazda valyuta kursi past bo‘lsa, shu yerda valyutaga bo‘lgan talabni doimo ortib borishiga sabab bo‘ladi. Qayerda valyuta kursi qimmat bo‘lsa, shu yerda valyutalar taklifi ortib boradi. Natijada, valyutaviy arbitraj operatsiyalari oqibatida global valyuta bozorida

movozanatli kurs shakllanib boradi, moliyaviy markazlarda valyuta kurslari o‘rtasidagi farqlarning yo‘qolishi hisobiga ularning o‘zaro integratsiyasi yanada kuchayadi va yagona xalqaro valyuta bozorining ko‘lamini ortishiga sharoit yaratiladi.

Xalqaro kompaniyalarning moliyaviy menejerlari kam xarajat va risk bilan valyuta bozoridagi qisqa va uzoq muddatli arbitraj operatsiyalari orqali kompaniyaga qo‘shimcha foyda keltirishlari mumkin.

Muddatli bitimlar bilan bog‘liq operatsiyalar. Tijorat banklarining **muddatli bitimlar**i deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan keyin amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi.

Amaliyotda muddatli bitimlarning keng tarqalgan quyidagi turlari mavjud:

- forvard valyuta bitimlari;
- moliyaviy fyuchers bitimlari;
- valyuta opsioni;
- svop operatsiyalari.

Forvard valyuta bitimi – bu, valyuta bo‘yicha bitim imzolangan sanadan boshlab, ikki ish kunidan keyin amalga oshiriladigan to‘lovni nazarda tutuvchi bitimdir. Bu bitimni aniq bir sanada yoki ikki sana orasida amalga oshirishni nazarda tutishi mumkin.

Ushbu bitimning ayrim o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari mavjud:

a) bu voz kechib bo‘lmaydigan va majburiy shartnomadir. Bitim tuzilgandan keyin mijoz bitimdan voz kechishga haqqi yo‘q. Mijoz shartnomada ko‘rsatilgan chet el valyutasini sotib olishi yoki sotishi shart.

b) bu bitim chet el valyutasidagi aniq bir summani tashkil etadi. Mijoz bitimda ko‘rsatilgan summadan ko‘proq valyutani sotib olishga ham, sotishga ham haqqi yo‘q.

d) bitim kelajakdagi aniq bir sanada bajarilishi shart (ikkita aniq sananing orasida). Mijozda forvard bitimi bajarilish sanasini uzoqlashtirishga ham, yaqinlashtirishga ham vakolat yo‘q.

Forvard valyuta bitimining shartlari qattiq hisoblanadi, agar mijoz uning shartlarini bajara olmasa, bank mijozning forvard valyuta

bitimidagi majburiyatlarni bajarmasdan ketib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki bitimning muddatini “uzaytiradi” yoki bank o‘z hisobidan majburiy ravishda “so‘ndiradi”.

Forvard valyuta bitimi *qat’iy belgilangan*, yoki *opsionli* bo‘ladi.

a) **qat’iy belgilangan forvard valyuta bitimi** — bu, kelajakdagi aniq bir sanada bajarilishi shart bo‘lgan bitimdir. Masalan, 1 sentyabrda tuzilgan qat’iy belgilangan ikki oylik forvard valyuta bitimi, ya’ni ikki oydan so‘ng amalga oshiriladigan bitim;

b) **opsionli forvard bitimi** — bu, mijozning xohishiga ko‘ra yoki bitim tuzilgan vaqtdan uning bajarilishigacha bo‘lgan davrning ichida xohlagan vaqtda yoki ikkita aniq sana davomida amalga oshiriladigan bitimdir.

Qayd etib o‘tish lozimki, forvard valyuta bitimi sof valyuta opsionlaridan farq qiladi. Valyuta opsioni mijozga kelishilgan bitim shartlarini bajarish va bajarmaslik huquqlarini beradi. Forvardli opsion esa, mijozga uni bajarmaslik huquqini bermaydi.

Valyutalar bo‘yicha fyuchers bitimlari – bu kelajakdagi ma’lum bir sanaga ma’lum hajmdagi valyutani oldindan belgilangan kurs bo‘yicha oldi-sotdi qilish bitimidir. Bu jihatlari bilan ular forvard valyuta bitimlariga o‘xshaydilar, biroq, forvard bitimlaridan farqli o‘laroq, ular:

a) juda oddiy tarzda bekor qilinadi;

b) valyutalar savdosi bo‘yicha bitim qat’iy belgilangan standart summaga tuziladi (masalan, AQSh dollariga fyuchers bo‘yicha 25000 funt sterling, AQSh dollariga fyuchers bo‘yicha 125000 yevro va h.k.);

d) rasmiy birjalarda sotiladi;

e) fyuchers sotuvchilari fyuchers majburiyatlari bajarilishini kafolatlash uchun birja dilerlariga “pullik marja”ni to‘lashni ko‘zda tutishlari kerak.

Bitimning tugallanishigacha qayta baholanish natijasida yuzaga keluvchi taqchillikni qoplashga kiritilishi lozim bo‘lgan **marja tizimi** — kafolatning a’zolik badalini ta’minlaydi.

Birjaga a’zo bo‘lish yoki birjada operatsiyalarni amalga oshirish istagini bildirgan har qanday tomon birjada bitimlarni amalga

oshirishning huquqiy va amaliy jihatlari bilan tanishishi lozim. Yana shuni hisobga olish kerakki, tashkilot yoki rasmiy shaxs nomidan birjada qatnashayotgan birja a’zosi o‘zining birjaga birinchi kiritgan marjasidan ko‘proq marjani talab etishi mumkin. Bunga sabab, har kuni marjaga kerak bo‘lgan mablag‘ni so‘rab, tashkilotni bezovta qilmaslikdir. Bu asosan, bozor nihoyatda tez o‘zgaruvchan va nobarqaror holatda bo‘lganida namoyon bo‘ladi.

Valyuta opsioni. Valyuta opsioni uning xaridoriga ma’lum bir huquqni beradi, ayni paytda, uning zimmasiga kelajakdagi ma’lum muddatda belgilangan narx bo‘yicha xorijiy valyutaning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi. Opsionni sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat’iy belgilangan narx bo‘yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarni xarid qilish va sotish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi. Opsion xaridori (shuningdek, opsion egasi deb nomlanadi) ushbu operatsiyani amalga oshirish huquqini olish evaziga belgilangan miqdordagi pulni – vositachilik haqini to‘laydi. Opsion oldindan belgilangan muddatgacha kuchga ega bo‘ladi. Ushbu muddat **ekspiratsiya sanasi** deb ataladi.

Valyuta opsioni birinchi marta 1982- yili Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan edi. Opsiondan investitsiya portfelining muhim elementi va sug‘urtalashning samarali usuli sifatida foydalanish uchun uning qanday ishlashini bilish lozim.

Opsionlarning quyidagi *ikkita asosiy turi* mavjud:

- *“koll-opsion”* yoki xarid qilish uchun opsion;
- “*put-opsion*” yoki sotish uchun opsion.

Masalan, koll-opsionning xaridori 1 AQSh dollariga 2300 so‘m nisbatdagi kurs bo‘yicha 100 AQSh dollarini sotib olish huquqiga ega bo‘ladi. Put-opsionning xaridori esa, xuddi o‘sha shartlarda oldindan belgilangan muddatda, masalan, joriy oyning 30 sanasiga qadar ushbu narxlar bo‘yicha AQSh dollarini sotish huquqiga ega. Opsionning sotuvchisi koll-opsion holatida opsionni bajarishi, ya’ni sotishi lozim. Put-opsion holatida esa, opsion xaridori buni talab qilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart, “hisob-kitob” opsioni bajarilgan holda foyda (zararlar) pul shaklida hisoblanadi.

Valyuta opsionlari valyuta riskini kamaytirish va oldini olish maqsadida foydalaniladi.

Agar ayirboshlanish kursining yaxshi tomonga o‘zgarishi yuz bersa, opsion import qiluvchi (eksport qiluvchi) undan daromad olish imkoniyatini tug‘diradi (bunda u forvard valyuta bitimlaridan import qiluvchi (eksport qiluvchi)ning qat’iy belgilangan kursga bog‘lanib qolishining oldini oladi).

Shuningdek, opsionlarning quyidagi turlari mavjud:

Amerika opsioni deb, odatda, opsionni harakat muddatini xohlagan vaqtida bajarilishiga aytiladi. Shuning uchun, opsionni harakat muddati uning birinchi va oxirgi hisob-kitob sanasi orasida o‘rnatiladi.

Yevropa opsioni deb, odatda opsionning faqat hisob-kitobning ma’lum bir oxirgi aniq davrida bajarilishiga aytiladi. Opsion bitimi bo‘yicha hisob-kitobni amalga oshirish uchun ikki ish kuni olinadi.

Valyuta opsionlari turli moliya institutlarida rasmiylashtirilishi mumkin, xususan bankning mijozlari uchun yoziladigan – **birjadan tashqari opsionlar** va opsion birjalaridan sotib olish mumkin bo‘lgan – **birja opsionlari**.

Birjadan tashqari opsionlar odatda bank tomonidan ishbilarmon mijozga yozilib, ularning eng asosiy kamchiligi – muomalasining yo‘qligi hisoblanadi. Mijoz opsionni bajarilish sanasigacha ushlab turishi yoki uni bajarishi, yoki uning muddatini o‘tib ketishiga yo‘l qo‘yishi kerak.

Valyuta opsionlarining ommabopligi o‘sib, undan foydalanish borgan sari kengayib bormoqda. Banklar o‘z mijozlariga ularni sotishda faol qatnashishga harakat qiladilar.

Lekin, **valyuta opsionlarining** quyidagi **kamchiliklari** mavjuddir:

Baho. Valyuta opsionlari kompaniyalarni nafaqat yomon holatlardan, hatto, valyuta risklaridan ham himoya qiladi. Ularga valyuta kurslarining “ijobiy” o‘zgarishidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu xizmat so‘zsiz qimmatli hisoblanadi. Mukofotning bahosi valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5 foiz atrofini tashkil qiladi, shunday

bo‘lsada, summaning aniqligi kutilayotgan kursning ayirboshlanishi o‘zgarishiga bog‘liqdir.

“Oldindan” to‘lovning zarurligi. Valyuta opsionlari uning tuzilish vaqtida to‘lanadi. Bu barcha kompaniyalarga yoqmaydi, chunki ular opsionni amalga oshirishni istasalar ham, ular har doim naqd pulga ega bo‘lmaydilar.

Savdo opsionlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo‘lmaydi, shunday bo‘lsada, birjadan tashqaridagi opsionlar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

Birjadan tashqari opsionlarning muomalasi mavjud emasligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muddatli operatsiyalar tijorat banklari uchun risk darajasi kam hisoblanadigan operatsiyalardan biri hisoblanadi. Chunki, ular mazkur operatsiyalarni xedjerlashlari, ya’ni sug‘urta qilish imkoniyatiga egadirlar.

Valyutaviy svop operatsiyalari – valyutalarni qayta sotib olish sharti bilan sotish, ya’ni ma’lum bir muddat valyutalarni o‘zaro almashinish operatsiyasidir. Valyutalarni xaridorga dastlabki sotish joriy, ya’ni spot kurs bo‘yicha, qayta sotib olish operatsiyasi esa, forvard kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Kelajakdagi forvard valyuta kursi LIBOR (**London Interbank Offered Rete – LIBOR**, London banklararo foiz stavkasi) orqali hisoblanadi. Svop bitimida valyutalarni sotish va ularni qaytarib sotib olish kurslarining har ikkalasi ham ko‘rsatiladi.

Svop kelishuvida bitim summasi va amal qilish muddati bo‘yicha hech qanday cheklovlar mavjud emas. Mazkur holat, korxonalarga opsion yoki fyuchers operatsiyalariga qaraganda uzoq muddatli svop operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Svop bitimlarinng korxonalar uchun yana bir afzalligi valyuta riskini kamaytirish maqsadida valyuta zaxiralarini ma’lum muddat davomida diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar Markaziy banklari o‘zining valyuta zaxiralari va kursining barqarorligini ta’minlash, valyuta intervensiyalarini amalga oshirish maqsadida boshqa mamlakatlar Markaziy banklari bilan turli shakldagi svop operatsiyalarini amalga

oshiradilar. Gold-svop operatsiyalari bunga misol bo‘ladi. Bunda ba’zi mamlakatlar markaziy banklari valyuta kursi barqarorligini ta’minlash maqsadida boshqa jahonda yetakchi markaziy banklar bilan svop liniyalarini yo‘lga qo‘yishgan.

Svop bitimining o‘ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham mavjud. Xususan ularni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Svop bitimini tuzishni xohlovchi, ya’ni valyutalarni qayta sotishni xohlovchi kontragentni topishning qiyinligi.

2. Kelishuv ikki tomonlama bitim shaklida rasmiylashtirilganligi bois, uni to‘xtatish yoki bekor qilish ikki tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi.

3. Svop bozorida bitimni kafolatlovchi tomon bo‘lmaydi. Bu esa, tomonlar o‘zaro bir-birlarining to‘lovga qobilligiga ishonch hosil qilgan holda bitimni tuzishi kerakligini ko‘rsatadi.

4. Bozordagi yakka, kichik ishtirokchilar uchun svop bitimini tuzish imkoniyati har doim ham bo‘lmaydi. Svop bitimi odatda, yirik transmilliy tashkilotlar, davlatlar va xalqaro moliyaviy institutlar o‘rtasida tuziladi.

6.3. Valyuta siyosati

Bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutaning xalqaro mavqeini belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muhim rol o‘ynaydi. U “ko‘p qirrali bashorat” (iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta’minlash, ishsizlikning oldini olish va inflyatsiyani jilovlash, to‘lov balansining aktivligini saqlab turish) muhiti hisoblangan iqtisodiy siyosatning asosini egallashda yetakchi o‘rin egallaydi.

Valyuta siyosatining shakli va o‘rni, mamlakatning valyuta-iqtisodiy holati, jahon xo‘jaligining evolyutsiyasi, jahon maydonidagi o‘rni bilan aniqlanadi.

Valyuta siyosati – valyuta muammolarini hal etish bo‘yicha qarorlar tayyorlash, qabul qilish va tatbiq etishdan iboratdir. Mamlakatlararo valyutani boshqarish tashkiloti bo‘lib XVF hisoblanadi.

Valyuta siyosati huquqiy jihatdan valyutaviy qonunlar asosida tartibga solinadi. Bularga huquqiy darajadagi chegaralarning o‘rnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashqarisida valyuta qimmatliklari bilan bo‘ladigan munosabatlarni tartibga solish, yana valyutaviy muammolar bo‘yicha ikki tomonlama va ko‘p tomonlama, mamlakatlararo valyutaviy kelishuvlarni tuzish kiradi.

Valyutani tartibga solishning bevosita yo‘li qonuniy hujjatlar va hukumatning ijro organlari orqali amalga oshirilishi hisoblansa, **bilvosita** yo‘l bilan bozor agentlarining iqtisodiy harakatlanishiga, iqtisodiy usullar, xususan, valyuta-kredit usullari bilan ta’sir etiladi.

Xalqaro tartibga solishda valyuta, kredit va moliya siyosati quyidagi sabablar bilan shakllangan:

1. Milliy iqtisodiyotda valyuta, kredit va moliya munosabatlarining bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi.
2. Xo‘jalik munosabatlarini erkinlashtirish sharoitida bozor va davlat boshqaruvining bozor tomon yuz tutishi.
3. Jahon siyosiy va iqtisodiy maydonida asosiy kuch hisoblangan uchta asosiy hamkorlik va qarama-qarshi markazlarning tashkil topishi: AQSh, G‘arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Xitoy, Koreya, Singapur, Malayziya).
4. Jahondagi yetakchi valyutalar, kredit va moliya bozorlari, ya’ni suzib yuruvchi kurslar, foiz stavkalari, birja inqirozlari va boshqalar o‘zgarishining beqarorligi.
5. Ichki milliy iqtisodiy siyosatning, shuningdek, valyuta, kredit, moliya, bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan va ularning xalqaro xo‘jalikdagi integratsiyalashuvi.

Valyuta siyosati maqsad va amalga oshirish muddatiga ko‘ra *tarkibiy va joriyga* bo‘linadi. **Tarkibiy valyuta siyosati** – jahon valyuta tizimi tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuidir. Tarkibiy valyuta siyosati, joriy valyuta tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. **Joriy valyuta siyosati** – valyuta kursi, valyuta operatsiyasi,

valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir.

Valyuta siyosatining quyidagi shakllari mavjud: diskont, deviz siyosati va uning ko‘rinishlari: valyuta intervensiyasi, valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish, valyutaviy cheklashlar, devalvatsiya, revolvatsiya.

Diskont (foiz stavkasi) siyosati. Markaziy bankning foiz siyosati, odatda milliy valyutaning amaldagi massasiga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni uni kamaytirsh yoki ko‘paytirish orqali valyuta kursiga ta’sir etish mexanizmidir. Foiz stavkasi – ssuda kapitalining yillik daromadini uning mutloq kattaligiga nisbatidan kelib chiqadi. Foiz o‘zining iqtisodiy ma’nosi bo‘yicha, ssuda kapitalidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan qo‘shimcha qiymatdir. Foiz stavkalari odatda foyda me’yori orqali aniqlanadi, lekin amaliyotda foiz stavkasi darajasi ssuda kapitallariga bo‘ladigan talab va taklifdan kelib chiqadi. Bu talab va taklif bir qancha fundamental iqtisodiy hamda boshqa, ya’ni davriy o‘zgarishlar, inflyatsiya darajasi, iqtisodiyotga davlatning aralashuv darajasi, Markaziy bank va davlatning byudjet-soliq siyosati va h.k. omillarga bog‘liq.

Foiz stavkalari tarkibi asosida obyektiv tarzda pul bozori stavkasi yotadi. Ya’ni, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari asosida Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari stavkalari, pul bozori vositalari, shuningdek, banklararo kredit va depozit bozori foiz stavkalari, turadi.

Pul-valyuta bozorining stavkalar tarkibini asosiy elementlariga xazina veksellari stavkalari kiradi. Ba’zan bu mamlakatlarda rasmiy foiz stavkasidan past bo‘ladi. Chunki, xazina veksellariga kafolatlovchi sifatida hukumatning o‘zi turganligidir. Shuningdek, hukumatning o‘zi kafolat beruvchi sifatida turganligi uchun bu veksellar eng likvidli aktivlar toifasiga kiradi.

Xalqaro ssuda kapitallari bozorining rivojlanishi bilan LIBOR stavkasiga o‘xshash boshqa stavkalar paydo bo‘ldi: PIBOR (Parij), SIBOR (Singapur), NIBOR (Nyu-York, Norvegiya), KUBOR (Quvayt), LYUKSIBOR (Lyuksemburg) va shu kabilar.

Bularning barchasida valyutadagi foiz stavkalari “tenglashish” an’anasiga ega, chunki ular Yevrobozorda hududiy jihatdan yaqin joylashgan.

Deviz siyosati. Markaziy bankning deviz siyosati muomaladagi xorijiy valyuta miqdoriga ta’sir etish orqali valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, chet el valyutasidagi aktivlar barqarorligini ta’minlashga qaratiladi.

Valyuta intervensiyasi. Markaziy bankning deviz siyosatining eng keng tarqalgan shakli, valyuta intervensiyasi hisoblanadi.

Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta’sir etish maqsadida valyuta bozorida chet el valyutalarini sotib olish yoki sotishiga **valyuta intervensiyasi** deyiladi.

Hozirgi davrda valyuta intervensiyasidan ko‘zlangan maqsad – valyuta kursining qisqa vaqt oralig‘ida, kutilmaganda yuzaga keladigan keskin tebranishlarga barham berish hisoblanadi. Markaziy banklar valyuta kursini istalgan darajada o‘zgartirish imkoniyatiga ega emas, chunki ular valyuta bozorlarida tijorat banklari bilan raqobat qila olmaydilar. Chunki, tijorat banklari, har yili ulkan miqdordagi mablag‘larni valyuta kursining o‘zgarishini chamalash, valyuta risklarini boshqarish maqsadlariga sarflaydilar. Buning ustiga, Markaziy banklar tijorat tuzilmalariga xizmat ko‘rsatmaydilar. Shu sababli, valyuta intervensiyasidan maqsad valyuta kursining keskin tebranishlari oqibatlarini yumshatish hisoblanadi.

Valyuta intervensiyasi rasmiy oltin-valyuta zaxiralari yoki Markaziy banklarning banklararo “SVOP” bitimlari hisobiga amalga oshiriladi.

Valyuta intervensiyasi XIX asrdan boshlab qo‘llanila boshladi. Masalan, Gollandiya Markaziy banki, Avstriya-Venger banki milliy valyuta kursini barqaror tarzda ushlash uchun undan foydalanishgan. Oltin monometallizmi bekor qilingandan so‘ng, valyuta intervensiyasidan foydalanish keng tarqaldi. 1929–1933- yilgi jahon iqtisodiy inqirozi yuzaga kelgan sharoitda, Markaziy banklar valyuta dempingiga ko‘mak berish uchun o‘z valyutalari kursini tushirish maqsadida valyuta intervensiyasidan foydalandilar.

Valyuta intervensiyasi o‘tkazishning moddiy bazasi vazifasini, 1930- yillarda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda tashkil qilingan, maqsadli valyuta fondlari – oltin, chet el va milliy valyutalarda tashkil etilgan davlat fondlari o‘tagan. Hozirgi sharoitda bu fondlarning roli va yo‘nalishi ayrim davlatlarda alohida xususiyatga egadir.

Brettonvud tizimi doirasida valyuta intervensiyasi, asosan, qat’iy belgilangan kurslar qadrini ushlab turish maqsadida o‘tkazilardi. Intervensiyani o‘tkazishda asosiy valyuta AQSh dollari bo‘lgani uchun, AQSh boshqa davlatlarga uning kursini ma’lum darajada ushlash yuzasidan majburiyat qo‘ydi. Yamayka tizimida suzib yuruvchi valyuta kurslariga o‘tilgandan so‘ng, valyuta intervensiyasi, asosan, kurslar tez tebranishining oldini olish maqsadida o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda, har qanday intervensiyaning oxirgi maqsadi, valyuta bozoridagi vaziyatni barqaror ushlash hamda valyuta kurslari tez tebranishining oldini olishdan iborat. Valyuta bozoridagi barqaror holat, birinchi navbatda, tashqi iqtisodiy aloqalarni, shu jumladan, butun iqtisodiyotni rivojlanishini ta’minlaydi.

Valyuta intervensiyasining uzoq muddatli maqsadlari sifatida, hukumat tomonidan bozordagi holatni, mamlakatning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan moslash, xususan, milliy valyuta kursining oshib yoki tushib ketishining oldini olish, iqtisodiyotni xalqaro valyuta-kredit konyunkturasining salbiy ta’siridan saqlashlarini ko‘rsatish mumkin.

Ko‘pgina Markaziy banklar mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga ehtiyotkorlik bilan yondashmoqdalar va kamroq xarajat talab qiladigan usullardan foydalanishga intilmoqdalar. Oxirgi yillar davomida, yetakchi mamlakatlar bir necha marta muvofiqlashgan valyuta intervensiyasini o‘tkazdilar. Bundan shu narsa aniq bo‘ldiki, alohida mamlakatlarning shartli intervensiyasiga nisbatan muvofiqlashgan intervensiyaning natijasi ta’sirchanroqdir.

Devalvatsiya – milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrining tushishidir. Ya’ni, ayni paytda 1 USD = 2200 UZS bo‘lsa, ma’lum bir muddat, masalan 6

oydan so‘ng 1 USD = 2300 UZS bo‘lishi, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan devalvatsiyasi hisoblanadi.

Devalvatsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘lib, inflyatsiyaning kuchayishi va mamlakat to‘lov balansining salbiy qoldiqqa ega bo‘lishi hisoblanadi.

Devalvatsiya siyosatini mamlakat to‘lov balansi yomonlashganda va mamlakatga import oqimi sezilarli darajada ko‘payganda amalda qo‘llash iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etadi.

Demak, devalvatsiyani qo‘llash shart-sharoiti yuzaga kelganda, uni darhol amalga oshirish lozim, aks holda sun’iy ravishda kursning qat’iy ushlab turilishi, butun iqtisodiyotga sezilarli darajada talofat yetkazishi mumkin.

Revalvatsiya – milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishdir. Revalvatsiya qadri kuchli valyutalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Inflyatsiyaning nihoyatda past darajada bo‘lishi, uzoq vaqt davomida mamlakat to‘lov balansining aktiv bo‘lishi, hamda milliy firma va kompaniyalarning jahon savdo bozorida raqobatbardoshligining ortishi, revalvatsiyani keltirib chiqaradi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qo‘llaniladi.

Odatda, **valyutaviy cheklashlar** deganda, chet el valyutasi hamda valyuta qimmatliklari bilan bo‘ladigan operatsiyalarga davlat tomonidan cheklashlarni joriy qilishga aytiladi. Hozirgi vaqtda, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda valyutaviy cheklashlar mutlaqo olib tashlangan, ayrimlarida esa, uning zaif ko‘rinishini kuzatish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada 1979- yildan buyon valyutaviy cheklashlar mutlaqo yo‘q.

Valyutaviy cheklashlar mamlakatlar hududidan oltin va valyuta qimmatliklari chiqib ketishining oldini olishda, shu asosda, chet el valyutalariga bo‘lgan talabni tartibga solish maqsadida qo‘llaniladi.

Mamlakatlarda **valyuta kursi rejimini tanlash**, uning shartlariga amal qilish ham valyuta **siyosati**ning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Valyuta kursi rejimlarini tasniflash borasida iqtisodchi olimlar tomonidan hanuzgacha yagona to‘xtamga kelinmagan. Biroq valyuta

kursining xilma xil rejimlari qat’iy belgilangan va suzuvchi rejim oralig‘idan joy olishi ta’kidlanadi. Boshqacha aytganda, kurs rejimlari keng ma’noda qat’iy belgilangan, suzuvchi va oraliq rejimlardan tarkib topadi.

XVF tomonidan valyuta kursi rejimlari a’zo mamlakatlarning amaldagi valyuta tartibidan kelib chiqqan holda tasniflangan bo‘lib, uning 8 turi qayd etilgan, ya’ni:

1. Alohida qonuniy to‘lov vositasiga ega bo‘lmagan valyuta rejimlari (Exchange arrangements with no separate liegal tender). Boshqa davlat milliy valyutasi, mamlakatda yagona qonuniy to‘lov vositasi sifatida amal qiladi (rasmiy dollarlashuv) yoki mamlakat monetar yoki valyutaviy ittifoqqa a’zo bo‘lishi natijasida bir valyuta ittifoqi hududida amal qiladi. Mazkur rejimni joriy etilishi oqibatida mamlakat monetar organlari monetar siyosat ustidan nazorat olib borish vakolatidan mahrum bo‘ladi.

2. Valyuta boshqarmasi rejimlari (Currency board arrangements). Bunday monetar rejimda mamlakat monetar organi tomonidan milliy valyutani qat’iy belgilangan almashuv kursida muayyan xorijiy valyutaga ayirboshlash majburiyati qonun bilan belgilab qo‘yiladi. Bunday rejimda milliy valyuta emissiyasiga, muomalaga chiqarilayotgan valyuta xorijiy valyutalar bilan to‘liq ta’minlangandagina ruxsat beriladi. Bu o‘z navbatida qat’iy monetar siyosat qo‘llash imkoniyatini pasaytiradi va markaziy bankning monetar nazorat va so‘nggi kreditor kabi an’anaviy funksiyalarini cheklab qo‘yadi.

3. An’anaviy qat’iy bog‘lab qo‘yish rejimlari (Conventional fixed peg arrangements). Mamlakat o‘z valyutasini boshqa mamlakat valyutasiga yoki valyutalar savatiga +/- 1%ga, yoki undan kam marja (farq) doirasida bog‘lab qo‘yadi. Odatda, valyuta savatiga kiritilgan valyutalar mamlakatning asosiy savdo hamkorlariga tegishli bo‘ladi. Valyutalarning savatdagi vazni esa, savdo, xizmatlar va kapital oqimining jo‘g‘rofiy taqsimotiga asoslanadi. Monetar organ qat’iy belgilangan valyuta paritetini valyuta siyosatining turli vositalari yordamida tartibga solib turadi.

4. Gorizontal chegaralar doirasida bog‘langan valyuta kurslari (Pegged exchange rates within horizontal bands). Valyuta qiymati qat’iy belgilangan markaziy kurs atrofida +/- 1%dan ko‘proq muayyan tebranish marjasi doirasida ushlab turiladi, yoki valyuta kursining maksimal va minimal qiymati o‘rtasidagi farq 2%dan oshishiga yo‘l qo‘yiladi. Mustaqil monetar siyosatni amalga oshirish imkoniyati valyuta kursining tebranish diapazoni kengligiga bog‘liq ravishda cheklanadi.

5. O‘rmalovchi bog‘langan valyuta kurslari (Crawling pegs). Valyuta vaqti-vaqti bilan belgilangan stavkada kichik miqdorda (odatda, uning mutloq qiymati markaziy kursga nisbatan 1%dan kichik) o‘zgaradi yoki tanlama miqdoriy indikatorlardagi o‘zgarishlarga javoban muvofiqlashtirilishi ko‘zda tutiladi. Bunda tanlama miqdoriy indikator sifatida yirik savdo hamkori hisoblangan mamlakatlardagi inflyatsion target va kutiladigan inflyatsiya o‘rtasidagi farqlar, tarixiy inflyatsion farqlar olinishi mumkin. O‘rmalash stavkasi inflyatsiya va boshqa indikatorlardan kelib chiqib yoki avvaldan e’lon qilingan qat’iy stavkada, yohud istiqboldagi inflyatsion farqlardan pastroq stavkada o‘rnatilishi mumkin.

6. O‘rmalovchi chegarali valyuta kurslari (Exchange rates within crawling bands). Bu rejim o‘rmalovchi bog‘langan valyuta kurslariga o‘xshash bo‘lib, biroq bunda valyuta kursi markaziy stavkadan kamida +/-1% muayyan tebranish farqi doirasida ushlab turiladi yoki valyuta kursining maksimal va minimal qiymati o‘rtasidagi farq 2%dan oshishiga yo‘l qo‘yiladi.

7. Avvaldan aniqlanadigan valyuta kursi yo‘lakchasiga ega bo‘lmagan boshqariladigan suzish rejimi (Managed floating with no predetermined path for the exchange rate). Monetar organ maxsus valyuta kursi yo‘lakchasi yoki targetsiz amaldagi valyuta kursiga ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Bunday kursni boshqarishda tanlanadigan indikatorlar keng va munozarali hisoblanadi (to‘lov balansi holati, xalqaro rezervlar, parallel bozorlarning rivojlanishi va h.k).

8. Erkin suzish (Independently floating). Valyuta kursi valyuta bozorida talab va taklif asosida shakllanadi. Monetar organlar

tomonidan valyuta kurslarining muvofiq darajasini belgilash emas, balki valyuta bozorida kurs o‘zgarishining maqbul darajasiga erishish va kursning ortiqcha tebranishini oldini olishga qaratilgan intervension siyosatni amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Mamlakat valyuta siyosatini olib borishda bir qator iqtisodiy nazariyalarga asoslaniladi. Xususan, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin.

1. Marshall - Lerner sharti (ingl.Marshall – Lerner condition, iqtisodchi olimlar Alfred Marshall va Abba Lerner nomlari bilan bilan bog‘liq) – xalqaro iqtisodiyotda eksport va import o‘rtasidagi farqni milliy valyutaning boshqa xorijiy valyutaga nisbatan kursning o‘zgarishi hisobiga yuzaga kelishini, ya’ni milliy valyuta qadrini boshqa xorijiy valyutaga nisbatan pasayishi yoki devalvatsiyasi savdo (joriy operatsiyalar) balansida eksport operatsiyalarni rag‘batlantirib, ijobiy qoldiq shakllanishiga sabab bo‘lishini belgilaydi. Bu shart bajarilishi uchun xorijliklar tomonidan eksportga bo‘lgan talab elastikligi[23] va mamlakat iste’molchilarining importga bo‘lgan talabi elastikligi yig‘indisi 1 dan katta qiymatga ega bo‘lishi lozim. Ya’ni:

$$e_x + e_i > 1$$

Bu yerda, e_x- eksportga bo‘lgan tashqi talab elastikligi; e_i- importga bo‘lgan ichki talab elastikligi.

Keyinroq, 1937- yilda Ya.Tinbergen “Biznes sikli muammolariga ekonometrik yondashuv” nomli ilmiy ishida, import va eksport elastikligining yig‘indisi aksariyat hollarda 1 dan kichik bo‘lishini ko‘rsatib berdi. Boshqacha aytganda, Marshall-Lerner shartlari amaliyotda ba’zan bajarilmaydi va qisqa muddatli vaqt oralig‘ida devalvatsiya mamlakat savdo balansining yaxshilanishiga olib kelmaydi. Valyuta qadrining pasayishi, muvozanatning tiklanishini sezilarsiz darajada rag‘batlantirishi mumkin.

2. J–egri chizig‘i. Milliy valyutaga nisbatan devalvatsiya qo‘llanilgandan so‘ng, savdo balansi holatining yaxshilanishi uchun ma’lum davriy oraliq talab etiladi. Empirik jihatdan real devalvatsiya

[23]Talab elastikligi mahsulot narxining bir birlikka (yoki 1 %ga) ortishi iste’mol talabini necha birlikka (foizga) o‘zgartirishi bilan aniqlanadi.

qisqa muddatli davriy oraliqda joriy hisob balansi holatini yomonlashishiga olib keladi va bir necha (odatda 3-12) oy o‘tgach, aksincha uning holatini yaxshilaydi. Joriy hisobvaraq o‘zgarishining mazkur davriy oralig‘i J (ji) – egri chizig‘i deb ataladi. Chunki, real devalvatsiyadan so‘ng, savdogarlar bozorda mamlakatning eksport tovarlarga nisbatan qulay raqobat sharoiti vujudga kelganligini anglagunga qadar ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. Masofa va til muammolari tufayli bozor ishtirokchilariga ma’lumot kech yetib borishi sababli mahalliy bozorlarga nisbatan xalqaro bozorlarda ko‘proq vaqt talab etiladi.

3. Imkonsiz uchlik yoki trilemma (ingl. Impossible trinity (trilemma)). Mamlakat valyuta siyosati natijasida hal etiladigan uchta asosiy vazifa, ya’ni valyuta kursi barqarorligini ta’minlash (qat’iy belgilangan valyuta kurslari rejimi), to‘liq moliyaviy integratsiyaga erishish (ochiq kapital bozorlari), monetar organlar valyuta siyosatida mustaqillik (pul-kredit va byudjet-soliq siyosati mustaqilligi)ni saqlashni bir vaqtda bajarishning imkoniyati mavjud emasligi “Imkonsiz uchlik” nazariyasida o‘z ifodasini topadi (6.1-rasmga qarang).



6.1-rasm. **Imkonsiz uchlikda “Ideal” valyutaning xususiyatlari.**

4. Mandell-Fleming modeli. Ochiq iqtisodiyotning makroiqtisodiy modeli bo‘lib, iqtisodiy siyosatdagi paradoksal holatni ko‘rsatadi. Xususan, qat’iy belgilangan valyuta kurslari sharoitida pul-kredit

siyosati, suzuvchi valyuta kurslari rejimi sharoitida esa, fiskal siyosat samarasiz bo‘ladi. Bu esa, har qanday valyuta kurslari rejimi sharoitida ma’lum bir maqsadga erishish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning turli usullari majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Boshqacha qilib aytganda, Mandell - Fleming modeli mavjud LM-IS modeliga xorijiy valyuta bozori va kapital oqimlarini kiritilishini nazarda tutadi va quyidagi umumiy xulosaga olib keladi: agar xalqaro kapital oqimining elastikligi juda yuqori bo‘lsa, qat’iy belgilangan valyuta kurslari va monetar suverenitet (mustaqillik) bir-biriga mos kelmaydi, ya’ni birining bo‘lishi ikkinchisini inkor etadi[24] (yoki imkonsiz shartining tasdig‘i).

Mazkur model optimal valyuta zonalari va imkonsiz uchlik nazariyasiga asos solib berdi.

5. Triffin paradoksi. Ushbu paradoks boshqa bir qator omillar qatorida Bretton Vuds valyuta tizimining nihoyasiga yetishiga sabab bo‘lgan. AQShning o‘sib borayotgan jahon savdosini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan dollarni qolgan dunyo mamlakatlari uchun emissiya qilishi uning to‘lov balansini doimiy ravishda defitsit bo‘lishiga olib kelar edi. Ya’ni, mamlakatlardagi dollar zaxiralari qanchalik ko‘paymasin, AQSh to‘lov balansi doimo taqchil bo‘lib qolaverdi. Bu esa, boshqa davlatlarning AQSh tomonidan dollarlarni belgilangan rasmiy kurs bo‘yicha oltinga konvertirlanishi imkoniyatini shunchalik shubha ostiga qoldirdi.

Boshqacha qilib aytganda, Bretton Vuds valyuta tizimi davrida o‘sib borayotgan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarni yagona ishonchli xalqaro valyuta AQSh dollari bilan ta’minlamaslik, uning taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Uni ta’minlash uchun dollar emissiyasini oshirish esa, mamlakat to‘lov balansi taqchilligiga, valyutaning oltin paritetini yo‘qolishiga, ichki inflyatsiya darajasini oshishiga olib kelar edi, yohud, dollar emissiyasiga nisbatan oltinni ishlab chiqarish imkoniyati yo‘qolib bordi.

[24] Fleming, Marcus (1962). Domestic Financial Policies under Fixed and under Floating Exchange rates, IMF Staff Papers, November. Mundefl, Robert (1962). The Appropriate Use of Monetary and Fiscal Policy for Internal and External Stability, IMF Staff Papers, March.

6.4. O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi

Mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunida mamlakatimizda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning asosiy me’zonlari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi davlat organidir.

Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida:

– norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida amal qilinishi majburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

– valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini belgilaydi;

– valyuta birjalari faoliyatini litsenziyalaydi va tartibga soladi;

– banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyasining limitlarini belgilaydi;

– umume’tirof etilgan xalqaro amaliyotga muvofiq valyuta operatsiyalarining va tashqi sektorning statistikasini tayyorlaydi hamda e’lon qiladi;

– rezidentlar va norezidentlar tomonidan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini monitoring qilish tartibini valyutani nazorat qiluvchi organlar bilan birgalikda belgilaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi banklari uchun valyuta operatsiyalari hisobi va hisoboti shakllarini hamda ularni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– tashqi sektor statistikasini tuzish uchun barcha rezidentlar va norezidentlar tomonidan taqdim etilishi majburiy bo‘lgan valyuta operatsiyalarining hisobi va hisoboti shakllarini belgilaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi banklarining valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etishga doir faoliyatini tartibga solishni va nazorat qilishni amalga oshiradi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida valyuta operatsiyalarining barcha turlarini amalga oshirish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalarda valyuta kursi chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqib, shartnomaviy asosda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi valyutasining chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlashda faqat bozor mexanizmlaridan foydalaniladi.

Markaziy bank chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini belgilashda chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklif asosida valyuta kursini aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.

Markaziy bank valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi.

Valyuta operatsiyalari ichki va xalqaro (transchegaraviy) operatsiyalarga bo‘linadi.

Ichki valyuta operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan operatsiyalardir.

Xalqaro (transchegaraviy) valyuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalarga va kapital harakati (kapital o‘tkazmalari) operatsiyalariga bo‘linadi.

Joriy xalqaro operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

– tashqi savdoni, boshqa joriy faoliyatni yuritish, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish (ishlar bajarish) munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan barcha to‘lovlar;

– foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar, lizing bo‘yicha foizlar va boshqa daromadlar

shaklida, shuningdek, boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar;

– kreditni (qarzni) to‘lash davrida qarzning olingan, shartnomada ko‘rsatilgan to‘lash davrlari soniga nisbati sifatida hisob-kitob qilingan qismining ikki baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdordagi summani to‘lash;

– nosavdo tusidagi pul o‘tkazmalari.

Nosavdo tusidagi pul o‘tkazmalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– jismoniy shaxslar o‘rtasida yuz million so‘m ekvivalentigacha bo‘lgan miqdordagi pul o‘tkazmalari;

– shaxsiy ehtiyojlar uchun tovarlarga (xizmatlarga, ishlarga) haq to‘lash;

– ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to‘lash;

– xodimlarni O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash;

– ta’lim, davolanish va turizm uchun haq to‘lash;

– O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta’minoti uchun haq to‘lash;

– notarial va tergov harakatlari bilan bog‘liq to‘lovlar, shuningdek, ishlarni sudlarda ko‘rish munosabati bilan davlat boji to‘lash;

– sudning, arbitrajning, shuningdek, tergov organlarining va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarorlari asosida pul mablag‘larini to‘lash;

– xalqaro kongresslarda, simpoziumlarda, konferensiyalarda, sport tadbirlarida va madaniy tadbirlarda, shuningdek, boshqa xalqaro uchrashuvlarda, ko‘rgazmalarda va yarmarkalarda ishtirok etish uchun to‘lovlar, bundan investitsiyaga oid va moddiy xarajatlar mustasno;

– vafot etganni dafn qilish bilan bog‘liq to‘lovlar;

– mualliflik haqini to‘lash, patent bojlarini to‘lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalarining majburiyatlari bo‘yicha haq to‘lash;

– xalqaro notijorat tashkilotlarga badallar.

Joriy xalqaro operatsiyalar hamda ular bilan bog‘liq holda chet el valyutasini rezidentlar va norezidentlar tomonidan sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Kapital harakati operatsiyalari jumlasiga joriy xalqaro operatsiyalar bo‘lmagan barcha xalqaro (transchegaraviy) valyuta operatsiyalari, shu jumladan quyidagilar kiradi:

– investitsiya faoliyatini amalga oshirish, jumladan rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan o‘z filiallarini aylanma mablag‘lar bilan to‘ldirish;

– kreditlar (qarzlar) olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

– ko‘chmas mol-mulkni sotib olish va sotish;

– chet davlatlardan mablag‘larni jalb etish hamda ularni chet davlatlardagi hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish;

– intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqni to‘liq olish yoki sotish.

O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb etish va ularni repatriatsiya qilish, shuningdek, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan olingan huquqlardan foydalanish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik va boshqa vakolatxonalarining ehtiyojlari uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ko‘chmas mulk obyektlarini olish va qurish bo‘yicha kapital harakati operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, shuningdek, rezidentlar chiqargan qimmatli qog‘ozlarni norezidentlar tomonidan sotib olish tartibi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan Markaziy bank bilan birgalikda belgilanadi.

Rezidentlar o‘rtasidagi valyuta operatsiyalariga quyidagilar amalga oshirilayotganda yo‘l qo‘yiladi:

– bojsiz savdo do‘konlaridagi hisob-kitoblar, shuningdek, xalqaro tashishlarda transport vositalarining qatnov yo‘llarida yo‘lovchilarga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko‘rsatish chog‘idagi hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalar;

– vositachilar (vakillar) tomonidan norezidentlar bilan tovarlarni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, axborot va intellektual faoliyat natijalarini, ularga bo‘lgan mutlaq huquqlarni berish bo‘yicha shartnomalar tuzish hamda ularni bajarish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatish chog‘ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o‘rtasidagi operatsiyalar, shu jumladan komitentlarga (ishonch bildiruvchilarga) pul summalarini (boshqa mol-mulkni) qaytarishga doir operatsiyalar;

– tuzilgan shartnomalar asosida transport-ekspeditorlik xizmatlarini realizatsiya qilishdan ekspeditorlik kompaniyalarining hisobvarag‘iga xorijdan kelib tushayotgan chet el valyutasidagi mablag‘larni hisob-kitob qilishni va o‘tkazishni nazarda tutuvchi operatsiyalar;

– jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga xizmat safarlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq xarajatlarini to‘lash va ularning o‘rnini qoplash bo‘yicha operatsiyalar, shuningdek, xizmat safarlari munosabati bilan berilgan, sarflanmay qolgan bo‘nakni qaytarishga doir operatsiyalar;

– O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalariga hisob-kitoblarni va o‘tkazmalarni bajarishni nazarda tutuvchi operatsiyalar;

– rezident jismoniy shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlardan boshqa rezident jismoniy shaxslar foydasiga ularning O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga nosavdo operatsiyalar bo‘yicha o‘tkazmalar;

– transport tashkilotlari hamda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida turgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxslarning filiallari, vakolatxonalari va boshqa bo‘linmalari o‘rtasida

yo‘lovchilar tashishga oid shartnomalar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalar;

– agar oxirgi xaridor yoki sotuvchi norezident bo‘lsa, vositachilar (vakillar) tomonidan majburiyatlar kliring natijalari bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan shartnomalarni tuzish va bajarish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish chog‘ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o‘rtasidagi operatsiyalar;

– majburiyatlar bajarilishining ta’minoti sifatida valyuta qimmatliklaridan foydalanish, shuningdek, ularni undirish bilan bog‘liq operatsiyalar;

– yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) valyuta qimmatliklarini kiritish va qaytarish bilan bog‘liq operatsiyalar;

– bank xizmatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar;

– xayriya faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalar;

– meros huquqi bo‘yicha valyuta qimmatliklarini olish bilan bog‘liq operatsiyalar.

Norezidentlar joriy xalqaro operatsiyalar bilan bog‘liq o‘tkazmalarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi banklardagi hisobvaraqlaridan O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi bank hisobvaraqlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi bank hisobvaraqlaridan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi bank hisobvaraqlarida o‘zaro amalga oshirish huquqiga ega.

Norezident jismoniy shaxslar nosavdo tusidagi o‘tkazmalarni O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan boshqa norezident jismoniy shaxslar foydasiga ularning O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga amalga oshirishi mumkin.

Norezidentlar O‘zbekiston Respublikasining qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlaridan O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini o‘zaro amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish hamda sotish faqat O‘zbekiston Respublikasi banklari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish faqat O‘zbekiston Respublikasi banklari hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi banklari O‘zbekiston Respublikasi banklarida hamda xorijiy banklarda vakillik hisobvaraqlariga va boshqa hisobvaraqlarga ega bo‘lishga, chet el valyutasini, shu jumladan valyuta derivativlarini bevosita o‘zlari o‘rtasida, o‘z mijozlari bilan, shuningdek, valyuta birjasi orqali hamda xalqaro bozorlarda sotish va sotib olish operatsiyalarini o‘tkazishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi banklari valyuta operatsiyalarini, basharti valyuta operatsiyalarini bajarish uchun banklar talab etadigan tegishli hujjatlar rezidentlar va norezidentlar tomonidan taqdim etilsa, amalga oshirishi shart.

Markaziy bank valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga nisbatan:

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida;

– to‘lov balansining barqarorligiga tahdid mavjud bo‘lgan hollarda Xalqaro valyuta jamg‘armasi bitimining Moddalari doirasidagi majburiyatlarga rioya qilgan holda cheklovlar joriy etishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid yuzaga kelganda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Markaziy bank bilan kelishgan holda valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga doir cheklovlar joriy etishi mumkin.

Cheklovlarning amal qilish muddati ular joriy qilingan paytdan e’tiboran bir yildan oshishi mumkin emas. Cheklovlar belgilangan muddat o‘tgach, bekor qilingan deb hisoblanadi. Cheklovlarning amal qilishi muddatidan avval to‘liq yoki qisman bekor qilinishi mumkin.

Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish yuz million so‘m ekvivalentdan ortiq bo‘lmagan summada amalga oshiriladi. Naqd valyutani belgilangan ekvivalentdan ortiq summada olib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish taqiqlanadi, bundan O‘zbekiston Respublikasi banklari mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

Mamlakatimizda valyuta siyosatini liberallashtirish va valyuta munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida 2017- yil 2- sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177 farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan.

2017–2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag‘batlantirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o‘z mablag‘larini o‘zining xohishiga ko‘ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro‘yobga chiqarishni to‘liq ta’minlash;

ikkinchidan, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlarini qo‘llash;

uchinchidan, valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan’anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag‘batlantiruvchi rolini oshirish;

to‘rtinchidan, sifatli ish o‘rinlari va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni bevosita rag‘batlantirish uchun iqtisodiyotning barcha sektorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, bilim va texnologiyalar jalb etishga xizmat qiladigan ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash;

beshinchidan, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan qat’iy monetar siyosatni amalga oshirish, bu borada monetar instrumentlardan faol va moslashtirilgan holda foydalanish, davlat qimmatli qog‘ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog‘ozlarini banklar likvidligiga garovga berish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishni amaliyotga joriy qilish;

oltinchidan, monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish hamda Davlat byudjetining mutanosibligini ta’minlash orqali pul massasi haddan ziyod o‘sishining oldini olish;

yettinchidan, bank tizimining barqarorligini ta’minlash va uning tavakkalchiliklarga bardoshliligini, shu jumladan, valyuta siyosatini liberallashtirishning vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirini yumshatishga qaratilgan samarali choralarni qo‘llash hisobiga oshirish;

sakkizinchidan, valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish;

to‘qqizinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush darajasiga valyuta siyosatini liberallashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradigan har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni qabul qilinishiga mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar mavjudligi asosiy sabab bo‘ldi. Jumladan, valyutani tartibga solishga haddan ziyod ma’muriy aralashuv, tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun alohida imtiyoz va preferensiyalar mavjudligi oqibatida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida biznesni yuritishga doir teng bo‘lmagan shart-sharoitlar paydo bo‘ldi hamda parallel chet el valyutasi bozori va ayirboshlash kursi vujudga keldi.

Valyuta kursi siyosatining tashqi savdoni rag‘batlantirishdagi rolining susayishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlar narxlarining tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini pasaytirdi.

Mamlakatimizda faqatgina bozor mexanizmlari asosida faoliyat ko‘rsatadigan valyuta bozorini shakllantirish barcha banklarning mijozlar (yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar) ehtiyojlarini qondirish maqsadida chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun valyuta birjasi savdolarida erkin ishtirok etishini, shuningdek, mijozlarning chet el valyutasini sotib olish bo‘yicha amaldagi tartib va texnik reglamentlariga rioya etgan holda o‘z valyuta mablag‘larini hech qanday cheklovsiz tasarruf etishini taqozo etadi.

Mazkur farmon bilan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasi joriy xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun banklarda erkin sotib olinishi va sotilishi kafolatlanadi.

Xususan, yuridik shaxslar o‘z mablag‘larini banklarda joriy xalqaro valyuta operatsiyalarini, shu jumladan, tovar, ish va xizmatlar importi, foydani repatriatsiya qilish, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to‘lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo‘lmagan operatsiyalarni amalga oshirish uchun chet el valyutasiga cheklovlarsiz erkin konvertatsiya qilishlari mumkin.

Ta’kidlash joizki, joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlarni banklardagi hisobvaraqlar orqali amalga oshirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bozor kursida chet el valyutasini sotib olish

imkoniyatining yaratilishi “yashirin” iqtisodiyotning qisqarishiga va pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb qilishga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslar ham tijorat banklarining konversion bo‘limlarida chet el valyutasini erkin sotib olishi, sotib olingan mablag‘larni xalqaro to‘lov kartalariga o‘tkazib, ulardan xorijda hech qanday cheklovlarsiz, shu jumladan, bank hisobvaraqlari orqali xorijda o‘qish, davolanish va boshqa maqsadlardagi to‘lovlar uchun foydalanishi mumkin.

Xalq iste’mol tovarlarini import qilish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar banklardagi hisobvaraqlarida savdo tushumini va boshqa daromadlarini jamg‘arib borgan holda keyinchalik uni jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan tartibda, ya’ni sotib olingan valyuta mablag‘larini xalqaro to‘lov kartalariga o‘tkazish va chet elda cheklovlarsiz, shu jumladan, tovarlarni import qilish uchun ishlatishi mumkin.

Aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish tijorat banklarining barcha filial va minibanklari tomonidan cheklanmagan miqdorda va sarsongarchiliksiz amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, banklar tomonidan aholi bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini sifatli amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini soddalashtirish;

bayram va dam olish kunlarida valyuta ayirboshlash shoxobchalarining uzaytirilgan ish tartibini joriy qilish;

tijorat banklarining filiallari va minibanklarida, ayniqsa, yirik savdo markazlari va bozorlarda qo‘shimcha valyuta ayirboshlash shoxobchalarini ochish;

konversion bo‘limlar orqali chet el valyutasini sotishda olinadigan vositachilik haqi miqdorini imkon darajasida pasaytirish choralarini ko‘rish;

xalqaro to‘lov kartalaridan xorijda foydalanishda mavjud barcha cheklovlarni bekor qilish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va fermer xo‘jaliklarining eksport faoliyatini rag‘batlantirish

maqsadida ularga chet el valyutasidagi daromadlarini o‘z xohishiga ko‘ra erkin tasarruf etish, bunda bank hisobvaraqlaridan naqd chet el valyutasini yechib olishgacha bo‘lgan huquq beriladi.

Keyingi yillarda eksportchilarni rag‘batlantirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirildi, ularga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha ko‘plab imtiyozlar berildi, eksport faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qator tartibotlar bekor qilindi. Eksport borasida mavjud imtiyozlarga qaramasdan valyuta tushumini majburiy sotish talabi eksportni yanada rag‘batlantirish yo‘lida asosiy to‘siq bo‘lib, eksportchilar o‘z valyuta tushumini to‘liq tasarruf etish imkoniyatiga ega emas edi, bu esa eksportni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan siyosatga mos kelmaydi.

Shu sababli mazkur farmon bilan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportidan tushgan valyuta tushumini majburiy sotish tartibi mulkchilik shakli yoki eksport qilinayotgan mahsulot turidan qat’iy nazar, barcha eksportchi tashkilotlar uchun butunlay bekor qilindi.

Bozor tamoyillari asosida valyuta resurslari oqimining samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, shuningdek, tashqi savdoda valyuta siyosatining rag‘batlantiruvchi rolini oshirish maqsadida milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan ayirboshlash kursi faqatgina valyuta birjasining banklararo elektron savdolarida valyutaga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bunda ayirboshlash kursini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish maqsadida banklararo savdolarda Markaziy bankning ishtiroki kamaytiriladi. Alohida hollarda Markaziy bank ayirboshlash kursining haddan ortiq tebranishini bartaraf etish uchun xorijiy valyutani sotish yoki sotib olish operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Ayirboshlash kursini egiluvchan holda tartibga solish respublikaga keladigan barcha valyuta resurslari (eksport tushumi, transchegaraviy pul o‘tkazmalari va boshqalar) oqimining rasmiy bozorga kelib tushishi orqali chet el valyutasiga bo‘lgan jami talab va taklif mutanosibligini ta’minlash va oltin-valyuta zaxiralari hajmlarini avvalgidek yuqori darajada saqlab qolish imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, xorijiy valyutani erkin sotib olish va sotish imkoniyati va milliy valyuta ayirboshlash kursini bozor mexanizmlaridan foydalangan holda belgilash mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatdoshligi va rentabelligini oshirish bilan bir qatorda mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yangi texnologiyalar va bilimlarni jalb qilish, eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ayirboshlash kursining liberallashtirilishi eksport imkoniyatlarini oshirishda kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib, bu noan’anaviy soha va tarmoqlarda eksport hajmining ortishiga ko‘maklashadi va ayirboshlash kursiga ta’sirchan tovar eksportchilarining moliyaviy holatini hajmini oshishini, balki olingan daromadlarni milliy valyutaga qayta hisoblaganda vujudga keladigan foyda hisobidan ham tubdan yaxshilaydi.

Valyuta siyosatini isloh qilishga O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishdagi birinchi zaruriy qadam sifatida qaralmoqda va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pul-kredit, soliq-byudjet va iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarning samarali muvofiqlashtirilishiga bog‘liq.

Ayirboshlash kursi barqarorligini ta’minlashda pul-kredit ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, Markaziy bankka monetar instrumentlardan faol va keng ravishda foydalanish orqali milliy valyutaning barqarorligini va inflyatsiyaning past darajada bo‘lishini ta’minlash, pul massasi haddan ziyod va asoslanmagan holda o‘sishining oldini olish, davlat xarajatlari va daromadlarining mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan qat’iy monetar siyosat yuritish vazifasi yuklatilgan.

Farmonda ko‘zda tutilgan fiskal chora-tadbirlarni ko‘rish, ya’ni byudjet xarajatlarini qat’iy ravishda Davlat byudjetiga kelib tushgan daromadlar doirasida amalga oshirish, Davlat byudjetini profitsit bilan ijro etish imkonini beradi.

Bunda iqtisodiyotda narxlar o‘zgarishi ustidan samarali nazoratni ta’minlash hamda monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan pul-kredit siyosatining yangi tamoyil va mexanizmlarini joriy qilish muhim o‘rin tutadi.

Valyuta siyosatini liberallashtirish sharoitida bank tizimi barqarorligini ta’minlash borasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni nazorat qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bank tizimining barqarorligi nafaqat mijozlarning xorijiy valyutaga bo‘lgan talabini qondirish nuqtayi nazaridan, balki kredit portfeli, depozit bazasi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibida kutilayotgan sifatli o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Shu munosabat bilan bank tizimining barqarorligi tijorat banklarining kapitallashuv darajasini saqlash, prudensial nazoratni kuchaytirish, shuningdek, valyuta siyosatini liberallashtirishning sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning dastlabki bosqichi sifatida davlat banklarining ustav kapitaliga 655 million AQSh dollari miqdorida mablag‘ kiritilganini ta’kidlash joiz. Banklarning likvidligini ta’minlash uchun ularga qayta moliyalashtirish kreditlarini berish mexanizmi joriy qilindi.

Prezident Farmonida ilg‘or xalqaro standartlarni hisobga olgan holda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan bank xatarlari to‘g‘risida barvaqt ogohlantirish, ularni baholashni takomillashtirishni o‘z ichiga olgan qator bank nazorati va monitoringi instrumentlarini joriy qilish chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, mazkur farmonda:

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi mablag‘larini qayta baholash natijasida vujudga keladigan moliyaviy natija soliqqa tortish bazasiga kiritilmasligini ko‘zda tutuvchi vaqtinchalik tartib joriy etish;

– iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot

jamg‘armasi hamda banklarning kreditlarini restrukturizatsiya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish belgilangan.

Xalqaro valyuta fondining baholariga ko‘ra, valyuta siyosatini liberallashtirish o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiyotning o‘sish sur’atlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning qisqa muddatli istiqbolda aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamlariga nisbatan vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni yumshatish maqsadida aniq manzilli va shaffof ijtimoiy nafaqa va subsidiyalar joriy etish, kasanachilikka, tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanishga keng jalb qilish orqali ularning bandligini ta’minlash, shuningdek, kam ta’minlangan oilalarning turmush sharoitlarini imtiyozli mikrokreditlar ajratish orqali yaxshilash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Band bo‘lmagan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ularni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, jumladan, uy-joy fondi obyektlari va uy-joy kommunal infratuzilmasi, ko‘chalar, yo‘llar, mahallalar hududlari, ijtimoiy-madaniy ahamiyatdagi obyektlar, irrigatsiya tarmoqlarini obodonlashtirish va ta’mirlash, shuningdek, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari va imkoniyati cheklangan shaxslarga yordam berishga jalb qilish ko‘zda tutilgan yangi mexanizmi joriy qilinayotganini qayd etish lozim.

Valyuta ayirboshlash kursini liberallashtirishning tovar va xizmatlar, ayniqsa, xalq iste’moli tovarlariga ichki narx-navoning shakllanishiga ta’sirini kamaytirish maqsadida amaldagi bojxona me’yorlari va to‘lovlari stavkalarini tubdan qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilandi.

Bundan tashqari, ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga narx-navoni monitoring va nazorat qilish Respublika va doimiy faoliyat yuritadigan hududiy komissiyalarga narxlarning barqarorligini va bozorlarning iste’mol tovarlari bilan tezkor to‘ldirilishini ta’minlash vazifasi topshirildi.

Mazkur Farmon bilan milliy valyutaga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishga qaratilgan qator normalar belgilandi. Keyingi yillarda

ayrim tovar va xizmatlarni (avtomobillar, aviachiptalar va boshqalar) respublika hududida chet el valyutasiga sotish amaliyoti tadbirkorlar va aholiga noqulayliklar yaratib, ularning e’tiroziga sabab bo‘layotgan edi.

Bundan tashqari, tovar va xizmatlar narxini chet el valyutasida o‘rnatish holatlari ham Markaziy bank rasmiy kursi o‘zgarishi oqibatida narxlarning milliy valyutaga hisoblanganda asossiz ravishda oshishiga olib kelayotgan edi.

Bundan buyon respublika hududida barcha tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar va to‘lovlar, davlat bojlarining undirilishi, tovar va xizmatlar narxlarining belgilanishi faqat milliy valyutada amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga qulay sharoitlar yaratish maqsadida mazkur Farmon bilan chet el valyutasida ajratilgan kreditlarni bankning kredit siyosati va tomonlarning kelishuvi asosida milliy yoki chet el valyutasida qaytarilishiga ruxsat berildi.

Valyuta bozorini liberallashtirish jarayonida davlat iqtisodiy siyosatining mazkur Farmonda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarining to‘liq ijrosi ta’minlanishi barcha tashqi savdo faoliyati qatnashchilariga teng sharoit yaratadi hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasining mavqeini kuchaytiradi, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, aholi bandligini ta’minlash va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Valyuta kursi, to‘g‘ri va teskari kotirovka, kross-kurs, valyutalarning xarid qobiliyati pariteti, valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar, valyuta konvertatsiyasi, valyuta kurslarini prognozlash (bashoratlash), premiya (mukofot), diskont, Fisher samarasi, valyuta bozori, market-meyker, spot operatsiyasi, valyuta pozitsiyalari, arbitraj, muddatli bitimlar, valyuta siyosati, diskont (foiz stavkasi) va deviz siyosati, valyutaviy cheklashlar, valyuta kursi rejimi, Marshall - Lerner sharti, J – egri chizig‘i, imkonsiz uchlik yoki trilemma, Mandell - Fleming modeli, Triffin paradoksi, joriy xalqaro operatsiyalar, savdo

bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari, kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari.

Takrorlash uchun savollar

1. Valyuta kursining mohiyatini va uning turlarini aytib bering?
2. Valyuta kursining qanday kotirovkalarini bilasiz?
3. Nominal va real valyuta kursi to‘g‘risida nimani bilasiz?
4. Valyutalarning xarid qobiliyati pariteti nimani anglatadi?
5. Valyuta kursiga qanday asosiy omillar ta’sir etadi.
6. Valyutalarning konvertatsiyasi nima va u qanday shakllarda amalga oshiriladi. Valyuta kurslarini prognozlash (bashoratlash)ning qanday yo‘llarini bilasiz?
7. Valyuta bozori nima va uning funksional va institutsional nuqtayi nazardan qanday turlarga ajratish mumkin.
8. Market-meykerlar qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi.
9. Spot operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
10. Valyuta pozitsiyasiga limitning va valyutaviy cheklashlarning yana qanday turlarini bilasiz?
11. Arbitraj operatsiyalarining mohiyatini aytib bering?
12. Muddatli bitimlar bilan bog‘liq qanday operatsiyalarni bilasiz, ularga izoh bering?
13. Valyuta siyosati nima, uning qanday turlari va shakllari bor?
14. Valyuta intervensiyasi, devalvatsiya, revalvatsiya tushunchalariga izoh bering?
15. Valyuta kursi rejimi nima va uning xavf tomonidan qayd etilgan qanday turlari bor?
16. Mamlakat valyuta siyosatini olib borish bo‘yicha qanday iqtisodiy nazariyalarni bilasiz?
17. O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini qanday tartibda amalga oshiriladi?
18. Joriy xalqaro operatsiyalar, shuningdek, savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari turlarini aytib bering?

19. Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini aytib bering?

20. Mamlakatimizda milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursi qanday belgilanadi?

21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga solish doirasida qanday vazifalarni bajaradi?

22. Chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan vakolatli banklar qanday valyuta operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin?

23. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibi qanday amalga oshiriladi?

24. Mamlakatimiz hududida qanday hisob-kitoblar va to‘lovlar chet el valyutasida amalga oshirilishi mumkin?

25. O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlarni aytib bering?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Tijorat banki 1 avgustda quyidagi kurslarni e’lon qildi. Valyutalar e’lon qilingan kurslar bo‘ yicha banklar tomonidan xarid qilinadi va sotiladi.

	Narxlar	£	€	$	¥	tenge	so‘m
1£	Xarid qilish	x	3.40€				
	Sotish	x	3.45€				
1€	Xarid qilish	x	x	1.01$			
	Sotish	x	x	1.02$			
1$	Xarid qilish	x	x	x			1225 so‘m
	Sotish	x	x	x			1230 so‘m
1¥	Xarid qilish	x	x	x	x	35 tenge	
	Sotish	x	x	x	x	36 tenge	
1tenge	Xarid qilish	x	x	x	x	x	10 so‘m
	Sotish	x	x	x	x	x	12 so‘m

6 ta valyutaning har biri bo‘yicha kross-kurslarni aniqlang:

1£ qancha dollar, so‘m, iyena va tenge?

1€ qancha so‘m, iyena va tenge?

1$ qancha iyena va tenge

1¥ qancha so‘m?

2. Jahondagi forvard va fyuchers valyuta bozorining xususiyatlarini quyidagi jadval shakli asosida qiyosiy tahlil qiling.

Taqqoslash me’zoni	**Fyuchers valyuta bozori**	**Forvard valyuta bozori**
Ishtirokchilar		
....		

3. Valyuta bozorini texnik tahlil qilish usullari, tamoyillari va shartlarini o‘rganing va undan valyuta kurslarini prognozlashda foydalanish imkoniyatlariga baho bering.

4. Valyuta kurslarini prognozlashda foydalaniladigan xalqaro paritet nisbatlarini (xususan, valyutalarning xarid qobiliyati pariteti, foiz stavkalari pariteti, Fisherning xalqaro samarasi (valyuta kursi bilan bog‘liq), muddatli valyuta kursi paritetini) tizimlashtiring va ularning xususiyatlarini o‘zaro solishtiring.

5. Valyuta kursi o‘zgarishini boshqa iqtisodiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlang.

Iqtisodiy jarayonlar		**Mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimi**	**Mamlakat eksport hajmi**	**Mamlakat import hajmi**
Valyuta kursi	oshdi			
	pasaydi			
Iqtisodiy jarayonlar		Chet el valyutasidagi kredit	Davlat valyuta zaxirasi hajmi	Xorijiy valyutadagi jamg‘arma hajmi
Valyuta kursi	oshdi			
	pasaydi			

6. Mandell - Fleming modeli asosida valyutalarning qat’iy belgilangan va suzish rejimlari sharoitida iqtisodiyotni muvofiqlashtirish, optimal valyuta zonalarini shakllantirish shartlarini grafik tasvirda chuqur iqtisodiy tahlil qiling va nazariyaning amaliy jihatlarini baholang.

Test savollari

1. Nyu Yorkda sarmoyalardan olinadigan yillik foiz stavka 8 foiz, Londonda esa bu 12 foizni tashkil etsa kassa bitimlaridagi kurs 1.6 USD/GBP bo‘lsa, kelgusidagi 90 kun uchun kutiladigan spot kurs qanday bo‘lishini toping?

a) 1.6789 USD/GBP;

b) 1.5845 USD/GBP;

d) 1.4351 USD/GBP;

e) 1.7001 USD/GBP.

2. Hozirda kelgusi davr uchun 90 kunlik forvard bitimlarining USD/GBP bo‘yicha foiz stavkasi +0.5foiz bo‘lsa va bugungi kurs USD/GBP=1.6 bo‘lsa, forvard kursini toping?

a) 1.1.608 USD/GBP;

b) 1.5042 USD/GBP;

d) 1.4247 USD/GBP;

e) 1.7201 USD/GBP.

3. Jahonning quyidagi uch valyuta bozori markazida quyidagi almashuv kurslari o‘rnatildi. Nyu-Yorkda – 2USD=1GBP; Londonda – 410JPY=1GBP; Tokioda – 200JPY=1USD. 10000 AQSh dollari asosida uch tomonlama valyuta arbitrajini amalga oshirib, AQSh dollaridagi foyda miqdorini toping?

a) 250 AQSh dollari;

b) 375 AQSh dollari;

d) 415 AQSh dollari;

e) 125 AQSh dollari.

4. Iste’mol savatidagi uch xil mahsulot ma’lumotlari asosida o‘zbek so‘mining xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSh dollariga nisbatan kursini aniqlang?

Mamlakat	Mahsulot					
	Bir birlik bahosi			Miqdori		
	A	B	S	A	B	S
O‘zbekiston	500	1000	10 000	100	20	10
AQSh	0,1	1,0	2,0	100	20	10

a) 3400 AQSh dollari;

b) 2500 AQSh dollari;

d) 4225 AQSh dollari;

e) 2210 AQSh dollari.

5. Investor 1 mln. doll. miqdoridagi investitsiyasini 1 yilga AQSh yoki Shvetsariyaga qo‘yish to‘g‘risida o‘ylamoqda. Ushbu mamlakatlarda foiz stavkalari yillik mos ravishda 6% va 12%. Spot kurs 0,4USD/CHF. Yillik forvard kursi esa 0,3987USD/CHF. Qaysi mamlakatga investitsiya kiritish foydali va investor sof foydasini hisoblang?

a) Shveytsariya, sof foyda 56360 AQSh dollari;

b) AQSh, sof foyda 60000 AQSh dollari;

d) Shveytsariya, sof foyda 116360 AQSh dollari;

e) AQSh, sof foyda 56360 AQSh dollari.

6. Uch oylik forvard kursi F= 2,00 USD/GBP ga teng. Investor hisob-kitobi bo‘yicha spot kurs uch oydan so‘ng S= 2,05 USD/GBP ga teng bo‘ladi. Yuqoridagi holat bo‘yicha investorning prognozi to‘g‘ri bo‘lsa, qanday foyda olishi mumkin.

a) 3 oydan keyin har bir funt sterling uchun 0.05 AQSh dollaridan foyda oladi;

b) 3 oydan keyin har bir funt sterling uchun -0.05 AQSh dollaridan zarar ko‘radi;

d) 1 oydan keyin har bir AQSh dollari uchun -0.05 funt sterlingdan zarar ko‘radi;

e) 1 oydan keyin har bir AQSh dollari uchun 0.05 funt sterlingdan foyda oladi.

7. AQShdagi “T&S” kompaniyasi bir yildan keyin to‘lash va yetkazib berish sharti bilan 500000 GBP miqdoridagi mahsulotlarni sotib olish uchun Angliyadagi bir firmaga buyurtma berdi. Joriy davrda

valyuta kursi 1 GBP = 1.7 USD. “T&S” kompaniyasining moliyaviy menejeri funt sterling kursi oshishini (ya’ni, dollar qadri tushishini) prognoz qilmoqda. Shuning uchun “T&S” kompaniyasi 1 yil muddatlik, ijro bahosi 1 GBP = 1.8 USD bo‘lgan 5000 ta koll opsionni 100 GBPdan (1 ta opsion bahosi) sotib oldi. Bir opsionning bozor qiymati (opsion bozorda sotilayotganda kontragent (qarshi tomonga) to‘lanadigan premiyasi (mukofoti)) 10 doll.ga teng. Spot kurs yil oxiriga quyidagi holatlardan qaysi biriga to‘g‘ri kelganda sotib olingan opsionlar kompaniyani himoya qila oladi. 1-holat 1,7; 2-holat 1,8; 3-holat 1,9; 4-holat 2,0.

a) 1 va 2 holatlar bo‘yicha 50000 AQSh dollari miqdorida kompaniya zarar ko‘radi va opsion amalga oshirilmaydi, 3 va 4 holatlar bo‘yicha opsion amalga oshiriladi, natijada foyda miqdori mos ravishda 0 va 50000 AQSh dollariga teng bo‘ladi;

b) 1, 2 va 3 holatlar bo‘yicha kompaniya zarar ko‘radi va opsion amalga oshirilmaydi, 4 holatda opsion amalga oshiriladi, natijada foyda miqdori 100 000 AQSh dollariga teng bo‘ladi;

d) Har qanday holatda ham opsion amalga oshiriladi natijada jami zarar miqdori 50000 AQSh dollariga teng bo‘ladi;

e) 1 holat bo‘yicha 100000 AQSh dollari miqdorida kompaniya zarar ko‘radi va opsion amalga oshirilmaydi, 2, 3 va 4 holatlar bo‘yicha opsion amalga oshiriladi, natijada foyda miqdori mos ravishda 0, 50000 va 100000 AQSh dollariga teng bo‘ladi.

8. Angliyadagi firma AQSh bilan tuzilgan eksport bitimi natijasida 100 ming doll. miqdorida mablag‘ oldi. Ushbu firma AQShdan Angliyaga yetkazib berishi bilan birga 37500 doll. bo‘lgan, biroq Angliyada 30000 funt sterling bo‘lgan asbob-uskunani sotib olmoqchi. AQSh dollari va funt sterling valyuta kurslari qanday bo‘lganda mazkur asbob-uskunani AQShdan sotib olish foydali ekanini toping.

a) 1 USD = 1 GBP;

b) 1 USD = 0,8 GBP;

d) 1 USD $>$ 0,8 GBP;

e) 1 USD $<$0,8 GBP.

9. Agar 1 USD=200 JPY bo‘lsa va sizning 200 ming yapon iyenasidagi yillik 12,5% foiz daromad keltiradigan obligatsiyalaringiz bo‘lsa, yil oxiriga kelib yapon iyenasining dollarga nisbatan qadri 25 %ga tushsa, ya’ni dollar kursi oshsa daromadingiz miqdorini hisoblang?

a) 100 AQSh dollariga zarar ko‘radi;

b) Foyda ham zarar ham ko‘rmaydi;

d) 125 AQSh dollariga foyda ko‘radi;

e) 25 AQSh dollariga zarar ko‘radi.

10. Germaniya AQShga 10 ming AQSh dollaridan avtomobil yetkazib berish shartnomasini tuzdi. Shartnomani tuzish vaqtida valyuta kursi 1 EUR/USD = 1,1. Bitta avtomobilni ishlab chiqarish xarajati 6000 yevroni tashkil etadi. Agar yevroning kursi dollarga nisbatan 25%ga oshsa, ya’ni dollarning qadri tushsa eksportyor daromadini hisoblang?

a) har bir avtomobil eksportidan 1515 yevro miqdorida zarar ko‘radi;

b) masala sharti to‘liq emas, yechimni topib bo‘lmaydi;

d) har bir avtomobil eksportidan 3090 yevro miqdorida foyda ko‘radi;

e) har bir avtomobil eksportidan 1775 yevro miqdorida foyda ko‘radi.

11. “Apple” kompaniyasining kompyuterlari AQShda 5000 doll.ni tashkil etsa, “Toshiba” kompyuterlarining Yaponiyadagi bahosi 1 mln. iyenaga, nominal kurs esa 100 JPY/USD teng bo‘lsa, valyutaning real kursini aniqlang?

a) 1 USD = 0.5 JPY;

b) masala sharti to‘liq emas, yechimni topib bo‘lmaydi;

d) 1 USD = 20000 JPY

e) 1 USD = 200 JPY.

12. Iste’mol xususiyati va sifati bo‘yicha bir xil bo‘lgan mebel-garnitura O‘zbekistonda 5 mln. so‘m va Qozog‘istonda 250 ming qozoq tanga turadi. Agar kurs 1 KZT/UZS = 25 bo‘lsa, real kursni toping?

a) 1 KZT/UZS = 1.25;

b) 1 KZT/UZS = 500;

d) 1 KZT/UZS = 20;

e) masala sharti to‘liq emas, yechimni topib bo‘lmaydi.

13. O‘zbekiston valyuta bozorida AQSh dollariga bo‘lgan talab va taklif funksiyalari: Dt/b=5500-3P; St/f=2P-4500; bunda R – bir dollarga nisbatan so‘mning kursi. Bozordagi muvozanat kursini aniqlang. Shuningdek, spekulyativ o‘yinlar natijasida AQSh dollariga bo‘lgan talab funksiyasi ordinatalar o‘qi (narx, valyuta kursi o‘qi) bo‘yicha 2 birlikka oshsa, xorijiy investitsiyalarni kirib kelishi natijasida taklif funksiyasi abssissa o‘qi (valyuta miqdori) bo‘yicha 50 birlikka oshsa, Markaziy bank eksportdan olingan valyuta tushumlarini davlatga majburiy sotish me’yorini (miqdorini) oshirish natijasida taklif funksiyasi abssissa o‘qi bo‘yicha 3 birlikka qisqarsa AQSh dollarining bozordagi yangi muvozanat kursini aniqlang?

a) dastlabki kurs 1 USD = 2000 UZS bo‘lsa, 3 xil turdagi omillar ta’siridan keyin kurs 1 USD = 1992 UZS bo‘ladi;

b) dastlabki kurs 1 USD = 2200 UZS bo‘lsa, 3 xil turdagi omillar ta’siridan keyin kurs 1 USD = 2000 UZS bo‘ladi;

d) masala sharti to‘liq emas, yechimni topib bo‘lmaydi;

e)dastlabki kurs 1 USD = 2100 UZS bo‘lsa, 3 xil turdagi omillar ta’siridan keyin kurs 1 USD = 2214 UZS bo‘ladi.

14. Agar 1 AQSh doll.ga 98 yapon iyenasini, 1 funt sterlingga 1,5 AQSh doll.ni olish mumkin bo‘lsa, 1 funt sterling qancha yapon iyenasi bo‘ladi. Shuningdek, agar 1 funt mis Angliyada 1 funt sterling, Yaponiyada 160 iyena, AQShda 1,45 doll.ni tashkil qilsa, qayerda mis eng qimmat va arzon.

a) Yaponiyada qimmat, AQShda esa arzon;

b) AQShda qimmat, Yaponiyada esa arzon;

d) Buyuk Britaniyada qimmat, AQShda esa arzon;

e) AQShda qimmat, Buyuk Britaniyada esa arzon.

15. A mamlakat pul birligi “manat” va B mamlakat pul birligi “dinor” bo‘lsa, “dinor”ga bo‘lgan talab va taklif funksiyasi: Dt/b = 925-100P; St/f=200P-50; bu yerda R-manatning dinorga nisbatan valyuta ayirboshlash kursi. Agar 1 dinor 2 manatga teng bo‘lsa, bozordagi

muvozanatni ta’minlash uchun valyuta intervensiyasining hajmini aniqlang.

a) 375 manat;

b) 250 manat;

d) 125 manat;

e) 245 manat.

16. Milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan devalvatsiyasi sodir bo‘lganda eksport va import mahsulotlari narxiga qanday ta’sir qiladi?

a) import mahsulotlari narxi ortadi, eksport mahsulotlari narxi esa pasayadi;

b) ham eksport, ham import mahsulotlari narxi ortadi;

d) ham eksport, ham import mahsulotlari narxi pasayadi;

e) eksport mahsulotlari narxi ortadi, import mahsulotlari narxi esa pasayadi.

17. Valyuta bozorlarida AQSh dollarining qadrini tushishi nimani anglatadi?

a) AQSh aholisi uchun import qilinayotgan mahsulotlar arzonlashadi;

b) xorijiy bozorlarda AQSh dollari ko‘proq xarid qobiliyatiga ega bo‘ladi;

d) AQShning eksport mahsulotlari chet ellliklar uchun arzonlashadi;

e) AQShning eksport mahsulotlari chet ellliklar uchun qimmatlashadi.

18. Agar boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan yevroning qadri oshsa, qanday xalqaro iqtisodiy jarayon yuzaga keladi?

a) yevroni solib olish uchun nisbatan kam miqdordagi dollar, funt sterling va boshqa valyutalar talab etiladi;

b) Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida import mahsulotlari qimmatlashadi, ittifoqdagi mamlakatlar ekport hajmi ortadi;

d) Yevropa Ittifoqida tayyorlangan mahsulotlarni sotib olish uchun boshqa mamlakatlar ko‘proq pul to‘lashga majbur bo‘ladilar;

e) Yevropada tayyorlangan mahsulotlarning AQSh dollaridagi bahosi pasayadi.

19. Amerikalik fuqaro Jek o‘zining ta’tilini O‘zbekistonda o‘tkazishga qaror qildi. Jadval ma’lumotlaridan foydalangan holda qaysi oyda o‘z ta’tilini O‘zbekistonda o‘tkazish mister Jek uchun foydali bo‘ladi?

Oylar	**May**	**Iyun**	**Iyul**	**Avgust**	**Sentyabr**
1 USD/UZS	2200	2100	2250	2050	2300

a) may;

b) iyul;

d) avgust;

e) sentyabr.

20. Yaponiyada pul massasining o‘sish sur’ati AQShga nisbatan past bo‘lsa, qanday iqtisodiy o‘zgarish yuzaga keladi?

a) Yaponiyada inflyatsiya sur’ati ortadi;

b) AQSh dollariga nisbatan yenaning ayirboshlash kursi pasayadi;

d) yenaga nisbatan AQSh dollarining qadri ortadi;

e) AQShning Yaponiyaga eksporti hajmi kamayadi.

21. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilindi?

a) 2019- yil 22- oktyabr;

b) 1993- yil 7- may;

d) 1996- yil 25- aprel;

e) 1995- yil 21- dekabr.

22. Foizlar va boshqa daromadlar ko‘rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo‘yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek, boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to‘lanishi zarur bo‘lgan xorijiy valyutadagi to‘lovlar qanday valyuta operatsiyalari tarkibiga kiradi?

a) joriy xalqaro operatsiyalar;

b) savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari;

d) kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari;

e) kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish.

23. Ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to‘lash, xodimlarni O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash, ta’lim va davolanish uchun haq to‘lash, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta’minoti uchun haq to‘lash operatsiyalari qanday valyuta operatsiyalari tarkibiga kiradi?

a) joriy xalqaro operatsiyalar;

b) savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalari;

d) kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari;

e) kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish.

24. O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlari berilgan javobni toping?

a) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

b) Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi;

d) Hisob palatasi, Davlat bojxona qo‘mitasi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

25. O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o‘tkazish qoidasi asosida AQSh dollari kursi savdolarda xorijiy valyutani sotib olish va sotishga berilgan buyurtmalarning summali hajmini muvozanatlash prinsipi asosidagi qanday uslub orqali belgilanmoqda?

a) *fiksing;

b) metching;

d) auktsion;

f) target.

7-BOB. JAHON VALYUTA TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

7.1. Jahon valyuta tizimi va uning asosiy funksiyalari

7.2. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari

7.3. Yevropa valyuta tizimining asosiy elementlari va rivojlanishi bosqichlari

7.1. Jahon valyuta tizimi va uning asosiy funksiyalari

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida valyuta tizimining samarali tashkil etilishi va uning barqarorligi muhim o‘rin tutadi. Valyuta tizimi deganda, valyuta munosabatlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy shakli tushuniladi. Valyuta tizimining holati mamlakatda valyuta munosabatlarini boshqarish va tartibga solish jarayoniga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Valyuta tizimining uchta asosiy shaklini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– Milliy valyuta tizimi – ma’lum bir mamlakat hududida valyuta munosabatlarini tashkil etish, tartibga solish bilan bog‘liq tadbirlar majmuasini ifodalaydi.

– Mintaqaviy valyuta tizimi – muayyan bir mintaqa doirasidagi mamlakatlar tashabbusiga ko‘ra tashkil etilgan valyuta tizimini ifodalaydi.

– Jahon valyuta tizimi – mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta munosabatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan, instrumentlar, shartnomalar, tartib-qoidalar va tashkilotlarning majmuasidir.

Jahon valyuta tizimining asosiy vazifasi, xalqaro savdo jarayonida va turli valyutalardagi hisob-kitoblarda xalqaro valyuta likvidligini ta’minlashdan iborat.

Jahon valyuta tizimi quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

– tartibga solish – valyutalar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi to‘lov balansida yuzaga keladigan nomutanosibliklarni bartaraf etish;

– likvidlilik – zaxira birliklarini aniqlash hamda to‘lov balansining nomutanosibliklarini qoplash uchun ularni qo‘llash imkoniyatlari va tashkil etish shakllarini belgilash;

– boshqarish – xalqaro moliyaviy institutlarni tashkil etish va ularning vakolatlari orqali hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlab borish.

Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlash;

– mamlakatlar milliy valyutasi barqarorligini ta’minlashni qo‘llab-quvvatlash;

– jahon xo‘jaligining turli iqtisodiy tizimlari o‘rtasida samarali mehnat taqsimotini ta’minlash;

– jahon ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘sishiga va aholi bandlik darajasining oshishiga erishish;

– milliy iqtisodiyotlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;

– inflyatsiyani jilovlash va tashqi iqtisodiy muvozanatni ushlab turish va boshq.

Valyuta tizimlari muayyan elementlarni o‘ziga qamrab olgan holda faoliyat yuritadi.

Milliy valyuta tizimi quyidagi elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi:

– milliy valyuta;
– milliy valyutaning almashinish rejimi;
– milliy valyuta pariteti;
– milliy valyuta kurs rejimi;
– valyuta cheklovlari holati;
– mamlakatning xalqaro valyutaviy likvidligini tartibga solish;
– milliy valyuta bozorida operatsiyalarni yuritish tartibi.

Jahon valyuta tizimiga esa quyidagi elementlar kiradi:

– xalqaro to‘lov vositasi;
– valyuta kurslarini belgilash va saqlab turish mexanizmi;
– valyutalarni konvertatsiyalash shartlari;

– valyutaviy cheklashlarni davlatlararo tartibga solish;
– xalqaro valyutaviy likvidlikni ta’minlash va tartibga solish;
– xalqaro hisob-kitob shakllarini umumlashtirish;
– oltin va valyuta bozorlarida ishlash rejimlari;
– valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo institutlarning huquq va majburiyatlari.

Jahon valyuta tizimi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan omillar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:
– mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi;
– xalqaro mehnat taqsimoti jadallashuvi darajasi;
– jahon bozori rivojlanish darajasi;
– xo‘jalik yuritishning tizimlari rivojlanish darajasi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning ko‘p tomonlama munosabatlar sifatida rivojlanishi bilan jahon valyuta tizimining ahamiyati yanada orta boshladi. Chunki, mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro savdo, kredit, investitsiya va kapital harakati bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlar jahon valyuta tizimi doirasida belgilangan muayyan tamoyillar asosida amalga oshirilardi.

7.2. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari

Jahon valyuta tizimining samarali hamda barqaror faoliyat ko‘rsatishi uning jahon xo‘jaligi tuzilmasi va holatiga muvofiqlik darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Xalqaro moliyaviy muhitda yuzaga kelgan bir qator o‘zgarishlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ta’siri natijasida jahon valyuta tizimining amal qilish tamoyillari ham o‘zgardi.

Jahon valyuta tizimi rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlarini bosib o‘tdi:
– Parij valyuta tizimi (1867-1914 y.y.);
– Genuya valyuta tizimi (1922-1929 y.y);
– Bretton-vuds valyuta tizimi (1945-1976 y.y.);

– Yamayka valyuta tizimi (1976 yildan hozirgi davrgacha).

Jahon valyuta tizimining dastlabki bosqichlarida oltin andozasi (standart) tizimi amal qildi. Oltin andozasi tizimida mamlakatlar pul birliklari qiymatiga teng bo‘lgan oltinning muayyan miqdori rasmiy tarzda o‘rnatildi, pullar esa oltin tanga yoki banknota shakliga ega bo‘ldi. Ular istalgan paytda rasmiy o‘rnatilgan kurs bo‘yicha oltinga almashinishi mumkin edi. Oltin andozasining to‘liq amal qilishi uchun ikkita asosiy shart bajarilishi lozim edi: birinchidan, pul-kredit muassasalariga milliy valyutani oltinga istalgan miqdorda aniq stavka bo‘yicha almashtirish majburiyati yuklatildi, ikkinchidan, alohida shaxslar uchun oltinni eksport va import qilish huquqining mavjudligi edi. Odatda, pul-kredit muassasalari tanga zarb qilish xarajatlarini qoplash uchun oltinni sotish va sotib olish narxlari o‘rtasida ma’lum bir farqni o‘rnatgan edilar. Ushbu davrda oltin andozasining uchta shakli muomalada bo‘ldi:

– oltin tanga andozasi. Mazkur bosqichda oltin tangalar faol tarzda muomalada o‘rin egalladi.

– oltin quyilma andozasi. Bu bosqichda oltin tangalar muomalada bo‘lmadi hamda ularni erkin tarzda zarb qilish amalga oshirilmadi, pul-kredit muassasalarining majburiyati esa oltin quyilmalarni sotishdan iborat bo‘ldi.

– oltin valyuta andozasi. Ushbu bosqichda pul-kredit muassasalari milliy pullarni xorijiy valyutalarga oltin andozasi asosida almashtirdilar.

Oltin andozasi tizimining o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari quyidagicha edi:

– har bir valyuta oltin tarkibiga ega bo‘lib, valyuta birligi muayyan miqdorda oltinga tenglashtirildi;

– valyutalarning oltin tarkibiga ko‘ra ularning oltin paritetlari o‘rnatildi, shunga muvofiq valyutalarning o‘zaro kursi belgilandi;

– alohida davlat ichida va undan tashqarida valyutalarning oltinga erkin almashinuvi ta’minlandi. Davlat paritet qiymatiga ko‘ra oltinni sotish va sotib olish majburiyatini oldi.

– oltin umumjahon puli sifatida tan olindi;

– oltinning erkin tarzda eksport va importi yo‘lga qo‘yildi;

– pulga bo‘lgan ichki talab va milliy oltin zaxirasi o‘rtasidagi muvofiqlik saqlab turildi.

Ushbu davrda oltin andozasiga asoslangan xalqaro hisob-kitoblar mexanizmi qat’iy belgilangan kurs rejimini o‘rnatdi.

Birinchi jahon valyuta tizimi XIX asrda oltin monometallizmi asosida, oltin tanga andozasi shaklida shakllangan. **Parij valyuta tizimi**da oltin yagona jahon puli sifatida qabul qilingan. Mazkur valyuta tizimi, rasmiy ravishda 1867- yilda Parij konferensiyasida tan olindi va amal qila boshladi.

Oltin andozasi talabiga asosan banklar milliy valyuta birligiga oltin asosini berib, milliy valyutani oltinga sotish va sotib olish majburiyatini olganlar.

Oltin tanga andozasiga tegishli xususiyatlar quyidagilardan iborat edi: tovarlar narxining oltinda hisoblanishi, oltin tangalarning erkin muomalada bo‘lishi va davlat zarbxonlari tomonidan cheklanmagan tarzda tangalarni zarb etilishi, nominalga ko‘ra kredit pullarining oltin tangalarga erkin almashinuvi, oltinni olib kirish va olib chiqishda cheklovlar o‘rnatilmaganligi, ichki bozorlarda qog‘oz pullar oltin tangalar bilan bir qatorda muomalada bo‘lishi. Oltin andozasi amalda bo‘lgan davrlarda oltin paritetidan foydalanilgan.

Oltin pariteti – rasmiy oltin tarkibiga ko‘ra turli mamlakatlar pul birliklarining o‘zaro nisbatini ifodalaydi. Oltin pariteti valyuta kurslarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qilgan va 1976- yilda XVF tomonidan bekor etilgan. Ya’ni:

AQShda 1 troya unsiya oltin (31, 1 g.) = 20, 672 USD ($)

Buyuk Britaniyada 1 troya unsiya oltin= 4,248 GBP (£)

Oltinning valyutalardagi qiymati valyuta kursini aniqlashga xizmat qilardi:

$ 20, 672 / £ 4,248 = 4, 866 , ya’ni £ 1 = $ 4, 866

Parij valyuta tizimi quyidagi tamoyillarga asoslangan edi:

– tizim asosini oltin tanga andozasi tashkil etishi;

– milliy pul birliklarining oltin tarkibi o‘rnatildi (Buyuk Britaniya – 1816- yildan, AQSh – 1837- yildan, Germaniya – 1875- yildan, Fransiya – 1878- yildan);

– oltinga umumiy to‘lov vositasi sifatida jahon puli funksiyasi berildi;

– markaziy banklar tomonidan emissiya qilingan muomaladagi banknotalar oltinga erkin almashtirilgan. Almashinuv oltin paritetlari asosida amalga oshirilgan.

– valyutalar kursi moneta paritetidan “oltin nuqtalari” chegarasida og‘ishi mumkin edi (±1% amalda qat’iy belgilangan valyuta kurslari bo‘lgan);

– oltindan tashqari xalqaro aylanmada angliya funt sterlingi tan olingan;

– milliy oltin zaxiralari va ichki pul taklifi o‘rtasidagi o‘zaro nisbat ushlab turilgan;

– to‘lov balanslari taqchilligi oltin bilan qoplangan.

Mazkur davrda valyuta kurslarining barqarorligini mamlakatlar o‘rtasida oltinning erkin harakati ta’minlagan. Oltin andozasining joriy etilishi har bir ishtirokchi davlatdan o‘z valyutasini oltinga qat’iy belgilangan kurs bo‘yicha konvertatsiya qilishni talab etardi. Oltin tarkibini hisoblash yordamida aniqlangan valyuta ayirboshlash kursi har bir valyuta uchun oltin paritetini belgilaydi.

Parij valyuta tizimi amal qilgan sharoitda oltin ichki bozorlarda tanga ko‘rinishida muomalada bo‘lgan, bundan tashqari tijorat banklarining zaxiralari shaklida ham xizmat qilgan.

Oltin andozasi mamlakatlarda to‘lov balansini, pul muomalasini, xalqaro zaxiralarni, tashqi iqtisodiy aloqalarni hamda ishlab chiqarishni bir maromda tartibga solishda muhim rol o‘ynagan. Parij valyuta tizimida tashkil etilgan oltin tanga andozasi birinchi jahon urushiga qadar, to‘lov balansi va valyuta kursini tartibga solishning bozor mexanizmi amalda qo‘llangan davrda birmuncha samarali faoliyat ko‘rsatgan.

To‘lov balansida taqchillik mavjud bo‘lgan mamlakatlar deflyatsion siyosat o‘tkazishga majbur bo‘lganlar, bunda pul massasini oltinni chegaradan tashqariga chiqarish orqali qisqartirishga erishganlar.

Oltin andozasining afzalliklari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– valyuta kurslari keskin tebranishining mavjud emasligi;
– past inflyatsiya darajasi.

Parij valyuta tizimi doirasida tashkil etilgan oltin andozasi bir qator kamchiliklarga ega bo‘lgan. Oltin andozasi jahon iqtisodiyotida muomaladagi pul massasi bilan oltin qazib olish va ishlab chiqarish o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirdi. Ushbu sharoitda yangi oltin konlarini ochish va uni qazib olishni ko‘paytirish transmilliy inflyatsiyaga olib kelgan. Aksincha, agar oltin ishlab chiqarish hajmi ishlab chiqarishning real hajmi o‘sishidan orqada qolsa narxlar darajasining yalpi pasayishi kuzatilgan.

Shuningdek, oltin andozasi amal qilgan davrda milliy iqtisodiyotning ichki muammolarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan. Oltinga konvertirlanganlikni ushlab turgan holda pul emissiyasi orqali xarajatlarni moliyalashtirishga harakat qilgan xohlagan mamlakatda oltin zaxirasining xorijga chiqib ketishi holati ro‘y bergan. Bu holat, barcha Yevropa mamlakatlarini birinchi jahon urushi davrida oltin andozasidan voz kechishga majbur etdi. Chunki, urush xarajatlarini moliyalashtirishni faqat qog‘oz pullar emissiyasi hisobiga amalga oshirish mumkin edi.

Urush xarajatlarini qoplashda soliqlar, zayomlar bilan birga oltin ham jahon puli sifatida sarflandi. Ko‘pgina mamlakatlar tomonidan valyuta cheklovlari o‘rnatildi. Valyuta kurslari majburiy tarzda o‘rnatilgan bo‘lib, shu boisdan noreal edi. Urush boshlanishi bilan markaziy banklar oltinni almashtirishni to‘xtatdi va xarajatlarni qoplash uchun emissiyani oshirdilar. 1920- yilga kelib AQSh dollariga nisbatan funta sterling 1/3 qismga, fransuz franki va italiya lirasi —2/3, nemis markasi esa - 96%ga qadrsizlandi.

Oltin andozasi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga va rivojlanib borayotgan xo‘jalik aloqalari ko‘lamiga javob bermaganligi tufayli asta-sekinlik bilan barham topgan. Oltin tanga andozasi pul va valyuta tizimi sifatida amal qilishni to‘xtatgan va jahon valyuta tizimini boshqa shaklda shakllantirishga ehtiyoj sezilgan.

Birinchi jahon urushidan keyin mamlakatlar o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning qayta tiklanishi natijasida jahon valyuta tizimining yangi tamoyillarini ishlab chiqishga zarurat tug‘ildi. Ushbu davrdan jahon valyuta tizimi rivojlanishining yangi bosqichi amal qila boshladi. Mazkur bosqich oltin quyilma andozasi yoki **Genuya valyuta tizimi** sifatida nom oldi.

1922- yilda Genuyada o‘tkazilgan moliyaviy va iqtisodiy masalalar bo‘yicha xalqaro konferentsiyada rivojlangan mamlakatlardagi oltin zaxiralari tashqi savdo va boshqa operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni tartibga solish uchun etarli emas deb ta’kidlandi. Xalqaro aylanmada oltin va funt sterlingdan tashqari AQSh dollaridan ham keng foydalanish tavsiya etildi. Xalqaro to‘lov vositasi rolini bajarishga yo‘naltirilgan ikkala valyuta ham deviz nomini oldi. Germaniya, Avstraliya, Daniya, Norvegiya kabi ko‘pgina mamlakatlar oltin deviz standartiga qo‘shilishdi.

Genuya valyuta tizimining asosiy tamoyillari ham oldingi Parij valyuta tizimi tamoyillariga o‘xshish edi. Mazkur tizimda ham oltin oxirgi jahon puli sifatidagi rolini saqlab qoldi, shu bilan birgalikda oltin paritetlari ham qoldirildi.

Genuya valyuta tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanib faoliyat ko‘rsatgan:

1. Tizim asosini oltin va deviz valyutalar tashkil etdi. Ushbu davrda 30 ta mamlakatning pul tizimi oltin-deviz standartiga asoslandi. Biroq, zaxira valyuta mavqei rasmiy jihatdan hech bir valyutaga berilmadi, funt sterling va AQSh dollari ushbu sohada etakchilik uchun raqobatlashdi.

2. Oltin paritetlari saqlab qolindi. Valyutalarning oltinga almashinuvi nafaqat bevosita yo‘l bilan (AQSh, Frantsiya, B.Britaniya) balki bilvosita, xorijiy valyutalar orqali ham amalga oshirildi.

3. Erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimi qayta tiklandi.

4. Valyutani tartibga solish faol valyuta siyosati shaklida xalqaro konferensiyalarda amalga oshirildi.

Oltin deviz andozasi oltin andozasining muayyan shaklini ifodalab, bunda alohida milliy banknotalar oltinga emas, balki boshqa mamlakatlarning valyutalariga (oltin quyilmalarga almashinuvchi devizlarga) almashtirilar edi.

Mazkur sharoitda, milliy valyutalarni oltinga almashtirishning ikkita asosiy usuli shakllandi:

1. bevosita – deviz rolini bajaruvchi (funt sterling, AQSh dollari) valyutalar uchun;

2. bilvosita – mazkur tizimning qolgan barcha valyutalari uchun.

Ushbu jahon valyuta tizimida erkin suzuvchi valyuta kurslari tamoyili qo‘llanilgan. Genuya tizimining tamoyillariga muvofiq a’zo mamlakatlarning markaziy banklari milliy pul birliklari valyuta kurslarining mumkin bo‘lgan tebranishlarini valyutani tartibga solish usullarini (asosan valyuta intervensiyasi) qo‘llagan holda ushlab turishlari lozim edi.

Oltin deviz andozasining keng tarqalishi bir mamlakatni boshqalariga bog‘liqligini kuchaytirdi. Biroq, oltin andozasining deviz shakli ko‘p amal qilmadi. 1929–1931- yillardagi jahonda ro‘y bergan inqiroz mazkur tizimni butunlay izdan chiqardi. Inqiroz o‘z navbatida, deviz valyutalarga ham salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. 1931- yilga kelib Buyuk Britaniya oltin andozasini bekor qilishga majbur bo‘ldi, funt sterling esa devalvatsiya qilindi. Shuningdek, valyuta va iqtisodiy munosabatlarda Angliyaga bog‘liq bo‘lgan bir qator Yevropa davlatlari, Misr, Malayziya, Hindiston mamlakatlarining valyutalari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Keyinchalik bu tizim Yaponiya va Fransiya tomonidan bekor qilindi. 1933- yilda esa AQSh hukumati banknotalarni oltinga almashtirishni hamda oltinning chegaradan chiqarilishini taqiqladi, dollar esa 41%ga devalvatsiya qilindi.

1930- yillarning o‘rtalariga kelib jahon valyuta tizimining beqarorligi kuchaydi va ko‘pgina mamlakatlar o‘z valyutalarini

devalvatsiya qilishdi. Valyuta sohasidagi inqiroz holati jahon valyuta tizimida islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi.

1926–1936- yillardagi jahon valyuta inqirozining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

– davriylik xususiyati: valyuta inqirozi jahon iqtisodiy va pul-kredit inqirozi bilan qo‘shilib ketdi;

– tuzilmaviy xususiyati: jahon valyuta tizimi tamoyillari – oltin deviz andozasi halokatga uchradi;

– davomiyligi: 1929- yildan 1936- yilgacha.

– ta’sir darajasi: qator valyutalar kursi 50-84%gacha pasaydi.

– rivojlanish holati: inqiroz turli paytda turli ta’sir orqali barcha mamlakatlar iqtisodiyotini izdan chiqardi.

Genuya valyuta tizimi doirasidagi jahon valyuta inqirozining bosqichlari:

Birinchi boosqich (1929–1930- yillar), agrar va mustamlaka mamlakatlar valyutalarining qadrsizlanishi orqali namoyon bo‘ldi hamda jahon bozorida xomashyoga bo‘lgan talab keskin qisqardi.

Ikkinchi bosqichda (1931- yilning o‘rtalarida) jahon valyuta tizimining kuchsiz bo‘g‘ini xorijiy kapitalning qaytishi, rasmiy oltin zaxirasining kamayishi va banklarning bankrotlikka uchrashi tufayli Germaniya va Avstriyada yuzaga keldi. Germaniya valyuta cheklovlarini joriy etgan holda tashqi qarz bo‘yicha to‘lovlarni va markani oltinga almashinuvini bekor qildi. Amalda mamlakatda oltin andozasi bekor qilinib, markaning rasmiy kursi “muzlatildi”

Uchinchi bosqich, jahon iqtisodiy inqirozining kuchayishi tufayli 1931- yilda Buyuk Britaniyada oltin andozasining bekor etilishi orqali yuzaga chiqdi. Bu holatning bevosita sababi to‘lov balansi holatining yomonlashuvi va tovarlar eksportining hamda “ko‘rinmas” operatsiyalardan tushumning keskin qisqarishi tufayli mamlakat rasmiy oltin zaxirasining kamayishi bo‘ldi. 1931- yilning 21- sentyabriga kelib funt sterlingning oltin quyilmalarga almashinuvi bekor qilindi, uning kursi esa 30,5%ga pasaydi. Bir vaqtning o‘zida Britaniya hamdo‘stlik davlatlari (Kanadadan tashqari) hamda Buyuk Britaniya bilan yaqin savdo aloqalariga ega bo‘lgan mamlakatlar valyutalari devalvatsiya

qilindi. Germaniyadan farqli ravishda, Buyuk Britaniyada funt sterlingning qadrini hamda Londonning jahon moliyaviy markazi sifatidagi mavqeini ushlab turish maqsadida valyuta cheklovlari joriy etilmadi. Ushbu davrda Buyuk Britaniya devalvatsiyadan muvaffaqiyat qozondi, ya'ni Angliya eksportyorlari devalvatsion mukofot hisobiga valyuta dempingini amalda keng qo'lladilar va natijada Buyuk Britaniya to'lov balansining passiv saldosi qisqardi.

Valyuta inqirozining to'rtinchi bosqichida oltin andozasi iqtisodiy inqirozning shiddatli avj olishi natijasida AQShda bekor qilindi. Ushbu holatning bevosita sababi narxlarning notekis va shiddatli pasayishi bo'ldi va ommaviy bankrotlikni keltirib chiqardi. Banklarning yirik qismi (mamlakat banklari umumiy sonining 40%) bankrotlikka uchrashi tufayli AQShda pul-kredit tizimi izdan chiqdi va dollar banknotalarini oltinga almashtirish bekor etildi. AQSh milliy korporatsiyalari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida valyuta urushlarini joriy etish uchun oltin sotib olish yo'li bilan dollar kursini pasaytirish siyosatini o'tkazdilar. 1934- yil yanvariga kelib dollar oltinga nisbatan 40%ga qadrsizlandi va 41%ga devalvatsiya qilindi, oltinning rasmiy narxi esa 1 troya unsiyasiga 20,67 dollardan 35 dollarga ko'tarildi. AQSh o'z milliy valyutasining xalqaro o'rnini mustahkamlash maqsadida xorijiy markaziy banklar uchun oltinni dollarga mazkur narxda almashtirish majburiyatini oldi. Mazkur davrda amalga oshirilgan dollarning devalvatsiyasi AQSh eksportini birmuncha rag'batlantirdi, lekin iqtisodiy turg'unlik sharoitlarida mamlakatda mahsulotlar narxi birqadar oshib ketdi.

Beshinchi bosqichda, 1936- yil oxirlariga kelib valyuta inqirozining markazi boshqa mamlakatlarda qaraganda oltin andozasini ko'proq qo'llab-quvvatlagan Fransiyada yuzaga keldi. Jahon iqtisodiy inqirozi Fransiyani boshqa mamlakatlarga nisbatan kechroq o'z domiga tortdi hamda bu mamlakatda funt sterling va dollarlarni oltinga almashtirish jarayoni tezlik bilan amalga oshirildi. Oshib borayotgan oltin zaxirasiga tayangan holda Fransiya oltin andozasini saqlab qolish maqsadida oltin blokiga yetakchilik qildi. Fransiyaning oltin andozasiga tarafdorligi uning tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan izohlanadi.

Iqtisodiy inqiroz to‘lov balansi passivligini, davlat byudjeti taqchilligini hamda mamlakatdan oltinning chiqib ketish holatlarini yuzaga keltirdi. Oltin andozasining sun’iy ushlab turilishi firmalarning raqobatbardoshligini pasayishiga sabab bo‘ldi. Fransiya eksporti hajmi keskin qisqarib ketdi va natijada hukumat tomonidan banknotalarni oltin quyilmalarga almashtirish bekor etildi, frank esa 25%ga devalvatsiyaga qilindi.

Inqiroz natijasida Genuya valyuta tizimi barqarorligini yo‘qotdi. Ichki aylanmada banknotalarni oltinga almashinuvi bekor qilinishiga qaramasdan, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya markaziy banklarining kelishuviga ko‘ra oltinning valyutaga tashqi almashinuvi saqlab qolindi.

Oltin valyuta andozasining inqirozi valyutaviy chalkashliklar davrida, xususan, dollarning devalvatsiyasi hamda London xalqaro iqtisodiy konferensiyasi doirasidagi muzokaralarda muvaffaqiyatsizliklarning kuchayishi tufayli sodir bo‘ldi.

Jahon valyuta tizimi valyuta bloklariga ajraldi. Valyuta bloki – xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida yagona siyosat olib boruvchi yetakchi mamlakat boshchiligidagi moliyaviy, iqtisodiy munosabatlarda o‘zaro aloqador mamlakatlar guruhidir.

Valyuta bloklari uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

– bog‘liq bo‘lgan valyutalar kursi guruhga boshchilik qiluvchi mamlakatlar valyutasiga biriktirildi;

– blokka kiruvchi mamlakatning xalqaro hisob-kitoblari yetakchi mamlakat valyutasida amalga oshirildi;

– blokka kiruvchi mamlakatlarning valyuta zaxiralari yetakchi mamlakatda saqlandi.

Asosiy valyuta bloklari – funt sterling bloki – 1931- yilda hamda dollar bloki esa 1933- yida Buyuk Britaniya va AQSh oltin standartidan voz kechganidan keyin yuzaga keldi. Sterling bloki tarkibiga Kanada va Nyuf-undlenddan tashqari Britaniya ittifoqiga kiruvchi mamlakatlar kirishdi. Shuningdek, mazkur blokka Syangan hududi hamda Britaniya bilan iqtisodiy jihatdan aloqador yaqin bo‘lgan mamlakatlar – Misr, Iroq va Portugaliya ham kirishdi. Keyinchalik unga Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Gretsiya va Eron ham qo‘shilishdi. Dollar blokiga

esa, AQSh, Kanada hamda Markaziy va Janubiy Amerikaning ko‘pgina amerika kapitali keng tarqalgan davlatlari kirishdi.

1933- yilda London xalqaro iqtisodiy konferensiyasida oltin standartini saqlashga harakat qilayotgan mamlakatlar (Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Shveytsariya, Italiya, Chexoslovakiya, Polsha) oltin blokini tashkil qilishdi. Ushbu blok ishtirokchilari o‘zlarining valyutalarini o‘zgarmas oltin tarkibini sun’iy ushlab turishdi va oltin standartidan voz kechgan hamda valyutalarini devalvatsiya qilgan mamlakatlarning valyuta dempingidan zararga uchrashdi. Oltin bloki asta-sekinlik bilan 1935- yilda parchalandi va Fransiya 1936- yilda oltin standartidan voz kechishi bilan o‘z faoliyatini butunlay to‘xtatdi. Valyuta urushlarining vositalaridan biri bo‘lib barqarorlashtirish fondlari xizmat qildi, mazkur fondlardan eksportni rag‘batlantirish maqsadlarida milliy valyuta kursini pasaytirishda foydalanilgan. Bunday fondlar Buyuk Britaniyada 1932- yilda, AQShda 1934- yilda, Belgiyada 1935- yilda, Kanadada 1935- yilda, Gollandiyada 1936- yilda tashkil etilgan.

Ikkinchi jahon urushi xalqaro valyuta va iqtisodiy munosabatlarning to‘liq izdan chiqishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro savdo va xalqaro moliya munosabatlarining asosi butkul o‘zgarib ketdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida mamlakatlar tomonidan yangi jahon valyuta tizimini tashkil etishga tashabbus qilindi.

Bretton-Vuds valyuta tizimi (***Bretton Woods system)*** – ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan va milliy valyuta tizimlarini yetakchi mamlakatlar valyuta tizimiga moslashtirishga asoslangan jahon valyuta tizimidir. Mazkur jahon valyuta tizimi 1944- yil 22- iyulda Bretton-Vudsdagi (Nyu-Xempshir shtati) xalqaro konferensiyada qabul qilindi. Shuningdek, ushbu tizim doirasida Xalqaro valyuta fondi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlarni tashkil etish qarori qabul qilindi.

Bretton-Vuds tizimi – savdo hisob-kitoblari va pul munosabatlarini tashkil etishning xalqaro tizimidir. Bu oltin deviz andozasidan erkin savdo orqali valyutalarning talab va taklifi muvozanatini o‘rnatuvchi Yamayka tizimiga o‘tish bosqichi bo‘ldi. Bretton-Vuds tizimida oltin bilan bir qatorda AQSh dollariga jahon puli funksiyasi berildi.

Bretton-Vuds tizimini tashkil etishdan maqsad:

– xalqaro savdo hajmini qayta tiklash va oshirish;

– tashqi savdo balansidagi vaqtinchalik qiyinchiliklarga barham berish uchun davlatlarga moliyaviy resurslar ajratish;

– barqaror almashuv kurslariga ega bo‘lgan, xalqaro valyuta tizimini tashkil etish;

– qattiq valyuta nazorati bekor qilinishi va barcha valyutalarning konvertirlanishiga erishish.

Bretton-Vuds tizimining oqibati: mamlakatlar iqtisodiyotining dollarlashuvi, ushbu holat pul massasini milliy nazorat ostidan chiqib ketishiga olib keldi.

Bretton-Vuds tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga ko‘ra amal qildi:

– xalqaro hisob-kitoblarda oltin o‘zining oxirgi pul funksiyasini saqlab qoldi;

– dollar yoki oltindagi qat’iy belgilangan valyuta paritetlari o‘rnatildi;

– asosiy valyutaning kursi (AQSh dollari) oltinga nisbatan qat’iy belgilandi;

– asosiy valyutaga nisbatan ishtirokchi mamlakatlar valyutalari uchun qat’iy belgilangan almashinuv kurslari o‘rnatildi;

– markaziy banklar milliy valyutalarning asosiy valyutaga nisbatan barqaror kursini (±1%) valyuta intervensiyalari yordamida saqlab turishdi;

– valyuta kurslarini revalvatsiya yoki devalvatsiya orqali o‘zgartirish mumkin edi;

– tizimning tashkiliy bo‘g‘inlari sifatida Xalqaro valyuta fondi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tashkil etildi.

AQSh dollari uchun 1 troya unsiya 35 dollar nisbatda oltin standarti o‘rnatildi. Natijada AQSh zaiflashgan raqobatchisi Buyuk Britaniyani ortda qoldirgan holda valyuta ustunligini oldi. Amalda xalqaro valyuta tizimining dollar ustunligiga asoslangan dollar standarti yuzaga keldi.

XX asrning o‘rtalarida jami dunyo oltin zaxirasining 70%i AQShga tegishli bo‘ldi. Dollar – oltinga almashinuvchi valyuta zaxira

aktivlari, valyuta intervensiyalari va xalqaro hisob-kitoblarda ustunlik qiladigan vosita hamda valyuta paritetlarida asos bo‘ldi. Bir vaqtning o‘zida AQShning milliy valyutasi jahon puli sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

AQSh dollarining barqarorligi so‘zsiz ravishda AQShning iqtisodiy yetakchiligi hamda uning oltin zaxiralariga monopol tarzda egaligi orqali ta’minlandi. Valyutalarning bozor kursi paritetdan 1% chegarada tebranishi mumkin edi. Bretton-Vuds valyuta tizimi barqaror, keskin tebranishlarga uchramaydigan valyuta kurslarini o‘rnatish asosida yuzaga keldi.

Xalqaro valyuta fondiga a’zo mamlakatlar o‘zlarining valyuta kurslarini dollarga yoki oltinga nisbatan belgiladilar, o‘z navbatida dollar oltinga bog‘langan edi. Shuning uchun oltinning dollardagi bahosi barcha narx hisob-kitoblari uchun asos bo‘ldi. Barcha jahon narxlari dollarda belgilana boshladi. Xalqaro to‘lov vositalari asosiy zaxira valyutasi sifatida AQSh dollari va oltindan tashkil topgan bo‘lishi kerak edi. Markaziy banklar o‘zlaridagi dollarni AQSh g‘aznachiligidan qat’iy belgilangan kurs bo‘yicha oltinga almashtirishlari mumkin edi.

Odatda, Bretton-Vuds tizimi 1944- yildan 1971- yilgacha davr mobaynida mavjud bo‘lgan bo‘lsa ham, haqiqatda mazkur tizim 1959- va 1968- yillar o‘rtasidagina muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatgan xolos. 1946- yildan 1959- yil yanvargacha valyuta kurslari barqarorlashtirish kreditlari hisobiga ushlab turilgan. 1959- yildagina G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining valyutalari erkin konvertatsiyalanishi bilan Bretton-Vuds tizimi to‘liq miqyosda faoliyatini boshlagan.

Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozga uchrash sabablari:

– AQSh iqtisodiyotining barqarorligi va u bilan bog‘liq ziddiyatlarning rivojlanishi. 1967- yilda iqtisodiy o‘sishning pasayishi bilan sodir bo‘lgan valyuta inqirozining boshlanishi;

– Inflyatsiyaning kuchayishi jahon narxlari va kompaniyalarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi hamda “issiq” pullarning spekulyativ ko‘chishini rag‘batlantirdi. Turli mamlakatlarda inflyatsiyaning turli sur’atlari valyuta kurslari dinamikasiga ta’sir ko‘rsatdi, pullarning xarid qobiliyatini pasayishi esa kurslarning keskin o‘zgarishiga sharoit yaratdi;

– 1970- yillarda spekulyativ operatsiyalar mamlakatlar o‘rtasidagi “issiq” pullar harakatini tezlashtirgan holda valyuta inqirozini yanada kuchayishiga sabab bo‘ldi. “Issiq” pullarning shiddatli oqimi ko‘rinishidagi dollar ortiqchaligi bir mamlakatdan boshqasiga kirib kelishi valyuta bozorlarida keskin o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Shuningdek, mazkur davrda milliy to‘lov balanslarida beqarorlik holati kuchaydi. Bitta mamlakatdagi surunkali taqchillik (ayniqsa AQSh, Buyuk Britaniya) va boshqalaridagi (Germaniya, Yaponiya) ijobiy qoldiqning yuzaga kelishi valyuta kurslarining keskin tebranishini kuchaytirdi;

– Bretton-Vuds tizimi tamoyillarining jahon maydonida kuchlar nisbati o‘zgarishiga nomuvofiqligi. Milliy valyutalarni qo‘llashga asoslangan valyuta tizimi jahon xo‘jaligi baynalmillashuvi bilan qarama-qarshilikka keldi. Ushbu qarama-qarshilik AQSh va Buyuk Britaniya iqtisodiy holatining zaiflashishiga muvofiq kuchayib bordi. Chunki ular zaxira valyutasi mavqeidan foydalangan holda to‘lov balanslarining taqchilligini milliy valyuta emissiyasi evaziga pasaytirishdi. Bu holat, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlariga zid bo‘ldi;

– TMKlarning valyuta sohasidagi roli: TMK turli valyutalardagi yirik miqdordagi qisqa muddatli aktivlarga ega bo‘ladi, mazkur aktivlar ular faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatlar markaziy bankining valyuta zaxiralaridan ham ortiq bo‘lishi mumkin. Ushbu mablag‘lar milliy nazoratdan chiqishi va oqibatda foyda ko‘rish maqsadida valyutaviy spekulyatsiyalarda ishtirok etishi mumkin.

Bir tomondan xalqaro savdo uchun kengayib borayotgan ehtiyojlar yirik miqdordagi pul massasini talab etdi, boshqa tomondan esa, ushbu pul massasi oltin valyuta zaxirasi bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak edi. Ushbu ziddiyatning mohiyati Triffen dillemasi (Triffin Dilemma) yoki paradoksi sifatida ifodalangan. 1960- yillar boshlarida Robert Triffin Bretton-Vuds tizimining muhim ziddiyatini bayon etgandi. Uning mohiyati quyidagicha edi: asosiy valyutaning emissiyasi emitent mamlakatning oltin zaxirasiga muvofiq bo‘lishi kerak. Oltin zaxirasi bilan ta’minlanmagan haddan tashqari emissiya asosiy valyutani oltinga almashinuviga zarar yetkazishi hamda unga bo‘lgan ishonchni

pasayishiga olib kelishi mumkin. Lekin, asosiy valyuta xalqaro shartnomalarning o‘sib borayotgan miqdoriga xizmat ko‘rsatish uchun xalqaro pul massasi ko‘payishini ta’minlashga yetarli miqdorlarda chiqarilishi lozim. Shuning uchun, uning emissiyasi emitent mamlakatning cheklangan oltin zaxirasi o‘lchamiga qaramasdan sodir bo‘lishi kerak.

Shunday ekan, tobora jadallashib borgan qarama-qarshilik mavjud valyuta tizimi asosini isloh etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. 1944- yilda o‘rnatilgan tuzilmaviy tamoyillar 60-yillar oxiriga kelib jahon iqtisodiyotida kuchlar nisbati o‘zgarishiga, jahon savdosi hamda ishlab chiqarish sharoitlariga javob bermay qo‘ydi.

Inqirozning fundamental sabablari nimalarda namoyon bo‘ldi?. Mazkur tizim AQShning oltin zaxirasi xorijiy dollarlarni oltinga almashinuvini ta’minlagan holdagina faoliyat ko‘rsatishi mumkin edi. AQShning oltin zaxirasi mamlakatdan yirik miqdorda chiqib keta boshladi, hukumat tomonidan oltin chiqib ketishini to‘xtatishga qaratilgan turli choralarni qo‘llanilishiga qaramasdan, mazkur jarayon tashqi omillar ta’sirida yanada tezlashardi. Dollarlarni oltinga almashtirish imkoniyati butunlay cheklangan edi, uni faqat rasmiy darajada va faqat bitta joyda AQSh G‘aznachiligida amalga oshirish mumkin edi. Xususan, 1949- yildan 1970- yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida AQSh oltin zaxirasi hajmi ikki barobardan ortiq darajada kamayib ketdi. Mazkur jarayon AQSh va Fransiya hukumati o‘rtasida dollarni oltinga almashtirish xususidagi muzokaralardan keyin yanada avj oldi. Qo‘llanilgan barcha himoya tadbirlariga qaramasdan AQSh hukumati dollarning oltin bilan ta’minlanishi bo‘yicha qabul qilingan xalqaro majburiyatini bir tomonlama bekor qildi.

70- yillarning boshlarida oltin zaxiralarini Yevropa foydasiga qayta taqsimlash sodir bo‘ldi, xalqaro aylanmada esa ko‘p miqdorda naqd va naqdsiz ko‘rinishdagi AQSh dollari muomalasi saqlanib qoldi.

Bretton-vuds valyuta tizimi inqirozining yuzaga kelish shakllari:

– xalqaro likvidlilik muammolarining kuchayishi;

– “valyutaviy spekulyatsiya operatsiyalarining kuchayishi”, beqaror valyutalarni ularning devalvatsiyasi kutilganda yoppasiga sotish hamda revalvatsiyaga nomzod bo‘lgan valyutalarni sotib olish;

– “oltin bilan bog‘liq spekulyatsion operatsiyalarining kuchayishi”, beqaror valyutalardan oltinga qochish hamda uning narxini o‘z-o‘zidan oshishi;

– rasmiy oltin valyuta zaxiralarini keskin tebranishi;

– fond birjalaridagi va valyuta kurslaridagi keskin o‘zgarishlar, kutilganda qimmatli qog‘ozlar kursining pasayishi;

– milliy va davlatlararo darajada valyutani tartibga solishning faollashuvi;

– valyutalarning yoppasiga revalvatsiya va devalvatsiya qilinishi;

– markaziy banklarning faol valyuta intervensiyasi, jumladan, bir nechta mamlakatlar o‘rtasida kelishilgan holda amalga oshirilishi.

Inqiroz rivojlanishining muhim sanalari:

1. 1968- yil 17- mart. Oltinning ikkilamchi bozori o‘rnatildi. Xususiy bozorlarda oltinning narxi talab va taklifga muvofiq tarzda erkin belgilandi. Mamlakatlar markaziy banklari uchun rasmiy bitimlar bo‘yicha dollarning oltinga rasmiy kurs bo‘yicha 1 troya unsiyasi 35 dollardan almashinuvi saqlandi.

2. 1971- yil 15- avgust. AQSh prezidenti R.Nikson markaziy banklar uchun rasmiy kurs bo‘yicha dollarni oltinga konvertatsiyasi vaqtinchalik taqiqlanganligini e’lon qildi.

3. 1971- yil 17- dekabr. Dollarning oltinga nisbatan devalvatsiyasi 7,89% tashkil etdi. Oltinning rasmiy bahosi 1 troya unsiyaga 35 dollardan 38 dollarga, dollarning oltinga mazkur kurs bo‘yicha qayta almashinuvisiz oshdi.

4. 1973- yil 13- fevral. 1 troya unsiyaga 42,2 dollargacha dollar devalvatsiyalandi.

5. 1976- yil 8- yanvar. Yamaykaning Kingston shahrida XVF a’zolarining yig‘ilishida yangi jahon valyuta tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi yangi bitimi qabul qilindi.

Bretton-vuds tizimi amal qilgan davrda jahon iqtisodiyoti juda tez sur’atlarda rivojlandi. Ushbu davr “iqtisodiy mo‘jiza” yillari bo‘ldi:

inflyatsiya past darajada saqlandi, ishsizlik darajasi qisqardi, aholi turmush darajasi yaxshilandi. Lekin, bir vaqtning o‘zida mazkur tizimning asosi barbod bo‘ldi. AQSh sanoatida mehnat unumdorligi Yevropa va Yaponiyaga qaraganda past bo‘ldi. Bu esa, AQShga Yevropa va Yaponiya tovarlari eksportini o‘sishiga olib keldi. Natijada, Yevropada “yevrodollar”ning yirik miqdori to‘plandi. G‘arbiy Yevropa banklari esa, ularni Amerika g‘aznachilik qog‘ozlariga sarflashdi. Bu holat, AQShning tashqi qarzi o‘sishiga olib keldi. “Yevrodollar”ning bir qismi 60- yillarning oxirida taqdim etildi, AQShning oltin zaxirasi esa kamayib ketdi va natijada dollarni oltinga nisbatan erkin almashinuvi bekor bo‘ldi.

Yamayka valyuta tizimi – zamonaviy jahon valyuta tizimi bo‘lib, alohida mamlakatlarning valyuta tizimlariga emas, balki huquqiy mustahkamlangan davlatlararo tamoyillarga asoslangandir. Yamayka valyuta tizimining o‘ziga xos xususiyati erkin suzib yuruvchi valyuta kurslarini joriy etilishi bo‘ldi.

Bretton-vuds tizimining inqirozi valyuta islohotlarining ko‘pgina loyihalarini keltirib chiqardi: jumladan, jamoaviy zaxira birliklarini tashkil etish, tovar va oltin bilan ta’minlangan jahon valyutalarini chiqarish va oltin standartiga qaytish loyihalari.

Monetarizm tarafdorlari davlat aralashuviga qarshi bozor tomonidan tartibga solishni yoqlashdi, to‘lov balansini avtomatik tarzda o‘z-o‘zidan tartibga solinish g‘oyasiga asoslangan holda suzuvchi valyuta kurslari rejimi joriy etishni taklif qilishdi (M. Fridman, F. Maxlup va bosh.). Neokeynschilar J.M.Keynsning xalqaro valyuta tashkil etish to‘g‘risidagi oldingi g‘oyasiga qaytishdi (R. Triffin, U. Martin, A. Dey. F. Peru, J. Denize). AQSh oltinni to‘liq demonetizatsiya qilish va dollarning mavqeini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro likvid vositani tashkil etish yo‘lini tutdi. G‘arbiy Yevropa, ayniqsa Fransiya dollarning yetakchiligini cheklash va XVF kreditlarini kengaytirish sari harakat qildi.

Valyuta inqirozidan chiqishga bag‘ishlab jahon miqyosida bir qator konferensiyalar o‘tkazildi. 1972–1974- yillarda XVF jahon valyuta tizimini isloh qilish loyihasini tayyorladi.

Mazkur loyiha 1976- yilda XVFga a’zo mamlakatlarning kelishuviga ko‘ra Kingstonda o‘tkazilgan konferensiyada rasmiy jihatdan kuchga kirdi. Yamayka valyuta tizimi asosiga oltin standartidan to‘liq voz kechish tamoyili qo‘yildi.

Mazkur tizimga muvofiq valyuta munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim:

– oltin andozasi tizimi rasman bekor qilindi;

– oltin demonetizatsiyasi belgilandi, uning jahon puli funksiyasi bekor qilindi;

– valyutani oltinga bog‘lovchi oltin paritetlari taqiqlandi;

– markaziy banklarga bozor bahosi bo‘yicha oltinni oddiy tovar sifatida sotish va sotib olishga ruxsat etildi;

– SDR (Special Drawing Rights) standarti joriy etildi, undan jahon puli sifatida, shuningdek, valyuta almashinuv kurslarini o‘rnatish hamda rasmiy aktivlarni baholashda foydalanish ko‘zda tutildi;

– alohida markaziy banklarga ichki pul siyosatini mustaqil o‘tkazish imkoniyati kengaytirildi. Mamlakatlarning markaziy banklari valyutaning qat’iy belgilangan paritetini ushlab turish uchun valyuta bozorlari faoliyatiga aralashishga majbur emaslar. Biroq, ular valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun valyuta intervensiyalarini amalga oshiradilar;

– zaxira valyutalari sifatida AQSh dollari, Germaniya markasi, funt sterling, shveytsariya franki, yaponiya iyenasi, fransuz franki rasman tan olindi (yevro muomalaga kiritilishiga qadar);

– erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimi o‘rnatildi, shuningdek, ularni jahon valyuta bozorida talab va taklif asosida shakllantirish belgilandi;

– davlatlarga valyuta kursi rejimini mustaqil belgilashga ruxsat etildi.

Yamayka bitimining barcha ishtirokchi mamlakatlari asosida valyutalarning oltin tarkibi yotgan qat’iy belgilangan valyuta kurslaridan valyuta bozorlaridagi talab va taklif ta’sirida muayyan chegaralarda erkin o‘zgaruvchan suzuvchi valyuta kurslariga o‘tishdi.

SDR o‘zida xalqaro shartli hisob pul birliklarini ifodalaydi. SDRning emissiyasi XVF tomonidan amalga oshiriladi. SDR XVF to‘lov birliklari sifatida va maxsus hisob raqamlarda yozish yo‘li bilan xalqaro naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo‘llaniladi. SDR funksiyasiga, to‘lov balanslarini tartibga solish, rasmiy valyuta zaxiralarini to‘ldirish, milliy valyutalar qiymatini taqqoslash kabilar kiradi. SDR hech qanday valyuta yoki qarz majburiyati hisoblanmaydi. Ushbu to‘lov vositasi 1969- yilda a’zo-mamlakatlarning mavjud zaxira aktivlariga qo‘shimcha sifatida XVF tomonidan tashkil etilgandi. Tashkil etishdan asosiy maqsad, Bretton-vuds valyuta tizimi doirasida Triffin paradoksini bartaraf qilish edi.

SDR kursi har kuni e’lon qilinadi va beshta yetakchi valyutadan tashkil topgan savatning dollar qiymati asosida aniqlanadi. Ushbu valyutalar, AQSh dollari, yevro, yuan, iyena va funt sterlingdan iborat. Yevro muomalaga kirguniga qadar kurs beshta valyutadan tashkil topgan savatga bog‘langan edi, ular, AQSh dollari, nemis markasi, fransuz franki, iyena va funt sterlingdir. Valyutalarning savatdagi og‘irligi har besh yilda ko‘rib chiqiladi.

Genuya valyuta tizimi doirasida egiluvchan almashinuv kurslariga o‘tishdan quyidagi asosiy maqsadlar ko‘zda tutildi:

– turli mamlakatlarda inflyatsiya sur’atlarini jilovlash;

– to‘lov balanslarini muvozanatga keltirish;

– markaziy banklar mustaqil ichki pul siyosatini amalga oshirishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish.

Zamonaviy valyuta tizimining faoliyat ko‘rsatish mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin. XVFga a’zo mamlakatlar fondning asosiy kapitalidagi ulushiga ko‘ra SDRning ma’lum ulushiga ega bo‘lishadi. SDR faqat hisob birligi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, muayyan sharoitlarda uni milliy valyutaga aylantirish mumkin. Valyutalarning solishtirma og‘irligi valyutalarning xalqaro savdo va to‘lovlardagi solishtirma og‘irligiga muvofiq aniqlanadi. XVF tasnifiga ko‘ra mamlakat valyuta kurslarining quyidagi rejimlarini tanlashi mumkin: qat’iy belgilangan, suzib yuruvchi yoki aralash.

Qat’iy belgilangan valyuta kurs rejimi bir qator turlarga bo‘linadi:

– Milliy valyuta kursi bitta ixtiyoriy tanlangan valyutaga nisbatan qat’iy belgilanadi. Milliy valyuta kursi tayanch kursga mutanosib ravishda avtomatik o‘zgaradi. Odatda, mamlakatlar milliy valyutasi kursini AQSh dollari va yevroga nisbatan qat’iy belgilaydi.

– Milliy valyuta kursi SDRga nisbatan belgilanadi.

– “Savatli” valyuta kursi. Milliy valyuta kursi sun’iy ravishda tuzilgan valyuta savatiga bog‘lanadi. Odatda, valyuta savatiga mazkur mamlakatning asosiy savdo sheriklari bo‘lgan mamlakatlarning valyutalari kiritiladi.

AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shveytsariya va qator mamlakatlarning valyutalari “erkin suzish” rejimiga asoslangan. Lekin, mazkur mamlakatlarning markaziy banklari valyuta kurslarini ularning keskin tebranishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishadi. Aynan shuning uchun valyuta kurslarining “boshqariladigan” suzish rejimi qayd etiladi.

Yamayka valyuta tizimi mohiyatiga ko‘ra Bretton-vuds tizimiga qaraganda birmuncha egiluvchan, valyuta kurslari hamda to‘lov balanslari beqarorligiga tezda moslashuvchan bo‘lishi kerak edi. Biroq, suzuvchi valyuta kurslarini joriy etilishiga, dollar asosiy to‘lov vositasi mavqeidan rasman mahrum bo‘lishiga qaramasdan amalda u mazkur rolda qoldi, bu holatni, boshqa mamlakatlarga qiyoslash bo‘yicha AQShning birmuncha qudratli iqtisodiy, ilmiy-texnik salohiyati ta’minladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda qat’iy belgilangan valyuta kurslari o‘rniga suzuvchi valyuta kurslarini joriy etish valyuta intervensiyasini o‘tkazishdagi yirik xarajatlarga qaramasdan ularning barqarorligini ta’minlamadi. Ushbu rejim valyuta spekulyatsiyalari, tasodifiy kapital ko‘chishiga barham berish, turli mamlakatlarda inflyatsiya sur’atlari va to‘lov balansini tezda boshqarishni ta’minlashga imkon topa olmadilar. Bir qator mamlakatlar milliy valyutalarini boshqa valyutalarga bog‘lash holatini davom ettirdilar.

7.3. Yevropa valyuta tizimining asosiy elementlari va rivojlanishi bosqichlari

Yevropa valyuta tizimi – bu mintaqaviy valyuta tizimi bo‘lib, Yevropa iqtisodiy integratsiyasi doirasida milliy valyutalar harakati bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmuasini o‘zida ifodalaydi. Yevropa valyuta tizimi zamonaviy jahon valyuta tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U uchta asosiy elementni o‘z ichiga oladi:

– EKYu (European currency unit) standarti. EKYu – shartli jamoaviy valyuta bo‘lib, Yevropa ittifoqiga kiruvchi, Yevropaning yetakchi mamlakatlarining 12 ta valyutasiga asoslanadi. Har bir valyutaning savatdagi og‘irligi a’zo davlatning Yevropa ittifoqi YaMMda va ittifoq ichidagi eksportdagi ulushiga bog‘liq holda aniqlanadi.

– Birgalikda suzuvchi valyuta kursi, mazkur kursni ±2,25% chegarada tebranishi belgilangan edi, 1993- yilda valyuta muammolarining kuchayishi bilan bog‘liq holda tebranish doirasi ±15%gacha kengaytirildi (“yevropa valyuta iloni”).

Intervensiya va valyuta kurslari mexanizmi. Yevropa valyuta tizimida intervensiya, valyutalar bilan bog‘liq hisob-kitoblar va to‘lov balanslarining vaqtinchalik taqchilligini qoplash uchun mamlakatlar markaziy banklariga kreditlar berish orqali davlatlararo mintaqaviy valyutani tartibga solish amalga oshiriladi. Yevropa valyuta tizimini tartibga solish va EKYuning emissiyasi 1994- yilgacha Yevropa valyuta hamkorlik fondi tomonidan, 1994- yildan esa, Yevropa valyuta instituti tomonidan amalga oshirildi.

1989- yilda J.Delor (Yevropa ittifoqi komissiyasi raisi) tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etish dasturi G‘arbiy Yevropa integratsiyasi rivojidagi keskin burilish bosqichi bo‘ldi.

“Delor rejasi” doirasida quyidagi maqsadlar ko‘zda tutilgan edi:

– umumiy bozorni tashkil etish, bozor mexanizmini takomillashtirish maqsadida raqobatni rag‘batlantirish;

– qoloq hududlarni tarkibiy jihatdan birxillashtirish;

– inflyatsiyani jilovlash, narxlar darajasi va iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish, davlat byudjeti kamomadini cheklash hamda ushbu kamomadni qoplash usullarini takomillashtirish maqsadida byudjet-soliq siyosatlarini muvofiqlashtirish;

– pul-kredit va valyuta siyosatlarini muvofiqlashtirish uchun muayyan organni tashkil etish;

– yagona valyuta siyosati, qat’iy belgilangan valyuta kurslari va jamoaviy valyuta - EKYuni joriy etish.

1991- yildan Yevropa valyuta tizimida “Delor rejasi” asosida valyuta-iqtisodiy ittifoqni bosqichma-bosqich shakllantirishni nazarda tutuvchi Maastrix shartnomasi ishlab chiqildi va mazkur shartnoma doirasida 1999- yil 1- yanvardan yagona yevropa valyutasini joriy etishga mo‘ljallangan islohotlar amalga oshirildi.

Yevropa valyuta tizimiga kirish uchun dastlabki qadamlarni tashlashga Germaniya, Fransiya va Belgiya tayyor bo‘lib ularning imkoniyatlari yuqori baholandi. Birmuncha past salohiyat bilan Avstriya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Finlandiya, Irlandiya o‘rin egalladi, Shveytsariya va Daniya esa ularga ergashdi. Valyuta ittifoqiga Buyuk Britaniyaning qo‘shilishi dolzarb masala bo‘ldi.

Valyuta ittifoqini shakllantirish va yagona valyutani joriy etish bo‘yicha reja ishlab chiqildi. Birinchi bosqich 1998- yildan Markaziy bankni (Frankfurt-na-Mayne) tashkil etishdan boshlandi. Yevropa Markaziy bankiga quyidagi funksiyalar biriktirildi:

– valyuta operatsiyalarini samarali tashkil etish;

– yevrohududga a’zo bo‘lgan davlatlarning maxsus almashinuv resurslarini saqlash;

– to‘lov hisob-kitob tizimi ustidan nazorat olib borish;

– yevrohududda pul emissiyasini tashkil qilish.

Yevrokengash “yevrohudud”ga kiruvchi mamlakatlarni aniqladi. Tanlash mezonlari sifatida quyidagilar o‘rnatildi:

– Inflyatsiya sur’ati Yevropa Ittifoqining uchta narxlar darajasi eng barqaror mamlakatlarning o‘rtacha inflyatsiya darajasidan 1,5 foizlik punktga oshmasligi kerak.

– Davlat byudjeti taqchilligi YaIMning 3%dan oshmasligi kerak.

– Davlat qarzi YaIMning 60%dan oshmasligi lozim;

– Milliy valyutaning almashinuv kursi ikki yil mobaynida Yevropa valyuta tizimida amaldagi (±15%) tebranish chegarasidan chiqib ketmagan bo‘lishi lozim.

Shu tarzda, “yevrohudud”ga 11 ta mamlakat kirdi - Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gollandiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya, Lyuksemburg, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya. Gretsiya (mezonlarga javob bermaganligi tufayli), Daniya (konstitutsion jihatdan nomuvofiqligi tufayli), Shvetsiya va Buyuk Britaniya “yevrohudud”ga kirmadi.

Ikkinchi bosqich 1999- yil 1- yanvardan boshlandi. “Yevro-hudud”ga kirgan mamlakatlar milliy valyutalarining almashinuv kurslari yevroga nisbatan qat’iy belgilandi, yevro naqdsiz shaklda EKYuni birga bir nisbatda almashtirish asosida kiritildi.

Uchinchi bosqich 2002- yil 1- yanvardan boshlandi. Yagona namunada turli nominatsiyalarda yevro banknot va tangalarining muomalasi amalga oshirildi, ular a’zo-mamlakatlarning milliy valyutalari bilan parallel muomalada bo‘ldi hamda asta-sekinlik bilan milliy pul birliklarini almashtirish sodir bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqichda, 2002- yil 1- iyuldan. Ishtirokchi mamlakatlarning milliy valyutalari butunlay o‘zlarining pul funksiyasini yo‘qotdi.

7.1-jadval

“Yevro” valyutasi muomalada ishlatiladigan mamlakatlar

Mamlakat	Amalda bo‘lgan valyutasi	O‘tish muddati	Almashuv kursi
Yevrohudud			
Avstriya	avstriya shillingi	1- yanvar 1999	13,7603 ATS
Belgiya	belgiya franki	1- yanvar 1999	40,3399 BEF
Germaniya	nemis markasi	1- yanvar 1999	1,95583 DEM
Irlandiya	irlandiya funti	1- yanvar 1999	0,787564 IEP

Ispaniya	ispaniya pesetasi	1- yanvar 1999	166,386 ESP
Italiya	italiya lirasi vatikan lirasi sanmariya lirasi	1- yanvar 1999	1936,27 ITL
Lyuksemburg	belgiya franki lyuksemburg franki	1- yanvar 1999	40,3399 LUF
Gollandiya	gollandiya guldengi	1- yanvar 1999	2,20371 NLG
Portugaliya	portugaliya eskudosi	1- yanvar 1999	200,482 PTE
Finlyandiya	finlandiya markasi	1- yanvar 1999	5,94573 FIM
Frantsiya	fransuz franki monak franki	1- yanvar 1999	6,55957 FRF
Gretsiya	gretsiya drami	1- yanvar 2001	340,750 GRD
Sloveniya	sloveniya tolari	1- yanvar 2007	239,640 SLT
Kipr	kipr funti	1- yanvar 2008	0,585274 CYP
Malta	malta lirasi	1- yanvar 2008	0,429300 MTL
Slovakiya	slovakiya kronasi	1- yanvar 2009	30,1260 SKK
Estoniya	estoniya kronasi	1- yanvar 2011	15,6466 EEK
Latviya	latviya lati	1- yanvarya 2014	0,702804 LVL
Litva	litva liti	1- yanvarya 2015	3,4528 LTL
Yevropa ittifoqining a’zosi bo‘lmagan, lekin EMB bilan kelishgan holda yevroni ishlatuvchi mamlakatlar			
Andorra	fransuz franki ispaniya pesetasi	1- yanvar 1999 (norasmiy), 2012- yil 1-	6,55957 FRF 166,386 ESP

		aprel (kelishuv asosida)	
Vatikan	italiya lirasi vatikan lirasi sanmariya lirasi	1- yanvar 1999-	1936,27 VAL
Monako	frantsuz franki monak franki	1- yanvar 1999	6,55957 MCF
San-Marino	italiya lirasi vatikan lirasi sanmariya lirasi	1-yanvar 1999	1936,27 SML
Sen-Per va Mikelon	fransuz franki	1- yanvar 1999	6,55957 FRF
Yevroni norasmiy tarzda ishlatuvchi mamlakatlar va hududlar			
Akrotiri va Dekeliya	kipr funti	1- yanvar 2008	0,585274 CYP
Kosovo	nemis markasi	1- yanvar 2002	1,95583 DEM
Sen-Bartelmi	frantsuz franki	1- yanvar 1999	6,55957 FRF
Sen-Marten	frantsuz franki	1- yanvar 1999	6,55957 FRF
Chernogoriya	nemis markasi	1- yanvar 2002	1,95583 DEM

Yagona valyutadan foydalanish bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Bir tomondan yevro risklarni almashuv kurslari bilan bog‘liq pasaytiradi, bu esa davlatlararo investitsiya munosabatlarini yengillashtiradi. Risk valyuta hududida amalga oshiriladigan investitsiya chegarasida valyuta kurslarining o‘zgarishiga, hattoki, eksportga ham ta’sir ko‘rsatib, yuqori riskli holatlar kompaniyalar va xususiy sektor valyuta risklaridan himoyalanish uchun ishlab chiqilgan moliyaviy instrumentlardan foydalanish yo‘llarini qidirishga olib keladi. Yagona valyutani muomalaga kiritilishi bir valyutani boshqa bir valyutaga bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi bank komissiya to‘lovlarini olib tashladi. Bunday

operatsiyalardan tejamkorlik minglab operatsiyalarni hisobga olganda sezilarsiz edi.

Ikkinchi tomondan nisbatan barqaror moliya bozori tashkil etildi. Oldingi holatga nisbatan yevrohududda yagona valyutani kiritilishi likvidlikni oshiradi hamda raqobatni kuchaytirib, tovarlarni Yevropa Ittifoqi doirasida taqsimlanishi yengillashtirdi. Shuningdek, hududda moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirdi.

Tayanch so‘z va iboralar

Valyuta tizimi, valyuta savati, EKYu, oltin pariteti, Triffen dillemasi, oltin demonetizatsiyasi, oltin deviz andozasi, valyuta intervensiyasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Valyuta tizimining qanday turlari mavjud?
2. Jahon valyuta tizimi qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Milliy va jahon valyuta tizimining elementlarini izohlang?
4. Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
5. Jahon valyuta tizimi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni izohlang?
6. Oltin andozasi tizimi qanday shakllarda yuzaga keldi?
7. Parij valyuta tizimi qanday tamoyillarga asoslangan edi?
8. Genuya valyuta tizimining mohiyatini izohlang?
9. Bretton-vuds valyuta tizimiga xos bo‘lgan xususiyatlar nimalardan iborat?
10. Yamayka valyuta tizimining asosiy jihatlarini izohlang?
11. Yevropa valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini ayting?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Jahon valyuta tizimiga oid asosiy tushunchalardan “klaster” tuzing.

2. Mamlakatlarning XVFdagi kvota miqdorining SDRdagi ulushini tahlil eting.

3. Milliy valyuta tizimi doirasidagi operatsiyalarning mohiyatini o‘rganing.

4. Milliy valyuta so‘mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan kursining o‘zgarishini tahlil eting.

5. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Valyuta tizimi deganda –

a) mamlakatlarda valyuta-kredit munosabatlarini joriy etish va uni qo‘llab-quvvatlash tushuniladi;

b) valyuta munosabatlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy shakli tushuniladi;

d) valyutalarni erkin ayirboshlash jarayoni tushuniladi;

e) valyuta kurslarini belgilash jarayoni tushuniladi.

2. Valyuta tizimining turlari to‘g‘ri keltirilgan javobni ko‘rsating.

a) milliy, hududiy va jahon valyuta tizimi;

b) milliy, jahon va banklararo;

d) jahon, birja va hududiy valyuta tizimi;

e) milliy, hududiy va banklararo valyuta tizimi.

3. Jahon valyuta tizimining funksiyalari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan.

a) tartibga solish, likvidlilik, boshqarish;

b) tartibga solish, likvidlilik, rag‘batlantirish;

d) tartibga solish, likvidlilik, boshqarish va ta’minot;

e) tartibga solish, taqsimlash, likvidlilik va boshqarish.

4. Jahon valyuta tizimi –

a) mamlakatlar iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir;

b) mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta munosabatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan, instrumentlar, shartnomalar, tartib-qoidalar va tashkilotlarning majmuasidir;

d) valyuta kurslarini aniqlash aniqlash jarayonida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar majmuasidir;

e) valyuta siyosatining maqsadlarini o‘zida mujassamlashtirgan tizimdir.

5. Valyuta bozorlarida dollar kursining pasayishi natijasida qanday holat yuzaga keladi.

a) AQShga import qilinadigan tovarlar Amerika fuqarolari uchun arzonlashadi;

b) xorijiy bozorlarda dollar yuqori xarid qobiliyatiga ega bo‘ladi;

d) xorijiy fuqarolar uchun AQSh eksporti arzonlashadi;

e) xorijiy fuqarolar uchun AQSh eksporti qimmatlashadi.

6. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallangan jahon valyuta tizimini ko‘rsating.

a) (1867y. Parij);

b) (1922y. Genuya);

d) (1944y. Bretton-Vudds);

e) (1976-78y. Yamayka).

7. Oltinni demonetizatsiya qilinishi deganda nima tushunasiz?

a) milliy valyutalarning oltin mazmunini belgilash;

b) oltindan xalqaro kredit munosabatlarida garov sifatida foydalanish;

d) oltinning qat’iy belgilangan jahon bahosini o‘rnatish;

e) oltindan xalqaro to‘lov vositasi sifatida foydalanishga chek qo‘yish.

8. Yaponiya hukumati iyenaning kursini AQSh dollariga nisbatan pasaytirilishini e’lon qildi, mazkur holat qanday nomlanadi.

a) inflyatsiya;

b) deflyatsiya;

d) devalvatsiya;

e) revalvatsiya.

9. SDR bu –

a) Yevropa Ittifoqi doirasidagi pul birligi;

b) XVF to‘lov birliklari sifatida va maxsus hisob raqamlarda yozish yo‘li bilan xalqaro naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo‘llaniladi;

d) XVF tomonidan kreditlashning asosiy shakli;

e) XVF to‘lov birliklari sifatida va maxsus hisob raqamlarda yozish yo‘li bilan xalqaro naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo‘llaniladi.

10. SDR valyuta savati tarkibida qaysi valyutalar mavjud.

a) AQSh dollari, yevro, iyena va funt sterling;

b) AQSh dollari, yevro, iyena va dinor;

d) AQSh dollari, yevro, iyena va marka;

e) AQSh dollari, yevro, iyena, frank va marka.

8-BOB. XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISH

8.1. Valyuta risklari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va turlari

8.2. Valyuta riskining yuzaga kelish sabablari

8.3. Valyuta riskini boshqarish usullari va ularning mohiyati

8.1. Valyuta risklari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va turlari

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning uzoq yillar mobaynidagi tajribasi asosida tovarlar va xizmatlar, ekvivalent qiymatlar bilan o‘zaro almashinishning o‘zaro manfaatli shakllari shakllandi.

Xalqaro savdo-kredit va to‘lov munosabatlari hamma vaqt valyuta hisob-kitoblari bilan qamrab olingan. Bu degani, tashqi iqtisodiy faoliyatning subyekti hisob-kitoblarni uning uchun xorijiy hisoblangan valyutada amalga oshiradi.

Xalqaro shartnomani amalga oshirish davrida, bir qator iqtisodiy omillarning ta’siri ostida shartnomadagi valyuta kursi boshqa valyutalar kursiga nisbatan o‘zgarishi kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida shartnomada ishtirok etuvchi taraflarning ma’lum bir yo‘qotishlariga olib kelishi mumkin.

70- yillarning boshidan barcha davlatlarning erkin suzadigan kurslar rejimiga o‘tishi, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida sezilarli salbiy oqibatlarga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, jahon bozorida valyuta kurslarining erkin suzish sharoitida iqtisodiy muvozanatsizlik kuchaydi.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o‘zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklarining yuzaga kelishining asosiy sababi – valyuta kurslarini o‘zgarishi hisoblanadi[25].

[25] A.Vahobov, N.Jumayev, U.Burxonov. Xalqaro moliya munosabatlari. T.: Sharq. 2003. B.70

Valyuta riski tijorat riskining bir ko‘rinishi bo‘lib, xalqaro moliya munosabatlari ishtirokchilari faoliyatida yuzaga keladi.

Valyuta risklari xorijiy valyutalarni turli xil kurs asosida sotish va sotib olish jarayonlarida muayyan zarar sifatida ifodalanadi. Valyuta risklari bank operatsiyalari bozorining baynalmilallashuvi, transmilliy korporatsiyalar va moliyaviy tashkilotlarning tashkil etilishi hamda ular faoliyatining diversifikatsiyalashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, valyuta kurslarining keskin tebranishi natijasida pul yo‘qotishlari holatini yuzaga keltiradi. Bunda valyuta kurslarining bir-biriga nisbatan o‘zgarishi bir qator omillar ta’siri orqali sodir bo‘ladi: jumladan, valyutalarning ichki qiymati o‘zgarishi bilan bog‘liq pul oqimlarining mamlakatlar o‘rtasida doimiy ko‘chib yurishi, spekulyatsion operatsiyalarning rivojlanishi va boshqalar.

Istalgan valyutani tavsiflovchi asosiy omil bo‘lib, rezident va norezidentlarning valyutaga bo‘lgan ishonch darajasi hisoblanadi. Valyutaga bo‘lgan ishonch murakkab ko‘p omilli mezon bo‘lib o‘z ichiga mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, iqtisodiyotning erkinlashuvi va almashinuv kursi rejimi, mamlakat savdo balansi holati, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar holati va istiqbolda mamlakat rivojlanishining barqarorligiga investorlarning ishonchi kabi bir qator ko‘rsatkichlarni qamrab oladi.

Valyuta riskini uch turga ajratish mumkin:

– operatsion valyuta riski;
– translyatsion valyuta riski;
– iqtisodiy valyuta riski.

Operatsion valyuta riski. Operatsion risk asosan savdo operatsiyalari, shuningdek, dividend to‘lovlari va moliyaviy investitsiyalash bo‘yicha pulli shartnomalar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Operatsion risk pul mablag‘lari harakatida yuzaga kelgan holda foyda darajasiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu riskni pul mablag‘larining kutilayotgan oqimiga almashinuv kursi o‘zgarishining bevosita ta’siri natijasida yuqori foydaga erishmaslik yoki zararning yuzaga kelishi holati sifatida ta’riflash mumkin.

Sotilgan mahsulotga xorijiy valyuta olishi lozim bo‘lgan eksport qiluvchi milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyuta kursining pasayishi natijasida zarar ko‘radi. Xorijiy valyutada to‘lovni amalga oshirishi lozim bo‘lgan import qiluvchi esa, milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyuta kursining oshishidan zarar ko‘radi.

Valyutalar almashinuvini taqozo qiluvchi bitimlar bilan bog‘liq risk narxlar siyosati yordamida boshqarilishi mumkin. Shuningdek, riskka pulni to‘lash va olish muddatlari ham birmuncha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar valyuta tushumi va valyuta xarajatlari o‘zaro bir biriga muvofiq bo‘lsa operatsion riskni kamaytirish mumkin.

Translyatsion valyuta riski. Mazkur risk hisob-kitob yoki balans riski sifatida ham ma’lumdir. Uning manbai bo‘lib, turli mamlakatlar valyutalarida ifodalangan aktiv va passivlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik holati hisoblanadi. Bu riskning paydo bo‘lishiga kompaniya balansini hisob-kitob qilish jarayonida aktiv va passiv tomonlari o‘zaro munosabatlarining to‘g‘ri kelmasligi sabab bo‘ladi. Kompaniya shoxobchalari turli mamlakatlarda joylashgani va shu mamlakatlarda milliy valyuta kursi o‘zgarib turishi ushbu risklarni yuzaga keltiruvchi asosiy shartlardir.

Masalan, Britaniya kompaniyasi AQShda o‘zining sho‘ba kompaniyasiga ega bo‘lib, uning AQSh dollaridagi aktivlari mavjud. Agar Britaniya kompaniyasining AQSh dollaridagi yetarlicha passivlari bo‘lmasa, ushbu aktivlarning AQSh dollaridagi to‘langan qiymati tufayli kompaniya riskka duchor bo‘ladi. Funt sterlingga nisbatan AQSh dollarining qadrsizlanishi natijasida sho‘ba kompaniyalar aktivlari qiymatining balans bahosini pasayishiga olib keladi, chunki asosiy kompaniyaning balans hisoboti funt sterlingda ifodalanadi. Shu singari, mazkur valyuta kursining oshishi holatida xorijiy valyutadagi passivlar bilan kompaniya riskka duchor bo‘ladi. Agar kompaniya o‘z faoliyatida translyatsion riskni muhim ahamiyat kasb etmaydi deb hisoblasa, u holda bunday riskni xedjirlashga zaruriyat sezilmaydi. Chunki, aktiv va passivlar o‘zgarishini balans hisobotida ularning asosiy valyutadagi bahosida ifodalash muhim ahamiyat kasb etmaydigan buxgalteriya hisob-kitoblari hisoblanadi. AQShdagi sho‘ba kompaniyasining funt

sterlingda ifodalangan aktivlari qiymati AQSh dollarining funt sterlingga nisbatan almashinuv kursi harakati bilan birgalikda tebranadi, bu holat esa, sho‘ba kompaniyaning foyda darajasiga yoki asosiy faoliyatiga umuman ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin. Shuning uchun, translyatsion riskni xedjirlashga qilinadigan xarajatlar hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, chunki amalda kurs tebranishda yo‘qotish riski yuzaga kelmaydi. Agar kursning o‘zgarishi barqaror kursga nisbatan og‘ish sifatida baholansa ushbu fikr o‘zini oqlaydi. Biroq, kurs o‘zgarishining muayyan tendensiyasi mavjud bo‘lsa, u holda kursdan u yoki bu tomonga og‘ish holati mavjud bo‘lganda bu tendensiya sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiy valyuta riski. Iqtisodiy risk kompaniya iqtisodiy holatiga almashinuv kursi o‘zgarishining salbiy ta’siri ehtimoli sifatida ta’riflanadi. Bir xil turdagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar hamda boshqa turdagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatlashuvning o‘zgarishi, shuningdek, muayyan tovar belgisi iste’molchilari ehtiyojining o‘zgarishi natijasida risk yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiy valyuta riski mamlakatlar o‘rtasida tovar almashishda, tayyor mahsulotlarni sotib olish yoki sotishda valyutalar kursining o‘zgarishida yuzaga keladi. Kompaniya ishlab chiqarayotgan mahsulotini boshqa mamlakatga sotish yoki kompaniyaning o‘sha mamlakatdagi shoxobchasida sotib olinadigan tovarlarni hisob-kitob qilish jarayonida valyuta kursi iqtisodiy valyuta risklarini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy riskka o‘z xarajatlarini faqat milliy valyutada amalga oshiruvchi kompaniyalar hamda valyuta kursi o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan eng kam darajada duchor bo‘lishadi. Mazkur kompaniyalar o‘z mahsulotlarini faqat mamlakat ichida sotishadi va tovarlar tomonidan raqobatga uchrashmaydi, shuningdek, kursning ijobiy o‘zgarishi natijasida narxlar birmuncha foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, bunday kompaniyalar ham to‘liq riskdan himoyalangan emas, chunki almashinuv kursining keskin tarzda o‘zgarishi ular faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Almashinuv kurslarining tebranishi kompaniyalarning xarajatlari tarkibiga yoki ularning milliy valyutada ifodalangan sotish narxlariga ta’sir etib boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatlashuv darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Faqat ichki bozorda faoliyat ko‘rsatib milliy valyutada xarajatlar qiluvchi kompaniya milliy valyuta kursining oshishidan zarar ko‘radi, chunki raqobatchi import tovarlar birmuncha arzon bo‘ladi.

8.2. Valyuta riskining yuzaga kelish sabablari

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi xalqaro mehnat taqsimotiga, xalqaro savdo balansiga va hajmiga salbiy ta’sir etadi, shuningdek, tovarlar va xizmatlar ekvivalent almashuvini qiyinlashtiradi.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi import va eksport qiluvchilarni o‘zlarining xorijdan sotib olish va xorijga sotish operatsiyalarini qisqartirishga majbur qiladi. Chunki, import va eksport qiluvchilar valyutalarning qisqa muddatli davriy oraliqdagi o‘zgarishini oldindan bila olmaydilar. Shuning uchun, import qiluvchi ma’lum bir tovarni o‘zini valyuta xavf-xatariga qo‘yib, chet davlatdan sotib olganidan ko‘ra, o‘z mamlakatida ishlab chiqarilayotgan o‘rinbosar tovarni sotib olgani afzalroqdir.

To‘lovi kelgusida amalga oshishi ko‘zda tutilgan, shartnoma tuzilish paytida ma’lum bir summada qayd etilgan har qanday kredit operatsiyasi, shartnoma valyutasi ishtirokchi uchun xorijiy bo‘lgan tarafning valyuta xavf-xatariga chalinadi Kreditor, o‘zining xorijlik kontragentlariga kreditni bergan holda, qiymatni ekvivalent miqdorda ololmaslik xavf-xatariga uchraydi. Qarz oluvchi ham, agarda to‘lov paytida qarz valyutasining kursi shartnoma tuzilgan sanaga nisbatan ko‘tarilsa, zarar ko‘rishi mumkin.

Eksport va import qiluvchilar, valyuta riski bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirganda to‘qnashadilar. Eksport qiluvchi, agarda u tovarlarni to‘lovi kechiktirilgan holda sotgan bo‘lsa va baho valyutasi sifatida import qiluvchi valyutasi yoki uchinchi davlat valyutasi olingan bo‘lsa, valyuta riskiga duchor bo‘ladi. Agarda, baho

valyutasining kursi eksport qiluvchi milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, unda eksport qiluvchi zarar ko‘rishi mumkin.

Shunday qilib, eksport qiluvchi uchun valyuta riski bo‘lib, shartnomaning tuzilishidan to ijro etilgunga qadar davr ichida, baho valyutasi kursining milliy valyutaga nisbatan pasayishi hisoblanadi. Demak, valyuta riski barcha tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘liq shartnomalarga ta’sir etadi.

Import qiluvchi uchun valyuta risklari quyidagi holatlarda vujudga keladi: agarda, tovarlar bahosi chet el valyutasida qat’iy belgilanib sotib olinayotgan bo‘lsa. Bunda, agar chet el valyutasining kursi import qiluvchi valyutasiga nisbatan ko‘tarilsa, unda import qiluvchi tomonidan sotib olingan tovarlar uchun haq to‘lashda, milliy valyutada ko‘proq xarajat qilinishiga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, hech bir xalqaro savdo shartnomasi bir kun ichida tuzilib, u bo‘yicha to‘lov ham bir kun ichida amalga oshmaydi. Shunga ko‘ra, albatta, valyuta riski shartnoma muddatiga to‘g‘ri proporsional ravishda ortib boradi.

Shartnomaning imzolanish paytigacha (shartnomani tayyorlash davrida) xorijiy valyuta kursining o‘zgarish riski valyuta riskiga kirmaydi, u ko‘proq baho xavf-xatariga yoki valyuta kursi o‘zgarishi bilan bog‘liq raqobatdoshlikning yomonlashish xavf-xatariga kiradi. Bunday risk, shartnomaning tuzilish davrida, muhokamalar paytida hal etilishi mumkin. Xususan, muzokaralar davrida valyuta kursini to‘satdan o‘zgarib ketishi natijasida shartnoma ishtirokchisi (bunday o‘zgarish zararlarini qisman yoki to‘la qoplash maqsadida) shartnomadagi dastlabki bahoning bir muncha o‘zgartirilishini talab qilishi mumkin yoki bu shartnomadan boshqa kontragent foydasiga butunlay voz kechishi mumkin.

Shartnoma tuzilib, imzolanganidan so‘ng, yuqorida bayon etilgan o‘zgartirishlarni shartnoma shartlariga kiritib bo‘lmaydi (agarda, shartnoma shartlarida bu xususida valyuta shartlari (ogovorka) mavjud bo‘lmasa).

Fikrimizcha, baho o‘zgarishi bilan bog‘liq riskka, valyuta shartnomasining inflyatsion qadrsizlanish riski ya’ni, tovar baholarining

o‘sishi shaklida ifodalangan valyuta qiymatlarining tovar baholariga nisbatan o‘zgarish riski kiradi. Ba’zi tadqiqotchilar tomonidan ular valyuta riskining amal qilish shakllariga kiritilgan.

Valyuta riski bunday turining zaminida, valyuta riski paydo bo‘lishi bilan bevosita aloqada bo‘lmagan, ammo unga bilvosita valyuta kursi orqali ta’sir etadigan, valyutalarni tovarlarga nisbatan qadrsizlanishining umumiy tendensiyasi yotadi.

Uzoq muddatli davrda tashqi iqtisodiy munosabatlar samaradorligi uchun, kurslar o‘zgarishi oqibatidagi yo‘qotishlarga qaraganda, inflyatsion omil nisbatan chuqurroq salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Kurslar harakatidagi va valyutalarni sotib olish qobiliyatidagi farqlar, tashqi iqtisodiy shartnomalar ishtirokchisi bo‘lgan har birining yo‘qotishlar va daromadlar balansining nafaqat valyuta kursini ijobiy yoki salbiy harakatiga, balki valyutalar kurslari o‘zgarishining o‘zaro nisbati va birgalikdagi harakatiga bog‘liq. Masalan, valyutalarning tashqi qadrsizlanishi (valyuta kursini pasayishi) uni ichki bozordagi qadrsizlanishidan o‘sib ketsa, unda xorijlik import qiluvchilar qo‘shimcha foyda olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Chunki, ular o‘z valyutasida xarajatlarni oshirmasdan turib, qadrsizlanib borayotgan mamlakatning valyutasiga ko‘proq tovarlar sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar, barcha xo‘jalik shartnomalarining samaradorligiga ta’sir etgan holda, valyuta riskini tashqi iqtisodiy shartnomalar samaradorligini ko‘rsatuvchi ahamiyatli, ammo yagona omil emasligini ko‘rsatadi.

Valyuta riskining alohida holati sifatida, valyuta mablag‘larini joylashtirish paytida vujudga keladigan valyuta avuarlarining (Avuarlar – mijozning bankdagi turli aktivlari, mol-mulki, pul mablag‘lari. Ko‘pincha bankning xorijda joylashgan boshqa bankning hisobvaraqlarida bo‘lgan chet el valyutasidagi pul resurslariga, qimmatli qog‘ozlari va oltinga nisbatan qo‘llaniladi. Biron-bir mamlakatga tegishli bo‘lgan bunday mablag‘larning jami uning chet el avuarlarini tashkil etadi) qadrsizlanish riskini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday risk turi bo‘yicha valyuta zararlarini banklar singari, mijozlar va

davlat ham ko‘rishi mumkin. Bu holda vujudga keladigan valyuta riski mazmun jihatidan har qanday savdo-kredit operatsiyasidagi valyuta riski singari bo‘ladi, chunki valyuta mablag‘larini joylashtirish bilan bog‘liq operatsiyalar kredit xarakteriga ega. Bu holda valyuta riskini hisobga olish xususiyatlari va uni sug‘urtalash uslublari (valyuta mablag‘larini joylashtirishda) riskni valyuta riskining alohida turiga ajratishga asos bo‘ladi.

Eksport qiluvchi (kreditor), agarda shartnomaning tuzilishi va u bo‘yicha to‘lovning amalga oshirilishi davri ichida baho valyutasining kursi uning milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, zarar ko‘radi. Import qiluvchi (debitor) uchun esa zararlar, kursning yuqoridagiga nisbatan qarama-qarshi harakati natijasida paydo bo‘ladi.

Valyuta riski xalqaro savdo va kredit munosabatlarini qiyinlashtirib yuboradi, oqibatda mazkur munosabatlar ishtirokchilari valyuta xavf-xatarlarini o‘rganish orqali ularni bartaraf etish yo‘llarini qidira boshlaydilar.

Tashqi iqtisodiy shartnoma ishtirokchilari uchun valyuta riskini paydo bo‘lishining quyidagi shartlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi;

– shartnoma valyutasi sifatida xorijiy valyutadan foydalanish;

– shartnomaning tuzilishi va u bo‘yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi.

Valyuta pozitsiyasi – dilerning talab va majburiyatlarini nisbati. U ikki qismdan iborat, ya’ni “uzun” va “qisqa” pozitsiyadan.

“Uzun” pozitsiyada dilerning talablari aks etadi. Talablar esa, diler tomonidan valyuta sotib olinganda hosil bo‘ladi.

“Qisqa” pozitsiyada dilerning majburiyatlari aks etadi. Majburiyatlar esa, diler tomonidan valyuta sotilganda hosil bo‘ladi.

Agarda, dilerning talablari majburiyatlaridan ko‘p bo‘lsa, unda valyuta pozitsiyasi “uzun” pozitsiya bo‘yicha ochiq hisoblanadi. Agarda, dilerning majburiyatlari talablaridan ko‘p bo‘lsa, unda valyuta pozitsiyasi “qisqa” pozitsiya bo‘yicha ochiq hisoblanadi. Dilerni talab va majburiyatlari o‘zaro teng bo‘lsa, unda valyuta pozitsiyasi yopiq hisoblanadi.

Valyuta kurslari muvozanatsizligi qanchalik yuqori bo‘lsa, valyuta riski shunchalik yuqori bo‘ladi. Hozirgacha, biz valyuta riski tushunchasini faqat bir operatsiyaga nisbatan ko‘rib chiqqan edik. Agarda, tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilari bo‘lmish taraflar xorijiy valyutada ifodalangan majburiyatlar va talablarga ega bo‘lib, ko‘p turdagi operatsiyalarni amalga oshirsa, unda ular barcha operatsiyalar bo‘yicha emas, balki faqat ochiq valyuta pozitsiyasi bo‘yicha valyuta xatariga uchraydilar.

Ochiq valyuta pozitsiyasi valyuta riski bilan bog‘liq bo‘lib, banklarning (firmalarni) qo‘shimcha daromad olish yoki ortiqcha xarajat (hatto bankrotlikka) qilishga olib keladi. Shu sababli, ko‘pgina mamlakatlarda davlat moliya organlari ochiq valyuta pozitsiyalari miqdorlarini chegaralaydilar.

Odatda, valyuta riski muammosini hal etish bilan bog‘liq firmaning faoliyati ochiq valyuta pozitsiyasi miqdori, ya’ni valyuta xatariga tortiladigan xorijiy valyutadagi summalarni aniqlashdan boshlanadi. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, xorijiy valyuta sotib olinganda valyuta pozitsiyasining uzun pozitsiyasi ko‘payadi yoki shu valyutadagi qisqa valyuta pozitsiyasi kamayadi (talablar oshadi yoki majburiyatlarni bir qismi bajariladi), xorijiy valyuta sotilganda esa buning teskarisi bo‘ladi, ya’ni qisqa valyuta pozitsiyasi ko‘payadi yoki uzun pozitsiya kamayadi.

Ochiq valyuta pozitsiyasi yuqori darajadagi valyuta riski manbaidir. Valyuta yo‘qotishlarni manbai bo‘lgan, ochiq valyuta pozitsiyalarini aniqlanishi bilan valyuta xavf-xatarlarini bartaraf etish zarurati tug‘iladi.

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib chiqilgan valyuta riskining paydo bo‘lish sharoitlariga (shartnomalarda xorijiy valyutaning ishlatilishi, shartnoma tuzilishi va ijro etilishi orasida vaqt uzilishining mavjudligi) yana bir sharoitni, ya’ni ochiq valyuta pozitsiyasini mavjudligini qo‘shsa bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan valyuta xavf-xatarlarining paydo bo‘lish sharoitlari, birinchi navbatda, tashqi savdo va kredit shartnomalari bilan bog‘liq aniq operatsiyalarga aloqadordir. Ular esa, o‘z navbatida tashqi

iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining valyutada zarar ko‘rishiga olib kelishi mumkin.

8.3. Xalqaro moliya munosabatlarida valyuta risklarini boshqarish usullari va ularning mohiyati

Valyuta risklarini samarali boshqarish xalqaro moliya munosabatlari ishtirokchilari faoliyatida dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Jahondagi yirik korporatsiyalar faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarning barcha turlarini o‘rganib borish hamda ularni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishda alohida risklar bo‘yicha menejerlik faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Risklar bo‘yicha menejer moliyaviy risklarni oldini olish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni faoliyatning turli sohalari bo‘yicha mas’ul bo‘lgan boshqa mutaxassislarga taqdim etib boradi. Shuningdek, risklar bo‘yicha menejer risklar darajasini aniqlash, ularni maksimal darajada kamaytirish va sug‘urtalash masalalari bilan shug‘ullanadi.

Zamonaviy jahon xo‘jaligidagi munosabatlar bozor ishtirokchilaridan konyunktura o‘zgarishiga tezda moslashishni, moliyaviy natijalarni uzoq muddatga bashoratlashni, samarali strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirishni hamda barqaror faoliyat yuritishni talab etadi.

Valyuta kurslari o‘zgarishlarini aniqroq prognozlashtirish, valyuta risklarini sug‘urtalash (xedjerlash)dan foydalanish zarurdir.

Valyuta riski sug‘urtasi deganda, uni bartaraf etish bilan bog‘liq choralar tushuniladi. Bunday choralarga, tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijalarini, xorijiy valyutalar kursining o‘zgarishiga bog‘liqligini yo‘qotishga qaratilgan choralar kiradi.

Bir qator firmalar, valyuta muvozanatsizligini zamonaviy xalqaro savdo muammolaridan biri deb hisoblab, hech qachon valyuta risklarini sug‘urta qilmaydilar. Oqibatda, bunday firmalar katta zararlar ko‘rgani holda ularning soni hozirgi kunda ancha kamaygan.

Boshqa korxonalar esa, valyuta kurslari prognozlarini hisobga olmay, barcha ochiq pozitsiyalarini qoplaydilar. Bunday siyosat albatta yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi.

Valyuta chayqovi bo‘yicha real zararlarning paydo bo‘lishi, tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisining har bir valyuta operatsiyasiga balansning boshqa tarafida operatsiyalarning qarama-qarshi turishi bilan izohlanadi. Masalan, eksport shartnomalaridan va berilgan kreditlardan keladigan tushumlar hajmining rejalashtirilgan natijalarga nisbatan kamayishi, olingan summa joriy xarajatlarni yoki jalb qilingan bank mablag‘lari qiymatini qoplamasligiga olib kelishi mumkin.

Valyuta riskining sug‘urtasi va sug‘urtasiz shakli bilan bo‘ladigan iqtisodiy operatsiyalarning samaradorligi operatsiyalarni amalga oshirish davrida valyuta kurslarining o‘zgarishiga bog‘liq.

Shartnoma ishtirokchisi boshqaruv qarorining samaradorligi – valyuta riskini sug‘urta qilish yoki sug‘urta qilmaslik – shartnoma tuzilishi va uning ijro etilishi davri orasida valyuta kurslarini istiqbol harakatlarining u tomondan oldindan to‘g‘ri baholanishiga bog‘liq. Demak, valyuta kurslari o‘zgarishini bashorat qilish, valyuta riskini sug‘urta qilish va valyuta chayqovi orasidagi tanlovning zaruriy shartidir.

Valyuta kurslarini bashorat qilish deganda, maxsus ilmiy tadqiqot uslublari yordamida kurslarning kelgusidagi o‘zgarishi haqida axborot olish tushuniladi.

Amaliyotga valyutalarning erkin suzadigan kurslari tizimining kirib kelishi bilan ularning tebranishi masshtabli, oldindan bilib bo‘lmaydigan va muntazam ravishda tebranadigan bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida valyuta riskini yanada kuchayishiga olib keldi.

Prognozlar kelgusida ochiq valyuta pozitsiyasining o‘zgarish diapazonini aniqlash maqsadida ishlatiladi. Minimum va maksimum ko‘rsatkichlari sug‘urtalash xarajatlari bilan taqqoslanadigan ehtimolli valyuta yo‘qotishlarni hisoblash uchun ishlatiladi (to‘la sug‘urta qilish, sug‘urta qilishdan bosh tortish, qisman sug‘urta qilish). Agar potensial valyuta yo‘qotishlarning miqdori qoplanish bo‘yicha xarajatlar summasidan katta bo‘lsa, to‘la ochiq valyuta pozitsiyasini yoki uning bir qismini sug‘urtalash tavsiya etiladi. Qoplanish qiymati daromadlarga yoki zararlarga kursning ta’sir ehtimolidan yuqori bo‘lsa, firma sug‘urta qilmasligi kerak.

Ba’zi mamlakatlarda, banklarning uzun va qisqa valyuta pozitsiyalarining miqdori valyuta qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Valyuta riskini boshqarishda asosiy e’tibor valyuta kursining o‘zgarishi tufayli yuzaga keladigan yo‘qotishlarni oldini olishga qaratiladi va tijorat banklari, multimilliy korxonalar va boshqa xo‘jalik subyektlari muddatli valyuta bozori bitimlarini tuzish orqali valyuta riskidan pul mablag‘larini himoya qiladilar. Bunda valyuta kursining tranzaksion, iqtisodiy va translyatsion kabi turlari ajratib ko‘rsatiladi.



8.1-rasm. **Valyuta risklari va ularni boshqarish usullarining tasniflanishi**

Operatsion riskning vujudga kelishi tijorat banklarining kelajakdagi pul o‘tkazmalariga valyuta kursining ta’sir qilishi bilan tushuntiriladi. Odatda tovar va xizmatlarning sotilishi va ular bo‘yicha pul to‘lovlarining sotuvchi hisobraqamiga kelib tushishi bir vaqtda sodir bo‘lmaydi. Xorijiy valyutada savdo qiluvchi yirik kompaniyalarning

kelajakdagi pul oqimlari valyuta ayirboshlashdagi o‘zgarishlar tufayli riskka duchor bo‘ladi. Shu sababli kompaniyalar kelajakda qancha miqdorda milliy valyuta olishini aniq bilmaydi. Chunki suzib yuruvchi valyuta kursi rejimida valyuta kursi talab va taklif asosida shakllanadi va doimiy o‘zgarib turadi.

Operatsion risk mavjud bo‘lar ekan, firmalar 3 ta yirik vazifani bajarishi lozim bo‘ladi: birinchidan, risk darajasini aniqlash; ikkinchidan, riskni xedjirlash kerakligi yoki zarur emasliligi borasida qaror qabul qilish; uchinchidan, agar riskni barchasini yoki bir qismini xedjirlashga qaror qilinsa, mavjud xedjirlash vositalaridan eng maqbulini tanlash.

Har bir firma xedjirlash borasida biror qaror chiqarishdan oldin barcha valyutalar (u shartnomalarda qo‘llaydigan) bo‘yicha o‘zining sof operatsion riskni aniqlashtirishi lozim. Bu yerda “sof” termini ma’lum bir vaqt va valyutada kelajakda kutiladigan barcha kirim va chiqimlarning konsolidatsiyalashtirilishini bildiradi.

Kutiladigan pul kirimlari va chiqimlari borasida hisobot tuzishda har bir shoxobchadagi boshqaruvchilar muhim rol o‘ynaydi. Markazlashgan boshqaruvchilar guruhi turli muddatlarda va har bir valyutadagi kelajakda kutiladigan sof pozitsiyasini aniqlash uchun shoxobchalarning hisobotlarini umumlashtiradi. Har bir shoxobchaning sof valyuta pozitsiyasini sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish orqali multimilliy kompaniyalar o‘zining umumiy sof riskini aniqlashi mumkin.

Lekin, amaliyotdan ma’lumki, kompaniyalarning shoxobchalaridan bir nechtasi o‘zaro qarama-qarshi valyuta pozitsiyasini egallashi mumkin. Bunda valyuta kursi qanchalik o‘zgarmasin, bu ikki shoxobchaning umumiy sof kutiladigan riski 0 ga teng bo‘ladi, ya’ni riskka barham beriladi. Shuning uchun ko‘p shoxobchali kompaniyalar barcha shoxobchalarnikini emas, balki bir-birini riskini qoplamaydigan shoxobchalarining valyuta pozitsiyalarini tahlil qilishi lozim. Bu vaqt va iqtisodiy jihatdan korxona uchun foydali hisoblanadi.

Ayrim hollarda kompaniya o‘zining baho siyosatini operatsion riskni xedjirlash uchun qayta ko‘rib chiqishi mumkin, ya’ni firma

eksport va import shartnomalarida bir xil valyutadan foydalanishga harakat qiladi. Lekin xorijiy valyutadagi pul kirimlari va chiqimlarining muddat jihatdan muvofiq kelishida cheklovlar mavjud. Shuning uchun odatda firmalar ma’lum darajada tranzaksion riskka duch keladi va ular turli xedjirlash vositalari orasidan optimalini tanlashi talab etiladi.

Operatsion riskni xedjirlashning quyidagi vositalari amaliyotda keng tarqalgan:

– fyuchers orqali xedjirlash;
– forvard orqali xedjirlash;
– pul bozori xedjiri;
– valyuta opsioni orqali xedjirlash.

Xedjirlash vositalarini tanlashdan avval firmalar har bir vosita taqozo qiladigan pul oqimlarini batafsil taqqoslashlari lozim. Turli xedjirlash vositalarining nisbiy afzalliklari vaqt o‘tgan sayin o‘zgarishi tufayli eng maqbul xedjirlash vositasi ham o‘zgarib turadi.

Fyuchers orqali xedjirlash

Valyuta fyuchersini xarid qilish. Valyuta fyuchersini sotib olgan firma belgilangan muddatda, o‘rnatilgan bahoda, kelishilgan valyutada va belgilangan miqdorda valyutani sotib olish huquqiga ega bo‘ladi. Kelajakdagi xorijiy valyutadagi kreditorlik qarzlari bo‘yicha to‘lovlarni xedjirlash uchun firma yaqin kelajakda zarur bo‘lgan valyuta uchun valyuta fyuchersini sotib olishi mumkin.

Forvard orqali xedjirlashda bitimlar ma’lum makonda-birjada emas, balki virtual tuzilishi ham mumkin. Bundan tashqari forvard bitimi summasi bitim ishtirokchilari talabidan kelib chiqib tuziladi, ya’ni fyuchersga o‘xshab standartlashtirilmaydi. Shunday bo‘lsada, bu bitim ishtirokchilariga nisbatan qat’iy majburiyat yuklaydi.

Pul bozori xedjiri deyilganda o‘zgarish ehtimoli mavjud valyutada ma’lum pozitsiyani egallash tushuniladi. Bunda agar korxona ma’lum muddatdan so‘ng xorijiy valyutani to‘lashi lozim bo‘lsa va xorijiy valyuta qadri oshishi kuzatilayotgan bo‘lsa, milliy valyutada bankdan kredit oladi va bu mablag‘ni xorijiy valyutaga ayirboshlab, bankka belgilangan muddatga qadar depozitga joylashtiradi.

Valyuta opsioni orqali xedjirlash nisbatan qimmat va o‘z navbatida qulay hisoblanadi, u xaridoriga majburiyat emas, balki huquq beradi. Agar opsion bitimi kursi amaldagi kursga nisbatan noqulay bo‘lsa, unda xaridor opsiondan foydalanmaydi va uni muddati o‘tgandan so‘ng bekor bo‘lishiga yo‘l qo‘yib beradi va qulay bahoda bozordan zarur mablag‘ni xarid qiladi.

Valyuta riskining boshqarish qiyin bo‘lgan turi – bu iqtisodiy riskdir. Chunki firma bozordagi mavjud konyunktura o‘zgarishidan ham talofat ko‘rishi mumkin. Kurs o‘zgarishi hisobiga korxona sotib oladigan xomashyo tovarlari va u sotadigan tayyor mahsulot kuchli ta’sir ostida qoladi. Bunda korxonaning rejalashtirilgan tushumga erisha olmay qolishi valyuta kursi iqtisodiy riskining yorqin salbiy oqibati hisoblanadi. Chunki korxona talab va taklif qonunini tartibga solish imkoniyatiga ega emas. Shu tufayli bunday riskni boshqarish usuli sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Korxona operatsion faoliyatini restrukturizatsiya qilish. Bunda korxona xarid qiladigan xomashyolar va sotadigan tovarlari bitimining bir-biriga nisbatan teskari korrelyatsiyada bo‘lgan valyutalarda tuzilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

2. Sotib olinadigan va sotiladigan tovarlar bitimi muddatini birxillashtirish. Bunda korxona tovarlarini sotgan kuni xomashyo sotib oladi va valyuta kursi riskidan ma’lum ma’noda himoyalanadi. Lekin korxona tovarlarini qachon va qancha miqdorda sotilishini rejalashtira olmaydi.

Translyatsion risk turli xorijiy valyutadagi mablag‘larni jamlanma moliyaviy hisobotni tuzish paytida bitta valyutaga ayirboshlashda yuzaga keladi. Bunda kurs o‘zgarishi haqiqatda salbiy ta’sirni yuzaga keltirmaydi. Chunki xorijiy valyutadagi mablag‘ haqiqatda ayirboshlanmaydi, u hisob raqamda turadi faqat bitta valyutaga hisobot uchun translyatsiya qilinadi.

Lekin bunda muammo bu translyatsiyaning bozor ishtirokchilariga bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan daromad sifatida signal berishida namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, joriy kurs bo‘yicha tarnslyatsiyalangan mablag‘ning kamayishi hisobiga aksiya bahosi

pasayishi mumkin. Bu esa, investorlar uchun noxush xabar hisoblanadi. Shu tufayli, korxonalar translyatsion riskni ham muddatli valyuta bozori bitimlari yordamida xedjirlashga kirishadi. Buning salbiy tomoni shundaki, korxona mablag‘lari haqiqiy valyuta riski yo‘qotishiga duch kelmagan holda, tuzilgan bitim summasi haqiqiy rikka uchraydi. Buning natijasida haqiqiy yo‘qotishlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Valyuta riski, operatsion valyuta riski, translyatsion valyuta riski, iqtisodiy valyuta riski, valyuta pozitsiyasi, xedjerlash, liding va legging, kross xedjirlash, valyuta diversifikatsiyasi, fyuchers, forvard, opsion.

Takrorlash uchun savollar

1. Valyuta riski deganda nimani tushunasiz?
2. Valyuta riskining qanday turlari mavjud?
3. Valyuta riski yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni izohlang?
4. Valyuta pozitsiyasi nima?
5. Valyuta risklarini qanday boshqarish mumkin?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Valyuta risklarini boshqarishga doir asosiy terminlardan “klaster” tuzing.

2. O‘zbekistonda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ochiq valyuta pozitsiyasiga qo‘yilgan limit holatini o‘rganing.

3. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solishga doir asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganing.

4. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Valyuta riski –

a) tijorat banklari va aholi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

b) tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o‘zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi;

d) milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan rasman oshirilishi tushuniladi;

e) xorijiy valyutani sotish va sotib olish kursi o‘rtasidagi farqlanishning keskin oshib ketishi tushuniladi.

2. Valyuta riskining turlari to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping.

a) standart, substandart, operatsion;

b) operatsion, standart, o‘tkazma;

d) operatsion, translyatsion, iqtisodiy;

e) operatsion, translyatsion, iqtisodiy va aralash.

3. Valyuta riskining yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

a) valyuta cheklovlarining mavjudligi, shartnoma valyutasi sifatida xorijiy valyutadan foydalanish; shartnomaning tuzilishi va u bo‘yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi;

b) yopiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi; shartnoma valyutasi sifatida xorijiy valyutadan foydalanish; shartnomaning tuzilishi va u bo‘yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi;

d) valyuta konvertatsiyasining erkinligi; shartnoma valyutasi sifatida milliy valyutadan foydalanish; qat’iy belgilangan valyuta kursi rejimidan foydalanish;

e) ochiq valyuta pozitsiyasining mavjudligi; shartnoma valyutasi sifatida xorijiy valyutadan foydalanish; shartnomaning tuzilishi va u bo‘yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi.

4. Translyatsion risk –

a) turli xorijiy valyutadagi mablag‘larni jamlanma moliyaviy hisobotni tuzish paytida bitta valyutaga ayirboshlashda yuzaga keladi;

b) tijorat banklarida valyuta almashinuvi jarayonida yuzaga keladi;

d) savdo operatsiyalari, shuningdek, dividend to‘lovlari va moliyaviy investitsiyalash bo‘yicha pulli shartnomalar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi;

e) xorijiy valyutalarni bir hisobvaraqdan boshqasiga o‘tkazish jarayonida yuzaga keladi.

5. Operatsion riskni xedjirlashning qanday vositalari amaliyotda keng tarqalgan:

a) fyuchers orqali xedjirlash; forvard orqali xedjirlash; pul bozori xedjiri; valyuta opsioni orqali xedjirlash;

b) fyuchers orqali xedjirlash; forvard orqali xedjirlash; majburiy sug‘urtalash;

d) fyuchers orqali xedjirlash; forvard orqali xedjirlash; kredit bozori orqali xedjirlash; valyuta opsioni orqali xedjirlash;

e) fyuchers orqali xedjirlash; forvard orqali xedjirlash; devalvatsiyadan foydalanish; valyuta opsioni orqali xedjirlash.

9-BOB. MOLIYAVIY DERIVATIVLAR BOZORI

9.1. Moliyaviy derivativlar mohiyati va ularga xos xususiyatlar

9.2. Hosila moliyaviy vositalarning asosiy turlari

9.3. Kredit va foiz derivativlari

9.4. Hosilaviy moliya instrumentlarining global bozori rivojlanishi

9.1. Moliyaviy derivativlar mohiyati va ularga xos xususiyatlar

Hosilaviy moliyaviy vosita, derivativ (inglizcha derivative) – bazaviy aktivga nisbatan tomonlar bir qator harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha huquq yoki majburiyatlarni oluvchi shartnoma (kelishuv)dir. Odatda, bunday shartnomalarda mu’lum bir tovar yoki qimmatli qog‘ozlarni olish, taqdim etish, sotib olish, sotish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomadan farqli ravishda derivativlarni oldi-sotdisi ma’lum bir shaklga solingan va standartlashgan bo‘ladi, shuningdek, oldindan tomonlardan birining shartnomani minimum qancha miqdorini sotish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Ya’ni ular ham qimmatli qog‘ozlarning bir turi hisoblanadi. Derivativ bahosi va xususiyatlarining o‘zgarishi uning bazis aktivlari bilan uzviy bog‘liqdir, biroq har doim ham bir xil bo‘lavermaydi. Derivativlar ikki tomon o‘rtasidagi kelishuvni o‘zida aks ettirib, tomonlar o‘zlariga mazkur bitim bo‘yicha turli majburiyatlarni qabul qilishadi yoki ma’lum bir aktivni yohud summani aniq muddatda (muddat ichida) yoki kelishilgan narx darajasi amalda qayd etilganda berish huquqiga ega bo‘ladi. Derivativlarni sotib olishdan asosiy maqsad, odatda, uning bazis aktivlarni egallash hisoblanmaydi, balki ma’lum bir muddat davomida bazis aktivlarni baho va valyuta riskidan xedjirlash yoki bazis aktivlarning narxini o‘zgarishidan spekulyativ foyda olish hisoblanadi. Har bir tomon uchun oxirgi moliyaviy natija ijobiy yoki salbiy yakun topishi mumkin.

Derivativlarning asosiy xususiyatlaridan biri majburiyatlar miqdori undagi bazim aktivlar miqdori bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan

aksiyalarga CFD[26] (contract for difference) bitimlar hajmi o‘sha kompaniya tomonidan chiqarilgan aksiyalar hajmidan bir necha marta katta bo‘lishi mumkin. CFDni sotib oluvchi va sotuvchilar oldindan aksiyalarni haqiqatda yetkazib berish haqida o‘ylashmadi, balki ular ma’lum muddat oralig‘ida va shartlar asosida shakllanadigan aksiyalarning narxlari o‘rtasidagi farqqa qiziqishadi

Moliyaviy derivativlar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- derivativning bazis aktivlari (foiz stavkalari, tovarlar yoki qimmatli qog‘ozlar bahosi, valyuta (ayirboshlash) kursi, baholar va foiz stavkalari indeksi, kredit reytingi yoki kredit indeksi va boshqalar) bahosining o‘zgarishi uning bozordagi qiymatining o‘zgarishiga olib keladi;
- boshqa moliyaviy vositalarga nisbatan, katta bo‘lmagan birlamchi xarajatlar asosida zarur aktivlarga derivativ orqali ega bo‘lish, o‘z-o‘zidan ushbu bozor konyunkturasiga ta’sir qiladi;
- bitimlar bo‘yicha hisob-kitoblar kelajakda amalga oshiriladi;
- derivativlarning asosiy belgilari:
- hosila moliyaviy vositalar bazis aktiviga asoslanadi. Bir hosila moliyaviy vositaning boshqa bir hosilani moliyaviy vositasiga bazis aktiv bo‘lishi mumkin, masalan, fyuchers shartnomalariga opsion.
- hosila moliyaviy vositalari odatda bazis aktivni oldi-sotdi qilish maqsadida foydalanilmaydi, balki ularning narxlari o‘rtasidagi farqdan foyda olish uchun foydalaniladi.
- hosila moliyaviy vositalar moliya bozori (ayniqsa, qimmatli qog‘ozlar, valyuta va ssuda kapitallari bozori) va mahsulotlar bozori bilan bevosita bog‘liq, chunki ushbu bozorlar bir xil tamoyillar asosida shakllanadi, naxlarni shakllanishi bir xil qonun asosida sodir bo‘ladi, ularda asosan bir xil ishtirokchilar savdo qilishadi.

Hosila moliyaviy vositalarning asosiy bazis aktivlari quyidagilar hisoblanadi:

[26] Moliyaviy farq bo‘yicha shartnoma (bitim) – bitimning bazis aktivini bozordagi ochilish va yopilish narxi bo‘yicha shakllangan moliyaviy farqni ayirboshlash imkonini beruvchi ikki tomon o‘rtasidagi kelishuvni ko‘rsatuvchi hosila moliyaviy vositadir. Ushbu bitim orqali 10000 AQSh dollarilik aksiyalarni 1000 AQSh dollari bilan sotib olish mumkin (ya’ni mazkur summani depozitga qo‘ygan holda). Aksiyalar bahosining o‘zgarishi natijasida 10%lik foyda, yoki zarar 1000 AQSh dollarini tashkil etadi. Mazkur vosita orqali amalga oshirilgan operatsiyalar kreditga mahsulotlarni sotib olishga ham o‘xshab ketadi.

- qimmatli qog‘ozlar va valyuta kurslari;
- tovarlar va xomashyo mahsulotlari;
- foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi;
- rasmiy statistik ma’lumotlar;
- atrof-muhit holatining fizik, biologik va (yoki) kimyoviy ko‘rsatkichlari;
- bir yoki bir nechta yuridik shaxslar, davlat va munitsipial ta’lim orqali ijro etib bo‘lmaydigan yoki etilmagan majburiyatlar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi holatlar;
- hosila moliyaviy vosita hisoblanadigan shartnomalar;
- moliya bozorida ijro etiladigan, hukumat tomonidan ko‘rib chiqilgan qonun loyihalari, yoki me’yoriy-huquqiy hujjatlarning amalga kiritilishi yoki kiritilmaslik holatlari;
- bir yoki bir nechta iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadigan indikatorlar, boshqa moliyaviy vosita belgilariga asoslanuvchi shartlar va narxlar.

Derivativlarning rivojlanish bosqichlari:

Qadimgi davr. Kelajakda yetkazib berish sharti bilan tuzilgan ketishuvlar eramizdan avvalgi ber necha asrlardan oldin paydo bo‘lgan. Vavilonlik savdogarlar uzoq savdo safarlari uchun karvonlarga yuklarni joylashayotganda, mazkur yuklarni sotib olish uchun vaqtinchalik moliyaviy ta’minotga zarurat sezganlar. Natijada, risk bilan bog‘liq bitimlar paydo bo‘lgan, ya’ni savdogarlarning tovarlarni belgilangan joylarga muvaffaqiyatli yetkazib berish bilan bog‘liq ularga kreditlar berilgan. Bunda, tovarlarni yo‘qotilishi (opsion bo‘yicha majburiyatlarni bajara olmaslik) bilan bog‘liq zararlarni qoplash zarurati hisobiga foizlar oddiy kreditlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Risklarni birlashtirish, yetarli darajada opsion narxini saqlash imkoniyati bo‘lganligi uchun bu kabi opsion shartnomalaridan ko‘p savdogarlar foydalanishgan.

O‘rta asrlar. Yevropa savdo amaliyoti tarixida dastlabki derivativ shakllaridan foydalanilgan. XII asrdagi iqtisodiy o‘sish va savdoning rivojlanishi “Yarmarka sudlari” orqali ijrosi ta’minlangan savdo huquqlarini shakllanishiga zamin yaratdi. O‘rta asrlar yarmarkalarining yangi hujjati sifatida “Lettre de faire” namoyon bo‘ladi, ya’ni bu hujjat

mohiyatan aniq bir muddat davomida tovarlarni yetkazib berish bo‘yicha forvard kelishuvini anglatgan.

XVII asrning 30- yillari. Lola guli piyozi (ildizi) savdosiga ishqibozlik. XVII asrning 30- yillari oxirida Gollandiya va Angliyada lola guli piyozi (ildizi) savdosiga ishqibozlik barchani o‘ziga jalb etdi. Lola guli piyoziga opsionlar Amsterdamda XVII asr boshlarida savdo qilingan bo‘lsa, 30- yillarga kelib, Angliyaning Qirollik birjasida ham mazkur operatsiyalar amalga oshirila boshlandi. Lola guli piyozi bilan bog‘liq savdoning va foydaning keskin ortishi 1636–1637- yillarda bozorlarda inqirozlarni yuzaga keltirdi.

XVII asrning 50- yillari. Gurunch kuponlari. Yaponiyadagi yer egalari turli ob-havo sharoitlarining o‘zgarishiga qaramasdan natura ko‘rinishida (guruch hosildorligining bir qismi) renta olishga qanoatlanmasdan qo‘shimcha naqd pulni ham dehqonlardan talab qilishgan. Ular shahar omborxonalarida gurunchni saqlab, uni omborxona tilxati (guruch kuponlari) asosida sotganlar. Mazkur kuponlar o‘z egasiga ma’lum miqdordagi guruchni kelishilgan sifat va narx bo‘yicha kelajakda aniq bir muddat ichida olish huquqini bergan. Shunday qilib, yer egalari barqaror daromadga, sotuvchilar (dehqonlar, shuningdek, yer egalari) esa guruchni kafolat asosida yetkazib berish va kuponlarni sotishdan foyda olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Xonma avlodidan bo‘lgan savdogar Munexisa kelajakdagi narxlarni prognoz qilishga intilib, moliya bozorlarini texnik tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan, narxlar harakatini ko‘rsatuvchi yapon shag‘amchalaridan amaliyotda foydalandi va texnik tahlilga asos soldi.

XIX asr 60- yillar. Birinchi zamonaviy fyuchers shartnomalarini yuzaga kelishi. London fond birjasida “put” va “koll” opsionlar bilan savdo amaliyoti XIX asr 30- yillarida amalga oshirila boshladi. Amerika birjalarida esa tovarlar va aksiyalarga opsionlar bilan savdo amaliyoti XIX asr 60- yillarda yo‘lga qo‘yildi. Chikago savdo palatasi (Chicago Board of Trade (1848- yilda ochilgan)) tomonidan birinchi forvard shartnomasi 1851- yil 13- martda ro‘yxatdan o‘tkazilgan. 1865- yilda mazkur palata fyuchers shartnomasi bilan don

savdosini shakllantirdi. Mazkur shartnoma don ekinlarining sifatini, sonini, vaqti va yetkazib berish joyini standartlashtirish imkonini berdi.

XX asr 70- yillar. Moliyaviy fyuchers shartnomalarini yuzaga kelishi. 1972- yilda Chikago fond birjasi (Chicago Mercantile Exchange)da yangi “Xalqaro valyuta bozori” (International Monetary Market) bo‘limi tashkil etildi. Bu birjada valyuta ya’ni moliyaviy fyucherslar savdosi amalga oshiriladigan birinchi maxsus maydon sifatida qayd etildi. O‘sha davrgacha fyuchers bitimlarining bazis aktivlari sifatida tovarlardan foydanilgan. 1973- yilda Chikago savdo palatasi (Chicago Board of Trade) Chikago opsion birjasi (Chicago Board Options Exchange)ni tashkil etdi. Ushbu yildan boshlab, Ipoteka krediti bo‘yicha davlat milliy assotsiatsiyasining depozitar tilxatlarga, AQShning g‘aznachilik majburiyatlariga fyucherslar ham amaliyotda paydo bo‘ldi. 70- yillar oxirida jahondagi birjalarda moliyaviy fyucherslar savdosi amalga oshirila boshlandi.

XX asr 80- yillar. Birjadan tashqari derivativlar bozorining rivojlanishi. Xalqaro hisob-kitoblar banki ma’lumotlariga ko‘ra birjadan tashqari derivativlar (ko‘pincha spekulyativ kapital xususiyatiga ega aktivlar)ning o‘rtacha kunlik aylanmasi oxirgi 10 yilda qariyb 5 barobarga ortdi. Mazkur davrda fond indekslari bo‘yicha hosila moliyaviy vositalar ham paydo bo‘ldi.

9.2. Hosila moliyaviy vositalarning asosiy turlari

Forvard shartnomalari – kelishilgan shartlar asosida, kelajakda, shartnomadagi bazis aktivlarni yetkazib berish bo‘yicha ikki tomon o‘rtasida tuzilgan bitim. Forvard shartnomalar individual xususiyatga ega bo‘lib, birjalarda muomalada bo‘lmaydi, ya’ni birjadan tashqaridagi savdolarda ayirboshlanadi. Forvard shartnomalari, fyuchers bitimlari kabi tomonlarga bazis aktivlarni sotish va sotib olish majburiyatini yuklaydi. Forvard shartnomalari tomonlar o‘rtasida erkin holda tuziladi. Shuningdek, mazkur shartnomalar korxonalarga o‘zlarining uzoq muddatli davriy oraliqda yirik miqdordagi xarajatlarini rejalashtirish

hamda kelajakda ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxini xedjirlash imkonini beradi.

Forvard shartnomalarida qo‘llaniladigan kursni avvaldan hisoblashning bir qator formulalari mavjud bo‘lib, ulardan eng asosiysi va oddiyi quyidacha:

$$F = S\left(1 + r\frac{t}{365}\right)$$

Bunda:

F – forvard kursi; S – spot (joriy) kurs; r – risksiz daromadning foiz stavkasi (odatda, bunda banklarning depozit foiz stavkasi yoki davlat qimmatli qog‘ozlari foiz stavkalari olinadi) (bu ko‘rsatkich koeffitsiyent ko‘rinishida olinadi, masalan 10 foiz 0,1 koeffitsiyent, 14 foiz – 0,14 va h.k.); t – forvard shartnomasining amal qilish muddati, kun hisobida.

Agar forvard shartnomasidagi aktivlar bo‘yicha dividendlar yoki foiz to‘lovlari amalga oshirilsa, unda forvard kursini hisoblash bir oz murakkablashib, quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$F = S\left(1 + r\frac{t}{365}\right) - Div$$

Bunda: Div – dividend.

Fyuchers shartnomalari – kelajakdagi ma’lum bir sanada, oldindan kelishilgan narx bo‘yicha, aniq miqdordagi mahsulotlar (bazis aktivlar)ni tomonlar tomonidan sotish yoki sotib olish majburiyatini belgilovchi standartlashgan birja bitimlaridir.

Fyuchers shartnomasini tovarlarni haqiqatda yetkazib berishni nazarda tutmasligi ham mumkin. Jahon amaliyotida fyuchers shartnomalari bo‘yicha haqiqatda tovarlarni tomonlar o‘rtasida o‘zaro ayirboshlash jami fyuchers bitimlarining atigi 5%ni tashkil etadi. Birjalarning hisob palatalari orqali fyuchers shartnomalarini hech bir shartlarsiz amalga oshirilishini, bajarilishini ta’minlash ularning yuqori likvidli moliyaviy aktivlarga aylantirgan.

Jahon birjalarida 60 tadan ko‘p turli tovarlar fyuchers shartnomalari orqali savdo qilinadi. Ushbu mahsulotlarni shartli ravishda 4 guruhga bo‘lish mumkin, ya’ni birinchi qishloq xo‘jalik va metall

mahsulotlari, ikkinchi qimmatli qog‘ozlar (asosan obligatsiyalar), uchinchi xorijiy valyutalar hamda to‘rtinchi guruhi birja indekslariga bazisida tuziladigan fyucherslar.

9.1-jadval

Hosila moliyaviy vositalarning asosiy turlari

	Forvard shartnomalari		**Fyuchers shartnomalari**
1	kelajakdagi foiz stavkasiga kelishuv (FRA); kredit forvardlari; kredit sprediga forvardlar; aksiya, obligatsiya va h.k.larga forvardlar,	**2**	foizlarga, valyutalarga, indekslarga, fyucherslar
	Opsion shartnomalari		**Svoplar**
3	koll; put; stellaj (stredll); strengl; strep; strip; spred; kep (shift); flor (pol); kollar; varrant; imzolangan huquq; varrant; Amerika; Yevropa; chaqirib olinadigan obligatsiyalarga opsion; opsionlarga opsion (compound options); oraliq (ichki) opsionlar (callable and putable FRNs); defolt (kredit defolt) opsion; kredit sprediga; reytingiga opsion; aktivlarga kredit svopsionlari; indekslarga opsion	**4**	valyutaviy (ayirboshlanadigan valyutalarga) svop; defolt (kredit defolt) svopi; foiz svopi; aktivlarga svoplar; yalpi daromadga svoplar; qayta joylangan aktivlarga svoplar; dinamik kredit svoplar; oraliq (ichki) opsionga svoplar; defolt savatiga yoki birinchi defolt ko‘rinishidagi svoplar; bankrotlik svoplari; kredit sprediga svoplar
	Moliya injiniringi mahsulotlari (moliyaviy innovatsiyalar)		**Kredit derivativlari**
5	svopsion; o‘rta qiymatli yoki osiyo svopsion (average rate swaptions or asian swaptions); aktivlar bilan ta’minlangan	**6**	akkreditiv (letter of credit (LC)); obligatsiyalarni sug‘urtalash shartnomasi (bond insurance); spredlok

	qimmatli qog‘ozlar (asset backed securities); kredit (obligatsiyalari)lar (collateralized loan obligation (CLO)), obligatsiya majburiyatlari (collateralized bond obligation (CBO)) bilan ta’minlangan aktivlar		(spreadlocks); suveren qarzlar (kreditlar), korporativ kreditlar, bank qarzlari (kreditlari) bilan bog‘liq derivativlar; kreditlar bilan bog‘liq notalar (credit-linked notes (CLNs)); qayta joylashtirilgan notalar (repackaged notes); “Nol-bir” tarkibli (zero-one structures) notalar
7	**Hosila moliyaviy vositalarning boshqa turlari**		
	konvertirlanadigan obligatsiyalar; depozitar tilxatlar; REPO		

Opsion shartnomalari – shartnomaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, uni sotib olgan xaridor opsion bazasidagi aktivlarni oldindan belgilangan narx bo‘yicha muayyan muddat davomida opsionni sotuvchisiga sotish (put) yoki sotuvchisidan sotib olish (koll) huquqiga opsionni sotuvchisiga oldingan to‘langan haq (mukofot yoki premiya) evaziga ega bo‘ladi, shuningdek, opsionni sotuvchisi esa, xaridor tomonidan unga to‘langan haq evaziga xaridorning opsionda belgilangan shartlarini bajarishga majbur bo‘ladi.

Jahon bozorida opsionlarning belgilangan muddatida ijro etish bo‘yicha ikki ya’ni amerikacha va yevropacha turi keng tarqalgan. Amerikacha opsionda opsion belgilangan muddat davomida ixtiyoriy kunda ijro etilishi mumkin. Yevropacha opsion oldindan aniq belgilangan kun yoki sanada ijro etiladi.

Odatda, opsion shartnomalari beshta turli guruhga mansub tovarlar bilan tuziladi. Birinchi – valyuta, ikkinchi – qimmatli qog‘ozlar, uchinchi – foiz stavkalar (bank krediti va depoziti bo‘yicha), to‘rtinchi – birja indekslari, beshinchi guruh – hosila moliyaviy vositalar.

Foiz stavkasi asosida tuzilgan opsionlar mazkur turdagi opsion xaridoriga foiz stavkalarini aniq belgilangan darajasidan pasayib yoki ko‘tarilib ketmasligini kafolatlaydi.

Opsionlarni asosiy turli kombinatsion shakllari

Streddl (stellaj bitim) – koll va put opsionlar kombinatsiyasi bo‘lib, ma’lum muddat davomida, bazis aktivlarining oldindan belgilangan bitta narx asosida, ikki barobar ko‘p mukofot pulini to‘lash evaziga, opsion aktivlarini sotish yoki sotib olish huquqiga ega bo‘lishdir. Bunday opsionlar narxlar turg‘un holatda, ya’ni baholardagi o‘zgarishlar juda kam bo‘lsagina moliya bozorida ko‘p uchraydi. Chunki bunday opsionlarni sotuvchi narxi o‘zgarmaydi deb umid qiladi.

Strengl – ham koll va put opsionlar kombinatsiyasi bo‘lib, ma’lum muddat davomida, bazis aktivlarining oldindan belgilangan minimum va maksimum narxlari asosida, ikki barobar ko‘p mukofot pulini to‘lash evaziga, opsion aktivlarini sotish yoki sotib olish huquqiga ega bo‘lishdir. Bunda opsion bazisidagi aktivlar narxi ma’lum bir kichik tebranish yo‘lagi asosida o‘zgaradi deb umid qiladi.

Strep – bu bitta put va ikkita koll opsion birlashmasidan tashkil topgan opsion bo‘lib, ijro bahosi bitta yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Bu kabi opsionlar bazis aktivlar narxi pasayishi kutilayotganda ko‘payib boradi.

Strip – bu bitta koll va ikkita put opsion birlashmasidan tashkil topgan opsion bo‘lib, bunda ham ijro bahosi bitta yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Bu kabi opsionlar bazis aktivlar narxi oshishi kutilayotganda ko‘payib boradi.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha opsionlarning bir turi *varrant* hisoblanadi. Varrant o‘z egasiga kompaniyaning ma’lum miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini oldindan belgilangan narx bo‘yicha egallash huquqini taqdim etadi.

Hosila moliyaviy vositalarga opsionlarining turli ko‘rinishlarini amaliyotda uchratish mumkin. Masalan fyuchers shartnomalariga opsion, svop shartnomalariga opsion (svop-opsion (svopsion)), bazasi opsion shartnomalari bo‘lgan opsion (ikkilamchi opsion va h.k).

Svopsion (swaption) – svoplar bitimlariga tuzilgan opsionlarni bildiradi. Svopsion o‘z egasiga kelajakdagi ma’lum bir sanaga fiksirlangan (strayk) stavka bo‘yicha maxsus shartlar asosida foiz svop bitimiga qo‘shilish huquqini (majburiyatini emas) taqdim etadi. Bozorda

ko‘plab svopsionlar turlari muomalada bo‘ladi. Asosiylari quyidagi shartnomalar hisoblanadi:

- ikki, besh va o‘n yillik svoplarga uch oylik va yillik opsionlar;
- ikki va besh yillik svoplarga ikki va besh yillik opsionlar;
- o‘n yillik svoplarga o‘n yillik opsionlar;
- o‘n besh yillik svoplarga o‘n besh yillik opsionlar.

Svopsionlarning qolgan turlari bozorda kam uchraydi. Odatda svopsionda sotuvchi va sotib oluvchilar quyidagilarni kelishib oladilar:

- svopsion premiyasi (mukofoti, narxi);
- stavkasi (svopsiondagi svop bitimning fiksirlangan stavkasi);
- davomiyligi (odatda asosiy svop bitimi boshlanish sanasi ikki ish kun oldin tugatiladi);
- asosiy svop sanasi;
- summasi;
- qo‘shimcha komission xarajatlar va chegirmalar;
- asosiy svop to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblar chastotasi, davri.

Agar svopsion svop bitimi bo‘yicha o‘rniga fiksirlangan to‘lovlarni olish huquqini taqdim etsa “to‘lovlarni oluvchining svopsioni” (svopsion put), aksincha esa, ya’ni agar suzuvchi foiz stavkalardagi to‘lovlarni olib, fiksirlangan foiz stavkalar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish huquqini taqdim etsa “to‘lovchining svopsioni” (svopsion koll) deb yuritiladi.

Svoplar – shartnomada belgilangan shartlar bo‘yicha kelajakdagi to‘lovlarni yoki turli aktivlarni almashtirish to‘g‘risidagi ikki tomon o‘rtasidagi kelishuv. Odatda, bu kabi operatsiyalar bank va mijoz o‘rtasida o‘zlarining qarz va kredit majburiyatlarini almashtirish bo‘yicha tuziladi.

Svoplar ko‘p sonli ishtirokchilar orqali amalga oshiriladi. Bunda banklar odatda oddiy vositachi yoki moliyaviy institut rolini bajarishadi. Svoplarning shartlarini standartlashuvi ularning ikkilamchi bozorini shakllanishiga olib kelgan, xususan valyutalar bo‘yicha svoplar bozori. Biroq, svoplarning ikkilamchi bozori jami bozorning atigi 5%ni tashkil etadi.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha svoplar investitsiya institutlariga nafaqat o‘zlarining fond aktivlarini optimallashtirish (divertsifikatsiyalash), balki ma’lum bir emitentning aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanada qimmatli qog‘ozlar paketini vaqtinchalik egallab turish maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin.

Svoplarning yuzaga kelishi kompensatsion (qoplangan) yoki parallel qarzlar taraqqiyoti bilan bog‘liq. XX asrning 60-70 yillarida mazkur operatsiyalarni standartlashtirish boshlandi. Bu esa, 1981- yilda svop qoidalari bo‘yicha standartlashgan IBM va Jahon banki o‘rtasida dastlabki valyuta bitimini tuzilishiga olib keldi. Shundan bu kabi operatsiyalar rivojlana boshladi.

Moliya injiniringi mahsulotlari (moliyaviy innovatsiyalar). Moliya injiniringi – bu yangi (innovatsion) moliyaviy vositalar va jarayonlarning loyihasini tuzish, ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, shuningdek, moliya sohasidagi muammolarni yechishning yangicha yo‘llarini izlab topishdir.

O‘rta qiymatli yoki osiyo svopsion (average rate swaptions or asian swaptions). Bunday opsion asosidagi tovar (aktivlar)ning bahosi ma’lum muddat davomida o‘rta qiymatda hisoblab boriladi. Natijada, ushbu mahsulot o‘z mijozini shartnomadagi bazis aktivlar narxlarining keskin kunlik o‘zgarishlaridan himoyalaydi.

Aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar (asset backed securities). Hozirgi kunda aktivlar sekyuritizatsiyasiga asoslangan qimmatli qog‘ozlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularning ayrimlarini quyida keltiramiz:

– CDO (collaterized debt obligation) – qarzli majburiyatlar (obligatsiyalar va kreditlar) bilan ta’minlangan obligatsiyalar;

– CLO (collateralized loan obligation) – kreditlar bilan ta’minlangan obligatsiyalar

– CVO (collateralized bond obligations) – qarz qimmatli qog‘ozlari hisobiga ta’minlangan obligatsiyalar;

– ABS (asset-backed securities) – aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar (avtokreditlar, iste’mol kreditlari, kredit kartochkalar, lizing shartnomalari, kichik va o‘rta biznesga kreditlar,

kelajakda rejalashtirilgan tushumlarni (masalan, xizmatlar to‘lovini olish bo‘yicha tilxatlar) ham qamrab oladi);

– MBS (mortage-backed securities) – uy-joy, ipotekaga, ko‘chmas mulkka asoslangan qimmatli qog‘ozlar;

– CFO (collateralized fund obligations)– investitsiya fondlari (xususiy aksiya va xedj fondlar) aktivlari bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar;

– CDS (credit default swap) – investorni kredit qaytmasligidan kafolatlovchi qimmatli qog‘ozlar.

Kredit derivativlari – kredit risklarini oldi-sotdi qilish orqali moliyaviy oqimlar qayta taqsimotini ta’minlovchi bozor munosabatlari tizimidir. Kredit riskidan himoyalanish maqsadida turli moliyaviy vositalar orqali oldi-sotdi operatsiyalarini yetakchi moliyaviy markazlarda amalga oshirilishi kredit derivativlari bozorini o‘zida namoyon etadi.

Kredit derivativlari ko‘p funksiyali moliyaviy vosita hisoblanadi. Ular quyidagi vazifalarni bajarishadi:

- kredit risklaridan xedjerlash;
- risklarni deversifikatsiyalash;
- qarz olish shartlarini yaxshilash;
- daromadlilik darajasini oshirish;
- obligatsiyalarni qayta guruhlash;
- tranzaksion xarajatlarni kamaytirish.

Kredit derivativlari o‘zining yetarlicha murakkabligi bilan 2008- yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozini chuqurlashishiga hamda jadallashishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Fikrimizcha, kredit derivativlar bozorida inqirozni yuzaga kelishiga asosiy sabab quyidagilardan iborat:

birinchidan, berilgan kreditlar hajmiga nisbatan kredit derivativlar orqali tuzilgan bitimlar hajmi bir necha barobar ortiq bo‘lgan;

ikkinchidan, ushbu bozor shaffofligining mavjud emasligi, natijada mavjud risklar va bunday vositalar hajmini baholash imkonini yo‘qligi;

uchinchidan, kredit derivativlar bilan bog‘liq operatsiyalarga juda ko‘p sonli ishtirokchilar jalb etilganligi. Ko‘p bosqichli o‘zaro bog‘liq

operatsiyalar chizmasi uning ishtirokchilariga bunday moliyaviy mahsulotni to‘liq anglab olish imkonini bermadi va ularni sotib oluvchilar to‘liq reyting agentliklari bahosiga ishonishga majbur bo‘ldilar.

Hosila moliyaviy vositalarning boshqa turlari

Konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar. Konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlar ularni chiqargan emitentning oddiy aksiyalariga yoki boshqa qimmatli qimmatli qog‘ozlarini avvaldan belgilangan ma’lum miqdoriga hech qanday to‘lovlarsiz almashitirish imkonini beruvchi qimmatli qog‘ozlardir. Bu jarayonda konversiya koeffitsiyenti bitta konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozga to‘g‘ri keladigan oddiy aksiyalar miqdorini anglatadi. Konversion kurs emitent qimmatli qog‘ozlarini almashtirish paytida foydalaniladigan oddiy aksiyalar yoki qimmatli qog‘ozlarning oldindan belgilangan, e’lon qilingan kursidir. Konversion qiymat konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlarni emitentning oddiy aksiyalariga yoki boshqa qimmatli qog‘ozlariga almashtirish yoki oldi-sotdi qilish qiymati hisoblanadi. Konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlar joriy kursining konversion kursdan oshishi natijasida konversion qiymatdan ko‘rilgan foyda konversion mukofot (premiya) deyiladi.

Depozitar tilxatlar. Global aksiya transmilliy kompaniyalarning oddiy aksiyasi hisoblanib, bir vaqtning o‘zida bir qancha mamlakatlar fond bozorlarida muomalada bo‘ladi.

Amerika depozitar aksiyasi nominal qiymati AQSh dollarida ifodalangan, xorijiy kompaniya joylashgan mamlakatda deponentlangan, uning ma’lum bir miqdoridagi qimmatli qog‘ozlariga nisbatan mulk huquqi ulushini tasdiqlovchi AQSh qimmatli qog‘ozi hisoblanadi. Amerika depozitar aksiyasi bevosita fond bozorida muomalada bo‘lmaydi, uning o‘rniga muomalaga Amerika depozitar tilxatlari chiqariladi.

Amerika depozitar tilxatlari ma’lum bir miqdordagi Amerika depozitar aksiyalariga egalikni tasdiqlovchi sertifikatdir. Depozitar tilxatlarni xalqaro qimmatli qog‘ozlar sifatida shakllanishi va

muomalada bo‘lish mexanizmi muayyan bosqichlarni taqozo etadi (9.2-jadvalga qarang).

9.2-jadval

Amerika va global depozitar tilxatlarni muomalaga kiritish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqichlarinng mohiyati
Birinchi bosqich	Emitentni o‘z mamlakati fond bozoriga aksiyalar chiqarishi
Ikkinchi bosqich	Amerika fond bozorida xalqaro darajadagi vositachi orqali emitent aksiyalarini deponentlash
Uchinchi bosqich	Deponentlangan aksiyalarni xalqaro darajadagi vositachi orqali AQShdan ro‘yxatdan o‘tkazish
To‘rtinchi bosqich	Xalqaro darajadagi vositachi orqali deponentlangan aksiyalarga nisbatan Amerika depozitar aksiyalarini emissiya qilish. Bunday aksiyalar Amerika fond bozorlarida mustaqil muomalada bo‘lmaydi
Beshinchi bosqich	Ma’lum miqdordagi Amerika depozitar aksiyalari hisobiga Amerika depozitar tilxatlari (ADR)ni chiqarish
Oltinchi bosqich	AQSh fond bozorida ADRlarni muomalaga kiritish
Yettinchi bosqich	Global depozitar tilxatlar (GDR) sifatida AQShdan ro‘yxatdan o‘tkazish. Bunday qimmatli qog‘ozlar ADR-1, ADR-4 va ta’minlanmagan Amerika depozitar tilxatlaridan paydo bo‘ladi. AQShdan tashqari jahonning boshqa mamlakatlari fond bozorlarida muomalada bo‘ladi.

Depozitar tilxatlar maxsus qonunchilik asosida muomalaga chiqariladi va bunday qonunchilik AQShda mavjud. Shuning uchun ham bunday qimmatli qog‘ozlar Amerika depozitar tilxatlari (ADR) deb nomlanadi. Depozitar tilxatlar xorijiy kompaniyalar aksiyalariga (yoki obligatsiyalariga) to‘g‘ridan to‘g‘ri egalik qilish huquqini bermaydi.

Hozirda qarz munosabatini ifodalovchi depozitar tilxatlardan foydalanish jahonda keng tarqalgan, ayniqsa lotin amerikasi mamlakatlarida ular keng qo‘llaniladi. ADRlarni emissiya qilishning emitentlar uchun afzalliklari birinchidan, ular faoliyatiga qo‘shimcha kapitalni jalb etsa, ikkinchidan, kompaniyaning mavqeini ko‘tarishdan iborat.

ADRlarni investorlar uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

– milliy kompaniyalar aksiyalariga qaraganda yuqori daromadli aksiyalarni sotib olish imkoniyatining yaratilishi;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kompaniyalar aksiyalarini sotib olishga qaraganda risklilik darajasining kamligi;

– xorijiy fond bozorlari to‘g‘risida yetarlicha bilim va ko‘nikmalar bo‘lmagan sharoitda boshqa mamlakat fond bozoriga chiqish imkoniyatining yaratilishi;

– milliy valyutada olingan daromadlarni valyuta riski bilan bog‘liq bo‘lgan konvertatsiya qilishni zaruratining yo‘qligi.

ADRlar chiqarishga javob beruvchi bank qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarning texnik tomonini ta’minlab beradi, ammo aksiyalarning ishonchliligini kafolatlamaydi, shuning uchun qimmatli qog‘ozlardagi risklar to‘liq investor zimmasiga tushadi. ADRlar chiqaruvchi emitentlar aksionerlarning yillik yig‘ilishlarida hal qilinadigan kompaniya kapitallashuvi, a’zolik shartlari va boshqa ma’lumotlar to‘g‘risida bank depozitariyiga doimo axborot berishadi.

ADRlarni chiqarish tashabbuskoriga qarab ikkiga ta’minlangan va ta’minlanmagan turlarga bo‘linadi. Ta’minlanmagan ADRlar ularni emissiya qilishdagi barcha xarajatlarni qoplovchi, kompaniyaning alohida aksionerlari tashabbusi bilan chiqariladi. Ta’minlanmagan ADRlarning emissiyasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni oson bo‘lsada, ularni Amerika uyushgan bozorlarida (fond birjalarida va NASDAK (NASDAQ) elektron savdo tizimida) muomalada yurishi mumkin emas.

ADRlar chiqarish huquqi bo‘lgan ma’lum bir Amerika banki bilan ularni chiqarish to‘g‘risida shartnoma tuzish huquqi bo‘lgan kompaniyaning o‘z tashabbusi orqali ta’minlangan ADRlar chiqariladi. Bunda xarajatlarni shartnomaga ko‘ra kompaniyaning o‘zi to‘laydi.

Ta’minlangan ADRlar aksiyalar turiga qarab ikki guruhga bo‘linadi, ya’ni avval chiqarilgan aksiyalar bilan bog‘liq ADRlar (ADR-1 va ADR-2) va yangi chiqariladigan aksiyalar bilan bog‘liq ADRlar (ADR-3 ADR-4). Avval chiqarilgan va yangi chiqariladigan aksiyalar bilan bog‘liq ADRlar o‘z navbatida ikkiga alohida (ADR-1, ADR-4) va ommaviy joylashtiriladigan (ADR-2, ADR-3) turlarga bo‘linadi.

ADR-1 emissiyasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni ancha yengil hisoblanadi. Bunda Amerika buxgalteriya standartlariga mos buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash talab etilmaydi. Natijada, Amerika fond bozorlarida kompaniyaning moliyaviy hisobotining shaffofligi kamayadi. Shuning uchun ADR-1ga Amerika fond bozorlarida ommaviy muomalada bo‘luvchi qimmatli qog‘oz maqomi berilmagan. Lekin ular global depozitar tilxatlar sifatida boshqa mamlakatlar fond bozorlarida va birjalarida muomalada bo‘lishi mumkin.

ADR-2 kompaniya hisobotlarini Amerika buxgalteriya standartlariga to‘liq mos kelishini talab qiladi va bu Amerika fond bozorlarida kompaniyaning moliyaviy hisobotlarni to‘liq shaffofligini ta’minlaydi. Shuning uchun, ADR-2 Amerika uyushgan fond bozorlari bilan bir qatorda boshqa mamlakatlar fond bozorlarida muomalada bo‘lishi mumkin.

ADR-3 yangi chiqariladigan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni ta’minlasa, ADR-4 esa alohida-alohida joylashtiradi. ADR-3ni chiqarish tartibi ADR-2ni chiqarish tartibiga o‘xshasa, ADR-4ni chiqarish esa ADR-1ni chiqarish tartibiga o‘xshaydi. Amerika qonunchiligida ADR-4ni oddiy qilib ADR deb ham nomlashadi va ularni sotib olivchilar qimmatli qog‘ozlarga 100 mln. AQSh dollari va undan ko‘proq mablag‘larini qo‘ygan kompaniyalar, ya’ni malakali institutsional investorlar bo‘lishi kerak (bunday kompaniyalar AQShda 4 mingtadan oshadi). Bunday investorlar NASDAK milliy elektron savdo tizimining tarkibiy qismi hisoblangan PORTAL elektron savdo tizimi orqali ham ADR-4larda o‘zaro savdo qilishlari mumkin.

ADRlarni oddiy aksiyalar emissiyasidan farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

– depozitar tilxatlar emissiyasi oddiy aksiyalar emissiyasiga qaraganda ikki bosqichli jarayonni mujassam etadi, ya’ni dastlab Amerika depozitar aksiyalari chiqariladi va undan so‘ng Amerika depozitar tilxatlari emissiya qilinadi;

– depozitar tilxatlar bir vaqtning o‘zida bir necha mamlakatlar fond bozorlarida muomalada bo‘lishi mumkin. Oddiy aksiyalar emitenti joylashgan mamlakat fond bozorlarida muomalada bo‘ladi;

– depozitar tilxatlar emissiyasi oddiy aksiyalar emissiyasidan keyin amalga oshiriladi.

REPO – bir tomon o‘z qimmatli qog‘ozlarini shartnomadagi boshqa bir tomonga ma’lum muddatdan so‘ng joriy narxdan qimmatroqqa qaytarib sotib olish sharti bilan sotish operatsiyasidir. Natijada, birinchi tomon qimmatli qog‘ozlar ta’minoti asosida kredit olgan bo‘ladi. Bunda, kredit foiz stavkasi bitimdagi qimmatli qog‘ozlarni sotish va qaytarib sotib olish narxlari o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi. Bu esa, ikkinchi tomon foydasi hisoblanadi.

REPO qisqa va uzoq muddatli operatsiyalar ko‘rinishida, ya’ni kunlik, haftalik, oylik va yillik davriy oraliqlarda amalga oshirilishi mumkin.

Qayta REPO shartnomasi ham amaliyotda mavjud bo‘lib, bunda birinchi sotib oluvchi tomon boshqa (ikkinchi) tomonning qimmatli qog‘ozlarini ma’lum muddatdan so‘ng ikkinchi tomonga sotib olish narxidan pastroq narxda sotish majburiyatini olgan holda sotib olish operatsiyasidir. Bunda, birinchi tomon mablag‘ ta’minoti ostida zaruriy qimmatli qog‘ozlarni kreditga oladi. Ikkinchi tomon, ya’ni sotuvchi qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida kreditni taqdim etgan holda, o‘z qimmatli qog‘ozlarini sotish va sotib olish o‘rtasidagi shartnomaviy narxdagi farqdan daromad (kredit foizini) oladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ruxsat etilgan hosila moliyaviy vositalar

Turli mamlakatlar milliy qonunchiligida hosila moliyaviy vositalar mustaqil qimmatli qog‘oz sifatida qayd etilishi turlicha bo‘ladi. Xususan, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining 2008- yil

22- iyuldagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunida hosila moliyaviy vositalarning quyidagi turlari qayd etilgan:

1. **Qimmatli qog‘ozlarning hosilalari** – o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar.

2. Qimmatli qog‘ozlarga doir fyuchers – o‘zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarni qat’iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

3. Emitentning opsioni – emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini opsionda ko‘rsatilgan muddatda qat’iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz.

4. Varrant – opsionnning asosiy bir turi bo‘lib, u o‘z egasiga ma’lum bir davr ichida (yoki aniq sanada) dastlab uni chiqargan emitentning qimmatli qog‘ozlarni sotib olish huquqini tasdiqlaydi (“Qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish va muomalasi” Tartibidan (mazkur tartib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1997- yil 2- aprelda 320- son bilan ro‘yxatga olingan)).

5. Valyutaviy svop operatsiyasi – bitimda belgilangan muddat va valyuta kursi bo‘yicha hisoblashish (qayta almashuv) sharti asosida valyutalarni bir vaqtda sotib olish va sotish (almashuv) bo‘yicha ikki tomonlama bitimdir. Valyutaviy svop operatsiyasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismini amalga oshirishda valyutalarning dastlabki almashinuvi (spot bitim), ikkinchi qismini bajarishda esa, qayta almashinuvi (forvard-bitimi) va svop shartnomasining yopilishi sodir bo‘ladi (Markaziy bank Boshqaruvining 2008- yil 28- iyundagi 15/1- sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008- yil 24- iyulda 1839- son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan))

6. Bank aktivlari bilan ta’minlangan obligatsiyalar. O‘zbekiston Respublikasida Bankning berilgan kreditlar va boshqa aktivlarini ta’minlash bo‘yicha qimmatli qarz qog‘ozlari “Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” qoidalari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda obligatsiyalar ko‘rinishida chiqarilishi mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi Bosh direktorining 2009- yil 16- iyuldagi 2009-40- son buyrug‘i asosida tasdiqlangan qoidalar ((mazkur qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009- yil 30- avgustda 2000- son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan))

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlarning hosilalari bazis aktivlarining umumiy qiymati 1 mln. so‘m yoki undan yuqori bo‘lsa, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari asosida tashkil etilgan xoldinglar va aksiyadorlik kompaniyalari, shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, birjalar, sug‘urtalovchilar va tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi.

9.3. Kredit va foiz derivativlari

Kredit derivativlari (credit derivatives). Kredit derivativlari kredit risklarini boshqarish strategiyasida foydalaniladi. Ular risklarni an’anaviy boshqarishning portfelni diversifikatsiyalash va kredit limitlari kabi usullarini nafaqat to‘ldiradi, balki ularni o‘rnini bosishi mumkin. Kredit derivativlari faqatgina birjadan tashqari bozorda muomalada bo‘lishi mumkin. Kredit derivativlarining asosiy shakllariga defolt bo‘ladigan aktivlarga svoplar (kredit defolt svopi), kredit opsionlari va yalpi daromadga svoplarni olish mumkin. Ularning asosiy ishtirokchilari xalqaro banklar hisoblanadi. Kredit derivativlar segmentining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy

omillardan biri xalqaro kreditlash sohasida yagona qonunchilikning mavjud emasligi hisobiga kredit derivativlarning standart hujjatlarining mavjud emasligi hisoblanadi.

Kredit notalari (inglizcha credit-linked note (CLN) so‘z birikmasidan olingan) – obligatsiyalarga o‘xshash moliyaviy vosita bo‘lib, bunday obligatsiyalar kredit shartnomasiga bog‘langan bo‘ladi. Uning yordamida bank berilgan kreditni qayta moliyalashtirish va unga bog‘liq riskni uchinchi shaxs – investorga o‘tkazish orqali kredit riskini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bank va investor o‘rtasida tuziladigan “Kredit riskiga qatnashish to‘g‘risida”gi shartnomada namoyon bo‘ladi. Ushbu shartnomani tuzish orqali kredit beruvchi bank ushbu qarz mablag‘larida uchinchi shaxs (investor)ga ulush huquqini, shuningdek, qarzdorning bank tomonidan berilgan kreditlari bo‘yicha o‘z majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajara olmaganligidan yuzaga keluvchi risklarning bir qismini berish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday shartnomani rasmiylashtirish keyinchalik fond bozorida savdo qilinishi mumkin bo‘lgan kredit notasi qimmatli qog‘ozlarini berish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, bankka yirik va riskli kreditlarni kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularni alohida-alohida turli investorlarga sotish imkoniyati paydo bo‘ladi. “Kredit riskiga qatnashish to‘g‘risida”gi shartnomada bankning pul majburiyatlari hajmi kredit shartnomasi bo‘yicha qarzdor tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar hajmidan oshmasligi lozim. Shartnoma ishtirokchilari oldida bank majburiyatlarining bajarilishi kredit shartnomasi bo‘yicha garovni talab qilish huquqi orqali ta’minlanishi mumkin. Garov shartnomasi kredit notalariga bo‘lgan huquqning dastlabki egasini paydo bo‘lishi bilan tuzilgan hisoblanadi.

Bank bir vaqtning o‘zida ham kreditor, ham kredit notalari emissiyasining tashkilotchisi bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda kredit beruvchi bank qarzdorning kredit riskini o‘z zimmasiga olmaydi, ya’ni ularni investorlarga sotadi. Kredit notalarini sotib oluvchilar qarzdorga nisbatan bankning kredit risklarini o‘z zimmalariga oladilar. Kredit notalarini emitenti (bank) tomonidan “Kredit riskiga qatnashish to‘g‘risida”gi shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaslik holati

yuzaga kelganda kredit shartnomalari bo‘yicha emitentning garov predmeti hisoblangan kredit notalarini talab qilish huquqi kredit notasini ixtiyoriy egasining yozma talabnomasi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun kreditni va kredit notalarini so‘ndirish majburiyatlarini bajarish bo‘yicha oxirgi javobgar shaxs qarzdor hisoblanadi. Kreditni so‘ndirish muddatigacha kredit hodisasi, masalan kredit bo‘yicha majburiyatlar bajarilmasligi yoki qarzdor bankrot bo‘lishi sodir bo‘lmasa, kredit notalar nominal qiymati bo‘yicha so‘ndiriladi. Agar kredit hodisasi sodir bo‘lsa, majburiyatlar qiymati va kredit notalari nominali o‘rtasidagi farq hisobiga aniqlanadigan kamaytirilgan kompensatsiya miqdoridagi nominal qiymat bo‘yicha kredit notalari muddatidan ilgari so‘ndiriladi.

Kredit notalari tarkibiga kredit defolt svopi kiradi, shuning uchun ham kredit notasi emission qimmatli qog‘oz hisoblanadi va to‘lovlari kredit defolt svopi orqali aniqlanadi.

Qarzdorlar uchun xorijiy banklar tomonidan kredit notalarini chiqarishning afzalligi shundaki, oddiy kreditlardan farqli ravishda ularning ta’minotini mavjud emasligi hisoblanadi. Tadbirkorlar tomonidan kreditlarni olishda kafillik, ko‘chmas mulk va boshqa turli garov ta’minotlari talab etiladi, bu esa ularni kredit olishlariga to‘siq bo‘lishi mumkin. Kredit notalarining emissiyasi nisbatan tez amalga oshiriladigan operatsiya hisoblanadi. Masalan, yevroobligatsiyalarda xalqaro standartlar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va axborotlarni oshkor etish talab etiladi, bu esa kredit notalar bilan operatsiyalarni nisbatan sodda ekanligidan dalolat beradi. Kredit notalarni chiqarishda kompaniya xalqaro kredit reytingiga ega bo‘lishi va xorijiy fond birjalar listingiga kirishi shart emas. Bundan tashqari kredit notalarini chiqarish orqali qarzdor xorijiy investorlar orasida taniladi va kelajakda yevroobligatsiyalarni chiqarish rejasini tuzishi mumkin. Natijada u xalqaro darajada kredit tarixiga va tashqi qarz olish tajribasiga ega bo‘ladi.

Kredit defolt svopi (Credit default swap, CDS**)** – kredit derivativi yoki kelishuvi hisoblanib, bunda “xaridor” bir martalik yoki davriy badallarni (premiyalarni) CDSni chiqargan “Emitent”ga to‘laydi, shuningdek, “xaridor” tomonidan uchinchi shaxsga berilgan kreditni

qarzdor (uchinchi shaxs) tomonidan so‘ndirish imkoniyati bo‘lmaganda (uchinchi shaxs defolt bo‘lganda) emitent uni to‘lash majburiyatini oladi. “Xaridor” o‘zi bergan kreditni yoki sotib olingan qarz majburiyatini sug‘urtalashi uchun kredit defolt svopi shaklidagi qimmatli qog‘ozga ega bo‘ladi. Uchinchi shaxs defolt holatida “xaridor” kredit defolt svopi shaklidagi qimmatli qog‘ozni “emitent”ga topshiradi va natijada “emitent”dan asosiy qarz va qolgan foiz to‘lovlari bo‘yicha kompensatsiya summasini oladi.

Kompensatsiyaning pul (valyuta) va “fizik” ko‘rinishlari mavjud. Pul ko‘rinishidagi qoplamada “emitent” tomonidan “xaridor”ning aktivlarini real va nominal qiymati o‘rtasidagi farqdan ko‘rilgan zarari qoplab beriladi. “Fizik” ko‘rinishdagi qoplamada kredit defolt svopi shaklidagi qimmatli qog‘ozni chiqargan “emitent” shartnomada aniq bir narx bilan ko‘rsatilgan ma’lum miqdordagi aktivlarni sotib olishga majbur bo‘ladi. Shunday qilib, aktivlar narxining salbiy tomonga o‘zgarishidagi risk “emitent”ga o‘tadi.

O‘z operatsiyalari uchun kredit oluvchi banklar odatda “xaridor” bo‘lishadi. O‘z kreditlarini (yoki boshqa majburiyatlarni) ta’minlashda kredit defolt svopi shaklidagi qimmatli qog‘ozlarni ega bo‘lish orqali banklar to‘lovlarga kafolat berishadi. Bu o‘z navbatida, turli shakldagi qo‘shimcha kafolatlarni zaruratini kamaytiradi, masalan REPO operatsiyalari yoki garov ta’minoti va boshq.

Dastlab svoplarni JP Morgan Chase ishchilar guruhi tomonidan 1997- yil dekabrda yaratilganligi ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilgan.

Kredit defolt svopi qimmatli qog‘oz shaklida bir qator masalalarni hal qilishi mumkin:

- berilgan kreditlar bo‘yicha foizlar olish imkoniyatini kredit riskidan ajratadi;

- boshqa tizimdagi risk hisobiga o‘z aktivlarini qaytmasligi uchun shakllantirilgan bank zaxiralarini yaratishga hojat qolmaydi;

- kredit defolt svoplarining qiymati odatdagi sug‘urta polislaridan arzon hisoblanadi, chunki sug‘urta tashkilotlariga odatda mahalliy qonunchilik kerakli zaxirani shakllantirishni talab etadi, biroq defolt

svoplarini chiqargan emitentga bunday talablar amaliyotda mavjud emas;

- kredit defolt svoplarini emitentlari nafaqat banklar, sug‘urta tashkilotlari yoki xedjirlash fondlari hisoblanishadi, balki pensiya, investitsion fondlar, turli yirik kompaniyalar va xususiy shaxslar ham bo‘lishi mumkin.

Odatda kredit risklarini jadal o‘sishi sharoitida defolt svoplariga zarurat ortadi. Hozirgi kunda ushbu moliyaviy vositani tartibga soluvchi xalqaro yoki milliy doiradagi tashkilotlarning mavjud bo‘lmaganligi kredit defolt svoplari hajmi to‘g‘risidagi to‘liq va aniq ma’lumotlarni yetishmasligiga sabab bo‘lmoqda. 2007- yildan boshlab Chikago tovar birjasi federal qonunchilik asosida defolt svoplar savdosini tartibga solishni yo‘lga qo‘ydi, ammo bu yirik banklar tomonidan defolt svop operatsiyalarini birjadan tashqarida amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, Xalqaro hisob-kitoblar banki kredit defolti svopi ma’lumotlarini to‘plab, jahon ommasiga e’lon qildi.

Kredit defolt svoplarini jadal sur’atlarda o‘sishiga ipoteka kreditlari va derivativlar bozorining tez rivojlanishi ham sabab bo‘lgan. Ko‘chmas mulkning bahosini ko‘p yillar davomida o‘sishi uning asosida kafolatlar berish mumkinligini ko‘rsatgan. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz chuqurlashuvi natijasida qarzdorlarning bankrotga uchrashi oshsa, defoltdan sug‘urtalovchi tomonlar uchun jiddiy tahdidlarni yuzaga keltirdi va uning hajmi tushishiga sabab bo‘ldi.

Defoltdan sug‘urtalash (defolt svoplar), shuningdek, foiz derivativlar savdo hajmining tez o‘sishini, birinchidan foiz stavkalar darajasining tez o‘zgarishi, ikkinchidan esa jahonda moliyaviy holatning yomonlashuvi oqibatida yoppasiga defoltlarni sodir bo‘lishini hosila moliyaviy vositalar bozorining ko‘plab ishtirokchilari tomonidan kutilishi bilan bog‘lash mumkin.

Kredit defolt svopi qarzlar bo‘yicha to‘lovlar xatarini xedjirlash uchun kreditorlar tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta operatsiyalariga o‘xshasada, biroq uning sug‘urtadan ajratib turuvchi muhim farqlari mavjud:

- defolt svopini obyekti turli shakldagi qarz majburiyatlari, ya’ni tovarni yetkazib berish shartnomasidan tortib, barcha turdagi qarz majburiyatlari, shu jumladan ipoteka kreditlari transh[27]lari bo‘yicha hosila moliyaviy vositalari ham bo‘lishi mumkin;

- “xaridor” va “emitent” defolt svopi obyekti bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro aloqada bo‘lmasligi mumkin. Masalan ikkilamchi bozorda sotib olingan opsion yoki obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlar sug‘urtalanayotganda bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi;

- sug‘urta polisidan farqli ravishda defolt svoplari bozorda qayta sotiluvchi qimmatli qog‘oz hisoblanadi va uni istalgan miqdorda sotib olish yoki sotish mumkin;

- kredit defolt svoplarini tartibga solib bo‘lmasligi uni faqat birjadan tashqarida, alohida tartibda oldi-sotdi qilishga olib keladi;

- defolt svoplari bo‘yicha emitentning majburiyatlarini kafolatlash uchun likvid aktivlarning yetarliligini ta’minlashning yuridik talablari mavjud emas.

Kredit defolt svoplarining spekulyativ xususiyati ham mavjud bo‘lib, ularning iqtisodiy inqirozlar davrida beqarorligi ortadi. Defolt svoplarini asosiy sotuvchilari xedjirlash fondlari hisoblanadi. Inqiroz davrida xaridorlar kredit defolt svoplari bo‘yicha qoplamalarni olishga asosiy e’tiborni qaratadi, xedjirlash fondlarining aktivlari esa fond bozorining salbiy ko‘rsatkichlari hisobiga kamayib boradi, oqibatda bunday fondlarning aktivlari majburiyatlarini ta’minlay olmasligi mumkin.

Foiz derivativlari (interest rate derivatives). Derivativlar bozorining asosiy qismini qismini egallagan holda turli-tuman shakllarga ega. Birjadan tashqari foiz derivativlarining uch asosiy turi faqlanadi, ya’ni forvard foiz kelishuvlari, foizli svop va foiz opsionlari. Foiz derivativlarini keng tarqalgan shakllarining tasnifini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (9.3- jadvalga qarang).

Fyucherslar (futures). Standartlashgan mahsulotlar sifatida birjada muomalada bo‘luvchi qisqa muddatli foiz stavkalar va obligatsiyalar bo‘yicha forvard kelishuvlari **foiz fyucherslari** (interest

[27] Kreditlar bo‘yicha chiqarishgan qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar.

rate futures) deb yuritiladi. Uning bir ko‘rinishi sifatida funt sterlingdagi uch oylik LIBOR foiz stavkasi bo‘yicha fyuchers shartnomasini olish mumkin. Ular LIFFEda muomalada bo‘ladi va qisqa muddatli funt sterling fyuchersi (short sterling futures) deb tan olingan. Fyuchers shartnomasini tuzish orqali kompaniya kelajakdagi qarz hajmini yoki depozitga qo‘yilgan pul mablag‘larini joylashtirishdan oladigan daromadini fiksirlaydi ya’ni qat’iy belgilaydi.

9.3-jadval

Foiz derivativlarining tasnifi

Moliyaviy derivativlar				
To‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma		Opsion		
Foiz svopi	Forvardlar: Forvard foiz kelishuv-lari va foiz fyuchersi	Vanil opsionlar: foiz fyuchersiga opsionlar, foiz kafolatlari, “shift” va “pol” shaklidagi shartnomalar, svopsion, obligatsiyaga opsionlar	Ekzotik opsionlar: o‘rtacha opsionlar, chegaralan-gan opsionlar	Tarki-biy mahsu-lotlar

Forvard foiz kelishuvlari (forward rate agreement, FRA, shuningdek, ular Futures rate agreement shaklida ham uchraydi) **–** hosila moliyaviy vosita hisoblanib, kelishilgan muddatga aniq foiz stavka mablag‘ini bir tomon ikkinchi tomondan egallashi to‘g‘risidagi shartnomadir. Shuningdek, u qat’iy belgilangan (fiksirlangan) va suzib yuruvchi foiz stavkali aktivlar bo‘yicha to‘lovlarni almashtirish to‘g‘risidagi shartnoma ham hisoblanadi. Hisob-kitob shartnomaning nominal summasidan kelib chiqiladi va to‘lovlarni almashuvi haqiqatda amalga oshirilmaydi. FRAni tuzayotganda savdolar tashkilotchisiga marjinal badallar va kafolat uchun to‘lovlar amalga oshirilmaydi. Shartnoma ishtirokchilari uni amalga oshirish sanasiga (settlements day) bitimda ko‘rsatilgan va oldindan kelishilgan foiz stavkasining joriy

qiymatidan farqli summasini to‘lab berish majburiyatini oladi. Masalan, ikki tomon uch oylik FRA tuzdilar, bitim ijrosini amalga oshirish besh oydan so‘ng boshlanadi. Besh oy o‘tgandan so‘ng tomonlardan biri boshqa tomonga fiksirlangan va suzib yuruvchi (odatda LIBOR bo‘yicha) foiz stavkalar o‘rtasidagi farqni uch oylik hisob-kitob bo‘yicha to‘lab beradi. Ushbu operatsiyani mohiyatini yanada kengroq tushintirish uchun boshqa bir misol keltiramiz. Mijoz A bankdan 1 mln. AQSh dollari miqdorida 6 oy muddatga kredit olgan bo‘lib, unga ustama foiz dastlabki uch oyda yillik 9 foiz, qolgan 3 oyda esa LIBOR stavka bo‘yicha to‘lanadi. LIBOR stavka bo‘yicha riskdan himoyalanish uchun mijoz B bank bilan yillik 9,5 foiz fiksirlangan stavkada forvard foiz kelishuvini tuzdi. Uch oydan so‘ng kredit qayta baholanadi va forvard foiz kelishuvi amalga oshiriladi. Uch oydan keyin LIBOR stavka yillik 10 foizni tashkil etsin, mijoz A bankka 1 mln. AQSh dollaridan 10 foiz to‘laydi. Lekin uning zarari forvard foiz kelishuvi orqali B bank tomonidan 9,5 foiz bo‘yicha qoplab beriladi. Shunday qilib, B bank mijozga foiz farqida quyidagi summani to‘lab beradi:

$$1\,000\,000 \times \frac{(10\% - 9{,}5\%)}{100\%} \times \frac{3 \text{ oy}}{12 \text{ oy}} = 1250 \text{ AQSh dollari}$$

FRA davr boshida amalga oshiriladi, ya’ni 1250 AQSh dollari mijoz krediti to‘lovining keyingi uch oyi boshlanganda B bank tomonidan to‘lab beriladi va ushbu summani mijoz 3 oyga A bankka qayta investitsiya qilishi mumkin.

FRA turli banklar orasida foiz riskini xedjirlash uchun keng qo‘llaniladi. FRA ishtirokchilar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri tuziladi, faqat birjadan tashqarida foydalaniladi va ko‘plab birjadan tashqari foiz derivativlari asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foiz svopi (interest rate swap, IRS) birjadan tashqari foiz derivativlarining keng tarqalgan turlaridan biridir. **Foiz svopi (interest rate swap, IRS)** – oldindan kelishilgan shartli summadagi aniq foiz to‘lovlarini almashish to‘g‘risidagi ikki tomon orasidagi hosila moliyaviy vosita shaklidagi bitim, shartnoma hisoblanadi. Ya’ni, har biri

aniq bir summadan hisoblanuvchi turli muddatli foiz stavkalarining qarz majburiyatlarini almashtirish to‘g‘risidagi shartnomadir. Svop operatsiyasi qarzdorga fiksirlangan stavkali qarzlarini suzuvchi stavkali qarzlarga almashtirish imkonini beradi va aksincha. Ya’ni, ushbu bitimda ma’lum bir sanada bir tomon ikkinchi tomonning qat’iy belgilangan (fiksirlangan) foiz stavkadagi aniq summasini to‘lab beradi va ikkinchi tomondan suzuvchi foiz stavkadagi (masalan LIBOR, TIBOR, UZIBOR foiz stavkasidagi) to‘lovlarni qabul qilib oladi. Fizik summa almashinilmaydi, faqat foiz to‘lovlar o‘zaro o‘tkazib beriladi, ya’ni odatda amaliyotda bunday to‘lovlar o‘zaro tenglashtirilib, tomonlardan biri foiz stavkalar o‘rtasidagi farqni to‘lab beradi. Foiz svoplari ham FRAlar kabi faqat birjadan tashqarida muomalada bo‘ladi.

Foiz svoplari kreditlarning fiksirlangan va suzib yuruvchi stavkalari o‘zaro almashtirish orqali aktiv va passiv operatsiyalarni xedjirlashda foydalaniladi. Moliya bozorida foiz svoplari yuqori likvidli moliyaviy vositalardan hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, ular bilan bog‘liq spekulyativ operatsiyalarni amalga oshirishga zamin yaratib beradi.

Foiz svopi bilan bog‘liq bitimlarda har bir tomon ikkinchi tomon foydasiga fiksirlangan va suzib yuruvchi foiz stavkadagi to‘lovlarni belgilangan valyutalarda amalga oshirish majburiyatini oladi. Fiksirlangan yoki suzib yuruvchi foiz stavkalar asosiy shartli summaga (masalan 1 mln. AQSh dollariga) ko‘paytiriladi va natijalar o‘zaro almashtiriladi. Asosiy shartli summa faqat almashtiriladigan foiz to‘lovlari miqdorini aniqlash uchun foydalaniladi.

Masalan Axmad “LIBOR+2” foiz stavkasida to‘lanuvchi 10 ming AQSh dollar kredit olgan bo‘lsa, o‘zining ushbu suzib yuruvchi foiz stavkasining ma’lum bir qismini (“LIBOR+1”) yoki to‘liq boshqa birovning, aytaylik, Toshmatning asosiy qarz summasi 10 ming AQSh dollariga teng bo‘lgan 10 foizli kredit to‘loviga foiz svop bitimi orqali almashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar asosiy qarz summalari teng bo‘lmasa, shartli bir summa orqali foiz svop bitimi amalga oshiriladi. Suzib yuruvchi foiz stavkasining ma’lum bir qismini fiksirlangan stavkaga almashtirilishi ham suzib yuruvchi stavkani to‘liq

fiksirlanganga almashtiradi. Axmadning suzib yuruvchi “LIBOR+1” foiz stavkasi fiksirlangan 10 foizga almashtirilsa, u o‘zining 10 ming AQSh dollarga teng kreditiga 11 foizdan ustama haqini to‘laydi.

Fiksirlangan stavka (misoldagi 10 foiz) svop stavkasi hisoblanadi va foiz svop bitimini tuzayotganda uning sof joriy qiymati nolga teng (NPV=0) bo‘ladi. Agar tomonlardan biri svop stavkaga qo‘shimcha foiz to‘lash istagi bo‘lsa, unda suzuvchi stavkaga ham ushbu miqdordagi foiz qo‘shiladi. Masalan suzib yuruvchi “LIBOR+1” foiz stavkasi fiksirlangan 10 foizga teng bo‘lsa, bir tomonning istagi 10+2 bo‘lsa, suzib yuruvchi stavka ham “LIBOR+3”ga almashtirilishi lozim.

Foiz svoplar birjadan tashqarida tuziladigan bitimlar hisoblansada, u o‘z ishtirokchilarining turli ehtiyojlarini qanoatlantirib kelmoqda. Uning keng tarqalgan turlari quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkalar almashinuvi (fixed – for – fixed);
- bir yoki turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkasini suzib yuruvchi foiz stavkasiga almashtirish (fixed – for – floating);
- bir yoki turli valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi (floating – for – floating).

Turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkalar almashinuvi (fixed – for – fixed)

Ushbu foiz svop bitimi turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkalarni ma’lum bir muddatga o‘zaro almashtiradi. Masalan, siz 100 mln. so‘mlik kreditga yillik 24 foiz ustama foiz to‘lasangiz, USD/UZS = 1000 bo‘lganda, ushbu svop bitimi orqali 100 ming AQSh dollariga teng kredit bo‘yicha 25 foiz[28] ustama haqini to‘lashingiz mumkin va aksincha.

Bir valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkani suzib yuruvchi foiz stavkaga almashtirish (fixed – for – floating)

Tomonlardan biri ma’lum bir summadagi va muddatdagi fiksirlangan (yoki suzib yuruvchi) foiz stavkasidagi bir xil valyutada

[28] Bunda 25 foiz shartli ravishda olindi. Bitimda odatda, 24 va undan yuqori foiz stavkalar qo‘llanilishi lozim. Chunki foiz stavkalar orasidagi farqning valyutadagi ifodasi tashabbuskor investordan kontragentga o‘tadi va uning foydasi hisoblanadi. Shuningdek, barcha svop bitimlarida odatda tashabbuskor o‘z kontragentini ma’lum bir haq evaziga bitimni tuzishga undaydi.

bo‘lgan to‘lovlarini suzib yuruvchi (fiksirlangan) foiz stavkasiga almashtiradi. Masalan, siz 10 yil muddatga olingan 100 ming AQSh dollar miqdoridagi kreditga o‘zining yillik LIBOR+3 foiz stavkasi o‘rniga ushbu svop bitimi orqali yillik fiksirlangan 12 foiz stavkadagi to‘lovlarni amalga oshirishingiz mumkin va aksincha. Agar tomonlardan biri svop bitimi orqali suzib yuruvchi stavka o‘rniga fiksirlngan foiz stavkada to‘lovlarni amalga oshirayotgan bo‘lsa foiz svop bitimining uzun pozitsiyasini egallagan hisoblanadi. Bunga yana bir misol qilib, yillik 12 foiz fiksirlangan stavkadagi va foiz to‘lovlari har oyda amalga oshiriladigan muddati 3 yil bo‘lgan 10 ming AQSh dollarlik kreditga ega, 10 ming AQSh dollarlik investitsiyasidan har oyda LIBOR+4 suzuvchi foiz stavka bo‘yicha daromad oluvchi kompaniyani olish mumkin. Ushbu svop bitimi orqali kompaniya o‘z daromadlarini fiksirlangan stavkaga o‘tkazishi va bundan qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar kompaniya foiz svoplar bozorida 10 ming AQSh dollarlik shartli summada oylik LIBOR+4 suzuvchi foiz stavkani yillik 20 foiz fiksirlangan stavkaga almashtira olsa, u har oyda qo‘shimcha 0,67 foiz ((20-12)/12 oy) miqdorida foyda ko‘radi. Shuningdek, kompaniya o‘z daromadlarini fiksirlangan 20 foizga o‘tkazadi.

Turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkani suzib yuruvchi foiz stavkaga almashtirish (fixed – for – floating)

Tomonlardan biri ma’lum bir summadagi va muddatdagi fiksirlangan (yoki suzib yuruvchi) foiz stavkasidagi turli valyutalarda bo‘lgan to‘lovlarini valyuta kursni hisobga olgan holda suzib yuruvchi (fiksirlangan) foiz stavkasiga almashtiradi. Masalan sizga ushbu bitim orqali 150 mln. so‘mlik kredit bo‘yicha UZIBOR stavkasida har chorakda amalga oshiriladigan foiz to‘lovlarni 100 ming AQSh dollarlik kredit bo‘yicha yillik 12 foiz fiksirlangan stavkada har chorakda amalga oshiriladigan to‘lovlarga valyuta kursi USD/UZS = 1500 bo‘lganda almashtirish imkoniyati mavjud. Bunda ma’lum bir belgilangan sanadagi valyuta kursidan yoki svop bitimi tuzilayotganda amalda bo‘lgan valyuta kursidan foydalanish mumkin. Shuningdek, bitimda faqat foiz to‘lovlari almashtiriladi, asosiy qarz summasi esa almashtirilmaydi.

Boshqa bir misol qilib, 10 ming AQSh dollarlik kredit bo‘yicha yillik 6 foizdan fiksirlangan stavkada oylik ustama to‘lovlarini amalga oshiruvchi, shuningdek,16 mln. so‘mlik investitsiyasidan UZIBOR+5 stavkada oylik daromad oluvchi kompaniyani olish mumkin. Kompaniya moliya bozorida kelajakda UZIBOR stavkani pasayishi va USD/UZS kursini ko‘tarilish ehtimolidan o‘zini himoyalash maqsadida o‘z daromadlarini AQSh dollarida olishni rejalashtirgan. U o‘z rejasini amalga oshirishi uchun turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkani suzib yuruvchi foiz stavkaga almashtirish bo‘yicha svop bitimini tuzishi yetarli hisoblanadi. Natijada kompaniya UZIBOR+5 stavkada 10 ming AQSh dollarlik kreditga oylik foiz to‘lovlarini amalga oshiradi va o‘zining 16 mln. so‘mlik investitsiyasidan valyuta kursi va foiz stavkasi o‘zgarishidan himoyalagan holda 2 foiz qo‘shimcha daromadini qat’iy belgilab, fiksirlangan stavkada 8 foiz yillik daromad ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bitimda valyuta kursi USD/UZS = 1600 etib belgilangan.

Bir valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi (floating – for – floating)

Tomonlardan biri ma’lum bir valyutadagi suzib yuruvchi foiz stavkasida aniqlangan summani boshqa bir suzib yuruvchi foiz stavkasidagi summaga almashtiradi. Bitimni tuzishda muddat, asosiy qarzning foiz to‘lovlarini aniqlashda foydalaniladigan shartli summa inobatga olinadi. Masalan siz ushbu bitim orqali uch yil muddatga olingan 1 mln. AQSh dollarlik kreditning USD LIBOR 1M bo‘yicha to‘lanadigan foizini USD TIBOR 1M suzuvchi foiz stavkasiga almashtirish imkoniyatiga ega bo‘lasiz. Suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi turli indekslar orasidagi spredning (foiz stavkalar o‘rtasidagi farqning) ko‘payishi yoki kamayishi oqibatida yuzaga keladigan xatarlarni oldini olish va turli spekulyativ maqsadlar uchun ham foydalaniladi. Boshqa bir misol qilib, USD LIBOR 1M bo‘yicha kredit foizini to‘lovchi va USD TIBOR 1M + 5 foiz stavkasi bo‘yicha o‘z investitsiyasidan daromad oluvchi kompaniyani olish mumkin. Hozirda agar USD LIBOR 1M + 12 = USD TIBOR 1M bo‘lsa, kompaniya foizlar o‘rtasidagi farqdan sof daromadi shartli summaning

17 foiziga teng bo‘ladi. Agar kompaniya USD TIBOR 1M + 5 foiz stavkasiga nisbatan USD LIBOR 1M foiz stavkasi ko‘payadi yoki USD LIBOR 1M foiz stavkasiga nisbatan USD TIBOR 1M foiz stavkasi pasayadi deb hisoblasa, bunday holatda albatta xatarlardan qutilish chorasini izlaydi. Bunday xatardan qutilishning eng oddiy chorasi bu bir valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi bo‘yicha tuziladigan svop bitimi hisoblanadi. Natijada kompaniya ma’lum bir shartli summa bo‘yicha USD TIBOR 1M + 5 foiz stavkada kredit bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirib, USD LIBOR 1M + 15 foiz stavkasida investitsiyalardan daromad ko‘rishga foiz svopi orqali erishsa, ikki suzuvchi foiz stavkasini tenglashtiruvchi 2 foizlik farq evaziga kompaniya oldidagi xatar bartaraf etiladi.

Floating – for – floatingsvoplar bir turdagi suzib yuruvchi foiz stavka bo‘yicha turli sanalarda amalga oshiriladigan foizli to‘lovlar o‘rtasida va biznes kunlarini belgilanishidagi turli yondashuvlarni oldini olish uchun ham tuzilishi mumkin. Bu turdagi svoplar amaliyotda spekulyativ operatsiyalar uchun qo‘llanilmasada, biroq korxona va tashkitotlar aktivlar va passivlarini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi (floating – for – floating)

Tomonlardan biri ma’lum bir valyutadagi suzib yuruvchi foiz stavkasida aniqlangan summani boshqa bir valyutada aniqlanuvchi suzib yuruvchi foiz stavkasidagi summaga almashtiradi. Bitimni tuzishda muddat, turli valyutalar o‘rtasidagi kurs, asosiy qarzning foiz to‘lovlarini aniqlashda foydalaniladigan shartli summa inobatga olinadi. Bu jarayonni quyidagi misollar orqali to‘liq o‘zlashtirish mumkin. Aytaylik, siz har chorakda 3 yil muddatga olingan 10 ming AQSh dollari miqdoridagi kreditga USD LIBOR 1M suzib yuruvchi stavka bo‘yicha foiz to‘lovlarini amalga oshirasiz. Turli sabablar bilan siz o‘z foiz to‘lovlaringizni boshqa bir valyutadagi suzib yuruvchi foiz stavkaga, masalan, TIBOR 3M ga o‘tkazmoqchisiz. Bunda siz turli valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvini ta’minlovchi foiz svopidan foydalanib o‘z rejangizni amalga oshirasiz. Albatta bunda kredit

muddati va valyuta kursini inobatga olasiz. Bitim tuzish kunida valyuta kursi yoki hisoblangan forvard kursi USD/JPY = 120 bo‘lsa, 10 ming AQSh dollaridagi kredit 1,2 mlrd Yaponiya yeniga teng bo‘ladi va ushbu summa har chorakda TIBOR 3M stavkadagi foiz to‘lovlari uchun asos hisoblanadi.

Boshqa bir misol qilib, Yaponiyada o‘z faoliyatini yurituvchi AQSh kompaniyasini olish mumkin. Kompaniyaga faoliyatini rivojlantirish uchun 100 mln. AQSh dollari zarur bo‘lsa, u mablag‘larni jalb etishning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Qarz mablag‘larini boshqarishni o‘z zimmasida qoldirish uchun kompaniya o‘z faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish shakllaridan birini, aytaylik obligatsiyalar chiqarish yo‘lini tanlagani ma’qul hisoblanadi. Biroq bunda ham u turli moliyaviy-iqtisodiy xavf-xatarlarga duchor bo‘lishi mumkin, ya’ni Yaponiya fond bozorida kompaniya yangi ishtirokchi bo‘lganligi va uning nufuzini pastligi bois obligatsiyalar sotilmasligi, shuningdek, Yaponiyada chiqarilgan obligatsiyalarni ishonchli sug‘urtalash dasturining mavjud emasligi va boshqalarni olish mumkin. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun obligatsiyalarni AQSh bozoriga chiqarib sotish kompaniya uchun afzal hisoblanadi. Lekin bu vaziyatda ham ba’zi bir muammolar uchraydi. Masalan, valyuta kursi va foiz stavkalar o‘rtasidagi farqlardan yuzaga keluvchi xavf-xatarlar. Valyuta kursi riskini forvard bitimlari orqali bartaraf etish mumkin bo‘lsada, ammo forvard bitimining o‘zi ham foiz stavkalar orqali aniqlanishi kompaniyaning foiz riskini to‘liq bartaraf eta olmaydi.

Foiz va valyuta risklarini xedjirlashning turli usullari bo‘lishiga qaramasdan, ularning eng oddiy usuli bu turli valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalar almashinuvi (floating – for – floating), ya’ni foiz svop bitimlarini tuzish hisoblanadi. Shunday qilib, kompaniya AQSh dollarida obligatsiyalar chiqaradi va ularni ushbu valayutada svoplaydi. Natijada kompaniya o‘zi chiqargan obligatsiyalar daromadlarini suzib yuruvchi foiz stavkalar bo‘yicha AQSh dollarida to‘lash majburiyatini oladi, ammo svop bitimi orqali Yaponiya yenidagi suzib yuruvchi foiz stavkalar bo‘yicha daromadlarni to‘lab boradi.

Pul bozoridagi foiz fyucherslariga opsionlar (option on money market interest rate future). Bunday opsion o‘z egasiga aniq bir narx bo‘yicha foiz fyuchersini sotib olish yoki sotish huquqini beradi. Ular faqat birjalarda muomalada bo‘ladi, masalan LIFFEda. Yevrodollar va EURIBOR bo‘yicha qisqa muddatli funt sterling fyucherslariga opsionlardan amaliyotda keng foydalaniladi.

Foiz kafolatlari, “shift” va “pol” shaklidagi shartnomalar (interest rate guarantee, cap, floor). FRAlarga opsionlar “foiz kafolati” (IRG) yoki “foiz kapleti” (interest rate caplet) deb nom olgan. FRAlarga yevropacha koll opsion yoki “IRG qarzdor” kredit oluvchiga ssuda bo‘yicha kelajakda maksimal foiz stavkani qat’iy belgilash huquqini taqdim etadi. FRAlarga put opsion yoki “IRG kreditor” aksincha kredit beruvchiga ssuda bo‘yicha kelajakda minimal foiz stavkani qat’iy belgilash huquqini taqdim etadi.

“Shift” (inglizcha “cap” – shapka, bosh kiyim) foiz shartnomalari kelishilgan maksimal stavka va aktivlar bo‘yicha suzib yuruvchi foiz stavkasi orasidagi farqni to‘lash uchun tuziladi. Bunday opsion shartnomasini tuzish orqali qarzdor o‘z majburiyatlari bo‘yicha foizlarni oshish riskidan holi bo‘ladi.

“Pol” (inglizcha “floor” – pol (yer yuzida o‘rnatilgan taxtali qoplama)) foiz shartnomalari esa aksincha, kelishilgan minimal stavka va aktivlar bo‘yicha suzib yuruvchi foiz stavkasi orasidagi farqni to‘lashni talab qiladi, ya’ni kafolatlaydi. Bu shakldagi opsionni tuzish orqali kreditor (qarz bergan shaxs) taqdim etgan krediti bo‘yicha foiz stavkasini tushish riskidan himoyalanadi

“Shift” va “pol” shartnomalarining kombinatsiyasi “kollar” (inglizcha “collar” – bo‘yinbog‘) deb nomlanadi. Foiz stavkasida tuzilgan bunday opsion investorni foiz stavkalarning keskin tebranishidan himoyalaydi, ya’ni ma’lum muddat davomida foiz stavkalarning maksimal va minimal chegarada tebranishini ta’minlaydi.

9.4. Hosilaviy moliya instrumentlarining global bozori rivojlanishi

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va integratsiyalashuvini hisobiga hosila moliyaviy vositalar bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalari kuchayib borgan. Bozor infrastrukturasi va unda oldi-sotdi qilinadigan vositalar tarkibini o‘rganish bir qator asosiy infratuzilmaviy va mikrotuzilmaviy tendensiyalarni oshkor qildi.

Asosiy infratuzilmaviy o‘zgarishlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- hosila moliyaviy vositalar savdosi amalga oshiriladigan birjalar o‘z faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun menejmentga asosiy e’tiborni qaratishi, natijada faoliyatining samaradorligini ko‘payishi, vositachilik (komission) xarajatlarning kamayishi, xizmat turlarining ko‘payishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etilishi hisobiga ularning raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan tijoratning kengayishi;
- birjalar biznesini mustahkamlash va birlashtirish jarayonlarining kuchayishi. Ushbu jarayonlarning bir qismi sifatida birjalar bozorda o‘z raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xarajatlarini qisqartirishga majbur bo‘lishdi;
- birjalar savdosining avtomatlashuvi. Birjalarning derivativlar savdosini avtomatlashtirishga o‘tishi bitimlarni tuzish jarayonini tezlashishiga, bu o‘z navbatida bozor likvidligi va savdolar hajmining oshishiga olib keldi. Lekin boshqa tomondan avtomatlashtirish oqibatida yashirin tizimli risklarning to‘planishi sodir bo‘ldi;
- birjalarning universallashuvi. Birjalar bir nechta moliyaviy vositalar savdosini bir vaqtda bir necha segmentda tashkil etishi bu tendensiyaning mohiyatini yoritadi. Bu quyidagilarga imkon beradi:
  - moliya bozorining kelajakda rivojlanishining yagona birdamlikdagi strategiyasini rejalashtirish;
  - insayderlik ma’lumotlaridan foydalanish va naxrlar manipulyatsiyasi bilan bog‘liq moliyaviy vositalar ustida tuzilgan bitimlar monitoringini olib borish;

o moliya bozorining turli segmentlari bo‘yicha birja risklarini teng taqsimlash.

Hosila moliyaviy vositalar bozorini tarkibiy o‘zgarishiga tegishli mikrotuzilmaviy o‘zgarishlar tadqiqot natijalari orqali quyidagilarda ko‘rinadi:

- jahon moliya bozorida tebranishlarning ortishi bazis aktivlar bozoridagi pozitsiyalarni sug‘urtalash zaruratini yuzaga keltirdi va bu o‘z navbatida derivativlar bozoriga qiziqishni ko‘paytirdi;

- defoltdan sug‘urtalash (defolt svoplar), shuningdek, foiz derivativlar savdo hajmining tez o‘sishi, birinchidan foiz stavkalar darajasining tez o‘zgarishini, ikkinchidan esa jahonda moliyaviy holatning yomonlashuvi oqibatida yoppasiga defoltlarni sodir bo‘lishini hosila moliyaviy vositalar bozorining ko‘plab ishtirokchilari tomonidan kutilishi bilan bog‘liqdir.

Bozor strukturasini shakllanib borishi bilan derivativlar uyushgan birja bozorlarida, shuningdek, birjadan tashqari bozorlarda ham oldi-sotdi qilib bormoqda. Birjadan tashqari derivativlar bozoridagi shartnomalar bozor ishtirokchilari o‘rtasida turli vositachilarsiz amalga oshiriladi, shuning uchun ham derivativlarning birja bozori ularning birjadan tashqari bozordan bir necha barobar kichikdir.

Moliyaviy derivativlar bozorining shakllanishi birjadan tashqari shakllarni dastlabki yuzaga kelish va birja savdosining keyinchalik kengayishi bilan bog‘liqdir. Birjadan tashqari shartnomalar standartlashgan birja shartnomalariga qaraganda ma’lum ustuvorlikka ega. Ular shartnomali, egiluvchan, mijozga qaratilgan bo‘lib oson amalga oshiriladi.

Moliyaviy innovatsiyalarning jadal rivojlanishiga asosiy sabab o‘tgan asrning 70–80- yillarida foiz stavkalar va valyuta kurslari tebranishi hamda inflyatsiya sur’atlarining tez oshib borishi bo‘lib hisoblanadi. Bunday sharoitda bozordagi risklarni xedjerlash imkonini beruvchi samarali vositalarga bo‘lgan talab ortdi va natijada ushbu muammoni bartaraf etuvchi yangi moliyaviy texnologiyalar, vositalar jadal rivojlandi. Moliya bozorlarida tuzilgan barcha turdagi birjadan tashqari derivativ shartnomalarning jami nominal qiymati Xalqaro

hisob-kitoblar banki ma’lumotlariga ko‘ra so‘nggi o‘n yil davomida moliyaviy derivativlarning jahon bozori hajmi qariyb 6 barobarga ko‘payib, 650 trln. AQSh dollaridan ortib ketgan. Jami moliyaviy derivativlarning qariyb 75%dan ortig‘i foiz stavkasi uchun bitimlarga to‘g‘ri keladi. Foiz stavkasi uchun bitimlarning asosiy qismini (qariyb 80%) foiz stavkasini svoplar tashkil etadi.

Valyuta derivativlari asosan valyuta svoplari, forvardlar va ularning kombinatsion ko‘rinishlarida birjadan tashqarida aylanadi.

Birjadan tashqari muddatli bozorda juda ko‘p hosila instrumentlar aylanadi, jumladan forvardli shartnomalar, opsionlar, varrantlar, svoplar, foizli stavkalar bo‘yicha ko‘p sonli shartnomalar. Shartnomalarni tuzish muddatiga qarab birjadan tashqaridagi bozor asosan qisqa va o‘rta muddatli bo‘ladi. Biroq uzoq muddatli shartnoma tuzish ham mumkin.

Birjadan tashqari bozornining birja bozoriga nisbatan jadal sur’atlar bilan o‘sib borishi bir qator sabablar bilan izohlanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– foiz stavkalari va valyuta kurslarining beqarorligi kuchayishidan xedjerlash instrumentlariga bo‘lgan talabning oshishi;

– risklarni minimallashtirish va defersifikatsiyalash vositalariga bo‘lgan talabning oshishi;

– foiz stavkalari va valyuta kurslaridagi farqlar tufayli daromad olish imkonini beruvchi spekulyativ vositalarga bo‘lgan talabni oshishi;

– birjadan tashqari bozorda yangi texnologiyalarni kiritilishi tufayli zararlarni qisqarishi;

– yangi operatsiyalarga bank tomonidan bo‘lgan talabning oshishi;

– xalqaro moliyaviy bozorlarni tartibga solinishi va erkinlashuvi.

Birja bozorida standartlashgan, asosan qisqa muddatli, fyuchersli va opsion bitimlar aylanadi. Birja savdosining asosiy qismi (3\4gacha) bosh xalqaro moliyaviy markazlar, yetakchi jahon fond birjalariga to‘g‘ri keladi.

Derivativlarni an’anaviy tovar birjalari, faqat fyuchers va opsion bilan savdo qiluvchi fond birjalari va muayyan shartnomalar bilan savdo qiluvchi ixtisoslangan birjalar oldi-sotdi qiladilar. Opsionlar Chikago

opsion birjasida, Yevropa opsion birjasida, London opsion bozorida, Parij opsion bozorida va boshqa bozorlarda sotiladi. Faqat fyucherslar bilan savdo qiladigan birjalar mavjud – bu Nyu-York fyuchers birjasi, Sidney moliyaviy fyucherslar birjasi va boshqalar.

Ba’zi bir birjalar o‘z operatsiyalarini bir xil shartnomalar bo‘yicha birlashtirganlar. Masalan, Chikago tovar birjasi va Singapur xalqaro valyuta birjasi 1984- yilda bir xil bo‘lgan fyuchers shartnomasi asosida o‘zaro ofset bitimlar tizimini tashkil qildilar. Bu esa, har ikki birjada savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan ishtirokchilarga turli savdo sessiyalar davomida bir birjada pozitsiyani ochishga va shu pozitsiyani boshqa birjada yopishga imkon berdi. 1997- yildan boshlab, derivativlar bilan savdo qiluvchi birjalarning elektron tizimli savdolar birlashmasi oldin Parij, Frankfurt va Syurixda, keyin esa London va Frankfurt fond birjalarida rivojlana boshladi. Bu esa bir birja a’zosini boshqa birjalar ishida ham ishtirok etishiga va ularning moliyaviy mahsulotlari bilan operatsiya o‘tkazishiga imkon berdi.

Derivativlarning global bozori AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘sishi, moliyaviy erkinlashtirish va globallashtirish natijasida kengaydi. Institutsional investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni to‘planishi derivativlar bozori kengayishining asosiy omili bo‘ldi. Texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bitimlar tuzilishini oddiylashtirdi va arzonlashtirdi, moliyaviy bozor likvidligini o‘stirdi, investitsion portfellarni tez-tez ko‘rib chiqishga olib keldi, operatsiyalar hajmini ko‘paytirdi.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliyaviy derivativlar, bazis aktivlari, forvard, fyuchers, opsion, svop, moliya injiniringi, moliyaviy innovatsiyalar, aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlar, kredit derivativlari, konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, depozitar tilxatlar, REPO, kredit notalari, kredit defolt svopi, foiz derivativlari, foiz svopi, foiz kafolatlari, “shift” va “pol” shaklidagi opsionlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy derivativlar mohiyati va ularga xos xususiyatlarni aytib bering?
2. Hosila moliyaviy vositalarning asosiy bazis aktivlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Derivativlarning rivojlanish bosqichlarini gapirib bering?
4. Hosila moliyaviy vositalarning qanday asosiy turlari bor?
5. Forvard qanday shartnoma va undan foydalanishning ahamiyati?
6. Fyuchers qanday qimmatli qog‘oz va u to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
7. Opsion qanday bitim, uning qanday asosiy turlari bor?
8. Svop operatsiyalari qanday amalga oshiriladi?
9. Moliya injiniringi mahsulotlari, moliyaviy innovatsiyalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
10. Aktivlar bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlarning qanday turlarini bilasiz?
11. Kredit derivativlarining mohiyatini aytib bering?
12. Konvertirlanadigan qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
13. Amerika va global depozitar tilxatlar to‘g‘risida aytib bering?
14. REPO qanday operatsiya uni amalga oshirish tartibi?
15. Mamlakatimizda iqtisodiyotida ruxsat etilgan hosila moliyaviy vositalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
16. Kredit defolt svopi nima maqsadda ishlatilishi to‘g‘risida aytib bering?
17. Foiz derivativlarining tasnifi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
18. Foiz svopining iqtisodiy ahamiyati qanday?
19. Turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkalar qanday almashtiriladi?
20. Bir valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkasini suzib yuruvchi foiz stavkasiga qanday almashtiriladi?

21. Turli valyutalardagi fiksirlangan foiz stavkasini suzib yuruvchi foiz stavkasiga qanday almashtiriladi?

22. Bir valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalarini qanday o‘zaro almashtirish mumkin?

23. Turli valyutalardagi suzib yuruvchi foiz stavkalarni qanday almashtirish mumkin. Almashinuvi

24. Foiz kafolatlari, “shift” va “pol” shaklidagi shartnomalar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

25. Hosilaviy moliya instrumentlarining global bozori rivojlanish holati to‘g‘risida aytib bering?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Moliyaviy derivativlarda qo‘llaniladigan kurslarni hisoblash formulalarini topib, o‘zaro qiyoslang va umumiy qonuniyatlarni aniqlang?

2. Moliyaviy derivativlarning umumiylikdan xususiylikka tomon yo‘nalish bo‘yicha klasterini tuzing?

3. Moliyaviy derivativlarning foydalanish maqsadlarini baliq skeletiga o‘xshatib tasvirlang.

4. Djon K. Xallning “Опционы, фюьчерсы и другие производные финансовые инструменты” (Options, futures, and other derivatives/ M.:Vilyams, 2013. 1072 s.) kitobidan moliyaviy derivativlarni baholash usullarini chuqur tahlil qiling va derivativlarga xos grafiklarni tasvirlang.

5. Moliyaviy derivativlarning har bir turi bo‘yicha shartnoma yoki qimmatli qog‘oz shakllari o‘z bilimingiz asosida tuzing va belgilangan standart shakllar bilan ularni taqqoslang.

Test savollari

1. Forfard shartnomasidagi uzun va qisqa pozitsiyalar o‘rtasidagi farq nima?

a) Bazis aktivlarni sotib oluvchi uzun pozitsiyaga, sotuvchi qisqa pozitsiyaga ega bo‘ladi;

b) Bazis aktivlarni sotuvchi uzun pozitsiyaga, sotib oluvchi qisqa pozitsiyaga ega bo‘ladi;

d) Bunday pozitsiyalar mavjud emas;

e|) Talablar qisqa, majburiyatlar esa uzun pozitsiya.

2. Keltirilgan izohlarga mos ketma-ketlikdagi javobni tanlang: 1) riskni kamaytirish; 2) bozordagi narxning kelajakdagi o‘zgarishlari bashoratidan foyda olish; 3) ikki yoki bir necha moliyaviy vositalardan foydalangan holda bir turdagi aktivlarni ham sotish, ham sotib olish orqali foyda olish.

a) xedjerlash, spekulyatsiya, arbitraj;

b) spekulyatsiya, xedjerlash, arbitraj;

d) arbitraj, xedjerlash, spekulyatsiya;

e) xedjerlash, arbitraj, spekulyatsiya.

3. Ijro bahosi 50 AQSh dollarlik uzun pozitsiyali forvard shartnomasidan ijro bahosi shunday bo‘lgan uzun pozitsiyali “koll” opsion o‘rtasida qanday farq bor?

a) forvard shartnomasini amalga oshirish majburiy, opsion shartnomasida esa ixtiyoriy, ya’ni xaridorga huquq bor;

b) forvard shartnomasining mazkur holati sotib oluvchi tomonidan, “koll” opsion shartnomasidagi uzun pozitsiya esa sotuvchi tomonidan shakllantirilgan;

d) har ikkalasida ham uzun pozitsiya bo‘lgani uchun hech qanday farq yo‘q;

e) ijro bahosi bo‘yicha xaridor aktivlarni forvard shartnomasi bo‘yicha sotishga, “koll” opsion bo‘yicha sotib olishga majbur.

4. “Koll” va “put” opsion bitimlari o‘rtasidagi farq to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

a) o‘z egasiga bazisidagi aktivlarni belgilangan narx bo‘yicha sotib olish huquqini “koll” opsion taqdim etadi, sotish huquqini esa “put” opsion beradi;

b) o‘z egasiga bazisidagi aktivlarni belgilangan narx bo‘yicha sotib olish majburiyatini “koll” opsion taqdim etadi, sotish majburiyatini esa “put” opsion beradi;

d) aktivlar narxi tushayotganda bozorda “koll” opsion ko‘payadi, aksincha esa “put” opsion;

e) “Koll” opsion faqat Yevropada, “Put” opsion esa Amerikada foydalaniladi.

5. Savdogar forvard shartnomasi bo‘yicha 100 ming funt sterlingni 1GBP = 1,500USD valyuta kursi bo‘yicha sotishda qisqa pozitsiyaga ega. Shartnomaning ijro etish paytida valyutalarni ayirboshlash kursi 1) 1,490 2) 1,520 ga teng bo‘lsa savdogarning foydasini aniqlang:

a) $1000 foyda va $2000 zarar;

b) $500 foyda va $1500 zarar;

d) $7500 foyda va $10000 zarar;

e) $1500 foyda va $3000 zarar.

6. Savdogar fyuchers shartnomasi bo‘yicha 50 ming to‘p gazlamani oldingan kelishilgan 1 to‘p gazlama = 100 USD bo‘yicha sotishda qisqa pozitsiyaga ega. Shartnomaning ijro etish paytida 1 to‘p gazlamaning narxi 1) $95 2) $103 ga teng bo‘lsa savdogarning foydasini aniqlang:

a) $250000 foyda va $150000 zarar;

b) $500000 foyda va $550000 zarar;

d) $150000 foyda va $100000 zarar;

e) $900000 foyda va $750000 zarar.

7. Siz “Maxwell” kompaniyasining 100 dona aksiyasini 40 AQSh dollaridan sotishga amerikacha uch oylik opsion shartnomasini imzoladingiz. Ushbu aksiyalarning 1 donasini birjadagi joriy narxi 41 AQSh dollariga teng. Ushbu holatda siz qanday ish yuritar edingiz, o‘zingiz ko‘rishingiz mumkin bo‘lgan foyda va zararingizni aniqlang:

a) bitimni amalga oshirmasdim, chunki $100 zarar ko‘raman;

b) shartnoma shartlariga ko‘ra bitimni $100 zarar bilan bo‘lsa ham amalga oshirishga majburman;

d) opsionni amalga oshirardim, chunki $100 foyda ko‘raman;

e) ayni paytda xech qanday foyda yoki zarar to‘g‘risida gapirib bo‘lmaydi, chunki shartnoma oldindan belgilangan ayni bir sanada amalga oshiriladi. U sanadagi ma’lumotlar masala shartida keltirilmagan.

8. Faraz qilaylik, ayni paytda oltinning 1 unsiyasini bahosi 500 AQSh dollari. Bugungi sharoit bo‘yicha oltinni 1 yildan keyin yetkazib berish bo‘yicha hisoblangan forvard kursi 700 AQSh dollariga teng. Arbitrajyor yillik 10%li kredit olib, ushbu shartlar asosida foyda olishi mumkinmi?

a) mumkin, 30% yoki unsiyasiga 150 dollardan foyda oladi;

b) mumkin emas, chunki kredit foiz stavkasi forvard kursiga nisbatan qimmat;

d) mumkin, 10% yoki unsiyasiga 50 dollardan foyda oladi;

e) mumkin emas, chunki forvard kursi har kuni hisoblanganligi uchun pasayib ketishi mumkin.

9. Tasavvur qiling, ma’lum bir kompaniyaning aksiyasini narxini har 20 kunda 5%ga oshadi deb bashorat qildingiz. Aksiyaning joriy narxi $29, uch oylik “koll” opsionning ijro narxi $30 bo‘lib, u bozorda $2,9dan sotilmoqda. Ushbu holatda opsionni sotib olish foydalimi?

a) Foydali, siz opsionni sotib olish natijasida $0,7 foyda qilasiz;

b) Foydali, siz opsionni sotib olish natijasida $0,5 foyda qilasiz;

d) Foydasiz, siz opsionni sotib olish natijasida $1zarar qilasiz;

e) Foydasiz, siz opsionni sotib olish natijasida $2,45zarar qilasiz.

10. “MAXI” Shveytsariya kompaniyasining aksiyasini narxi 500 Shveytsariya frankiga teng. Xususiy investor Jek ushbu kompaniyaning bankrotga uchrashi to‘g‘risidagi maxfiy axborotga ega bo‘ldi va aksiyasini narxi tushadi degan xulosaga kelib, kompaniya aksiyalaridan tashkil topgan va ijro bahosi 450 Shveytsariya frankli muddati 3 oy bo‘lgan 250 ta put opsionni 30 frankdan (premiya (mukofot)) sotib oldi. Agar 3 oydan keyin aksiya bahosi: 1) 400 CHF; 2) 500 CHF; 3) 600 CHF bo‘lsa, har bir holat uchun Jekning foyda zararlarini aniqlang.

a) narx 400 CHF bo‘lganda Jek 5000 CHF foyda oladi, qolgan holatlarda esa 7500 CHF zarar qiladi;

b) har bir holatda 7500 CHF zarar qiladi, foyda nolga teng bo‘ladi;

d) narx 400 CHF bo‘lganda Jek 20 CHF foyda oladi, qolgan holatlarda esa 30 CHF zarar qiladi;

e) har bir holatda 30 CHF zarar qiladi, foyda nolga teng bo‘ladi.

10-BOB. YEVROBOZORLARNING YUZAGA KELISHI VA ULARDAGI OPERATSIYALAR

10.1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar
10.2. Yevrokredit bozori
10.3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog‘ozlar bozori
10.4. Yevroobligatsiyalar muomalasi

10.1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar

Jahon ssuda kapitallar bozori ikkita o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq asosiy sektorga ajraladi va uning tarkibida yevrobozor yetakchilik qiladi (10.1- rasmga qarang).

Birinchi sektor asosan yirik banklar o‘rtasidagi qisqa muddatli 1 kundan 1 yilgacha bo‘lgan depozit-kredit operatsiyalarni qamrab olgan **jahon pul bozori** hisoblanadi. Iqtisodiyot tarixida pul bozori veksel bozori bilan birgalikda Londonda paydo bo‘lganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bugungi kunda zamonaviy pul bozori deganda banklar tomonidan birinchi darajali qarzdorlarga beriladigan yuqori likvidli blankali, talab qilib olinguncha kreditlar bozori tushiniladi.

Jahon ssuda kapitallari bozorining ikkinchi sektori kapital bozori hisoblanib, uni ikkita asosiy segmentga ajratish mumkin. Birinchisi an’anaviy o‘rta va uzoq muddatli xorijiy kreditlar va ikkinchisi 1968- yilda shakllana boshlagan, 1 yildan 15 yilgacha va undan ortiq muddatlardagi kreditlar bozorini o‘zida mujassamlashtirgan yevrokredit bozori hisoblanadi.

Xalqaro ssuda kapitallari bozorida yevrobozor muhim rol o‘ynaydi. Yevrobozorning rivojlanishi va jahon moliyaviy integratsiyasi jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi elementlardan sanaladi. Jahon bo‘ylab moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash imkonini beradi, tashqi to‘lovlar muvozanati buzilganda yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi, iqtisodiy agentlarga risklardan himoyalanish uchun muhim vositalarni taqdim etadi. Umuman olganda ushbu bozor moliya bozorida raqobatni

kuchaytirib, moliya-kredit muassasalarining ko‘rsatadigan xizmatlari qiymatini kamaytirishiga turtki beradi.



10.1-rasm. **Jahon ssuda kapitallari bozori**

Yevrobozorning rivojlanishi jahon bo‘yicha moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab va taklif nisbatini erkin ta’minlanishiga sharoit yaratib beradi. Ushbu bozor korxona va tashkilotlarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini bir mamlakat ichidagi, ya’ni juda kam imkoniyatlar mavjud bo‘lgan va nisbatan qattiq tartibga solinadigan kapital bozoridan emas, balki turli qiyinchiliklar yoki turli murakkabliklardan ancha holi bo‘lgan, erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qiladigan bozor – yevrobozordan qondirishi mumkin.

Yevrobozor – xalqaro va milliy moliya bozorining bir qismi bo‘lib, unda kreditlar va qarzlar bo‘yicha operatsiyalar yevrovalyutalarda amalga oshiriladi. Yevrovalyutalar bozori o‘z ichiga banklararo bitimlarni va bankning mijozi bo‘lmagan shaxslar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni ham qamrab oladi. Yevrovalyutalar bozorining asosiy xususiyati undagi foiz stavkalar jahonda yetakchi moliyaviy markazlarning banklararo foiz stavkalari asosida shakllangan bo‘ladi. Odatda bu London banklararo foiz stavkasi hisoblanadi. 1950- yillar oxirida yevrovalyuta bozori shakllana boshlagan.

Yevrovalyuta bu mamlakatdan tashqaridagi kredit muassasalariga qo‘yilgan va ushbu mamlakatni huquqni va iqtisodiyotni tartibga soluvchi organlari nazoratidan chetda bo‘lgan ixtiyoriy shakldagi pul birliklari hisoblanadi. Yevrovalyutadagi “Yevro” so‘zi jahondagi ixtiyoriy erkin ayirboshlanadigan valyutalarga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, AQShda yapon iyenasi “yevroiyena” hisoblanadi. Yevrovalyutada, ya’ni mamlakat uchun xorijiy valyutada beriladigan xalqaro bank kreditlarining qariyb 50%dan ortiq qismi AQSh dollarida ajratiladi.

Dastlab, yevrodollar deganda AQShdan tashqarida Yevropa banklariga chet ellik fuqarolar tomonidan qo‘yilgan dollarlar tushunilgan. XIX asrning oxirlarigacha, ya’ni Yevropa banklari tomonidan 3 oylik veksellar depozitlar orqali to‘lash yo‘lga qo‘yilishiga qadar AQShdan tashqarida dollarda qo‘yilgan depozitlar amaliyotda ko‘plab uchragan. Hozirgi kundagi yevrodollar bozorining avvalgi yevrodollar bozoridan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xalqaro foiz stavkalarining mavjudligi;
- bozor ishtirokchilari soni va operatsiyalarining ko‘pligi;
- AQShdan tashqarida dollardagi depozitlarning kamayishi.

Dastlabki yevrodollarlar, 1950- yillarning oxirida xalqaro banklararo vakillik munosabatlari negizida paydo bo‘lgan. Agar AQSh dollaridagi depozit egasi o‘z depozitini Amerika bankidan xorijiy bankka o‘tkazsa, amaliyotda yevrodollarlar paydo bo‘lgan. AQSh dollarining yevrodollarga aylanish xususiyati xorijiy banklarga qo‘yilgan AQSh dollaridagi depozitlardan AQShdan boshqa barcha mamlakatlarda kredit resursi sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. 1960- yillardan boshlab yevrovalyuta bozori o‘z tarkibiga AQSh dollaridan tashqari jahon iqtisodiyotida yetakchi bo‘lgan mamlakatlarning valyutalarini ham ola boshladi.

Yevrovalyuta bozori quyidagi omillar asosida rivojlangan:

– tashqi iqtisodiy faoliyatda xalqaro valyuta-kredit xizmatlarini ko‘rsatish turlarini oshirishga bo‘lgan ehtiyoj;

– 1950–1960- yillarda jahondagi yetakchi valyutalar erkin konvertatsiyasining amaliyotga joriy etilishi;

– mamlakatlar milliy qonunchiligining erkinlashtirilishi hisobiga mahalliy banklar va firmalar foyda olish maqsadida o‘z mablag‘larini xorijiy banklarga joylashtirishlarini rag‘batlantirish.

AQShda 1957- yilda foiz stavkalarning tushishi hisobiga talab qilib olinguncha va 30 kunlik depozitlar bo‘yicha foizlarni to‘lashni to‘xtatilishi natijasida, ko‘plab investorlar o‘zlarining AQSh dollaridagi mablag‘larini xorijiy mamlakatlar banklariga joylashtirishni afzal bilishdi. Bu esa, o‘z navbatida yevrodollarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. 1981- yilda Nyu-Yorkda erkin bank zonasini tashkil etilishi, ya’ni norezidentlar bilan bank operatsiyalari rejimi yoki tartibi yevrovalyuta bitimlarini amalga oshirish tartibi bilan qariyb bir xil bo‘lgan rejimning paydo bo‘lishi hisobiga yevrodollar bozori tarkibiga AQSh ham qo‘shildi. “Yevrovalyuta” atamasi Osiyo mintaqasida foydalaniladigan AQSh dollarlari (Osiyo dollari), Arab mamlakatlarida ishlatiladigan AQSh dollarlari (arab mamlakatlari dollari), neft mahsulotlari savdosida foydalaniladigan AQSh dollarlari (neft dollarlari)ga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Yevrobozor ma’lum bir davlat bozori maqomiga ega emas. Shuning uchun, mazkur bozordagi operatsiyalar ma’lum bir davlatning soliq yoki valyutani tartibga solish tizimi ostida amalga oshirilmaydi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘plab moliya-kredit tashkilotlarini o‘zida mujassamlashtirgan bir qator xalqaro moliyaviy markazlar mavjud bo‘lib, ular yetakchi sanoatlashgan mamlakatlarda faoliyat yuritib, takomillashib kelmoqda. Ayni paytda bunday xalqaro moliyaviy markazlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ham shakllanmoqda.

Hozirgi kunda jahon yevrobozorining asosini Nyu-York, London, Syurix, Frankfurt-na-Mayn, Tokio, Singapur, Syangan shaharlari tashkil etmoqda. 1980- yillarda Bagama orollari, Panama, Baxrayn kabi yangi moliyaviy markazlar ham jahon iqtisodiyotida shakllana boshladi.

Ushbu bozorlaning hududiy va milliy bozorlardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ularda xalqaro hisob-kitob birliklari (xususan SDR, yevro, AQSh dollari) va erkin ayirboshlanadigan valyutalarda yirik miqdordagi moliyaviy resurslar aylanmasi amalga oshiriladi. Yevrovalyuta bozorida

foydalaniladigan AQSh dollarining bozor savdo aylanmasidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo‘lsa ham, amalga oshiriladigan operatsiyalarda u yetakchilik qilib kelmoqda. Yevrobozordagi operatsiyalarda yevro, yevroshvetsariya franki, yevrofunt sterling va boshqa yetakchi valyutalarning ulushi ko‘payib bormoqda;

- valyuta-kredit operatsiyalarining universallashuvi sodir bo‘ladi. Ushbu bozorda nafaqat kredit, balki valyuta va turli kafolatlar bo‘yicha operatsiyalar sug‘urta xizmatlari hamda qimmatli qog‘ozlar bozori bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshiriladi;

- ularda eng ilg‘or va zamonaviy aloqa hamda kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi. Yevrobozordagi bitimlar eng zamonaviy texnologiyalar, internet, telefon, telefaks va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi va mazkur bitimlarni asosiy hujjat sifatida qayd etish ham mumkin. Bu kabi bitimlarni amalga oshirishda kafolatni kontragent bankining maqomi, bozordagi o‘rni, obro‘si yoki tomonlarning xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting (AAA) ko‘rsatkichlari beradi. Bugungi kundagi internet-banking elektron texnologiyasi mijozlarga bankning masofaviy xizmat ko‘rsatish rejimidagi maxsus terminallari yordamida yer sharining istalgan nuqtasida joylashgan mijoz bilan turli bitimlarni tuzish imkonini beradi, ya’ni:

- kichik va o‘rta darajadagi qarz oluvchilarning ushbu bozorda ishtiroki cheklangan;

- kuchli tarkibiy tuzulmaga ega (jahonning 500ga eng yirik banklari ushbu bozordagi operatsiyalar bilan shug‘ullanadi). Yevrobozorning institutsional asosini ko‘plab mamlakatlarda o‘zining filiallari bilan turli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi transmilliy banklar (TMB) tashkil etadi.

- yevrovalyutadagi operatsiyalarning milliy valyutadagi operatsiyalarga nisbatan daromadliligining yuqoriligi. Xususan, turli davlatlar bilan taqqoslanganda yevrodepozitlar bo‘yicha foiz stavkalar yuqori, yevrokreditlar bo‘yicha foiz stavkalar esa past bo‘ladi. Chunki, yevrodepozitlar bo‘yicha ma’lum bir Markaziy bankda majburiy

zaxiralash tizimi amalga oshirilmaydi, depozit bo‘yicha foiz to‘lovlariga daromad solig‘i solinmaydi.

Yevrobozordagi operatsiyalarning bir qator turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Xususan:

- kreditlarni taqdim etish;
- qisqa muddatli bitimlar;
- yevroobligatsiyalarni chiqarish.

Yevrobozor davlatlarning tashqi defitsitlarini moliyalashtirishga va ulardagi ortiqcha kapital chiqib ketish jarayoniga ko‘mak beradi. Jahon iqtisodiyoti uchun ushbu bozorning afzalligi moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlashda siyosiy jihatdan betaraf ekanidir.

10.2. Yevrokredit bozori

Yevrokreditlarning asosiy qismini xalqaro bank sindikatlari taqdim etishadi. Shuning uchun, yevrokreditlarni berish mexanizmini sindikatlashgan kreditlar misolida ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Yevrobozordagi kredit operatsiyalari 1 mln. AQSh dollaridan bir necha yuz mln. AQSh dollari hajmida amalga oshiriladi. Shuningdek, bunda kreditlar garov bilan ta’minlanmasdan va foydalanish maqsadi aniq ko‘rsatilmagan holda ham berilishi mumkin.

Yevrokredit bozoridagi foiz stavkalarni turli davlatlarning foiz stavkalariga nisbatan erkin shakllanishi yevrobozorga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Xalqaro foiz stavkalar odatda kredit liniyasi bo‘yicha kreditlash limiti ochilayotganda olinadi. Yevrovalyuta bozorida kredit foiz stavkalari asosan LIBOR (LIBOR - qisqa muddatli (odatda 6 oylik) yevrovalyutalar (asosan AQSh dollari) bo‘yicha London banklararo mablag‘lar taklifi stavkasi)ga o‘zgarmas kattalikdagi foiz stavkasi (spred (spread) – bank xizmatlari uchun ustama)ni qo‘shish orqali aniqlanadi. Yevrokreditlar bo‘yicha spred darajasi odatda ¾%dan 3%gacha bo‘lib, uning miqdori kreditga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro nisbatiga, kredit muddatiga, mijozning kredit bo‘yicha to‘lovga qobilligiga, kredit riskiga bog‘liq. Umuman olganda, yevrokreditlar

bo‘yicha foiz stavka bazaviy (asosiy (LIBOR)) stavkaga spredni ko‘shish orqali aniqlanadi.

Yevrobozordagi depozitlarning foiz stavkasi London banklariaro qisqa muddatli depozitlarning foiz stavkasi LIBID (LIBID) orqali aniqlanadi.

Yevrobozordagi foiz stavkalari milliy bozorlardagi foiz stavkalariga nisbatan mustaqil bo‘lishlariga qaramasdan, ular bilan o‘zaro bir-biriga bog‘liq holda shakllanadi. Shuningdek, xalqaro foiz stavkalari ham milliy foiz stavkalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin, ya’ni ular o‘zaro bir-biriga aks ta’sirga ega. Jahon ssuda kapitallari bozoridagi foiz stavkalar milliy foiz stavkalarni o‘zaro bir-biri bilan muvofiqligini ta’minlashga xizmat qiladi, ya’ni xalqaro foiz stavkalarining tebranish doirasi bo‘yicha milliy foiz stavkalari ham o‘zgarib boradi. Yevrobozordagi foiz stavkalar muddati, valyuta turi va boshqa jihatlar bo‘yicha diversifikatsiyalashgan. 1960- yillardan boshlab jahon bozorida kredit va depozitlar bahosini aniqlashda bozor konyunkturasiga mos ravishda o‘zgaruvchi suzuvchi foiz stavkalar asosiy rol o‘ynamoqda.

Yevrokreditlarning shakllari. Yevrokreditlar yevrovalyutada odatda 10 oydan 12 yilgacha (o‘rtacha 7 yilga) va asosan 100 mln. AQSh dollaridan 500 mln. AQSh dollari miqdorida beriladi. Yevrokreditlar bo‘yicha foiz stavkalari suzuvchi bo‘lib, doimo xalqaro foiz stavkalari (LIBOR, PIBOR, FIBOR) asosida ko‘rib chiqiladi. Yevrobanklar yevrokreditga xizmat ko‘rsatgani, ishtirok etgani va ushbu jarayonni boshqargani uchun komisson to‘lovlar oladi yoki kredit foiziga bank o‘z spredini qo‘shadi. Yevrokreditlarni olish juda qulay va tez amalga oshiriladi hamda ushbu kreditlarni uzoq muddat davomida so‘ndirishga imkon beriladi. Yevrobanklar mijozning to‘lov va kreditni qaytarish qobiliyatini, kredit tarixini o‘rgangan holda turli shakldagi muzokaralar natijasida ssuda shartlari to‘g‘risidagi yozma shartnoma asosida o‘z mijoziga yevrokreditlarni taqdim etishadi. Foiz stavkaning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni oldini olish maqsadida banklar qisqa muddatli yevrokreditlar bozorida turli ko‘rinishdagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradilar. O‘rta va uzoq muddatli

yevrokreditlar odatda stend-bay va qayta yangilanish (rollover) shartlari asosida taqdim etiladi.

Birinchi holatda bank qarz oluvchiga shartnomada kelishilgan summani turli qisqa (3, 6, 9, 12 oylik) muddatlar bo‘yicha alohida-alohida taqdim etish majburiyatini oladi. Shartnomada belgilangan har bir muddat bo‘yicha kredit foizi ham alohida-alohida, yevrovalyuta bozoridagi asosiy suzuvchi foiz stavkalar (masalan LIBOR)ning o‘zgarishini inobatga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Bu esa, yevrobanklarga o‘rta va uzoq muddatli kreditlarni qisqa muddatli resurslardan foydalangan holda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi holatda, rollover yevrokreditlar turli shartlar asosida berilishi mumkin. Xususan:

1. Yevrobank bitim tuzilgandan so‘ng, investitsion loyihani kreditlash uchun mo‘ljallangan barcha summani darhol bir martalik to‘lov orqali yoki ma’lum bir muddatdan keyin berishi, shuningdek, kreditni so‘ndirish tartibi ham bir martalik to‘lov hisobiga yoki qisman, alohida to‘lovlar rejasi orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Amaliyotda keng tarqalgan rollover kredit turlaridan biri bu – kreditning ma’lum bir oraliq muddati davomida mijozning maksimal olishi mumkin bo‘lgan kredit miqdorini nazarda tutadi. Bunday kreditni so‘ndirish tartibi bir martalik yoki qisman to‘lovlar orqali amalga oshiriladi.

3. Kredit shartnomasida ssuda hajmi va uning foiz stavkasini kreditning umumiy muddati davomida har chorakda, yarim yilda yoki bir yilda bir marta va h.k. oraliq muddatlarda qayta ko‘rib chiqish tartibi yoki sanasi belgilab qo‘yiladi.

4. Rollover kreditning maxsus turlaridan biri bu – qarz oluvchiga kelishilgan ma’lum muddat davomida oldindan belgilangan shartlar asosida zarur bo‘lganda yevrobankdan kredit olish huquqini beradi.

Rollover kreditlarning shakli va shartlari turlicha bo‘lsada, ular uchun ham ba’zi bir elementlar majburiy hisoblanadi. Xususan, tomonlarning faoliyat tavsifi, kreditning summasi, maqsadi va to‘lov valyutasi, so‘ndirish muddati va tartibi, qiymati, kafolati va boshqalar.

Yevrodepozitlarni muddati 1 kundan 1 yilgacha, ba’zan 5 yilgacha cho‘zilishi mumkin, odatda ularning muddati 6 oy bo‘ladi. Mazkur bozorda banklararo depozitlarning o‘rtacha summasi 5-10 mln. AQSh dollarini, ba’zan esa undan bir necha marta katta miqdorni tashkil etadi.

10.3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog‘ozlar bozori

Jahon ssuda kapitallari bozori faoliyati qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va oldi-sotdisi amalga oshiriladigan jahon fond bozori bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu bog‘liqlik aktivlar sekyuritizatsiyasi (inglizcha securities – qimmatli qog‘ozlar), xususan bank kreditlari bilan ta’minlangan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish jarayoni va hosila moliyaviy vositalar yangicha turlarini amaliyotda ko‘payishi bilan kuchayib bormoqda. Aktivlar sekyuritizatsiyasiga asoslangan qimmatli qog‘ozlar bankdan qarzdorning kreditni so‘ndirish uchun to‘lagan mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Jahonda qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozorida yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning savdosi, ya’ni bunda emitent va investor o‘rtasida o‘zaro oldi-sotdi operatsiyasi amalga oshiriladi.



10.2-rasm. **Jahon qimmatli qog‘ozlar bozori tarkibiy tuzilishi**

Ikkilamchi bozorda avval chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar oldingi xaridor va yangi investor o‘rtasida, ya’ni investorlar o‘rtasida savdo

qilinadi. Bugungi kunda hosila moliyaviy vositalar bozori ham jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Yevromoliyaviy bozorda nominali yevrovalyuta, masalan AQSh dollari, yevro yoki Yaponiya iyenasi bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi qilinadi.

Yevroqimmatli qog‘ozlar (euro-securities) bu erkin muomalada bo‘luvchi (transferable securities), sindikat anderrayterlar yoki turli mamlakatlardan bo‘lgan ikki ishtirokchi orqali joylashtiriladigan, ularni bir yoki undan ortiq mamlakatlarga sotish rejalashtirilgan, faqat moliya-kredit tashkilotlari orqali ega bo‘lish mumkin bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

Bugungi kunda, jahon fond bozorida qimmatli qog‘ozlarning yillik emissiyasi hajmi barcha manbalar hisobidan talabgorlarga berilgan xalqaro kreditlar va moliyaviy mablag‘larning qariyb yarmini tashkil etadi.

Xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar xalqaro fond bozorida kapitalni jalb etishning va operatsiyalarning asosini tashkil etadi. Ularning tarkibida xalqaro obligatsiyalar va notalarni, turli kompaniyalar (korporativ), moliyaviy institutlar va davlatlarning xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlarini fond bozorlarida muomalada bo‘luvchi asosiy ikki, ya’ni yevroobligatsiya va chet el obligatsiyalari shakllari mavjud.

Nominal qiymati obligatsiya joylashtiriladigan mamlakatning milliy pul birligida bo‘lgan, ya’ni obligatsiya emitenti uchun xorijiy valyutadagi va ushbu mamlakat fond birjasida kotirovka qilinadigan obligatsiyalar – **chet el obligatsiyalari** hisoblanadi. Masalan, Fransiyaning Angliyada joylashtirish uchun chiqarilgan qarz obligatsiyalari nominali funt sterlingda ifodalanadi, Angliya fond birjasidagi kotirovka natijalari asosida ingliz investorlari tomonidan sotib olinadi. Ya’ni chet el obligatsiyalari ma’lum bir mamlakatga ushbu davlat qonun-qoidalari asosida joylashtiriladi. Chet el obligatsiyalari ham odatda, jahonning yirik moliyaviy markaz shaharlarida, masalan Nyu-York, London, Yaponiya va boshqa shaharlarda joylashtiriladi.

Chet el obligatsiyalaridan foydalanish amaliyotga 500 yildan beri mavjud bo‘lsa, yevroobligatsiyalar paydo bo‘lganiga hozirda atigi 30 yil bo‘ldi.

Bugungi kunda chet obligatsiyalarini asosan rivojlangan mamlakatlar emissiya qilishmoqda. Ba’zi mamlakatlar tomonidan emissiya qilingan chet el obligatsiyalari o‘ziga xos nom bilan ataladi. Masalan, Shveytsariya obligatsiyalari – Chocolate Bonds, Yaponiya obligatsiyalari – Samourai Bonds, AQSh obligatsiyalari – Jankee Bonds, Buyuk Britaniya obligatsiyalari – Bulldog va h.k.. jahon fond bozorining ushbu segmenti yevroobligatsiyalarni ko‘payishi hisobiga qisqarib bormoqda.

Yevroobligatsiya – xorijiy investorlar orasida xalqaro sindikat anderrayterlari orqali joylashtiriladigan, emitent va xorijiy investorlar uchun chet el valyutasida chiqarilgan qarz munosabatli qimmatli qog‘oz hisoblanadi. Yevroobligatsiyalar joylashtirilayotganda jahonning hech qaysi bir mamlakatida ro‘yxatga olinmaydi. Yevroobligatsiyalar asosan bank konsorsiumlari, sindikatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan emissiya qilinadi.

Yevroobligatsiyalarning turi sifatida “dragon” (inglizcha “dragon bonds” atamasidan olingan) obligatsiyalarini qayd etish mumkin. Ular yevrodollar obligatsiyalar bo‘lib, osiyo bozorida joylashtirilgan (birinchi navbatda Yaponiyada) va ma’lum bir Osiyo birjasida (odatda Gongkong yoki Singapur birjalarida) listingga ega bo‘lgan qimmatli qog‘oz hisoblanadi.

Yevroobligatsiyalar va chet el obligatsiyalari o‘rtasidagi o‘xshashlik ularni mamlakatlar o‘rtasida kapitalni qayta taqsimlash vositasi bo‘lib hisoblanishida, shuningdek, ularni emitent mamlakatlar milliy valyutasidan farqli boshqa valyutada emissiya qilinishida namoyon bo‘ladi.

Yevroobligatsiyalar va chet el obligatsiyalari o‘rtasidagi farq esa quyidagilardan iborat:

birinchidan, yevroobligatsiyalar erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada emissiya qilinadi. Chet el obligatsiyasi esa uning emitenti uchun ixtiyoriy xorijiy valyutada emissiya qilinadi, ya’ni bunday

valyutalar erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta bo‘lmasligi ham mumkin.

Ikkinchidan, chet el obligatsiyalari joylashtiriladigan mamlakatda ro‘yxatga olinadi, uning nominal qiymati joylashtiriladigan mamlakat uchun milliy valyutada bo‘ladi, u faqat joylashtiriladigan mamlakat fond bozorida muomalada bo‘ladi. Yevroobligatsiyalar esa, ma’lum bir mamlakatga ro‘yxatga olinmasdan joylashtiriladi, bir vaqtning o‘zida bir necha mamlakatlar fond bozorlarida muomalada bo‘lishi mumkin, shuningdek, obligatsiya nominali ko‘rsatilgan milliy yoki xalqaro valyutaning xususiyati emitentining milliy xususiyatlari mos kelmasligi lozim. Yevroobligatsiyalarni dastlabki joylashtirish to‘g‘ridan to‘g‘ri emitent joylashgan mamlakatning milliy fond bozorlarida amalga oshirilmasdan, balki xorijiy mamlakatlar milliy fond bozorlarida amalga oshiriladi va ular orqali emitent joylashgan mamlakat milliy fond bozorlariga kelib tushishi va muomalasi amalga oshirilishi mumkin.



10.3-rasm. **Xalqaro fond bozorida yevroobligatsiyalarning shakllanish mexanizmi**

Milliy fond bozori vositasi bo‘lgan oddiy obligatsiyalar bilan xalqaro fond bozorining maxsus vositasi bo‘lgan yevroobligatsiyalar o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- xalqaro anderrayter konsorsiumlari yoki investitsion banklarni o‘z ichiga oluvchi oddiy sindikatlar tomonidan bir vaqtning o‘zida bir necha mamlakatlarda yevroobligatsiyalar emissiyasi amalga oshiriladi;

- sindikat tomonidan ko‘rsatilgan hududlarda joylashtirilgan yevroobligatsiyalar emissiyasi hech qaysi bir mamlakatdan ro‘yxatdan o‘tmaydi. Yevroobligatsiyalar muomalasi ma’lum bir davlatning obligatsiyalar muomalasini tartibga solishning iqtisodiy-huquqiy me’yorlari orqali tashkil etilmaydi, balki yevroobligatsiyalar asosan xalqaro huquqiy me’yorlar bo‘yicha tartibga solinadi;

- yevroobligatsiyalar bir vaqtning o‘zida bir necha mamlakatlarga yoki turli mamlakatlar fond bozorlariga joylashtiriladi. Xorijiy investorlar o‘zlarining mahalliy birjalaridan yevroobligatsiyalarni sotib olishlari mumkin. Shuningdek, emitent mamlakat investorlari boshqa mamlakatlar orqali o‘z fond bozorlariga yetib kelgan yevroobligatsiyalarga egalik qilishadi;

- oddiy obligatsiyalardan farqli ravishda yevroobligatsiya nominali bo‘yicha to‘lanadigan foizdan “daromad manbai sifatida” soliq undirilmaydi. O‘zining yuqori daromadini soliqqa tortilishidan olib qochib, uni sir saqlaydigan omonatchini Fransiyada “belgiyalik dantist” deb ham atashadi.

Yevroobligatsiyalar bozori transmilliy korporatsiyalarning o‘rta va uzoq muddatli investitsiyalarini moliyalashtirishning muhim manbalaridan hisoblanadi. Davlatlar odatda byudjet daromadlarini ko‘paytirish va davlat qarzlarini qayta moliyalashtirish uchun yevroobligatsiyalardan foydalanishadi.

Yevroobligatsiyalarning oddiy konvertirlanadigan shakli ham mavjud bo‘lib, ma’lum bir belgilangan muddatdan keyin, emitent kompaniya aksiyalariga ularni almashtirish sharti bilan chiqariladi. Bunday yevroobligatsiyalar egasi emitent kompaniya faoliyatining foydalilik darajasi ortadi degan taxmin bilan ularni sotib oladi. Chunki, odatda konvertatsiya davrigacha yevroobligatsiyalar bo‘yicha foiz to‘lovlari amalga oshirilmaydi.

Jahon **yevroaksiyalar bozori** 1983- yildan sindikatsiyalashgan kreditlash amaliyoti bilan birga rivojlana boshladi, biroq ularning

emissiyasi yevroobligatsiyalarga nisbatan juda kam. Yevroaksiyalarga konvertirlanadigan yevroobligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi jahon qimmatli qog‘ozlar bozorida mazkur turdagi segmentlarni o‘zaro integratsiyasini kuchaytirdi.

Yevrotijorat veksellari – foiz stavkasi yevrodollar depozit sertifikatlari bo‘yicha olingan (odatda o‘rtacha 0,25%), 3-6 oylik muddatga yevrovalyutada rasmiylashtirilgan hujjatli veksellardir. **Yevroveksellar** o‘rta muddatli qarz munosabatini ifodalovchi qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

Umuman olganda, yevroveksellar bozori hajm jihatdan juda kichik, 1981- yildan boshlab rivojlangan. Yevroveksellar 1984- yildan emissiya qilib kelinmoqda.

Yevrovalyuta depozit sertifikatlari – omonatchining depozitini va unga tegishli foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi, yevrovalyutada qo‘yilgan pul mablag‘lari to‘g‘risida banklarning yozma guvohnomalari. Yevrobozorda bu kabi sertifikatlar amaliyotda keng qo‘llaniladi. Bu kabi depozit sertifikatlarining muddati 30 kundan 3-5 yilgacha bo‘lishi mumkin. Yevrobanklar nominali 25 ming AQSh dollari va undan yuqori bo‘lgan depozit sertifikatlarini qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozorida sotish imkoniyatini taqdim etgan holda turli banklar va xususiy korxona yoki tashkilotlar o‘rtasida joylashtiradilar. Muomaladagi muddatli depozit sertifikatlari, odatda brokerlarga sotiladi yoki innossament bo‘yicha boshqa shaxsga o‘tkaziladi. Depozit sertifikatlari yevrobanklarda omonatlarni ko‘paytirgan holda, ularning kreditlash imkoniyatini oshiradi va yevrobozorni kengayishini rag‘batlantiradi. Yevrovalyutadagi depozit sertifikatlari bo‘yicha foiz stavkasi yevrodollar depozitlariga nisbatan past bo‘lsada, ularni ikkilamchi bozorda oson sotish mumkin.

Yevronotalar – suzuvchi foiz stavkadagi qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. 1980- yildan yevronotalar bilan operatsiyalar amalga oshirib kelinmoqda. Ular ba’zan yevrobank kafolati bilan turli kreditlash vositalariga ham almashtirilishi mumkin.

Yevroobligatsiyalar va **yevronotalar**ni o‘zaro bir-biridan farq qiladi. Yevroobligatsiyalar taqdim etuvchi ko‘rinishida, ya’ni nomi

yozilmasdan chiqariladigan qimmatli qog‘oz hisoblanadi va savdo tizimlarining depozitariylarida saqlanadi. Bunday nomi yozilmagan qimmatli qog‘ozlar odatda rivojlanayotgan mamlakatlarga joylashtiriladi. Yevroobligatsiyalarni chiqaradigan emitentlarga qulaylik yaratish maqsadida ularning ta’minoti uchun zaxira shakllantirilmaydi.

Yevronotalar nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi va ular bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda emissiya qilinadi. Yevroobligatsiyalardan farqli ravishda yevronotalar ta’minoti uchun zaxira shakllantiriladi.

Yevropa ittifoqida bosqichma-bosqich yagona **Yevropa fond bozori** shakllangan bo‘lib, bunda Yevropa ittifoqida joriy etilgan quyidagi tamoyillar asosiy rol o‘ynagan:

– bank faoliyatini unifikatsiyalashga ruxsat berish;

– o‘zaro axborot almashinishini va tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish;

– bozor ishtirokchilarini mamlakatlarga qarashliligi bo‘yicha nazorat qilish;

– birjalararo axborot almashishning yagona tizimini yaratilishi.

Natijada, Yevropa ittifoqidagi har qanday korxona ushbu hududda qimmatli qog‘ozlarni erkin sotib olish yoki sotishga, brokerlar esa mazkur hududda joylashgan birjalarda erkin faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, hududdagi fond birjalarining kapitallashuv darajasi oshdi va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha birjadan tashqari savdolarda raqobat muhiti kuchaydi.

Yevropa ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalashda 1990- yildan hududdagi birinchi darajali kompaniyalarning Yevropa ittifoqi mamlakatlari birjalarida kotirovka qilingan qimmatli qog‘ozlarining baholarini o‘zida aks ettiruvchi Yevropa kotirovkalari – “Yevrolist”ni joriy etilishi va Yevropa ittifoqi birjalari federatsiyasinining tashkil topishi dastlabki asosiy bosqichlardan hisoblanadi.

Yevropa ittifoqida yagona moliyaviy muhitni shakllantirish uchun mamlakatlar moliya bozorlaridagi xususan, milliy fond

bozorlariga xos bo‘lgan quyidagi asosiy farqlar bosqichma-bosqich bartaraf etib borildi:

– birja operatsiyalarini milliy doirada tartibga solish (qimmatli qog‘ozlarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berish, axborotlarni oshkor etishga bo‘lgan talablar va h.k);

– birjalarning operatsiyalar hajmi va milliy iqtisodiyotdagi roli;

– qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar, ya’ni sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari, banklarning fond bozoridagi roli va o‘rni bilan bog‘liq farqlar.

Yevropa ittifoqida yagona fond bozori tarkibi shakllantirilgan bo‘lib, u o‘z ichiga aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog‘ozlari va hosila moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarga ixtisoslashgan, hamkorlikda yangi tashkil etilgan qo‘shma birjalar (Yevropa birjasi, Xalqaro birja, LIFFI va boshq.) va qator segmentlarni oladi.

Yevropada tashkil etilgan yagona ssuda kapitallari va qimmatli qog‘ozlar bozorlari yevropa iqtisodiy integratsiyasini tashkil etishda asosiy rol o‘ynagan.

Hozirda jahon fond bozorlari infratuzulmasida quyidagi asosiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda:

Birinchidan, savdolarda xorijliklar ishtirok etishi uchun ularga alohida savdo maydonchalari tashkil etilmoqda. Xususan, London fond birjasida yuzlab xalqaro investitsiya institutlari, 500 dan ortiq xorijiy banklar savdo qilishmoqda, 60 dan ortiq mamlakat xalqaro kompaniyalarining aksiyalari birja listingi ro‘yxatida turib sotilmoqda.

Ikkinchidan, jahon qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning roli boshqa moliyaviy vositachilar hisobiga qisqarayotgan bo‘lsada, ular birjalarning ish vaqtlari tugab, yopilganda savdolar uzluksizligini ta’minlovchi va anonim ravishda qimmatli qog‘ozlar kotirovkasini amalga oshiruvchi xususiy elektron brokerlik tizimlarini hamda moliyaviy vositalarning yangi turlarini yaratishmoqda.

10.4. Yevroobligatsiyalar muomalasi

Jahondagi xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlari orasida yevroobligatsiyalar asosiy salmoqni (qariyb 60 foizni) egallaydi (taqqoslash uchun keltiramiz: AQSh xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlari o‘rtacha 22 foizni, qolgan 18 foizni rivojlanayotgan mamlakatlar va offshor markazlar egallaydi). Shuning uchun xalqaro kredit munosabatlarida va qarz kapitalini qimmatli qog‘ozlar orqali jalb etish masalalarida yevroobligatsiyalar amaliyotini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Yevroobligatsiyalar (yevroqimmatli qog‘ozlar)ning rasmiy tavsifi Yevropa Ittifoqi Direktivasi tomonidan 1989- yil 17- aprelda qabul qilingan qimmatli qog‘ozlarni ommaviy (ochiq) joylashtirish emissiyasi prospektida ko‘rsatilgan[29].

Xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlari sifatidagi obligatsiyalarga “yevro” so‘zini qo‘shib, alohida yevroobligatsiya atamasini yaralishiga asosiy sabab, birinchidan, xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar savdosining asosiy qismi Yevropada joylashganligi, ikkinchidan, ularning valyutalar bo‘yicha kesimida “Yevro”da emissiya qilinganlari asosiy ulushni tashkil etishi hisoblanadi[30].

Yevroobligatsiyalarning emissiyasi 1963- yildan boshlab chiqarilayotganligi ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilgan bo‘lsada, 1940–1960- yillarda ham shunga o‘xshash qarz majburiyatlari muomalasi Yevropa hududida ham bo‘lgan. Yevroobligatsiyalarni paydo bo‘lishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan sharoitda Yevropadagi transmilliy kompaniyalarni moliyaviy ta’minlash, xususan 1950- yillarda PILIPS kompaniyasining Niderlandiyaga nominali AQSh dollarida ifodalangan yevroobligatsiya ko‘rinishidagi qarz majburiyatlarini kiritishi bilan bog‘liq. Ushbu o‘n yillikda Yevroobligatsiyalar moliyaviy ta’minoti Yevropa banklarida yirik miqdorni tashkil etuvchi AQSh dollaridagi depozitlar bilan amalga oshirildi.

[29] Council Directive 89/298/EEC

[30] Bank for International Settlements: Annual Report. BIS Quarterly Review: International Banking and Financial Market Developments.

1960- yillarda yevroobligatsiyalar bozori unga huquqiy maqom berish bilan bog‘liq muhim muammolarga duch keldi. Bunga sabab yevroobligatsiyalar bozori infratuzilmasining takomillashmaganligi, sertifikatlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar oqibatida to‘lovlarning kechikishi, bular bilan bog‘liq hisob-kitoblar Nyu-York orqali amalga oshirilishi, ularni o‘zaro almashtirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar bo‘ldi. Bu muammolar yevro qimmatli qog‘ozlar bozorida infratuzilmaviy tashkilotlarni yaratish orqali bartaraf etildi.

1963- yilda AQSh tomonidan kapitalni chetga chiqishini kamaytirish maqsadida foizlarni tenglashtiruvchi maxsus soliq (Interest Equalization Tax)[31]ning joriy etilishi oqibatida kreditlarning qiymatini 1%li punktga ko‘tarilishi chet el investorlarini Amerika bozoridagi operatsiyalarini qisqarishiga olib keldi. Ushbu holat investorlarni yevroobligatsiyalar chiqarish evaziga moliyaviy kapitalga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishlariga sabab bo‘ldi.

1970-yillardan boshlab yevroobligatsiyalar bozori jadal sur’atlar bilan rivojlandi, bunga ushbu davrda paydo bo‘lgan yevrodollarlar muomalasi ham katta turtki berdi. 1968-yilda J.P. Morgan Guaranty Trust Amerika banki yevroobligatsiyalar savdosi bo‘yicha Euroclear kliring markazini tashkil etdi va 1970- yilda esa uning asosiy raqobatchisi Yevropa banki tomonidan Lyuksemburgda CEDEL (hozirgi CLEARSTREAM) paydo bo‘ldi. Hozirda har ikkalasi orqali yevroobligatsiyalar hisobi bo‘yicha depozit-kliring operatsiyalari amalga oshiriladi.

1969- yilda yevroobligatsiyalarning ikkilamchi bozoridagi tashkiliy texnik muammolarni bartaraf etish maqsadida yevroobligatsiyalar bozorining yirik operatorlari (18 mamlakatdan 350 ta moliyaviy tashkilot) o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilot – xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha dilerlar assotsiatsiyasi (Association of International Bond Dealers)[32]ni tashkil etishdi.

[31] Ushbu soliq 1967- yilda 1,5 foiz punktga oshirilgan va 1974- yilda bekor qilingan.

[32] 1991- yilda ushbu assotsiatsiya Xalqaro fond bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi(International Securities Markets Association – ISMA)ga, 2005- yilda esa Xalqaro kapital bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi (International Capital Market Association – ICMA)ga aylantirildi.

1980- yillarda bo‘lgan qarzdorlik inqirozlari oqibatida kreditlarni qimmatli qog‘ozlarga aylantirish (qarzlarni sekyuritizatsiyalash) xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Inqiroz natijasida moliya bozorida kuzatilgan salbiy holatlar xalqaro korporatsiyalar faoliyatini kreditlar orqali moliyalashtirishdan ko‘ra obligatsiyalar emissiyasi orqali moliyalashtirish afzalligini ko‘rsatdi. 1990- yillar o‘rtalarida yevroobligatsiyalar xalqaro bozordan jalb etiluvchi ssuda kapitallarining 50-80 foizini tashkil qildi.

Yevroobligatsiyalar asosan yirik transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va hukumat organlari tomonidan emissiya qilinadi. Hukumat yoki mahalliy organlar tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalarga davlat kafolati talab etiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yevroqimmatli qog‘ozlarining asosiy qismi xususiy korxonalar tomonidan joylashtirilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yevroobligatsiyalar emissiyasi uchun mamlakatning suveren kredit reytingi muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda yevroobligatsiyalar bozoriga chiquvchi emitentlar xalqaro reyting agentliklari tomonidan aniqlangan yuqori reyting ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishadi. Emitentlarning yuqori reytinggi jalb etiladigan qarz mablag‘larini arzonlashtirish, ya’ni past foiz stavkalarini o‘rnatish imkonini yaratadi. Emitent yevroobligatsiyalar bozoriga chiqishi uchun yuqori bo‘lmasa ham xalqaro reyting agentliklari[33]ning ma’lum bir reytinggiga ega bo‘lishi zarur.

Yevroobligatsiyalar bozorining professional ishtirokchilari sifatida qimmatli qog‘oz operatsiyalari bo‘yicha ixtisoslashgan asosiy yirik banklar va kompaniyalar savdo maydoniga chiqishadi. Yevroobligatsiyalar investitsion banklar tomonidan joylashtirilib, ularni asosiy xaridorlari institutsional investorlar, ya’ni sug‘urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari va fondlari hisoblanadi.

Yevroobligatsiyalarning asosiy afzalliklari emitentlarning ishonchliligi, soliqlardan qochish imkoniyatining mavjudligi,

[33] Xalqaro reyting agentliklariga Standart & Poors Corporation, Moody’s Investors Service, Fitch va boshqalarni kiritish mumkin.

yevroobligatsiya egasining nomini oshkor etilmasligidir. Bundan tashqari savdolarning katta qismi birjadan tashqari bozorda telefon yoki kompyuterlar orqali amalga oshiriladi. Foizlar yilda bir marta to‘lanadi. Bunday obligatsiyalarning asosiy qismi ta’minlanmagan hisoblanadi. Milliy tartibga solish organlari tomonidan ularga nisbatan cheklovlar mavjud emas. Yevroobligatsiyalar yevropadagi ikkita fond birjasi ya’ni London va Lyuksemburg fond birjalari listinggiga kiradi.

Yevroobligatsiyalarni chiqarish shakllari turli-tuman bo‘lib, suzib yuruvchi va qat’iy belgilangan stavkada, “nol” kuponli, boshqa obligatsiyalarga konvertatsiyalanadigan, ikki turli valyutada denominatsiyalangan (obligatsiya nominali ma’lum bir valyutada, uning foiz to‘lovlari esa boshqa valyutada amalga oshiriladi) va boshqa ko‘rinishlarda chiqarilishi mumkin.

Yevroobligatsiyalarni so‘ndirish muddati emitent qarzning asosiy summasini qaytarishga majbur bo‘lgandan boshlab hisoblanadi. Uzoq muddatli majburiyat odatda 10 yildan ortiq bo‘lgan muddatda so‘ndirilishini anglatadi. O‘rta muddatli majburiyat esa 1 yildan 10 yilgacha bo‘ldan davriy oraliqni egallaydi. Qisqa muddatli majburiyat 1 yildan kam bo‘lmagan muddatga chiqarilgan obligatsiyalarda namoyon bo‘ladi.

Yevroobligatsiyalar yagona so‘ndirish sanasiga yoki turli so‘ndirish sanasi bilan chiqariladi. So‘ndirish fondi bilan obligatsiyalarni chiqarishda emitent vaqti-vaqti bilan doimiy ravishda obligatsiyalarni ma’lum bir qismini bozor kursi bo‘yicha ularni qaytarib sotib olish yo‘li bilan (mustaqil ravishda yoki maxsus agent orqali) yoki (agar obligatsiya kursi nominalidan yuqori bo‘lsa) emissiya prospektida ko‘rsatilgan so‘ndirish jadvalidan kelib chiqib, nominali bo‘yicha davriy ravishda so‘ndiradi. So‘ndirish yilda ikki marta ixtiyoriy tanlov usuli orqali amalga oshiriladi. Gollandiyalik emitentlar orqali amalga oshiriladigan emissiyalarda obligatsiyalarni so‘ndirish investorlar tomonidan egallangan obligatsiyalar miqdoriga proporsional ravishda amalga oshiriladi. Ko‘plab yevroobligatsiyalar taqdim etuvchi shaklida chiqarilganligi uchun ularning egalarini hisobi yuritilmaydi va ularni

so‘ndirish to‘g‘risidagi e’lon moliyaviy matbuotda oldindan berilishi lozim.

Yevroobligatsiyalar muomalasining asosiy qismini 2 yildan 40 yilgacha bo‘lgan yevroobligatsiyalar tashkil etadi. Ularning orasida juda qisqa muddatli, muomalasi 6 oyni tashkil etuvchi yevroobligatsiyalarni ham uchratish mumkin.

Yevroobligatsiyalar bo‘yicha **foizlarni to‘lash** ancha murakkab tartibda amalga oshiriladi. Ikkita valyutada denominatsiyalangan obligatsiyalarning asosiy qarz summasi bir valyutada ifodalanadi, foizlarni to‘lash esa, boshqa valyutada amalga oshiriladi. Dastlab foizlar belgilangan valyutada hisoblanib, keyin investor talabiga ko‘ra boshqa valyutaga bozordagi kurs bo‘yicha almashtirgan holda foizlar to‘lab berilishi mumkin. Ba’zi hollarda investor foiz to‘lovi o‘rniga boshqa yangi obligatsiyani olishi ham mumkin. Lekin bunday obligatsiyalar investorlar tomonidan ko‘p talab etilmaydi.

Yevroobligatsiyalarning asosiy qismi fiksirlangan foiz stavkali oddiy obligatsiyalar hisoblanadi, ularning to‘rtdan bir qismi emitent bilan muddatidan oldin so‘ndirishga kelishilgan obligatsiyalardir. Yevroobligatsiyalarning asosiy qismi nominali bo‘yicha yoki kichik mukofot, yoxud nominaliga nisbatan diskont (chegirma) bilan chiqariladi. “Nol” kuponli obligatsiyalar bundan mustasno.

Yevroobligatsiyalarni so‘ndirish nominali bo‘yicha amalga oshiriladi. Ikki valyutada denominatsiya qilingan obligatsiyalarni so‘ndirish nominalidan farqli ravishda boshqa valyutada amalga oshirilishi mumkin. To‘lov muddati kelganda “heaven and hell bonds” sharoitida kelishilgan kurs va “spot” kurs o‘rtasidagi farqqa bog‘liq ravishda so‘ndiriladi. Nazariy jihatdan qaraganda, so‘ndirish summasi 2 barobarga ortishi yoki “nol” qiymatga ega bo‘lishi mumkin. So‘ndirish qiymati ma’lum bir indeksga bog‘lab qo‘yiladi. Masalan “bull-bear issue” holatida so‘ndirish qiymati aksiyalar kursiga bog‘liq bo‘ladi. Agar obligatsiyalar ikki transh[34]da chiqarilsa “buqa transhi” (bull

[34] Transh (fransuzcha “tranche” so‘zidan olingan bo‘lib, qism, bo‘lak degan ma’nolarni anglatadi) – dastlabki chiqarish sanasiga mos kelmaydigan, muomala muddati davrida ixtiyoriy sanada chiqarilishi mumkin bo‘lgan va umumiy emissiya hajmiga kiruvchi qimmatli qog‘ozlar emissiyasining ma’mum bir qismi. Xalqaro yoki kelajakda

tranche) holatida so‘ndirish summasi indeksning ko‘tarilishi bilan ortib boradi, “ayiq transhi” (bear tranche) holatida esa indeksning pasayishi bilan ko‘payadi. Obligatsiyalar qiymatining indeksatsiyasi ma’lum bir tovar indeksiga nisbatan yoki mahsulot narxiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Lekin bunday holat amaliyotda kam uchraydi. Obligatsiyalar muddati tugaganda so‘ndirish fondi hisobiga yoki fond tomonidan ularni qaytarib sotib olish orqali yagona summa bilan so‘ndiriladi. So‘ndirish fondidan foydalangan holda qarz muddati tugaguncha har yili obligatsiyalarni ma’lum bir qismini so‘ndirish emitent zimmasida turadi. Qaytarib sotib olish fondidan foydalanilganda obligatsiyalarning bozordagi narxi nominalidan past bo‘lsa, emitent kelishilgan miqdordagi obligatsiyalarni bozordan qaytarib sotib olishga majbur. So‘ndirish fondi odatda obligatsiyalar emissiyasidan so‘ng bir necha yildan keyin faoliyat yurita boshlaydi, qaytarib sotib olish fondi esa 3-6 oydan keyin o‘z faoliyatini yuritadi.

Muddatidan avval so‘ndirilishi mo‘ljallangan yevroobligatsiyalar. Ko‘plab uzoq muddatli obligatsiyalar emitent tomonidan muddatidan avval (ma’lum bir imtiyozli davriy oraliqda) so‘ndirilishi mumkin. Xususiy korporatsiyalar o‘z obligatsiyalari nominaliga qo‘shimcha ravishda ma’lum bir miqdordagi mukofotni qo‘shgan holda qaytarib sotib olishni mo‘ljallaydilar, davlat obligatsiyalari esa nominali bo‘yicha qaytarib sotib olinadi.

Qaytarib sotib olish huquqi – buni opsionlarga o‘xshash xususiyati bo‘lib, emitent bunday huquqqa ega hisoblanadi. Bunday opsionda boshqa obligatsiyalarga nisbatan o‘z muddati davomida yuqori daromadli va nisbatan arzon narxda sotiluvchi, muddatidan oldin so‘ndirilishi mo‘ljallangan obligatsiyaning aniq narxi bo‘ladi. Agar bozordagi foiz stavkalar pasaysa, emitent obligatsiyalarni qaytarib sotib olishga harakat qiladi va emitent o‘z majburiyatlarini kichik foiz stavkalarda qayta moliyalashtirish inkoniyatiga ega bo‘ladi. Muddatidan avval obligatsiyalarni so‘ndirish sharti ularni qiymatini aniqlashni qiyinlashtiradi.

---

bozor konyunkturasining yaxshilanishi hisobiga, yoxud turli mamlakatlar ssuda bozoriga qarzlarni joylashtirish uchun chiqariladigan qarz obligatsiyalarining seriyasi yoki qismi.

Yevroobligatsiyalarning kupon stavkasi. Obligatsiyalarning kupon to‘lovlarini hisoblashning bir nechta standartlari mavjud. Yevroobligatsiyalar bozorida va Amerika korporativ obligatsiyalar bozorida oy kunlari 30 kun, yil kunlari 360 kun deb hisoblash qabul qilingan. Oyning 31 sanasi 30 sanaga almashtiriladi. Shuning uchun turli sanalardagi kunlar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

KS = (2 yil – 1 yil)*360 + (2 oy – 1 oy)*30 + (2 kun – 1 kun)

Asosiy foiz stavkasi darajasini aniqlashda mo‘ljal qilib odatda LIBOR olinadi. Lekin bu har doim emas, masalan 1954- yilda birinchi marta 250 mln. AQSh dollari miqdoridagi yevroobligatsiyalarni AQSh g‘aznachilik majburiyatlari foizi + 35 bazis punk miqdorida suzuvchi kupon stavkasi darajasida belgilab joylashtirgan. Birinchi uch oyda uning stavkasi LIBOR stavkasidan 0,3 foizga past bo‘lgan.

Yevroobligatsiyalarni emissiya qilish tartibi. Yevroobligatsiya-larni joylashtirish uchun emitent bir qator tayyorlov tadbirlari o‘tkazishi lozim. Obligatsiyalarni chiqarishda tayyorgarlikning umumiy davri (yevronotalar chiqarishda) bir necha haftadan (to‘liq dastur bo‘yicha taqdim etuvchiga (nomi yozilmagan) yevroobligatsiyalarni chiqarishda) bir necha oygacha cho‘zilishi mumkin. Butun muomala davri bo‘yicha yevroobligatsiyalarni chiqarish loyihasini moliyalashtirishning umumiy xarajatlari barcha vositachilar komission xarajatlarini qo‘shib hisoblaganda qariyb yarim million AQSh dollari sarf etiladi.

Emissiya qilish jarayoniga tayyorgarlik bir-xil tadbirlardan iborat bo‘lmaydi, balki kompleks dastur rejali xususiyatga ega bo‘lishi va barcha tadbirlarni o‘zaro bog‘lab turishi lozim. Bunday yondashuv tayyorgarlik xarajatlarini qisqartiradi va tashkil etish jarayonini uzluksizligini ta’minlaydi.

Asosiy tayyorgarlik tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- **xalqaro standartlar bo‘yicha audit o‘tkazish.** Odatda bunday ishga “katta oltilik”dan bittasi maslahatchi qilib jalb etiladi. G‘arb mamlakatlaridan taniqli ekspertlarni mazkur jarayonga jalb etiladi;

- **hujjatlarni tayyorlashga maslahatchi qilib yuridik kompaniya jalb etiladi**. Kompaniya mutaxassislari qonunchilik bo‘yicha ta’sis hujjatlarini to‘g‘riligini tekshiradilar, emissiya

prospektini tayyorlashadi, yevroobligatsiyalar muomalada bo‘luvchi birjalar, obligatsiyalar bo‘yicha to‘lov agenti, investitsion bank, auditorlar bilan shartnomalar tuzadilar, mamlakatlarning potensial investorlariga emissiya proyektining mosligini tekshiradilar. Shuningdek, huquqshunos obligatsiyalar muomala texnikasini tanlashga yordam berishi mumkin.

- **yevroobligatsiyalarni joylashtirishning yetakchi menejeri sifatida investitsion bankni jalb etish**. Odatda uning o‘zi obligatsiyalar bo‘yicha to‘lov agenti bo‘ladi. Uning komission xarajatlari summasi emissiya natijalarini tarqatish usuliga bog‘liq. Komission xarajatlar investorlarni mukofotlash natijasiga ko‘ra, anderrayting xizmati hajmi va sifatiga ko‘ra, emissiya hajmiga nisbatan foizda hisoblanishi mumkin. Investitsion bankni tanlab olish mezonlariga nafaqat miqdor ko‘rsatkichlari, balki bankning sifat ko‘rsatkichlari ham hisobga olinadi:
- u Yevropada taniqli nomga ega bo‘lishi lozim. Aynan shuning uchun mahalliy bank emas, balki xorijiy bank tanlanadi;
- joylashtirish bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lishi lozim. Bu esa yevroobligatsiyalarni sotish xarajatlarini ham kamaytirishi mumkin;
- emitent mamlakatida o‘z ofisiga ega bo‘lishi, soliqqa tortish masalalarini oson hal qilishi uchun o‘sha joyning yuridik shaxsi hisoblanishi lozim;
- **xalqaro reyting agentligi tomonidan baholangan bo‘lishi lozim.** Agar qarz alohida bir mamlakatga joylashtiriladigan bo‘lsa, mahalliy reyting agentliklari xizmatlaridan foydalanishning o‘zi yetarli bo‘ladi;
- **emissiyani ro‘yxatga olish.** Agar emitent bank bo‘lsa, emissiya prospektini ro‘yxatga olish mamlakatlarning moliya vazirliklarida yoki markaziy banklarida amalga oshiriladi;
- **axborotlarni oshkor etish dasturi bo‘lishi lozim.**

Mustaqil joylashtirish. Investitsion banklarga yuridik hujjatlarni, emissiya prospektini, kurslar va emitent faoliyatining sifatini ko‘rsatuvchi mustaqil joylashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuborilib, bank yevroobligatsiyalarni chiqaruvchi emitentga faqat to‘lov agenti

vazifasini bajarib beradi xolos, ularni yevrobozorda joylashtirishga ko‘maklashmaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Jahon ssuda kapitallar bozori, pul bozori, kapital bozori, yevrobozor yevrovalyuta, yevrodollar, yevrovalyuta bozori, transmilliy bank, yevrokredit LIBOR, spred, LIBID, stend-bay va rollover shartlaridagi yevrokreditlar, yevrodepozitlar, jahon qimmatli qog‘ozlar bozori, yevroqimmatli qog‘ozlar, chet el obligatsiyalari, yevroobligatsiya, yevroaksiya, yevrotijorat veksellari, yevroveksel, yevrovalyuta depozit sertifikatlari, yevronota, yagona Yevropa fond bozori, yevrolist, Yevropa ittifoqi birjalari federatsiyasi, anderrayter, sindikat bank, investitsion bank, buqa va ayiq transhlari, kupon stavka.

Takrorlash uchun savollar

1. Jahon ssuda kapitallar bozori tarkibiy tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Yevrobozor rivojlanishi jahon iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Yevrovalyuta nima va u qanday paydo bo‘ladi?
4. Hozirgi kundagi yevrodollar bozori avvalgi yevrodollar bozoridan nimalari bilan farq qiladi?
5. Yevrovalyuta bozori qanday omillar ta’sirida rivojlangan?
6. Yevrobozorining asosini tashkil etayotgan shaharlarni bilasizmi? Yevrobozorning hududiy va milliy bozorlardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering?
7. Yevrobozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
8. Yevrokredit bozoriga xos xususiyatlarni, xususan, yevrokreditlarning shakllari, muddati, ta’minoti, foiz stavkasi, maqsadi, so‘ndirish tartibini aytib bering?
9. Rollover shartlari asosida beriladigan qanday yevrokreditlarni bilasiz?

10. Yevrodepozitlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
11. Jahon qimmatli qog‘ozlar bozori tarkibiy tuzilishi qanday, ularga izoh bering?
12. Yevroqimmatli qog‘ozlarning qanday turlarini bilasiz, ularga izoh bering?
13. Yevroobligatsiya va chet el obligatsiyalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aytib bering.
14. Oddiy obligatsiyalar bilan yevroobligatsiyalar o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
15. Yevroobligatsiyalar va yevronotalarni o‘zaro bir-biridan farqini aytib bering?
16. Yagona Yevropa fond bozori shakllanishida asosiy rol o‘ynagan qanday tamoyillarni bilasiz?
17. Yevropa ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalash qanday boshlandi?
18. Yevropa ittifoqida yagona moliyaviy muhitni shakllantirish qanday amalga oshirildi?
19. Hozirda jahon fond bozorlari infratuzulmasida qanday asosiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda?
20. Yevroobligatsiyalar muomalasining rivojlanishi tarixi to‘g‘risida gapirib bering?
21. Yevroobligatsiyalar emitentlari kimlar, ularga xos xususiyatlar va qo‘yiladigan talablar haqida nima bilasiz?
22. Yevroobligatsiyalar qanday afzalliklarga ega?
23. Yevroobligatsiyalarni chiqarish shakllari, ularning muddati, foizi, kupon stavkasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
24. Yevroobligatsiyalarni emissiya qilish tartibini aytib bering?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro hisob-kitob banki ma’lumotlari asosida xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarni segmentlar asosida tahlil qilib, qancha qismi Yevropa ittifoqiga, rivojlangan davlatlarga, xalqaro tashkilotlarga, valyutalar kesimi bo‘yicha yevroga, AQSh dollariga to‘g‘ri kelishini aniqlang.

2. Yevrobozor infratuzilmasini o‘zida aks ettiruvchi asosiy tushunchalar bo‘yicha klaster tuzing.

3. Yevrobozorning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta’siri bilan bog‘liq muammolarni aniqlang va ularni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini tizimlashtiring.

4. Yevrobozorning moliyaviy innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi asosiy omillarni aniqlang va ularni bir tizimga keltiring.

5. O‘zbekistonning yevrobozorga integratsiyasi, uni kuchaytirish natijasida milliy bozorda yuzaga keladigan tashqi tahdidlar va ijobiy o‘zgarishlarni dalillar keltirgan holda baholang.

Test savollari

1. Jahon ssuda kapitallar bozori nechta o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq asosiy sektorga ajraladi va ular qanday nomlanadi?

a) ikkita, pul va kapital bozori;

b) uchta, valyuta, kredit va qimmatli qog‘ozlar;

d) to‘rtta, valyuta, kapital, qimmatli qog‘ozlar, hosila moliyaviy vositalar;

e) beshta pul, derivativlar, investitsiya, valyuta, sug‘urta.

2. Yevrovalyuta bozori qachondan shakllana boshladi?

a) 1950- yillar oxirida;

b) XX asr boshlarida;

d) 1970- yillarda;

e) 1920- yillarda oxirida.

3. Xalqaro va milliy moliya bozorining bir qismi bo‘lib, unda kreditlar va qarzlar bo‘yicha operatsiyalar yevrovalyutalarda amalga oshiriladigan bozor turini toping?

a) yevrobozor;

b) yevroobligatsiya;

d) yevrokredit;

e) nominali yevroda ifodalanadigan moliyaviy vositalar.

4. Mamlakatdan tashqaridagi kredit muassasalariga qo‘yilgan va ushbu mamlakatni huquqni va iqtisodiyotni tartibga soluvchi organlari

nazoratidan chetda bo‘lgan ixtiyoriy shakldagi pul birliklari nima deyiladi?

a) yevrovalyuta;

b) offshor valyuta;

d) xalqaro valyuta;

e) SDR.

5. Qachon Nyu-Yorkda erkin bank zonasini tashkil etildi va bu holat yevrodollar bozori tarkibida qanday o‘zgarishni yuzaga keltirdi?

a) 1981- yilda, yevrodollar bozori tarkibiga AQSh ham qo‘shildi;

b) 1968- yilda, bozorni tartibga soluvchi elektron tizim paydo bo‘ldi;

d) 1978- yilda, erkin suzib yuruvchi kurslar rejimiga o‘tildi;

e) 1984- yilda, yevroveksellar bozori yuzaga keldi.

6. Osiyo mintaqasida foydalaniladigan AQSh dollarlari (Osiyo dollari), Arab mamlakatlarida ishlatiladigan AQSh dollarlari (arab mamlakatlari dollari), neft mahsulotlari savdosida foydalaniladigan AQSh dollarlari (neft dollarlari)ni umumiy holda, xalqaro amaliyotda odatda nima deb nomlashadi?

a) yevrodollar (yevrovalyuta);

b) AQShning inflyatsiya eksporti;

d) ta’minlanmagan dollarlar

e) zaxira valyuta.

7. Qayerda kredit operatsiyalari bir mln. AQSh dollaridan bir necha yuz mln. AQSh dollari hajmida amalga oshirilib, ular garov bilan ta’minlanmasdan va foydalanish maqsadi aniq ko‘rsatilmagan holda ham berilishi mumkin?

a) yevrobozorda;

b) banklararo xalqaro kredit bozorida;

d) AQSh, Buyuk Britaniya, Shveytsariya va Yaponiyada;

e) Offshor zonalarda.

8. Yevrokreditlarga xos xususiyatlar to‘g‘ri keltirilgan javobni toping?

a) kredit valyutasi yevrovalyuta (asosan AQSh dollari), 10 oydan 12 yilgacha (o‘rtacha 7 yilga) beriladi;

b) foiz stavkalari asosan LIBOR (asosan qisqa muddatli (odatda 6 oylik))ga bankning spred (spread)i (odatda ¾%dan 3%gacha)ni qo‘shib beriladi;

d) asosan 100 mln. AQSh dollaridan 500 mln. AQSh dollari miqdorida beriladi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

9. O‘rta va uzoq muddatli yevrokreditlarni berishda bank qarz oluvchiga shartnomada kelishilgan summani turli qisqa (3, 6, 9, 12 oylik) muddatlar bo‘yicha alohida-alohida taqdim etish bo‘yicha majburiyat olishini va har bir muddat bo‘yicha kredit foizini ham alohida-alohida, yevrovalyuta bozoridagi asosiy suzuvchi foiz stavkalar (masalan LIBOR)ning o‘zgarishini inobatga olgan holda ko‘rib chiqilishini nazarda tutuvchi shartlar asosida beriladigan kreditlar nima deb nomlanadi?

a) stend-bay;

b) rollover;

d) akseptli;

e) faktoring.

10. Kredit shartlarini qayta yangilanishini nazarda tutuvchi o‘rta va uzoq muddatli yevrokreditlar nima deb nomlanadi?

a) akseptli rambursli;

b) stend-bay;

d) faktoring;

e) rollover.

11. Yevrodepozitlarga xos xususiyatlar to‘g‘ri keltirilgan javobni toping?

a) muddati 1 kundan 1 yilgacha, ba’zan 5 yilgacha cho‘zilishi mumkin (odatda ularning muddati 6 oy bo‘ladi);

b) banklararo depozitlarning o‘rtacha summasi 5-10 mln. AQSh dollarini, ba’zan esa undan bir necha marta katta miqdorni tashkil etadi;

d) ular yevrovalyutalarda qo‘yiladi;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

12. Nominal qiymati obligatsiya joylashtiriladigan mamlakatning milliy pul birligida bo‘lgan va ushbu mamlakat fond birjasida kotirovka qilinadigan obligatsiyalar nima deb yuritiladi?

a) chet el obligatsiyalari;

b) yevroobligatsiyalar;

d) konvertirlanadigan obligatsiyalar;

e) muddatidan oldin so‘ndiriladigan obligatsiyalar.

13. Chet el obligatsiya turlari keltirilgan javobni toping?

a) Samourai Bonds, Jankee Bonds;

b) Chocolate Bonds;

d) Bulldog;

e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

14. Yevroobligatsiya turlari keltirilgan javobni toping?

a) Chocolate Bonds, Bulldog;

b) Samourai Bonds, Jankee Bonds;

d) Dragon bonds;

e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

15. Xorijiy investorlar orasida xalqaro sindikat anderrayterlari orqali joylashtiriladigan, emitent va xorijiy investorlar uchun chet el valyutasida chiqarilgan qarz munosabatli qimmatli qog‘oz hisoblanadi, jahonning hech qaysi bir mamlakatida ro‘yxatga olinmaydigan, asosan bank konsorsiumlari, sindikatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan emissiya qilinadigan obligatsiyalar nima deb yuritiladi?

a) chet el obligatsiyalari;

b) konvertirlanadigan obligatsiyalar;

d) muddatidan oldin so‘ndiriladigan obligatsiyalar;

e) yevroobligatsiyalar.

16. Yevroqimmatli qog‘ozlar bozorining qaysi kichik segmenti konvertirlanadigan obligatsiyalar va 1983- yildan sinditsiyalashgan kreditlash amaliyoti bilan birga rivojlana boshlagan?

a) yevroaksiyalar bozori;

b) yevro tijorat veksellari bozori;

d) yevronotalar bozori;

e) yevrovalyuta depozit sertifikatlari bozori.

17. 1981- yildan boshlab rivojlangan, foiz stavkasi yevrodollar depozit sertifikatlari bo‘yicha olinadigan (odatda o‘rtacha 0,25%), 3-6 oylik muddatga yevrovalyutada rasmiylashtiriladigan hujjatli veksellar nima deb nomlanadi?

a) yevroveksellar;

b) yevro tijorat veksellari;

d) yevro o‘tkazma veksellar;

e) yevrooddiy veksellar.

18. O‘rta muddatli qarz munosabatini ifodalovchi 1984- yildan emissiya qilib kelinayotgan, yevrovalyutada rasmiylashtiriladigan veksellar nima deb nomlanadi?

a) yevroveksellar;

b) yevro o‘tkazma veksellar;

d) yevro tijorat veksellari;

e) yevrooddiy veksellar.

19. Yevrobanklar nominali 25 ming AQSh dollari va undan yuqori bo‘lgan qiymatda emissiya qilinadigan, investorning depozitini va unga tegishli foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi, muddati 30 kundan 3-5 yilgacha bo‘lgan, yevrovalyutada qo‘yilgan pul mablag‘lari to‘g‘risida banklarning yozma guvohnomalari nima deyiladi?

a) yevrovalyuta depozit sertifikatlari;

b) yevrodollar omonat sertifikatlari;

d) yevrovalyutada qo‘yilgan depozitlarni tasdiqlovchi omonat daftarcha;

e) Yevropa Markaziy bankining depozit sertifikatlari.

20. Suzuvchi foiz stavkadagi qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanib, ta’minoti uchun zaxira shakllantiriladigan. Yevrobank kafolati bilan turli kreditlash vositalariga ham almashtirilishi mumkin bo‘lgan, 1980- yildan boshlab rivojlanayotgan, nomi yozilgan qimmatli qog‘oz turi keltirilgan javobni toping?

a) yevronotalar;

b) yevroobligatsiya;

d) yevroveksel;

e) yevrobillar.

21. 1990- yildan Yevropa ittifoqidagi birinchi darajali kompaniya-larning hududda joylashgan mamlakatlar birjalarida kotirovka qilingan qimmatli qog‘ozlarining baholarini o‘zida aks ettiruvchi Yevropa kotirovkalari - “Yevrolist”ni joriy etilishi va Yevropa ittifoqi birjalari

federatsiyasining tashkil topishi natijasida yevrobozorda qanday o‘zgarish kuzatildi?

a) Yevropa ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalash;

b) yevroobligatsiyalarning ikkilamchi bozoridagi tashkiliy texnik muammolarning bartaraf etilishi;

d) yevroobligatsiyalar hisobi bo‘yicha depozit-kliring operatsiyalari amalga oshirila boshlandi;

e) yevrovalyuta bozoriga asos solindi.

22. Yevroobligatsiyalar hisobi bo‘yicha depozit-kliring operatsiyalari amalga oshirish maqsadida J.P. Morgan Guaranty Trust Amerika banki yevroobligatsiyalar savdosi bo‘yicha Euroclear kliring markazini va Yevropa banki Lyuksemburgda CEDEL (hozirgi CLEARSTREAM)-ni qachon tashkil etdi?

a) 1968- yilda va 1970- yilda;

b) 1963- yilda va 1978- yilda;

d) 1956- yilda va 1969- yilda;

e) ikkalasi ham 1971- yilda.

23. Yevroobligatsiyalarning ikkilamchi bozoridagi tashkiliy texnik muammolarni bartaraf etish maqsadida yevroobligatsiyalar bozorining yirik operatori, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilot – xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha dilerlar assotsiatsiyasi (Association of International Bond Dealers) qachon tashkil etildi.

a) 1969- yilda;

b) 1970- yilda;

d) 1968- yilda;

e) 1971- yilda.

24. Hukumat yoki mahalliy organlar tomonidan chiqarilgan yevroobligatsiyalar yirik transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar chiqaradigan yevroobligatsiyalardan nimasi bilan farq qiladi?

a) davlat kafolati talab etiladi;

b) uzoq muddatli bo‘ladi;

d) foizi qat’iy belgilangan bo‘ladi;

e) zaxira shakllantiriladi.

25. Yevroobligatsiyalarning asosiy afzalliklari keltirilgan javobni toping?

a) emitentlarning ishonchliligi, soliqlardan qochish imkoniyatining mavjudligi;

b) yevroobligatsiya egasining nomini oshkor etilmasligi, savdolarning katta qismi birjadan tashqari bozorda telefon yoki kompyuterlar orqali amalga oshiriladi;

d) yevroobligatsiyalarning asosiy qismi ta’minlanmagan hisoblanadi, milliy tartibga solish organlari tomonidan ularga nisbatan cheklovlar mavjud emas;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

26. Yevroobligatsiyalar jahondagi asosan qaysi fond birjalari listingiga kiritilgan holda oldi-sotdi qilinadi?

a) London va Lyuksemburg fond birjalari;

b) Nyu-York va Frankfurt fond birjalari;

d) Tokio va Syurix birjalari;

e) Amsterdam va NASDAQ savdo tizimida.

27. Yevroobligatsiyalarni chiqarish shakllari to‘g‘ri keltirilgan javobni toping?

a) suzib yuruvchi va qat’iy belgilangan foiz stavkali, “nol” kuponli;

b) boshqa qimmatli qog‘ozlarga konvertatsiyalanadigan;

d) ikki turli valyutada denominatsiyalangan (obligatsiya nominali ma’lum bir valyutada, uning foiz to‘lovlari esa boshqa valyutada amalga oshiriladi);

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

28. Yevroobligatsiyalarning muddati to‘g‘ri berilgan javobni toping?

a) asosan 2 yildan 40 yilgacha, ularning orasida qisqa muddatli 6 oylik yevroobligatsiyalar ham uchraydi;

b) asosan 1 yildan 5 yilgacha, qisqa muddatlisi bo‘lmaydi;

d) faqat uzoq muddatli bo‘lib, 10 yildan ortiq davrda chiqariladi;

e) faqat o‘rta muddatli bo‘ladi, ya’ni ular 1 yildan 10 yilgacha bo‘lgan davriy oraliqda chiqariladi.

11-BOB. XALQARO KREDIT VA INVESTITSIYA MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI

11.1. Xalqaro kredit, uning funksiyalari va tamoyillari

11.2. Xalqaro kreditning asosiy shakllari

11.3. Xalqaro kredit operatsiyalarida faktoring va forfeyting

11.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni uzoq muddatli moliyalashtirish shakllari

11.5. Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli xalqaro kreditlash

11.6. Xalqaro lizing operatsiyalari

11.7. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari

11.1. Xalqaro kredit, uning funksiyalari va tamoyillari

Xalqaro kredit – bu tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlilik, muddatlilik, foiz to‘lashlilik shartlari asosida berish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ssuda kapitali harakatidir.

Xalqaro kredit munosabatlarining **subyektlari** sifatida tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, mintaqaviy va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro kreditni yuzaga kelishiga sabab bo‘lib, ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqishi, xo‘jalik aloqalari baynalminallashuv jarayonining tezlashishi, xalqaro kapitallarning markazlashuvi hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hisoblanadi.

Xalqaro kredit kapital ishlab chiqarishning dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni jamg‘arishning asosiy usullaridan biri bo‘lgan.

Xalqaro kreditning asosiy **manbalari** bo‘lib korxonalarning bo‘sh turgan pul mablag‘lari, bank va kredit tashkilotlariga jalb qilinadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg‘armalari hisoblanadi.

Mahsulotlarni takror ishlab chiqarish jarayonida xalqaro kreditga munosabatida obyektiv zarurat yuzaga keladi va u xo‘jalik subyektlarida

mablag‘larning doiraviy aylanishiga, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xususiyatlariga, tashqi iqtisodiy bitimlarning hajmi va muddatidagi farqlarga, iqtisodiyotda ishlab chiqarishni kengaytirishga mo‘ljallangan yirik kapital qo‘yilmalarini amalga oshirishga bog‘liq bo‘ladi.

Xalqaro kredit tamoyillari. Xalqaro kredit munosabatlarini tashkil qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Qaytarib berishlilik: agar olingan mablag‘lar qaytarilmasa, pul kapitalini qaytarib bermaslik shakli namoyon bo‘ladi, ya’ni moliyalashtirish yuzaga keladi;
2. Muddatlilik, ya’ni kredit shartnomasida ko‘rsatilgan muddatda kreditni qaytarilishini ta’minlash;
3. Ta’minlanganlik, ya’ni olingan kreditni to‘lashni kafolatlanganligi;
4. Maqsadlilik, ya’ni ssudani aniq obyektlarga yo‘naltirishni ko‘zlash va uni birinchi navbatda kreditor davlatning eksportini rag‘batlantirish uchun qo‘llash;
5. Foiz to‘lashlilik.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiyoti qonunlari bilan aloqalarini ta’minlaydi, bozor subyektlari va davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishishi uchun ishlatiladi.

Xalqaro kreditning funksiyalari. Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy aloqalarda ssuda kapitallari harakatini o‘ziga xos xususiyatini namoyon etib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish talablarini qondirish uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar o‘rtasida qayta taqsimlash. Ssuda kapitallari xalqaro kredit mexanizmi orqali foydasi ko‘proq, daromadliroq bo‘lgan tarmoqlarga intiladilar. Shu orqali kredit milliy daromadni o‘rtacha daromadga tenglashishiga imkoniyatni yuzaga keltiradi va uning massasini oshishiga olib keladi.
2. Haqiqiy pullarni kredit pullarga almashtirish, naqdsiz to‘lovlarni rivojlantirish va tezlashtirish hamda naqd valyuta aylanmasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirish orqali xalqaro hisob-kitoblar muomalasidagi sarf-xarajatlarni iqtisod qilish. Xalqaro kredit

munosabati asosida xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalari – veksellar, cheklar, shu jumladan, bank o‘tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqalar yuzaga keldi. Ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muomalasi vaqtini tejash kapitalning ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilish davrini uzaytiradi va shuning asosida, ishlab chiqarishni kengaytirish va foydaning o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Kapitalning jamlanishi va markazlashishini tezlashtirish. Xorijiy kreditlarni jalb qilish tufayli qo‘shimcha qiymatni kapitalga aylanish jarayoni tezlashadi, shaxsiy jamg‘armalar chegarasi kengayadi, bir davlat tadbirkorlarining kapitallari boshqa davlatlarning mablag‘lari qo‘shilishi oqibatida ko‘payadi. Xalqaro kredit avvaldan yakka korxonalarni aksionerlik jamiyatlariga aylanishiga, yangi firmalar va monopoliyalarni paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Kredit boshqa mamlakatlarning kapitali, mulki va mehnatidan belgilangan me’yorlarda foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik kompaniyalarga taqdim etiladigan imtiyozli xalqaro kreditlar va kichik hamda o‘rta hajmdagi firmalarni jahon ssuda kapitallari bozoriga chiqishining qiyinligi jahonda kapitalni bir joyga to‘planishi va markazlashuvining kuchayishiga olib keladi.

Xalqaro kreditning funksiyalarini ahamiyati katta va u milliy va jahon xo‘jaligi rivojlanishiga qarab o‘zgarib turadi. Hozirgi sharoitda xalqaro kredit iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini bajarmoqda va o‘zi ham tartibga solinish obyekti bo‘lib hisoblanmoqda.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishda xalqaro kreditning roli. Xalqaro kredit o‘z funksiyalarini bajarishda ikkiyoqlama – ijobiy va salbiy rol o‘ynaydi.

Xalqaro kreditning iqtisodiyotdagi ijobiy roli – uni takror ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashda va kengaytirishda namoyon bo‘ladi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro kredit ishlab chiqarishni baynalminallashuviga va ayirboshlashuviga, jahon bozorini tashkil topishiga va rivojlanishiga, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuviga olib keladi.

Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo‘nalishlar orqali jadallashtiradi.

Birinchidan, kredit mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rag‘batlantiradi, shu orqali bozorda konyunkturani ko‘taruvchi talabni yuzaga keltiradi. Tashqi savdo kreditda xalqaro me’yor bo‘lib hisoblanmoqda. Ayniqsa uzoq davr mobaynida tayyorlanadigan, iste’mol qilinadigan va bahosi baland tovarlar uchun. Mahsulotlarning bahosini va jahon savdosida mashina va asbob-uskunalarning ulushini oshishi eksportyorlarni ham, importyorlarni ham tashqi savdo kreditlariga bo‘lgan qiziqishlarini orttirmoqda.

Hozirgi zamon sharoitida kreditor-mamlakatdan eksport yetkazib beruvchi “bog‘liqlik” kreditining salmog‘i oshdi. Kreditlanayotgan davlatning tovarlarini sotib olish uchun qilinadigan xarajati qarzning sharti bo‘lib hisoblanmoqda. Xuddi shu orqali xalqaro kredit kreditor-mamlakat firmalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit chet el xususiy investitsiyalari uchun qulay muhitni yuzaga keltiradi, chunki odatda kreditor-mamlakat investorlariga imtiyozlar berish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi; infrastrukturani tashkil etish, shu jumladan, chet el va qo‘shma korxonalarni faoliyat ko‘rsatishi, xalqaro kapitalga aloqasi bor milliy korxona va banklarning pozitsiyasini kuchayishiga yordam beradi.

Uchinchidan, kredit – mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga xizmat qiluvchi xalqaro hisob-kitob va valyuta operatsiyalarini to‘xtovsizligini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, kredit – mamlakat tashqi savdo operatsiyalarini iqtisodiy samaradorligini oshiradi va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarini rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Xalqaro kreditning iqtisodiyotdagi salbiy o‘rni – bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda uning qarama-qarshiligini kuchayishida namoyon bo‘ladi hamda iqtisodiyotida nomutanosiblik chuqurlashadi, kredit-tovarlarni qayta ishlashini tezlashtiradi, mamlakatlar o‘rtasida ssuda kapitallarini qayta taqsimlaydi hamda iqtisodiy ko‘tarilish va pasayish davrlarida ishlab chiqarishni juda tezlashtiradi. Xalqaro kredit ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nomutanosiblikni kuchaytiradi, buning

oqibatida daromadli tarmoqlar rivojlanishi osonlashadi, shu bilan birgalikda chet el kapitali jalb qilinmagan tarmoqlarning rivojlanishi sekinlashadi.

Xalqaro kredit mamlakatlarning iste’mol mahsulotlar bozorlari, kapital investitsiya jarayonlari, xomashyo manbalari, ilmiy-texnik taraqqiyot sohalarida raqobatni yaratuvchi vosita hisoblanadi. Korxonalar ushbu kreditdan xomashyo manbalarini sotib olish, mahsulot sotish hajmini va kapital investitsiya jarayonlarini kengaytirish maqsadlarida faol foydalanadilar. Jahon ssuda kapitallari bozorida pul muomalasi va kredit, valyuta tizimi, to‘lov balanslari hamda milliy va jahon iqtisodiyotlarining beqarorligini kuchaytiradigan “qaynoq” pullar ham harakatda bo‘ladi.

Tashqi kredit siyosati kreditor mamlakatning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda:

Birinchidan, xalqaro kreditdan uni qarz sifatida olgan mamlakat daromadlarini qarz bergan mamlakatga olib o‘tishda foydalaniladi. Shu bilan birga ssudani har yilgi foiz to‘lovlari bilan ma’lum bir qismini qaytarilishi jamiyatning sof daromadini miqdorini ko‘payishiga, ishlab chiqarishni o‘sishini ta’minlovchi jamg‘armalarni tashkil topishiga, shu jamg‘armalarning tashkil topish manbalariga, umuman qarzdor mamlakatga salbiy ta’sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarz oluvchi mamlakat tomonidan kreditor mamlakatlar uchun qulay iqtisodiy va siyosiy muhit yaratishni taqozo etadi.

Yetakchi mamlakatlar o‘z o‘rnini yanada mustahkamlash uchun banklar, hukumatlar, xalqaro va regional valyuta-kredit va moliya tashkilotlari orqali vaqti-vaqti bilan ularga mos kelmagan siyosat yuritayotgan davlatlarga nisbatan kredit diskriminatsiyasini va kredit blokadasini qo‘llashadi.

Kredit diskriminatsiyasi – bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to‘lashda ma’lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og‘ir va murakkab shartlarning qo‘yilishidir.

Kredit diskriminatsiyasining asosiy metodlari bo‘lib, kredit bo‘yicha cheklashlar, foiz stavkasini, komission yig‘imlarni oshirish, kutilmaganda kreditdan foydalanishni to‘xtatish yoki kredit summasini kamaytirish hamda iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro kreditdan foydalanishda uning ikkiyoqlama roli namoyon bo‘ladi, bir tomondan u mamlakatlarning o‘zaro foydali aloqalarini rivojlantirsa, boshqa tomondan – raqobat kurashi vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

11.2. Xalqaro kreditning asosiy shakllari

Ishlab chiqarishning va ayirboshlashning baynalminallashuvi, jahon xo‘jaligi aloqalarini yangi shakllarini vujudga kelishi xalqaro kredit shakllarini xilma-xilligini rivojlanishiga obyektiv asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro kredit shakllarini bir necha turga bo‘lib guruhlash mumkin:

1. Manbalari bo‘yicha tashqi savdoni ichki, tashqi (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish farqlanadi. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, tovar harakatining eksportyordan importyorgacha bo‘lgan barcha bosqichlariga xizmat ko‘rsatadi. Tovar sotuv jarayoniga qanchalik yaqin bo‘lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari ham qarz oluvchiga shunchalik qulay bo‘ladi;

2. Qarz valyutasiga ko‘ra qarzdor-mamlakat yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida, SDR va xalqaro hisob-kitob valyutalarida taqdim etiladigan xalqaro kreditlar farqlanadi;

3. Muddatlariga ko‘ra qisqa muddatli – 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o‘ta qisqa muddatli – 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik), o‘rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli – 5 yildan uzoq muddatlarga beriladigan xalqaro kredit turlari farqlanadi. Ba’zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o‘rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo‘lib hisoblanadi. Qisqa muddatli kredit odatda tadbirkorlarni aylanma

kapital bilan ta’minlaydi va nosavdo xarakteridagi, sug‘urta hamda spekulyativ operatsiyalarga xizmat ko‘rsatgan holda tashqi savdo va xalqaro to‘lovlarda qo‘llaniladi. Uzoq muddatli xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko‘lamdagi loyihalar, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnikani joriy etilishi)ga xizmat ko‘rsatadi. Agarda qisqa muddatli kreditning muddati uzaytirilsa, unda u o‘rta muddatli, ayrim holatlarda esa uzoq muddatli kreditga aylanadi. Qisqa muddatli kreditlarning o‘rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanish jarayonida odatda davlat kafil sifatida faol ishtirok etadi;

4. Ta’minlanganlik tamoyiliga ko‘ra xalqaro kreditlar ta’minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi. Kreditning ta’minoti bo‘lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjatlari, qimmatli qog‘ozlar, veksellar, ko‘chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi: qat’iy garov (tovarlarning ma’lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi); muomaladagi tovar garovi (ma’lum bir summadagi, tegishli assortimentdagi tovarning qoldig‘i hisobga olinadi); qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergan holda garovga olingan tovardan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Blankali kredit qarzdorning qarzini ma’lum bir muddatda so‘ndirish majburiyati bo‘yicha beriladi. Odatda bunday kredit hujjati bo‘lib qarz oluvchining yagona imzosiga ega bo‘lgan solo-veksel xizmat qiladi. Blankali kreditning turlari bo‘lib asosan kontokorrent (bankning mijoz bilan barcha operatsiyalarini hisobga oluvchi yagona hisobvaroq) va overdraft (mijoz hisobidagi ortiqcha qoldiq mablag‘lar krediti) kreditlar hisoblanadi.

5. Taqdim etilishi bo‘yicha xalqaro kreditlar qarz oluvchi ixtiyori bilan uning hisobvarag‘iga o‘tkaziladigan moliyaviy (naqd ko‘rinishdagi) kreditlar, importyor yoki bank tomonidan akseptli tratta shaklidagi akseptli kreditlar, depozit sertifikatlari, obligatsiyali qarzlar,

konsorsial yoki sindikatlashgan kreditlar va boshqa shu kabilarga farqlanadi.

6. Kreditni qarzdorga kim taqdim etishiga qarab xalqaro kreditlar – firmalar, banklar, ayrim holatlarda vositachilar (brokerlar) tomonidan taqdim etiladigan xususiy kreditlarga; hukumat kreditlariga; xususiy tashkilotlar va davlat ishtirok etuvchi aralash kreditlarga; xalqaro, hududiy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlarning davlatlararo kreditlariga bo‘linadi.

7. Tashqi iqtisodiy bitimning qarz mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha xalqaro kreditlar quyidagilarga bo‘linadi:

- tijorat krediti (asosan tashqi savdo va xizmatlar bilan bog‘liq kreditlar);
- moliyaviy kredit (istalgan boshqa maqsadlarda foydalaniladigan, shu jumladan, kapital qo‘yilmalar, investitsion obyektlarni qurish, qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish, tashqi qarzni to‘lash, valyuta intervensiyasi maqsadlaridagi kreditlar);
- “oraliq” kreditlar (kapitallar, tovar va xizmatlarning chiqib ketishining aralash shakllariga xizmat qilishga mo‘ljallangan).

8. Xalqaro kreditni ko‘rinishi bo‘yicha 2 ta asosiy shaklga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

1. Xalqaro bank krediti;
2. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko‘rinishida bo‘lib, importyorlar tomonidan avans to‘lovlari shaklida ham taqdim etilishi mumkin. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar yetkazib berish bo‘yicha tijorat bitimining shartlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko‘rinishiga ega bo‘lib, asosan eksportyorlardan importyorlarga taqdim etiladi.

Firmaning (tijorat) krediti – odatda eksport qiluvchi mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning import qiluvchiga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashqi savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga bog‘liq hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha bo‘ladi va jahon bozori konyunkturasi shartlariga, tovarlar turlariga va

boshqa bir qator omillarga bogliqdir. Mashina va asbob-uskunalar (texnologiya, jihozlar)ning eksporti kengayishi xalqaro kredit muddati uzayishiga olib keladi. Tijorat krediti odatda, veksel yoki ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kreditlar orqali rasmiylashtiriladi.

Vekselli kreditda eksport qiluvchi tovarni sotish haqida bitim tuzib, o‘tkazma veksel (sarf-xarajatlar)ni import qiluvchiga jo‘natadi, import qiluvchi tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya’ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit. Bu kredit eksport qiluvchi va import qiluvchi o‘rtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksport qiluvchi jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini import qiluvchining hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Import qiluvchi shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Tijorat kreditining yana bir turiga import qiluvchining avans to‘lovi (sotib oluvchining avansi)ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma tuzilayotgan paytda import qiluvchi tomonidan chet ellik mol yetkazib beruvchiga odatda mashina, asbob-uskunalar (texnologiya)ning qiymatidan 10-15 foizi oldindan to‘lanadi.

Xarid bo‘naki eksportni kreditlashning bir shakli bo‘lib hisoblanadi va shu vaqtning o‘zidan boshlab import qiluvchining majburiyatini ta’minlovchi vositaga aylanadi. Chunki, import qiluvchi o‘zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug‘ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o‘laroq, xarid bo‘nagidan shu davlatlarning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

Bo‘nak to‘lagan tomonning aybi bilan, shartnoma bajarilmay qolsa, sarf-xarajatlar undirilgan holda mablag‘ qaytariladi. Agar shartnoma bo‘nak olgan tomonning aybi bilan bajarilmay qolsa, u sotib oluvchiga barcha xarajatlarni to‘lagan holda mablag‘ni qaytarishi shart.

Bo‘nak — shartnoma bajarilishidan voz kechish mumkin bo‘lgan bitimga nisbatan rag‘batlantiradi. Voz kechish mumkin bo‘lgan bitimda esa, zarar ko‘rgan tomonning xarajatlarini to‘lash majburiyatlaridan

ikkinchi tomon ozod bo‘ladi. Ba’zan xarid – sotib oluvchining avansi to‘lovni kechiktirishga o‘zaro moslashadi, buning ustiga teng ulushlar bilan ma’lum intervallarga bo‘linadi (oy, kvartal, 1 yil).

Tijorat krediti sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi munosabatni namoyon qilsada, u odatda, bank krediti bilan qo‘shilib, moslashadi. Mashina va asbob-uskunalarni sotishda tijorat krediti uzoq muddatga beriladi (7 yilga), bu esa, o‘z navbatida, eksport qiluvchining anchagina mablag‘ini jalb qila oladi. Shu sababdan, eksport qiluvchi qonundagidek, bank kreditiga murojaat qiladi yoki o‘z kreditini banklarda qayta moliyalashtiradi.

Tijorat krediti hajm va moliyalashtirish shartlari bo‘yicha mashina va asbob-uskunalar eksportini kreditlash muammosini to‘liq yecha olmaganligi sababli, bank kreditlarining roli oshadi.

Bank kreditlari. Bank krediti — eksport va importni kreditlashda ssuda shaklida namoyon bo‘ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellarni, hamda sarf-xarajatni garovga olgan holda beriladi. Ba’zan, banklar o‘zlari bilan chambarchas aloqada bo‘lgan yirik eksport qiluvchi firmalarga blankli kredit, ya’ni rasmiy ta’minlanmagan kreditlar berishadi.

Xalqaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustunlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablag‘laridan tovarlar sotib olishga mustaqil foydalanish imkoniyatini tug‘diradilar, mol yetkazuvchi firmadan kredit so‘rashdan ozod etadilar hamda oxirgi tovarlarga hisob-kitoblarni bank kreditidan foydalanib to‘laydilar. Xususiy banklar ko‘pincha davlat mablag‘larini va uning kafolatini olgan holda eksport kreditlarini 10-15 yilga bozor stavkasidan pastroq stavkada beradilar. Lekin, banklar qoida bo‘yicha, kreditdan o‘z mamlakatlari hududidagina foydalanishni chegaralab, uning intilishini ma’lum maqsadli qilib qo‘yadilar, masalan, faqat o‘zlarini qiziqtirgan firmaning tovarlarini sotib olishga yo‘naltiradilar. Shu orqali bank krediti firma krediti xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Bank kreditini banklar, bankir uylari va boshqa kredit muassasalari beradilar.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalarni kreditlash operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchisi uchun, yirik kredit resurslarini jamlash uchun va

bank xavf-xatarini bir maromda taqsimlash uchun banklar konsorsiumlar, sindikatlar, bank fondlarini tashkil qiladilar. Banklar eksport va moliya kreditlarini beradilar.

Eksport krediti — eksport qiluvchi bankining import qiluvchi bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul koʻrinishida beriladi va “bogʻliq”lik tusiga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan faqatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi. Oʻtgan asrning 60-yillaridan boshlab, eksportni kreditlashning shakli sifatida iste’mol krediti (5-8 va undan ortiqroq yil muddatga) yuzaga keldi.

Iste’mol krediti. Iste’mol kreditining oʻziga xos xususiyati boʻlib, eksport qiluvchi bankning toʻgʻridan toʻgʻri milliy eksport qiluvchini kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya’ni import qiluvchi mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi. Shu orqali import qiluvchi kerakli tovarlarni yetkazgan mol yetkazib beruvchilar toʻlovni xaridorga yoki bankka qarz sifatida qayd qiladi. Odatda, bunday kreditlar ma’lum bir firmaning tovarlari va xizmatlaridan foydalanishda qoʻllaniladi. Bunday kreditlash shartnomasida eksport qiluvchi ishtirok etmaydi, bu esa, oʻz navbatida, kreditning bahosini oshirish imkoniyatini yoʻqotadi. Bank kreditining xaridorga boʻlgan narxi, qoida boʻyicha ssuda kapitallari bozoridagi qarz mablagʻlari narxidan ancha past boʻladi, bu oʻz navbatida, ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Moliyaviy kredit har qanday bozorlarda va imtiyozli shart-sharoitlar asosida tovarlarni sotib olish imkoniyatini beradi. Moliyaviy kredit koʻp holatlarda tovar yetkazib berilishi bilan toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq emas va asosan tashqi qarzni soʻndirish, valyuta kursini qoʻllab-quvvatlash, avuarlar (hisobvaraqlar)ni xorijiy valyutada toʻlatish uchun moʻljallangandir.

Eksportni kreditlashning shakllarini boshqa bir turi **akseptli-rambursli kredit** hisoblanadi. Ushbu kredit eksportyor veksellarining uchinchi davlat banki tomonidan akseptlanishi hamda importyor tomonidan veksel summasini akseptant-bankka oʻtkazilishi (ramburslanishi)ning bogʻliqlikda amalga oshishiga asoslangan.

Broker krediti ayrim mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya) firma va bank kreditlarining oraliq shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kredit tijorat krediti sifatida bitimlarga bog‘liq bo‘ladi, shuningdek, brokerlar bank mablag‘larini qarzga olganlari uchun bank kreditiga ham aloqadordir. Brokerlarning vositachilik haqi odatda shartnoma summasining 1/50-1/32 qismini tashkil qiladi. Buyuk Britaniyada brokerlik firmalarining alohida assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Brokerlar jahon bozoridagi holat to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lishadi. Ular kredit operatsiyalarini amalga oshirishdan tashqari sotib oluvchilarning to‘lov qobiliyatlari yuzasidan kafolatlarni ham taqdim etadilar. Hozirda broker kreditlarining tashqi savdodagi roli pasaygan.

11.3. Xalqaro kredit operatsiyalarida faktoring va forfeyting

Faktoring (“factoring” inglizcha “factor” – vositachi so‘zini anglatadi) – ixtisoslashgan moliyaviy kompaniya tomonidan mahsulotni sotuvchining sotib oluvchiga bo‘lgan pul talablarini sotib olish shaklidagi kreditdir. Xalqaro faktoring – eksportyorning importyorga to‘lanmagan mablag‘lari bo‘yicha to‘lov talabnomasini faktoring kompaniyasi (odatda bank) tomonidan sotib olish orqali eksportni kreditlash shakli hisoblanadi. Faktoring fompaniyalarining rivojlanishi 1960- yillardan boshlangan bo‘lib, to‘lovlarni kechikishi, amalga oshmasligi hamda eksportyorlarni kreditlarga bo‘lgan talablarini ortib borishi bunga sabab bo‘lgan. Uning tarixiy shakli “koloniya” ko‘rinishidagi faktoring hisoblanadi. Unda tovarlar oldi-sotdisi, omborxona va komission operatsiyalar amalga oshirilgan. Qadimda va o‘rta asrlarda xaridorlar guruhi yangi bozorlarda tovarlarni sotish bo‘yicha agentlar rolini o‘ynaganlar. Bu tovar faktoring deb yuritilgan. Moliyaviy faktoringlar dastlab AQShda 1890- yillarda Yevropadan gazlama importini qisqartirish va shu yo‘l bilan milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida paydo bo‘lgan. Bu kabi operatsiyadar ikkinchi jahon urishidan so‘ng keng ko‘lamda taraqqiy topdi.

Mablag‘larni talab qilish muddati kelguncha ekportyorni avanslagan holda faktoring kompaniyasi uni kreditlaydi. Kreditlash hajmi mijozning kreditni to‘lash qobiliyatiga ko‘ra hisob-faktura summasining 70-90 foizi miqdorida bo‘ladi. Qolgan 10-30 foizi kreditning foizi qilib hisoblanadi va komission xizmatlar xarajati mijoz hisobidan to‘lanadi. Ushbu hisobvaraq mablag‘lari faktoring kompaniya o‘z zimmasiga olmagan tijorat risklarini (tovar sifatining talabga javob bermasligi, bog‘lamining butligi, narx bo‘yicha tortishuv va boshqalar) qoplashga xizmat qiladi. To‘lov talabnomasini inkassatsiya qilingandan keyin faktoring kompaniyasi hisobni yopadi va eksportyorga uning qoldig‘ini, shuningdek, muddati o‘tkazib yuborilganligi uchun importyor to‘lagan jarimalar bilan birga qaytaradi.

Shartnomani tuzish nuqtayi nazaridan **xalqaro faktoring**ni quyidagi **turlari** farqlanadi:

- o‘zaro (ikki faktoringli) – eksportyor va importyor mamlakatiga mos ravishda tashqi iqtisodiy bitimlarga xizmat ko‘rsatuvchi ikkita faktoring kompaniyasining o‘zaro munosabatlari ko‘rib chiqiladi;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri import – eksport tushumlarini inkassatsiya qilish yo‘li bilan yoki importyorga to‘lov kafolatini berish orqali eksportyor bilan tuziladigan importyor mamlakatlarida faktoring xizmat ko‘rsatish (doimiy bitim) shartnomalari;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri eksport – eksportyorning mamlakatida o‘z zimmasiga kredit riskini oluvchi faktoring kompaniya bilan faktoring shartnomasini tuzish. Bunda faktoring kompaniyasi importyorni to‘lov qobiliyatiga baho beradi va unga taqdim etilgan hisob-fakturalarni inkassatsiya qiladi.

Faktoring operatsiyalarining qiymati (to‘lov talabnomasi sifatida importyorning to‘lov qobiliyatiga bog‘liq holda bitim summasidan 0,5-2 foiz) komission xarajatlarini o‘z ichiga oladi va kredit uchun foiz hisob-fakturaga avans to‘lov shaklida bo‘ladi.

Faktoring kreditlari uchun foiz odatda faktoring kompaniyalarini foydasini ta’minlash uchun rasmiy hisob stavkasidan 2-4 foiz yuqori bo‘ladi. Nisbatan qimmat bo‘lishiga qaramasdan eksportyorlar faktoring

operatsiyasini o‘tkazishdan manfaatdor bo‘lishadi. Ya’ni **faktoring operatsiyalari eksportyorlarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi**:

- muddati 120 kun bo‘lgan faktoring kreditlari orqali valyutaviy tushumlar shaklida asosiy summani muddatidan oldin olish imkoniyati;
- importyorlarning qarzlarini inkassatsiya qilishdan ozod etish va inkassatsiya muddatini o‘rtacha 15-20 foiz qisqarishi;
- faktoring kompaniyasi importyor bilan hisob-kitob operatsiyalariga malakali xizmat ko‘rsatishi hisobiga buxgalteriya, boshqaruv va boshqa xarajatlarni qisqarishi;
- importyor tomonidan to‘lov muddatini o‘tkazib yuborish yoki kechiktirish hisobiga shubhali debitorlik qarzdorlikni paydo bo‘lishidagi risklarni bartaraf etish. Faktoring kompaniya to‘lanmagan hisob-fakturalarni sotib olish orqali undagi barcha risklarni o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun u importyorning to‘lov qobiliyati nuqtayi nazaridan o‘zi egallaydigan to‘lov talabnomalarini diqqat bilan tekshiradi. Alohida importyorlar qarzlari bo‘yicha limitlarni o‘rnatadi;
- faktoring kompaniyasining turli-xil ya’ni yuridik, axborot-targ‘ibot, maslahat va boshqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini mavjudligi.

Faktoring xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaning mavjudligi bankdan kredit olishni yengillashtirgan holda eksportyorning kredit qobiliyatini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida eksportyorni ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish uchun sharoitni yaratib beradi va uning foydasini oshiradi.

Yirik transmilliy kompaniyalar tomonidan turli mamlakatlarga korxonalarga faktoring xizmatlarini ko‘rsatish uchun maxsus tarmoqlar-filiallar ochiladi va ularning soni borgan sari hozirda ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2000- yil 15- iyunda 476- son bilan tasdiqlangan ***“Tijorat banklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom*** (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000- yil 3- avgustda 953- son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) mamlakatimizda faktoring

operatsiyalarini amalga oshirish uchun asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi.

Ushbu hujjatga ko‘ra faktoring – bu xo‘jalik-yurituvchi subyektlar-ta’minotchilar (mijoz)ni bank (akseptlangan (mijoz roziligi asosidagi) to‘lovlarni olish huquqiga ega bo‘lgan moliyaviy agent, ya’ni mijoz kontragenti uchun to‘lovchi) tomonidan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarga berilgan to‘lov talabnomalarini regress (muomala) huquqisiz moliyalashtirilishi bilan bog‘liq bank xizmat turlaridan biridir.

Mamlakatimizda to‘lovchi moliyaviy agent (bank) tomonidan ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari bo‘yicha pullik talabnomalarni mijoz tomonidan ijro etish muddati 90 kundan ortiq bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Faktoring operatsiyasi bo‘yicha mijoz tomonidan muddatida to‘lanmagan to‘lovlarni yoki majburiyatlarni qonuniy asosda tugatish choralarini ko‘rishlari lozim.

Xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga ega bo‘lgan tashkilotlar, korxonalarga o‘zlarining vakolatli banklari eksport operatsiyalari bo‘yicha faktoring operatsiyalari xizmatini ko‘rsatishi mumkin.

Forfeyting (inglizcha “forfeiting”, fransuzcha “a forfait”– degan so‘zlardan olingan bo‘lib, butunlay, to‘laligicha, umumiy, yalpi summa degan ma’nolarni anglatadi) bir martalik to‘liq to‘lov evaziga to‘lovchiga ma’lum bir huquqlar taqdim etilishini bildirib, forfeyting kompaniyasi yoki bank tomonidan veksellarni hamda boshqa qarz majburiyatlarini to‘liq muddatga, oldindan belgilangan shartlar asosida sotib olinishi hisoblanadi. Forfeyting xalqaro savdo va xizmatlar ko‘rsatish sohasida mahsulotlar va xizmatlar bo‘yicha kelajakda olinishi lozim bo‘lgan tushumlar o‘rniga mablag‘larni o‘sha kunning o‘zida olish imkoniyatini yaratganligi uchun ham keng qo‘llaniladi.

Eksport forfeytingi bu chet ellik importyordan eksportyorning to‘lov talabnomalarini forfeytor tomonidan sotib olish shaklidagi kredit hisoblanadi. Forfeytor o‘zi to‘langan summani o‘rnini qoplashi uchun eksportyordan importyor jo‘natgan to‘lov qimmatli qog‘ozini regress (muomala) huquqisiz to‘liq muddatga sotib oladi. “Regress huquqisiz”

tushunchasi barcha risklar va javobgarlik qarzdor zimmasiga olinishini bildiradi.

Forfeyting qimmatli qog‘ozlarining asosiy turlari oddiy va o‘tkazma veksellar hisoblanadi. Ular bilan operatsiyalar oson va sodda amalga oshiriladi. Veksellardan tashqari forfeyting obyekti bo‘lib akkreditiv shaklidagi majburiyatlar olinishi mumkin. Akkreditiv hisob-kitob va pulli hujjat hisoblanadi. Bir bankning (kredit tashkilotining) boshqasiga transportga yuklab jo‘natilgan mahsulot hujjatlari asosida maxsus hisobda saqlanayotgan mablag‘larni o‘tkazish yoki akkreditivni taqdim etuvchiga ma’lum bir summani to‘lash to‘g‘risidagi topshirig‘ini o‘zida namoyon etadi. Hujjatli akkreditiv chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan bo‘lishi mumkin. Chaqirib olinmaydigan akkreditivda uning barcha shartlarga rioya etgan holda tijorat hujjatlarini bank-emitentga taqdim etilganda to‘lovlarni amalga oshirish belgilangan.

Eksportni kreditlash shakli sifatida **forfeyting quyidagi xususiyatlarga ega**:

- amalda ma’lum to‘lov talabnomalarini sotib olish. Forfeyting shartnoma qiymatining 100 foizigacha kreditlashni o‘z ichiga olishi mumkin (bunda bojxona xarajatlari hisobga olinmaydi);

- yirik summadagi (250 ming AQSh dollaridan ortiq) va uzoq muddatli bitimlarda (6 oydan 10 yilgacha bo‘lgan bitimlarda) foydalaniladi. Bunda eksportyor roziligi talab etiladi;

- importyor qarzlari birinchi toifali banklar tomonidan avallangan (kafolatlangan) veksellar shaklida rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak, bu shart ularni qayta hisobga olib borish uchun zarurdir. Veksellarni uzatish indossament orqali rasmiylashtiriladi;

- yuqori qiymat. Veksellar hisobi ma’lum bir davlatning yoki LIBOR stavka orqali amalga oshiriladi, shuningdek, qat’iy stavkadan ham foydalanish mumkin. Diskont hajmi (LIBOR+% (valyuta shartnomalarida o‘rtacha 7-12,5% yillik stavka bo‘ladi)) forfeytor o‘ziga qabul qilgan risk, veksel muddati va valyutaga bog‘liq;

- faktoringga xos bo‘lgan barcha risklar (to‘lovni, o‘tkazmalarni amalga oshmasligi, valyutaviy va boshqalar) mavjud bo‘lib, shuningdek,

unga uzoq muddatli qarz talabnomalariga ega bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lgan risklar ham qo‘shiladi;

- forfeytingdagi risklar hisobiga veksellar va boshqa qarz majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda shuning uchun ushbu operatsiyaga qatnashuvchi banklar o‘zaro korrespondentlik tarmoqlaridan foydalanishadi;

- forfeyting lizingdan oddiy hujjatlarni rasmiylashtirish bilan farq qilib, keyinchalik tasdiqlash hisobiga odatda telefon orqali amalga oshiriladi;

- forfeytingdan davlat va mahalliy tizimda foydalanish mumkin, shuningdek, eksport kafolat ostida moliyalashtiriladi.

Forfeyting eksport krediti sifatida **eksportiyorga bir qator afzalliklarni taqdim etadi**, ya’ni eksportdan tushumlarni muddatidan avval olish, debitorlik qarzlarini qisman yo‘qotish hisobiga korxona balansini yaxshilash, qarz talabnomalarini va unga xos risklarni samarali boshqarish. Bu eksportyorlarga muddati kechikayotgan to‘lovlar bo‘yicha bitimlarni tuzishga imkon beradi, shuningdek, davlat kafolati hamda kreditlarini olishni iloji bo‘lmaganda ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi. Forfeytingda qat’iy stavkalardan foydalanish qarz oluvchiga kredit bo‘yicha xarajatlarni aniq rejalashtirish imkoniyatini beradi. Veksel qarz hujjatlarini rasmiylashtirish oddiy tarzda va operativ amalga oshiriladi. Sotib oluvchi uchun forfeytor tomonidan oldindan qat’iy stavkada kreditlashga opsion taqdim etilishi mumkin va unga mahsulotning shartnomaviy bahosiga moliyalashtirish xizmatlari bo‘yicha o‘z xarajatlarini kiritish imkoniyati mavjud. Sotib oluvchiga olingan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni muddatini uzaytirish imkoni yaratiladi.

Forfeyting quyidagi **kamchiliklarga ega:**

- sotib oluvchi (importyor yoki qarzdor) qarz vositalarini haqiqiyligini ta’minlash bo‘yicha javobgar hisoblanadi. U oddiy veksellar yoki trattalar, kafolatlar va avallar bo‘yicha, shuningdek, xalqaro bitimlarda forfeyting amalga oshirilsa valyutaviy qonunchilikdan to‘la xabardor bo‘lishi kerak;

- bank o‘z xizmatlari uchun kreditlash operatsiyalariga nisbatan ko‘proq foiz to‘lovlarini undiradi va veksel hamda boshqa kredit hujjatlarini ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorida sotishi mumkin;

- garov ta’minotchini izlashda qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin (kredit hujjati kabi, forfeytorni qanoatlantiruvchi garov ta’minotchini topish);

- boshqa turdagi kreditlarga nisbatan foiz stavkalari yuqori bo‘ladi, biroq qarzdor sug‘urta xarajatlarini amalga oshirmaydi va bu ba’zan o‘zini oqlaydi.

Forfeytingni amalga oshirish tartibi quyidagi operatsiyalar ketma-ketligidan iborat bo‘ladi (1-rasmga qarang).

1. Eksportyor va importyor to‘lov muddatini ko‘rsatgan holda o‘zaro bitim yoki shartnoma tuzadi.

2. Eksportyor operatsiya shartlarni aniqlovchi forfet-kompaniyaga ariza bilan murojaat qiladi. Agar eksportyor u bilan avvaldan maslahatlashgan bo‘lsa, u shartnoma qiymatiga veksel hisobi bo‘yicha xarajatlarni qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Importyor tijorat vekselini yozib beradi va uni o‘z mamlakatining bankida avallaydi, ya’ni kafolatlaydi.

4. Importyor o‘z mamlakatining bankida indossatsiya[35]langan ya’ni bank tomonidan to‘lovni amalga oshirish huquqi berilgan vekselni eksportyorga jo‘natadi.

5. Eksportyor vekselni indossatsiyalaydi va uni birlamchi bozorda regress (muomala) huquqini inkor etgan holda forfet-bankga sotadi.

5a. Eksportyor chet el valyutasidagi tushumni forfet-bankdan oladi.

6. Forfeyting banki vekselni indossatsiyalaydi va uni ikkilamchi bozorda qayta sotadi.

7. Forfet-kompaniya (yoki vekselni oxirgi egasi) importyorga vekselni to‘lash uchun taqdim etadi.

[35] Indossatsiya (nemischa “Indossament”, fransuzcha “endossement”, lotincha “in” + “dorsum” orqasida, ortida degan ma’nolarni anglatadi) – qimmatli qog‘oz, veksel, chek, konosament va boshqalarga bo‘lgan huquqni boshqa shaxslarga o‘tganligini tasdiqlovchi o‘tkazma imzo. Imzo hujjat yuridik kuchga ega bo‘lishi uchun kerak. Moliyaviy hujjatning orqa tomoniga o‘tkazma yozuvini qo‘yish.

7a. Importer esa o‘z banki orqali taqdim etilgan vekselni belgilangan muddatda to‘lab beradi.



11.1-rasm. **Forfeyting operatsiyasini amalga oshirish tartibi**

Forfeytingni qo‘llash sohasi rivojlanib bormoqda, dastlab birinchi toifali eksport operatsiyalarida va chet eldagi qurilish korxonalarida, keyinchalik asbob-uskuna, xomashyo va keng qamrovli iste’mol tovarlari eksportida taraqqiy etmoqda. Forfeyting tijorat kreditini bank kreditiga aylanishining o‘ziga xos bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bunday usulda tashqi savdoni kreditlash Angliya va Germaniyada keng tarqalgan. Oddiy forfeyting bitimida ishtirokchi tomonlar sotuvchi, solib oluvchi va bank-kreditor bo‘lishadi.

Forfeyting operatsiyalari rivojlanishi bilan “a forfe” bozori shakllandi. Birlamchi bozorda forfetorlar veksel shaklidagi importyorlarga bo‘lgan to‘lov talabnomalarini sotib olib eksportni kreditlaydilar. Ikkilamchi bozorda veksellarning belgilangan muddati davomida qayta-qayta hisobga olish amalga oshiriladi. Forfeytor komission foydasi odatda 1-1,5%ni tashkil etadi. Forfeytor importyordan bank kafolatini taqdim etishni talab qiladi yoki o‘zi qo‘shimcha to‘lov evaziga riskni zimmasiga olishi mumkin. Forfeytorlar qariyb barcha turdagi valyuta risklaridan eskportyorni himoyalaydi.

Forfeyting bitimida bir qator **cheklovlar** mavjud:

- sotib oluvchi avvaldan ogohlantirilgan bo‘lishi va qarzni so‘ndirishga rozi bo‘lishi lozim;

- agar kompaniya xalqaro kompaniya yoki davlat tashkiloti hisoblanmasa, kreditor tanlovi asosida qarzni qaytarish majburiy ravishda bank yoki davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lishi lozim;

- forfeyting bitimlari bank kreditlaridan farqli ravishda sir saqlanadi, tashkil etilgandan so‘ng reklama va e’lonlarda nashr qilinadi. Boshqa tomondan esa forfet-kreditor ikkilamchi bozorda qarz qimmatli qog‘ozlarini sotsa, bitim shartlari barchaga ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun ushbu holat forfeyting bitimida ko‘rsatilishi lozim.

Forfeyting va faktoringni o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari (jadvalga qarang). Faktoringda moliya instituti (faktor) eksportyor bilan kelishgan holda eksport bitimini amalga oshirish bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Ya’ni xorijiy sotib oluvchidan tushadigan to‘lovlarni undirish asosida eksportyorning asosiy faoliyatini yuritishini qo‘llab-quvvatlaydi. *Faktoringa nisbatan forfeyting bir qator afzalliklarga ega.*

- faktoring qisqa muddatli moliyalashtirishda (90 kundan 180 kungacha bo‘lgan oraliqda) foydalaniladi. Bunda valyutalar miqdori nisbatan kam bo‘ladi va ekportyor uchun risk yuzaga keladi (ya’ni moliya institutlari odatda qarzning 80 %gacha bo‘lgan qismini qabul qilishadi va importyorning to‘lov qobiliyati bo‘lmaganda ekportyordan regress huquqini saqlashni talab qiladi);

- faktoring forfeytingdan ko‘ra qimmatroq hisoblanadi. Ya’ni faktoringni foiz stavkasi forfeytingli moliyalashtirish shaklidan odatda yuqori bo‘ladi;

- faktoring operatsiyasidan farqli ravishda forfeytingda bank to‘liq muddat bilan jami summani veksel ko‘rinishida barcha tijorat risklari bilan birga va regress huquqisiz o‘z zimmasiga oladi. Bu esa eksportyor uchun ko‘proq foydali hisoblanadi.

Forfeyting ham faktoring kabi debitorlik qarzlarini sotish operatsiyasi hisoblanadi. Shunday bo‘lsada ular orasida bir qator farqlar mavjud.

Forfeyting operatsiyasining mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- sotuvchi xaridorga to‘lov muddatini uzaytirishga imkon bergan holda sotib oluvchidan qarz tilxati (veksel)ni yozib berishini talab qilishi mumkin. Majburiyatlarni bajarish muddati kelganda veksel bo‘yicha sotib oluvchi hech qanday mojarosiz to‘lovlarni olish huquqiga ega bo‘ladi. Muddati uzaytirilga to‘lovlar bo‘yicha veksel aylanma veksel hisoblanadi. Riskni kamaytirish uchun sotuvchi veksel bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxs kafolatini talab qilishi mumkin. Vekselda uchinchi shaxs kafolati **aval** deb nomlanadi va bunday veksellar avallangan veksellar hisoblanadi. Veksel o‘z xususiyatiga ko‘ra kuponsiz (davriy foiz to‘lovi bo‘lmagan) obligatsiyalar turkumiga kiritish mumkin. Vekselni ixtiyoriy vaqtda unga yozgan holda uchinchi shaxsga (forfeytorga) sotish mumkin. Vekselni qayta yozib uzatuvchi **indossament** hisoblanadi. Vekselni sotgan holda uning egasi qarzni talab qilish huquqini forfeytorga beradi. Shunday qilib, tovarlarni yetkazib beruvchi vekselni sotgan holda to‘lov muddati kelgunga qadar mablag‘larni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- vekselni sotishda uning egasi komission xarajatlarni to‘lamaydi. Vekselning nominal qiymatidan forfeytor tomonidan uning egasiga taqdim etiladigan chegirma hisobiga amalga oshiriladi. Bu chegirma “diskont” deb yuritiladi. Uning hajmi bitimni tuzuvchi tomonlar bilan kelishilgan holda o‘rnatiladi. Bunda pul bozoridagi foiz stavkalar va risklar hisobga olinadi.

11.1-jadval

Faktoring va forfeyting xususiyatlarini taqqoslash

Faktoring	Forfeyting
Operatsiya obyekti – asosan hisob-varaqa hisoblanadi (schyot-faktura)	Operatsiya obyekti – asosan (oddiy yoki o‘tkazma) veksel hisoblanadi
Qisqa muddatli kreditlash (90 kundan 180 kungacha)	O‘rta muddatli kreditlash (180 kundan 10 yilgacha)
Faktor imkoniyatiga qarab kredit summasi cheklanadi	Sindikatsiyalash imkoniyatiga qarab kredit summasi ancha yirik bo‘lishi mumkin

Faktor qarzning 70-90 foizi miqdorida kreditorning aylanma kapitalini avanslaydi. Qolgan 10-30 foizi sotib oluvchi tomonidan mahsulotlar bo‘yicha komission va foiz xarajatlari chiqarilgan holda qarzni qoplab bo‘lgandan so‘ng kreditor hisobiga kelib tushadi	Diskont summasini chegirgan holda forfeyter qarzning jami summasini to‘lab beradi
Faktor kreditorga bo‘lgan regress huquqini o‘zi bilan qoldirishi yoki bunday huquqdan voz kechishi mumkin, lekin bunday holatda mahsulotlar eksportida siyosiy va valyuta risklariga eksportyor duchor bo‘ladi	Forfeytor mahsulotlar eksportida valyuta va siyosiy risklar bilan birga boshqa barcha to‘lovlarni amalga oshmasligi bilan bog‘liq risklarni o‘z zimmasiga oladi
Operatsiya kreditor (mijoz)ga sug‘urta, yuridik, sotish, reklama, axborot-targ‘ibot, buxgalteriya va boshqa xizmat ko‘rsatish turlari bilan boyitilishi mumkin	Qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish mo‘ljallanmaydi
Faktorga faktoring aktivlarini qayta sotish imkoniyati mavjud emas.	Ikkilamchi bozorda forfeytor tomonidan forfeyting aktivlarini qayta sotish mumkin
Uchinchi shaxs kafolati talab etilmaydi	Uchinchi shaxs kafolati yoki aval talab etiladi
Mavjud pul talabnomalari yoki pul talabnomalaridan chegirmalar shartnomada aniq ko‘rsatilgan holda, kelajakda paydo bo‘ladigan talabnomalar orqali kreditlanadi.	Mablag‘larni jamlash maqsadida va savdo bilan cheklanmaydigan boshqa maqsadlarni amalga oshirish uchun chiqarilgan moliyaviy vekseldan chegirma orqali kreditlanadi

Faktoring operatsiyalari debitorlik qarzlarini o‘z vaqtida so‘ndirolmaslik va ularni kreditlash manbalarining cheklanganligi oqibatida doimiy moliyaviy qiyinchiliklarga duchor bo‘luvchi kichik va

o‘rta biznes korxanalari uchun samarali bo‘ladi. Bu usul bunday korxonalarga qo‘shimcha elementlari, ya’ni buxgalteriya, axborot-targ‘ibot, reklama, sotish, yuridik, sug‘urta va boshqa xizmatlarni taqdim etishi bilan ham ma’qul hisoblanib, ularni ishlab chiqarish faoliyatini rag‘batlantiradi va ish haqi xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Forfeyting operatsiyasi uzoq muddatli va qimmat loyihalarni amalga oshirishga pul mablag‘larini to‘plash uchun yirik korxonalarga samaraliroq hisoblanadi.

11.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni uzoq muddatli moliyalashtirish shakllari

“Uzoq muddatli kredit” atamasi amaliyotda kredit muassasalarining ssudalariga aloqador bo‘lib, u odatda, davlat va xususiy korxonalar, banklar tomonidan o‘z qarz majburiyatlarini chiqarish orqali milliy hamda jahon ssuda kapitallari bozorlaridan qarz mablag‘larini jalb etish shaklida amalga oshiriladi. Uzoq muddatli kredit va qarzlar mashina hamda asbob-uskunalar eksportiga, iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ida turli yirik loyihalarni amalga oshirishga, asosiy kapital orqali takror ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat ko‘rsatadi. Yirik kredit muassasalari uzoq muddatli xalqaro kreditlarni nazariy jihatdan 40 yilgacha, amalda esa 10-15 yil muddatga taqdim etadilar.

Kompensatsion bitimlar bo‘yicha kreditlar. Banklar tovar qiymatiga teng bo‘lgan, o‘zaro yetkazib berishga asoslangan kompensatsion bitimlar bo‘yicha uzoq va qisqa muddatli kreditlarni taqdim etadilar. Korxonani barpo etish va qayta tiklash, tabiiy resurslarni o‘zlashtirish uchun mashina va asbob-uskunalarni 8-15 yil muddatga kreditga olgani holda qarz oluvchi uni mazkur kredit asosida qurilgan va qurilayotgan korxonalar mahsulotlari hisobiga so‘ndirilishini ta’minlaydi. Kompensatsion bitimlarni o‘ziga xos xususiyatlari ularning keng ko‘lamli, uzoq muddatli ekanligi hamda eksport-import bitimlarini o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Kompensatsion bitimlar bo‘yicha kreditlar va importyor sotib olinadigan mashina va asbob-uskunalar uchun to‘lov hamda tegishli xarajatlarni qoplash uchun tovarlarni qayta

eksport qilishdan tushum hisobiga o‘zaro bog‘liq bo‘lishadi. Kompensatsion bitimlarni amalga oshirishda odatda firma (tijorat) kreditlariga nisbatan uzoq muddatli konsorsial yoki sindikat kreditlar keng qo‘llaniladi. Bunday kreditlarni bank konsorsiumlari yoki sindikatlari taqdim etadilar. Amaliyotda mazkur holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab birinchidan, milliy qonunchiliklarda banklar uchun bir qarz oluvchiga ajratiladigan kredit limitini o‘rnatilishi bo‘lsa, ikkinchidan banklar kreditlarni taqdim etishda risk darajasini cheklashga harakat qilishi hisoblanadi.

Byudjet mablag‘lari hisobdan ajratiladigan uzoq muddatli xalqaro kreditlar. Byudjet mablag‘lari hisobidan ajratiladigan uzoq muddatli (muddatlari 10-15 yil va undan ortiq) xalqaro kreditlarning quyidagi shakllari farqlanadi:

1) hukumatlarning ikki taraflama kreditlari. Davlatlararo uzoq muddatli kredit birinchi jahon urushi davrida keng ko‘lamda shakllandi va urushdan keyingi yillarda yanada rivojlandi. AQSh asosiy kreditor sifatida chiqdi va davlatlararo nizolarni kuchaytirib yuborgan hukumatlararo qarzdorlik (11 mlrd. oltin dollarlari, foizlarni hisobga olmaganda) paydo bo‘ldi. O‘z kreditlarini Fransiya nemis reparatsiyalari hisobiga, Germaniya esa AQShdan yangi kreditlarni olish hisobiga so‘ndirdi. 1929–1933- yillarda yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi davrida Germaniya va boshqa 25 davlat qarz bo‘yicha to‘lovlarni to‘xtatib qo‘ydilar. Ikkinchi jahon urushi davrida hukumatlararo qarzlar muhim rol o‘ynamadi. Harbiy va boshqa turdagi materiallarning yetkazib berilishi asosan “lend-liz” (ijara) shartlari asosida amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dastlab AQSh, so‘ngra boshqa dunyoning yetakchi davlatlari o‘zlarining tashqi iqtisodiy manfaatlar uchun hukumatlararo kreditlardan keng foydalanishdi;

2) xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning kreditlari;

3) yordam ko‘rsatish bo‘yicha imtiyozli shartlar asosida berilgan kreditlar, texnik yordam, beminnat xayriya mablag‘lari, subsidiyalar.

Ayrim holatlarda **xalqaro kreditning aralash turi** qo‘llaniladi. Masalan, eksportni kreditlashning odatdagi shakllari imtiyozli shartlar

asosida ya’ni unga yordam ko‘rsatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro kreditning yangi shakllaridan biri bo‘lib bir nechta kredit muassasalari tomonidan yirik loyihalarni **qo‘shma moliyalashtirish** hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari qo‘shma moliyalashtirishning tashabbuskorlari bo‘lib, mazkur operatsiyaga ular odatda xususiy tijorat banklarini ham jalb etadilar va loyihaning eng foydali qismini imtiyozli asosda (foiz stavkasi bozor stavkasidan past) kreditlaydilar.

Qo‘shma moliyalashtirishning quyidagi 2 shakli qo‘llaniladi:

- *parallel moliyalashtirish*, bunda turli kreditorlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilangan kvota (ulush, hissa) doirasida loyiha tarkibiy qismlarga ajratilib kreditlanadi;

- *birgalikda moliyalashtirish*, bunda barcha kreditorlar loyihani amalga oshirilishi mobaynida o‘z ssudalarni taqdim etadilar. Kreditorlardan biri (menejer-bank) loyihaning tayyorlanishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi.

Qo‘shma moliyalashtirish orqali qarz oluvchi imtiyozli kreditlarni jalb etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, kreditorlar ham mazkur moliyalashtirish shaklida imtiyozlarga ega bo‘lishadi, ya’ni bunday kreditlash kreditorga ssudani qarzdor tomonidan o‘z vaqtida so‘ndirilishining qo‘shimcha kafolatini beradi.

Xalqaro sindikatlashgan yoki konsorsium kreditlari – turli mamlakatlar banklari tomonidan yirik loyihani amalga oshirish uchun bir tashkilotga ajratilgan qarz mablag‘lari hisoblanadi. Xalqaro kreditning bu shakli bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- bunday kreditni taqdim etish uchun banklarni birlashuvi ma’lum bir muddatga konsorsium yoki sindikatni tuzish to‘g‘risidagi shartnomani rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi;

- maqsad yirik kreditni taqdim etish uchun xalqaro resurslarni jalb etish va bir qator bank-kreditorlar orasida bank risklarini taqsimlash hisoblanadi;

- sindikat yoki konsorsium a’zosi bo‘lgan yirik banklardan biri menejer funksiyasini bajaradi, ya’ni qarzdor va bank-kreditorlar bilan o‘zaro muzokara olib boradi, kreditning moliyaviy-valyutaviy shartlarini aniqlaydi, risklarni va ularni kamaytirish imkoniyatlarini baholaydi.

Bunday kreditni tashkillashtirgani uchun bank-menejer foiz va komission daromadlardan tashqari qo‘shimcha mukofotga ham ega bo‘ladi;

- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish orqali xalqaro qarzlarni taqdim etishda oddiy sindikatlashgan yoki konsorsium kreditlar anderrayting bilan birga amalga oshiriladi, ya’ni belgilangan narx bo‘yicha banklar (ma’lum bir ulush bo‘yicha majburiyatlar oluvchi sindikat yoki konsorsiumning a’zolari) orasida ularni joylashtirishni kafolatlaydi;

- sindikatlashgan yoki konsorsium kreditlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari amal qiladi. Jahon amaliyotida ushbu turdagi kreditlarni sug‘urtalashda ikkilamchi bozorda sotish imkoniyati bo‘lgan likvidli aktivlardan (tratta, qimmatli qog‘ozlar) foydalaniladi.

Bunday kreditning turlaridan biri ulushli kredit hisoblanadi, ya’ni bank-kreditorlar bank konsorsiumi yoki sindikatini tuzmasdan o‘z ulushlarini boshqa banklarga sotishlari mumkin. Ba’zan xususiy banklar sindikati Xalqaro valyuta fondi (XVF) yoki Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB) kreditlarini olgan qarzdor mamlakatlarga o‘zlarining xalqaro kreditlarini taqdim etishadi. Davlatlararo va xususiy banklar orasida bunday taqsimotdan asosiy maqsad – o‘z iqtisodiy va siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda jahon ssuda kapitallar bozorida qarzdorlarni tartibga solish hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqaro moliyaviy tashkilotlarning mamlakatlarga ajratgan kreditlari nafaqat miqdor jihatdan, balki strategik rivojlanish xususiyatlari bilan ham muhim rol o‘ynaydi.

11.5. Investitsiya loyihalarni uzoq muddatli xalqaro kreditlash

Xalqaro uzoq muddatli kreditlashning zamonaviy shakli loyihalarni moliyalashtirish hisoblanadi. “Loyihalarni moliyalashtirish” atamasida investitsion loyihalarni kreditlash haqida so‘z boradi.

Loyihalarni moliyalashtirishda bank tomonidan baholash obyekti quyidagilar bo‘ladi:

- investitsion loyiha;
- loyiha kreditini ta’minlash (loyiha kompaniyasining aktivi, garov va kafolati).

Loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etuvchi bank investitsion siklning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi oltita bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

1. Qo‘yilmalar obyektini izlash;
2. Loyiha riski va rentabelligini baholash;
3. Kreditlash tizimini ishlab chiqish;
4. Loyihani moliyalashtirish ishtirokchilari bilan shartnomalarni tuzish;
5. Kreditlarni to‘liq so‘ndirilguncha ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy dasturlarni bajarilishi ustidan nazorat;
6. Loyihaning moliyaviy natijalarini baholash va ularni mo‘ljallangan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash.

Yirik banklarning “Loyihalarni moliyalashtirish” bo‘limi xodimlari tarkibida muhandislar ham faoliyat yuritadi. Loyihaning texnik-iqtisodiy ta’minotini baholash va uni amalga oshirish variantlarini hisob-kitob qilish uchun bank mijozlardan komissiya tarkibiga mustaqil ekspertlarni jalb etadi.

Loyihalarni moliyalashtirish tamoyillari. Jahon amaliyotida loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha umumiy tan olingan asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

Birinchidan, odatda uch xil variant bo‘yicha qiyosiy tahlil amalga oshiriladi: loyiha ta’minotchisi, bankning pessimistik ssenariysi, mustaqil ekspertlar tomonidan tayyorlangan asosiy variant.

Ikkinchidan, kredit odatda tasdiqlangan loyihani amalga oshirish uchun loyiha kompaniyasi tomonidan taqdim etiladi. Shuningdek, loyiha kompaniyasining balansida olingan kredit aks ettiriladi.

Uchinchidan, loyihalarni moliyalashtirishda bank dastlabki e’tiborini risklarni baholash, xarajatlarni (smetani) qisqartirish, kreditlash manbalari, loyihaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida investitsion loyihani tahlil qilishga qaratadi.

To‘rtinchidan, umumtan olingan tamoyillardan biri mijozning mas’uliyati cheklanganligi hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, bank faqat joriy loyihani amalga oshirishdan olingan daromadlar hisobiga kreditni qoplashni talab qilishi mumkin. Ishlab

chiqarish ma’lum loyihaviy quvvatga (odatda 75%ga) yetganligi tasdiqlangandan va mijoz bilan bankning kredit shartnomasida ko‘rsatilgan texnik sinovdan o‘tgandan so‘ng ushbu tamoyil kuchga kiradi. Qarzdor (konsessioner-kompaniya) bankka real qiymatga ega bo‘lgan o‘z mulkining barchasini, ya’ni bino, asbob-uskunalar, bankdagi hisobvarag‘ini, filiallarning aksiyalarini (ushbu konsessiya[36] predmeti hisoblanganlar bundan mustasno) garovga beradi. Odatda “almashtirish huquqi” kreditor tomonidan qarzdorni to‘lovga noqobil deb e’lon qilinganda kuchga kiradi.

Beshinchidan, kreditni so‘ndirishni qo‘shimcha ta’minoti bo‘lib, loyihaning quyidagi garov ta’minotchilari hisoblanishi mumkin:

- to‘lov kafolati – kafolatli holat yuzaga kelganda bankka ma’lum bir summani muqarrar o‘tkazilishi bo‘yicha majburiyat;

- loyihani tugatish kafolati loyihani amalga oshirishni rad etmagan holda homiy (ta’minotchi)lar majburiyatini ham o‘z ichiga oladi;

- loyihani amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi barcha firmalarning garov ta’minotlari. Bank garov ta’minot shartlari to‘g‘risida homiy va firma o‘rtasidagi shartnomani so‘rashi mumkin;

- loyihani amalga oshiruvchi firma yoki homiy-ta’minotchining ma’lum bir summadagi bank kreditorga qo‘ygan depoziti qo‘shimcha garov ta’minot bo‘lishi mumkin.

Oltinchidan, kreditlanadigan obyektdan foydalanilayotganda paydo bo‘lgan riskni bank o‘z zimmasiga oladi. Kreditni to‘liq so‘ndirish muddatigacha bo‘lgan davrda tijorat riskidan o‘zini sug‘urtalagan holda bank firmalarni iste’mol mahsulotlari bilan shartnomalar tuzishini talab qiladi. Bank yuqori riskni yuqori marja orqali qoplaydi.

Yettinchidan, loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy montaj operatsiyalarida kredit liniyalarining mos qismlari (transhlari) doirasida foiz stavkalar bilan bir qatorda kreditlarni taqdim etishning turli shart-sharoitlari ko‘rib chiqiladi. Loyihalarni amalga oshirishda

[36] Yer, kon, korxona va boshqalardan foydalanish uchun davlat bilan ayrim tadbirkor yoki firma o‘rtasida tuziladigan shartnoma. Konsessioner – konsessiya egasi, konsessiyachi.

xususiy va qarz mablag‘larining o‘zaro nisbati tarmoqlarga bog‘liq ravishda turlicha (odatda 20:80, 30:70; mehmonxona biznesida 40:60 esa nisbatda) bo‘ladi. Qarzdorning mablag‘larini jalb etishni muddatni oxirida asosan qarz mablag‘lar hisobiga amalga oshirgandan ko‘ra, loyihaga bog‘langan holda dastlabki bosqichda amalda bo‘ladi.

Sakkizinchidan, kreditlash obyektini baholashda bank asosiy qarzga va kredit foiziga kutilayotgan (xarajatlar hisobdan chiqarilgan) sof tushumlar nisbatini tahlil qiladi. Ushbu ta’minlash koeffitsiyenti odatda 1,3 dan, ba’zan tarmoq xususiyati (masalan neft va kimyo tarmog‘ida 2 dan) va risk darajasiga qarab 1,8 dan kam bo‘lmasligi lozim.

To‘qqizinchidan, kreditni so‘ndirish bosqichma-bosqich, ketma-ket amalga oshiriladi. Uning grafigi loyihaning foydalanish davriga bog‘liq bo‘ladi.

Loyihalarni moliyalashtirishdagi risklarni pasaytirishning an’anaviy usullaridan (masalan, ularni sug‘urtalashdan) tashqari investitsion loyihani amalga oshiruvchi ishtirokchilar orasida ularni qayta taqsimlash usuli foydalaniladi. Turli risklardan ko‘rilgan zararlarning bir qismi yoki to‘liq summasi davlat yoki davlat mulki ishtirok etgan eksport kreditlarini sug‘urtalash bo‘yicha agentliklar, shuningdek, Jahon banki tarkibidagi Investitsiyalarni kafolatlovchi ko‘p tomonlama agentlik (IKKA) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qoplab berilishi mumkin.

Venchurli moliyalashtirish. U yuqori riskli loyihalarni moliyalashirish uchun maxsus tuzilgan venchurli biznes fondidan amalga oshiriladi. Bunday loyihalar yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu esa, o‘z navbatida venchurli moliyalashtirish tijorat (bozor) va ilmiy-texnik xususiyat kasb etuvchi risklarga duchor bo‘lishi mumkinligi bildiradi.

Davlat loyihalarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish uchun loyiha mahsulotlariga (masalan elektr energiyaga) egalik qilish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalarga bevosita yoki bilvosita kafolatlar berib qo‘llab-quvvatladi, xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish huquqi bo‘yicha loyiha kompaniyasiga konsessiyalarni taqdim etdi. ***Konsession shartnomalar***

asosida loyihalarni moliyalashtirish risklarni ayniqsa, siyosiy riskni kamaytiradi, bitim ishtirokchilariga umumiy kafolatlarni taqdim etadi.

Loyihalarni moliyalashtirish shaklidagi xalqaro operatsiyalarning geografik taqsimoti xorijiy investitsiyalar bo‘yicha mamlakat qonunchiligiga, qarz oluvchi mamlakatidagi investitsion muhitga va loyihadagi risklar sug‘urtasiga bog‘liq. Jahonda loyihalarni moliyalashtirish shaklida investitsiyalarni jalb etishda rivojlanayotgan mamlakatlar yetakchilik qiladi.

Risk darajasi yuqori bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishda kreditor o‘zining asosiy e’tiborini loyihani amalga oshirish nazoratiga qaratadi. Bu vazifani kreditorning o‘zi yoki alohida taklif etilgan muhandis (injiniring) kompaniyasi (loyiha kuzatuvchisi) amalga oshiradi.

Loyihani amalga oshirish yuzasidan *nazorat xarajatlari investitsion loyiha umumiy hajmining qariyb 5 foizini yoki undan ham ko‘proq* qismini tashkil etishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va mintaqaviy rivojlanish banklari (XTTB, XMK, YeTTB va boshqalar) ham loyihalarni moliyalashtirish bilan shug‘ullanadilar. Xalqaro konsorsium (sindikat) banklari tomonidan rollover asosida beriladigan yevrokreditlar loyihalarni moliyalashtirish manbasi hisoblanadi[37]. Xalqaro sindikatlashgan kreditlarning qariyb 1/5 qismi loyihalarni moliyalashtirishga to‘g‘ri keladi.

Loyihalarni moliyalashtirishda albatta ***yirik bank ishtirok etishi*** lozim. Yuqori mavqe, investitsion loyihalar ekspertizasi bo‘yicha tajribali mutaxassislarga va yetarlicha kredit mablag‘lariga ega bo‘lgan birinchi darajali tijorat banklariga loyihalarni kreditlash bo‘yicha arizalar ko‘p beriladi. Investitsion loyihani baholashda, kredit shartnomasini ishlab chiqishda va kreditni berishda tashkilotchi-bank komission foydaga (mukofotga) ega bo‘ladi.

[37] O‘rta va uzoq muddatli rollover kreditlar LIBOR stavkasi o‘zgarishini hisobga olgan holda ma’lum bir davriy oraliqlar (1,3,6,12 oylik) bo‘yicha taqdim etiladi. Bank-kreditor kreditning to‘liq muddati davomida yoki loyihani amalga oshirishning asosiy bosqichlarida qat’iy belgilangan marja yoki mukofotni oladi. Obyektni investitsiyalash bosqichida yuqori, foydalanishga topshirilgandan keyingi davrda esa kichik marja o‘rnatilgan bo‘lishi mumkin.

1980–1990- yillar oralig‘ida bank-tashkilotchining qarzdorga bo‘lgan talablarini boshqa, ya’ni ***kreditni sekyuritizatsiyalash*** usuli (berilgan kredit ta’minoti asosida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish) orqali investorlar orasida joylashtirish yo‘li amaliyotda keng qo‘llanildi. Investitsion banklar yordamida trast-kompaniyalar investorlar orasida qimmatli qog‘ozlarni joylashtiradi. Qarzdordan qarzni so‘ndirish uchun tushgan mablag‘lar qimmatli qog‘ozlarni qayta sotib olish fondiga o‘tkaziladi. Investorlar muddati tugagan qimmatli qog‘ozlarni so‘ndirish uchun topshiradilar. Sekyuritizatsiyani amalga oshirish bo‘yicha nazoratni trast-kompaniya yuritadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun qimmatli qog‘ozlar emissiyasi orqali sanoat korxonalariga mablag‘larni jalb etishda ***investitsion banklar*** asosiy rol o‘ynaydi. Investitsion bank emitent kompaniya rahbariyati bilan birgalikda jalb etilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar summasini, qimmatli qog‘oz turini va emissiya tartibini, ularni joylashtirish muddati va usullarini aniqlaydi. Emitent kompaniya va investitsion bank o‘zaro anderrayting shartnomasi (underwriting agreement)ni tuzadi. Natijada, investitsion bank emitentdan qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi va bozordagi diler yoki qimmatli qog‘ozlarni joylashtiruvchi agent sifatida ularni investorlarga sotadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirish odatda davlat bilan tuziladigan konsessiya shartnomalariga asoslanadi.

Loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy maslahat berish bank faoliyatining yangi shakliga aylandi. Maslahatchi banklar quyidagi xizmatlarni ko‘rsatishdi:

- investitsion loyihalarni baholash, tanlash va qidirish;
- loyihaning texnik-iqtisodiy hujjatlarini tayyorlash;
- loyihani moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish, bank, fond va boshqa institutlar bilan loyihalarni moliyalashtirishda ishtiroki yuzasidan dastlabki muzokaralarni olib borish;
- loyiha bo‘yicha hujjatlar paketini tayyorlash (tovar va xizmatlarni sotish bo‘yicha dastlabki kelishuv ham hisobga olinadi);

- konsorsium (sindikat)ni tuzish to‘g‘risidagi shartnoma, kredit shartnomasi va boshqalar bo‘yicha muzokaralar o‘tkazishga va ularni imzolatishga yordam berish.

Loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti mamlakatimizda rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda loyihalarni moliyalashtirishning alohida elementlari asosan xalqaro moliya institutlari va mintaqaviy banklar (XTTB, OTB, ITB va boshqalar) operatsiyalarida namoyon bo‘ladi. Loyihalarni moliyalashtirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi Respublikamizning yirik tijorat banklarida mazkur faoliyat bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim va boshqarmalar tashkil etilgan, loyihalarni tahlil qilish bo‘yicha mutaxassislarning malakalari doimiy ravishda oshirib boriladi, investitsion loyihalar portfeli, shu jumladan moliyaviy vositachi sifatida xalqaro moliyaviy institutlar operatsiyalarida ishtirok etgan holda shakllantirilgan. Banklar uzoq muddatli kreditlarni berishda dastlab o‘z e’tiborlarini yuqori likvidli garov ta’minotiga qaratishadi. Shuningdek, ular moliyalashtirishga taqdim etilayotgan loyihani ilg‘or xorij tajribalari orqali har tomonlama chuqur ekspertizadan o‘tkazadilar.

11.6. Xalqaro lizing operatsiyalari

Lizing. Lizing (inglizcha leasing, lease-ijaraga berish so‘zidan olingan) lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga ijaraga taqdim etilishidir. Lizing operatsiyalari qadimdan mavjud bo‘lib, eramizdan 2 ming yil avval Vavilonda bunday operatsiyalar amalga oshirilgan. Xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi sharoitida ular yangi xususiyatlarini kasb etdi, ularning hajmi, foydalanish sohasi ortdi, operatsiyalarning amalga oshirish texnologiyalari takomillashib bordi. 1950- yillardan boshlab ular xalqaro amaliyotda qo‘llanildi.

Xalqaro amaliyotda, muddati bo‘yicha asbob-uskunalarni ijaraga berish quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Qisqa (renting) va o‘rta (xayring) muddatli - 3 yilgacha. Bunda, standart asbob-uskunalar, ya’ni avtomobillar, traktorlar, temir yo‘l vagonlari va shu kabilar lizingga beriladi;

2. O‘rta va uzoq muddatli (lizing)da sanoat texnologiyasi bilan

bog‘liq asbob - uskunalar ijaraga beriladi.

Lizingning yuqoridagi ikki turi o‘rtasidagi farq quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- rentingda shartnomadagi obyekt davomli kelishuvlar bo‘yicha ishlatilishi;

- uzoq muddatli ijarada esa, ijaraga berilayotgan asbob - uskuna shartnomada belgilangan me’yoriy muddatgacha uzluksiz ishlatilishi mumkin.

Hozir zamonaviy lizing xizmatlari bozorida tuzilayotgan shartnomalarni keng tarqalishi – lizing shakllarining ko‘pligi, uning ko‘rsatkichlari tez sur’atlarda o‘sishi bilan izohlanadi. Jahon bozorida lizing xizmatlarini asosiy qismi uch markazda joylashgandir. Bular:

1. AQSh;
2. G‘arbiy Yevropa;
3. Yaponiya.

Xorijiy investitsiyalarni tovar shaklda jalb etishning bir ko‘rinishi sifatida mamlakatda lizing xizmatlarini ko‘payishi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish sektorini rivojlantiradi. Bundan tashqari, xalqaro lizing xalqaro kreditni bir shakli sifatida banklar va lizing kompaniyalari o‘rtasida raqobat kuchayishiga turtki bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, ssuda foizlari tushishiga va natijada, kapitallarni ishlab chiqarish sohalariga oqib kirishi uchun qulay zamin yaratadi.

To‘lov balansi taqchilligi sharoitida mamlakat tashqi qarzdorligiga xalqaro lizing operatsiyalarni qo‘shilmasligi, uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi afzalligini ko‘rsatadi.

Xalqaro lizing shakllari. Xalqaro lizing, bir vaqtning o‘zida moliyalash va yangi texnologiyalarni xarid qilish masalalarini hal etish, aylanma mablag‘larni to‘ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag‘larni ozod qilish imkoniyatini beruvchi moliyaviy vositalarning eng muhim shakllaridan biridir.

Xalqaro amaliyotda xalqaro lizing shartnomalarining quyidagi shakllari ishlab chiqildi:

1. Xalqaro lizing shakllarini tahlil qilishda uning eng keng tarqalganlarini (lizing oluvchi va lizing beruvchi o‘rtasidagi

munosabatlarni hisobga olib), **bevosita** (to‘g‘ridan to‘g‘ri) va **bilvosita** (egri) lizing turlarini ajratishimiz mumkin:

- bevosita lizingda, lizing beruvchi bo‘lib – bevosita mulk egasining o‘zi bitimni amalga oshirilishida ishtirok etishi shart;
- bilvosita lizingda, ijaraga berilayotgan mulk egasi – uchinchi tomonning ishtirok etishi shartdir.

2. Xalqaro lizingni kreditlash usuli bo‘yicha **muddatli** va **qayta tiklanuvchi** lizinglarga ajratish mumkin.

Muddatli lizingda ijara bir marotaba amalga oshiriladi. Qayta tiklanadigan lizingda esa, lizing shartnomasi bitimning birinchi muddati tugashi bilan qayta tiklanadi.

3. Shuningdek, xalqaro lizingni **operatsion** va **moliyaviy** lizinglarga bo‘lish mumkin:

Operatsion lizingda korxonalar asbob-uskunaga mulk huquqini olmasdan turib, undan foydalanish uchun shartnoma tuzadilar.

Moliyaviy lizing deb, asbob-uskunani ijaraga olayotgan firma keyinchalik uni qoldiq qiymatda to‘la sotib olishiga aytiladi.

4. **Andozali (standart) lizing.** Lizingning bu shaklida asbob-uskunani ishlab chiqargan shaxs uni lizing kompaniyasiga o‘zi mustaqil tarzda sotadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunani iste’molchiga ijaraga beradi. Asbob-uskunani ishlab chiqaruvchi va uni lizingga oluvchi o‘rtasidagi lizing shartnomasi bo‘yicha huquqiy munosabatlar o‘rnatilmaydi. Bu yerda asbob-uskunaga texnik xizmat ko‘rsatish masalasi to‘liq hal etilmagan. Bu holda, asbob-uskunani ishlab chiqargan shaxs bilan, lizing oluvchi, o‘ziga xizmat ko‘rsatish uchun alohida bitim tuzishi lozim. Bunga asosiy sabab, lizing kompaniyasi texnik xizmat ko‘rsatish masalalariga aralashmaydi.

5. **“Sof” lizing.** Bunda asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog‘liq asosiy majburiyatlar lizing oluvchi bo‘yniga tushadi. U soliqlar va har xil yig‘imlarni, to‘lovlarni hamda asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog‘liq barcha xarajat va sug‘urta to‘lovlarini to‘laydi. Lizing oluvchi asbob-uskunani ishga soz holatda saqlashi lozim. Shu bilan birga, u ijara muddati tugaganda, lizing beruvchiga asbob-uskunani o‘rtacha eskirishini hisobga olib, yaxshi holatda qaytarishi shartdir.

Lizing beruvchi, lizing oluvchi olgan mulkdan foydalanishi bilan bog‘liq harakatlarga javob bermaydi. Lekin, u asbob-uskuna ishlatilayotgan mamlakatdagi hukumat va boshqa tashkilotlar tomonidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlar uchun javobgardir.

6. **Qaytariluvchi lizing – “liz-bek”.** Tijorat nuqtayi nazaridan lizingning bu shakli firma mablag‘larga kuchli ehtiyoj sezganda qo‘llaniladi. Uning asosiy xususiyati bo‘lib, firmaning moliyaviy holatini yaxshilashga samarali vosita sifatida namoyon bo‘lishidir. Bu operatsiyaning mazmuni shundan iboratki, asbob-uskunaning egasi, asbob-uskunani lizing kompaniyasiga sotadi, va so‘ngra, undan shu asbob-uskunani ijaraga oladi, ya’ni, asbob-uskunani sotgan shaxs lizing oluvchiga aylanadi. Bunday operatsiyalar asosan, muomalada oldin ham bo‘lgan asbob-uskunalarga nisbatan qo‘llanilishi qayd etiladi.

7. **“Yaxlit” lizing.** Bu lizingning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib lizing oluvchi uchun lizing beruvchi tomonidan qo‘shimcha xizmatlarni taklif etilishi hisoblanadi. Lizingning bu shakli qimmat. Chunki, lizing beruvchi asbob-uskunani yetkazib berish bilan birga ta’mirlash, sug‘urtalash, ba’zi vaqtlarda ishlab chiqarishni boshqarish yoki yoqilg‘i bilan ta’minlash kabi ishlarni ham amalga oshiradi. Odatda, lizingni bu turi yangi asbob-uskunalarni, xususan, kompyuterlar, samolyotlar va boshqa murakkab mashina hamda mexanizmlarga nisbatan qo‘llaniladi.

8. **To‘la xizmatli lizing.** Bu lizing “yaxlit” lizingga o‘xshab ketadi, biroq, shartnomada bir qancha qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Masalan, lizing beruvchi asbob-uskunani sotib olish masalalarini o‘rganadi. Bu asbob-uskunani ishlatish uchun zarur bo‘lgan xomashyo materiallari bilan ta’minlaydi. Shu bilan birga, asbob-uskunadan foydalanish uchun malakali mutaxassislar yollab beradi va boshqa bir qator xizmatlar ko‘rsatadi.

9. **Asbob-uskunani qoldiq qiymati lizingi.** Lizingning bu shakli oldindan foydalanilgan asbob-uskunalarni ijarasi bilan bog‘liq va u dilerlar (savdo agentlari) tomonidan keng foydalaniladi. Lizingning mazkur turi, odatda, 1 yildan 3-4 yilgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi.

10. **Mol yetkazib beruvchiga lizing.** Bu ijara shakli “liz-bek” lizingi shakliga o‘xshaydi. Asbob-uskunani yetkazib beruvchi ikki yoqlama vazifani bajaradi. Ya’ni, u asbob-uskunadan foydalanuvchi bo‘lmasa ham, asbob-uskunani sotuvchisi va ijaraga oluvchisi bo‘lib hisoblanadi. Ijaraga oluvchi, albatta, sub ijarachini topishi va asbob-uskunani sub ijaraga topshirishi kerak. Buning uchun, ijaraga beruvchining roziligi shart bo‘lmasada, asbob-uskunani sub ijaraga topshirish shart bo‘lib hisoblanadi.

11. **Qayta tiklanuvchi lizing.** Lizing operatsiyasining bu shaklida lizingga berilgan asbob-uskuna vaqti-vaqti bilan yangi takomillashgan asbob-uskunaga almashtirib turilishi lozim. Bu model asosan, EHMlar lizingida keng tarqalgandir. Chunki undagi investitsion jarayon (bozorda yangi, takomillashgan turlarining ko‘payish davri, vaqti, muddati) juda qisqa sanaladi.

12. **Vendor lizing** (tayyorlovchilar yoki ishlab-chiqaruvchilar kooperatsiyasi). Bu yerda lizing kompaniyasi bo‘lib, bank yoki lizing kompaniyasi bilan birga asbob-uskunani ishlab chiqargan firma ham qatnashishi mumkin. Bu model, qoida bo‘yicha, bozorda juda qimmat bahodagi asbob-uskunani olib chiqishda foydalaniladi. Bunda ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchilar) o‘zlariga mijozni qidirish va lizing obyektiga xizmat ko‘rsatish majburiyatini oladilar, lizing kompaniyasi esa, loyihani ishlab-chiqish, ma’muriy masalalarni hal qilish, maslahat berish xizmatlari kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

13. Ijaraga berilayotgan obyektning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib – **harakatlanadigan** mulk lizingi va **harakatlanmaydigan (ko‘chmas mulk)** mulk (ma’muriy bino-inshootlar, omborxonalar, supermarketlar, garajlar va boshqalar) lizingi farqlanadi.

Lizingning muddatini birlamchi va ikkilamchi davrlarga ajratishadi. Lizingning birlamchi davri deyilganda, lizing oluvchi lizing kompaniyasiga obyektning to‘la amortizatsiya ajratmalari hamda ajratilgan foizlarni to‘liq amalga oshirmagan bo‘ladi. Ikkilamchi davrda, lizing oluvchi lizing firmasiga to‘lovni to‘liq amalga oshiradi. Biroq, lizing firmasi lizing obyektiga egalik qilish huquqini bermagan bo‘ladi. Lizing oluvchi asbob-uskunani an’anaviy stavka bilan foiz to‘lagan

holatda foydalanishda davom etadi. Nazariy jihatdan, lizingning ikkilamchi davri vaqt bo‘yicha cheklovlarga ega emas, biroq, uning muddati asbob-uskunaning haqiqiy xizmat muddati bilan chegaralangandir. Asbob-uskunaga e’tibor qaratish va buzilganda o‘z vaqtida qayta ta’mirlash kabi masalalar, ikkilamchi davrni noma’lum muddatga uzayishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishda vujudga keladigan risklarni baholashda odatda quyidagi omillarni e’tiborga olish taqozo etiladi:

- lizing oluvchi kompaniyaning moliyaviy holati va tijorat doirasidagi mavqei;
- shartnoma bahosining ikkilamchi bozordagi o‘zgarishi;
- lizing oluvchi firma tomonidan lizing obyektini ishlatilish shart-sharoitlari;
- lizing oluvchi kompaniya mamlakatdagi moliyaviy-iqtisodiy va siyosiy holatlar (yani, milliylashtirish riski, chet elga valyuta mablag‘larini o‘tkazishdagi mavjud cheklovlar, garov huquqini amalga oshirishda vujudga keladigan qiyinchiliklar riski va boshqalar).

Xalqaro lizing xizmatlarining jahon bozori – ikkinchi jahon urushidan keyin quyidagi omillar hisobiga shakllandi va rivojlandi:

- likvid mablag‘lar hajmining to‘liq yetishmasligi;
- investitsiyani optimallashtirishni talab qiluvchi raqobatning kuchayishi;
- ishlab chiqarish kengaytirilishi uchun korxonalarda yetarli mablag‘lar ajratilishida, uning foydasini chegaralanganligi;
- iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, xususan, investitsiyani o‘sishiga shart-sharoit yaratish uchun hukumat va moliyaviy organlarning lizing operatsiyalari rivojlanishiga ko‘maklashishi.

Hozirda, jahon bozorida xalqaro lizing operatsiyalariga talab juda katta. Chunki, lizing bitimida ishtirok etayotgan hamma tomonlar o‘zi uchun ustunlikka yoki yanada to‘g‘rirog‘i, afzalliklarga ega.

Xalqaro lizing operatsiyalari mamlakat to‘lov balansiga ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy lizing kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan ijara to‘lovlari mamlakatning valyuta xarajatlarini ko‘paytirsa, ularning

tushumi esa to‘lov balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda lizing shartnomasi tugagandan so‘ng obyektga (mulkka) egalik qilish import operatsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun, xalqaro lizing operatsiyalari davlat orqali tartibga solinadi. Davlatlarning qo‘llab-quvvatlashiga qaramasdan, jahon bozoridagi kuchli raqobat, milliy qonunchiliklarning, hisob-kitob usullarining va soliqqa tortish tartiblarining o‘zaro mos kelmasligi hisobiga xalqaro lizing o‘z taraqqiyot yo‘lida qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

11.7. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari

Kredit va to‘lov valyutasi, kredit summasi, muddati, foydalanish hamda so‘ndirilish shartlari, qiymati, ta’minot turi, xavf-xatarlarini sug‘urtalash usullari xalqaro kreditning shartlarida ko‘rib chiqiladi.

Kredit va to‘lov valyutasi. Xalqaro kredit munosabatlarida kredit berilayotgan valyuta katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu holat inflyatsiya va valyutaning barqarorlik darajasiga uzviy bog‘liq.

Kredit valyutasini belgilashda quyidagi omillar e’tiborga olinadi:

- valyuta barqarorligi;
- foiz stavkasining darajasi;
- xalqaro hisob-kitoblar shakllari;
- inflyatsiyaning darajasi;
- valyutaning kursi va uning dinamikasi.

Kredit berilayotgan valyuta va to‘lov valyutasi bir-biridan farq qilishi mumkin. Xalqaro kreditlarda milliy valyuta (qarz oluvchining yoki beruvchining milliy valyutasi), erkin ayirboshlanadigan valyuta (AQSh dollari, Yaponiya yenasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi, yevro va h.k.) va xalqaro pul birliklaridan (SDR) foydalaniladi.

To‘lov valyutasi kredit valyutasi bilan bir turda bo‘lmasligi mumkin. Masalan, kreditor valyutasida taqdim etilgan “yumshoq” qarzlar qarz oluvchining milliy valyutasida yoki ushbu mamlakatning an’anaviy eksport tovarlari bilan so‘ndiriladi.

Kreditning summasi (limiti) qarz oluvchiga tovar yoki pul shaklida taqdim etilgan ssuda kapitalining bir qismidir. Firma kreditining summasi tijorat shartnomasida qat’iy belgilanadi. Bank

kreditining summasi (kredit liniyasi) kredit bitimi yoki (odatda qisqa muddatli kredit operatsiyasida) turli aloqa vositalari orqali belgilanadi. Shartlari bo‘yicha o‘zaro farqlanuvchi bir yoki bir nechta transh (ulush)lar ko‘rinishida ham xalqaro kreditlar taqdim etilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda eksport qilinayotgan mashina va asbob-uskunalar qiymatining odatda, qariyb 85 foizi kredit orqali qoplanadi. Qolgan qismi esa importyorning eksportyorga bergan kafolati, bo‘nak yoki naqd to‘lovlar orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro kreditning muddati bir qancha omillar ta’sirida belgilanadi. Ularga kreditning maqsadi, kreditlarga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro nisbati, bitimning qiymati, milliy qonunchilik, kreditlash amaliyoti, davlatlararo kelishuv va boshqa omillar kiradi.

Kredit muddati jahon bozorida raqobat kurashining muhim vositasi hisoblanadi. Kreditning samaradorligini aniqlash maqsadida to‘liq va o‘rta muddatlar farqlanadi. To‘liq muddat kreditdan foydalanish boshlanishidan u to‘liq so‘ndirilgungacha bo‘lgan davriy oraliqni o‘z ichiga oladi. To‘liq muddat (T_m) tarkibi kreditdan foydalanish davri (F_d)dan, kreditning qoplash muddatini keyinga qoldirishni nazarda tutuvchi imtiyozli davri (I_d)dan hamda asosiy va foiz bo‘yicha qarzni qoplash davri (Kd)dan tashkil topadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$T_m=F_d+I_d+K_d$$

Bank kreditidan farqli ravishda firma kreditidan foydalanish davri tovarlarni shartnoma bo‘yicha yetkazib berish muddati bilan mos keladi. Bunda to‘liq muddatning boshlanishi eksportyor tomonidan tovarlarning so‘nggi guruhi (partiyasi) yetkazib berilgandan keyin, ya’ni shartnoma majburiyatlari bajarilganidan so‘ng chiqargan trattalarini sotib oluvchi (importyor) tomonidan akseptlash sanasi bo‘lib hisoblanadi. Kreditning imtiyozli davri tijorat bitimlarida va butlovchi qismlardan tashkil topgan jihozlarni yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu holatda uni so‘ndirish muddati sotib olingan jihozlarni ishga tushirish sanasigacha uzaytirilishi, ya’ni, aniqrog‘i ushbu sanadan asosiy qarzni so‘ndirish boshlanishi mumkin.

Imtiyozli davr davlat tomonidan kafolatlanadigan uzoq muddatli xalqaro banklararo kreditlarda, konsorsial (sindikat) yevrokreditlarda, mashinalar, jihozlar, sanoat komplekslarini yirik partiyalar bilan (guruhlarda) sotishda, investitsiya loyihalarini xorijda amalga oshirilishida keng qo‘llaniladi. Bunda imtiyozli davr mahsulot yetkazib berilganidan yoki investitsion loyiha qurilishi amalga oshirilganidan keyingi bir necha yillarni qamrab oladi.

Kredit bahosi. Kredit bahosining kelishilgan (shartnomaviy) va yashirin elementlari farqlanadi (11.2-rasmga qarang). Kelishilgan ya’ni shartnomalar bilan asoslangan kredit bahosi xarajatlari asosiy va qo‘shimcha elementlarga bo‘linadi. Kredit bahosining asosiy elementlariga qarzdor tomonidan kreditorga bevosita to‘lanadigan summalar, ya’ni foiz to‘lovlari, garovni rasmiylashtirish bilan bog‘liq, shuningdek, komission xarajatlar kiradi. Qo‘shimcha elementlar qarz oluvchi tomonidan uchinchi shaxslarga (masalan, kafolat uchun) to‘lanadigan summalarni o‘z ichiga oladi.



11.2-rasm. **Kredit bahosining elementlari**

Asosiy foizga ustama ravishda (kreditning summasi va muddatiga ko‘ra) maxsus va yakka tartibda (kreditning summasi va muddatidan qat’iy nazar) bankning vositachilik haqi undiriladi. O‘rta va uzoq

muddatli kreditlar bo‘yicha esa ssudani taqdim etish majburiyati hamda mablag‘lar zaxirasi (odatda 0,2–0,75%) uchun vositachilik haqlari undiriladi. Bank konsorsiumi yoki sindikati tomonidan kredit operatsiyalarini amalga oshirishda qarz oluvchi menejer-bankka boshqaruv xizmatlari uchun (kredit summasining 0,5%gacha) yakka tartibdagi vositachilik haqini, telefon aloqasi xizmatini hamda qo‘shma moliyalashtirishga ishtiroklari uchun boshqa banklarga (0,2-0,5%) ham belgilangan me’yorda haq to‘laydi. Vositachilik haqlarining quyidagi turlari farqlanadi:

- muzokaralar uchun vositachilik haqi (negotiation fee);
- boshqaruv uchun vositachilik haqi (management fee);
- ishtirok uchun vositachilik haqi (participation fee);
- agentlik uchun vositachilik haqi (agency fee);
- zarur bo‘lgan mablag‘lar (mablag‘larni zaxiralanganligi uchun kreditor mukofoti)ni qarz oluvchi ixtiyoriga taqdim etish majburiyati (ya’ni mablag‘lar zaxirasi) uchun vositachilik haqi. Kredit shartnomasini tuzish sanasidan boshlab, kredit summasidan to‘liq foydalanilguncha to‘lanadi (commitement fee).

Xalqaro kredit mamlakatlar ichki kreditidan farqli ravishda rivojlanib, xalqaro kreditning “bahosi” yetakchi kreditor davlatlar, birinchi navbatda AQSh, Yaponiya, Germaniyaning foiz stavkalariga asoslanadi. Biroq ssuda foiziga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar turli-tumanligi sababli milliy stavkalar darajalari orasida farq paydo bo‘ladi.

XX asrning 70- yillarida qat’iy belgilangan foiz stavkalari bilan bir qatorda bozordagi pulga bo‘lgan talab va taklifga muvofiq o‘zgarib turuvchi erkin suzuvchi foiz stavkalar paydo bo‘ldi. Erkin suzuvchi foiz stavka asosida taqdim etiladigan kredit muddatining bir qismi (odatda 3-6 oy) mobaynida foiz stavkasi qat’iy, o‘zgarmas qilib belgilansa, mazkur davr *foiz davri* deb yuritiladi.

Foiz stavka darajasini belgilovchi asosiy omillar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qarz oluvchi mamlakatidagi valyuta-moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy holat;
- risklarning xususiyatlari;

- kredit manbalari;
- kredit bahosini tartibga solish to‘g‘risidagi xalqaro kelishuvlar;
- foiz stavkasining turi (suzuvchi, qat’iy belgilangan, aralash);
- raqobatdosh bo‘lgan takliflarning mavjudligi;
- kreditning muddati;
- inflyatsiya sur’ati;
- kreditning tijorat operatsiyalari bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligi;
- jahon va milliy ssuda kapitallari bozorlarining holati;
- qarz oluvchi va kreditorning tijorat mavqei va moliyaviy holati;
- kredit ta’minotining sifati;
- kredit bo‘yicha sug‘urta qoplamasi (kafolat)ning mavjudligi;
- kreditdan kelishilgan muddatda foydalanish bo‘yicha qarz oluvchining qat’iy majburiyatlarini mavjudligi;
- tijorat bitimiga nisbatan kredit shartnomasining tuzilish vaqti;
- shartnomaning summasi;
- kredit va to‘lov valyutasi;
- valyuta kursining dinamikasi va boshqalar.

Haqiqiy (real) foiz stavkasi. Ma’lum bir davrdagi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur’ati hisobdan chiqarilsa yoki ayirib tashlansa haqiqiy (real) foiz stavkasi paydo bo‘ladi. Agarda pullarning qadrsizlanish darajasi nominal stavka hajmidan yuqori bo‘lsa, unda haqiqiy (real) foiz stavkasi manfiy ifodaga ega bo‘ladi. Milliy foiz stavkalar darajalarining tenglashishi nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi qisqa muddatli kapitallar harakati oqibatida, balki valyuta kurslari dinamikasiga bog‘liq holda ham yuzaga keladi.

Amaliyotda yevrokreditlar bo‘yicha xalqaro foiz stavkalari foydalaniladi. Odatda Londondagi LIBOR omonatlar foiz stavkasidan 1/8 punktga yuqori va yakuniy qarz oluvchiga taqdim etiladigan kredit foiz stavkasidan 1/2 punktga past bo‘ladi. Jahonning boshqa moliyaviy markazlarida ham LIBORga o‘xshash foiz stavkalari qo‘llaniladi, ya’ni Tokioda – TIBOR, Frankfurt-Maynada – FIBOR, Parijda – PIBOR, O‘zbekistonda – O‘ZIBOR va boshqalar.

Kredit bahosining yashirin elementlariga kredit olish va undan foydalanish bilan bog‘liq kredit bitimida qayd etilmagan xarajatlar kiradi. Kredit bahosining ayrim elementlarini (ahamiyati katta bo‘lsa ham) pul bilan o‘lchashning iloji yo‘q. Masalan, ularga xorijiy firma yoki qarz oluvchi mamlakat ustidan nazoratni o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlar kiritish mumkin.

Xalqaro kreditning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib uning **ta’minoti** hisoblanadi. Xalqaro kredit ta’minotning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- maqsadli jamg‘arma hisobvaraqlarning ochilishi;
- aktivlar garovi;
- shartnoma bo‘yicha huquqlarni kredit bo‘yicha kafolatchi-uchinchi shaxs vakolatiga o‘tkazish shartlari va boshqalar.

Xalqaro kreditlarning ta’minot turlarini ikkiga ajratish mumkin, ya’ni moliyaviy-tovar ta’minot va yuridik (huquqiy) ta’minot. **Xalqaro kreditlarning moliyaviy-tovar ta’minoti** quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- qarz oluvchi ta’sischisi (yuqori tashkiloti)ning kredit to‘lovi bo‘yicha kafolat berishi;
- mijozning tovar-moddiy qimmatliklari, hisobvarag‘idagi mablag‘lari va boshqa aktivlari (shu jumladan bank krediti orqali to‘lab egalik qilingan aktivlar) garovi;
- mijozga taqdim etilgan kreditni sotuvchining banki tomonidan 100 foiz qayta moliyalashtirish;
- qarz oluvchining milliy valyuta hisobraqamini blokirovka qilish va undagi mablag‘larni xorijiy valyutaga sotish orqali tushgan mablag‘lardan kreditni so‘ndirishda foydalanish huquqini bankka taqdim etish. Shuningdek, bank tomonidan mijozga berilgan kafolatni ta’minlash va to‘lovlarni amalga oshirish uchun mijoz o‘z bankiga hisobvarag‘ini blokirovka qilish huquqini taqdim etishi. Bu esa ta’sischilarning valyuta tushumlarida eksportdan olingan daromadlarni kamaytirish orqali ko‘rsatiladi;
- hukumat yoki uning vakolatli organini to‘lov bo‘yicha kafolati.

Kreditning yuridik ta’minoti esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- huquqshunosning xulosasi;
- kreditor-bank qarzdorni majburiy sug‘urtalatishi;
- eksport va import litsenziyalari (kvotalari), kreditni jalb (taqdim) etishga litsenziya, xorijda hisobvaraq ochishga litsenziya;
- “xatti-harakatlarga tegishli xulq-atvor”, siyosiy xatarlar va boshqalarni qoplash kafolati;
- qarz oluvchini majburiy to‘lovlardan vaqtinchalik (kreditni so‘ndirish boshlanguncha) ozod etish (valyuta tushumlarining bir qismini o‘zida saqlab qolish), soliq va boshqa imtiyozlar berish.

Shunday qilib, xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy shartlari iqtisodiyot, jahon va milliy ssuda kapitallari bozorlarining holatiga bevosita bog‘liqdir.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalqaro kredit, xalqaro kredit tamoyillari, funksiyalari va shakllari, kredit diskriminatsiyasi, firmaning (tijorat) krediti, vekselli kredit, ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit, xarid bo‘naki, bank kreditlari, eksport krediti, iste’mol krediti, moliyaviy kredit, akseptli-rambursli kredit, broker krediti, faktoring, forfeyting, tashqi iqtisodiy faoliyatni uzoq muddatli moliyalashtirish, kompensatsion bitimlar bo‘yicha kreditlar, qo‘shma moliyalashtirish, xalqaro sindikatlashgan yoki konsorsium kreditlari, byudjet mablag‘lari hisobdan ajratiladigan uzoq muddatli xalqaro kreditlar, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tamoyillari, risk darajasi yuqori bo‘lgan loyihalar, venchurli moliyalashtirish, kreditni sekyuritizatsiyalash, konsession shartnomalar asosida loyihalarni moliyalashtirish, loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha moliyaviy maslahat berish, xalqaro lizing, bevosita va bilvosita lizing, muddatli va qayta tiklanuvchi lizing, operatsion va moliyaviy lizing, andozali (standart), sof, qaytariluvchi (liz-bek), yaxlit, to‘la xizmatli, mol yetkazib beruvchiga, qayta tiklanuvchi, vendor lizing, harakatlanadigan va harakatlanmaydigan (ko‘chmas mulk) mulk, asbob-uskunani qoldiq qiymati lizingi, xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va

to‘lov shartlari, xalqaro kreditning to‘lov valyutasi, summasi, muddati, bahosi va ta’minoti.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro kredit nima?
2. Xalqaro kreditning qanday tamoyillarini bilasiz?
3. Xalqaro kredit iqtisodiyotda qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Kredit diskriminatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Xalqaro kreditning qanday shakllarini bilasiz, ular to‘g‘risida alohida-alohida gapirib bering?
6. Xalqaro kreditlarning faktoring va forfeyting shakllarini amalga oshirish mexanizmini, ularning bir-biridan farqli jihatlarini aytib bering?
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni uzoq muddatli moliyalashtirishning qanday usullarini bilasiz?
8. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qanday tamoyillar asosida amalga oshiriladi?
9. Lizing nima va uning qanday shakllari mavjud?
10. Xalqaro kreditning qanday valyuta-moliyaviy shartlari bor?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro qarzdorlik muammosini tartibga soluvchi tashkilotlar bo‘yicha klaster tuzing va ularning faoliyatiga doir qisqacha (ko‘pi bilan 1 varoqlik, yillik faoliyat natijalarini ham ko‘rsatgan holda) ma’lumotnomani tarqatma material ko‘rinishida tayyorlang.

2. Xalqaro kredit munosabatlarini davlat va bozor mexanizmi orqali tartibga solish amaldagi holatini va ularning o‘zaro nisbati qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida mutaxassislar fikrini oldindan belgilangan shakldagi so‘rovnoma orqali o‘rganing

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarni xalqaro kreditlash va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash holatini o‘rganing va uning milliy iqtisodiyotda xavfsizlik darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlarini tizimlashtiring hamda bu to‘g‘risida mutaxassislar fikrini oldindan belgilangan shakldagi so‘rovnoma orqali tahlil qiling

4. “World investment Report” (UNCTAD (BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi)ning hisoboti) asosida jahonda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, zamonaviy tendensiyalarga baho bering.

5. Mamlakatimizda chet el investitsiyalarini tartibga solishning qonuniy-huquqiy me’yorlari va ularga berilgan turli imtiyozlar bilan “Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish shart-sharoitlari” nomli baliq skeletini tuzing.

Test savollari

1. Tovar va valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlilik, muddatlilik, foiz to‘lashlilik shartlari asosida berish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ssuda kapitali harakati bu ...

a) xalqaro kredit;

b) xorijiy investitsiya;

d) yevroobligatsiya;

e) veksel va boshqa turli xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar.

2. Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlarini toping?

a) tijorat banklari, markaziy banklar;

b) davlat organlari, yirik korxonalar;

d) mintaqaviy va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Xalqaro kreditning asosiy manbalarini toping?

a) korxonalarning bo‘sh turgan pul mablag‘lari;

b) bank va kredit tashkilotlariga jalb qilinadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg‘armalari;

d) aholining bo‘sh turgan pul mablag‘lari;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Olingan xalqaro kreditni to‘lashni kafolatlanganligi uning qaysi tamoyiliga mos keladi?

a) qaytarib berishlilik;

b) muddatlilik;

d) foiz to‘lashlilik;

e) ta’minlanganlik.

5. Kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to‘lashda ma’lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og‘ir va murakkab shartlarning qo‘yilishi bu ...

a) kredit diskriminatsiyasi;

b) kredit proteksionizmi;

d) kredit ekspansiyasi;

e) kredit orqali iqtisodiy qaram qilish.

6. Eksport qiluvchi mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning import qiluvchi firmasiga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishi – bu ...

a) tijorat krediti;

b) eksport krediti;

d) iste’mol krediti;

e) forfeyting.

7. Eksport qiluvchi va import qiluvchi o‘rtasidagi kelishuvga asosan eksport qiluvchi jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini import qiluvchining hisobiga qarz sifatida qayd qilib borishi, import qiluvchi shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab borishi orqali amalga oshiriladigan kredit ...

a) ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit;

b) tijorat krediti;

d) iste’mol krediti;

e) faktoring.

8. Eksport qiluvchi bankining import qiluvchi bankiga yetkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsiya qilingan tovarlarni kreditlashi xalqaro kreditning qaysi shakliga tegishli?

a) eksport krediti;

b) ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit;

d) akseptli-rambursli kredit;

e) tijorat krediti.

9. Eksport qiluvchi bankning to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy eksport qiluvchini kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya’ni import qiluvchi mamlakat firmasi va uning bankini kreditlashi xalqaro kreditning qanday shakli hisoblanadi?

a) iste’mol krediti;

b) akkreditiv;

d) tijorat krediti;

e) eksport krediti.

10. Eksportyor veksellarining uchinchi davlat banki tomonidan akseptlanishi hamda importyor tomonidan veksel summasini akseptant-bankka o‘tkazilishining bog‘liqlikda amalga oshishiga asoslangan xalqaro kredit bu ...

a) eksport krediti;

b) ochiq hisobvaraqlar bo‘yicha beriladigan kredit;

d) rambursli kredit;

e) akkreditiv.

11. Ixtisoslashgan moliyaviy kompaniya tomonidan mahsulotni sotuvchining sotib oluvchiga bo‘lgan pul talablarini sotib olish shaklidagi xalqaro kredit bu ...

a) faktoring;

b) forfeyting;

d) vekselli kredit;

e) rambursli kredit.

12. Bank tomonidan veksellarni hamda boshqa qarz majburiyatlarini to‘liq muddatga (odatda uzoq muddatli qarz majburiyatlarini), oldindan belgilangan shartlar asosida sotib olinib, eksportyorning importyorga to‘lovlarini bir martalik to‘liq to‘lov orqali amalga oshirish shaklida tashqi savdo operatsiyalarini kreditlash bu ...

a) forfeyting;

b) faktoring;

d) vekselli kredit;

e) akseptli rambursli kredit.

13. Turli kreditorlarning o‘zaro kelishuvi asosida belgilangan kvota (ulush, hissa) doirasida investitsiya loyihasini tarkibiy qismlarga ajratib kreditlash amaliyoti nima deyiladi?

a) birgalikda moliyalashtirish;

b) parallel moliyalashtirish;

d) sindikatlashgan kreditlash;

e) qo‘shma moliyalashtirish.

14. Barcha kreditorlar investitsiya loyihasini amalga oshirilishi mobaynida o‘z ssudalarni taqdim etgan holda, kreditorlardan biri (menejer-bank) loyihaning tayyorlanishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtirib, nazorat qilib turuvchi xalqaro kredit turi bu ...

a) birgalikda moliyalashtirish;

b) parallel moliyalashtirish;

d) qo‘shma moliyalashtirish;

e) venchurli moliyalashtirish.

15. Turli mamlakatlar banklari tomonidan yirik loyihani amalga oshirish uchun bir tashkilotga ajratgan qarz mablag‘lari qanday xalqaro kredit hisoblanadi:

a) sindikat kreditlar;

b) yaxlit kredit;

d) jamlangan kredit;

e) qo‘shma kreditlash.

16. Berilgan kredit ta’minoti asosida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish nima deyiladi?

a) kreditni sekyuritizatsiyalash;

b) aktivlarni sekyuritizatsiyalash;

d) kreditni qayta moliyalashtirish;

e) qimmatli qog‘ozlar emissiyasi.

17. Xalqaro amaliyotda asbob-uskunani ijaraga olayotgan firma keyinchalik uni qoldiq qiymatda to‘la sotib olishi lizingning qanday turi hisoblanadi?

a) moliyaviy lizing;

b) operativ lizing;

d) xayring;

e) renting.

18. Lizingga berilgan asbob-uskuna vaqti-vaqti bilan yangi takomillashgan asbob-uskunaga almashtirib turilishini talab qiluvchi xalqaro lizing turi nima?

a) qayta tiklanuvchi lizing;

b) asbob-uskunaning qoldiq qiymati lizingi;

d) vendor lizing;

e) andozali lizing.

19. Xalqaro kreditning to‘liq muddati tarkiban qanday muddatlardan tashkil topgan?

a) kreditdan foydalanish va qarzni qoplash davri;

b) imtiyozli davr va kreditdan foydalanish davri;

d) imtiyozli davr va qarzni qoplash davri;

e) kreditdan foydalanish va qarzni qoplash davri hamda imtiyozli davr.

20. Kredit bahosi asosan qanday elementlardan tashkil topadi:

a) *kelishilgan (shartnomaviy) va yashirin;

b) foizli va foizsiz;

d) suzib yuruvchi va o‘zgarmas;

e) inflyatsiya va qayta moliyalash stavkasi.

12-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI

12.1. Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va asosiy xususiyatlari

12.2. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta-moliyaviy to‘lov shartlari

12.3. Xalqaro hisob-kitob shakllarining tasniflanishi

12.1. Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va asosiy xususiyatlari

Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati xususidagi fikrlar bir qator taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Shunisi xarakterliki, xalqaro hisob-kitoblar tushunchasining mohiyati xususida munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas.

Xalqaro hisob-kitoblar deganda turli mamlakatlarning subyektlari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan to‘lov majburiyatlari yuzasidan qulay, likvidli to‘lov vositalari bilan hisoblashish tushuniladi.

Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayoni aniq evolyutsion tarixga ega. Ushbu jarayonni tartibga solish birinchi marta 1870- yilda amalga oshirildi. Aynan shu yili Parijda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada oltindan davlatlararo xalqaro hisob-kitoblarda yagona to‘lov vositasi sifatida foydalanishga kelishib olindi. Bu holat 1922-yilga qadar davom etdi. 1922- yilda Genuya shahrida bo‘lib o‘tgan davlatlararo kelishuvda birinchi marta oltin-deviz standarti joriy etildi. Natijada oltin bilan bir vaqtning o‘zida 30 ta mamlakatning pulidan xalqaro hisob-kitoblarda foydalanishga ruxsat etildi. Ammo oltin bilan birga faqat Angliyaning funt sterlingi xalqaro to‘lov vositasi vazifasini bajara boshladi. Buning sababi shundaki, birinchidan, birinchi jahon urushida Yevropa mamlakatlarining valyutalariga nisbatan funt sterling kam darajada qadrsizlandi. Masalan, Fransiya franki 80 foizga qadrsizlangan bo‘lsa, funt sterling 20 foizga qadrsizlandi. Ikkinchidan, xalqaro savdoning 60 foizga yaqin qismi Angliya banklari tomonidan moliyalashtirilar edi. Uchinchidan, Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi,

bu esa, boshqa davlatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlariga funt sterlingni ishlab topish imkonini berar edi. Buning uchun Angliyaga tovar sotish kifoya qilar edi. To‘rtinchidan, Angliyaning tijorat banklari xorijiy davlatlarda ko‘p sonli filiallariga ega edi. Bu esa, funt sterlingni dunyo miqyosida keng tarqalishi uchun qulay imkoniyatni yuzaga keltirar edi.

1944- yilda AQShning Bretton-Vuds shahrida uchinchi marta davlatlararo konferensiya chaqirildi. Konferensiyaning muhim natijalaridan biri shundaki, unda davlatlar oltindan hamda Angliyaning funt sterlingi va AQSh dollaridan xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida foydalanishga kelishib oldilar. Bu vaqtga kelib, Angliyaning xalqaro savdodagi va xalqaro kapitallar harakatidagi mavqei ancha zaiflashib qolgan edi. Shu sababli, AQSh dollarining xalqaro to‘lov vositasi sifatidagi ahamiyati keskin oshib ketdi.

1976–78- yillarda Yamaykada ikki bosqichdan iborat xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaning muhim natijalaridan biri shundaki, unda oltindan xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida foydalanish taqiqlandi. AQSh dollari, Angliya funt sterlingi, Germaniya markasi va Yaponiyaning ieniga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi. Bu esa, ularni xalqaro hisob-kitoblarda cheklanmagan miqdorda qabul qilinishini bildirar edi.

2002- yilning 1- yanvaridan boshlab yevroni valyuta sifatida muomalaga kiritilishi, Yevropa davlatlarining bir qator yetakchi valyutalarini muomaladan olib tashlanishi xalqaro hisob-kitoblarning mazmuniga jiddiy o‘zgarish kirishiga olib keldi. Bu o‘zgarish, avvalo, hukumatlarning, davlat organlarining, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy valyutalardagi zaxiralarining tarkibini keskin o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Zaxiralar tarkibidagi nemis markasi, Fransiya franki, Italiya lirasi, Belgiya franki kabi yetakchi valyutalarning o‘rnini yevro egalladi. Yevroning muomalaga kiritilishi natijasida xalqaro hisob-kitoblarda yuzaga kelgan yana bir muhim o‘zgarish yevrodan valyuta intervensiyasi va diversifikatsiya vositasi sifatida faol tarzda foydalanilayotganligi hisoblanadi.

Turli davlatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro hisob-kitoblar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlarning asosiy qismi naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar, bir tomondan, to‘lovlarni amalga oshirishning shartlari va tartibini o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, banklarning ularni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan har kunlik faoliyatini o‘z ichiga oladi. Bunda yetakchi rolni yirik xalqaro tijorat banklari o‘ynaydi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab yirik xalqaro tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarining hajmi sezilarli darajada osha boshladi. Ushbu operatsiyalarning asosiy qismini xalqaro kreditlar berish tashkil etar edi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab 90-yillariga qadar xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalarning asosiy qismini yevropa banklari amalga oshirdi, 70-yillardan boshlab esa, yapon banklarining xalqaro operatsiyalari hajmini yuqori sur’atlarda o‘sishi kuzatildi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitoblarning asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilmoqda. Valyuta bozorining hajmi juda yirik bo‘lib, 400 trln. dollardan oshadi. Shu operatsiyalarning 40 foizdan ortiq qismi AQSh dollarida amalga oshiriladi va uning 90 foizga yaqin qismi transmilliy banklarning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Oxirgi o‘n yillik davrda butun dunyoda to‘lov tizimining faol isloh qilish jarayoni ketyapti. Jumladan, xalqaro hisob-kitoblarning ilg‘or texnologiyasini qo‘llash keskin kuchaydi.

Hozirgi paytda, xalqaro to‘lov tizimida yangi texnologiyalar va yangi telekommunikatsiya aloqalaridan foydalanish yirik miqdordagi to‘lov amallarini amalga oshirish, axborotlarni uzatish, qayta ishlash imkonini yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xalqaro kommunikatsiya infratuzilmasi shunchalik yaxshi tashkil qilinganki, u orqali bir necha daqiqa ichida xalqaro to‘lovlarni amalga oshirishga imkon bo‘ladi. Mazkur tizim juda mukammal va ishonchli tizim bo‘lib, ayni vaqtda, arzon hamdir. Masalan, AQShning Nyu-York Kliring palatasi CHIPS (ChIPS) tizimini tartibga solib turadi. Xalqaro chek

kliring palatasi: ATM tizimi, ASN tizimi, Fyucherslar kliring palatasi ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblardagi o‘zgartirishlar hamda ularning yanada takomillashib borishi tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi hamda baynalmilallashuvi bilan bog‘liqdir. Tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish davrlarini o‘zaro muvofiq kelmasligi hamda iste’mol bozorlarining uzoqligi tufayli xalqaro muomaladagi qiymatlar harakatining nisbatan mustaqil bo‘lib qolgan shakli xalqaro hisob-kitoblarda o‘z aksini topadi. Xalqaro hisob-kitoblar tovarlar va xizmatlar bilan tashqi savdo hamda notijorat operatsiyalar, kreditlar va mamlakatlararo kapitallar harakati bo‘yicha hisob-kitoblarni qamrab oladi.

Xalqaro hisob-kitoblar – turli mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarni muvofiqlashtirishdir[38]. Xalqaro hisob-kitoblar bir tomondan, amaliyotda shakllangan va xalqaro hujjatlar hamda udumlar bilan mustahkamlangan to‘lovlarni amalga oshirish shartlari va tartibini, ikkinchi tomondan ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish yuzasidan kunlik amaliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Hisob-kitoblarning eng katta hajmi bank hisobvaraqlarida yozuvlarni amalga oshirish orqali naqdsiz pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda jahonning eng yirik banklari xalqaro hisob-kitoblarda yetakchilik rolini o‘ynaydi. Mazkur banklarning xalqaro hisob-kitoblarga bo‘lgan ta’sir darajasi ular joylashgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy valyutasining ishlatilish ko‘lamlari, ixtisoslashganligi, moliyaviy axvoli, ishbilarmonlik mavqei, vakil banklar tizimiga bevosita bog‘liqdir.

Banklar hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun o‘zlarining xorijiy bo‘limlari va xorijiy banklar bilan o‘rnatilgan vakillik munosabatlaridan foydalanadilar. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatilganda “loro” (xorijiy banklarning mazkur bankda ochgan hisobvarag‘i) va “nostro” (mazkur bankning xorijiy banklarda ochgan hisobvarag‘i) hisobvaraqlari ochiladi. Vakillik munosabatlari hisob-

[38] Красавина Л.Н. «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения» Москва «ФиС» 2001г.

kitoblar tartibi, vositachilik haqining hajmi, ishlatilib bo‘lingan mablag‘larni to‘latish usullarini belgilab beradi. Xalqaro hisob-kitoblarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun banklar odatda kutilayotgan to‘lovlarning tarkibiy tuzilishi hamda muddatlariga muvofiq ravishda zarur bo‘lgan va turli valyutalarda ifodalangan valyuta pozitsiyalarini ta’minlab turadilar hamda o‘z valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash siyosatini o‘tkazadilar. Banklar nisbatan yuqori foyda olish maqsadida o‘z valyuta aktivlarini jahon ssuda kapitallari bozorida, shu jumladan yevrobozorda joylashtirishni afzal ko‘rgan holda “nostro” hisobvaraqlaridagi minimal qoldiqlarni ta’minlashga harakat qiladilar.

Banklarning xalqaro hisob-kitoblar borasidagi faoliyati bir tomondan milliy qonunchilik bilan muvofiqlashtiriladi, boshqa tomondan esa o‘rnatilgan qoidalar va udumlar yoki alohida hujjatlar bilan mustahkamlangan ko‘rinishda mavjud bo‘lgan, shakllangan amaliyot bilan belgilanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda asosan milliy valyutalarning ishlatilishi ulardan foydalanish samaradorligini kurs tebranishlari hamda ushbu valyutalar emitentlari bo‘lmish mamlakatlarning iqtisodiy va valyuta siyosatiga bog‘liqligini kuchaytiradi. Xalqaro hisob-kitoblarning holati bir qator omillarga bog‘liqdir: mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar; valyuta qonunchiligi; xalqaro savdo qoidalari hamda udumlari; bank amaliyotlari; tashqi savdo kontraktlari va kredit bitimlarining shartlari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xalqaro moliya munosabatlaridagi xalqaro hisob-kitob operatsiyalariga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Xalqaro hisob-kitoblar tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish, jo‘natish va to‘lash bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi.

2. Xalqaro hisob-kitoblar hujjatli xarakterga ega. Ya’ni, ular “hujjatlarga qarshi” yoki “aktseptga qarshi” deb nomlanuvchi shartlar asosida amalga oshiriladi.

“Hujjatlarga qarshi” deb nomlanuvchi to‘lov shartiga asosan to‘lov amalga oshirilgandan keyingina importyorga hujjatlar beriladi. Ikkinchi shartda esa, tijorat vekseli aktseptlangandan so‘nggina hujjatlar importyorga beriladi.

3. Xalqaro hisob-kitoblar xalqaro qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan 1930–1932- yillarda ishlab chiqilgan “Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo‘yicha unifikatsiyalashgan qoidalar”, “Inkasso bo‘yicha unifikatsiyalashgan qoidalar” bu boradagi asosiy xalqaro qoidalar hisoblanadi.

12.2. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari

Xalqaro savdo kontraktlari bo‘yicha hisob-kitoblar o‘ta murakkab bo‘lib, bank xodimlarining yuqori malakaga ega bo‘lishliligini talab etadi. To‘lov olinishining tezligi va kafolati hamda banklar orqali operatsiyalar o‘tkazishning xarajatlar summasi hisob-kitoblar shakllari va shartlarining tanloviga bog‘liqdir. Shu sababli tashqi savdo bo‘yicha hamkorlar muzokaralar borasida to‘lov shartlarini o‘zaro kelishib oladi va so‘ngra ushbu shartlarni bitimga kiritib rasmiylashtiradi. Bitimlarning valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari tuzilayotgan paytda eksportyor manfaatlarini importyor manfaatlariga teskari ekanligi odatda ko‘zga tashlanadi. Bunda eksportyor valyutaning maksimal summasiga nihoyatda qisqa vaqt ichida ega bo‘lishni xohlaydi, importyor esa aksincha iloji boricha kam miqdordagi valyutaning hajmini to‘lash, tovarlar olinishini tezlashtirish hamda mazkur tovarlar to‘la sotilgunga qadar to‘lov muddatini iloji boricha kechiktirishdan manfaatdordir. Bitimlarning valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlarini tanlanishi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarning xarakteri, kontragentlar kuchlarining o‘zaro nisbati, ularning ushbu sohadagi malakasi va mazkur tovar bilan savdoning an’analari hamda udumlariga bog‘liqdir. Hukumatlararo kelishuvlar hisob-kitoblarning umumiy tamoyillarini belgilaydi, tashqi savdo bitimlarida esa ushbu hisob-kitoblar amalga oshirilishining batafsil shartlari ko‘rsatiladi.

Mazkur shartlar quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: baho valyutasi; to‘lov valyutasi; to‘lov shartlari; to‘lov vositalari; hisob-kitob shakllari hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshiradigan banklar.

Baho valyutasi va to‘lov valyutasi tanloviga (baho darajasi, kredit bo‘yicha foiz stavkasi katta-kichikligidan farqli o‘laroq) ma’lum bir darajada bitimning valyuta samaradorligi bog‘liqdir. Eksport va import bitim baholari turlichadir hamda ular ushbu bitimlarga kiritiladigan, tovarlarni eksportyordan importyorga etkazib berilishi bilan bog‘liq (eksportyor mamlakat omborida saqlanishi, portgacha bo‘lgan yo‘l va portdagi saqlanish, chet eldagi yo‘l, xorijdagi ombor hamda importyorga tovarlarni etkazish xarajatlari) qo‘shimcha xarajatlarga bog‘liqdir. Tovarlar baholarini aniqlashning quyidagi besh asosiy tamoyili mavjud:

1. Bitim tuzilayotgan paytda baholar qat’iy belgilanadi hamda ushbu bitim ijrosi mobaynida belgilangan baholar o‘zgarmaydi. Ushbu usul jahon bozorida baholarning pasayishi tendensiyasi mavjud bo‘lgan paytda qo‘llaniladi.

2. Bitimga qo‘l qo‘yilayotgan paytda bahoni (tovar etkazilish kuniga bo‘lgan u yoki bu tovar bozorining kotirovkalari asosida) belgilash tamoyili qayd etiladi, bahoning o‘zi esa bitimning ijrosi mobaynida belgilanadi. Ushbu usul odatda bozor baholarining ko‘tarilishi tendensiyasida qo‘llaniladi.

3. Bitim tuzilayotgan paytda baho qat’iy belgilanadi, ammo bozor bahosi bitimdagi bahoga nisbatan aytaylik 5%dan ortiqroq xajmga o‘zgarsa, u o‘zgarishi mumkin.

4. Xarajatlarni tashkil etuvchi elementlar hajmini o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan sirpanuvchan baho. Masalan, jihoz (asbob-uskuna)lar etkazib berilishiga buyurtma berilganda, yuqori konyunktura sharoitlarida buyurtmachi manfaatlarida cheklovlar kiritiladi (baho o‘zgarishining umumiy chegarasi yoki baho “sirpanishi”ni xarajatlarning bir qismiga va qisqa muddatga tarqalishini).

5. Aralash shakli: bahoning bir qismi qat’iy belgilanadi, bir qismi esa sirpanuvchan shaklda o‘rnatiladi.

Baho valyutasi – bu, tovarga bo‘lgan baho ifodalanadigan valyutadir. Tovarning bahosi qat’iy belgilanadigan valyutani tanlashda

tovarning turi va yuqorida aytib o‘tilgan xalqaro hisob-kitoblarga ta’sir etuvchi omillar, ayniqsa hukumatlararo kelishuvlarning shartlari hamda xalqaro udumlar katta ahamiyat kasb etadi. Ba’zida kontraktning bahosi, valyuta xavf-xatarlarini sug‘urtalash maqsadida bir nechta (ikki va undan ko‘p) valyutada yoki standart (SDR, EKYu – 1999- yilda “Yevro”ga o‘zgartirilgan) valyuta savatida ko‘rsatiladi.

To‘lov valyutasi – bu, importyor (yoki qarz oluvchi) majburiyatlari so‘ndirilishi kerak bo‘lgan valyutadir. Valyuta kursining barqarorsizligi sharoitida baholar nisbatan barqaror bo‘lgan valyutada, to‘lov esa odatda importyor mamlakat valyutasida belgilanadi. Agarda baho valyutasi va to‘lov valyutasi o‘zaro muvofiq kelmasa, unda bitimda bir valyutani ikkinchi valyutaga qayta hisoblanish kursi o‘zaro kelishiladi (yoki XVF SDR negizida qayd etiladigan pariteti, yoki valyutalarning bozor kursi bo‘yicha). Bitimda quyidagi qayta hisoblanish shartlari belgilanadi:

1) ma’lum bir turdagi to‘lov vositasining kursi – trattasiz to‘lovlar yuzasidan telegraf pul o‘tkazmasi yoki kredit bilan bog‘liq hisob-kitoblar bo‘yicha vekselni;

2) ma’lum bir valyuta bozorida (sotuvchi, sotib oluvchi yoki uchinchi tarafning) tuzatish va muvofiqlashtirishlar vaqti aniqlab olinadi (masalan, to‘lov amalga oshirilishidan bir kun avval yoki to‘lov kuni);

3) qayta hisoblash amalga oshiriladigan kurs kelishib olinadi: odatda o‘rtacha kurs, ba’zida valyuta bozorini ochilishiga, yopilishiga bo‘lgan sotuvchi yoki sotib oluvchi kurslari yoxud kunning o‘rtacha kursi.

Baho va to‘lov valyutalarining o‘zaro muvofiq kelmasligi – bu, valyuta tavakkalchiligini sug‘urta qilishning eng odiy usullaridan biridir. Agarda baho valyutasining kursi (masalan AQSh dollarining) pasaygan bo‘lsa, unda to‘lov summasi (fransuz franklarida) mutanosib ravishda kamayadi va aksincha. Baho valyutasi kursining pasayishi xavf-xatari eksportyor (kreditor) zimmasiga, uning ko‘tarilish xatari esa importyor zimmasiga tushadi.

To‘lov shartlari tashqi iqtisodiy bitimlarning muhim elementidir. Ularning ichida quyidagilar farqlanadi: naqdli to‘lovlar, kredit taqdim

etilib amalga oshiriladigan hisob-kitoblar, naqdli to‘lov opsioni (tanlov huquqi) bilan kredit.

Xalqaro hisob-kitoblardagi naqdli to‘lov tushunchasi deganda eksport tovarlari sotib oluvchiga yetkazib berilganidan so‘ng ularga pul to‘lanishi yoki tovarlar kontrakt shartlariga muvofiq yetkazib berilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi hujjatlarga qarshi bo‘lgan to‘lov ko‘zda tutiladi. Biroq zamonaviy sharoitlarda tovar importyor mamlakatiga ko‘p holatlarda to‘lov amalga oshirilishi lozim bo‘lgan hujjatlardan avval yetib keladi va sotib oluvchi tovarlarni ularga haq to‘lanishidan avval saqlash (trast) tilhati, bank kafolati evaziga olishi mumkin. Shunday qilib, tovarlar so‘nggi manzil portiga yetkazib berilganidan so‘ng to‘lov amalga oshiriladi, tovarlar jo‘natilganligi to‘g‘risidagi ogohnomaga qarshi amalga oshiriladigan to‘lovlar bundan mustasno. Kontragentlar kelishuviga hamda sotilayotgan tovarlar xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan holda importyor ma’lum bir bosqichda to‘lovni amalga oshiradi: jo‘natilish portida tovarlarni yuklash ishlari tugaganligi tasdig‘ini olgandan so‘ng; tovar hujjatlarining komplekti (schyot-faktura, konosament, sug‘urta polisi va boshqalar)ga qarshi; ba’zida to‘lovni 5-7 kunga, neft yetkazib berish bo‘yicha esa 30 kunga kechiktirish bilan; so‘nggi manzil bo‘lgan portda importyor tomonidan tovarni qabul qilib olinib bo‘lgandan so‘ng. Tovarning turiga bog‘liq bo‘lgan holda ba’zi holatlarda hisob-kitoblarning aralash shartlaridan foydalaniladi: qisman hisob-kitob – tovar hujjatlari topshirilganidan so‘ng amalga oshadigan to‘lov; yakuniy hisob-kitob – tovarlar qabul qilib olinganidan so‘ng (tovarlar so‘nggi manzil portiga yetib kelganidan so‘ng sotib oluvchi tomonidan qabul qilib olinadi va ularning sifat xarakteristikalari tekshiriladi, chunki transportirovka davrida ularning sifati buzilgan bo‘lishi mumkin).

Xalqaro to‘lovlar valyutalar o‘zaro almashuvi hamda tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan bir-biriga kreditlar taqdim etish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o‘zaro bog‘liqligi ushbuda o‘z ifodasini topadi. Sotilayotgan tovarning turiga (masalan, mashinalar va jihozlar) hamda sotuvchilar bozorida raqobatning kuchayishi va yangi mahsulot iste’mol

bozorlarini kengaytirish maqsadida ularning kreditdan foydalanishga qaratilgan intilishlariga qarab tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar tijorat kreditidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tijorat krediti tovar sotuvchisi tomonidan sotib oluvchiga bir necha oydan 5-8 yilgacha, alohida holatlarda esa bundan ham katta muddatlarga taqdim etiladi. Tashqi savdo operatsiyalarida importyor tijorat krediti evaziga uni so‘ndirishga qaratilgan, oddiy veksel shaklidagi qarz majburiyatini yozib beradi yoki eksportyor tomonidan berilgan o‘tkaziladigan veksellar-trattalarda to‘lovni amalga oshirishga yozma tarzdagi rozilik (aktsept) beradi.

Tovar qiymatining ma’lum bir qismiga tijorat hujjatlari taqdim etilganidan so‘ng, qolgan qismiga esa kontraktda belgilangan davrdan so‘ng haq to‘langanda tijorat krediti shaklidagi tovarlar uchun hisob-kitoblar naqdli to‘lovlar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Tashqi savdo shartnoma ijrosining ma’lum bir bosqichida shartnomadagi taraflar, tijorat kreditidan tashqari, bir-birlarini majburan kreditlashlari mumkin. Masalan, bo‘nak shaklidagi to‘lovlarda importyor eksportyorni, ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblarda esa sotuvchi sotib oluvchini kreditlaydi.

Hisob-kitoblar shartlarining muqobil shakli naqdli to‘lovning opsionli kreditidir. Agarda importyor sotib olingan tovar uchun to‘lovni kechiktirish huquqidan foydalansa, unda u naqdli to‘lovda taqdim etiladigan diskont (skidka)dan mahrum bo‘ladi. Hisob-kitoblar xalqaro muomalada ishlatiladigan turli xil to‘lov vositalari, ya’ni veksellar, to‘lov topshiriqnomalari, bank o‘tkazmalari (pochta va telegraf), cheklar, plastik kartochkalari yordamida amalga oshiriladi. Xorijiy instrumentlar (Foreign items, ingl.) – boshqa mamlakatda deponentga olingan hamda ushbu mamlakatda to‘lanishi lozim bo‘lgan cheklar, veksellar (oddiy va o‘tkaziladigan) va muomalaning boshqa kredit vositalari hisoblanadi. Kontrakt to‘lov shartlarining eng murakkab qismi bo‘lib hisob-kitob turini tanlash hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish ikir-chikirlarini shakllantirib izohlash hisoblanadi. Kontragentlarning bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan manfaatlarini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o‘zaro bog‘lash va ularning to‘lov

munosabatlarini tashkil etish hisob-kitoblarning turli shakllaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

12.3. Xalqaro hisob-kitob shakllarining tasniflanishi

Xalqaro bank amaliyotida qo‘llanilayotgan xalqaro hisob-kitob shakllari mohiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. Sof to‘lovlar.

2. Hujjatli to‘lovlar.

Sof to‘lovlarga to‘lov topshiriqnomalari va cheklar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar kiradi. Hujjatli to‘lovlarga esa, hujjatlashtirilgan akkreditivlar va inkasso vositasidagi xalqaro hisob-kitoblar kiradi.

Sof to‘lovlarni belgilash mezonlari quyidagilardan iborat:

– tovarlar va xizmatlar summasini to‘liq yoki qisman oldindan to‘lash;

– to‘lovni tovarni qabul qilib olgandan so‘ng amalga oshirish;

– ochiq hisobraqamlari bo‘yicha hisoblashish.

Hujjatli to‘lovlarni belgilash mezonlari quyidagilardan iborat:

– tovarlar bilan bog‘liq hujjatlar importyorga to‘lov amalga oshirilgandan keyin beriladi;

– tovarlar bilan bog‘liq hujjatlar importyorga veksel aktseptlangandan keyin beriladi.

Jahon xalqaro savdo amaliyotida hujjatlashtirilgan akkreditivlar va hujjatli inkasso vositasidagi hisob-kitoblarning salmog‘i boshqa hisob-kitob shakllariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Buning asosiy sababi, akkreditivlarda to‘lovning kafolatlanganligi va hujjatli inkassoda tovar hujjatlarini to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng berilishidir. Ushbu to‘lov sharti importyorni to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirishga undaydi.

Biz quyida xalqaro moliyaviy munosabatlarda, keng qo‘llanilayotgan ta’minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar shakli bo‘yicha xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini ko‘rib chiqamiz.



12.1-rasm. **Ta’minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar vositasidagi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**

Bu yerda:

1-tashqi savdo shartnomasini imzolash;

2-importyor o‘zining bankiga hujjatlashtirilgan akkreditiv ochish to‘g‘risida ariza beradi;

3-importyorning banki eksportyorning bankiga, akkreditiv ochilganligi to‘g‘risida xabardor qilish uchun, akkreditiv telegrammasini jo‘natadi;

4-eksportyorning banki eksportyorni akkreditiv ochilganligidan xabardor qiladi;

5-eksportyor tovarlarni importyorga jo‘natadi;

6-eksportyor tovarlar bilan bog‘liq barcha hujjatlarni o‘zining bankiga jo‘natadi;

7-eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga jo‘natish uchun qabul qilib oladi;

8- eksportyorning banki hujjatlarni importyorning bankiga to‘lov uchun jo‘natadi;

9-importyorning banki akkreditiv so‘mmasini deponentlangan mablag‘ hisobidan to‘lab beradi;

10-importyorning banki hujjatlarni importyorga beradi;

11-importyorning banki eksportyorning bankini 10-operatsiya bajarilganligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi;

12-eksportyorning banki akkreditiv summasini eksportyorning joriy hisobraqamiga o‘tkazadi;

13-eksportyorning banki eksportyorning joriy hisobraqamidan ko‘chirma beradi.

Yuqoridagi shakldan ko‘rinadiki, hujjatlashtirilgan akkreditivlarda tovarlar bilan bog‘liq hujjatlar importyorga faqat to‘lov amalga oshirilgandan keyin beriladi. Bundan tashqari, importyorning banki to‘lov uchun kafil hisoblanadi. Shu sababli, ta’minlanmagan hujjatlashtirilgan akkreditivlar eksportyorlar uchun xalqaro hisob-kitoblarning qulay shakli hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarning ta’minlangan akkreditiv shaklidan keng foydalaniladi. Buning sababi shundaki, ushbu davlatlar xalqaro Bazel qo‘mitasining ekspertlari va boshqa nufuzli xalqaro tashqilotlar tomonidan yuqori riskli zona sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli, ushbu mamlakatlar bilan bo‘ladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ular to‘lovlar kafolatlangan va to‘lov kafolatini ta’minlash imkoniyati yuqori bo‘lgan xalqaro hisob-kitob shakllarini qo‘llaydilar. Hujjatli akkreditiv xalqaro hisob-kitoblarning ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan shakli hisoblanadi.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning ta’minlanganlik shaklida to‘lov summasi alohida hisob raqamda deponent qilinadi yoki oldindan eksportyorning bankiga yetkazib beriladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida esa, hujjatli akkreditivlarning ta’minlanmaganlik shaklidan keng ko‘lamda foydalanilmoqda. Bunda akkreditiv summasi alohida balans hisobraqamida deponent qilinmaydi, to‘lov uchun kafillikni esa, importyorning banki o‘z zimmasiga oladi.

Hisob-kitoblarning yana bir shakli inkasso hisoblanadi. Inkasso – bu, mijozning topshirig‘iga asosan bank tomonidan importyordan unga jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni olinishi hamda ushbu mablag‘larni eksportyorning bankdagi hisobvarag‘iga

olgan holdagi bank operatsiyasidir[39]. Inkasso operatsiyalari inkasso bo‘yicha Soddalashtirilgan qoidalarga muvofiq ravishda eksportyordan olingan yo‘riqnomalarga asosan banklar tomonidan amalga oshiriladi. Inkasso hisob-kitob shaklida quyidagi taraflar ishtirok etadi:

1) ishonib topshirayotgan shaxs-mijoz – bu, o‘z bankiga inkasso operatsiyasini amalga oshirishga topshiriq beruvchi shaxs;

2) inkasso qilish bo‘yicha operatsiya o‘tkazishni ishonib remitent-bankka topshiriq beruvchi shaxs;

3) valyuta mablag‘larini oluvchi hamda inkasso qilish bo‘yicha operatsiyani amalga oshiruvchi bank;

4) to‘lovchi bo‘lmish importyorga hujjatlarni taqdim etib, eksportyor nomidan chiquvchi bank;

5) to‘lovni to‘lovchi.

1. Eksportyor importyor bilan tovarlarni hujjatli (dokumentar) inkasso hisob-kitob shartlari asosida sotish to‘g‘risida shartnoma tuzadi va unga tovarlarni jo‘natadi (1a). 2. Eksportyor o‘z bankiga inkasso-topshiriqnomasi va tijorat hujjatlarini yo‘llaydi. 3. Eksportyor banki olgan ushbu inkasso-topshiriqnomasi va tijorat hujjatlarini importyor nomidan chiquvchi bankka (importyor bankiga) jo‘natadi. 4. Importyor nomidan chiquvchi bank mazkur hujjatlarni importyorga taqdim etadi. 5. Importyor hujjatlarga qarata inkasso qilish operatsiyasini amalga oshiruvchi bankka (yoki o‘zining bankiga) to‘lovni amalga oshiradi. 6. Inkasso qilish operatsiyasini amalga oshiruvchi bank remitent-bankka (yoki eksportyor bankiga) to‘lovni o‘tkazadi. 7. O‘tkazib berilgan summani remitent-bank eksportyor hisob raqamiga oladi.

Oddiy va hujjatli (dokumentar) inkasso bir-biridan farqlanadi. Oddiy (sof) inkasso tijorat hujjatlarisiz yuborilgan moliyaviy hujjatlar bo‘yicha to‘lov undirilishini anglatadi. Hujjatli (dokumentar) (tijorat) inkasso esa tijorat hujjatlari bilan birgalikda yuborilgan moliyaviy hujjatlar yoki faqat tijorat hujjatlari inkassosini anglatadi. Bunda qandaydir bir hujjatlarga qarata to‘lovni amalga oshirish majburiyati banklar zimmasiga yuklatilmagan.

[39] Красавина Л.Н. «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения» Москва «ФиС» 2001г.



12.2-rasm. **Hujjatli (dokumentar) inkasso bo‘yicha hisob-kitoblarning sxemasi**

Eksportyor tovarlarni jo‘natganidan so‘ng importyordan to‘liq va aniq yo‘riqnomalar keltirilgan inkasso topshiriqnomasida ko‘rsatilgan shartlari asosida, valyutaning ma’lum bir summasini olish to‘g‘risida o‘z bankiga topshiriq beradi. Inkasso-topshiriqnomasining ikki asosiy ko‘rinishi mavjud: a) hujjatlar to‘lovga qarata to‘lovni amalga oshiruvchiga beriladi va b) aktseptga qarata beriladi. Ba’zi paytlarda hujjatlarni importyorga, uning belgilangan muddatlarda to‘lovni amalga oshirish bo‘yicha yozma tarzdagi majburiyatiga qarata to‘lovsiz asosda berilishi amaliyoti qo‘llaniladi. Bunday shartlardan foydalangan holda importyor sotib olingan tovarni sotish hamda olingan tushum evaziga inkasso bo‘yicha eksportyorga to‘lovni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Eksportyor tomonidan valyuta tushumi olinishini tezlashtirish maqsadida bank trattalar hisobini yuritishi (ularni diskont bilan sotib olish yoki garovga olish) yoki tijorat hujjatlari garovi ustidan kredit taqdim etishi mumkin. Shunday qilib, inkasso hisob-kitob shakli kredit munosabatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Inkasso tijorat krediti

shartlari asosidagi kontraktlar bo‘yicha hisob-kitoblarning asosiy shakli bo‘lib hisoblanadi. Bunda eksportyor odatda unga tijorat hujjatlari (hujjatli inkasso)ni taqdim etilishi evaziga to‘lovchi tomonidan akseptlanishi uchun trattani inkassoga taqdim etadi. To‘lov muddati etib kelganda akseptlangan veksellar to‘lovni undirish maqsadida inkasso (sof inkasso) qilinishi uchun yuboriladi.

Inkasso shakli bo‘yicha hisob-kitoblar asosiy majburiyati tovar hujjatlariga qarata to‘lovni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan importyorga mablag‘larni o‘z ichki muomalasidan oldindan chiqarib, chetda band qilinishiga zarurat qoldirmaydigan ma’lum bir imtiyozlarni beradi. Biroq agarda tovar olinishini tezlashtirish maqsadida konosament asl nusxalaridan birining sotib oluvchiga bevosita jo‘natish amaliyoti qo‘llanilmayotgan bo‘lsa importyor tomonidan tovarlar uchun haq to‘lanmagunga qadar eksportyor hamon tovarga egalik qilishning yuridik huquqini o‘zida saqlab qoladi.

Shu bilan birgalikda hisob-kitoblarning inkasso shakli eksportyor uchun ahamiyatli bo‘lgan kamchiliklarga ega. Birinchidan importyor tomonidan tovarlarga haq to‘lamaslik xavf-xatarini eksportyor o‘z zimmasiga oladi. Importyor tomonidan tovarlarga haq to‘lanmasligi bozor konyunkturasi yoki to‘lovchi moliyaviy holatining yomonlashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli importyorning to‘lov qobiliyati va lafzliligiga bo‘lgan eksportyorning ishonchi inkasso hisob-kitoblarining muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchidan inkasso bo‘yicha valyuta tushumining kelib tushishi va tovarlarning importyorga jo‘natilishi orasida, ayniqsa uzoq masofalarga tovar yetkazishda, sezilarli vaqt uzilishlari mavjud. Inkasso hisob-kitobiga xos bo‘lgan ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun amaliyotda mazkur hisob-kitob shaklini amalga oshirilishida quyidagi qo‘shimcha shartlar qo‘llaniladi:

1) importyor eksportyor bankining tovar hujjatlarini inkassoga qabul qilganligi va jo‘natganligi to‘g‘risidagi telegrammasi (telegraf inkassosi)ni olishi bilanoq tovarlar uchun to‘lovni to‘laydi. Inkassoning ushbu turi amaliyotda keng tarqalmagan;

2) importyor tomonidan to‘lovni amalga oshirilmasligi holatida bank eksportyor oldida inkasso bo‘yicha haqni to‘lash to‘g‘risidagi majburiyatni o‘z zimmasiga olgan holda importyorning topshirig‘iga binoan eksportyor foydasiga to‘lov kafolatini beradi. To‘lovning qo‘shimcha kafolati odatda tijorat krediti yuzasidan hisob-kitoblarda qo‘llaniladi, chunki to‘lovning kechiktirilishi holatida to‘lovchi moliyaviy holatida ro‘y bergan ehtimolli o‘zgarishlar sababli hujjatlar bo‘yicha importyor tomonidan haq to‘lanmaslik xatari o‘sadi. Ba’zida importyorning banki veksel “avali”ni amalga oshiradi. Aval (to‘lov kafolati) – bu, vekselli kafillikdir. Avalchi-bank odatda bankning to‘lov kafolati aniq kimga berilganligi to‘g‘risidagi shartlashuv bilan vekselning yuz qismida o‘z imzosini qo‘ygan holda, to‘lov yuzasidan majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. O‘zgacha bo‘lganda esa o‘tkaziladigan veksel taqdim etuvchisi (eksportyor) uchun aval berilgan deb hisoblanadi;

3) immobilizatsiya qilingan resurslarni qoplash maqsadida eksportyor bank kreditiga murojaat etadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan yana bir shakl sifatida bankning pul o‘tkazmasi namoyon bo‘ladi. U, pul o‘tkazmasini oluvchi shaxsga ma’lum bir summani to‘lashdan iborat bo‘lgan bir bankning boshqa bir bankga topshirig‘idan iboratdir. Banklar xalqaro hisob-kitoblarning ko‘pgina holatlarida o‘z mijozlarining topshiriqlari asosida pul o‘tkazmalarini amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalarda quyidagi taraflar ishtirok etadi: pul o‘tkazmasini o‘tkazuvchi qarzdor-shaxs; o‘tkazma to‘g‘risidagi topshiriqni qabul qilgan o‘tkazuvchi shaxsning banki; o‘tkazma oluvchining hisob raqamiga o‘tkazma summasini oluvchi bank; o‘tkazmani oluvchi shaxs.

Bank o‘tkazmasi shakli asosida inkassoga haq to‘lash, yakuniy hisob-kitoblar bo‘yicha to‘lovlar hamda bo‘nak to‘lovlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari o‘tkazma vositachiligida qayta hisoblashlar va boshqa operatsiyalar bajariladi.

Bank o‘tkazmasi pochta yoki telegraf orqali, tegishli pochta yoki telegraf to‘lov topshiriqnomalari bilan zamonaviy sharoitda esa SWIFT tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bank o‘tkazmalari boshqa to‘lov shakllari bilan bir qatorda ishlatilishi mumkin (masalan, inkasso hamda kafolatlar bilan). Eksportyor o‘tkazmalarni bank kafolati bilan bir qatorda ishlatishni afzal ko‘radi. Chunki importyor tomonidan tovarlar uchun haq to‘lanmagan taqdirda mazkur bank o‘zining kafolati evaziga eksportyorga haq to‘lab beradi. Sotib olingan tovarlarga pul o‘tkazmasini amalga oshirishda importyor ko‘p holatlarda bank kreditidan foydalanadi. Mazkur kreditning muddati akkreditiv holatidagi kredit muddatidan qisqaroqdir.

Bank pul o‘tkazmasining iqtisodiy mazmuni tovar yoki xizmatlarga ular yetkazib berilmasdan turib (bo‘nak to‘lovlari) yoki ularni importyor tomonidan olinganidan so‘ng (ochiq hisobvaraq shaklidagi hisob-kitoblar) pul to‘lanayotganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bo‘nak shaklidagi hisob-kitoblar, mazkur hisob-kitoblar eksportyor uchun nihoyatda samaralidir, chunki tovarlar yetkazib berilgunga qadar importyor tomonidan ularga haq to‘lanadi (ba’zida tovarlar ishlab chiqarilgunga qadar). Agarda importyor tovarlarga bo‘nak shaklida haq to‘lasa, unda u eksportyorni kreditlagan bo‘ladi. Masalan, kontrakt qiymatining bir qismiga bo‘lgan bo‘nak to‘lovlari xorijda obyektlar qurilishi bilan bog‘liq kontraktlar shartlariga kiritiladi. Qiymati yuqori bo‘lgan hamda alohida buyurtma asosida ishlab chiqarilgan jihoz, suv kemalari, havo kemalarining importi sharoitida ham qisman amalga oshiriladigan bo‘nak to‘lovlari qo‘llaniladi. Xalqaro amaliyot talablariga muvofiq bo‘nak shaklidagi to‘lovlar kontrakt summasining 10 foizidan 33 foizigachasini tashkil etadi. Kontrakt shartlarining bajarilmasligi va tovarlar yetkazilmasligi holatida eksportyor banki olingan bo‘nakni eksportyorning topshirig‘iga asosan bo‘nak to‘lovi summasi hajmida, importyor foydasiga qaytarish to‘g‘risida kafolat beradi. Bundan tashqari bir qator tovarlarga bo‘nak bilan haq to‘lash tartibi qabul qilingan. Ushbu tovarlarga qimmatbaho metallar, yadro yoqilg‘isi, qurol-aslaha va boshqa shu kabilar kiradi. Zikr etilgan hisob-kitob shartlariga importyorning roziligi uning mazkur tovarlar yetkazib berilishi yoki manfaatlari kafolatlarda mavjud bo‘lgan eksportyor tazyiqiga bog‘liqdir.

Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar. Ularning mohiyati tovarlar olinganidan so‘ng importyorning eksportyorga bo‘lgan muntazam to‘lovlaridadir. Joriy qarzdorlik summasining hisobi savdo bo‘yicha hamkorlarning kitoblarida yuritiladi. Xalqaro hisob-kitoblarning ushbu shakli ochiq hisobvaraq bo‘yicha kredit bilan bog‘liqdir. Ochiq hisobvaraq bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish bilan bog‘liq hisob-kitoblar tartibi kontragentlar o‘rtasida tuzilgan kelishuv shartlari bilan belgilanadi. Odatda belgilangan muddatlardagi muntazam to‘lovlar ko‘zda tutiladi (tovar yetkazib berilganidan so‘ng yoki oyning boshida yoki oxirida importyor tomonidan tovarlar qayta sotib bo‘linganidan so‘ng). Hisob-kitoblarning solishtirma tekshiruvi amalga oshirilganidan so‘ng ochiq hisobvaraq bo‘yicha qarzdorlikning yakuniy so‘ndirilishi banklar orqali, odatda bank o‘tkazmasi yoki chekidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shu sababli bank statistikasi ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblarni ko‘p holatlarda bank o‘tkazmalari sifatida hisobga oladi.

Ochiq hisobvaraq quyidagi shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda ishlatiladi: an’anaviy savdo aloqalari bilan bog‘liq firmalar o‘rtasida; tovarlar eksporti yuzasidan Trans Milliy korporatsiya va uning xorijiy filiallari o‘rtasida; eksportyor va brokerlik firmasi o‘rtasida; eksportyor ishtirokidagi aralash mulkchilikka asoslangan firmalar o‘rtasida; ombordan sotishga mo‘ljallangan, konsignatsiyaga jo‘natilayotgan tovarlarga. Tovarlarni muntazam yetkazib berish holatlarida uzoq muddatli samarali hamkorlikni o‘zaro ishonch bilan qo‘llab-quvvatlanishi hamda sotib oluvchi nufuzli firma bo‘lgan sharoitda, odatda ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar qo‘llaniladi. Mazkur hisob-kitob shakliga xos bo‘lgan xususiyatli taraflardan biri shundaki, tovarlar pullar harakatiga nisbatan tezroq harakatlanadi. Hisob-kitoblar tijorat krediti bilan bog‘liq bo‘lgan holda tovar yetkazib berish jarayonidan ajratilgan hamda ushbu holatda eksportyor odatda importyorni kreditlaydi. Agar kontragentlar o‘rtasida tovarlar o‘zaro yetkazib berilsa (bir-biridan sotib olsa) va hisob-kitoblar tovar yetkazib berilganidan so‘ng ochiq hisobvaraq bo‘yicha amalga oshirilsa, unda

ushbu hisob-kitoblar kontokorrent (yagona hisobvaraq)da aks ettiriladi, ikki taraflama kreditlash hamda o‘zaro talablar hisobi amalga oshiriladi.

Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar importyor uchun nihoyatda qulaydir. Chunki u tovarlar eksportyor tomonidan yetkazib berilganidan so‘ng haq to‘laydi va foydalanayotgan kredit uchun foiz sifatida alohida haq to‘lamaydi hamda yetkazib berilmagan yoki qabul qilinmagan tovar uchun haq to‘lash xataridan xolis bo‘ladi. Eksportyor uchun esa ushbu hisob-kitob shakli nisbatan yoqimsizdir. Chunki ushbu hisob-kitob shakli to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirilishining ishonchli kafolatlariga ega emas, eksportyorning muomaladagi kapital harakati tezligini pasaytiradi va ayrim holatlarda bank kreditiga murojaat etishga majbur etadi. Ushbu hisob-kitob shaklidan bir tomonlama foydalanish sharoitida importyor tomonidan tovarlarga haq to‘lamaslik xatari eksportyor tomonidan tovarlarni to‘liq yetkazib bermaslikning bo‘nak to‘lovlaridagi xatariga o‘xshashdir.

Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitob shakli asosan taraflar o‘rtasida o‘zaro ishonch mavjud bo‘lgan hamda kontragentlar navbatma-navbat sotuvchi va sotib oluvchi rolida maydonga chiqayotgan holatlarda qo‘llaniladi. Bir tomonlama hisob-kitoblarda ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar kamdan-kam qo‘llaniladi.

Eksport hisobiga olingan erkin ayirboshlanadigan valyutadagi daromadlar hisobi yuritiladigan “eskrou” maxsus hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi kelishuvdan ba’zi holatlarda foydalaniladi. Ushbu ko‘rinishdagi hisobvaraqning mavjudligi importyorning to‘lov qobiliyatiga eksportyor ishonchini oshiradi.

Barter bitimlari bo‘yicha hisob-kitoblar (jahon tovar almashuvining 10-15%) umum qabul qilingan shakllarda (ochiq hisobvaraq, akkreditiv va boshqalar) amalga oshiriladi.

Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish. Xalqaro hisob-kitoblarda eksportyor tomonidan importyorga qarata chiqarilgan o‘tkaziladigan veksellar ishlatiladi. Tratta – bu, qonun bilan belgilangan shaklda tuzilgan hamda o‘zida kreditor (trassant)ning qarz oluvchi (trassat)ga belgilangan muddatda ma’lum bir summani vekselda qayd etilgan shaxs (remitent)ga yoki

taqdim etuvchiga to‘lash to‘g‘risidagi shartsiz buyrug‘ini mujassam etgan hujjatdir. Veksel bo‘yicha to‘lov javobgarligi importyor yoki bank sifatidagi akseptant zimmasidadir. Banklar tomonidan akseptlangan trattalarni “hisobga olish” operatsiyasi orqali naqd pulga oson aylantirish mumkin. Trattalar chiqarilishi va ularga haq to‘lanishining shakllari, rekvizitlari hamda shartlari 1930- yilda Jeneva veksel konvensiyasi tomonidan qabul qilingan “Birxillashtirilgan veksel qonuni”ga asoslangan veksel qonunchiligi bilan muvofiqlashtiriladi. XII–XIII asrlarda paydo bo‘lgan va taqdim etuvchi (odatda savdogar)ga mahalliy valyutada ma’lum bir summa to‘lash to‘g‘risidagi iltimosni o‘zida mujassam etgan yo‘llanma xatlar trattalarning dastlabki shakllari edi. Tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi va xo‘jalik aloqalarining globallashuvi munosabati bilan veksel universal kredit hisob-kitob hujjatiga aylandi. Trattadan inkasso va akkreditivga qo‘shimcha ravishda foydalanish, kredit hamda valyuta tushumini olish huquqini beradi.

Vekseldan foydalangan holdagi hisob-kitoblarda eksportyor tratta va tovar hujjatlarini importyordan valyutani oluvchi o‘z bankiga inkassoga beradi. Importyor faqat to‘lovni amalga oshirganidan yoki trattani akseptlaganidan so‘ng ushbu hujjatlarning egasiga aylanadi. Tovarlarni eksport asosida kreditga yetkazib berishda vekselga haq to‘lash muddati tomonlarning o‘zaro kelishuvi bilan belgilanadi. To‘lov vositasi sifatida bir vekseldan foydalangan holda ustiga yoziladigan o‘tkazish yozuvi (indossament) orqali turlicha bo‘lgan bir nechta pul majburiyatlarini to‘lash mumkin. Indossamentlarning quyidagi turlari farqlanadi: nomli (“x” buyrug‘i asosida to‘lang, imzo “u”); blankali (“u” imzosi); chegaralangan (faqat “x”ga to‘lang, imzo “u”); aylanmasiz (aylanmasiz “x”ning buyrug‘iga asosan to‘lang, imzo “u”); shartli (masalan, tanlovdan so‘ng “x”ning buyrug‘iga asosan to‘lang, imzo “u”).

Retratta to‘lanmagan yoki akseptlanmagan o‘tkaziladigan veksel egasi tomonidan vekselning qiymati plyus xarajatlar summasiga trassant yoki indossantga qarata yozib berilgan qarama-qarshi o‘tkaziladigan vekseldir.

Xalqaro hisob-kitoblarda, shuningdek, dastlab XV asrda kassirlarning kvitansiyalari ko‘rinishida paydo bo‘lgan cheklar ham ishlatiladi. Agarda to‘lov chek orqali amalga oshirilsa, unda qarzdor (sotib oluvchi) mustaqil ravishda chek (mijoz cheki)ni chiqaradi yoki ushbu chek (bank cheki)ni yozishni bankka topshiradi. Chekning shakli va rekvizitlari milliy hamda xalqaro qonunchilik (1931- yil Chek Konvensiyasi) bilan muvofiqlashtiriladi. Chek taqdim etilishi zahoti unga haq to‘lanishi (inkassatsiya qilinishi) lozim.

Nosavdo toifadagi xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida yo‘l cheklari va yevrocheklar ishlatiladi. Yo‘l (sayyohlik) cheki bu, unda ko‘rsatilgan valyuta summasini chekning egasiga to‘lash (buyruq) to‘g‘risidagi to‘lov hujjatidir. Yo‘l cheklari yirik banklar tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda yozib beriladi. Chek egasining imzo namunasi chek ustiga unga chek sotilayotgan paytda qo‘yiladi.

Yevrochek – bu, yevrovalyutadagi chekdir. Ushbu chek mijozning oldindan amalga oshirilgan naqdli to‘lovisiz va nisbatan yirik summalarda, bir oygacha muddatga bo‘lgan krediti hisobiga bank tomonidan yozib beriladi; “Yevrochek” (1968- yildan boshlab) kelishuvining ishtirokchisi bo‘lmish har qanday davlatda unga haq to‘lanadi. Yevrocheklarning yagona (bir xildagi) shakli, ularga haq to‘lash egalari tomonidan kafolat kartochkalari taqdim etilgandagina amalga oshishi, yevrocheklarni qayta ishlash ustidan elektron tizim yordamida nazorat qilinishi xalqaro turizm bo‘yicha hisob-kitoblarning takomillashishiga ko‘maklashadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab xalqaro hisob-kitoblarda kredit kartochkalaridan faol foydalanilmoqda. Kredit kartochkasi egasiga tovar va xizmatlarni naqdsiz hisob-kitoblardan foydalangan holda sotib olish huquqini beruvchi nomli pul hujjatidir. Xalqaro hisob-kitoblarda AQShda chiqarilgan kredit kartochkalari ko‘p tarqalgandir. Ushbu kredit kartochkalarini qayta ishlashda kompyuter, elektron va kosmik aloqa vositalaridan foydalaniladi. Bank va do‘konlarning kompyuterlari telefon orqali axborotlarni qayta ishlovchi tizimning markazlashtirilgan kompyuterlariga ulanadi. 1999- yildan boshlab yevroga o‘tilishi munosabati bilan Maestro, Eurocard-Master Card (yevrocheklar, kredit

kartochkalari) logotiplariga ega Europay International assotsiatsiyalarining ko‘p valyutali instrumentlardan foydalangan holdagi hisob-kitoblari umumyevropa valyutasiga o‘tkazildi. Mijoz hisobvarag‘ining qoldig‘i bo‘yicha beriladigan ma’lumotnomada sotib olishning yevrodagi summasi hamda bank hisobvaraq valyutasidagi ekvivalent ko‘rsatiladi. Ushbu holat turli mamlakatlardagi tovar baholarini taqqoslash, bank hisobvaraqlarini yevroga aylantirish, yevropa valyutasidan foydalanish tajribasiga ega bo‘lish imkonini beradi. Internet tizimiga yevrodagi to‘lov instrumentlari va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumot kiritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalqaro hisob-kitoblar, loro, nostro, kotirovka, akkreditiv, benifitsiar, inkasso, tratta, eksport va import.

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblar deganda nima tushuniladi?
2. ”Loro” va “Nostro” hisobvaraqlari o‘rtasida qanday farq bor?
3. Xalqaro hisob-kitoblarda qanday pullar ishlatiladi?
4. Xalqaro hisob-kitoblarda banklarning roli qanday?
5. Tashqi iqtisodiy bitimlarning valyuta-moliyaviy va to‘lov sharoitlari qanday?
6. Xalqaro valyuta, kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o‘zaro aloqasi nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. Xalqaro hisob-kitoblarning ichki hisob-kitoblardan farqlari nimada?
8. Moliyaviy va tijorat hujjatlarini sanab bering?
9. Akkreditiv va inkasso hisob-kitob shakllarining bir-biridan farqi hamda ularning ijobiy taraflari va kamchiliklari nimada?
10. Akkreditivlarni tasniflashdagi tamoyillar qanday?

11. Qanday xalqaro hisob-kitoblar bank pul o‘tkazmalari shaklida amalga oshiriladi?
12. Nima sababdan xalqaro amaliyotda bo‘nak to‘lovining summasi chegaralanadi?
13. Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblarning o‘ziga xosligi nimada?
14. Xalqaro hisob-kitoblarda trattalardan foydalanishning sxemasi qanday?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

1. Xalqaro hisob-kitoblar bo‘yicha jahondagi tendensiyalarni o‘rganing.
2. Xalqaro hisob-kitoblar shakllaridan foydalanish bo‘yicha amaliy misollar tuzing.
3. O‘zbekistonda xalqaro hisob-kitoblarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni o‘rganing.
4. Faraz qilaylik, yopiq iqtisodiyot sharoitida A mamlakatda investitsiyalarga bo‘lgan talab quyidagi tenglama orqali tasvirlanadi: R=10-0,5K, ssuda foizining yillik bozor stavkasi – 2%. V mamlakatda investitsiyalarga bo‘lgan talab: R=12-K. Ssuda foizining bozordagi stavkasi – 8%. (R – ssuda foizi stavkasi, foizda, K – investitsiyalar hajmi, mln. pul birligida). Ikki mamlakat ssuda kapitali jahon bozorining shakllanishining grafik modelini yasang. Jahon foiz stavkasi kattaligini, kapital eksporti hajmini aniqlang. Kreditorlar va qarz oluvchilar, mamlakatlar va umuman jahon tizimi uchun ssuda kapitali xalqaro migratsiyasining oqibatlarini baholang, bunda iste’molchi va ishlab chiqaruvchining yutuqlari tushunchalaridan foydalaning.

Yuqoridagi shartlar asosida mamlakatning xalqaro kreditlar bo‘yicha qarzdorligini to‘liq hajmda to‘lashdan bosh tortishining oqibatlarini aniqlang.

5. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro hisob-kitoblar –

a) turli mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarni muvofiqlashtirishdir;

b) alohida mamlakatning fuqarolari va yuridik shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarni muvofiqlashtirishdir;

d) faqat pul ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlardir;

e) turli mamlakatlarning yuridik shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari bo‘yicha to‘lovlarni muvofiqlashtirishdir.

2. Baho valyutasi –

a) xalqaro hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan valyuta;

b) har bir mamlakatning milliy valyutasi;

d) erkin almashinuvchi valyutalar;

e) tovarga bo‘lgan bahoda ifodalanadigan valyutadir.

3. To‘lov valyutasi –

a) importyor (yoki qarz oluvchi) majburiyatlari so‘ndirilishi kerak bo‘lgan valyutadir;

b) tovarga bo‘lgan baho ifodalanadigan valyutadir;

d) rivojlangan mamlakatlar valyutasi;

e) eksportyor (yoki qarz oluvchi) majburiyatlari so‘ndirilishi kerak bo‘lgan valyutadir.

4. Inkasso bilan hisob-kitoblarda ishonuvchi kim bo‘lib hisoblanadi?

a) Ishlab chiqaruvchi;

b) Eksportyor;

d) Yuk tashuvchi;

e) Importyor.

5. Inkasso bilan hisob-kitoblarda risk ko‘proq kim tomonida bo‘ladi?

a) Vositachi;

b) Bank;

d) Eksportyor;

e) Importyor.

6. Importyor uchun akkreditivning eng noqulay tomonini ko‘rsating.

a) To‘lovni oldindan o‘tkazadi, tovar sifatini tekshirish imkoniyati kam;

b) Noqulay tomoni yo‘q;

d) Benifitsiarning hujjatlari kech yetib keladi;

e) Bank o‘z nomidan harakat qiladi.

7. Hujjatlashtirilgan akkreditivga xos bo‘lgan kamchilikni ko‘rsating.

a) Tovar sifati ustidan nazorat qilish qiyin;

b) Komission to‘lov darajasi yuqori;

d) To‘lov kafolatlanmagan;

e) To‘lov kafolatlangan.

8. Hujjatlashtirilgan inkassoda to‘lovni o‘z vaqtida o‘tkazish uchun qaysi bank javobgar hisoblanadi?

a) Eksportyorning banki;

b) Importyorning banki;

d) Markaziy bank;

e) Ikkala bank ham javobgar emas.

9. Pul akkreditivi –

a) oluvchiga ma’lum bir muddat mobaynida pul to‘lanishi haqidagi buyruqqa ega bo‘lgan, albatta ushbu hujjatda mavjud barcha shartlarga rioya etilgan holatdagi nomli hujjatdir;

b) sotuvchiga ma’lum bir muddat mobaynida pul olinishi haqidagi buyruqqa ega bo‘lgan, albatta ushbu hujjatda mavjud barcha shartlarga rioya etilgan holatdagi nomli hujjatdir;

d) mijozning topshirig‘iga asosan bank tomonidan importyordan unga jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni

olinishi hamda ushbu mablag‘larni eksportyorning bankdagi hisobvarag‘iga olgan holdagi bank operatsiyasidir;

e) banklararo elektron to‘lov tizimidir.

10. Inkasso –

a) pul o‘tkazmasini oluvchi shaxsga ma’lum bir summani to‘lashdan iborat bo‘lgan bir bankning boshqa bir bankga topshirig‘idan iboratdir;

b) oluvchiga ma’lum bir muddat mobaynida pul to‘lanishi haqidagi buyruqqa ega bo‘lgan, albatta ushbu hujjatda mavjud barcha shartlarga rioya etilgan holatdagi nomli hujjatdir;

d) mijozning topshirig‘iga asosan bank tomonidan importyordan unga jo‘natilgan tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovni olinishi hamda ushbu mablag‘larni eksportyorning bankdagi hisobvarag‘iga olgan holdagi bank operatsiyasidir;

e) mahsulot sotuvchi va oluvchi o‘rtasida tuzilgan uzoq muddatli bitimdir.

13-BOB. XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA TO‘LOV BALANSINI BOSHQARISH

13.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari

13.2. To‘lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar

13.3. To‘lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o‘tkazib yuborishlar

13.4. Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modeli

13.5. To‘lov balansiga ta’sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari

13.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari

To‘lov balansi – bir mamlakatning boshqa malakatlarga ma’lum bir davr mobaynida haqiqatda o‘tkazgan valyutaviy to‘lovlari va tushumlari o‘rtasidagi nisbatni, mamlakatning xalqaro pullar harakatini o‘zida aks ettiruvchi hujjatdir. Agar to‘lov balansida valyutaviy tushumlar to‘lovlardan ortib ketsa, to‘lov balansi aktiv emas, aksincha esa passiv hisoblanadi.

Joriy operatsiyalar balansi (xususan, tovarlar eksporti va importi o‘rtasidagi nisbatni o‘zida aks ettiruvchi savdo balansi, xizmatlarning sof eksportini, investitsiyalardan olingan daromadlarni va bir tomonlama pul o‘tkazmalarini o‘zida aks ettiruvchi “ko‘rinmas” joriy operatsiyalar balansi) va kapital harakati balansi (mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi va unga xorijiy kapitalni kirib kelishini o‘zida aks ettiradi) to‘lov balansining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

To‘lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishish, xalqaro to‘lovga qobillik, jahon savdosiga qatnashish darajasini o‘zida namoyon etuvchi muhim ko‘rsatkich va vosita hisoblanadi. To‘lov balansi tushunchasini dastlab Djeyms Denem-Styuart o‘zining “Siyosiy iqtisod tamoyillari to‘g‘risida tadqiqot (Inquiry into the Principles of Political Economy)” (1767) asarida foydalangan. Styuart to‘lov balansini mustaqil tushuncha sifatida chet

elda fuqarolarning xarajatlari, xorijga foiz to‘lovlari, qarzning asosiy summasi va qarz bo‘yicha to‘lovlar, valyuta ko‘rinishidagi qarzlarni boshqa mamlakatlarga taqdim etishdan tashkil topadi deb ko‘rsatgan. Shunday qilib, dastlabki to‘lov balansi faqat haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro valyutaviy to‘lovlarni o‘zida aks ettirgan, biroq barcha intellektual, moliyaviy va moddiy aktivlar bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy operatsiyalar (rezidentlar va norezidentlar o‘rtasidagi operatsiyalar)ni to‘liq namoyon etmagan. Biroq hozirgi kundagi to‘lov balansini tuzish tartibi, mantiqiy va konseptual asoslariga avvalgi to‘lov balansi tayanch, negiz sifatida olingan.

Iqtisodiy bilimlar tarixida merkantilistlar davridan boshlab tashqi iqtisodiy operatsiyalar takomillashib bordi. Mamlakatga xorijiy valyutalarning kirib kelishi aktiv kredit operatsiyalari deb qaralgan. Shuning uchun, to‘lov balansining kredit qismida mamlakatning iqtisodiy boyligi (aktivlari), qimmatliklarning chiqib ketishi, uning o‘rnini to‘ldiruvchi valyutalarning mamlakatga kirib kelishi bilan bog‘liq operatsiyalar “+” ishorasi bilan yozilgan. Debet qismida esa mamlakatning xorijiy aktivlarni sotib olishi o‘rniga valyutalarni xarajati yozilgan bo‘lib, unga “-” ishorasi qo‘yilgan.

To‘lov balansini tuzishda buxgaltegiyada qo‘llaniladigan ikki yoqlama yozuv tamoyilidan foydalaniladi. Har bir xalqaro operatsiya debet va kredit ko‘rinishida to‘lov balansida aks etadi. Bunda, debetning jami qiymati balansning kredit qismini jami qiymatiga teng bo‘lishi lozim. Tovarlar va xizmatlar eksporti, xorijdan kapitalni kirib kelishi xorijiy valyutani mamlakatga kirishini bildirgan holda, to‘lov balansida “+” (plyus) ishorasi bilan ko‘rsatiladi va balansining kredit summasi shakllantiriladi. Balansning debet qismi tovarlar va xizmatlar importi, xorijiy valyutada kapitalning chetga chiqib ketishi natijasida yuzaga keladi va u “-” (minus) ishorasi bilan ko‘rsatiladi. To‘lov balansida iqtisodiy operatsiyalar bozor narxida ko‘rsatiladi, ya’ni iqtisodiy boyliklar o‘zaro almashtirilishidagi haqiqatdagi bahosi bo‘yicha aks ettiriladi.

To‘lov balansini taqdim etish shakllari va uning qoldig‘i. To‘lov balansini taqdim etish “neytral” va “tahliliy” ko‘rinishlarda bo‘lishi

mumkin. *Neytral shakl*da taqdim etilgan to‘lov balansi tovarlar, xizmatlar va joriy o‘tkazmalar joriy operatsiyalarda to‘planadi. Kapital o‘tkazmalar, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy hosila vositalar, boshqa investitsiyalar va zaxira aktivlari kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida jamlanadi. Ushbu bo‘limlar tengligini ta’minlash maqsadida “Sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi qo‘shiladi va umumiy natija nolga tenglashtiriladi.

Shu bilan bir qatorda, XVF to‘lov balansini tuzishning muqobil shakli bo‘lgan “tahliliy” shaklda to‘lov balansini taqdim etishni ham mamlakatlarga tavsiya etadi. Bunda, tezkor ma’lumotlar umumlashtiriladi, qayta tasniflanadi, guruhlanadi. Bunda, mustaqil ravishda rezidentlar va norezidentlar tomonidan o‘zaro amalga oshirilgan joriy va kapital harakati bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy operatsiyalar mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlariga tenglashtirilgan holda, to‘lov balansi aktiv yoki passiv bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Barcha qolgan operatsiyalar, xususan davlatlar tomonidan amalga oshirilgan saldoni moliyalashtirish yoki undan foydalanish bilan bog‘liq balanslashtiruvchi operatsiyalar to‘lov balansini tartibga solish operatsiyalari etib belgilangan.

To‘lov balansi qoldig‘i mavjud bo‘lmaydi, chunki to‘lov balansining moddalarini (neytral taqdimotda) qoldig‘i nolga tenglashtiriladi. Biroq, “sof eksport” qiymati mamlakat YaIMga kiritilgani bois joriy operatsiyalar qoldig‘i to‘lov balansi qoldig‘i sifatida qayd etiladi. Joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘ini baholab, to‘lov balansini defitsit (passiv) yoki profitsit (aktiv) deb aytish mumkin.

13.2. To‘lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar

To‘lov balansi tarkibi. To‘lov balansini tuzishning turlicha uslubiyati mavjud bo‘lib, hozirgi kunda Xalqaro valyuta fondi (XVF) taklif etgan metodika (uslubiyat)dan, ya’ni to‘lov balansi moddalarining tasnifidan mamlakatlar amaliyotida keng qo‘llaniladi. Mazkur

uslubiyatda obyektiv reallik ko‘proq ko‘rinadi, xususan to‘lov balansi ikkita yirik bo‘limga ajratilgan. Bu, bitimlarning hisobini yuritishning ikki tomonlama xususiyatidan, ya’ni savdo va moliyaviy jihatidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Xususan, tovarlar va xizmatlar eksporti norezidentlar oldida rezidentlarning talablarini oshiradi (to‘lov balansida “+” ishorasi bilan aks ettiriladi), bu esa, o‘z navbatida norezidentlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning kamayishiga olib keladi (“-” ishorasi bilan belgilanadi). Har ikkita hisob-kitob yozuvlarining yig‘indisi nolga teng bo‘lishi lozim. Tovarlar va xizmatlar eksporti natijasida mamlakatda valyuta zaxiralari to‘planib boradi va ular import operatsiyalari to‘loviga xizmat qilishi mumkin.

Agar mamlakatda import operatsiyalari to‘lovi uchun yetarlicha valyuta zaxiralari mavjud bo‘lmasa, u xorijdan qarz mablag‘larini jalb etishi mumkin. Bu kabi qarz mablag‘larini davlatlar o‘zlarining tovarlar va xizmatlar eksportini doimiy oshirib borish orqali qoplashi mumkin. Bunday holatda, bitimning savdo qismi (tovarlar va xizmatlarning mamlakatga kirib kelishi) bo‘yicha chet elliklar oldida so‘ndirishni talab qiluvchi (“-” ishorasi bilan belgilanadigan) mamlakat qarzdorligining paydo bo‘lishiga olib keladi. Mamlakatga norezidentlarning kreditlarini jalb etish esa mamlakatning chet elliklar oldida moliyaviy majburiyatlarini ortishiga sabab bo‘ladi va “+” ishorasi bilan aks ettiriladi.

Mazkur holatni yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun, haqiqatda mamlakatga kirib kelgan va chiqib ketgan valyutaviy tushum va to‘lovlar nisbatini olish mumkin.

Mamlakatning to‘lov balansi sanoat korxonalari balansiga o‘xshab emas, balki bank balansiga o‘xshash holda tuziladi. Masalan, O‘zbekistondagi korxona 100 ming AQSh dollarlik mahsulotni eksport qilib, to‘lovni uch oy davomida olishga sotib oluvchi bilan kelishgan. O‘zbekiston to‘lov balansida dastlab mazkur summa tovarlar eksporti sifatida balansining kredit qismida yoziladi va bu xorijdan to‘lovni talab qilish huquqini beradi. So‘ngra ushbu summa qisqa muddatli kapital sifatida to‘lov balansining debet qismida aks ettiriladi va u O‘zbekistondan qisqa muddatli kapitalning chiqib ketishini anglatadi.

Ya’ni O‘zbekistonlik eksportyor xorijiy importyorga 3 oylik kredit bergan deb hisoblanadi. Bunda O‘zbekistonning xorijdagi aktivlari ortadi va to‘lov balansining kapital qismi debetlanadi. Mazkur operatsiyani quyidagi shaklda yozish mumkin:

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	**Kredit (+)**	**Debet (-)**
Tovarlar eksporti, ming AQSh dollarida	100	-
Qisqa muddatli kapital chiqishi ming AQSh dollarida	-	100

Qaytarmaslik sharti bilan boshqa mamlakatlarga taqdim etiladigan iqtisodiy boyliklar (mahsulotlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar) to‘lov balansi moddalarida ikki yoqlama yozuv tamoyili asosida qanday aks ettiriladi degan tabiiy savol paydo bo‘ladi. Bu kabi operatsiyalar uchun to‘lov balansida alohida “Bir tomonlama o‘tkazmalar” moddasi mavjud. Masalan O‘zbekiston boshqa mamlakatdan ijtimoiy yordam sifatida 10 mln. AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlarni oldi. O‘zbekiston to‘lov balansida bu operatsiya quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi:

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	**Kredit (+)**	**Debet (-)**
Ijtimoiy yordam (import), mln. AQSh dollarida	-	10
Bir tomonlama o‘tkazmalar,mln AQSh dollarida	10	-

Shunday qilib, to‘lov balansining kredit qismida mahalliy aktivlar (mahsulotlar, moddiy va moliyaviy boyliklar)ning chetga chiqib ketishi (kamayishi), aksincha esa, ya’ni xorijiy mamlakat aktivlari (mahsulotlar, moddiy va moliyaviy boyliklar)ning mamlakatga kirib kelishini (ortishini) ko‘rsatadi. Passiv (majburiyatlar)ga nisbatan esa mazkur qonuniyat teskari amal qiladi. Masalan. O‘zbekiston AQShdan 10 mlrd.

AQSh dollari miqdorida mablag‘ni qarzga oldi, O‘zbekiston bu yerda nafaqat aktivga ega bo‘lmoqda, balki passiv (AQSh oldida majburiyat)ga ega bo‘lmoqda. Bunda to‘lov balansida aktivning hisobi debet, passivning hisobi esa kredit bo‘ladi. Bu O‘zbekiston to‘lov balansida quyidagicha aks ettiriladi.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	**Kredit (+)**	**Debet (-)**
Aktiv, mlrd. AQSh dollarida	-	10
Passiv,mlrd AQSh dollarida	10	-

Xalqaro iqtisodiy operatsiyalarni to‘lov balansining debet yoki kredit qismida aks ettirishning umumiy qoidasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Operatsiya	**Kredit (+)**	**Debet (-)**
Tovarlar va xizmatlar	Tovarlar va xizmatlar eksporti	Tovarlar va xizmatlar importi
Investitsiyalardan daromadlar va mehnatga haq to‘lash (ish haqi)	Norezidentlar[40]dan tushgan (olingan) tushum	Norezidentlarga to‘lovlar
Bir tomonlama o‘tkazmalar	Mablag‘larni olish	Mablag‘larni berish
Moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar	Uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish	Uzoq va qisqa muddatli kreditlarni berish

To‘lov balansi ikkita yirik bo‘limga bo‘linadi, ya’ni joriy operatsiyalar hisobi (current account balance) bo‘limi hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi (capital and financial account) bo‘limi. XVF mamlakatlar to‘lov balansini ikki xil ko‘rinishda,

[40] Mazkur jadvalda iqtisodiy jihatdan rezident (yuridik jihatdan fuqaroligi bo‘yicha emas), ya’ni qaysi davlat chegarasida yashayotgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiy-manfaatli faoliyatini olib borayotgan bo‘lsa, fuqaro o‘sha davlat rezidenti sifatida qaraladi.

ya’ni jamlangan va operatsiyalari batafsil, to‘liq ko‘rsatilgan holda e’lon qiladi.

To‘lov balansi moddalarini XVFning davriy nashrlarida beriladigan to‘liq tarkibi tuzilishi:

№	TO‘LOV BALANSI			Summa	
	Balansning bo‘lim va moddalari			DEBET	KREDIT
1	JORIY OPERATSIYALAR HISOBI				
	A	Savdo balansi			
	V	Xizmatlar balansi			
	S	Joriy o‘tkazmalar			
	1 BO‘LIM JAMI				
2	KAPITAL VA MOLIYAVIY VOSITALAR BILAN OPERATSIYALAR HISOBI				
	A	Kapital bilan operatsiyalar hisobi			
	V	Moliyaviy hisob			
		1	To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar		
		2	Portfel investitsiyalar		
		3	Boshqa investitsiyalar		
		4	Zaxira aktivlari		
	2 BO‘LIM JAMI				
YAKUNIY BALANS (1+2)					

Joriy operatsiyalar hisobi. To‘lov balansining ushbu bo‘limi tovarlar, xizmatlar va bir tomonlama o‘tkazmalar bilan bog‘liq xalqaro bitimlari natijasida olingan mamlakatning sof daromadlari qiymatini ko‘rsatadi va u quyidagicha hisoblanadi:

Joriy operatsiyalar hisobi balansi = **Eksportdan daromadlar** - **Importga xarajatlar** - **Chet elga sof o‘tkazmalar**

Chet elga sof o‘tkazmalar firmalar, uy xo‘jaliklari va hukumat tomonidan chet elga o‘tkazmalardan ushbu mamlakat rezidentlariga xorijdan yuborilgan o‘tkazmalarni chegirmasiga teng.

To‘lov balansining joriy operatsiyalar hisobining ijobiy qoldig‘i va chet el aktivlari o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi ko‘rinishga ega:

Joriy operatsiyalar hisobining ijobiy qoldig‘i	**=**	**Chet elda aktivlarning sof ortishi**

Chet elda aktivlarning sof ortishi – bu mahalliy rezidentlar egalik qiluvchi xorijdagi aktivlarining ushbu mamlakatda norezidentlar egalik qiluvchi mahalliy aktivlardan ortishi tushiniladi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar hisobining taqchilligi chet eldagi aktivlarning sof kamayishini ifodalaydi. Ya’ni:

Joriy operatsiyalar hisobining taqchilligi	**=**	**Chet eldagi aktivlarning sof kamayishi**

Bunda mamlakat qarzdor hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston yana chet elga sotish uchun aktivlarga ega. Biroq, biz sekinlik bilan chet eldan jalb etiladigan qarzlarni ko‘paytirishimiz, kelajakda ularni asosiy qarz summasi bilan birga foiz to‘lovi bilan qaytarishga majbur bo‘lamiz. Natijada, har bir mamlakat to‘lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi balansi o‘zaro tenglashadi.

Joriy operatsiyalar balansidagi defitsit mamlakatning boshqa mamlakat oldidagi qarzdorligini ortishini o‘zida aks ettiradi. Agar mamlakat joriy operatsiyalar balansida defitsit yuzaga kelsa, u albatta mazkur taqchillikni har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham (boshqa bir mamlakatdan qarz olish, o‘z valyuta zaxirasidan foydalangan holda va h.k.) to‘lashi zarur.

To‘lov balansida joriy operatsiyalar hisobidagi defitsit (taqchillik) quyidagi yo‘llar orqali moliyalashtirilishi mumkin:

- chet elga ma’lum bir qism milliy aktivlarni sotish, ya’ni xorijiy mamlakatga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki portfel investitsiya shaklida turli milliy aktivlari yoki mablag‘larni qo‘yish;
- chet el banklaridan, hukumatlaridan yoki xalqaro tashkilotlardan tashqi qarz olish yordamida;

- mamlakat Markaziy bankida saqlanayotgan rasmiy valyuta zaxiralaridan foydalanish orqali, ularni taqchillikni bartaraf etish uchun sarflash hisobiga.

Ba’zan, mamlakatlar joriy operatsiyalar hisobidagi taqchillikni moliyalashtirish imkoni qolmaganda, ya’ni moliyalashtirish uchun tashqi kredit olib bo‘lmasa, mamlakat valyuta zaxirasi minimum darajaga yetib qolgan bo‘lsa, xorijga qilinadigan xarajatlarini qisqartirish yoki chet elga tovarlar va xizmatlarni sotish orqali daromadlarini oshirish yo‘li bilan defitsitni bartaraf etadi.

Tashqi savdo balansi. To‘lov balansining birinchi bo‘limi bo‘lgan joriy operatsiyalarning dastlabki moddasi mamlakatning tashqi savdo balansi hisoblanadi. XVF eksport va importni bir xil tartibda baholashni taklif etgan bo‘lib, unga ko‘ra eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi bahoda aniqlanadi. Shuning uchun, eksport va import baholash uchun FOB (free on board) baholardan foydalanish talab etiladi. CIF (Cost, Insurance and Freight) baholaridan esa, import operatsiyalarida keng foydalaniladi va ba’zan ularga tegishli to‘g‘irlashlar ham kiritiladi. Bunday to‘g‘irlashlar AQSh, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar to‘lov balanslarida bo‘lib, 1990- yillarda mazkur mamlakatlar importining 3-4 foizi FOB narxlarida amalga oshirilgan. O‘sha paytda Yaponiyaning tashqi savdosida dengiz orqali yuklarni o‘tkazish qariyb 10%dan yuqori bo‘lgan.

Bir tomonlama o‘tkazmalar va xizmatlar balansi. Joriy operatsiyalar hisobining ikkinchi asosiy qismi xizmatlar balansi hisoblanadi. Xalqaro savdoda xizmatlar muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar balansida transport xizmatlari, jumladan yuk yo‘lovchilarni tashish, sug‘urta, elektron, tele-kosmik, telegraf, telefon, pochta va boshqa turdagi aloqa xizmatlari, xalqaro turizm, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik tajribalarni o‘zaro almashish, ekspert xizmatlari, chet elda diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalarni saqlash, ma’lumotlar berish, ilmiy-ma’naviy va madaniy hamkorlik xizmatlari, reklama, yarmarka va turli yig‘inlar uchun yig‘imlar va h.k. bo‘yicha to‘lovlar va tushumlar aks etadi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar balansida bir tomonlama o‘tkazmalar, xususan olingan daromadlar, ya’ni xorijga qo‘yilgan investitsiyalardan olingan daromadlar yoki chet el investitsiyalariga to‘lovlar ham asosiy rol o‘ynaydi. To‘lov balansining aynan ushbu moddasi mamlakatda xorijiy tadbirkorlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdan tashqarida olingan daromadlarni investor o‘z mamlakatiga o‘tkaza olmasligi davlatga xorijiy investitsiyalarni kirib kelishiga keskin to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham, XVF ustavida alohida 8-kelishuv moddasi (2 (a), 3 va 4 qismlari) bo‘lib, unga ko‘ra o‘ziga xalqaro operatsiyalar bo‘yicha majburiyat oluvchi mamlakat XVF bilan kelishmasdan turib, joriy operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlar va turli o‘tkazmalarni amalga oshirishda diskriminatsion valyuta cheklovlarini o‘rnatishi mumkin emas. XVF a’zosi bo‘lgan jahondagi ko‘plab mamlakatlar (hozirgi kunda 150 dan ortiq mamlakatlar) XVFning 8-kelishuv moddasini qabul qilishgan. O‘zbekiston esa, mazkur moddani 2003- yilda o‘zida qo‘llash bo‘yicha majburiyat olgan, ya’ni qabul qilgan.

Joriy o‘tkazmalarga turli ko‘rinishdagi bir tomonlama o‘tkazmalar, shuningdek, qaytarmaslik sharti bilan bilan beriladigan mablag‘lar, to‘lovlar ham qo‘shiladi. Ularni ikki ko‘rinishga bo‘lish mumkin, ya’ni davlat operatsiyalari va shaxsiy maqsadlar uchun bir tomonlama o‘tkazmalar. Davlat operatsiyalari bilan bog‘liq bir tomonlama o‘tkazmalarga bir mamlakatning boshqa bir mamlakatga iqtisodiy yordam tariqasida bergan subsidiyasi yoki beg‘araz yordami, xalqaro tashkilotlarning to‘lovi, moliyaviy grantlari, foizsiz ajratmalari va h.k.lar kiradi. Shaxsiy maqsadlarda foydalaniladigan operatsiyalar xorijdagi ishchilarning, mutaxassislarning, qarindoshlarning o‘z vataniga, oilasiga shaxsiy ehtiyoj yoki boshqa turli maqsadlar uchun yuborgan mablag‘lari bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi. To‘lov balansining ikkinchi bo‘limi kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobini o‘zida aks ettirib, u turli shakldagi investitsiyalarning xalqaro harakatini, xususan aktivlarni sotishdan, masalan mahalliy aksiyalarni, obligatsiyalarni, ko‘chmas mulk va

kompaniyalarni chet elga sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, chet eldan rezidentlarning aktivlarni sotib olish uchun qilgan xarajatlarini hisobga oladi. Mazkur bo‘limda jalb etilgan va berilgan savdo kreditlari va bo‘nak (avans) to‘lovlari, ssuda va qarzlar, naqd xorijiy valyuta, joriy operatsiyalar hisobidagi qoldiqlar va depozitlar, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik, hukumatlararo kelishuvlar asosida yetkazib beriladigan tovarlar bo‘yicha qarzdorlik, eksport mahsulotlari bo‘yicha olinishi kutilayotgan kontragentning moliyaviy qarzdorligi, import operatsiyalariga berilgan bo‘naklar bo‘yicha qarzdorlik aks ettiriladi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi	**=**	**Aktivlarni sotishdan tushgan tushumlar**	**-**	**Xorijda aktivlarni sotib olish uchun qilingan xarajatlar**

Mamlakatning aktivlari bilan bog‘liq barcha xalqaro bitimlar (ularni sotish va sotib olish) kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida o‘z aksini topadi. Masalan, O‘zbekiston chet elga qarz mablag‘larini bersa, u o‘z aktivlarini sotgan bo‘ladi, ya’ni uni kelajakda sotib oluvchi asosiy qarzga qo‘shimcha foiz to‘lovi bilan qaytarib to‘laydi. Mazkur operatsiya kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobining “kredit” qismida aks etadi.

Shuningdek, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida kapital transfert (o‘tkazma)lar (mulkni asosiy kapitalga qaytarmaslik sharti bilan o‘tkazish) ham yoziladi. Unga aeroport, kasalxona, yo‘l qurilishi va h.k. kabi investitsion grantlar, hukumat tomonidan qarzdorlikni “so‘ndirish” operatsiyalari kiradi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘i (saldosi) uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish va taqdim etishda namoyon bo‘lib, ular aktivlar bilan barcha bitimlardan xorijiy valyutalarni sof tushumini ko‘rsatadi. Kreditlarni taqdim etish chet el aktivlarini (aksiya, obligatsiya, ko‘chmas mulk va h.k.) sotib olishga

qilingan xarajat hisoblansa, kreditlarni olish aktivlarni sotishdan kelgan tushum sifatida baholash mumkin.

Uzoq muddatli kreditlar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki portfel investitsiyalar ko‘rinishida taqdim etiladi. Korxonaga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritish, korxona mulkining asosiy qismiga egalikni anglatadi va mazkur korxona faoliyati ustidan nazorat qilish imkonini beradi. Qolgan barcha uzoq muddatli investitsiya shakllarini portfel investitsiya deb hisoblash mumkin. Shuningdek, portfel investitsiya asosan korxona mulkiga egalik qilish imkonini beruvchi qimmatli qog‘ozlarning bir qismini (odatda o‘z mulkining 10%gacha bo‘lgan qismini) olish hisobiga shakllanadi.

Aktivlar bilan bog‘liq barcha xalqaro bitimlar (Markaziy bankka tegishli rasmiy valyuta zaxiralaridan tashqari) shartli ravishda xalqaro kapital harakati hisobiga ajratiladi. Kapital harakati hisobidagi ijobiy qoldiq mamlakatga kapitalni sof kirib kelishi hisoblanadi, aksincha esa, kapitalning sof chiqib ketishi yuzaga keladi. Kapitalning sof chiqib ketishida kapital harakati hisobida defitsit yuzaga keladi, ya’ni chet eldan aktivlarni sotib olishga ketgan xarajatlarni shu kabi aktivlarni xorijga sotishdan olingan daromadlardan ortib ketganligini ko‘rsatadi.

Joriy operatsiyalar balansi moddalarini kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobidagi uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish va taqdim etish hamda kapital transfertlar orqali to‘ldirish mustaqil rasmiy hisob-kitoblar balansini olish imkonini beradi.

Rasmiy hisob-kitoblar balansi “Sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddani o‘zi ichiga olgan. Nazariy jihatdan olganda har bir bitim to‘lov balansida debet va kredit ko‘rinishida ikki marta aks etsa ham, amaliyotda mazkur talab ba’zan bajarilmay qoladi. Amalga oshirilgan bitimlar turli holatlar va ma’lumotlarni hisobga olgan holda har doim ham vaqt va sonli ko‘rinishda ifodalab bo‘lmaydi. Ba’zi iqtisodiy boyliklar oqimi statistik hisobdan chetda qolib ketishi mumkin, ayniqsa bunday holatlarga noqonuniy ravishda amalga oshirilgan bitimlar misol bo‘la oladi. Bunday hisobdan qolib ketgan iqtisodiy oqimlarni faqat balansning jami kredit va debet qiymatini hisoblagan holda aniqlash mumkin.

To‘lov balansi ikki yoqlama yozuv tamoyili asosida nolga tenglashtiriladi. Bu esa, mamlakatning barcha qarzlari to‘lanishi kerakliligini anglatadi. Shuning uchun, joriy operatsiyalar hisobidagi defitsit kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobidagi ijobiy qoldiqqa teng bo‘lishi lozim. Agar rezidentlar chet elga mahsulotlar, xizmatlar va aktivlarni sotishdan olingan daromadlarga nisbatan xorijiy mahsulotlar, xizmatlar va aktivlarni sotib olishga ko‘proq xarajat qilsalar, ya’ni rasmiy hisob-kitoblar balansi defitsit bilan chiqsa, ushbu taqchillikni (qarzdorlikni) so‘ndirish Markaziy bank tomonidan rasmiy xorijiy valyuta zaxiralarini qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi (agar Markaziy bank valyuta kursini tartibga solib turish majburiyati bo‘lmasa).

To‘lov balansida jami xorijdan tushgan valyutalar xorijga jami to‘langan (o‘tkazilgan) valyutalarga teng bo‘lishi zarur. Agar to‘lov balansida defitsit yoki profitsit yuzaga kelsa, mamlakat Markaziy banki tomonidan muvofiqlashtirilgan holda to‘lab beriladi yoki sotib olinib rasmiy valyuta zaxiraga joylashtiriladi.

13.3. To‘lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o‘tkazib yuborishlar

To‘lov balansini yaxlit holda quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

Mamlakatning to‘lov balansi	**=**	**Joriy operatsiyalar hisobi balansi**	**+**	**Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi balansi**

Davlat to‘lov balansiga tartibga solishga (valyuta intervensiyalari ko‘rinishida) aralashmasa quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

Joriy operatsiyalar hisobi balansi qoldig‘i	**=**	**Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi balansi qoldig‘i**

To‘lov balansida balanslashtiruvchi modda sifatida, XVF taklifiga ko‘ra mamlakat valyuta zaxiralari (oltin, xorijiy valyuta, XVFdagi mamlakatning zaxira pozitsiyasi, SDR aktivlari) bilan amalga oshirilgan operatsiyalar, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organlarining xalqaro tashkilotlar oldidagi majburiyatlari, SDRlar taqsimoti olingan.

“Sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi. To‘lov balansini tuzishda ma’lumotlar turli manbalardan olinganligi, ikki yoqlama yozuv tamoyilini (debet teng kredit qiymatiga) hisobga olgan holda yakuniy hisobga “Sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar” (“Errors and omissions”) moddasi kiritiladi. Ya’ni mazkur modda orqali to‘lov balansining debeti uning kredit qismiga tenglashtiriladi. Ushbu modda texnik xususiyatga ega bo‘lib, uni to‘liq va aniq iqtisodiy tavsifi mavjud emas.

Qaysi mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritilsa, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o‘zgarsa, mazkur modda qiymati katta bo‘lmaydi (ya’ni eksport yoki import hajmiga nisbatan u 5-7% darajasida bo‘lsa, o‘rta (normal) holat hisoblanadi). Qaysi bir mamlakatda qashshoqlik yoki noqonuniy kapital chiqishi yuqori bo‘lsa, mazkur moddaning qiymati ham shuncha katta bo‘ladi.

Ba’zan, tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritiladigan, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o‘zgaradigan AQSh ham to‘lov balansida “Sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi juda katta bo‘lgan holatlar kuzatilgan. Xususan, 1997- yilda ushbu moddaning qiymati 132 mlrd. AQSh dollaridan ortiq ketib, qariyb joriy operatsiyalar balansi qoldig‘iga tenglashgan. Mazkur holat, hattoki iqtisodiyoti rivojlangan AQSh to‘lov balansini tuzuvchilari ham to‘liq yetarli ma’lumotlar bilan ta’minlanmasligini ko‘rsatadi. To‘lov balansidagi ma’lum bir mablag‘lar noqonuniy xususiyat kasb etganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur ko‘rsatkichni to‘lov balansining joriy operatsiyalari hisobi hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalari hisobidagi qoldiqlar farqi sifatida qaralsa, boshqa

tomondan esa, mamlakatning rasmiy oltin valyuta zaxiralaridagi o‘zgarish sifatida baholanadi.

13.4. Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modeli

Mamlakat to‘lov balansi mahsulot va xizmatlar bozori moliyaviy oqimi uzviy aloqaga ega. Bu aloqadorlikni milliy hisobchilik tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = C + I + G + Xn \quad (1)$$

Bu yerda ***Y*** –yalpi milliy mahsulot hajmi; ***C*** – iste’mol xarajatlari hajmi; ***I*** – investitsion xarajatlar hajmi; ***G*** –davlat (byudjet) xarajatlari hajmi; ***Xn***– mamlakatning sof eksport hajmi.

Mazkur tenglikni quyidagi shaklga almashtirish mumkin:

$$Y - C - G = I + Xn \quad (2)$$

Natijada, (***Y - C - G***) ushbu holat milliy jamg‘arish (***S***)ni hajmini ifodalab, tenglikni quyidagi shaklda yozish imkonini beradi:

$$S = I + Xn \quad (3)$$

Bir mamlakat iqtisodiyotida milliy jamg‘arish hajmi (***S***)ni ikkiga ajratib ko‘rsatish ham mumkin (***S= S_1 + S_2***). Ya’ni shaxsiy jamg‘arma (***S_1 = Y-T***) va davlat jamg‘armasi (***S_2 =T-G***). Bu yerda ***T***–davlat byudjetiga soliqlardan tushum va majburiy to‘lovlar hajmi.

(3) formuladan tenglikning bir tomoniga barcha ko‘rsatkichlarni olib o‘tgan holda, milliy hisobchilik tizimida juda muhim bo‘lgan quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$(I - S) + Xn = 0 \quad (4)$$

Mazkur ifoda, milliy hisobchilik tizimida kapitalni jamg‘arish ***(I – S)*** uchun xalqaro mablag‘lar oqimi va xalqaro tovar hamda xizmatlar oqimi ***(Xn)*** o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatib beradi. Tenglikning har bir bo‘lagi to‘lov balansi bilan bog‘liq o‘z nomiga ega, ya’ni:

(I – S) – to‘lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘ini ko‘rsatadi.

Xn – to‘lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘ini ko‘rsatadi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘i ***(I – S)*** mamlakat ichidagi jamg‘armadan investitsiyalarning ortiq qismini ko‘rsatadi. Mamlakat ichidagi investitsiyalar jamg‘arma ochiq iqtisodiyot sharoitida ortiq bo‘lishi mumkin. Chunki, investorlar o‘z loyihalarini moliyalashtirish uchun mamlakat ichidagi jamg‘armadan ortiqcha mablag‘ni faqat jahon moliya bozoridan jalb etadi (oladi). Joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i ***(Xn)*** mamlakatning sof eksporti evaziga xorijdan olingan mablag‘larni anglatadi.

Milliy hisobchilik tizimining asosiy ayniyatlari to‘lov balansining kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi va joriy operatsiyalar hisobi o‘zaro muvozanatlashgan, ya’ni tenglashgan bo‘lishi lozim. Bu esa, to‘lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘i bilan joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i yig‘indisi nolga teng bo‘lishini anglatadi va quyidagi ayniyat to‘lov balansi uchun milliy hisobchilik tizimidagi asosiy tenglama ekanligini ko‘rsatadi:

$$(I - S) + Xn = 0 = BP \text{ (Balance of Payments)}$$

Agar ***(I – S)*** qiymat ijobiy bo‘lsa va ***(Xn)*** manfiy bo‘lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘i ijobiy va joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i salbiy (defitsit) bo‘lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoridan qarz olgan holda, o‘zimizning eksportimizdan ko‘p import qilganligimizni bildiradi.

Agar ***(I – S)*** qiymat manfiy (taqchillik) bo‘lsa va ***(Xn)*** ijobiy bo‘lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig‘i salbiy (defitsit) va joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i esa profitsit bo‘lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoriga kreditor sifatida chiqayotganligimizni va o‘zimizning importimizdan ko‘p eksport qilayotganligimizni bildiradi.

Bir tomondan, bir mamlakat jamg‘armasi undagi investitsiyalar miqdoridan ortiq ketadigan bo‘lsa, ortiqcha qism xorijga kredit sifatida beriladi. Boshqa mamlakatga ega o‘sha mamlakat tovarlari va xizmatlarini sotib olishi (import) uchun ortiqcha moliyaviy mablag‘ kerak bo‘ladi va ***Xn*** ijobiy qoldiqqa ega bo‘ladi.

Boshqa tomondan esa, agar bizning investitsiyamiz o‘z jamg‘armalarimizdan ortib ketsa, ortiqcha investitsiyalar xorijiy mamlakatlardan moliyalashtirilganligini anglatadi. Jalb etilgan ushbu qarz mablag‘lari hisobiga o‘z eksportimizdan ko‘ra ko‘proq mahsulotni import qilish imkonini beradi va ***Xn*** salbiy qoldiqqa ega bo‘ladi.

Xalqaro kapital oqimi bir qator shakllarda bo‘lishi mumkin. Kapital harakatidagi ijobiy qoldiq yuzaga kelsa, odatda mamlakat chet eldan qarz olgan hisoblanadi. Xuddi shunday, kapitalning xalqaro joylashuvi chet elliklar tomonidan o‘sha mamlakat aktivlariga ega bo‘lish shaklida ham bo‘lishi mumkin. Masalan, yaponiyalik investorlar amerikadagi Rokfellerlar markazini egallaganda, ushbu bitim natijasida AQSh to‘lov balansining kapital harakati hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo‘lgan, lekin Yaponiyadan qarz olmagan. Xorijliklar tomonidan mamlakatning ichki qarz majburiyatlari (davlat obligatsiyalari va h.k.) olinganda, ya’ni mamlakat chetdan qarz olganda ham, mamlakat ichidagi aktivlarga ega bo‘linsa ham, ularning ushbu mamlakat kapitalidan kelajakda olinadigan daromadga ega bo‘lish huquqi mavjud. Boshqacha aytganda, har ikki holatda ham, chet elliklar ushbu mamlakat kapital zaxirasining ma’lum bir qismiga (ulushiga) ega bo‘lishadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat natijasidan olingan ijobiy qoldiqlar, “foyda”, mamlakatning xalqaro kapital zaxirasi sifatida rasmiy oltin-valyuta zaxirasiga jamlanadi. Shuning uchun ham, yuqorida keltirilgan to‘lov balansining makroiqtisodiy formulasi qisqacha (sodda) ko‘rinish bo‘lib, unga mamlakatning oltin valyuta zaxiralari harakati (***OR*** – official reserves)ning hisobi qo‘shilmagan. ***OR***ning o‘zgarishi davlatning oltin valyuta jamg‘armasining kamayishi yoki ko‘payishini o‘zida ifodalaydi. Bunda kapital harakati hisobi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar kirmaydi.

To‘lov balansining yakuniy makroiqtisodiy modeli quyidagi qo‘rinishga ega:

$$(I - S) + Xn + OR = 0$$

Shunday qilib, joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i, nafaqat xalqaro kapital harakati hisobi qoldig‘i bilan, balki ***((I – S)+ OR)*** summa bilan tenglashtiriladi.

13.5. To‘lov balansiga ta’sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari

To‘lov balansi mamlakatning jahon xo‘jaligidagi ishtiroki, ko‘lami, tarkibi va tashqi iqtisodiy aloqalari to‘g‘risida to‘liq tasavvurni shakllantirib, unda, bular bilan birga quyidagilar ham aks etadi:

c) tovarlar, kapital va xizmatlar importiga bo‘lgan talab va eksport taklifi bilan aniqlanadigan milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy muvozanatsizlik;

d) iqtisodiyotni bozor va davlat orqali tartibga solish holatidagi o‘zgarishlar;

e) bozor konyunkturasidagi omillar (xalqaro raqobat darajasi, inflyatsiya, valyuta kursining o‘zgarishi va h.k).

Mamlakatning to‘lov balansi holatiga ko‘p omillar ta’sir etadi. Biroq, ulardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Mamlakat iqtisodiyotining va xalqaro raqobatning bir tekis rivojlanmasligi. Ma’lum bir mamlakat to‘lov balansining asosiy moddalari jahon iqtisodiyotidagi boshqa mamlakatlar bilan ushbu mamlakatning raqobat qilish kuchlari nisbatani o‘zida aks ettiradi;

Iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari natijasi milliy iqtisodiyot holatiga ta’sir ko‘rsatganidek, to‘lov balansiga xo‘jalik yurituvchi subyektlar xo‘jalik faoliyatida o‘sish, pasayish va tebranishlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, mamlakatda ishlab chiqarish hajmining ortishi elektr-energiya manbalariga, xom-ashyo va asbob uskunaga bo‘lgan import talabini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiyotiga nisbatan sekin rivojlansa, ushbu mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi sodir bo‘ladi. Mamlakatda rivojlanish sur’atlari ortsa yoki tezlashsa, foyda olish miqdori ham, foiz stavkalar ham oshadi, kapitalni chiqishi esa qisqaradi.

Davlatning chet eldagi xarajatlarining ortishi. Turli siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlagan hukumatning tashqi xarajatlari milliy iqtisodiyot uchun og‘ir yuk hisoblanadi. Uning to‘lov balansiga bilvosita ta’siri mamlakatning iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish sur’atlarining

o‘zgarishi, milliy iqtisodiyotning eksport tarmoqlaridan resurslarni olib qo‘yish, epsportni kamayishi va h.k. orqali sodir bo‘ladi.

Kapitalni kirishi va chiqib ketishi. Kapitalni chiqishi va kirib kelishi to‘lov balansiga ikki tomonlama ta’sir qiladi. Xususan, kapitalni chiqishi uning passivini oshiradi. Bunda, eksport tarmoqlarini modernizatsiyalash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘larni o‘ziga jalb etadi (ya’ni tortib oladi). Shuningdek, kapital eksporti ma’lum bir davrdan so‘ng dividend va foiz, foyda ko‘rinishida mamlakatga xorijiy valyutada mablag‘larni kirib kelishini ta’minlaydi.

Xorijiy kapitallarni mamlakatga kirib kelishi importyor mamlakat to‘lov balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, tarmoqlarga xorijiy kapitalni kiritish natijasida tarmoqlarning iqtisodiy samaradorligi ortsa, undan olingan daromad tashqi qarzlarni so‘ndirishga yo‘naltiriladi. Aks holda esa, u to‘lov balansiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Inflyatsiya. Inflyatsiya mamlakat to‘lov balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat ichida narxlarning ortishi mahalliy tovarlar raqobatbardoshligini kamaytiradi, ularning eksportini qiyinlashtiradi, tovarlar importini kuchaytiradi, chet elga kapitalning chiqib ketishi “qochishi” sodir bo‘ladi.

Favqulodda holatlar. Hosilning yo‘qolishi, stixiyali (o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgan) qashshoqlik, tabiiy ofatlar va h.k. kabi favqulodda holatlar mamlakat to‘lov balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Savdo cheklovlari. To‘lov balansiga mamlakatlarning bir-biriga nisbatan qo‘llayotgan diskriminatsiyalari, proteksionistik harakatlari, xususan mamlakatlarning o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga qarshilik qiluvchi bojxona to‘siqlari to‘lov balansida o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi.

To‘lov balansining davlat tomonidan tartibga solinishi – bu, davlatni to‘lov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga hamda paydo bo‘lgan taqchillikni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy, jumladan, valyuta, moliya, pul-kredit tadbirlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatining umumiy yig‘indisidir.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblari va valyuta-iqtisodiy holatiga bog‘liq holda to‘lov balansini boshqarishning, tashqi iqtisodiy

operatsiyalarni rag‘batlantirish yoki qisqartirishga yo‘naltirilgan turli usullari mavjud. To‘lov balansida taqchillik mavjud bo‘lgan davlatlar tomonidan, eksportni rag‘batlantirish, import qilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, kapitalni olib chiqib ketishni chegaralashga qaratilgan quyidagi tadbirlar qo‘llaniladi:

Deflyatsion siyosat. Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yo‘naltirilgan holda, o‘z ichiga byudjet mablag‘larini aholiga kamroq ishlatish, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning eng asosiy instrumentlaridan biri bo‘lib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi: byudjet taqchilligini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini o‘zgartirishi (diskont siyosati) kredit cheklovlari, pul muassasining o‘sib borishiga chegara qo‘yish. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori ko‘rsatkichi va to‘la foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qo‘llash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatib, vaziyatni yumshatish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar qo‘llanilmasa, ijtimoiy nizolar kelib chiqadi.

Devalvatsiya. Milliy valyuta kursi (boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan qadri)ning pasaytirilishi. Bu tadbir milliy eksportni rag‘batlantirish va importni jilovlash bilan bog‘liq maqsadlarda amalga oshiriladi. Ammo, to‘lov balansini tartibga solishda devalvatsiyaning roli, uni o‘tkazish tartiblari va ularga hamkorlik qiluvchi mamlakatning umumiqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Devalvatsiya faqatgina, raqobatbardosh tovarlarning eksport potensiali va jahon bozoridagi qulay vaziyatlarning mavjudligi sharoitidagina tovarlar eksportini rag‘batlantirishi mumkin. Devalvatsiyaning importni cheklashga ta’siri esa, takror ishlab chiqarish jarayonining baynalmilallashuvi hamda xalqaro ixtisoslashuv darajasining rivojlanishi bilan mamlakatning importni cheklash bo‘yicha keskin choralar qo‘llash imkoniyatlari pasayishidan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hamma mamlakatlarda ham import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosati muvaffaqiyatli chiqavermaydi. Devalvatsiya importni cheklashi bilan, mamlakat ichida tovarlar ishlab chiqarish

xarajatlari ortishiga, narxlarning ko‘tarilishiga va oqibatda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik qobiliyatining yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun, bu tadbir mamlakatga vaqtinchalik ustuvorlik berishi mumkin, ammo u to‘lov balansining taqchilligini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qodir emas. Kutilgan natijani olish uchun, devalvatsiya yetarli darajada bo‘lishi zarur. Aks holda, u valyuta spekulyatsiyasini kuchaytiradi va valyuta kursini qaytadan ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Haddan ortiq darajada amalga oshirilgan devalvatsiya, boshqa valyutalar kursini ham tushirishga olib keladigan, zanjirli reaksiyani amalga oshiradi. Va natijada, devalvatsiyani amalga oshirgan mamlakat, raqobatda o‘zi kutgan ustuvorlikka ega bo‘la olmasligi mumkin.

Valyuta cheklovlari. Ushbu tadbir eksport qiluvchilarning xorijiy valyutalardagi tushumlaridan foydalanishni cheklash, xorijiy valyutani import qiluvchilarga sotishni litsenziyalash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, u valyuta operatsiyalarni maxsus ruxsatnomaga ega bo‘lgan banklarda amalga oshirilishi hamda to‘lov balansidagi taqchillikni kamaytirish maqsadida, kapital eksportini chegaralash va uning oqib kelishini rag‘batlantirish, tovarlar importini chegaralashga qaratilgan tadbirlar yig‘indisidir.

Moliya va pul-kredit siyosati. To‘lov balansidagi taqchillikni bartaraf etish maqsadida eksport qiluvchilarga byudjet subsidiyalari beriladi, proteksionistik (ichki ishlab chiqaruvchilarni himoyalash) maqsadlarida import bojlari oshiriladi, mamlakatga pul oqimining kirib kelishini rag‘batlantirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar egasi bo‘lgan xorijliklardan olinadigan soliqlarni bekor qilish kabi chora-tadbirlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, pul-kredit siyosati, bank hisob siyosati va muomaladagi pulning massasini belgilash tadbirlari yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Tayanch so‘z va iboralar

To‘lov balansi, aktiv, passiv, ikki yoqlama yozuv, debet, kredit, to‘lov balansining neytral va tahliliy shakli, joriy operatsiyalar hisobi,

savdo balansi, xizmatlar balansi, joriy o‘tkazmalar, bir tomonlama o‘tkazmalar, xalqaro kapital harakati, kapital bilan operatsiyalar hisobi, to‘lov balansida moliyaviy hisob, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, boshqa investitsiyalar, sof xatolar va o‘tkazib yuborishlar davlatning oltin valyuta zaxirasi, yalpi milliy mahsulot, iste’mol xarajatlari, investitsion xarajatlar, davlat (byudjet) xarajatlari, sof eksport shaxsiy jamg‘arma, davlat jamg‘armasi, yalpi milliy jamg‘arish, xalqaro raqobat, iqtisodiyotdagi siklik tebranish, davlatning chet eldagi xarajatlari, kapital eksporti va importi, savdo cheklovlari, inflyatsiya, deflyatsion siyosat, devalvatsiya, valyuta cheklovlari, moliya va pul-kredit siyosati.

Takrorlash uchun savollar

- To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va tuzishning ahamiyatini aytib bering?
- To‘lov balansi qanday shakllarda taqdim etiladi va ularni farqli jihatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- To‘lov balansi tarkibi qanday?
- To‘lov balansi kredit qismida qanday operatsiyalar yoziladi va u qanday ahamiyatga ega.
- To‘lov balansi debet qismida qanday operatsiyalar yoziladi va u qanday ahamiyatga ega.
- To‘lov balansining aktiv va passiv operatsiyalari, holatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- Joriy operatsiyalar hisobi balansi hisobida nimalar aks ettiriladi?
- Bir tomonlama o‘tkazmalar va xizmatlar balansi qanday operatsiyalardan shakllantiriladi?
- Tashqi savdo balansida nimalar aks ettiriladi?
- Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?
- To‘lov balansiga davlat aralashuvi qanday bo‘ladi?

- To‘lov balansining xato va o‘tkazib yuborishlar moddasi nima uchun kerak, unda nimalar aks ettiriladi?
- Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modelini tuzish to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- To‘lov balansiga ta’sir etuvchi omillarni aytib bering va ularni izohlang?
- To‘lov balansini tartibga solishning qanday asosiy usullarini bilasiz va ularga izoh bering?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

- To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va makroiqtisodiy modelini o‘rganish bo‘yicha klaster tuzing.
- Mamlakatlarning to‘lov balanslarini Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va UNCTAD (BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi) ma’lumotlari asosida o‘rganing va rivojlanayotgan mamlakatlar to‘lov balansiga xos xususiyatlarni aniqlang.
- Merkantilistlarning iqtisodiy qarashlari bo‘yicha Devid Yumning xalqaro savdo va metal pullar harakati nazariyasini mamlakat to‘lov balansiga bog‘lagan holda o‘rganing.
- To‘lov balansining qoldig‘ini o‘lchash konsepsiyalarini rivojlanish jarayonini o‘rganing, ularni o‘zaro solishtiring va hozirgi kunda mamlakat to‘lov balansini tuzish va uni e’lon qilish shartlari bo‘yicha xulosa yasang.
- Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi bilan birga to‘lov balansini tuzing va natijalarga izoh bering.

Operatsiyalar	**Pul birlik**	**Operatsiyalar**	**Pul birlik**
Avtomobillar eksporti	1,0	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti	1,0
Chet elda turizm xarajatlari	8,5	Avtomobillar importi	30,4

Hisob-kitob texnikasi eksport	15,2	Harbiy asbob-uskunalar eksporti	7,1
Neft importi	10,5	Chet elliklarga oltinni sotish	1,0
Davlat obligatsiyalarini sotish	4,0	Milliy korporatsiyalarning xorijiy aksiyalarini sotish	2,1
Bug‘doy eksporti	20,0		

- Berilgan ma’lumotlar asosida toping: 3 yil uchun Xn (savdo balansi qoldig‘i), S1 (Shaxsiy jamg‘arma), S2 (Davlat jamg‘armasi), S=S1+S2 (Umumiy jamg‘arma), Kapital harakati balansi qoldig‘i.

Yillar	Y (YaIM)	C (Iste’mol xarajatlari)	I (Investitsiya)	G (Davlat xarajatlari)	T (Byudjet daromadlari)
1	5000	3000	900	1000	900
2	5000	3200	900	1000	900
3	5000	3200	1000	900	1000

Test savollari

1. To‘lov balansi bilan hisob-kitob balansi o‘rtasidagi farqlar berilgan javobni toping?

a) Xalqaro kreditlar to‘lov balansini aktivlashtiradi hisob-kitob balansini esa passivlashtiradi;

b) Mamlakatning haqiqatdagi xalqaro to‘lovlari va tushumlari hisob-kitob balansida aks ettiriladi;

d) To‘lov balansida majburiyatlar va talablar o‘zaro nisbati aks ettiriladi;

e) To‘lov va hisob-kitob balansi bir xil ma’no anglatuvchi tushunchalar.

2. To‘lov balansi bilan savdo balansi o‘rtasidagi farqlar berilgan javobni toping?

a) To‘lov balansi o‘z tarkibiga savdo balansini ham oladi;

b) To‘lov balansida bir tomonlama o‘tkazmalar aks ettirilmaydi;

d) Savdo balansida kreditga berilgan tovarlar aks ettiriladi;

e) To‘lov va savdo balansi bir xil ma’no anglatuvchi tushunchalar.

3. To‘lov balansi nima?

a) Mamlakat tomonidan valyuta ko‘rinishida haqiqatda to‘langan va boshqa davlatlardan olingan tushumlarning nisbati;

b) Mamlakatning xorijiy davlatlarga bo‘lgan talab va majburiyatlarning nisbati;

d) Faqatgina haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro kredit bilan bog‘lik to‘lovlar va tushumlarning nisbati;

e) Valyuta rezervlari va oltin rezervlari bahosi o‘rtasidagi nisbat.

4. To‘lov balansini tuzishda bazis balans konsepsiyasining mohiyati qanday?

a) To‘lov balansi A va B moddalardan iborat bo‘lib, B modda orqali balanslashtirilgan;

b) To‘lov balansi A+B+C+D moddalarning yig‘indisi E+G+F moddalar yig‘indisining teskari ishora bilan olingan qiymatiga teng bo‘lishi kerak;

d) 1970- yillarda AQSh iqtisodiyotida iqtisodiy beqarorliklar yuz berganligidan to‘lov balansida ham qo‘shilgan;

e) To‘lov balansi joriy operatsiyalar qoldig‘i bilan o‘lchangan.

5. Mamlakat iqtisodiy tizimi joriy yilda quyidagi parametrlar bilan tavsiflandi: $S_{shaxsiy} = 0,2\ (Y-T) – 50$; $I = 100 – 5i$. Bu yerda, $S_{shaxsiy}$-xususiy sektordagi jamg‘arma funksiyasi; Y-milliy daromad; T-davlat byudjetiga soliq ajratmalari; I-investitsiya funksiyasi; i-foiz stavkasi. Agar iste’mol xarajatlari 530 pul birlik, yillik 7%lik stavkada, byudjet profitsiti 10 pul birlik bo‘lsa, to‘lov balansining joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘ini toping:

a) 15pul birlik;

b) -55pul birlik;

d) 80pul birlik;

e) -75pul birlik.

6. A mamlakatda xususiy investitsiyalar hajmi – 600; davlat byudjeti defitsiti – 200; joriy operatsiyalar balansi defitsiti – 250 pul birlikka teng. A mamlakatdagi ichki investitsiyalar miqdorini toping?

a) 650pul birlik;

b) 320pul birlik;

d) 740pul birlik;

e) 430pul birlik.

7. A mamlakatda joriy yilda quyidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar kuzatildi: Milliy daromad – 1000; Iste’mol xarajatlari – 700; Davlat xarajatlari – 100; Ichki investitsiyalar hajmi – 300; Eksport hajmi – 50; Import hajmi – 250. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida oltin-valyuta zaxiralari harakati hisobini aniqlang?

a) 100 pul birlik;

b) -50 pul birlik;

d) 300 pul birlik;

e) -150 pul birlik.

8. Davlat byudjeti defitsiti 128 mlrd. doll.ni, shaxsiy jamg‘arma 806 mlrd. doll.ni, ichki real investitsiyalar hajmi 777 mlrd. doll.ni tashkil etsa, mamlakatning to‘lov balansini joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘ini toping?

a) -99mlrd. doll;

b) 224mlrd. doll;

d) 123mlrd. doll;

e) -174mlrd. doll.

14-BOB. XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARINING XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

14.1. Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi va umumiy tavsifi

14.2. Xalqaro Valyuta Fondining maqsadi va faoliyatining mohiyati

14.3. Jahon banki guruhi va unga kiruvchi tashkilotlar faoliyati

14.4. Mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

14.1. Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi va umumiy tavsifi

Xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarining tashkiliy tuzilmasi o‘ziga ko‘plab xalqaro tashkilotlarni qamrab oladi. Ulardan ba’zilari ko‘pgina vakolatlarga hamda yuqori miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan holda xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarini tartibga solishda ishtirok etadi. Boshqalari esa, hukumatlararo muhokama etish uchun forumlar tashkil etish hamda valyuta-kredit va moliya siyosati bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari o‘zida jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlash uchun moliya va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida davlatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining yuzaga kelishiga asosan jahon xo‘jaligida globallashuv jarayonlarining rivojlanishi hamda xalqaro moliya bozorlaridagi va jahon valyuta tizimidagi beqarorlikning kuchayishi sabab bo‘ldi. Ular asosan ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil topgan va hozirgi vaqtda mamlakatlarning valyuta-kredit va moliya munosabatlari sohasidagi hamkorligini rivojlantirishda hamda ushbu munosabatlarni davlatlararo darajada tartibga solishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlari vujudga kelishining birinchi bosqichi birinchi va ikkinchi jahon urushlari orasidagi davrga to‘g‘ri keladi. Xalqaro moliya tashkilotlari vujudga kelishining ikkinchi bosqichi hamda ular faoliyatining kuchayish jarayoni ikkinchi jahon urushidan so‘ng mustamlakachilik tizimining parchalanishi va 1970-yillardagi iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Shu bilan birgalikda 1980-yillarning boshlarida xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatida uchinchi bosqichning boshlanganligini qayd etishimiz mumkin. Chunki bu davrda jahon iqtisodiyotida globallashuvning kuchayishi hamda integratsion jarayonlarning jadallashuvi kabilarni ko‘rsatish mumkin. Dunyodagi bir qator davlatlarning hukumat organlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni birgalikda hal etishga ehtiyoj sezdilar va buning natijasida xalqaro tashkilotlarga bo‘lgan talab yanada ortib bordi.

Xalqaro moliya tashkilotlariga Xalqaro Valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Osiyo, Amerika, Afrika mintaqaviy rivojlanish banklari va boshqalar kiradi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining faoliyati jahon xo‘jaligining barqarorligiga erishishga hamda valyuta-moliya sohasidagi munosabatlarning uzluksizligini ta’minlashga yordam beradi. Eng avvalo, bunga bo‘lgan zaruriyat davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ko‘lamining ortib borishi, shuningdek, ularning o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ular mamlakatlar va davlatlar o‘rtasida hamkorlikni tashkil etish uchun forum sifatida xizmat qilishga ham yo‘naltirilgan.

Bundan tashqari, jahon xo‘jaligining muhim muammolari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish hamda o‘rganish sohasida xalqaro valyuta-moliya tashkilotlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlarining vujudga kelishiga va faoliyatining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

6. xo‘jalik hayoti baynalmilallashuvining kuchayishi, shuningdek, milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklarning tashkil topishi;

7. jahon xo‘jaligida moliyaviy munosabatlarni xalqaro tartibga solishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi;

8. jahon valyuta tizimi, xalqaro valyuta-kredit, qimmatbaho qog‘ozlar va oltin bozorlaridagi yuzaga keladigan muammolarni hamkorlikda hal qilish zaruriyatining ortib borishi.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari tomonidan bajariladigan asosiy funksiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Axborot funksiyasi.

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon xo‘jaligi rivojlanishining umumiy tendensiyalari hamda biror bir davlatning iqtisodiy holati to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin bo‘lgan axborot markazi rolini bajaradi. Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalar, yig‘ilishlar, tadqiqotlar natijalari bo‘yicha statistik materiallarni nashr etib boradi.

2. Maslahatchi funksiyasi.

Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlarning hukumatlariga valyuta-kredit va moliya siyosatini o‘tkazish bo‘yicha maslahatlar berib boradi.

3. Tartibga solish funksiyasi.

Xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solish funksiyasini ham bajaradi. Jumladan, XVF to‘lov balansida muammolarga ega bo‘lgan mamlakatlarga vaqtinchalik moliyaviy yordam ko‘rsatadi. XVF mamlakatlarga milliy valyuta kursini bir maromda saqlash uchun ham bir necha bor vaqtinchalik yordam ko‘rsatgan.

4. Bashorat qilish funksiyasi.

Xalqaro moliya tashkilotlari milliy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bashoratini amalga oshiradi.

Xalqaro moliya tashkilotlari universallik darajasi va maqsadlariga bog‘liq holda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan, mintaqaviy, shuningdek,

faoliyati jahon xo‘jaligining ma’lum bir sohasini qamrab oluvchi tashkilotlarga ajratiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish g‘oyasi 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi ta’siri natijasida yuzaga keldi.

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotini rivojlantirish sohasidagi muayyan masalalarni hal etish uchun a’zo mamlakatlarning moliyaviy resurslarini birlashtirish orqali tashkil etiladi. Ushbu masalalar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

9. xalqaro savdoni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, jahon iqtisodiyotini tartibga solish hamda barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar;

10.byudjet taqchilligini moliyalashtirish va davlat loyihalarini amalga oshirishga kreditlar – davlatlararo kreditlar;

11.xalqaro loyihalar (loyihada to‘g‘ridan to‘g‘ri, shuningdek, rezident tijorat tashkiloti orqali ishtirok etuvchi bir nechta mamlakatlar manfaatlariga daxldor bo‘lgan loyihalar) sohasidagi kreditlash va investitsiya faoliyati;

12.xalqaro biznesga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga (masalan, infratuzilma loyihalari, informatsion texnologiyalar sohasidagi loyihalar, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va boshq.) ichki loyihalar (bitta mamlakatning yoki rezidentning tijorat tashkiloti manfaatlariga bevosita daxldor bo‘lgan loyihalar) sohasidagi kreditlash va investitsiya faoliyati;

13.fundamental ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va xayriya faoliyati (xalqaro yordam dasturlarini moliyalashtirish).

Xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan holda faoliyat yuritadi:

14.jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliyani barqarorlashtirish maqsadida jahon hamjamiyatida harakatlarni birlashtirish;

15.valyuta va moliya-kredit munosabatlarini xalqaro tartibga solishni amalga oshirish;

16.jahon valyuta va moliya-kredit siyosatining strategiya va taktikasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

Xalqaro moliya tashkilotlarida qatnashish darajasi va alohida mamlakatlarning ta’siri ularning kapitaldagi bo‘nagining miqdori bilan aniqlanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi muayyan darajada a’zo mamlakatlarning hukumati va davlat tashkilotlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko‘p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo‘yicha risklarni boshqarish va sug‘urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

14.2. Xalqaro Valyuta Fondining maqsadi va faoliyatining mohiyati

Xalqaro Valyuta fondi, XVF (ing. International Monetary Fund, IMF) – Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ixtisoslashgan tashkilotlaridan bo‘lib, shtab-kvartirasi AQShning Vashington shahrida joylashgan. 1944- yil 22- iyulda BMTning valyuta-moliya masalalari bo‘yicha Bretton-Vudsdagi konferensiyasida XVF bitimining asosi ishlab chiqildi. XVF tashkil topgan rasmiy sana – 1945- yil 27- dekabr bo‘lib bunda, bitimning oxirgi varianti 29 ta davlat tomonidan imzolandi. XVF o‘z faoliyatini 1947- yil 1- martdan Bretton-Vuds tizimining bir qismi sifatida boshladi. Shu yili Fransiya birinchi kreditni oldi. Hozirgi kunda XVFga 189 ta davlat a’zolikka qabul qilingan.

XVF – a’zo davlatlar o‘rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va o‘rta muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilotdir.

XVF Kelishuvlar moddalarining birinchi moddasiga muvofiq, uning maqsadlari qatoriga quyidagilar kiradi:

– xalqaro valyutaviy muammolarni bartaraf etish borasida maslahatlar va hamjihatlik mexanizmini ta’minlovchi doimiy institut orqali xalqaro valyutaviy hamkorlikni rag‘batlantirish;

– xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va shu orqali bandlik va real daromadlarning yetarlicha

yuqori darajasini ushlab turish va iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi sifatida barcha a’zo davlatlar resurslarining samaradorligini oshirishga hissa qo‘shish;

– a’zo davlatlar o‘rtasida joriy bitimlarga doir ko‘p tomonlama to‘lovlar tizimini tashkil etish va jahon savdosi rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi valyuta ayirboshlashdagi cheklovlarni bekor qilishga ko‘maklashish;

– a’zolarning umumiy resurslari hisobidan yetarlicha xavfsiz asosda mablag‘ bilan ta’minlash orqali ularning ishonchini qozonish, va shuning asosida ularga to‘lov balansidagi nomuvofiqliklar (tartibsizliklar)ni milliy yoki xalqaro taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan chora-tadbirlarsiz to‘g‘irlash imkonini berish;

– yuqoridagilarga muvofiq a’zo davlatlarning xalqaro to‘lovlar balanslaridagi nomuvofiqlik (muvozanatsizlik)larning davomiyligini qisqartirish va uning darajasini pasaytirish.

XVFni tashkil etish mobaynida qat’iy belgilangan paritet tizimining tamoyillari shakllantirilgan bo‘lib, ularga valyutalarning oltin paritetiga muvofiq tarzda ularning rasmiy almashuv kursini o‘rnatish, a’zo mamlakatlar tomonidan almashuv kurslarining valyuta yo‘lakchasi (1945–1971- yillarda – ± 1%, 1971–1973- yillarda – $\pm 2{,}25$%) doirasida bo‘lishini ta’minlanishi, oltinning jahon puli funksiyasini saqlanishi bilan birga, AQSh dollariga ushbu funksiyani bajaruvchi valyuta maqomining berilishi kabilarni kiritish mumkin.

Bretton-Vuds tizimi tanazzulga uchragach, majburiy valyuta yo‘lakchalari bekor qilindi va valyuta kursining erkin suzish tizimiga o‘tildi. Shuningdek, oltin demonetizatsiya qilindi, ya’ni oltin standarti, xalqaro hisob-kitoblarda va Markaziy bankning zaxiralarini shakllantirishda oltindan majburiy foydalanish amaliyoti, AQSh dollarining oltinga erkin ayirboshlanishi bekor qilindi. Bundan tashqari, har bir mamlakat valyuta kursini rejimini mustaqil tanlash huquqiga ega bo‘ldi. Shunday bo‘lsada, XVF nizomiga muvofiq, a) mamlakatda moliyaviy va valyuta siyosati barqarorligini qo‘llab-quvvatlash hamda Markaziy bank tomonidan valyuta kursining kuchli tebranishi yuz berganda intervensiyadan foydalanilishi; b) bir tomonlama ustunlikka

ega bo‘lishga qaratilgan valyuta kursining manipulyatsiyasidan voz kechish; d) valyutani tartibga solish va valyuta kursi mexanizmida ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlar haqida XVFni zudlik bilan xabardor qilish; e) valyutalarni oltinga bog‘lab qo‘yish tartibidan voz kechish talab etiladi.

XVF bu taraqqiyot instituti emas, Kelishuvlar moddasiga muvofiq, qashshoq mamlakatlarga infratuzilmani shakllantirish, ekport va boshqa sektorlarni diversifikatsiya qilish yoki ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida kreditlar ajratmaydi.

Har qanday mamlakat xoh u rivojlangan bo‘lsin, xoh u sust rivojlangan, agar u kapitallar bozorida qulay shartlarda xalqaro to‘lovlarni amalga oshirish va zaxiralarning muvofiq darajasini ta’minlash uchun yetarlicha moliyalashtirish manbasini topa olmasa, to‘lov balansi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun moliyaviy yordam so‘rab XVFga murojaat qilishi mumkin. XVF Jahon banki va boshqa taraqqiyot agentliklaridan farqli ravishda loyihalarni moliyalashtirmaydi.

XVF faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

17.jahon valyuta tizimini nazorat qilish;

18.pul siyosatidagi xalqaro hamkorlikka yordam berish;

19.jahon savdosini kengaytirish;

20.XVF a’zolarini kreditlash;

21.valyuta ayirboshlash kurslarini barqarorlashtirish;

22.debitor mamlakatlarga maslahatlar berish;

23.SDR chiqarish orqali likvid mablag‘larni yaratish;

24.iqtisodiy siyosat va texnik yordam sohasida tavsiyalar ishlab chiqish;

25.xalqaro moliya statistikasi standartlarini ishlab chiqish;

26.xalqaro moliya statistikasi to‘plamlarini e’lon qilish.

XVF Kelishuv moddalariga muvofiq fondning vazifalari qatoriga xalqaro valyuta tizimini nazorat qilish va uning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash kiradi. XVF jahon valyuta tizimi ustidan,

jumladan, a’zo-mamlakatlarning valyuta kursi sohasidagi siyosati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

XVF nazorat funksiyasini amalga oshirish bilan birgalikda mamlakatlarning umumiy iqtisodiy holati va uning iqtisodiy siyosat sohasidagi strategiyasi bo‘yicha atroflicha tahlil o‘tkazadi. XVF nuqtayi nazarga ko‘ra mamlakatning samarali va izchil iqtisodiy siyosati milliy valyuta ayirboshlash kurslarini va jahon valyuta tizimini barqarorlashtirishga, jahon xo‘jaligida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga imkon yaratadi.

XVF ushbu sohada mamlakatlarning o‘ziga tegishli bo‘lgan majburiyatlarini bajarishni nazorat qiladi. Bu majburiyatlarga narxlar barqarorligini saqlagan holda yuqori bandlik darajasini ushlab turuvchi va iqtisodiy o‘sishga yordam beruvchi moliyaviy va iqtisodiy siyosat o‘tkaziladi.

XVF nazoratni amalga oshirish uchun davriy va maxsus maslahatlarni tatbiq etadi. Davriy maslahatlar barcha a’zo mamlakatlarda har yilda o‘tkaziladi, bunda XVF a’zo mamlakatlarning umumiy iqtisodiy holati va valyuta siyosati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Agarda biror bir a’zo mamlakatda og‘ir iqtisodiy vaziyat yuzaga kelgan bo‘lsa yoki bunga shubha sezilsa XVF darhol undan chiqish yoki oldini olish yuzasidan tegishlicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davriy maslahatlar XVF ekspertlari guruhi tomonidan o‘tkaziladi. Ular eksport va import, ish haqi darajasi, narxlar, aholi bandligi, moliyaviy bozorlar konyunkturasi, investitsiyalar hamda valyuta ayirboshlash kurslarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘playdi. Keyin esa, davlat tuzilmalarining vakillari bilan iqtisodiy siyosatni baholash maqsadida muhokama tashkil etiladi, shuningdek, o‘z valyutasini ayirboshlashdagi cheklovlarni bartaraf etish uchun mamlakat amalga oshirgan chora-tadbirlarning natijasi o‘rganiladi.

Muhokama yakuni bo‘yicha XVF ekspertlari batafsil ma’lumot tayyorlaydi va u keyinchalik Boshqaruv kengashida muhokama etiladi. Muhokama natijalari bo‘yicha xulosa tayyorlanadi va mamlakat

hukumatiga taqdim etiladi. Unda ko‘pincha mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish bo‘yicha fondning tavsiyalari o‘rin oladi.

XVF maxsus maslahatlarni jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rinda turuvchi, iqtisodiy siyosati jahon xo‘jaligi faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan o‘tkazadi. Maslahatning maqsadi bo‘lib, jahondagi iqtisodiy vaziyatni va iqtisodiy rivojlanishning istiqbollarini baholash hisoblanadi.

SDR chiqarish orqali likvid mablag‘larni yaratish jahon valyuta tizimini barqarorlashtirishga va xalqaro hisob-kitoblarni erkin amalga oshirishga imkon yaratishi kerak. XVF a’zo mamlakatlarning oltin-valyuta zaxiralari tarkibi va darajasiga ko‘ra xalqaro miqyosda likvidlik holatiga alohida e’tibor qaratadi. Bunga bog‘liq holda XVFning muhim funksiyasi bo‘lib qo‘shimcha xalqaro zaxira aktivlariga bo‘lgan uzoq muddatli ehtiyojni ta’minlash uchun emissiya qilingan SDRni taqsimlash hisobiga o‘zining a’zolariga qo‘shimcha likvid mablag‘larni taqdim etish hisoblanadi. O‘zining nizomiga muvofiq xalqaro valyuta fondi SDRni jahon valyuta tizimining asosiy zaxira aktivi bo‘lishiga yordam berishi lozim.

Jamoa valyutasi SDR zaxira milliy valyutalari va oltin bilan bir qatorda zaxira aktivi funksiyasini bajaradi. U rasmiy aktiv bo‘lib undan foydalanish va egalik qilish huquqi faqat XVFga, uning a’zolariga va belgilangan rasmiy ishtirokchilarga berilgan.

XVF ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida SDRni ularning kvotalariga proporsional miqdorda taqsimlaydi. SDRning jahon valyuta tizimida zarur bo‘lgan umumiy miqdorini belgilash va bu miqdorni oshirish masalalari faqat XVF vakolatlariga kiradi. SDRni taqsimlash to‘g‘risidagi qaror besh yilgacha davomiylikdagi davrga qabul qilinadi va bunda inflyatsiya va ortiqcha talabni, shuningdek, iqtisodiy turg‘unlikni oldini olish uchun mavjud zaxira aktivlarini to‘ldirishga bo‘lgan jahon iqtisodiyotining uzoq muddatli ehtiyoji hisobga olinadi. SDRni yangidan taqsimlash to‘g‘risidagi taklif XFVning taqsimlovchi-direktorlari tomonidan Ijroiya kengashning roziligi bilan kiritiladi va uni Boshqaruvchilar kengashi tasdiqlaydi.

XVFning oliy boshqaruv organi bo‘lib, har bir a’zo-mamlakatdan boshqaruvchi vakil va uning o‘rinbosaridan iborat bo‘lgan boshqaruvchilar Kengashi hisoblanadi. Odatda ular Moliya vazirlari yoki Markaziy bank boshqaruvchilari bo‘ladi. Kengash Fond faoliyatining asosiy masalalarini hal etadi, bularga: kelishuv moddasiga o‘zgartirishlar kiritish, a’zolikka mamlakatlarni qabul qilish va a’zolikdan chiqarish, ularning kapitaldagi ulushini aniqlash va qayta ko‘rib chiqish, ijrochi direktorlarni saylash. Boshqaruvchilar odatda yilda bir marta sessiyada to‘planadilar.

Xalqaro Valyuta Fondining eng muhim vazifalaridan biri a’zo mamlakatlarning to‘lov balansida qiyinchiliklar yuzaga kelganda kreditlar berish orqali yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Bu moliyaviy yordam mamlakatlarga o‘zining xalqaro zaxiralarini to‘ldirishga, milliy valyutasini barqarorlashtirishga, import to‘lovlarini amalga oshirishni davom ettirishga hamda mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha choralar-tadbirlar qabul qilish orqali faol iqtisodiy o‘sish uchun sharoitni tiklashga imkon yaratadi.

XVFning kreditlash dasturlarini quyidagicha kategoriyalarga ajratish mumkin:

1. Rezerv (Stand-By) kelishuvlari asosan qisqa muddatli to‘lov balansi muammolarini bartaraf etishga mo‘ljallangan. XVFning eng yirik kreditlari ham mazkur kategoriyaga tegishlidir. 1997- yilda XVF **Qo‘shimcha rezerv dasturi**ni amaliyotga joriy qildi. Mazkur dastur kapital hisobraqami bilan bog‘liq inqirozlarni boshdan kechirayotgan davlatlarga zudlik bilan juda qisqa muddatli kreditlarni ajratishni ko‘zda tutadi.

2. Uzaytirilgan fond dasturi XVF tomonidan to‘lov balansi qiyinchiliklariga yuz tutgan mamlakatlarga ko‘maklashish maqsadida joriy qilingan bo‘lib, bunda muammolar qisman strukturaviy muammolar bilan bog‘liq va uni bartaraf etish makroiqtisodiy nomuvofiqliklarga nisbatan uzoqroq muddatni taqozo etadi.

3. Qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o‘sish dasturi asosida XVF yillik foiz stavkasi 0,5 foiz va so‘ndirish muddati 10 yil bo‘lgan kreditlarni o‘zining eng qashshoq a’zo davlatlariga taqdim etadi.

Ta’kidlash lozimki, XVF kreditlarining ko‘pchilik qismi shu kategoriyaga mansubdir. 2005- yilda **Ekzogen shoklar dasturi** ishlab chiqilib tasdiqlandi. Bu dastur asosida Qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o‘sish dasturi orqali kredit olmaydigan sust rivojlangan davlatlarga ularning nazorat doirasidan tashqarida bo‘lgan shoklar tufayli vujudga keladigan to‘lov balansi muammolarini bartaraf etish uchun kreditlar taqdim etiladi.

Hozirgi kunda XVF tomonidan turli xildagi kredit instrumentlari yoki “mexanizmlari” ishlab chiqilgan bo‘lib ulardan a’zo mamlakatlardagi mavjud turli holatlarni bartaraf etishda foydalaniladi.

Kam daromadga ega bo‘lgan mamlakatlar kengaytirilgan kreditlash mexanizmi, “stend-bay” kreditlash mexanizmi va tezlashtirilgan kreditlash mexanizmi orqali imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha mablag‘ olishi mumkin. Imtiyozsiz kreditlar asosan “stend-bay” krediti, egiluvchan kredit liniyasi va kengaytirilgan kreditlash mexanizmi (asosan uzoq muddatli ehtiyojlar uchun qo‘llaniladi) to‘g‘risidagi kelishuv orqali beriladi. XVF, shuningdek, tabiiy ofat va urushdan keyingi qayta tiklashga yordam berish uchun favqulodda yordam beradi. Barcha imtiyozsiz mexanizmlar holatida Xalqaro Valyuta Fondining bozor bilan bog‘liq foiz stavkasi amal qiladi. U “yig‘imlar stavkasi” deb ataladi hamda yirik qarzlar bo‘yicha qo‘shimcha yig‘im undiriladi. Yig‘imlar stavkasi SDR bo‘yicha foiz stavkasiga asoslangan bo‘lib asosiy xalqaro pul bozorlaridagi qisqa muddatli stavkalar o‘zgarishini hisobga olish uchun har hafta ko‘rib chiqiladi.

Kam daromadli mamlakatlar uchun yangi imtiyozli mexanizmlar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga mo‘ljallangan Trast fondi doirasida 2010- yil yanvarda tashkil etildi. Fond tomonidan moliyalashtirish sharoitlari birmuncha imtiyozli bo‘ldi, foiz stavkasi esa har ikki yilda ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan tuzilgan barcha mexanizmlar mamlakatlardagi kambag‘allikni qisqartirish va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan masalalarni hal etishga hamda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga yo‘naltirilgan dasturlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan.

Kengaytirilgan kreditlash mexanizmi **(**Extended Fund Facility) to‘lov balansini tartibga solishdagi uzoq muddatli qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, kam daromadli mamlakatlarga o‘rta muddatli yordam ko‘rsatish uchun fondning asosiy instrumenti sifatida iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash hamda kambag‘allikni qisqartirish maqsadida moliyalashtirish mexanizmiga o‘zgartirildi. Hozirgi kunda kengaytirilgan kreditlash mexanizmi doirasida moliyalashtirish to‘liq qaytarish muddati 10 yilga va 5½ yilga imtiyozli davr bilan nolli foiz stavkasida amalga oshiriladi.

Kengaytirilgan kreditlash mexanizmi zaxira va kredit ulushini to‘ldirdi. U oddiy kredit ulushi doirasidagiga qaraganda, kvotaga munosabat bo‘yicha yirik hajmdagi va uzoq muddatdagi kreditlarni berish uchun mo‘ljallangan. XVFdan kengaytirilgan kreditlash doirasida kredit olishga asos bo‘lib ishlab chiqarish, savdo hamda baholarda salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqargan to‘lov balansidagi jiddiy muvozanatsizlik hisoblanadi. Kengaytirilgan kreditlar odatda uch yilga zaruriy holatlarda esa to‘rt yil muddatga beriladi.

Stend-bay va kengaytirilgan kreditlarning asosiy maqsadi XVFga a’zo mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlarini yoki tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirishga ko‘maklashish hisoblanadi.

“Stend-bay” kreditlash mexanizmi to‘lov balansini tartibga solish bilan bog‘liq qisqa muddatli qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, kam daromadli mamlakatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda stend-bay kreditlash mexanizmi doirasida moliyalashtirish nolli foiz stavkasida 4 yil imtiyozli davr bilan to‘liq qaytarish muddati esa 8 yilda amalga oshiriladi.

Tezlashtirilgan kreditlash mexanizmi, to‘lov balansini tartibga solishda shoshilinch moliyaviy mablag‘larga muhtoj bo‘lgan, kam daromadli mamlakatlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, shartlar cheklangan holatda tezlikdagi moliyaviy yordamni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu mexanizm doirasida moliyalashtirish hozirgi kunda nolli foiz stavkasida 5½ yil imtiyozli davr bilan to‘liq qaytarish muddati 10 yilga amalga oshiriladi[41].

[41] http://www.imf.org/external/np/exr/facts/sba.htm

Egiluvchan kredit liniyasi. Egiluvchan kredit liniyasi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari juda yaxshi bo‘lgan mamlakatlar uchun mo‘ljallangan. Egiluvchan kredit liniyasi to‘g‘risidagi bitim foydalanish bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga oldindan javob beruvchi mamlakatlar uchun tasdiqlanadi.

Egiluvchan kredit liniyasining qo‘llanilish muddati bir-ikki yildan iborat bo‘ladi, qaytarish muddati esa stend-bay mexanizmiga o‘xshash hisoblanadi. Ushbu mexanizmdan foydalanish aniq holatlarni hisobga olish orqali belgilanadi, unga odatdagi foydalanish cheklovlari qo‘llanilmaydi, mablag‘ esa bosqichma-bosqich emas, balki bitta to‘lov bilan beriladi.

Oldini oluvchi kredit liniyasi. Oldini oluvchi kredit liniyasi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari ishonchli bo‘lgan asoslangan iqtisodiy siyosatga va bunday siyosatni o‘tkazishning yuqori tajribasiga ega bo‘lgan mamlakatlar uchun mo‘ljallangan. Oldini oluvchi kredit liniyasining davom etish muddati bir yildan ikki yilgacha bo‘lishi mumkin.

Favqulodda yordam. XVF tabiiy ofatni boshdan kechirayotgan yoki urush oqibatlarini bartaraf etayotgan mamlakatlar uchun favqulodda yordam ko‘rsatadi. Favqulodda kreditlar bo‘yicha yig‘imlarning baza stavkasi undiriladi, kreditlar 3-5 yil davomida qaytarilishi kerak.

XVFning resurslaridan foydalanish uchun mamlakat o‘zining to‘lov balansini moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni asoslab berishi lozim. Moliyalashtirish zaruriyatini belgilovchi mezonlar sifatida XVF mamlakat to‘lov balansining holati, uning xalqaro zaxiralar qoldig‘i va mamlakatning zaxira pozitsiyasi dinamikasidan foydalanadi. Shuningdek, to‘lov balansi tengsizligi sabablarini bartaraf etish uchun mamlakat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar samaradorligi ham hisobga olinadi.

14.3. Jahon banki guruhi va unga kiruvchi tashkilotlar faoliyati

Jahon banki – 190 dan ortiq rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatuvchi xalqaro moliya tashkilotidir.

Jahon bankining bosh maqsadi – iqtisodiy o‘sish davrini boshdan kechirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarni kreditlash yo‘li bilan kambag‘allik darajasini pasaytirish hisoblanadi. Kreditlar ushbu davlatdagi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga hamda fuqarolarning hayot darajasini yaxshilanishiga imkon tug‘diradi.

Jahon bankining Xalqaro valyuta fondidan farqi shundaki, Jahon banki faqatgina rivojlanayotgan mamlakatlarga uzoq muddatli yordam ko‘rsatadi, XVF faoliyati esa mamlakatdagi vaqtinchalik moliyaviy inqirozni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan.

Jahon banki BMTning ixtisoslashtirilgan moliya instituti sifatida strategik vazifalarni bajarish uchun eng qulay vositachi sifatida xizmat qilishga mo‘ljallangandir, ya’ni barcha a’zo mamlakatlarning iqtisodiyotini jahon xo‘jaligi tizimi asosiy markazlari bilan integratsiya qilishdir.

“Jahon banki” atamasi tarkiban Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (International Bank for Reconstruction and Development) va Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini (International Development Association) qamrab oladi. “Jahon banki guruhi” atamasi esa, 5 ta tashkilotni, xususan, XTTB, XRA, Xalqaro moliya korporatsiyasi (International Financial Corporation), Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (Multilateral Investment Guarantee Agency), Xalqaro investitsion bahslarni tartibga solish markazini (International Center for Settlement of Investment Disputes) o‘z ichiga oladi[42].

Jahon bankining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya faoliyati;
- iqtisodiy masalalar bo‘yicha maslahat va tahliliy faoliyat;
- amalga oshiriladigan dasturlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar tarkibi va tuzilmasini muntazam to‘g‘irlab borish;
- boy va qashshoq mamlakatlar o‘rtasida resurslarni taqsimlashda vositachilik qilish.

Har uch yilda Jahon banki guruhi tomonidan “Jahon banki guruhi faoliyatining strategiyasi” nomli hujjat ishlab chiqiladi, ushbu hujjatdan

[42] www.worldbankgroup.org

mamlakatlar bilan bo‘ladigan hamkorlikda foydalaniladi. Strategiyaga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlari va kambag‘allik muammolarini hal qilish bo‘yicha dastur hamda loyihalar kiritiladi.

O‘zining faoliyati bo‘yicha Jahon banki ma’lum tamoyillarga amal qiladi, jumladan:

- rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishiga yordam beruvchi samarali kapital qo‘yilmalar uchun resurslar ajratish;
- resurslar qaytishi ehtimolligi darajasini hisobga olgan holda iqtisodiy mulohazalardan kelib chiqib investitsion qarorlar qabul qilish;
- bitta ishtirokchi mamlakat doirasida berilgan resurslarni ishlatishga cheklovlarning mavjud emasligi;
- xodimlar faoliyatining boshqa subyektlarga, jumladan, mamlakatlar hukumatiga emas, balki faqatgina bank manfaatlariga yo‘naltirilganligi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun Jahon banki tashkilotlari guruhi dunyodagi yirik moliyaviy mablag‘lar manbalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

U o‘zining moliyaviy resurlarini kambag‘al mamlakatlardagi kambag‘allik darajasini pasaytirish hamda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, shuningdek, hayot sifatini yaxshilashga sarflaydi.

Yuqorida qayd etilgan tashkilotlarning faoliyatini quyidagi ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB, ing. International Bank for Reconstruction and Development) – Jahon bankining asosiy kredit tashkiloti bo‘lib keng miqyosda Jahon banki nomi bilan tanilgan. Ushbu bankka a’zo bo‘lish uchun ariza taqdim etgan mamlakat avvalo XVFga a’zolikka kirgan bo‘lishi lozim. Bankning barcha qarzlari a’zo davlatlar hukumatlari tomonidan kafolatlanishi kerak. Qarzlar bo‘yicha har olti oyda o‘zgaruvchi foiz stavkasi belgilanadi. Hozirgi vaqtda mazkur stavka 6-7%ga teng. Qarzlar asosan 15-20 yil muddatga, asosiy qarz summasi bo‘yicha to‘lovlarni 3-5 yilga uzaytirish tartibida beriladi. Qarz berish davlat hukumatining kafolati olingandan so‘ng amalga oshiriladi[43].

[43] www.mfino.ru

XTTB – 1944-yilda Bretton-Vudsdagi (AQShning Nyu-Xempshir shtatidagi shaharcha) Xalqaro valyuta – moliyaviy konferensiyada XVF bilan bir vaqtda tuzilgan davlatlararo investitsiya institutidir. Bir vaqtning o‘zida bankning nizomi ham bo‘lib qolgan XTTB haqidagi Bitim 1945-yilda rasmiy jihatdan kuchga kirgan, bank o‘zining faoliyatini 1946-yildan boshlagan. XTTBning shtab-kvartirasi – AQShning Vashington shahrida joylashgan.

XTTBning asosiy maqsadi – a’zo mamlakatlarga uzoq muddatli kredit va qarzlar berish hamda xususiy investitsiyalarni kafolatlash orqali ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga ko‘maklashish hisoblanadi. Dastlab XTTB a’zo mamlakatlarning to‘plangan mablag‘lari va amerikalik investorlarning jalb qilingan kapitallari yordamida ikkinchi jahon urushi natijasida iqtisodiy jihatdan turg‘un holatga kelib qolgan G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirishga mo‘ljallangan edi.

XTTBning Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq uning maqsadlari sirasiga quyidagilar kiradi:

– a’zo davlatlarning xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishga ko‘maklashish;

- kafolatlar berish, xususiy va boshqa investorlarning investitsiyalari va ssudalarida ishtirok etish orqali xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish;

– jahon savdosining muvozanatli o‘sishini va a’zo davlatlar to‘lov balansining muvozanatliligini qo‘llab-quvvatlash.

50-yillarning o‘rtalaridan boshlab, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida xo‘jalik hayoti barqarorlashishi munosabati bilan, XTTB o‘z faoliyatining katta qismini Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni barqarorlashtirishga yo‘naltirdi.

XTTBning oliy rahbar organi Boshqaruvchilar Kengashi va Direktorat (ijroiya organi) bo‘lib hisoblanadi. A’zo mamlakatlarning moliya vazirlari yoki markaziy banklar boshqaruvchilaridan tashkil topgan Kengash o‘z sessiyalarini XVF bilan birgalikda bir yilda bir marta o‘tkazishadi. XTTB a’zolari bo‘lib faqatgina XVF a’zoligiga

qabul qilingan mamlakatlar bo‘la oladi. Ovozlar XTTB kapitalidagi (180 mlrd. dollardan ortiq) mamlakat kvotasi orqali aniqlanadi.

Hozirda XTTB a’zolari bo‘lib 189 mamlakat hisoblansada, yetakchi o‘rinda yettilik mamlakatlari turadi: AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada va Italiya[44].

Bankning resurslari shakllanishining manbasi bo‘lib, Amerika bozorlarida obligatsiya qarzlarini chiqarish va ularni sotishdan olingan mablag‘lar hisoblanadi. XTTB kreditlarni, odatda 20 yil muddatga a’zo mamlakatda ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirish uchun hukumat kafolati ostida beradi. Shuningdek, XTTB boshqa banklarning uzoq muddatli kreditlari bo‘yicha kafolat ham beradi. U ham XVF singari, qarzdor mamlakatning moliyaviy holati, kreditlanuvchi obyektlar va ushbu obyekt bo‘yicha bank missiyasi tomonidan o‘rganilgan axborotlarni talab qiladi.

XTTB quyidagi dasturlar doirasida faoliyat yuritadi:

- iqtisodiy boshqaruv va kambag‘allik bilan kurashish;
- ekologiya va ijtimoiy rivojlanish;
- infratuzilma, xususiy sektor va moliya;
- inson salohiyatini rivojlantirish.

Keyingi yillarda XTTB rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlarini tartibga solish bilan shug‘ullanmoqda: kreditlarining 1/3 qismini qo‘shma moliyalashtirish deb ataladigan shaklda beradi. Bank to‘lov balansi holatini yaxshilashga, shuningdek, iqtisodiyot tuzilmalarini tartibga solishga strukturali kreditlarni ajratadi.

Hozirgi paytda XTTB faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– turli xildagi investitsiya loyihalarini uzoq va o‘rta muddatli kreditlash;

– loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy va texnik asoslarini tayyorlash;

– rivojlanayotgan mamlakatlarda tuzilmaviy qayta qurish dasturlarini moliyalashtirish.

XTTBning maqsadlari quyidagilardan iborat:

[44] www.worldbank.org

– a’zo mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga va qayta tiklashga yordam ko‘rsatish;

– xususiy xorijiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash;

– to‘lov balansining muvozanatini saqlashga va xalqaro savdoning barqaror o‘sishiga yordam berish;

– statistik ma’lumotlarni to‘plash va e’lon qilish.

XTTBning asosiy mablag‘lari hozirgi kunda o‘rta va uzoq muddatli qarz majburiyatlarini emissiya qilish orqali xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar hisobidan shakllanadi. XTTB qimmatli qog‘ozlari yuqori kredit reytingiga (AAA) ega bo‘lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlariga joylashtiriladi. XTTBning kreditlari qarz oluvchi davlat milliy valyutasida emas, balki devizlarda, ya’ni xalqaro darajada to‘lov vositasi sifatida tan olingan valyutalarda ajratiladi.

XTTB qarzlarini ikkita kategoriyaga ajratish mumkin:

Iqtisodiyot uchun yo‘qotishlarsiz ssudalar bo‘yicha foizlarni to‘lashga qodir bo‘lgan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qarzlar.

2. Xalqaro moliya bozorida kreditga layoqatsiz va ssudalar bo‘yicha foizlarni to‘lashga qodir bo‘lmagan kambag‘al mamlakatlar uchun qarzlar.

Keyingi yillarda XTTB jahon moliya bozorida yirik qarzdor rolida chiqmoqda. Bank tomonidan chiqarilayotgan obligatsiya qarzlari summasi davlatlararo investitsiya banklari o‘rtasida eng katta solishtirma og‘irlikka egadir.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo‘lib, u 1960- yilda tashkil etilgan. XRA Kelishuvlar moddasining 1-moddasiga muvofiq, uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan a’zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, an’anaviy kreditlarga nisbatan og‘ir bo‘lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko‘mak berish hisoblanadi.

Mamlakatlarga rivojlanish jarayonida yordam ko‘rsatish maqsadiga ega bo‘lgan XRA strategiyasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

– makroiqtisodiy va tarmoq siyosatining puxta o‘ylangan chora-tadbirlarini qabul qilish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish;

– ijtimoiy sohalarning mustahkamlanishi va rivojlanishini qat’iy qo‘llab-quvvatlash orqali inson kapitaliga investitsiyalash;

– boshqaruv samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-texnik imkoniyatlarni kengaytirish;

– barqaror rivojlanish maqsadlarida atrof-muhitni saqlash;

– qurolli to‘qnashuvlar oqibatlarini bartaraf etishga ko‘maklashish;

– mintaqaviy integratsiya va savdoni qo‘llab-quvvatlash.

XRA foizsiz kreditlar va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan grantlar ajratish orqali qashshoqlikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholi turmush tarzini oshirishni ko‘zda tutadi.

XRAdan qarz olish huquqiga yalpi ichki mahsuloti aholi jon boshiga $835dan kam bo‘lgan mamlakatlar ega bo‘la olishadi.

XRA mamlakatlarga 10 yil imtiyozli davrli 30-40 yilga foizsiz kreditlar beradi. XRA kreditlarining qaytarish muddatlari 20, 35 va 40 yilni tashkil etadi, shundan dastlabki 10 yili imtiyozli davr hisoblanadi va bu davrda asosiy qarz bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi. Ta’kidlash lozimki, XRA kreditlariga foiz to‘lanmaydi, biroq xizmat ko‘rsatish uchun kam miqdordagi (hozirda ajratilgan kredit summaning 0,5 foizi) xarajatlar qarz oluvchi tomonidan qoplanadi. Bu kreditlarning maqsadi, rivojlangan mamlakatdan kambag‘al mamlakatga tovarlar eksportini rag‘batlantirishdir. Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasiga 173 mamlakat a’zo bo‘lib kirgan[45].

XRA mamlakatlarga moliyaviy resurslarni ajratishda muayyan mezonlarga amal qiladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

4) Muvofiqlik mezonlari.

XRAdan qanday mamlakatlar mablag‘ olish huquqiga ega ekanligini aniqlashda uchta mezon qo‘llaniladi:

– YaIMning aholi jon boshiga nisbatan o‘lchanadigan nisbiy ko‘rsatkichidan past bo‘lgan mamlakatlar;

[45] www.worldbank.org

– mamlakatni rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga imtiyozli shartlarda resurslar olishga ehtiyoj yuzaga kelishi tufayli bozor sharoitlarida o‘zlashtirilgan mablag‘lar uchun kreditga qobiliyatlilikning yetishmasligi;

– qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy va ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini qabul qilish, shuningdek, o‘tkaziladigan siyosatning yuqori samaradorligi.

5) Taqsimlash mezonlari.

O‘rnatilgan mezonlarga javob beruvchi mamlakatlar o‘rtasida XRA resurslarini taqsimlash tartibini aniqlovchi asosiy omil mamlakatda qashshoqlikni qisqartirish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash borasida o‘tkaziladigan siyosatning samaradorligi hisoblanadi. Aniqlovchi omillardan yana biri bo‘lib aholi jon boshiga daromad darajasi hisoblanadi: XRA mezonlariga javob beruvchi qashshoq mamlakatlar siyosat samaradorligining bir xil ko‘rsatkichlarida boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori mablag‘ olishadi.

3. Samaradorlik reytingi.

Har yili Jahon banki personali qarzdorlar tomonidan o‘tkaziladigan siyosatning sifatini baholaydi va shu asosda mamlakatlar reytingi aniqlanadi. Baholashni o‘tkazishda mamlakatda amalga oshirilayotgan loyihalar portfelining samaradorligi hisobga olinadi.

29. Resurslarni taqsimlash tartibi.

XRA tomonidan mamlakatga ajratiladigan resurslar hajmi birinchi navbatda shu mamlakatda o‘tkaziladigan siyosat samaradorligi va uning institutsional tizimi har yillik baholash natijasida qarzdorga beriladigan reytingga bog‘liq bo‘ladi.

30. Samaradorlik ko‘rsatkichlari va kreditlash.

XRA rahbariyati har bir mamlakatga haqiqatda ajratilgan resurslarni ularning rejalashtirilgan o‘lchami bilan taqqoslagan holda nazorat qilib boradi. Mablag‘lar yetarlicha egiluvchanlik bilan ajratiladi bu holat, faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘zgarishi natijasida zarur choralar qo‘llashga imkon beradi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) (ing. International Finance Corporation, IFC) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro

tashkilotdir. Tashkilotning shtab-kvartirasi Vashingtonda (AQSh) joylashgan. 1956- yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga xususiy investitsiyalar oqimi barqarorligini ta’minlash maqsadida tuzilgandir.

Jahon banki tashkilotlari guruhining Prezidenti bir vaqtning o‘zida XMK Prezidenti bo‘lib hisoblanadi. Rahbarlik vazifasi vitse-prezident tomonidan amalga oshiriladi. XMK aksionerlari bo‘lib 184 mamlakat hisoblanadi[46].

XMK Jahon banki guruhiga kiruvchi boshqa tashkilotlar bilan o‘z faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, lekin yuridik va moliyaviy aloqalarda mustaqil tashkilot bo‘lib hisoblanadi.

XMK kompaniyalarga risklarni boshqarishga va jahon kapital bozoriga chiqishning kengroq imkoniyatiga ega bo‘lishga yordam beruvchi yangi moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqishni davom ettirmoqda. Ushbu moliyaviy mahsulotlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– XMK o‘z mablag‘laridan zayomlar;
– sindikatlashgan zayomlar;
– hissali moliyalashtirish;
– qarz instrumentlari va to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar fondlari;
– tuzilmaviy moliyalashtirish;
– vositachilar orqali moliyalashtirish;
– risklarni boshqarish bo‘yicha mahsulotlar;
– milliy valyutada moliyalashtirish;
– savdoni moliyalashtirish;
– ekspert baholash va boshq.

XMKga a’zolikka kirishda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

– XTTB a’zoligi;
– XMK kelishuv moddasini imzolash.

XMK turli xil tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtiradi, ularga, qishloq xo‘jaligi, tog‘ sanoati, ishlab chiqarish, turizm va boshqalarni kiritish mumkin. Ammo birinchi navbatdagi yo‘nalish, xususiy sektor bo‘lib hisoblanadi. XMK faoliyatining to‘rtta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin:

[46] http://www.ifc.org/ifcext/russian.nsf/Content/Member_Countries

– xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish;

– rivojlanayotgan mamlakatlardagi tashkilotlarga xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb qilishda yordamlashish;

– ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan xususiy investitsiyalar yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, shuningdek, innovatsion moliyaviy mahsulotlardan foydalanish va salohiyatni oshirish orqali ichki moliya bozorlarini rivojlantirish;

– hukumatlarga maslahat va texnik yordam ko‘rsatish.

XMK rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori rentabelli korxonalarni kreditlaydi. XMK kreditlarining muddati odatda 15 yildan oshmaydi, o‘rtacha muddat esa 3-7 yildir.

XMKning xususiyati shundaki, uning mablag‘laridan investitsiya olish uchun korxona va tashkilotlarga kredit berilganda, JTTB va XRA talab qilgandek a’zo mamlakatlarga hukumat kafolatlari talab qilinmaydi. Bu xususiy kompaniyalar uchun ular faoliyati ustidan davlat nazoratidan saqlaydi va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish manfaatlariga xizmat qiladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (IKKA) – investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (ing. Multilateral Investment Guarantee Agensy) – Jahon banki guruhiga kiruvchi mustaqil xalqaro tashkilotdir. IKKAning asosiy maqsadi bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirishga ko‘maklashish, shuningdek, axborot va konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hisoblanadi. Shu bilan birga IKKA siyosiy risklardan sug‘urtalashni yoki rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida kafolat berishni amalga oshiradi.

IKKA – 1988-yilda a’zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan. Hozirgi kunda IKKAga 181 mamlakat a’zolikka qabul qilingan[47]. IKKA xalqaro tashkiloti to‘g‘risidagi konvensiya 1985- yil 11- oktyabrda Vashingtonda imzolangan. Shuningdek, shtab-kvartirasi ham Vashingtonda joylashgan.

[47] www.mfino.ru

IKKA kafolati investorlarni, shartnoma shartlarini buzishdagi, harbiy va fuqarolar g‘alayonidagi, musodara qilishdagi hamda mablag‘larni o‘tkazishdagi cheklovlarda yuzaga keladigan risklardan himoya qiladi. Ammo tijorat risklarini sug‘urtalash, masalan bankrotlik riski amalga oshirilmaydi. IKKA, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida bo‘ladigan investitsiya munosabatlarini ham sug‘urtalashni amalga oshiradi.

IKKA kafolatiga mamlakatda ro‘yhatdan o‘tmagan faoliyatiga investitsiya bilan bog‘liq bo‘lgan xususiy firma va fuqarolar ham davogarlik qilishi mumkin. Kafolat 3 yildan tortib 15-20 yil muddatgacha amalga oshiriladi. Jahon banki kafolatidan farqli tomoni shundaki, investitsiyalash uchun mamlakat hukumatidan qarshi kafolat talab qilinmaydi.

Shu bilan birgalikda IKKA kreditlar bermaydi hamda mustaqil investor bo‘lib hisoblanmaydi. Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda qimor o‘yinlarini tashkil etish uchun qilingan investitsiyalarga kafolat berilmaydi. Hozirgi paytda kafolatlashning maksimal miqdori bitta investitsion loyiha uchun 110 mln. AQSh dollarini hamda bitta mamlakat uchun 440 mln. AQSh dollarini tashkil qiladi. Qayta sug‘urtalash va birgalashib sug‘urtalashda ushbu chegara sezilarli darajada ortiq bo‘lishi mumkin[48].

Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan notijorat risklar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– milliy valyutaning erkin ayirboshlashni to‘xtatish va bu bilan bog‘liq investor mamlakatiga daromadlarni o‘tkazish bilan bo‘ladigan muammolar;

– investor mulkining barbod bo‘lishi;

– harbiy harakatlar;

– to‘ntarishlar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi;

– hukumat qarori natijasida shartnomaning bajarilmay qolishi.

O‘z oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirish uchun IKKA yuqorida keltirilgan notijorat risklarga kafolatlarnigina emas, balki shuningdek, rivojlanayotgan a’zo mamlakatlarning hukumat organlariga

[48] http://www.miga.org/about

siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga nisbatan dastur va tartib yuzasidan maslahatlar beradi hamda chet el investorlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz (ing. ICSID – International Centre for Settlement of Investment Disputes) – yuqorida ko‘rib o‘tgan tashkilotlarimizdek Jahon banki guruhiga kiruvchi mustaqil xalqaro tashkilot bo‘lishi bilan qatorda BMTning maxsus tashkiloti hisoblanadi. Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markazning maqsadi bo‘lib, xalqaro investitsion bahslarni hal qilish va tomonlarni o‘zaro murosaga keltirish uchun huquqiy imkoniyatlarni ta’minlash hisoblanadi. Markaz xususiy investitsiyalar yo‘lidagi tashqi iqtisodiy to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan hamda davlatlar va xususiy investorlar o‘rtasidagi bahslarni hal qiluvchi xalqaro mustaqil arbitraj tashkiloti sifatida qaraladi.

Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz, davlatlar va boshqa davlatlarning fuqarolari o‘rtasidagi investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha konvensiyaga (Vashington konvensiyasi) muvofiq tashkil qilingan. Ushbu konvensiya Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markazning haq-huquqlarini, tashkiliy tuzilmasini va asosiy vazifalarini belgilab berdi. Konvensiya 1965- yil 18- martda imzolangan va 1966- yil 14- oktyabrdan kuchga kirgan. Hozirgi kunda Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markazning a’zolari bo‘lib 163 ta mamlakat hisoblanadi[49].

Konvensiya bahslarni hal qilishning ikkita asosiy yo‘lini ko‘rib chiqadi: tomonlarni murosaga keltirish va arbitraj ishlab chiqish. Bularga muvofiq konvensiyada ishlarni qo‘zg‘ash uchun, tomonlarni murosaga keltirish masalasi bo‘yicha ish ko‘rish uchun va arbitraj o‘tkazish uchun tartib qoidalar keltirilgan. Markazda tomonlarga xizmat ko‘rsatish ixtiyoriy ravishda va to‘lov evaziga amalga oshiriladi. To‘lovlar miqdori bosh kotib tomonidan tasdiqlanadi. Hozirgi paytda ko‘pgina shartnomalar xususan, transchegaraviy investitsiyalar doirasida tuzilgan shartnomalar investitsion bahslarni yuzaga kelish holatini hal

[49] ttp://icsid.worldbank.org/

qiluvchi sifatida Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markazda izohdan o‘tkaziladi.

14.4. Mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

XX asrning 60-yillarida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar hamkorligini kengaytirish va ushbu mintaqalardagi o‘ziga xos muammolarni yechish uchun mintaqaviy rivojlanish banklari tashkil etildi.

Mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlarining maqsadi bo‘lib, mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, qashshoqlik va qarzdorlik darajasini kamaytirish hamda xususiy sektor rivojlanishiga ko‘maklashish hisoblanadi.

Mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlarining resurslari xalqaro kapital bozorlaridan o‘zlashtirish orqali jalb etilgan mablag‘lardan, ustav kapitallaridan, shuningdek, texnik yordam ko‘rsatish va imtiyozli kreditlash uchun asosan a’zo mamlakatlar badallari hisobiga tashkil topgan maxsus fondlar mablag‘laridan tashkil topadi.

Ushbu tashkilotlarning operatsiyalari iqtisodiy rivojlanishning barcha yo‘nalishlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan, lekin ustuvor yo‘nalish bo‘lib iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalar (energetika, transport, kommunikatsiya va boshq.) rivojlanishini moliyalashtirish hisoblanadi. Banklar resurslarining sezilarli qismi sanoatni kreditlashga yo‘naltiriladi.

Mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

5. rivojlanish loyihalari va investitsiya dasturlariga o‘z mablag‘larini qo‘yish hamda kreditlar ajratish. Eksport-import va tijorat tashkilotlari bilan birgalikdagi loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etish. Bunda kreditlashning turli usullaridan foydalaniladi: aniq loyihalarni moliyalashtirish uchun qarzlar, tuzilmaviy qayta qurishni o‘tkazish uchun qarzlar, tiklash qarzlari, kredit liniyalari va boshqalar:

6. a’zo mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida xususiy investitsiyalarni oshirishni rag‘batlantirish;

7. rivojlanish loyihalari va mintaqaviy dasturlarni tayyorlashda, shuningdek, ushbu dastur va loyihalarni amalga oshirishda texnik yordam koʻrsatish va maslahatlar berish.

Amerikaaro rivojlanish banki (ARB, Vashington, 1959- yilda tuzilgan), Afrika rivojlanish banki (AfRB, Abidjan, 1963- yilda vujudga kelgan), Osiyo rivojlanish banki (ORB, Manila, 1965- yilda tuzilgan). Ushbu mintaqaviy rivojlanish banklarining asosiy maqsadi – mintaqalarga mos rivojlanish loyihalarini, shuningdek, mintaqaviy birlashmalarni uzoq muddatga kreditlash hisoblanadi. Bu banklarning umumiy xususiyati boʻlib, ularning faoliyatiga rivojlangan mamlakatlarning muhim ta'sir koʻrsatishi, ya'ni banklar kapitalining anchagina qismini tashkil qilishi hamda taxminan 1/3 qismi ularning a'zolariga tegishli boʻlishidir. Mintaqaviy rivojlanish banklari resurslarini shakllanishida bir xil tamoyil amal qiladi, ijtimoiy fondlardan qarz mablagʻlarini jalb qilish, shuningdek, koʻpincha Jahon banki guruhiga oʻxshashlik boʻyicha kredit siyosati yuritiladi.

Shu bilan birgalikda mintaqaviy rivojlanish banklari faoliyatida bir-biridan farqlilik ham mavjud. Bular ushbu uchta – Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika mintaqalaridagi mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy rivojlanishining turli xildagi darajasi hamda tarixiy an'analarining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Oʻz faoliyati davomida Amerikaaro Rivojlanish banki kreditlarining katta qismini "katta uchlik" mamlakatlariga bergan (Argentina, Braziliya, Meksika);

Osiyo rivojlanish banki esa – 5 mamlakatga (Indoneziya, Janubiy Koreya, Filippin, Pokiston, Tailandga);

Shuningdek, Afrika rivojlanish banki – koʻproq toʻlovga qodir mijozlarga (Marokko, Zair, Keniya, Tunisga va boshqalarga). Afrika rivojlanish fondi vujudga kelishi bilan Markaziy va Gʻarbiy Afrikaning unchalik rivojlanmagan mamlakatlarini ham kreditlashni boshladi.

Mintaqaviy rivojlanish banklari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga va siyosatining yoʻnalishiga qarab tabaqalangan kredit siyosatini olib boradi.

Mintaqaviy rivojlanish banklarining tashkil topish sanalari:

Amerikaaro Rivojlanish banki – tashkil etish g‘oyasi 1889- yil 1959- yil dekabr.

Osiyo taraqqiyot banki – tashkil etish g‘oyasi 1957- yil, 1966- yil dekabr.

Afrika rivojlanish banki – 1960- yil, 1963- yil Nizomi tasdiqlangan.

Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki – tashkil etish g‘oyasi 1989- yil oktyabr, Nizomi 1990- yil 9- aprelda tasdiqlangan.

G‘arbiy Yevropa integratsiyasi majmuining institutsional tuzilishi bir qator mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqi mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari turli xil maqsadlarni nazarda tutadi: o‘z institutsional tuzilmasini tuzish bilan G‘arbiy Yevropa integratsiyasini va jahon markazini mus-tahkamlash; Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirish; 1993- yil noyabrda kuchga kirgan Maastrixt shartnomasiga muvofiq ravishda iqtisodiy va valyuta ittifoqini tuzish; assotsiatsiyalangan mamlakatlarga nisbatan kelishilgan siyosatni o‘tkazish.

O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga muvofiq ushbu tashkilotlar davlatlararo va qisman milliy chegarada iqtisodni mintaqaviy darajada tartibga solish va G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishida muhim rolni o‘ynaydi. Birinchidan, ular Yevropa Ittifoqi institutsional tuzilmasining tarkibiy elementlari hisoblanadi. Ularga Yevropa parlamenti, Yevropa Hamjamiyati Kengashi hamda boshqa tashkilotlar kiradi. Ikkinchidan, ularning vujudga kelishi va faoliyatining moddiy bazasi bo‘lib qo‘shma byudjet va fond xizmat qiladi. Ular o‘zida a’zo mamlakatlarning rasmiy oltin-dollar rezervlarining 20%ini mujassam qiladi. A’zo mamlakatlar milliy byudjetlarining 2,5-3% summasini birlashtirgan Yevropa Ittifoqining markazlashtirilgan byudjeti hisobiga bir necha qo‘shma fondlar shakllangan. Uchinchidan, mintaqaviy institutlar faoliyatida xalqaro valyuta birligidan foydalaniladi.

Yevropa iqtisodiy integratsiyasi doirasida mintaqaviy moliya institutlarining vujudga kelishi asta-sekinlik bilan, asosan, G‘arbiy Yevropadagi integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlariga muvofiq ravishda paydo bo‘lgan.

Yevropa Ittifoqi doirasida tuzilgan asosiy mintaqaviy tashkilotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Yevropa investitsiya banki (YeIB, Lyuksemburgda 1958- yilda Rim bitimiga muvofiq tashkil etilgan) yetti yildan yigirma yil muddatgacha, rivojlanayotgan mamlakatlarga esa kam rentabelli loyihalarga yiliga 1-2%dan qirq yil muddatgacha kreditlar beradi. YeIB faoliyatining maqsadi Yevropa ittifoqi mintaqasidagi qoloq mamlakatlarni rivojlantirish, korxonalarni qayta qurish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash doirasida tarmoq tuzilmalarini modernizatsiyalash, asosiy o‘rinda turuvchi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish hamda qo‘shma xo‘jalik obyektlarini tashkil qilish hisoblanadi. Bundan tashqari, YeIB xususiy va davlat korxonalariga kafolat beradi.

Hozirgi davrda YeIB a’zolari bo‘lib Yevropa Ittifoqining 12 ta mamlakati hisoblanadi. YeIB mustaqil yuridik va moliyaviy maqomga ega bo‘lgan institutdir. Uning rahbarlik organlari – boshqaruvchilar Kengashi a’zo mamlakatlarning moliya vazirlaridan iborat. Boshqaruv idorasi Lyuksemburgda joylashgan[50].

Yevropa rivojlanish fondi (YeRF, 1958- yilda tashkil qilingan) Yevropa Ittifoqining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan munosabatlari bo‘yicha jamoa siyosatini o‘tkazish hamda ushbu mamlakatlarni rivojlantirishga yordam berishda ikki tomonlama dasturlarni muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

YeRF 5 yilga assotsiatsiya haqidagi navbatdagi konvensiyaga obuna paytida “Umumiy bozor” mamlakatlari badallari hisobiga shakllanadi. Ikkinchi Lomey konvensiyasiga (1981–1985- yillar) muvofiq, uning hajmi 4,5 mlrd EKYu deb belgilangan; uchinchi konvensiya bilan (1986–1990- yillar) 8 mlrd EKYu atrofida. YeRF Konvensiyada belgilangan aniq bir davrga har bir mamlakatni kreditlash yo‘nalishlariga muvofiq ravishda rivojlanishning aniq obyektlariga hamda qishloq xo‘jaligi va mineral xomashyo eksportidagi yo‘qotishlarning kompensatsiyasiga kreditlar beradi.

[50] И.О.Лаврушин Деньги, кредит, банки. Москва, «ФИНАНСЫ И СТАТИСТИКА» 2002, 2-изд.

Yevropa mintaqaviy rivojlanish fondi (YeMRF) 1975- yilda a’zo mamlakatlarda mintaqaviy nomutanosibliklarni tenglashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni kreditlash uchun Yevropa ittifoqi qo‘shma byudjeti mablag‘lari hisobiga ta’sis etilgan.

1973- yilda tuzilgan Yevropa valyuta hamkorligi fondi (YeVXF) 1994- yilda (Frankfurt – Maynda) Yevropa valyuta institutiga o‘zgartirildi. Bu milliy tashkilot o‘z tarkibiga 12 ta markaziy banklarni birlashtirish, ushbu banklar pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishni amalga oshirish hamda Yevropa Markaziy banklarini yagona valyuta tizimini barpo qilishga yordam berishni maqsad qilgan. Shu bilan birgalikda, u mintaqaviy davlatlararo valyutaviy tartibga solish uchun ham mo‘ljallangandir. Yevropa valyuta instituti a’zo mamlakatlarga to‘lov balanslari kamomadini qoplash uchun kreditlar berish va EKYuni emissiya qilish funksiyalarini bajargan. 1998- yil iyuldan Yevropa valyuta instituti yevroni muomalaga chiqaruvchi Yevropa Markaziy bankiga o‘zgartirildi. 1999- yildan o‘z ichiga, yevroga o‘tgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari markaziy banklari hamda Yevropa Markaziy bankini olgan, Yevropa Markaziy banklari tizimi amal qila boshladi.

Xalqaro moliya tashkilotlari ichida Bazeldagi **Xalqaro hisob-kitoblar banki** (ing. Bank for International Settlements (BIS)) muhim o‘rin egallaydi (XHKB, 1930- yil, Bazel). Xalqaro hisob-kitoblar banki 1930- yilda 6 davlatning (Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya) hukumatlararo kelishuvi hamda ushbu davlatlarning o‘z hududida faoliyat ko‘rsatadigan Shveytsariya bilan konvensiyasi asosida tuzilgan. Hozirda Xalqaro hisob-kitoblar banki 60 mamlakatning markaziy banklaridan iborat. Xalqaro hisob-kitoblar banki ularga kreditlar beradi va depozitlarini qabul qiladi hamda ularning hamkorligiga yordam beradi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining muhim xususiyati bo‘lib, xalqaro hisob-kitoblarda valyuta kliringi bo‘yicha hamda a’zo mamlakatlarning boshqa hisob-kitoblarida bank-agent funksiyasini bajarish hisoblanadi.

Shuningdek, Xalqaro hisob-kitoblar banki yetakchi valyuta kurslarini ushlab turish maqsadida markaziy banklarning jamoaviy

valyuta intervensiyasini tashkil etadi, hukumatlararo kreditlarda vasiy bo‘ladi hamda yevro bozor holatini nazorat qilib turadi.

1982- yildan boshlab XHKB XVF kreditlarini kutayotgan ayrim mamlakatlarning xalqaro valyuta likvidliligi inqiroziga yo‘l qo‘ymaslik uchun markaziy banklarning kafolati evaziga oraliq kreditlar bermoqda. Bunday kreditlarni Vengriya, Meksika, Braziliya, Argentina va Yugoslaviya mamlakatlari olgan.

XHKB – yetakchi axborot-tadqiqot markazi ham bo‘lib hisoblanadi. U o‘zining tadqiqotlari asosida davriy nashrlarni chop etib boradi.

Nizom bo‘yicha XHKBiga 2 asosiy funksiya yuklatilgan: 1) markaziy banklar o‘rtasida hamkorlikka ko‘mak berish, xalqaro moliya operatsiyalari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; 2) o‘z a’zolarining xalqaro hisob-kitoblarini o‘tkazish bo‘yicha agent yoki ishonchli shaxs sifatida harakat qilish. Bulardan kelib chiqqan holda XHKB quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- oltin oldi-sotdisi va saqlanishi;
- markaziy banklar bilan depozit-ssuda operatsiyalari;
- alohida bitimlar bo‘yicha hukumat ulushlarni qabul qilish;
- valyuta va qimmatbaho qog‘ozlar bilan (aksiyalardan tashqari) operatsiyalar;
- markaziy banklarning muxbiri yoki agenti sifatida jahon (valyuta, kredit, qimmatbaho qog‘ozlar, oltin) bozorlarida operatsiyalar;
- o‘zaro xalqaro hisob-kitoblarga ko‘mak berish maqsadida markaziy banklar bilan bitimlar tuzish.

XHKB resurslarining asosiy manbai – markaziy banklarning chet el valyutasida yoki oltindagi qisqa muddatli (3 oygacha) omonatlari. Ular bo‘yicha foizlar to‘lash uchun bank ularni bozor sharoitlarida boshqa markaziy banklarga, xalqaro tashkilotlarga joylashtiradi. XHKBining asosiy aktiv operatsiyasi bo‘lib markaziy banklarga chet el valyutasidagi kreditlar berishdir.

Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB) 1990- yilda Londonda tashkil qilingan. YeTTBning asosiy maqsadi – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini

bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat. YeTTB faqatgina aniq doiradagi loyihalarni kreditlaydi. YeTTB resurslari XTTBga o‘xshashlik bo‘yicha shakllanadi.

YeTTB ishlab chiqarishni (loyihalarni moliyalashtirishni o‘z ichiga olgan holda), infratuzilmani taraqqiy ettirish va qayta tiklashga texnik yordam ko‘rsatishni (ekologik dasturlarni o‘z ichiga olgan holda), aksionerlik kapitaliga investitsiyalar, ayniqsa xususiylashtirilayotgan korxonalarni kreditlashga ixtisoslashgan. Shu bilan birgalikda YeTTBning asosiy diqqati kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Boshqa xalqaro moliya institutlari singari YeTTB aniq maqsadli investitsiyalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda maslahat berish xizmatini ko‘rsatadi. YeTTBning bitta strategik vazifasi – davlat korxonalarini xususiylashtirishni qo‘llab-quvvatlash, ularni modernizatsiyalash va tuzilmaviy qayta qurish, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha maslahatlar berishdan iborat.

Bank o‘z a’zolariga, tuzilmaviy va tarmoq iqtisodini davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirishni isloh qilish, bu bilan mamlakatlarni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga uyg‘unlashuviga ko‘maklashadi.

YeTTBning ta’sischilari bo‘lib 40 mamlakat – Albaniyadan tashqari hamma Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, Meksika, Marokko, Misr, Isroil, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, shuningdek, EIK va Yevropa Investitsiya Banki hisoblanadi. SSSR, Chexoslovakiya va Yugoslaviya parchalanganidan keyin paydo bo‘lgan yangi davlatlar uning a’zolari bo‘lishdi. Uning a’zolari sifatida XVF a’zosi bo‘lgan har qanday mamlakat bo‘lishi mumkin.

YeTTB kreditlarining muddati odatda 5-10 yilni kreditning minimal miqdori esa 5 mln. yevroni tashkil etadi. Agar loyiha mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lsa bank kamroq miqdorda ham kredit berishi mumkin. Kreditlash xohlagan erkin almashinuvchi valyutada amalga oshiriladi, amalda ko‘proq AQSh dollari va Yevrodan foydalaniladi. Loyihani moliyalashtirish uning qiymatini 35%dan ko‘p bo‘lmagan miqdorini tashkil etadi.

YeTTB tijorat asosida faoliyat ko‘rsatadi va o‘zining kreditlarini risklarni hisobga olgan holda bozor stavkalari bo‘yicha beradi. Tartibga ko‘ra tijorat korxonalarini kreditlashda bank mablag‘larni qaytarishga doir hukumat kafolatini talab etmaydi, lekin bunday hollarda odatda loyiha aktivlari (masalan, garovga oid asosiy fondlar, garovga oid mol-mulk va boshq.) bilan kreditning garov ta’minoti qo‘llaniladi. Kreditlar qat’iy belgilangan yoki suzub yuruvchi stavkalar bo‘yicha bo‘lishi mumkin, shuningdek, xedjirlashning turli instrumentlaridan ham foydalaniladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, YeTTB kreditlarining asosiy obyektlari bo‘lib, xususiy firmalar yoki xususiylashtirilayotgan davlat korxonalari va shuningdek, xorijiy investitsiyali qo‘shma korxonalar kiritilgan yangidan tuzilayotgan kompaniyalar hisoblanadi. Bankning hozirgi davrdagi asosiy maqsadi mintaqalarda investitsiyalarni rag‘batlantirishdir.

YeTTB o‘z faoliyati doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bank ishi standartlari asosida moslanuvchan kreditlash uchun turli xil instrumentlardan foydalanadi;
- xususiy sektor tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydigan sektorlar bo‘yicha ko‘zda tutilgan va tutilmagan operatsiyalar strategiyasidagi vazifalarni amalga oshirishni o‘zida mujassamlashtiradi;
- xususiy investorlar, ularning maslahatchilari va tijorat banklari bilan hamkorlik qiladi;
- hukumat bilan rivojlanishning uzoq muddatli rejalarini amalga oshirishda hamkorlik qiladi;
- xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari bilan o‘zaro harakatlarni bajaradi;
- davlatlararo va mintaqaviy manfaatlardan kelib chiqqan holda ishlaydi;
- atrof-muhitni saqlashni va yaxshilashni ta’minlashga harakat qiladi.

YeTTB faoliyatiga rahbarlikni boshqaruvchilar Kengashi, direktorlar Kengashi va prezident amalga oshiradi. Boshqaruvchilar

Kengashi – YeTTB oliy farmoyish beradigan organi – bankning har bir qatnashuvchisidan 2 tadan vakilni (boshqaruvchi va uning o‘rinbosarini) o‘z ichiga oladi (mamlakat yoki xalqaro tashkilotning). A’zo mamlakatning xohishiga qarab uning YeTTBdagi vakili (boshqaruvchi yoki uning o‘rinbosari) xohlangan paytda chaqirib olinishi mumkin. O‘rinbosar ovoz berishda faqat boshqaruvchi bo‘lmagan paytdagina ishtirok etishi mumkin. Yilida bir marta bo‘ladigan yig‘ilishda Kengash boshqaruvchilardan birini keyingi rais saylangunga qadar rais sifatida saylaydi.

Boshqaruvchilar Kengashining vakolatlariga quyidagi masalalarni hal qilish kiradi:

– YeTTB yangi a’zolarini qabul qilish, ularni qabul qilish shartlarini aniqlash, bank a’zoligini to‘xtatish;

– YeTTB prezidenti va direktorini saylash, direktorlar yoki ularning o‘rinbosarlari haqi o‘lchamini va shuningdek, prezident bilan shartnomaning boshqa shartlarini belgilash;

– YeTTB chiqarishga ruxsat etilgan nizom kapitalini ko‘paytirish yoki kamaytirish;

– boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to‘g‘risida bosh kelishuvlar (bitimlar) tuzishga vakolatlar berish;

- YeTTB foydasi va zararlari hisobini va umumiy balansini (auditorlar hisobotini ko‘rib chiqqandan keyin) tasdiqlash; rezervlar o‘lchamini aniqlash, foydani taqsimlash, YeTTB faoliyatining batamom to‘xtalishi va uning aktivlari taqsimoti haqida qaror qabul qilish;

- YeTTB ta’sis etish to‘g‘risidagi Bitimga o‘zgartirishlar kiritish, Bitimni tushunish yoki direktorlar Kengashi tomonidan uning qo‘llanishi bilan bog‘liq apellyatsiyalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Yevropa ittifoqi, Yevropa investitsiya banki a’zo mamlakatlari va Yevropa ittifoqining o‘zi YeTTB nizom kapitalida 51% kvotasiga egadirlar, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari – 13%, qolgan Yevropa mamlakatlari – 11%, Noyevropa mamlakatlari – 24%. Kapitalda ko‘proq hissa bilan AQSh – 10%, Italiya, GFR, Fransiya,

Buyuk Britaniya va Yaponiya – 8,5%dan. Nizom kapitalining o‘lchami har 5 yilda bir marta ko‘rib chiqiladi[51].

YeTTB o‘z faoliyati davomida xo‘jalik yuritishning bozor usullariga o‘tayotgan davlat va xususiy sektor korxonalariga nisbatan operatsiyalarning quyidagi shakllaridan foydalanadi:

1) ishlab chiqarishni rivojlantirishga kredit berish (qo‘shma moliyalashtirishni qo‘shgan holda);

2) kapitalga investitsiya kiritish;

3) qimmatbaho qog‘ozlarni kafolatlangan shaklda joylashtirish;

4) kafolatlar berish va ko‘mak berishning boshqa shakllari yordamida kapital bozoriga kirishni yengillashtirish;

5) foydalanishni belgilovchi bitimlarga muvofiq ravishda maxsus fondlar resurslarini joylashtirish;

6) qarzlar berish (qo‘shma moliyalashtirishni qo‘shgan holda) va infratuzilmani tiklash va rivojlantirish uchun texnik yordam ko‘rsatish (shu jumladan, tabiatni muhofaza qilish dasturlari uchun).

YeTTB eksport kreditlar bo‘yicha kafolatlar bermaydi va sug‘urtalash bilan shug‘ullanmaydi.

Shuningdek, YeTTB quyidagi faoliyat turlarini moliyalashtirmaydi:

27.Mudofaa sanoati;

28.Tamaki sanoati;

29.Xalqaro huquqiy me’yorlarda taqiqlangan vositalarni ishlab chiqarish;

30.Qimor biznesi;

31.Atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishlar va jarayonlar.

YeTTB kredit-moliya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan moliyaviy sektor, energetika, telekommunikatsiya infratuzilmasi, transport va agrobiznesni ajratib ko‘rsatish mumkin. Alohida holda xususiylashtirish sohasi ham muhim o‘rin egallaydi.

Hozirgi kunda YeTTB kredit liniyalaridan dunyodagi ko‘pchilik mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda foydalanib kelmoqda.

[51] www.ebrd.com

Ushbu tashkilot tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar jahon iqtisodiy holatini yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) – Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining rivojlanish loyihalari uchun uzoq muddatga kredit ajratish bilan shug‘ullanadigan yirik davlatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi. Osiyo Taraqqiyot Banki 1966- yilning 22- avgustida 15 ta mamlakat tomonidan shartnoma imzolanishi bilan tashkil etilgan. Bank o‘zining o‘z kredit faoliyatini 1966- yil 19- dekabrda boshladi.

Osiyo taraqqiyot bankini tuzishdan maqsad – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga yordam berishdan iborat.

Bugungi kunda OTBga 68 ta a’zo davlat Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, shuningdek, Yevropa va Amerikaning sanoati rivojlangan 19 ta davlati hisoblanib, OTB vakillari har yili ushbu tashkilotga a’zo va faol rivojlanayotgan davlatlarning birida OTB Boshqaruvi, ushbu mamlakatning moliya vazirligi va markaziy banki rahbarlari ishtirokida uchrashuv o‘tkazadi.

OTB shtab – kvartirasi Manila shahrida (Filippin) joylashgan bo‘lib, OTB prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.

OTB faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- investitsiya loyihalarini moliyalashda uzoq muddatli va imtiyozli shartlar bilan 40 yilgacha bo‘lgan kreditlarni yiliga 1 % dan berish; tijorat kreditlarini 3 yillik imtiyozli davr bilan 15 yilgacha berish[52];

- rivojlanayotgan a’zo mamlakatlarga ularning iqtisodiy rivojlanish rejalarini muvofiqlashtirish, shuningdek, moliyalashga tayyorlash va loyihalarni hamda rivojlanish dasturini amalga oshirishga yordam berish;

- xalqaro moliyaviy institutlar, milliy davlat va xususiy tashkilotlar bilan investitsiyalarni birgalikda amalga oshirishga taalluqli masalalarda hamkorlik qilish;

[52] www.abd.org

- mintaqada iqtisodiy o‘sish va hamkorlikni rag‘batlantirish uchun zarur ekspert xizmati va maslahatlarining turli shakllarini tashkil etish.

OTB quyidagi sohalarni o‘z ichiga olgan loyihalarni moliyalashtiradi:

- qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash;
- avtomobil va temir yo‘llarni ta’mirlash va qayta qurish;
- energetika;
- ta’lim;
- transport va aloqa tizimi;
- tog‘-kon sanoati;
- sog‘liqni saqlash va ekologiya;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish;
- iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- bank tizimini rivojlantirish.

Osiyo Taraqqiyot Bankining maqsad-vazifasi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy o‘sishini, ham jamoaviy ham mustaqil rag‘batlantirish hisoblanadi.

OTB rivojlanayotgan mamlakatlarga quyidagi fondlar hisobidan kreditlar beradi:

- oddiy fond hisobidan tijorat shartlari asosida 25 yil muddatga;
- Osiyo rivojlanish maxsus fondi hisobidan imtiyozli 1-3% stavkalar bo‘yicha kambag‘al mamlakatlarga 40 yilgacha muddatga.

Ko‘pgina rivojlanish banklari kabi Osiyo taraqqiyot banki ham kreditlashda balansni ta’minlash uchun davlat sektoriga berilgan kreditlarning salmog‘i jami loyihalarning 20%i dan oshmaydi.

Osiyo taraqqiyot banki faoliyatining xususiyati bo‘lib, kreditlarining 30% ini imtiyozli shartlarda maxsus fonddan berishi hisoblanadi. OTB bu mablag‘larni Yevropa bozorlariga yo‘naltirib, ularni rivojlanayotgan mamlakatlarga 25-40 yilga mo‘ljallangan uzoq muddatli kreditlarga aylantiradi. Shuningdek, kreditlar tijorat shartlarida

yoki yuqori bozor foiz stavkasi bo‘yicha 10-25 yil muddatga oddiy jamg‘armalardan ham beriladi.

Osiyo taraqqiyot banki quyidagi talablarga javob beruvchi loyihalarni mablag‘ bilan ta’minlaydi:

1. Moliyaviy mustahkamligi va texnik bajarilishi, iqtisodiy barqarorligi yuqori bo‘lgan loyihalar.
2. Loyihani amalga oshirish mamlakatning istiqbolda rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi.
3. Qarzdor mamlakatning qo‘shimcha tashqi qarzga xizmat ko‘rsatishga qodirligi.
4. Unumdorlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish.
5. Qo‘shimcha yangi ish o‘rinlarini tashkil etish.

Osiyo Taraqqiyot Bankiga a’zolik BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha Osiyo-Tinch Okean Komissiyasi a’zolariga, shuningdek, boshqa mintaqalar rivojlangan mamlakatlari va BMTga hamda uning biron-bir boshqa maxsus agentliklariga a’zo mamlakatlar uchun erkindir.

Osiyo Taraqqiyot Bankining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojiga va hamkorligiga ko‘maklashish;
- davlat va xususiy fondlardan kapital qo‘yilmalarning o‘sishini ta’minlash;
- hududiy savdoning rivojlanishiga olib keluvchi iqtisodiy rejalarni tartibga solishda ishtirok etish;
- tashqi manbalardan moliyalashtiriladigan loyihalarni tayyorlash va bajarishga texnik yordam berish;
- a’zo mamlakatlarning tashqi savdosiga va iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish.

OTB ustaviga binoan Bank tizimiga bir nechta maxsus fondlar kiradi:

- Imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlash maxsus fondi;
- Osiyo rivojlanish fondi;
- Texnika yordami maxsus fondi.

Bank operatsiyalari ikki asosiy manbadan: oddiy kapital mablag‘lari va maxsus mablag‘lardan moliyalashtiriladi.

Oddiy kapital mablag‘lari Osiyo Taraqqiyot Bankiga a’zo mamlakatlarning kapital ulushlarini to‘lashlaridan va investitsiyalardan keladigan daromad hisobiga shakllanadi.

Maxsus mablag‘lar a’zo rivojlangan mamlakatlar badallari, maxsus fondlar, ssudalar va investitsiyalardan daromadlar, shunindek, Osiyo Taraqqiyot Banki kengashi maxsus qaroriga binoan oddiy kapital mablag‘larini o‘tkazish summalari ko‘rinishida shakllanadi.

Osiyo Taraqqiyot Banki Maxsus mablag‘lari katta bo‘lmagan va kambag‘al a’zo mamlakatlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida imtiyozli ssudalar shaxobchalarini tashkil etgan.

Osiyo Taraqqiyot Banki barcha sharoitlar bo‘yicha puxta tahlil o‘tkazgandan keyin kredit beradi. Bu holat, bank zaxiralari va likvidligini saqlashga, sof daromadni doimiy oshirishga, qarzdorlarning kreditga qobiliyatliligi monitoringini o‘tkazishga imkon yaratadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliyaviy globallashuv, valyuta, kredit, SDR, byudjet defitsiti, “stend-bay” kreditlash mexanizmi, kengaytirilgan kreditlash mexanizmi

Takrorlash uchun savollar

Xalqaro moliya tashkilotlari qanday funksiyalarni bajaradi?

Xalqaro moliya tashkilotlari vujudga kelishiga qaysi omillar sabab bo‘lgan?

Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

Xalqaro valyuta fondi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini izohlang?

XVFning kreditlash dasturlari qanday kategoriyalarga ajratiladi?

Jahon bankining asosiy maqsadi va funksiyalarini izohlang?

Jahon banki guruhiga qaysi tashkilotlar kiradi?

Mintaqaviy valyuta-kredit tashkilotlari yuzaga kelishining asosiy sabablari nimalardan iborat?

Xalqaro hisob-kitoblar bankining asosiy maqsadi va funksiyalarini izohlang?

Osiyo Taraqqiyot Bankining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

XVFga a’zo mamlakatlarning fonddagi kvota miqdorini va ovoz berish huquqini tahlil eting.

XVF Kelishuvlar moddalarini tarkibiy jihatdan o‘rganing.

Jahon banki guruhiga kiruvchi tashkilotlarning moliyaviy operatsiyalari rivojlanishini tahlil eting.

Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatiga oid yillik moliyaviy hisobotlarni o‘rganing. (Yillik hisobotlar mazkur tashkilotlarning rasmiy saytida mavjud).

Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro valyuta fondining asosiy maqsadi –

a) mamlakatlarda valyuta-kredit munosabatlarini joriy etish va uni qo‘llab-quvvatlash hamda turli maqsadlarda kreditlar berish bilan shug‘ullanuvchi hukumatlararo tashkilot;

b) a’zo davlatlar o‘rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va o‘rta muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilot;

d) a’zo davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda ularda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish uchun tashkil etilgan xalqaro tashkilot;

e) a’zo davlatlardagi tijorat banklarida valyuta munosabatlarini joriy etish va ularni tartibga solish hamda valyuta munosabatlaridagi

mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida kreditlar berishga mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilot.

2. XVF qachon va qayerda tashkil topgan?

a) 1948- yil 27- dekabr, BMTning valyuta – moliya masalalari bo‘yicha Bretton – Vudsdagi konferensiyasida;

b) 1945- yil 27- dekabr, BMTning valyuta – moliya masalalari bo‘yicha Parijdagi konferensiyasida;

d) 1945- yil 27- dekabr, BMTning valyuta – moliya masalalari bo‘yicha Bretton – Vudsdagi konferensiyasida;

e) 1945- yil 27- dekabr, BMTning valyuta – moliya masalalari bo‘yicha Genuyadagi konferensiyasida.

3. Jahon Bankining asosiy maqsadi –

a) rivojlanayotgan mamlakatlarga kredit ajratish yo‘li bilan ishlab chiqarishni barqarorlashtirish hisoblanadi;

b) rivojlanayotgan mamlakatlardagi tijorat banklari faoliyatini tartibga solish hisoblanadi;

d) iqtisodiy o‘sish davrini boshdan kechirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarni kreditlash yo‘li bilan kambag‘allik darajasini pasaytirish hisoblanadi;

e) iqtisodiy o‘sish davrini boshdan kechirayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda bank-moliya tizimini barqarorlashtirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi.

4. Jahon Banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilotlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?.

a) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki;

b) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik, Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz;

d) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro valyuta fondi (XVF),

Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik, Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz;

e) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik, EKOSOS, YuNKTAD, YuNIDO.

5. Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik qachon va nima maqsadda tashkil topgan?

a) rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirishga ko‘maklashish, shuningdek, axborot va konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida,1988- yilda a’zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan;

b) rivojlangan mamlakatlarga xorijiy to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirishga ko‘maklashish, shuningdek, axborot va konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida, 1980- yilda a’zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan;

d) rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy to‘g‘ri investitsiyalarni yo‘naltirishga ko‘maklashish hamda kreditlar berish maqsadida,1960- yilda a’zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan;

e) rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar berish va ularda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida,1982- yilda a’zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan.

6. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) qachon va nima maqsadda tuzilgan?

a) 1965- yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar berish maqsadida tuzilgan;

b) 1980- yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda korporatsiyalarni tashkil etish maqsadida tuzilgan;

d) 1956- yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga xususiy investitsiyalar oqimi barqarorligini ta’minlash maqsadida tuzilgan;

e) 1966- yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash maqsadida tuzilgan.

7. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) –

a) Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining rivojlanish loyihalari uchun uzoq muddatga kredit ajratish bilan shug‘ullanadigan yirik davlatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi;

b) Osiyo mintaqasi mamlakatlarining rivojlanish loyihalari uchun uzoq muddatga kredit ajratish bilan shug‘ullanadigan yirik davlatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi;

d) Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qisqa muddatga kredit ajratish bilan shug‘ullanadigan yirik davlatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi;

e) Osiyo mintaqasi mamlakatlarining rivojlanish loyihalari investitsiyalar ajratish bilan shug‘ullanadigan moliya institutlaridan biri hisoblanadi.

8. Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB) qachon va nima maqsadda tashkil topgan?

a) 1982- yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat;

b) 1990- yilda Londonda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o‘tishiga yordam berishdan iborat;

d) 1992- yilda Parijda tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy Yevropaning sobiq sotsialistik tuzumda bo‘lgan mamlakatlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga kreditlar ajratishdan iborat;

e) 1995- yilda Italiyada tashkil qilingan bo‘lib – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam berishdan iborat.

9. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining asosiy maqsadi –

a) a’zo mamlakatlarga qisqa muddatli kredit berish orqali ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga ko‘maklashish hisoblanadi;

b) a’zo mamlakatlarga uzoq muddatli kredit berish orqali ularda valyuta munosabatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish hisoblanadi;

d) a’zo mamlakatlarga uzoq muddatli kredit va qarzlar berish hamda xususiy investitsiyalarni kafolatlash orqali ularning iqtisodiyotini rivojlantirishga ko‘maklashish hisoblanadi;

e) mamlakatlarga qisqa muddatli qarzlar berish orqali ularda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashish hisoblanadi.

10. Investitsion bahslarni hal qilish bo‘yicha xalqaro markazning asosiy maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) xalqaro investitsion bahslarni hal qilish va tomonlarni o‘zaro murosaga keltirish uchun huquqiy imkoniyatlarni ta’minlash hisoblanadi;

b) mamlakatlarga investitsiya oqimini yo‘naltirishga ko‘maklashish hisoblanadi;

d) mamlakatlarga xorijiy valyutada kreditlar berish hisoblanadi;

e) mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida investitsiya ajratish hisoblanadi.

15-BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI SUBYEKTI SIFATIDA

Xalqaro korporatsiyalarning yuzaga kelishi va ular faoliyatining mohiyati

Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining asosiy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari

Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining iqtisodiyot uchun afzalliklari

Transmilliy korporatsiyalar faoliyati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari

Globallashuv sharoitida TMKlar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olish (M&A) jarayonlari

15.1. Xalqaro korporatsiyalarning yuzaga kelishi va ular faoliyatining mohiyati

Hozirgi davrda xalqaro korporatsiyalar jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishining muhim elementlaridan hisoblanadi. Oxirgi yillarda ularning jadal ravishda rivojlanishi jahon xo‘jaliklari aloqalarining globallashuvida, kapital va ishlab chiqarishning baynalmillashuv jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro korporatsiyalar jahon xo‘jaligi aloqalarining barcha sohalarida faol ishtirokchi bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro korporatsiyalar bir tomondan jadal rivojlanib borayotgan xalqaro moliya munosabatlarining mahsuli, boshqa tomondan esa, mazkur munosabatlarga ta’sir etuvchi qudratli mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro korporatsiyalar xalqaro moliya munosabatlariga faol ta’sir ko‘rsatgan holda yangi munosabatlarni shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro korporatsiyalarning asosiy qismi AQSh, Yevropa ittifoqi mamlakatlari va Yaponiyada joylashgan. Xalqaro korporatsiyalar jahon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro korporatsiyalar filiallari orqali amalga oshirilgan eksportning hajmi

jahon eksportining 1/3 qismini tashkil etadi va ularda 77 mln kishi ishlaydi. Ushbu ko‘rsatkich Germaniya iqtisodiyotida band bo‘lganlar sonidan ikki baravar ko‘pdir.

Xalqaro korporatsiyalarning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishida jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga bo‘lgan zaruratning kuchayishi hamda xo‘jalik hayoti baynalmilallashuvining jadallashuvi muhim o‘rin tutdi.

Transmilliy korporatsiyalardan farqli ravishda xalqaro korporatsiyalar egalari yagona davlatning emas, balki ikki yoki undan ortiq davlatlar kapitallarining egalari hisoblanadi. Ular faoliyatining muhim xususiyati, aksiyadorlik kapitalini xalqaro ko‘lamda bo‘lib-bo‘lib joylashtirishdadir.

Xalqaro korporatsiyalarning jahon iqtisodiyotiga ta’siri eng avvalo ishlab chiqarishning nihoyatda keng tarqalishi orqali yuzaga keladigan afzalliklarda namoyon bo‘ladi.

Xalqaro korporatsiyalar faoliyatining xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha shakllarga ajratiladi:

1. Transmilliy korporatsiyalar – asosiy kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalgan kompaniyalardir.

2. Ko‘p millatli kompaniyalar – asosiy kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, xorijiy bo‘limlari turli mamlakatlarda joylashgan kompaniyalar.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda xalqaro monopoliyalarning ko‘pgina tasniflarini uchratish mumkin, ular jumlasiga, ko‘p millatli korporatsiyalar, xalqaro korporatsiyalar, transmilliy va global korporatsiyalar kiradi. Taniqli amerikalik marketolog olim F.Kotler, xalqaro kompaniyalarni tashkil topishi jihatidan to‘rt turga bo‘lgan edi, ya’ni, global kompaniya, transmilliy kompaniya, ko‘p millatli kompaniya va baynalminal kompaniya.

Rossiyalik iqtisodchilar xalqaro korporatsiyalarni quyidagicha tasnif etadilar. Xalqaro korporatsiyalar – bu xorijiy aktivlarga ega bo‘lgan milliy monopoliyalar bo‘lib, ularning mahsulot ishlab chiqarishi va savdo faoliyati bir mamlakatdan tashqarida amalga oshiriladi.

Amerika qo‘shma shtatlarida korporatsiyalar sifatida aksiyadorlik jamiyatlari ta’riflanadi. Jahon iqtisodiyotidagi yetakchi transmilliy korporatsiyalarning aksariyati AQSh kompaniyalarining ekspansiyasi tufayli yuzaga kelganligi bois mazkur atama keng miqyosda tarqalgandir.

Transmilliy korporatsiyalarning huquqiy tuzilmasi sho‘ba kompaniyalar va filiallarni tashkil etish orqali turli mamlakatlarda amalga oshiriladigan ish faolligini talab qiladi. Ushbu kompaniyalar nisbatan mustaqil ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va boshqa xizmatlarga egadirlar. Umuman olganda, ular yagona yirik ishlab chiqarish majmuini tashkil etgan holda aksionerlik kapitaliga faqat ta’sischi davlat vakillari egalik qilishadi. Ayni vaqtda filial va sho‘ba kompaniyalar tashkil etilgan mamlakat kapitali ustunligida aralash korxonalar bo‘lishi ham mumkin.

Ko‘p millatli korporatsiyalar – ishlab chiqarish va ilmiy-texnik asosda bir qator davlatlarning milliy kompaniyalari birlashishidan yuzaga kelgan xalqaro korporatsiyalardir. Mazkur korporatsiyaga misol sifatida 1907- yildan o‘z faoliyatini boshlagan Angliya-Gollandiya konserni hisoblangan “Royal Datch Shell”ni keltirish mumkin. Mazkur kompaniyaning kapitali 60:40 nisbatda taqsimlangan. Ko‘p millatli korporatsiyaga misol bo‘lib, Yevropada birmuncha taniqli bo‘lgan mashinasozlik, elektrotexnika injeneriyasi sohasiga ixtisoslashgan Shveytsariya-Shvetsiya kompaniyasi ABB (Asea Brown Bovery)ni keltirish mumkin.

Xalqaro huquqiy normalar nuqtayi nazaridan ko‘p millatli korporatsiyalarning o‘ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

3. ko‘p millatli aksiyadorlik kapitalining mavjudligi;
4. ko‘p millatli boshqaruv markazining mavjudligi;
5. xorijiy filiallar ma’muriyatini mahalliy sharoitlarni biladigan kadrlar bilan to‘ldirish.

Oxirgisi, ko‘pgina transmilliy korporatsiyalarga xos bo‘lgan xususiyat hisoblanadi.

Xalqaro korporatsiyalar yuzaga kelishidan buyon bir qancha bosqichlarni boshdan kechirishgan. Zamonaviy xalqaro

korporatsiyalarning birinchi avlodi, umumiy tarzda xom-ashyo transmilliy korporatsiyalari sifatida namoyon bo‘lishgan. Birinchi jahon urushi va urushdan keyingi davrda TMKlar qurol-yarog‘ ishlab chiqarishga ixtisoslashgan holda o‘z faoliyatlarini rivojlantirishdi. Ushbu bosqichda TMKlarning rivojlanishi jahon iqtisodiyotiga va jahon xo‘jalik aloqalariga unchalik ahamiyatli ta’sir ko‘rsatmadi. XX asrning 40-yillari boshlarida xalqaro monopoliyalarning umumiy soni 300 tadan oshmasdi.

Xalqaro korporatsiyalar yuzaga kelgan davrdan boshlab asta-sekinlik bilan o‘z faoliyatlarining istiqboldagi strategiyasini ishlab chiqishdi. Ularning asosiy belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) o‘zini ishlab chiqarishini xorijiy xomashyo bilan ta’minlash;

2) filiallari tarmog‘i orqali xorijiy bozorlardagi o‘rnini mustahkamlash;

3) asosiy mamlakatdagiga qaraganda ishlab chiqarish xarajatlari past mamlakatlarda ishlab chiqarishni joylashtirish;

4) tabaqalashtirilgan ishlab chiqarish-savdo-moliya faoliyatiga yo‘naltirilganlik.

50-yillarning boshlarida xalqaro korporatsiyalar jahon bozorlarini egallash bo‘yicha faol harakatlarini boshladilar. Bunga xalqaro iqtisodiy aloqalarning erkinlashtirilishi, jahon maydonida ko‘plab mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, jahon iste’mol talabining o‘sishi va boshqa shu kabi omillar imkon yaratdi. Xalqaro korporatsiyalarning miqdori bo‘yicha ham, faoliyatining hajmi va ko‘lami bo‘yicha ham jadal rivojlanishi ularning jahon iqtisodiyotida muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘ldi.

Milliy kompaniyalarning xalqaro kompaniyaga aylanishi bir qator bosqichlarda sodir bo‘ladi.

Birinchi bosqichda xorijiy xo‘jalik faoliyati amalda butun kompaniya holatiga kam ta’sir ko‘rsatadi. U faqat xorijiy iqtisodiy faoliyatni eksport shaklida rivojlantirishdan boshlanadi. Ushbu bosqichda kompaniya yuridik jihatdan bitta davlatga tegishli bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda xorijiy xo‘jalik faoliyati nisbiy mustaqillikka ega bo‘ldi. Kompaniyaning xorijdagi faoliyati kompaniya faoliyatining

boshqa barcha tomonlari bilan o‘zaro bog‘liqlikning murakkab tizimiga kiradi. Xalqaro faoliyat markazi eksportdan xorijiy ishlab chiqarishga o‘tadi. Xorijiy faoliyatni ichki bozordagi faoliyatdan ajralishi sodir bo‘ladi. Bu esa, kompaniyaning tashkiliy tuzilmasiga ta’sirni yuzaga keltiradi. Kompaniya xalqaro xususiyatga ega bo‘ladi. Uchinchi bosqichda, kompaniya xorijiy faoliyatning roli oshadi. Ichki bozor ustuvorligi yo‘qolgan holda bir qator tashqi bozorlarda faoliyat shakllanadi. Aynan mazkur bosqichda kompaniya yuqorida qayd etilgan belgilar bilan haqiqatda xalqaro kompaniya bo‘ladi.

Qayd etilgan uchta bosqich barcha mamlakatlarda biznesni baynalminallashuv jarayonlari uchun taalluqli hisoblanadi.

Mamlakatlar iqtisodiyotiga kapital kiritishiga muvofiq xalqaro korporatsiyalar bir nechta shaklda namoyon bo‘ladi:

6. xorijiy korxona shaklida, bunda ushbu norezident korxona jami kapitalning 50 foizidan kam bo‘lgan qismiga egalik qiladi;

7. sho‘ba korxona, norezident korxonaning ulushi umumiy kapitalning 50 foizidan oshishi mumkin;

8. xorijiy bo‘linmalar shaklida, bunda korxona to‘liq TTXI hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Xalqaro korporatsiyalarning tashkiliy qobig‘i, ularning milliy negizi va ko‘p miqdordagi sho‘ba va boshqa tashkilotlari bilan birgalikda ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishining, zamonaviy xalqaro mehnat taqsimoti uchun muvofiq shakl sifatida namoyon bo‘ldi.

Yetakchi xalqaro korporatsiyalar jahon miqyosida kapital va mehnat kuchlarini umumlashtirib, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirgan va raqobatbardoshlikni oshirgan holda xalqaro ishlab chiqarishni tashkil etadi. Natijada ular o‘zlarining global korporatsiyalar shaklidagi yangi darajasiga aylanishadi.

Global korporatsiyalar o‘zida yirik moliya-sanoat, ilmiy-texnikaviy va savdo birlashmalarni ifodalaydi. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon moliya kapitalining butun qudratini jamlaydi. Xalqaro ishlab chiqarishning yirik salmog‘i, shu jumladan, asosiy ilmiy sig‘imli qismi, global korporatsiyalar tomonidan nazorat qilinadi.

Globallashuvda nisbatan yuqori darajada kimyo, elektrotexnika, neft sanoati, avtomobilsozlik va bank tarmoqlari faol ishtirok etmoqda.

Mazkur bosqichning xarakterli xususiyati bo‘lib nafaqat xo‘jalik yuritishning baynalminallashuvi balki, mulkchilikning baynalminallashuvi ham hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida uchinchi jihatning ya’ni, boshqarishning baynalminallashuvi ham yuzaga keladi.

Xalqaro korporatsiyalar faoliyati orqali iqtisodiyotda quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

9. ishlab chiqarishning yirik hajmi va ko‘lami hisobiga mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni kamaytirish;

10. ishlab chiqarishning samarali tashkil etilishi hisobiga mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni yanada chuqurlashtirish;

11. tashqi muhit o‘zgarishlariga tezda moslashish;

12. xorijiy bo‘linmalar orqali ular joylashgan mamlakatlardagi bozorlar holatining va mahsulotlarga bo‘lgan talab darajasining o‘zgarishiga tegishli ma’lumotlarni to‘plash hamda tahlil etib borish;

13. jahon bozoridagi talabning o‘zgarishiga muvofiq strategik loyihalarni amalga oshirish.

Agar kompaniya jahon bozorlarida faoliyat yuritishning quyidagi talablarini kompleks tarzda hisobga olsa, xalqaro korporatsiyalarning strategiyasi global bo‘lib hisoblanadi:

– raqobat va bozorlarning umumjahon holatini doimiy muhokama qilish;

– o‘zining raqobatchilarini va global raqobat kurashida faoliyat yuritish usullarini yaxshi bilishi;

– o‘z faoliyatini umumjahon yoki yirik mintaqaviy ko‘lamda amalga oshirishi;

– o‘z foydasining ma’lum qismini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishi va yuqori texnologiyali tarmoqlarda faoliyat ko‘rsatishi;

14.tez moslashuvchan axborot, ishlab chiqarish, moliyaviy texnologiyalar yordamida o‘z faoliyatini muvofiqlashtirishi;

15.o‘zining korxona va ishlab chiqarish filiallarini yagona xalqaro boshqaruv tarmog‘iga birlashtirish va boshqa transmilliy korporatsiyalar bilan o‘zaro yaqin aloqalar o‘rnatishi.

Hozirgi davrda xalqaro korporatsiyalar faoliyati rivojlanishiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

4. jahon bozoridagi talabning o‘zgarishiga tezda moslashishi;

5. umumjahon global strategiyasi doirasida faoliyat ko‘rsatib jahon bozorining barcha tarkibiy qismlariga ta’sir o‘tkazish imkoniga egaligi;

6. ishlab chiqarishning global omillaridan keng tarzda foydalanishi;

7. xalqaro korporatsiyalar deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro ishlab chiqarishning global tizimini yarata olishi.

Zamonaviy transmilliy korporatsiyalarning faoliyat yuritish mexanizmida bank va moliya institutlari juda muhim rol o‘ynaydi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va baynalminallashuvi jarayonlari, moliya sohasidagi kuchli raqobatlashuv kurashi transmilliy banklarning shakllanishiga va faoliyatining kengayishiga imkon yaratdi.

Transmilliy banklarning xususiyati, birinchidan, o‘zlarining milliy bozorlarida yetakchi rol o‘ynovchi yirik banklarning faoliyati bilan belgilanadi. Ikkinchidan, ularning faoliyatida xalqaro operatsiyalarning ulushi yuqori bo‘ladi. Shuningdek, ular tomonidan xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish xorijdagi bo‘limlarining bir-biri bilan o‘zaro aloqador tarmog‘i orqali sodir bo‘ladi. Uchinchidan, transmilliy banklar turli xildagi xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga va yirik moliyaviy kapitalga ega bo‘lgan moliyaviy institut hisoblandi.

15.2. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining asosiy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari

Jahon xo‘jaligida ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning obyektiv natijasiga ko‘ra vujudga kelgan transmilliy korporatsiyalar o‘ziga xos xususiyatga ega. Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo‘lib, uning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, xalqaro moliyaviy markazlar faoliyati doirasining kengayib borishi davlatlar iqtisodiy rivojlanishida sezilarli rol o‘ynamoqda.

Transmilliy korporatsiya deganda xorijiy aktivlarga va xalqaro miqyosda iqtisodiyotning biror-bir sohasiga kuchli ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan yirik ishlab chiqarish birlashmalari tushuniladi.

Transmilliy korporatsiyalarning quyidagi asosiy xususiyatli belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin[53]:

- TMKlar jahon xo‘jaligi rivojlanishining, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lib, aynan ular globallashuvni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanishadi;
- milliy chegaralarda sodir bo‘layotgan jarayonlardan bir muncha mustaqil holda kapitalni harakatlantirish imkoniyatining mavjudligi;
- dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida o‘zining operatsiyalarini amalga oshirgan holda jahon xo‘jaligi munosabatlarini tartibga solishda ishtirok etishi;
- TMKlar o‘z tarkibiy tuzilmasiga ko‘ra, ishlab chiqarish korxonalari, savdo yoki moliyaviy tashkilotlarning xalqaro majmuasi bo‘lib, asosiy mamlakatdagi boshqaruv qarorlariga mos holda faoliyat yo‘nalishini muvofiqlashtirib boradi;
- aksionerlik kapitalining mulkchilik huquqi faqat ta’sis etuvchi mamlakat vakolatiga tegishli bo‘ladi;
- xorijiy bo‘linma va sho‘ba korxonalar milliy ishtirok darajasiga ko‘ra aralash bo‘lishi mumkin;
- TMK kapitalining harakati korporatsiya joylashgan mamlakatdagi sodir bo‘layotgan jarayonlardan erkin bo‘ladi;
- TMKlar asosiy masalalar bo‘yicha yagona markazdan boshqariluvchi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘linmalar, sho‘ba kompaniyalarini joylashtirishga asoslangan xalqaro ishlab chiqarish tizimini shakllantiradi;

[53] Хасбулатов Р.И. Международные экономические отношения. Учебник. – М.: Юрайт, 2012. С. 459-460.

- TMKlar ularga yuqori darajada afzallik beruvchi ko‘p millatli aksionerlik kapitaliga egalik qilishadi;
- TMKlar dunyoning turli mintaqa va mamlakatlari o‘rtasida turli xildagi resurslarni (kapital, ishchi kuchlari va boshq.) taqsimlashni samarali tarzda amalga oshiradi;
- TMKlar ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik ishlari, nou-xaular, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish hamda ommalashtirish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish sohalarida uzluksiz faoliyat olib borishadi;
- mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot va texnologik hamkorlik aloqalarining kengayishiga faol yordam ko‘rsatadi.

Korporatsiyalar yuqoridagi xususiyatli belgilarga ega bo‘lgan holda transmilliy korporatsiya maqomini oladi. Hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘pgina korporatsiyalar mazkur xususiyatli belgilarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida transmilliy va oddiy korporatsiyalar o‘rtasidagi chegara yetarlicha farqlanmaydi, chunki iqtisodiyot globallashuvining rivojlanishi orqali ta’minot bozorlari, ishlab chiqarish hamda mulkchilik munosabatlarida baynalmilallashuv jarayonlari kuchaymoqda. Shuning uchun, tadqiqotchilar tomonidan TMKlarni ajratishda turli miqdoriy mezonlardan foydalaniladi.

Dastlab 1960- yillarda Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan yillik aylanmasi 100 mln. dollardan ortiq bo‘lgan hamda kamida oltita mamlakatda o‘zining filiallariga ega bo‘lgan korporatsiyalarni TMKlar jumlasiga kiritildi. Keyinchalik esa TMKlarni ajratishda bir qator mezonlar qo‘llanila boshladi. Hozirgi kunda BMT tomonidan quyidagi xususiyatli belgilarga ega bo‘lgan korporatsiyalar TMK jumlasiga kiritiladi:

- markazlashgan boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirilgan iqtisodiy siyosatni yuritishi;
- ishlab chiqarish bo‘linmalarining majburiyatlar hamda resurslar almashinuvida bir-biri bilan faol hamkorligi;
- yillik savdo hajmi 1 mlrd. dollardan kam bo‘lmasligi;

- umumiy moliyaviy aylanma mablag‘larining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha xorijdagi operatsiyalarga to‘g‘ri kelishi;
- xorijdagi aktivlar ulushi 25 foizidan kam bo‘lmasligi;
- filiallari oltitadan kam bo‘lmagan mamlakatlarda mavjud bo‘lishi.

Transmilliy korporatsiyalar yuzaga kelishining asosiy sababi milliy davlat chegaralaridan chiquvchi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida kapital va ishlab chiqarishning baynalmillashuvi hisoblanadi.

Kapital va ishlab chiqarishning baynalmillashuvi xorijda ko‘p sonli bo‘linmalariga ega bo‘lgan yirik kompaniyalarni tashkil etish va milliy korporatsiyalarning transmilliyga aylanishi orqali xo‘jalik aloqalarining ekspansiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi. Kapitalni xorijga chiqarish xalqaro korporatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Transmilliy korporatsiyalar yuzaga kelishining sabablari qatoriga, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning keng ko‘lamliligini ta’minlovchi yuqori iqtisodiy samaradorlikni kiritish lozim. Kuchli raqobatlashuv sharoitida raqobat kurashiga dosh berish zaruriyati xalqaro ko‘lamda kapital va ishlab chiqarishning bir joyga to‘planishiga imkon yaratadi. Natijada yuqori foyda olish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi hamda global miqyosda oqilona faoliyat shakllanadi.

TMKlar rivojlanishining uchta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich, XX asrning boshlariga to‘g‘ri kelib, bu bosqichda TMKlar tomonidan iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan xorijiy mamlakatlarning xomashyo tarmoqlariga investitsiya mablag‘lari yo‘naltirildi, shuningdek, ta’minot va sotuv bo‘linmalari tashkil etildi. Bu paytda xorijda yuqori texnologiyali sanoat ishlab chiqarishlarini tashkil qilish foyda keltirmasdi. Chunki, bir tomondan qabul qiluvchi mamlakatlarda zaruriy malakali mutaxassislar yetishmasdi, texnologiyalar esa hali yuqori darajada avtomatlashgan tizimga ega emasdi. Boshqa tomondan esa, korxonalarga yangi texnologiyalarni

joriy etish natijasida ularning joriy ishlab chiqarish holatida yuzaga keladigan vaziyatni hisobga olish lozim edi. Ushbu davrda transmilliylashuv jarayoni turli mamlakatlar firmalarining birlashishi, ular tomonidan ta’minot bozorlarining bo‘lib olinishi hamda kelishilgan narx siyosatining yuritilishida namoyon bo‘ldi.

Transmilliy korporatsiyalar rivojlanishining ikkinchi bosqichi XX asrning o‘rtalariga tegishli bo‘lib, bu bosqichda nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham xorijiy ishlab chiqarish bo‘linmalari rolining kuchayishi sodir bo‘ldi. Xorijiy ishlab chiqarish bo‘linmalari ham oldin TMK uchun asosiy mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshladi. Asta-sekinlik bilan TMKlarning xorijiy bo‘linmalari mahalliy bozorlardagi talabni qondirishga yo‘naltirilgan faoliyatini kuchaytirdilar. Oldin jahon xo‘jaligida xalqaro kartellar faoliyat yuritgan bo‘lsa, so‘ngra mustaqil tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshiruvchi yetarlicha yirik milliy kompaniyalar vujudga keldi.

TMKlar soni va ular ahamiyatining ortishi ko‘proq 1960- yillarda fan-texnika inqilobining ta’siri ostida sodir bo‘ldi. Yangi texnologiyalarni joriy etilishi va ishlab chiqarish operatsiyalarini yanada soddalashtirilishi natijasida faoliyat ko‘lamini yanada kengaytirishga imkoniyat yaratildi. Transport va axborot tizimlarining rivojlanishi, o‘z navbatida mazkur imkoniyatni amalga oshirishga yordam berdi.

Shuningdek, mazkur bosqichda TMKlar tomonidan ishlab chiqarish resurslari arzon bo‘lgan mamlakatlarda bo‘linmalarni tashkil etishga qaratilgan strategiya amalga oshirilishi kuchaytirildi.

XX asrning oxirida TMKlar rivojlanishining zamonaviy bosqichi yuzaga keldi. TMKlar rivojlanishining mazkur bosqichiga xos bo‘lgan xususiyat ular tomonidan ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishni global ko‘lamda amalga oshirilishida namoyon bo‘ldi.

TMKlar tomonidan xorijiy bo‘linmalarni tashkil etish strategiyasida mamlakatlardagi ishlab chiqarish xarajatlari tahlili hamda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulotlarga bo‘lgan talab darajasi muhim o‘rin tutadi.

TMKlar o‘z faoliyati davomida xalqaro ishlab chiqarish bilan jahon savdosini o‘zaro birlashtirishga erishdilar. Ular o‘zlarining xorijiy bo‘linmalari va sho‘ba korxonalari orqali dunyoning o‘nlab mamlakatlarida yagona ishlab chiqarish va moliya strategiyasi bo‘yicha faoliyat yuritishadi.

Zamonaviy jahon xo‘jaligida TMKlar rolini quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida ko‘rish mumkin:

- TMKlar jahon savdosining qariyb 2/3 qismini nazorat etadi;
- dunyo sanoat ishlab chiqarishining taxminan 1/2 qismi TMKlar hisobiga to‘g‘ri keladi;
- TMKlar bo‘linmalarida barcha ish bilan band aholining qariyb 10% faoliyat yuritadi;
- jahondagi mavjud patent, litsenziya va nou-xaularning deyarli 4/5 qismi TMKlar tomonidan nazorat qilinadi.

TMKlar faoliyati rivojlanishini rag‘batlantirishda davlat muhim rol o‘ynaydi. Bunda hukumat xalqaro shartnomalar, iqtisodiy va savdo birlashmalari, turli xildagi davlatlararo kelishuvlarni tuzish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda ta’minot bozorlari bilan ta’minlash orqali o‘z TMKlari faoliyatini rag‘batlantiradi.

15.3. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining iqtisodiyot uchun afzalliklari

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayib borishida transmilliy korporatsiyalar muhim o‘rin tutadi, ya’ni aynan transmilliy korporatsiyalar globallashuv jarayonlarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida qaraladi. Chunki, transmilliy korporatsiyalar filiallarining dunyo mamlakatlari bo‘ylab tarqalishi, mazkur mamlakatlar iqtisodiyotida ishlab chiqarishni rivojlanishiga hamda eksport hajmining oshishiga olib keladi. Eksport-import operatsiyalarining rivojlanishi esa, o‘z navbatida mamlakatlar iqtisodiyotining ochiqligini ta’minlaydi.

Transmilliy korporatsiyalarda kapitalining harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo‘layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalar yirik investitsiya va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilmtalab sohalarga kirib boradi. Ushbu sohalarni transmilliy korporatsiyalar tomonidan monopoliya qilish tendensiyasi ro‘y bermoqda.

Transmilliy korporatsiyalar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olishlar kompaniyalarning mehnat, ilmiy-texnik va moliyaviy resurslarini birlashtirish hisobiga raqobat afzalliklariga erishishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga iqtisodiy samaraga erishish, yangi bozorlarga kirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yangi aktivlardan foydalanish va boshqalarga ega bo‘lish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, transmilliy korporatsiyalar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olishlar jarayoni jahon iqtisodiyoti hamda milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bu holat o‘z navbatida transmilliy korporatsiyalarning barqaror faoliyat ko‘rsatishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Transmilliy korporatsiyalar xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Chunki, aynan transmilliy korporatsiyalarning faoliyati orqali butun dunyo bo‘ylab investitsiyalar oqimi harakat qiladi. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham keyingi yillarda dunyodagi yetakchi transmilliy korporatsiyalar tomonidan investitsiyalar jalb etilmoqda. Bunday transmilliy korporatsiyalar jumlasiga, Coca Cola, Jeneral Motors, Mitsui, Hyundai, Nestle, Samsung va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar natijasida mazkur mamlakatning jahon xo‘jaligi bilan aloqalari rivojlanib boradi. Bu holat esa, xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, transmilliy korporatsiyalar bir vaqtning o‘zida, xalqaro

investitsiya munosabatlari, eksport-import operatsiyalari, xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro lizing munosabatlari hamda xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalar rivojlanishiga o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Mazkur munosabatlarning barchasini xalqaro moliya munosabatlari o‘zida mujassam etadi.

Korporatsiyalarning milliy va jahon iqtisodiyoti uchun muhimligi ular shakllanishi va faoliyat yuritishi jarayonlarining tegishli ilmiy tahlilini talab etadi. Kapital va ishlab chiqarishning keng ko‘lamda bir joyga to‘planishi asosida yuzaga keluvchi birlashgan korporativ tuzilmalar bugungi kunda milliy va jahon iqtisodiyotining muhim subyektlari bo‘lib hisoblanadi. Biroq ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri ijobiy hamda salbiy bo‘lishi mumkin. TMKlar quyidagi afzalliklarga ega:

- o‘z tuzilmasida ta’minot, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, taqsimlash va sotish korxonalarini birlashtirgan barcha yirik kompaniyalar uchun muhim hisoblangan raqobatbardoshlikni kuchaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyati;
- aktivlarni samarali boshqarish imkoniyati;
- xorijiy mamlakatlarning resurslaridan foydalanish (qabul qiluvchi mamlakatlarning moliyaviy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, ilmiy-tadqiqot salohiyati, xomashyo resurslari hamda yuqori malakali ishchi kuchlaridan foydalanish) yo‘li bilan raqobatbardoshlikni kuchaytirish va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha imkoniyatlari;
- qabul qiluvchi mamlakatlardagi raqobatchilarning salohiyati, bozorlarning istiqboli haqidagi ma’lumotlarni olish imkoniyati hamda xorijiy bo‘linmalar mahsulotlarining iste’molchilarga yaqinligi. Shuningdek, TMKlar bo‘linmalari asosiy kompaniya va bo‘linmalarning boshqaruv va ilmiy-texnik salohiyatining yuqoriligi natijasida qabul qiluvchi mamlakatlardagi korxonalarga qaraganda muhim afzalliklarga ega bo‘ladi;
- mamlakatlar bozorlariga kirishdagi turli xildagi proteksionistik to‘siqlarni tovarlar eksportini kapital eksportiga (jumladan, xorijiy filiallarni tashkil etish) almashtirish yo‘li bilan oldini olish imkoniyati;

- xorijiy bo‘linmalarning ishlab chiqarish faoliyatiga asosiy kompaniya tomonidan yaratilgan yuqori texnologiyalar va yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning doimiy ravishda joriy etilishi;

- dunyoning turli mamlakatlariga o‘zining ishlab chiqarishlarini joylashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga keladigan risklarni kamaytirish imkoniyati.

Korporatsiyalarning yirik kapitalning afzalliklari bilan bog‘liq bo‘lgan ijobiy tomonlari iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilgan.

TMKlarning milliy iqtisodiyot uchun quyidagi ijobiy tomonlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

14. aholi va sanoat uchun keng ko‘lamda mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati;
15. milliy iqtisodiyotga yangi fan-texnika yutuqlarining kirib kelishi;
16. iqtisodiyotning turli tarmoqlarida barqaror rivojlanishni ta’minlash;
17. mamlakat mintaqalarida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash;
18. yangi ish o‘rinlarini yaratish;
19. kadrlar malakasining oshishi;
20. resurslardan samarali foydalanish tizimining vujudga kelishi;
21. milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro mehnat taqsimotiga qo‘shilishini ta’minlash;
22. investitsion faollikni oshirish;
23. yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati va boshqalar.

TMKlarning mamlakatlar iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri ular afzalliklarining davom etishi bo‘lib, asosan, ularning juda yirik o‘lchamdagi moliyaviy resurslarni to‘plashi ularga butun tarmoqlarni va alohida mintaqalarni nazorat qilish imkonini berishi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga ta’sir qilishi bilan bog‘liq. TMKlarning milliy iqtisodiyot holatiga salbiy ta’sirlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

24. milliy ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlarini cheklab qo‘yilishi;

25. investitsion va ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishida risklarning oshishi;

26. monopollashuv holatining yuzaga kelishi;

27. TMK tomonidan ichki narxlarning qo‘llanilishi tufayli byudjet daromadlarini qisqarishi;

28. milliy iqtisodiyotning birmuncha istiqbolli va rivojlangan tarmoqlarini TMKlar tomonidan egallanishi tufayli milliy korxonalar faoliyatining sustlashuvi.

Korporatsiyalar uchun faoliyatning transmilliylashuvi iqtisodiy risklarni pasaytiradi, lekin qabul qiluvchi mamlakatlar uchun bu holat aksincha bo‘ladi. Chunki, transmilliy korporatsiyalar iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarni tark etgan holda o‘z kapitalini mamlakat o‘rtasida ko‘chirishi mumkin. Tabiiy ravishda, bunday sharoitlarda transmilliy korporatsiya kapitali chiqib ketgan mamlakatdagi holat yanada yomonlashishi, ishsizlik darajasining oshishi va iqtisodiyot uchun boshqa salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, qabul qiluvchi, kapitalni xorijga chiqaruvchi mamlakatlar hamda butun jahon iqtisodiyoti uchun TMKlar faoliyatining ayrim oqibatlarini quyidagi jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin.

15.1-jadval

TMKlar faoliyatining natijalari

	Qabul qiluvchi mamlakatlar uchun	**Kapitalni xorijga chiqaruvchi mamlakatlar uchun**	**Butun jahon xo‘jaligi uchun**
Ijobiy natijalar	- qo‘shimcha resurslarni olish (kapital, yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribalari, malakali	- iqtisodiy tartiblarning birxillashuvi; - boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’sir	- globallashuvning kuchayishi; - jahon xo‘jaligida hamjihatlikning oshishi;

	mehnat); - ishlab chiqarish va bandlik darajasining oshishi; - raqobatning kuchayishi; - davlat byudjetiga qo‘shimcha daromadlarning tushishi.	etish darajasining ortishi; - daromadlarning oshishi.	- ijtimoiy jahon xo‘jaligining yaxshilanishi uchun sharoitlar yaratish.
Salbiy natijalar	- jahon xo‘jaligida mamlakatlar ixtisoslashuvini tanlashda tashqi nazoratning kuchayishi; - milliy biznesning o‘rnini boshqa turdagi sohalar egallashi; - milliy iqtisodiyot beqarorligining o‘sishi; - soliqlardan qochish holatlarining kuchayishi; - korporatsiyalar tomonidan mablag‘larni asosiy mamlakatdagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi.	- davlat nazorati rolining pasayishi; - kapitalni investitsiyalar shaklida olib chiqilishi natijasida ish joylarining qisqarishi; - soliqlardan tushadigan mablag‘larning kamayishi.	- xususiy manfaatlarga xizmat ko‘rsatuvchi iqtisodiy tizim markazlarining paydo bo‘lishi.

Raqobat kurashida o‘z o‘rnini saqlashi uchun har bir TMK doimiy ravishda nazoratidagi kapital hajmini va faoliyat ko‘lamini oshirgan holda rivojlanib boradi hamda muayyan bosqichda uning faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi, chunki, davlat manfaatlari bilan alohida tuzilmalarning manfaatlari doimo bir-biriga mos kelavermaydi. Yuzaga keluvchi muammolarni oldini olish uchun qanday sharoitlarda TMKlarning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

15.4. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari

Zamonaviy milliy iqtisodiy tizimning va jahon iqtisodiyotining muhim xususiyati bo‘lib, xo‘jalik faoliyatining turli sohalarida ishlab chiqarish va kapital to‘planishining jadallashgan o‘sishi hisoblanadi.

Zamonaviy korporatsiyalar shubhasiz, mamlakatda va jahonda yirik iqtisodiy va moliyaviy markazga aylanishi mumkin. Ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasi yangi iqtisodiy hududni tashkil topishida, milliy va jahon moliya bozorlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yirik korporatsiyalarning sotish hajmi dunyoning ko‘plab mamlakatlari YaIM hajmidan oshib ketadi. Dunyodagi ikki yuzta yirik transmilliy kompaniyalarning umumiy sotish hajmi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, XRR, Braziliya, Kanada, Ispaniyadan tashqari barcha mamlakatlarning YaIM hajmidan ortiqdir. Oxirgi 25 yilda ushbu ko‘rsatkich mazkur tuzilmalar uchun ishchilar soni 14,4 foizga oshgani holda deyarli 4 marta ko‘paygan.

Ma’lumki, TMKlar zamonaviy jahon xo‘jaligining muhim ishtirokchilariga aylanib bormoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun aynan TMKlarining xorijdagi faoliyati ularning tashqi iqtisodiy aloqalarining xarakterini belgilab beradi. Bu davlatlar eksportida milliy kompaniyalarning o‘zlarini xorijdagi filiallariga tovar yetkazib berishlari va xizmat ko‘rsatishlarining ulushi kattadir.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning sohaviy strukturasi ham turli tumandir. Hozirgi kunda 500 ta eng kuchli transmilliy korporatsiyalardan 85 tasi xorijiy mamlakatlardagi investitsiyalarning 70%i ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgandir. Ushbu 500 ta gigant korporatsiyalar hissasiga jahon bozoriga chiqarilayotgan elektronika va kimyo sanoatining 80 foiz, farmatsevtikaning 95 foiz, mashinasozlikning 76 foiz mahsulotlari to‘g‘ri keladi.

TMK jahon iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. TMK filiallari orqali amalga oshirilgan eksportning hajmi dunyo eksportining 1/3 qismini tashkil etadi va ularda 77 mln kishi ishlaydi. Ushbu ko‘rsatkich Germaniya iqtisodiyotida band bo‘lganlar sonidan ikki baravar ko‘pdir.

Jahon mamlakatlarida TMKlarning xorijiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga hamda ular faoliyat yuritayotgan mamlakatlardagi mahsulotlarga bo‘lgan ichki talab darajasini doimiy o‘rganib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. TMKlar o‘z faoliyatlarini milliy iqtisodiyotlardagi ichki talab darajasiga mos holda muvofiqlashtirib bormoqdalar. Bu holat, ularning eksport va sotish hajmining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda korporatsiyalarning transmilliylashuv jarayoni kuchayib bormoqda. Mohiyatiga ko‘ra, korporatsiyalarning xorijdagi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki transmilliylashish darajasini ifodalaydi. Korporatsiyalarining transmilliylashuvini aniqlash uchun maxsus transmilliylashuv indeksidan foydalaniladi.

Transmilliylashuv indeksi quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$\mathbf{I_T = 1/3\ (A_I /A + R_I /R + S_I /S) \times 100\ \%\ ,}$$

Bunda,

I_T — transmilliylashuv indeksi, %;

A_I — xorijiy aktivlar;

A — umumiy aktivlar;

R_I — xorijiy filiallarda mahsulot va xizmatlar sotish hajmi;

R — mahsulot va xizmatlar sotishning umumiy hajmi;

S_I — xorijdagi shtatlar (ish o‘rinlari);

S — kompaniya ishchilarining umumiy shtati.

Zamonaviy TMKlar faoliyatida quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

- aktivlarning umumiy hajmida xorijiy aktivlar ulushiga ko‘ra tasniflashda AQShning TMKlari yetakchilik qilishmoqda;
- Yaponiya TMKlarining faoliyati 1970–1980- yillarda boshqa TMKlarga nisbatan birmuncha barqaror bo‘lgan, lekin umumiy holda hozirgi vaqtda ham ular TMKlar raqobatlashuvida o‘zining mustahkam o‘rnini egallab kelishmoqda;
- hozirgi davrda Xitoy TMKlari jadal sur’atlarda o‘z faoliyatlarini kengaytirmoqda, shuningdek, TMKlar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan faol tadbirlarni amalga oshirayotgan mamlakatlar qatoriga Braziliya, Janubiy Koreya, Hindiston va Malayziyani kiritish mumkin;
- Yevropa TMKlari mashinasozlik, elektrotexnika, avtomobilsozlik, farmatsevtika sanoati kabi yirik xarajatlar talab etuvchi sohalardagi ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor berishmoqda;
- tarmoq tarkibi nuqtayi nazaridan eng yuqori transmilliylashuv indeksini kimyo va farmatsevtika sanoatidagi TMKlar, undan keyingi o‘rinlarni oziq-ovqat va elektronika sanoati egallashgan, eng past indeks esa savdo kompaniyalariga tegishlidir.

15.5. Globallashuv sharoitida TMKlar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olish (M&A) jarayonlari

Birlashish va qo‘shib olishlar (ingl. Mergers and Acquisitions, M&A) – kapital va biznesni mustahkamlashda makro va mikroiqtisodiy darajalarda bozordagi bir nechta kichik kompaniyalar o‘rnida yiriklarining yuzaga kelishi natijasida sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi.

Birlashish – bu ikki va undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birlashishi bo‘lib, natijada yangi, birlashgan iqtisodiy birlik shakllanadi.

Birlashishlarda kompaniya yuridik shaxs va soliq to‘lovchi sifatidagi o‘zining mustaqilligini tugatgan holda boshqa kompaniya bilan birlashadi. Yangi kompaniya o‘zining tarkibiy qismidagi kompaniyaning mijozlari oldidagi barcha majburiyatlarini va aktivlarini bevosita boshqarishni hamda nazorat qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Qo‘shib olish – qo‘shib olinadigan kompaniya ustav kapitalining 30 foizdan ortig‘ini egallash yo‘li bilan amalga oshiriladigan va xo‘jalik jamiyati ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida tuziladigan bitimdir, bunda jamiyatning yuridik mustaqilligi saqlab qolinadi.

Kompaniyalar birlashishi va qo‘shib olinishining asosiy turlari tasnifi. Xususiyatiga bog‘liq holda kompaniyalar integratsiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

Kompaniyalarning gorizontal birlashishi. Bu aynan bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi ikki kompaniyaning qo‘shilishi emas, buning natijasida faoliyatni rivojlantirish va raqobatlashuv bo‘yicha ustunlikka erishiladi.

Kompaniyalarning vertikal birlashish – bu bir qator kompaniyalarning birlashishi bo‘lib, bunda ulardan biri boshqalari uchun xomashyo yetkazib beradi. Natijada mahsulot tannarxi pasayishi va foydaning oshishiga erishiladi.

Kompaniyalarning parallel birlashishi – o‘zaro aloqador bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning birlashishi.

Konglomerat birlashishi – ishlab chiqarish yoki ta’minot munosabatlari bo‘yicha o‘zaro aloqador bo‘lmagan kompaniyalarning birlashish bo‘lib, bunda bir tarmoqda faoliyat yurituvchi kompaniyaning boshqa tarmoqdagi kompaniya bilan qo‘shilishi sodir bo‘ladi.

Tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra dunyoda M&A bo‘yicha har yili o‘n besh mingga yaqin bitim tuziladi. Bitimlar hajmi va qiymati bo‘yicha yetakchilikni AQSh egallagan.

Geografik ko‘lami bo‘yicha bitimlar quyidagilarga bo‘linadi:

- mahalliy;
- mintaqaviy;
- milliy;
- xalqaro;

- transmilliy (transmilliy korporatsiyalar ishtirokidagi bitimlar).

Milliy aloqadorligi bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

- ichki bitimlar (bitta mamlakat doirasida sodir bo‘ladigan);
- eksportga oid (bozorning xorijiy ishtirokchilariga nazorat huquqini berish);
- importga oid (xorijdagi kompaniyalar ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo‘lish);
- aralash (transmilliy korporatsiyalarning bitimlarida yoki bir nechta turli davlatlar aktivlari bilan kompaniyalarda ishtirok etish).

Kompaniyalarning birlashish va qo‘shib olishlar jarayonining (M&A) faollashuvi zamonaviy iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Korporatsiyalar birlashishi tufayli yuzaga keladigan salohiyatli imkoniyatlar integratsion jarayonlarning yanada jadallashuviga ta’sir ko‘rsatdi. Birlashish va qo‘shib olishlar ko‘pgina korporatsiyalar tomonidan o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga muvofiq holda ishlab chiqarish aktivlarini optimallashtirish hamda raqobatlashuv afzalliklariga erishish yo‘li sifatida qaraladi. Shuning uchun mazkur soha tadqiqotlari bo‘yicha ko‘pgina ekspertlar shug‘ullanishadi hamda ular korporatsiyalar birlashish va qo‘shib olishlarining universal loyihalarini tuzishga harakat qilishadi. Misol uchun, **Watson Wyatt** kompaniyasi korporatsiyalar birlashishining beshta bosqichini aniqlagan: vazifalarni tashkil etish, holatni baholash, tadqiq etish, muzokaralar o‘tkazish, haqiqiy birlashish. Shuningdek, ushbu sohadagi boshqa mutaxassislar birlashishning turli bosqichlarini taklif etishgan.

Transmilliy korporatsiyalar raqobatbardoshligini oshirishning maxsus instrumentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: birlashish va qo‘shib olishlar, strategik alyanslar va autsorsing.

TMKlar xalqaro birlashish va qo‘shib olishlar hamda global bozorlardagi raqobatlashuv holatini o‘zgartirish bo‘yicha transchegaraviy bitimlarni keng qo‘llaydilar.

TMKlar faoliyati tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy globallashuv sharoitlarida birlashish va qo‘shib olishlar turli mamlakatlarning mahalliy aktivlardan investitsion portfelni tezlikda shakllantirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish

jarayonining yangi bosqichini hamda xomashyoning yangi manbalarini egallash imkoniyati hisobiga korporatsiya raqobatlashuvi oshishining muhim manbasi hisoblanadi.

Dunyodagi yirik korporatsiyalar o‘rtasida birlashish va qo‘shib olishlar, shuningdek, “yomon” aktivlarni sotish va natijada raqobatchilar bilan solishtirganda birmuncha afzallikka erishgan korporatsiyalar guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday korporatsiyalarga, BP (Buyuk Britaniya, neft sohasi), Exxon Mobil, Chevron Texaco, Conoco Philips (AQSh, neft sohasi), General Electric (AQSh, konglomerat), Glaxo Smith Kline (Buyuk Britaniya, farmatsevtika sanoati), Cisco Systems, IBM, Apple (AQSh, elektronika sanoati), Nestle (Shveytsariya)larni kiritish mumkin. Innovatsion ishlanmalar yoki texnologiyalarga ega bo‘lgan boshqa kompaniyalar qo‘shilishining muhim jihati farmatsevtika TMKlarining raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Bu holatni Amerika TMK faoliyatini tahlil etish isbotlab beradi, Pfizer, Johnson & Johnson, Abbot Laboratories, Bristol-Myers-Squibb, Shveytsariya TMKlari Hoffman-La Roche va Novartis, Angliya TMKlari Glaxo Smith Kline va Astra Zeneca, Fransiyaning Sanofi-Aventis.

TMKlarning qo‘shilishi orqali yangi bozorlarni o‘zlashtirish hamda ularda samarali faoliyat yuritish, moliyaviy resurslarni jalb etgan holda o‘z faoliyatlarini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Jahon iqtisodiyotida korporatsiyaning raqobatbardoshligini oshirish uchun muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qo‘shib olishlarga misol sifatida General Electric korporatsiyasi tomonidan birlashish va qo‘shib olishlar va raqobatbardosh bo‘lmagan aktivlarni sotish bo‘yicha 25,4 mlrd. doll. qiymatdagi 228 ta bitimning amalga oshirilishi korporatsiya faoliyatining rivojlanishiga va kapitallashuv darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Transchegaraviy birlashish va qo‘shib olishlar ishtirokchi kompaniyalarning mehnat, ilmiy-texnik va moliyaviy resurslarini birlashtirish hisobiga raqobat afzalliklariga erishishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga iqtisodiy samaraga erishish, yangi bozorlarga kirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash,

yangi aktivlardan foydalanish, asosan nommodiy (nou-xau, savdo belgilari, tashkiliy bilimlar) va boshqalarga ega bo‘lish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, transmilliy korporatsiyalar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olishlar jarayoni jahon iqtisodiyoti hamda milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bu holat o‘z navbatida transmilliy korporatsiyalarning barqaror faoliyat ko‘rsatishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tayanch so‘z va iboralar

YuNKTAD, ko‘p millatli korporatsiyalar, xalqaro monopoliyalar, sho‘ba korxona, norezident korxona, global korporatsiyalar, transmilliy bank, transmilliylashuv indeksi, konglomerat birlashish, vertikal birlashish, gorizontal birlashish, parallel birlashish.

Takrorlash uchun savollar

- Xalqaro korporatsiyalarning qanday shakllarini bilasiz?
- Ko‘p millatli korporatsiyalarning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat?
- Xalqaro korporatsiyalar faoliyati orqali iqtisodiyotda qanday imkoniyatlar yaratiladi?
- Transmilliy korporatsiyalarning asosiy xususiyatli belgilarini izohlab bering?
- Transmilliy korporatsiya deganda nimani tushunasiz?
- Transmilliy korporatsiyalar uchun belgilangan asosiy mezonlarni ayting?
- TMKlarning milliy iqtisodiyot uchun ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang?
- Transmilliylashuv indeksi nima va u qanday aniqlanadi?
- Zamonaviy TMKlar faoliyatiga xos bo‘lgan tendensiyalarni ayting?
- Birlashish va qo‘shib olishlar deganda nimani tushunasiz?
- Kompaniyalar integratsiyasining qanday turlari mavjud?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

- TMKlarning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘rnini tavsiflovchi ma’lumotlarni o‘rganing.
- YuNKTADning TMKlar faoliyatiga oid hisobotlarini o‘rganing.
- TMKlarning investitsion faoliyatiga oid jahon statistika ma’lumotlarini tahlil eting.
- Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Transmilliy korporatsiyalar –

a) davlatlar o‘rtasida yuklarni tashishga ixtisoslashgan korporatsiyalar;

b) asosiy kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalgan kompaniyalardir;

d) faqatgina bitta mamlakat hududida faoliyat yurituvchi korporatsiyalar;

e) asosiy kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, xorijiy bo‘limlari turli mamlakatlarda joylashgan kompaniyalar.

2. Ko‘p millatli kompaniyalar –

a) faqatgina bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va bir mamlakat kapitaliga tegishli korporatsiyalar;

b) milliy iqtisodiyot doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi korporatsiyalar;

d) asosiy kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, xorijiy bo‘limlari turli mamlakatlarda joylashgan kompaniyalar;

e) asosiy kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalgan kompaniyalardir.

3. TMKlarga tegishli bo‘lgan asosiy mezonlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

a) xorijdagi aktivlar ulushi 25 foizdan, yillik savdo hajmi esa 1 mlrd. dollardan kam bo‘lmasligi lozim;

b) xorijdagi aktivlar ulushi 10 foizdan, yillik savdo hajmi esa 5 mlrd. dollardan kam bo‘lmasligi lozim;

d) xorijda filiallarga ega bo‘lmasligi, yillik daromadi 2 mlrd. dollardan ortiq bo‘lishi lozim

e) xorijda ko‘pi bilan uchta filialga ega bo‘lishi va xorijdagi aktivlar ulushi 15 foizidan kam bo‘lishi lozim.

4. Birlashish – bu

a) bir kompaniyaning turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi;

b) ikki va undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birlashishi bo‘lib, natijada yangi, birlashgan iqtisodiy birlik shakllanishi;

d) bir kompaniya tomonidan ikkinchi kompaniyaning aksiyalarini sotib olinishi;

e) kompaniya ustav kapitalining 30 foizdan ortig‘ini egallash yo‘li bilan amalga oshiriladigan hodisa.

5. Qo‘shib olish –

a) ikki va undan ortiq xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birlashishi bo‘lib, natijada yangi, birlashgan iqtisodiy birlik shakllanadi;

b) qo‘shib olinadigan kompaniya ustav kapitalining 30 foizdan ortig‘ini egallash yo‘li bilan amalga oshiriladigan va xo‘jalik jamiyati ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida tuziladigan bitimdir;

d) bu bir qator kompaniyalarning birlashishi bo‘lib, bunda ulardan biri boshqalari uchun xomashyo yetkazib beradi;

e) ishlab chiqarish yoki ta’minot munosabatlari bo‘yicha o‘zaro aloqador bo‘lmagan kompaniyalarning birlashishi bo‘lib, bunda bir tarmoqda faoliyat yurituvchi kompaniyaning boshqa tarmoqdagi kompaniya bilan qo‘shilishi sodir bo‘ladi.

6. Kompaniyalar integratsiyasining turlari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan:

a) gorizontal, vertikal, parallel va konglomerat birlashish;

b) gorizontal, tasodifiy, parallel va konglomerat birlashish;

d) vertikal, aralash, parallel va konglomerat birlashish;

e) gorizontal, vertikal, parallel va imtiyozli birlashish.

7. Transmilliy korporatsiyalar raqobatbardoshligini oshirishning maxsus instrumentlariga nimalarni kiritish mumkin:

a) birlashish va qo‘shib olishlar, strategik alyanslar va autsorsing;

b) birlashish va qo‘shib olishlar, strategik alyanslar, moliyaviy markazlar;

d) xorijiy filiallarni kengaytirish, aktivlar hajmini oshirish;

e) konglomerat birlashishni rivojlantirish, sotish hajmini va kapitallashuv darajasini oshirish.

8. Transmilliylashuv indeksi nimani ifodalaydi:

a) korporatsiyalarning asosiy mamlakatdagi ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini ifodalaydi;

b) transmilliy korporatsiyalar filiallari ko‘payishi darajasini ifodalaydi;

d) korporatsiyalarning xorijdagi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini ifodalaydi;

e) korporatsiyalarning kapitallashuv darajasini aniqlashda foydalaniladi.

16-BOB. XALQARO MOLIYA TIZIMIDA MOLIYA-SANOAT GURUHLARI

16.1. Moliya-sanoat guruhlari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ularning tasniflanishi

16.2. Jahonda moliya-sanoat guruhlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihatlari

16.3. Xorijiy mamlakatlarda moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari

16.1. Moliya-sanoat guruhlari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ularning tasniflanishi

Jahon amaliyotida moliya va sanoat kapitalining birlashish jarayonlarining boshlanishi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida sodir bo‘lgan. Ammo moliya-sanoat guruhlari atamasi nisbatan ilgari paydo bo‘lib, ilmiy muomalaga birinchi marta xorijiy mutaxassislar tomonidan kiritilgan.

Moliya-sanoat guruhlari mohiyati masalasini o‘rganishda uning iqtisodiy va huquqiy jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Ya’ni, moliya-sanoat guruhlarining o‘ziga xos me’yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish uchun mazkur xo‘jalik yuritish subyektlarining faoliyati bilan bevosita bog‘liq jarayonlari, tamoyillari va mohiyatini, tashkil topish sabablarini chuqur tahlil qilish zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarning chuqur tahlili moliya-sanoat guruhlari faoliyatining quyidagi muhim elementlarini aniqlash imkonini beradi:

iqtisodiyotdagi turli xil xo‘jalik subyektlarining birlashishi (yuridik shaxslar majmuasi);

moddiy va nomoddiy aktivlarning birlashishi;

investitsion loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning aniq maqsadli xarakterga ega ekanligi.

Shu asosda moliya-sanoat guruhlarini quyidagicha ta’riflash mumkin. Moliya-sanoat guruhlari bu – ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatlar samaradorligini ta’minlash maqsadida

markazlashgan boshqaruvga ega bo‘lgan va o‘z resurslarini (moddiy, nomoddiy, moliyaviy va boshqalar) to‘liq yoki qisman birlashtirgan ishlab chiqarish, savdo korxonalari va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan mustaqil yuridik shaxslarning integratsiyasi shaklidir.

Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish jarayoni mamlakatda sanoatni taraqqiy ettirishga, bozor munosabatlarini rivojlantirishga hamda jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv jarayonining kuchayishiga, shuningdek, quyidagi muhim makro va mikroiqtisodiy masalalalarni hal etishga yordam beradi:

Ichki raqobatlashuv muhitini shakllantirish va xo‘jalik aloqalarining yangi tizimini o‘rnatish asosida mamlakat iqtisodiyotida barqarorlashish jarayonlarini kuchaytirish hamda ishlab chiqarishni barqarorlashtirishga ta’sir ko‘rsatish;

Mamlakatning jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashiga va yuqori raqobatbardoshlik darajasiga erishishini ta’minlash;

Narxlar barqarorligini kuchaytirish, shu jumladan, moliya-sanoat guruhlariga tegishli bank asosida ularni umumiy moliyaviy bazasini tuzish, texnologik aloqador korxonalarning o‘zaro hisob-kitoblari yordami bilan noto‘lovlar darajasini kamaytirish, xarajatlar qiymati oshishi jarayonini barqarorlashtirish;

Korxonalar o‘rtasida o‘zaro aksiyadorlik munosabatlarining rivojlanishi;

Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi hamda boshqalar.

Moliya-sanoat guruhlarini ma’lum belgilarga ko‘ra tasniflash zamonaviy tashkiliy tuzilmalar moliya-sanoat guruhlari funksiyalarini ta’minlash zaruratiga javob berishini, iqtisodiy rivojlanishni kuchaytiruvchi rolini o‘ynashini tahlil qilishga imkon beradi.

Faoliyatning turli xil tomonlari va jihatlaridan kelib chiqib moliya-sanoat guruhlarini bir nechta yo‘nalish bo‘yicha tasniflash mumkin. Bunda tasnifiy belgilar sifatida kapitalning shakllanishi, ishlab chiqarish aloqalarining xususiyati, guruh tashabbuskorining roli, faoliyatning asosiy yo‘nalishi va ko‘lami kabilar e’tiborga olinadi.

Hududiy belgisiga ko‘ra moliya-sanoat guruhlari quyidagicha

tasniflanadi:

1. Hududiy guruhlar ma’lum bir hudud doirasida faoliyat yuritadi. Hududiy guruhlar asosan, hududiy belgisiga ko‘ra qo‘shni korxonalarning kelishuvi natijasida tuziladi. Bunday moliya-sanoat guruhlari iqtisodiy va texnologik munosabatlari o‘zaro aloqador bo‘lmagan korxonalarni hamda texnologik zanjiri o‘zaro bog‘langan korxonalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Hududiy moliya-sanoat guruhlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mahalliy ma’muriyat quyidagi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradi:

mol-mulk solig‘idan to‘liq yoki qisman ozod etish;

mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkdan vaqtinchalik bepul foydalanish yoki imtiyozli ijaraga berish;

guruhning asosiy faoliyati bilan texnologik aloqador bo‘lgan, lekin uning tarkibiga kirmaydigan korxonalarning aksiya paketlarini boshqarishga vakolat berish.

Globallashuv sharoitida hududlar moliyaviy salohiyatini oshirishda hududiy jihatdan integratsiyalashgan tuzilmalarni, jumladan moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Hududiy moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish, bir tomondan, markaz bilan munosabatlarda hududlarning o‘rnini mustahkamlash usuli sifatida qaralsa, boshqa tomondan, hududiy iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yechishga yordam beruvchi vosita deb qaraladi. Mahalliy ma’muriyatlar moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish yordamida, ekologik muammolarni hal etish va aholi bandligini saqlash kabi ustuvor masalalarni hisobga olgan holda o‘zaro texnologik bog‘liq korxonalarni tuzilmaviy jihatidan qayta qurishni ta’minlovchi yirik dasturlarni amalga oshiradilar[54].

2. Hududlararo moliya-sanoat guruhlariga guruhlarning ikkita toifasi tegishli:

– ishlab chiqarish kooperatsiyasi orqali o‘zaro aloqador bo‘lgan turli hududlardagi korxonalarning birga faoliyat ko‘rsatishi doirasidagi

[54] Enright, M.J., and Ffowcs-Williams, I. Local partnership, clusters and SME globalization. OECD Workshop paper. 2001. p. 13-14.

guruhlar;

– iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat tomonidan belgilangan ustuvor yo‘nalishlariga javob beruvchi, faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha ma’lum iqtisodiy hududlarning mahalliy ma’muriyati bilan kelishilgan, uzoq muddatli investitsion dasturlarni amalga oshirish uchun korxona va tashkilotlar faoliyatini birlashtirish maqsadida ishtirokchilarning tashabbuskorligiga ko‘ra tashkil etilgan guruhlar.

Jahon amaliyotida ko‘pchilik hududlararo moliya-sanoat guruhlari hududiy bir-biriga o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lgan bir nechta sanoat tarmoqlari bo‘yicha investitsion resurslarni taqsimlashning strategik rejasiga asosan tashkil etilgan.

Hududlararo moliya-sanoat guruhlari tarkibiga odatda, sanoat korxonalari uchun zarur mablag‘larni jalb etishga qodir bo‘lgan yirik tijorat banki kiradi.

3. Hozirgi kunda trasmilliy moliya-sanoat guruhlari keng tarqalmagan. Transmilliy moliya-sanoat guruhlari alohida huquqiy maqomga ega bo‘lib bir qator mamlakatlar o‘rtasida hukumatlararo bitimni ishlab chiqish va imzolash orqali tashkil etiladi.

Tashabbuskorning tashkil topishiga ko‘ra moliya-sanoat guruhlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Banklar ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlari ko‘pchilik hollarda, pul mablag‘larini ishonchli va yetarlicha foydali joyga sarflashdan, ularning diversifikatsiyasi va buning natijasida sanoatga e’tibor qaratishdan manfaatdor banklar tashabbusiga ko‘ra tashkil etiladi. Chunki bozorning o‘zgaruvchan konyunkturasi sharoitida kapital qo‘yilmalar diversifikatsiyasi natijasida banklarning ishonchliligi ortadi. Bunday banklar bir qadar yirik bo‘lib, sanoat korxonalarini boshqarishga qodir va anchagina erkin kapitalga ega bo‘ladilar. Moliya-sanoat guruhlarining bunday turi, unga kiruvchi ishlab chiqarish korxonalarining turli-tumanligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Banklar ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlarining markazi bo‘lib moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. Odatda bu, yirik tijorat banki boshchiligidagi bank xolding birlashmasidan iborat bo‘ladi. Ular aniq bir maqsadni ko‘zda tutgan holda guruh markazida turadi hamda sanoat,

savdo, transport korxonalarining aksiyalarini to‘playdilar. Bunday moliya-sanoat guruhlarini rivojlantirish strategiyasi va joriy menejmentini ishlab chiqish bank tomonidan amalga oshiriladi.

2. Sanoat moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning asosiy maqsadi bo‘lib, ishlab chiqarish dasturlariga investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirishga qulay sharoitlar yaratish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va muayyan mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik jarayonida umumiy maqsadlarga ega bo‘lish, ilmiy-tekshirish tashkilotlari va guruh korxonalarining ishlab chiqarish-texnik rivojlanishini ta’minlash zarurati hisoblanadi. Sanoat moliya-sanoat guruhlari ichida bitta qudratli sanoat korxonasi atrofida uning ustun vaziyatini saqlash uchun tashkil etilgan guruhlar ham uchrashi mumkin.

Bunday moliya-sanoat guruhlari gorizontal yoki vertikal birlashgan (integratsiyalashgan), lekin, kuchli diversifikatsiyalashmagan. Bu moliya-sanoat guruhlarining strategik yo‘nalishlari ustunlik qiluvchi kompaniya tomonidan aniq belgilanadi. Bunda barcha guruhlarni boshqaruvini amalga oshiruvchi kompaniya tashkil etiladi. Mazkur moliya-sanoat guruhlarida moliyaviy tashkilotlar unchalik muhim rol o‘ynamagan holda bosh kompaniya tomonidan tashkil etilgan banklar sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Savdo-tijorat guruhlari, ko‘pgina mahsulot ishlab chiqaruvchilar nafaqat ishlab chiqarish, balki taqsimlash davrida ham nazorat orqali bozorga samarali ta’sir ko‘rsatishga imkon beradigan yetarlicha yirik va ixtisoslashgan savdo korxonalari bilan kooperatsiya o‘rnatish zaruriyatini anglab yetishi natijasida vujudga kelgan.

Ishlab chiqarish aloqalari xususiyatiga va texnologik belgisiga ko‘ra vertikal va gorizontal integratsiyalashgan moliya-sanoat guruhlari keng tarqalgan.

Vertikal moliya-sanoat guruhlari – bu qazib olishdan boshlab xom-ashyoni qayta ishlashdan tortib ishlab chiqarishgacha va tayyor mahsulotni sotish, uni shaxsiy ta’minot va transport tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkazib berishgacha bo‘lgan yagona texnologik davrda birlashgan va mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga

oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashishidir[55]. Vertikal birlashgan guruhlarni tuzishning maqsadi bo‘lib, bitta markazdan ishlab chiqarish-taqsimlash davrini nazorat qilish orqali bozorga samarali ta’sir ko‘rsatishga intilish hisoblanadi.

Moliya-sanoat guruhining ishtirokchilari mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha uzoq muddatli ishlab chiqarish aloqalariga ega bo‘ladilar. Guruhning negizini yirik ishlab chiqarish-texnologik majmualari tashkil etadi.

Bu guruhlar turli xildagi sanoat tarmoqlaridagi korxonalarni, savdo, transport va moliyaviy tashkilotlarni ifodalovchi birlashmalardir. Bu guruhlarda ishlab chiqarish bir nechta bosqichlarda sodir bo‘ladi. Markaziy kompaniya faqatgina qonun talabini bajarish maqsadida tuzilgan. Agarda oligarxiya kompaniyalaridan birortasi ustunlik qiluvchi sifatida shakllansa, unda markaziy kompaniya guruhlarning ustunlik qiluvchi kompaniyalarini nazorat qiluvchi xolding kompaniyasi bo‘lishi mumkin.

Moliya-sanoat guruhlarining ushbu tashkiliy tuzilmasi eksportga yo‘naltirilganligi hamda unga kiruvchi bankning xizmat ko‘rsatish darajasining yuqoriligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bunday banklar o‘zining moliya-sanoat guruhlariga to‘liq qarashli bo‘lgan holda ko‘p miqdordagi mijozlarni jalb etib boshqa banklar orasida yetarlicha ahamiyatli o‘rin egallaydi.

2. Gorizontal moliya-sanoat guruhlari – bu guruhlar bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi.

Gorizontal moliya-sanoat guruhlarining tashkiliy tuzilmasi o‘zida ishtirokchilarni birlashishining uyushma shaklini ifodalaydi. Uning asosiga korxonalar o‘rtasida narx siyosatini hal etish, ishlab chiqarish va mahsulotlar ta’minotida bozorni ajratish, yagona umumguruhlar strategiyasini, shuningdek, sanoat va moliya siyosatini ishlab chiqish, korxonalarning eksport salohiyatini oshirish, ularning texnik qayta qurollanishini jadallashtirish, raqobatbardosh va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishini hamda ular faoliyatining samaradorligini

[55]http://smallbusiness.chron.com

oshirishni muvofiqlashtirish qo‘yilgan.

3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida yuqori diversifikatsiyalashgan moliya-sanoat guruhlari ya’ni konglomeratlar faoliyati barqaror rivojlanib bormoqda. Xususan, faoliyati bo‘yicha rivojlangan yirik konglomeratlar qatoriga Mitsubishi UFJ, Hyundai Group, Siemens AG, Thyssen Krupp AG kabilarni kiritish mumkin. Mohiyatiga ko‘ra, yuqori diversifikatsiyalashgan moliya-sanoat guruhlari tarkibiga bir nechta bevosita o‘zaro aloqador bo‘lmagan ishlab chiqarishlarni olgan guruhlarni o‘zida ifodalaydi. Odatda bunday guruhlar hududlararo miqyosda tashkil etiladi. Ko‘pincha ular mudofaa sanoati, qishloq xo‘jaligi va qurilish kabi tarmoqlarga ixtisoslashtirilgan bo‘ladi.

Moliya va sanoat muassasalarini hamkorligi sifatida moliya-sanoat guruhlaridan foydalanish quyidagilarni amalga oshirishga yordam beradi:

sanoat bilan uzilgan aloqalarni tiklash va chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish;

innovatsion faoliyatni olib borish va chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirishga yordam beruvchi yangi ilmiy ishlanmalarni joriy qilish;

ichki narxlar mexanizmidan foydalanish va shu bilan bir necha marotaba soliqqa tortilishga yo‘l qo‘ymaslik;

xorijiy investitsiyalar va yirik kreditlarni olish imkonini beruvchi yig‘ma (jamlama) balansga ega bo‘lish.

Moliya-sanoat guruhlarining shakllantirilishi va faoliyat yuritishi orqali, birinchidan, bank kapitalini sanoatga yo‘naltirish muammosi hal etiladi; ikkinchidan, butun bank tizimiga bo‘lgan ishonch ortadi va uning tuzilmasi takomillashadi; uchinchidan, moliya-sanoat guruhlari o‘rtasida yangi yirik tashkilotlarni jalb etish uchun, banklar o‘rtasida esa guruhning eng foydali ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha raqobatlashuv jarayoni kuchayadi.

16.2. Jahonda moliya-sanoat guruhlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihatlari

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va uning barqarorligini ta’minlashda integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarning bir turi bo‘lgan moliya-sanoat guruhlarining tashkil etilishi muhim o‘rin tutmoqda. Shunday ekan, mazkur tuzilmalarni shakllantirish va ular faoliyatini rivojlantirish amaliyotini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, XX asrning 90- yillariga kelib, aksariyat mamlakatlarda yirik moliya-sanoat guruhlari shakllantirildi. Hozirgi kunda ular o‘zida turli sohalar sanoat korxonalarini, jumladan, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, energetika va boshqalarni birlashtirgan tarzda murakkab tuzilmalar shaklida faoliyat yuritadi. Moliya-sanoat guruhlari o‘zida yirik miqdordagi kapitalni to‘plagan holda, yanada diversifikatsi-yalashga imkon beruvchi istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarida faoliyat yuritadi. Ta’kidlash joizki, moliya-sanoat guruhlari ishtirokchilarning haqiqiy imkoniyatlari va manfaatlarning umumiyligi asosida tashkil etilishi kerak.

Zamonaviy moliya-sanoat tuzilmalari shubhasiz, mamlakatda va jahonda yirik iqtisodiy va moliyaviy markazga aylanishi mumkin. Ularning milliy va jahon iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasi yangi iqtisodiy hududni tashkil topishida, milliy va jahon moliya bozorlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Yirik moliya-sanoat guruhlarining savdo aylanmasi dunyoning ko‘plab mamlakatlari YaIM hajmidan oshib ketadi. Hozirgi kunda jahonda 60 mingga yaqin transmilliy korporatsiya faoliyat yuritmoqda va ularning 500 mingga yaqin filiallari butun dunyo bo‘ylab tarqalgandir. Yevropa komissiyasining ma’lumotlariga ko‘ra xalqaro savdoning qariyb yarmi yirik korporatsiyalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Dunyodagi yirik transmilliy kompaniyalarning umumiy savdo aylanmasi AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, XXR, Braziliya, Kanada, Ispaniyadan tashqari barcha mamlakatlarning YaIM hajmidan ortiqdir.

Moliya-sanoat guruhlari yetakchi tarmoqlar doirasida ishlab chiqarish resurslarining yirik miqdorini to‘plashga, ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy hamda texnologik sharoitlarini o‘zgartirishga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sanoatning yuqori o‘sish sur’atlariga erishgan ko‘pgina mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Janubiy Koreya va boshqalar) moliya-sanoat guruhlari milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va butun iqtisodiyotda jadallashtirilgan iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan muhim omil sifatida qaraladi.

Moliya-sanoat guruhlarining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun muhimligi ular shakllanishi va faoliyat yuritishi jarayonlarining tegishli ilmiy tahlilini talab etadi. Kapital va ishlab chiqarishning keng ko‘lamda bir joyga to‘planishi asosida yuzaga keluvchi birlashgan korporativ tuzilmalar bugungi kunda milliy va jahon iqtisodiyotining muhim subyektlari bo‘lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining quyidagi modellari keng tarqalgan, ya’ni: anglo-amerika, germaniya, lotin va yapon. Ushbu modellar asosida moliya-sanoat guruhlarini shakllanishi va faoliyat yuritishi muayyan xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Anglo-amerika modeli Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya va Kanada mamlakatlarida amal qiladi. Ushbu mamlakatlarda sanoatlashtirishning negizi bo‘lib tadbirkorlik asosida kapital to‘plash mexanizmi hisoblanadi. Kapital institutsional aksiyadorlarning (banklar, sug‘urta kompaniyalari va pensiya fondlari) mablag‘lari hisobidan shakllanib alohida va mustaqil aksiyadorlar mexanizmi orqali faoliyat yuritadi.

Germaniya modeli Germaniya va Avstriyada amal qilib, ularning yirik hamda o‘rtacha korporatsiyalarining moliyaviy asosini bank tizimi tashkil qiladi, bunda alohida aksiyadorlarning roli unchalik ahamiyatli emas. Germaniya modelining bank mexanizmi korporativ munosabatlar tuzilmasida moliya va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi uzoq muddatli investitsiya munosabatlariga yo‘naltirilgan. Ushbu modelda banklar tashqi moliyalash manbalariga ehtiyoj sezayotgan kompaniyalar uchun qarz kapitalini yetkazib beruvchi hisoblanadilar.

Lotin modeli esa, Fransiya, Belgiya va Italiya mamlakatlarida amal qiladi. Bu modelda yakka tartibdagi va oilaviy korporatsiyalar investitsiya kompaniyalari va investitsiya banklarining xoldinglari tomonidan birlashtirilishi natijasida erkin korporativ tarmoqlar shaklida yuzaga kelgan. Kapitalning qarama-qarshi munosabatlari iqtisodiy aloqalarning murakkab tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Ushbu tarmoqlarda davlat korxonalarining roli tobora oshib bormoqda.

Yapon modeli esa, investitsiyalarni sanoatga uzoq muddatga yo‘naltirilganligi, moliya va sanoat tarmoqlari o‘rtasida yaqin aloqalarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Mazkur modelning o‘ziga xos xususiyati guruhlashish tendensiyasidir. Xo‘jalik birliklari korporativ guruhlarni tashkil etgan holda aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish mexanizmi orqali bir-biri bilan yaqin aloqa o‘rnatgan. Har bir guruhning kapitalni to‘plash mexanizmi guruh banki yordamida amalga oshiriladi[56].

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishda ikkita usul qo‘llaniladi: bo‘linish (ajralib chiqqan korxonalarning aksiyalar nazorat paketlarini markaziy kompaniyada saqlagan holda) yoki qo‘shilish.

Xalqaro tajribalardan ma’lumki, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish bir nechta yo‘llar orqali:

ishtirokchilarning tashabbusiga ko‘ra;

davlat organlarining qarorlari bo‘yicha;

hukumatlararo bitimlarga ko‘ra amalga oshiriladi.

Barcha iqtisodiy-huquqiy vakolatlar hamda tegishli yuridik va xo‘jalik majburiyatlari bilan yangidan tashkil etilgan tashkiliy tuzilmani o‘zida ifodalovchi aksionerlik jamiyatini tuzish va alohida ishtirokchilarning kapitallarini ixtiyoriy birlashtirish birmuncha keng tarqalgan usul hisoblanadi. Ikkinchi usul bo‘lib, tashkil etilayotgan moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari o‘zlarining aksiya paketlarini guruh ishtirokchilaridan biriga, odatda, bank yoki moliya-kredit institutiga ixtiyoriy ravishda boshqarishga berishi hisoblanadi. Uchinchi usul esa,

[56] Zhao Xumei, Xia Zhanyou. The Financial System of Japanese Enterprise Group. Beijing: University of International Business and Economics Press, vol. 37 , No. 4, 2006. pp. 557-580.

guruh ishtirokchilaridan biri boshqa korxona va tashkilotlarning aksiya paketlarini egallashidan iborat bo‘lib, natijada moliya-sanoat guruhi ishtirokchilari shakllanadi. Aksiya paketlarini bunday egallanishi har doim ham ixtiyoriylik xususiyatiga ega bo‘lmaydi hamda bitta kompaniyani boshqasiga qo‘shilishi jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Moliya-sanoat guruhlarining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish bunday tuzilmalar bosib o‘tadigan bir nechta bosqichlarni ajratishga imkon beradi. Bosqichlarga ajratish jarayoni moliya-kredit tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanishi tahliliga asoslanadi hamda har bir bosqich murakkablashgan korporativ munosabatlarning ma’lum darajasini ifodalaydi.

Odatda ushbu bosqichlar korporatsiyalarning alohida turlari sifatida qabul qilinadi. Biroq, ularni ketma-ket rivojlanish jarayonining bosqichlari sifatida qarash korporativ tuzilmalarning iqtisodiyotdagi rolini aniqlash va moliya-sanoat guruhlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishga nisbatan yondashuvlarni asoslashga imkon beradi.

Fikrimizcha, tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan tahlil moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining beshta asosiy bosqichlarini ajratishga imkon beradi:

I bosqich savdo-sanoatga asoslangan moliya-sanoat guruhlarini bank ishtirokisiz shakllantirishdir;

II bosqich moliya-sanoat guruhlarini mustaqil bank ishtiroki bilan shakllantirishdir;

III bosqich moliya-sanoat guruhlarini ichki bank bilan shakllantirishni qamrab oladi;

IV bosqich moliya-sanoat guruhlarini boshqaruvchi bank bilan tashkil etish hisoblanadi;

V bosqich moliya-sanoat guruhlarini rivojlangan moliya guruhi bilan shakllantirishdir.

Birinchi bosqichdan ikkinchisiga va keyin uchinchi bosqichga o‘tish kapitalning ixtisoslashuvi hamda jamlanishi natijasida kelib

chiqadi. Moliya-sanoat guruhlari tarkibiga moliya kompaniyasini kiritish (uchinchi va keyingi bosqichlarda) nazoratni ta’minlashning zaruriyati va faoliyatning ixtisoslashuvi hamda faoliyat ko‘lamining o‘sishi bilan bog‘liq. Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining birinchi bosqichida uning tarkibiga faqat sanoat va savdo korxonalari kiradi, moliyaviy tuzilmalar mavjud bo‘lmaydi.

Korporativ tuzilma yirik hajmdagi faoliyatni amalga oshiruvchi sanoat korxonasining asosiy xususiyatlarini saqlab qoladi. Bunday tuzilmalar bir nechta ishlab chiqarish korxonalarining birlashishi tufayli yoki bitta yirik korxonaning bo‘linishi oqibatida yoxud korxonaning rivojlanishi jarayonida yangi tuzilmalarni tashkil etilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Rivojlanishning ushbu bosqichida korporativ tuzilmaning moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lmaydi, faqatgina moliyaviy vositachilar tomonidan ko‘rsatiladigan eng asosiy xizmat turlari talab etiladi.

Korporativ tuzilmalar rivojlanishining ikkinchi bosqichida u yagona xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida tuzilmaning moliyaviy xizmatlarga doir o‘sib borayotgan ehtiyojlarini ta’minlashga qodir bitta bank bilan yaqin hamkorlik qiladi, lekin bu bank korporativ tuzilma tarkibiga rasmiy jihatdan kiritilmaydi.

Uchinchi bosqichda bank korporativ tuzilma tarkibiga kiradi. Korporativ tuzilma ko‘p miqdordagi turli xil moliyaviy xizmatlarni talab etadi. Shuning uchun, ulardan dastlab tashqi moliyaviy vositachilar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarining bir qismi korporativ tuzilma ichiga o‘tkaziladi.

To‘rtinchi bosqichda bank korporativ tuzilmaning oddiy bir qismi bo‘lish bilan cheklanmaydi. U sanoat korxonasini sotib oladi yoki korxona mulkdorlari sanoat ishlab chiqarishini boshqarish sohasidan moliyani boshqarish sohasiga, korporativ tuzilmaning boshqaruv markaziga qo‘shilishadi, chunki korporatsiya moliyasini bank orqali boshqarish samaraliroq hisoblanadi. Ushbu bosqichda bank korporativ tuzilmaning sho‘basidan bosh kompaniyasiga aylanadi hamda moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha masalalarni o‘zi hal qila boshlaydi.

Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining beshinchi bosqichi korporatsiyalar ichida moliya guruhini shakllantirish bilan tavsiflanadi. Moliya guruhining tarkibiga banklardan tashqari boshqa moliya-kredit tashkilotlari, jumladan, sug‘urta va investitsiya kompaniyalari, pensiya va investitsiya fondlari kirishi mumkin. Korporativ tuzilmaning barcha moliyaviy ehtiyojlari tuzilma tarkibiga kiruvchi moliyaviy tashkilotlardan foydalanish orqali ta’minlanadi. Odatda, moliya guruhining shakllanishi qo‘shilish va birlashish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Korporativ tuzilmalarning rivojlanishi jarayonida moliyaviy kompaniyaning roli o‘zgarib boradi. Birinchi navbatda, ushbu o‘zgarishlar bankning roliga tegishlidir. Korporativ tuzilma rivojlanishining turli bosqichlarida bankning roli o‘zgarib boradi (16.1-jadval).

Moliyaviy resurslarni to‘plash va ulardan samarali foydalanish imkoniyati korporativ tuzilma tarkibiga moliya-kredit tashkilotlarining kiritilishi bilan keskin oshadi. Bunday korporatsiyalar nafaqat o‘zining moliyaviy resurslaridan foydalanish, balki tashqi moliyaviy muhitdan qo‘shimcha resurslarni jalb etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

16.1-jadval

Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining turli bosqichlarida bankning roli

Rivojlanish bosqichlari	Bankning funksiyalari
1. Bank ishtirokisiz savdo-sanoat korporativ tuzilmasi	Banklar korporatsiyaga moliyaviy xizmatlarning asosiy turlarinigina ko‘rsatishadi. Keng ko‘lamdagi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish uchun esa turli banklar jalb etiladi
2. Mustaqil bank ishtirokidagi korporativ tuzilma	Asosiy funksiyalarni bajarishdan tashqari korporatsiyaning moliyaviy xizmatlarga doir turli xil ehtiyojlarini ta’minlaydigan bitta bank bilan yaqin hamkorlik qiladi. Moliyaviy funksiyalarning bir qismi sho‘ba kompaniyalaridan foydalanish

	orqali markaziy kompaniya tomonidan amalga oshiriladi
3. Ichki bankka ega bo‘lgan korporativ tuzilma	Bank korporatsiyaning moliyaviy xizmatlarga doir turli xil ehtiyojlarini ta’minlaydi va moliyasining joriy boshqaruvini amalga oshiradi
4. Boshqaruv bankiga ega bo‘lgan korporativ tuzilma	Bank korporativ tuzilmaning markaziy kompaniyasiga aylanadi va moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni o‘z zimmasiga oladi. Moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadida bank korporativ tuzilma tarkibini takomillashtiradi. Korporatsiyaning boshqaruv markazi sanoat ishlab chiqarishni boshqarish sohasidan moliyani boshqarish sohasiga o‘zgaradi
5. Rivojlangan moliya guruhiga ega bo‘lgan korporativ tuzilma	Korporatsiyada bir nechta banklardan iborat bo‘lgan bank guruhi shakllantiriladi. Korporatsiya tarkibiga banklardan tashqari barcha asosiy moliyaviy funksiyalarni mustaqil ta’minlashda korporativ tuzilmaga imkon yaratadigan boshqa moliyaviy tashkilotlar ham kiritiladi

Moliya bozorlaridan va boshqa manbalardan jalb etilgan hamda moliyaviy tashkilotlarda to‘plangan mablag‘lardan nafaqat mavjud korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirishda investitsiyalash uchun balki tuzilmaviy rivojlanish maqsadlarida ham foydalaniladi.

Tarkibida moliyaviy tashkilotlarga ega bo‘lgan korporativ tuzilmalar ular faoliyatining barqaror rivojlanishiga imkon yaratuvchi ko‘plab afzalliklarga egadir. Jumladan, moliyaviy kompaniyalar o‘zlari xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning rivojlanish istiqbollari va moliyaviy

holati to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlarga, shuningdek, kreditlash yordamida ularning moliyaviy barqarorligiga ta’sir etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Korporativ tuzilma tarkibida tashkil etilgan bank moliyaviy tizimning boshqa bo‘g‘inlari xususan, sug‘urta kompaniyalari, pensiya va investitsiya fondlari bilan birgalikda moliyaviy resurslarni jalb etish va to‘plash hamda moliya-sanoat guruhining istiqboldagi tuzilmaviy rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Ichki moliyaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan korporativ tuzilmalarning qo‘shimcha imkoniyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: turli manbalardan olingan muddati turlicha bo‘lgan zaruriy moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati; odatdagi jalb qilish usullari va manbalari bilan solishtirganda moliyaviy resurslarni jalb etishning qulay shart-sharoitlari; resurslarni foydali joylashtirishning turli xil variantlaridan foydalanish; moliya bozorining bitta sektoridagi ehtimoliy risklarni boshqasidagi foyda hisobiga qoplash va boshqalar.

Jahonda vertikal birlashgan ishlab chiqarishga asoslangan moliya-sanoat guruhlari mavjud bo‘lib, ular bosh korxona atrofiga birlashgan va texnologik zanjir bo‘yicha qurilgan ikki tur birlashmalardan iboratdir.

Bitta, yetarlicha yirik bosh (markaziy) sanoat korxonasi atrofida tashkil topgan ishlab chiqarishga asoslangan guruhlar ko‘pincha tor soha yo‘nalishida faoliyat olib boradilar. Bosh korxona barcha guruh a’zolarining strategiyasini va xo‘jalik siyosatini belgilab beradi. Bunday ishlab chiqarishga asoslangan moliya-sanoat guruhlarini tashkil qilishdan asosiy maqsad birlashma qatnashchilari orasidagi avvaldan mavjud aloqalarni mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlashdir.

Texnologik zanjir bo‘yicha birlashgan vertikal integratsiyalashgan ishlab chiqarishga asoslangan moliya-sanoat guruhlari qatnashchilari xomashyoni qazib olish va qayta ishlashdan tortib mahsulotni ishlab chiqarish va sotishgacha bo‘lgan yagona texnologik davr bilan bog‘langanlar. Bunday moliya-sanoat guruhi o‘zagini ishlab chiqarish-texnologik majmualari tashkil etadi.

Gorizontal integratsiyalashgan ishlab chiqarishga asoslangan moliya-sanoat guruhlari bir va ko‘p ixtisosli turlarga bo‘linadi. Ba’zi bir

ixtisosli ishlab chiqarishga asoslangan moliya-sanoat guruhlari korxonalar orasidagi baholar, ishlab chiqarish hajmi va sotish bozorini bo‘lib olish haqidagi kelishuvga asoslangan “kartel” turidagi birlashmalarga o‘xshab ketadilar.

Moliya va sanoat kapitalining o‘zaro birlashishi tufayli jahon iqtisodiyotida sanoat-moliya konglomeratlari ko‘rinishidagi birlashmalar ham yuzaga kelgan.

Konglomerat turidagi sanoatga ixtisoslashgan moliya-sanoat guruhlari yetarlicha keng faoliyat yo‘nalishlariga ega bo‘lgan qatnashchilardan tarkib topadi. Moliya-sanoat konglomeratlari o‘z ichiga moliyaviy tashkilotlarni qamrab olgan holda yuqori diversifikatsiyalashgan holatda faoliyat yuritadi. Biroq, ular iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan va ishlab chiqarishning turli bosqichlarida bo‘lgan o‘zaro texnologik bog‘lanmagan korxonalarning birlashmasidir.

Jahon mamlakatlarida moliya-sanoat guruhlarining keng tarqalgan shakllaridan biri banklar tashabbuskorligi va yetakchiligida tashkil etilgan moliya-sanoat guruhlaridir.

Banklar yetakchiligidagi moliya-sanoat guruhlari odatda pul mablag‘larini ishonchli va yetarlicha foydali joyga sarflashdan manfaatdor bo‘lgan moliya institutlari tomonidan tashkil qilinadi. Chunki, bozorning o‘zgaruvchan konyunkturasi sharoitida kapital qo‘yish diversifikatsiyasi natijasida moliya-kredit muassasalarining ishonchliligi ortadi.

Banklar yetakchiligidagi moliya-sanoat guruhlari markazida moliya-kredit tashkilotlari, aksariyat hollarda yirik tijorat banki boshchiligidagi bank xoldingi birlashmasi turadi. Odatda, ular tarkibiga investitsion kompaniyalar, sanoat korxonalari, savdo kompaniyalari, trast va moliya kompaniyalari, reklama va konsalting, sug‘urta firmalari kiradi. Moliya kompaniyalari savdo, sanoat, transport korxonalari aksiyalarini maqsadga muvofiq birlashtirib guruh negiziga aylanadilar.

Banklar yetakchiligidagi moliya-sanoat guruhlarining markaziy kompaniyasi o‘zi nazorat qiluvchi korxonalarning aksiyalarini to‘plab oluvchi xolding bo‘lib hisoblanmaydi, balki korxonalarni boshqarish

bo‘yicha o‘z funksiyalarini nazorat paketi egalari, ya’ni banklar nomidan amalga oshiradi.

Gorizontal banklar ishtirokidagi moliya-sanoat guruhlari tashkil qilishning bosh maqsadi sifatida, avvalambor, bir muayyan tarmoq korxonalari orasidagi hamkorlikni qayta tiklash va buning natijasi sifatida ichki va jahon bozorida ma’lum bir turdagi mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha raqobatbardoshlikni oshirish ko‘zda tutiladi. Moliyaviy institut zimmasiga faqat birlashma qatnashchilariga xizmat ko‘rsatish ishlari yuklatilmasdan, balki ularning investitsion loyiha va dasturlarini moliyalashga yirik pul oqimlarini jalb qilish bo‘yicha ishlar ham yuklatiladi. Bunday moliya-sanoat guruhlariga misol qilib Yaponiya gorizontal keyretsularini keltirish mumkin. Ushbu guruhlar ishtirokchilari yuridik va iqtisodiy jihatdan mustaqillikka ega bo‘ladi.

16.3. Xorijiy mamlakatlarda moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari

AQShda sanoat korporatsiyalarining rivojlanishi aksiyalarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlanishiga va qo‘shimcha kapital jalb etishni osonlashtirishga qulay zamin yaratdi. Sanoat korxonalari asosan aksiyalarning yangi emissiyasi hisobiga kapitallarini ko‘paytirdilar. Shuning uchun, ularning asosiy kapitalini ko‘paytirish usuli sifatidagi uzoq muddatli kreditlashga zaruriyat amalda yo‘qoldi. Banklarning funksiyalari faqat mablag‘larni to‘plashga, qisqa muddatli kredit berishga, korxonalarni boshqarishda bevosita ishtirok etmagan holda, tashqi bozorda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda AQShda moliya-sanoat guruhlarining asosiy ikkita turi keng tarqalgan. Birinchi holatda birlashtiruvchi negiz sifatida bank xoldingi namoyon bo‘ladi, ikkinchisida esa, ishlab chiqarish-texnologik majmua bu vazifani bajaradi.

AQShdagi dunyoga mashhur “Chase”, “Morgan”, “Mellon”, “Goldman Sachs Group” va boshqa shu kabi guruhlarning asosini yirik moliyaviy institutlar tashkil etadi. Ko‘pincha ushbu guruhlar bir xildagi

tashkiliy tuzilmaga, tashkil etilish va rivojlanishning o‘xshash tarixiga ega.

Moliya-sanoat guruhlarining bunday turini batafsil ravishda “Chase” guruhi misolida ko‘rish mumkin. “Chase” guruhi gorizontal integratsiyalashgan tuzilma bo‘lib guruhining moliyaviy tuzilmasi o‘z ichiga “Chase Manhattan Bank” [57] bankini va hayot sug‘urtasi bo‘yicha ikkita kompaniyani (“Metropolitan Life Insurance” va “Equitable Life Insurance”) oladi. Bu guruh o‘z ichiga transport kompaniyasi, aviakompaniya va temir yo‘l, ikkita aviasozlik kompaniyasi, kimyo kompaniyasi hamda chakana savdo kompaniyalarini qamrab olgan bo‘lib ularning har biriga AQShdagi 100dan ortiq yirik kompaniyalar kiradi. Ular nafaqat “Chase” guruhi tomonidan nazorat qilinadi balki “Chase Manhattan Bank” banki ham alohida moliyaviy tashkilot sifatida bunda qatnashadi. “Chase Manhattan Corp” o‘z faoliyatiga ko‘ra “Gulf and Western” sanoat korporatsiyasi bilan chambarchas bog‘langan. Bank korporatsiyaning barcha hisob-kitoblarini amalga oshiradi, uning aksiyalarini bir qismini boshqaradi.

“Morgan” guruhi “Chase” guruhidan o‘zining sanoat tarmoqlari bo‘yicha yuqori ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Morgan guruhiga “J.P. Morgan & Co” va “Bankers Trust New York Corporation” kabi yirik banklar, shu bilan birgalikda, “Prudential”, “New York Life Insurance”, “Insurance Company of North America” kabi qator eng yuqori sug‘urta kompaniyalari kiradi[58].

Negizini yirik sanoat kompaniyalari tashkil etuvchi moliya-sanoat guruhlariga “General Motors”, “DuPont”, “General Electric”, “Ford Motors”, “AT&T” va boshqalarni kiritish mumkin, o‘z navbatida, ularni bank va moliyaviy kompaniyalar ham boshqaradi. “General Motors” guruhi AQShda tijorat kreditlarining yirik manbasi bo‘lib hisoblanuvchi shaxsiy “General Motors Acceptance Corporation” moliyaviy kompaniyasiga egalik qiladi. “General Motors” kompaniyaning qo‘shilish va birikish jarayonlarini moliyalashtiradi hamda sanoat

[57] 1996-yil 1-aprelda «Chase Manhattan bank» bilan «Chemical Bank» birlashishi natijasida tashkil topgan.
[58] https://www.jpmorgan.com.

jihozlarining tijorat lizingi (General Motors Leasing Corp.) bilan shug‘ullanish barobarida ko‘pgina shtatlarda kredit va jamg‘arma kompaniyalariga egalik qiladi.

AQShda moliya-sanoat guruhlari ichidagi munosabatlar bir tarmoqdan boshqasiga erkin kapital oqimida tez moslashuvchan aloqalarni o‘rnatish asosida qurilgan. Birinchi navbatda, bu bank ishining kelajakda bozorning umumiy istiqboli bilan belgilanishiga bog‘liq. Shu sababli uzoq muddatli istiqbolda bank hech qanday aniq tarmoqqa bog‘lanib qolmaydi.

Shu bilan birgalikda, AQSh bozorida kuchayib borayotgan raqobatlashuv jarayoni tijorat banklari bilan sanoat korxonalarini an’anaviy shartnomaviy munosabatlardan uzoq muddatli sherikchilik munosabatlariga o‘tishga majbur etmoqda.

Ikkinchidan, AQShda bank va sanoat kapitalining birligi oilaviy (Rokfellerlar, Morganlar, Mellonlar va boshqalar) va mintaqaviy guruhlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Nihoyat, AQSh bank tizimining asosiy xususiyati bo‘lib, xalqaro xarakterga ega bo‘lgan bank monopoliyalarining mavjudligi, ssuda kapitalining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, korporatsiyalarni tashkil etish yo‘lini tanlashni oldindan belgilab qo‘ydi. Kompaniyalar birlashishi va qo‘shilishining asosiy yo‘li sifatida markaziy kompaniya tomonidan boshqalarning aksiyalari nazorat paketini egallab olinishi bo‘ldi. Bunda banklar kompaniyalar faoliyatini moliyalashtiradi va muvofiqlashtiradi. AQShda yirik moliyaviy tashkilotlarning korporativ boshqaruvdagi rolini oshirish, moliya va sanoat korxonalari birlashishi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish zaruriyati xususidagi masala hammasidan ko‘ra muhim o‘rinda turadi.

Germaniyada “Krupp”, “Thyssen”, “Daimler” kabi yirik korporativ birlashmalar XIX asrning oxirida yuzaga kela boshladi. Xususan, ular oilaviy nazorat ostida bo‘lganlar va o‘zlarining investitsiyalariga mablag‘ olish uchun yirik nemis banklari bilan muzokaralar o‘tkazishlari lozim bo‘lgan. Banklar ushbu guruhlar ustidan zarur nazorat o‘tkazish uchun yetarlicha kuchli bo‘lganlar. Ikkinchi

jahon urushidan keyin banklar tiklanish va rivojlanishni moliyalashtirishda asosiy rolni bajarganlar.

Germaniya an’analarining muhim xususiyati bank bilan sanoatning o‘zaro uzviy aloqalari bilan belgilanadi. Moliyaviy, aksiyadorlik, shuningdek, ish aloqalari asosida moliya institutlari bilan sanoat korxonalarining tarmoqlararo integratsiyasida barqaror gorizontal moliya-sanoat birlashmalari sodir bo‘ladi. O‘z navbatida, konsernning bir muncha barqaror negizi atrofida ko‘pgina yirik va o‘rta kompaniyalar guruhlanadi. O‘rta hisobda guruhlarning bosh xoldingi aksiyalarga egalik qiladi va taxminan 150 kompaniya faoliyatini nazorat qiladi. Banklar nafaqat investitsion loyihalarni moliyalashtirishda, balki korxonalarni boshqarishda ham ishtirok etishni qabul etishadi. Xuddi shuning uchun ham Germaniyada moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning markazi bo‘lib, odatda yirik banklar hisoblanadi. Uchta yetakchi moliya-sanoat guruhlari boshida turuvchi yirik banklar bo‘lib, “Deutsche Bank” AG, “Dresdner Bank” AG va “Commerzbank” AG hisoblanadi. Ularga mamlakat aksiyadorlik kapitalining mos ravishda 1/3, 1/4 va 1/8 qismi to‘g‘ri keladi. Masalan, “Deutsche Bank” atrofida “Siemens”, “Bosh” kabi taniqli sanoat konsernlari, “Dresdner Bank” atrofida esa “Hoechst”, “Grundig”, “Krupp” kabilar guruhlangan. Mazkur banklar o‘zida kredit-hisob faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xizmatlarning ko‘p miqdorini ko‘rsatuvchi universal moliya-kredit majmualarini namoyon etadi.

Bunga, avvalo, quyidagi faoliyat ko‘rinishlari kiradi:

korxonalar boshqaruvini tashkil etish, moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish, mehnat resurslari bilan ta’minlash bo‘yicha yangilik va texnik qarorlar haqida ma’lumotlar to‘plash, bozorlarni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish;

omonatchini sug‘urta himoyasi bilan depozit operatsiyalarini qo‘shish asosida bank mijozlariga birlashgan xizmatlarni ko‘rsatish;

moliya-sanoat guruhi tarkibiga kiruvchi korxonalarning xorijiy manfaatlarini ta’minlash, mahalliy eksportchilarni kreditlashda ishtirok etish hamda xorijga kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish.

Moliya-sanoat guruhlari ichidagi munosabat ko‘pincha bank tomonidan o‘tkaziladigan siyosat orqali belgilanadi. Masalan, “Deutsche Bank” atrofida tashkil etilgan moliya-sanoat guruhi bank tomonidan amalga oshirilgan bir qator birlashib ketishlar va qo‘shilishlar tufayli, o‘zida avtomobillar va samolyotlar, dvigatellar va elektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat-texnologik majmuaga aylangan.

Mamlakatning yetakchi banklari boshchilik qilgan Germaniyaning uchta yirik moliya-sanoat guruhlaridan tashqari, shunday moliya-sanoat guruhlari mavjudki, ularda bank kapitali kuch tomondan bir xil bo‘lgan vakillar o‘rtasida taqsimlangan bo‘lib, eng muhim bo‘g‘inni sanoat birlashmalari (konsernlar) tashkil qiladi. Bunday moliya-sanoat guruhlariga “IG Farbenindustrie”, “Flick”, “Thyssen Oppenheim”, “Daimler-Chrysler”, shuningdek, Germaniya iqtisodiyotida muhim rol o‘ynovchi hududiy moliya-sanoat guruhlarini kiritish mumkin.

Germaniyada yirik banklar ko‘plab yuqori integratsiyalashgan nemis korporatsiyalari kapitalining katta qismiga egalik qiladi. Jumladan, Germaniyaning yirik banklaridan hisoblangan “Deutsche Bank” yetakchi milliy korxonalarning “Daimler-Benz” (28,34%), “Philipp Holzmann” (30%), “Karstadt” (25,08%) aksiyalariga egalik qiladi. Mazkur banklar faqatgina ularning innovatsion rivojlanishidagi ehtiyojlarini moliyalashtirib qolmasdan, balki bankning moliyaviy barqarorligini ham oshirib boradi.

Germaniya moliya-sanoat guruhlarining muvofiqligi birdaniga bir nechta mexanizmlarni ta’minlaydi. Birinchidan, bir vaqtning o‘zida mazkur guruhga kiruvchi turli kompaniya va firmalarning boshqarma a’zosi bo‘lib hisoblangan, mansabdor shaxslarning nisbatan kichik doirasini mavjudligi; ikkinchidan, moliya-sanoat guruhiga kiruvchi moliya-kredit institutlari muvofiqlashtiruvchi rolni bajarishi (bugungi kunda ularga mamlakatdagi 25 ta yirik sanoat korxonalarining 30% aksiyasi tegishlidir); uchinchidan, guruhlar ichidagi integratsiya shuningdek, o‘zaro kesishgan aksiyadorlashtirishga (kapitalda ishtirok etish) xizmat qilishi.

Umuman olganda, Germaniyaning moliya-sanoat guruhlarining harakat yo‘nalishi banklar tomonidan ta’minlanadi. Aynan ularning ta’sirida ba’zi bir kompaniyalarni qo‘shilishi yoki birlashishi sodir bo‘ladi.

Shvetsiyaning moliya-sanoat guruhlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yerda Shvetsiyaning yirik biznesmenlari va moliyachilari oilalari bilan aloqada bo‘lgan sanoat birlashmalari aksariyatni tashkil qiladi.

Shvetsiyada moliya-sanoat guruhlari Germaniyaning moliya-ishlab chiqarish birlashmalariga ko‘proq o‘xshab ketadi. Ularda ham aksiyalarga egalik qilish darajalari 25 % gacha yetgan.

Italiya iqtisodiyotida bank yetakchiligidagi moliya-sanoat guruhlari asosiy rolni o‘ynaydilar. Avvalambor, bunday holat kapitalni jalb qilish maqsadida sanoat korxonalari aksiyalarining qo‘shimcha emissiyasini chiqarish kutilgan natijalarni bermaganligidan kelib chiqqan. Shuning uchun Italiya konsernlari kapital qo‘yilmalarni ko‘paytirish maqsadida bank kreditidan keng foydalanishga majbur bo‘lganlar va bu bilan kredit beruvchi banklar ta’siri ostiga tushib qolganlar.

Belgilangan yuqori foizlar va aksiyalarni ma’lum qismi sanoat korxonalari tomonidan chiqarilganini hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning aksariyati kreditor-banklar tomonidan sotib olinib, bu ham bank kapitalini sanoat kapitalidan ustun bo‘lishiga sharoit yaratgan.

Yaponiyada korporativ tuzilmalar keyretsu va syudanlar deb nomlanadi. Keyretsu (masalan, “Matsushita”, “Toyota” va boshq.) yirik sanoat kompaniyalari, yirik banklar, sug‘urta kompaniyalari hamda savdo kompaniyalari atrofida tashkil etilgan. Ular ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan va vertikal integratsiya tamoyili bo‘yicha qurilgan yoki moliyaviy yo‘naltirilgan bo‘lib gorizontal integratsiyalashgan yoki marketingga yo‘naltirilgan. Bosh firma rahbarligida ko‘pchilik unga bo‘ysunuvchi shoʻba firmalar to‘plangan bo‘lib, ular hammasi birgalikda vertikal integratsiyaning yuqori qatlamini tashkil qiladi.

Keyretsu urushga qadar faoliyat ko‘rsatgan dzaybatsu o‘rnida vujudga kelgan va bir xil faoliyat yuritish tamoyillariga ega. Keyretsu

atamasi o‘z ichiga guruhlarning ikkita turini, gorizontal va vertikal keyretsuni qamrab oladi.

Gorizontal keyretsu guruhning asosiy banki hisoblangan yirik tijorat banki atrofida tashkil etiladi. Shuningdek, uning tarkibiga umumiy savdo kompaniyalari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar, yirik sanoat kompaniyalari hamda sho‘ba korxonalar tarmog‘i kiradi. Bunday guruhlar Yaponiya sanoatida juda mashhur bo‘lgan “Mitsui”, “Mitsubishi”, “Sumitomo” kabi kompaniyalarni o‘z ichiga oladi hamda tashkiliy tuzilmasi jihatidan vertikal keyretsudan farq qiladi.

Vertikal keyretsu sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritgan holda iqtisodiyotning yengil sanoat, neft-kimyo sanoati, materiallarni qayta ishlash sanoati kabi tarmoqlardagi mavjud korxonalarni hamda bank va savdo tashkilotlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Har bir yirik Yaponiya kompaniyasi vertikal keyretsuni boshqaradi, shuningdek, mamlakatda 1950-yilda tashkil etilgan oltita gorizontal keyretsu mavjud bo‘lib ulardan uchtasi (“Mitsui”, “Mitsubishi”, “Sumitomo”) bevosita urushdan oldingi dzaybatsuning avlodi bo‘lsa qolgan uchtasi (“Fuji”, “Sanwa”, “Dai-Ichi Kangyo”) esa banklarning tashabbuskorligi asosida tashkil etilgan.

Faoliyatiga ko‘ra gorizontal keyretsu vertikal keyretsuga nisbatan kamroq muvofiqlashtirish tizimiga ega bo‘lib bu holat guruh ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni amalga oshirishga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Keyretsu guruhlari iqtisodiyotda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Bular jumlasiga: axborot funksiyasi, umumiy biznes jarayonlarini tashkil etish funksiyasi, risklarni taqsimlash va boshqarish funksiyasi, strategik guruhlarni muvofiqlashtirish funksiyasi, ichki moliyaviy bozor funksiyasi kabilar kiradi.

Har bir markaziy kompaniya uning nazoratida joylashgan firmalarga bo‘lgan munosabati bo‘yicha asosiy negiz bo‘lib hisoblanadi. Bunday qatlamlarning hammasi o‘zining imkoniyat doirasidagi sho‘ba firmalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ierarxiya tizimidagi nazorat tizimi

vertikal piramida shaklida qurilgan bo‘lib o‘z ichiga minglab firmalarni qamrab oladi va undagi aloqalar mustahkam tashkil etilgan.

Yapon modeli sanoatga uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish va sanoat hamda moliya sektorlari o‘rtasidagi yaqin aloqalar bilan tavsiflanadi. Xo‘jalik birlashmalari aksiyalarga qarama-qarshi egalik qilish yordamida korporativ guruhlarni tashkil qilish mexanizmi orqali bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Kapitalni safarbar qilish mexanizmi guruh banki yordamida jamoa asosida sodir etiladi.

Yaponiya keyretsusida kapital va biznesning kuchli integratsiyasi mavjud. Moliyaviy institutlar guruhlarni birlashtirishda, moliyalashtirishda va monitoring qilishda asosiy rol o‘ynaydi, savdo kompaniyasi esa kompaniyaning barcha tashqi tijorat aloqalarini markazlashtiradi.

Keyretsu o‘zida moliyaviy tashkilotlarni (banklar, sug‘urta va trast kompaniyalari), savdo firmalarini, shuningdek, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining to‘liq tizimini tashkil etuvchi ishlab chiqarish korxonalari to‘plamini o‘zining tashkiliy tuzilmasiga jamlab olgan yetarlicha universal ko‘p tarmoqli iqtisodiy majmualarni namoyon etadi.

Ta’kidlash joizki, Yaponiya korporativ boshqaruv tizimi bankka yo‘naltirilgan bo‘lib moliya bozorining Anglo-Amerika modeliga o‘xshash hamda korporatsiyalarning mulkchilikdagi ulushi ular aylanmasining asosiy qismini tashkil etgan holda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiya tizimida bevosita moliyalashtirish manbalari (bank kreditlari) muhim ahamiyatga ega. Bunga ko‘ra korporativ boshqaruvning Anglo-Amerika modeli asosan aksiyadorlik boshqaruvi sohasiga tegishli bo‘lib Yaponiya tizimida esa, korporativ boshqaruvning kreditlash jihati alohida muhim o‘rin tutadi.

Yaponiya va Germaniya korporativ boshqaruv modellari o‘ziga xos bir-biriga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lib mazkur holat ushbu mamlakatlarda tashkil etilgan moliya-sanoat guruhlari faoliyatida ham o‘z aksini topgan. Asosiy o‘xshashliklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– mulkchilik ulushlari aksiyadorlar o‘rtasida qattiq nazorat qilib boriladi va bu holat ular manfaatlari tengligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi;

– banklar boshqaruvda markaziy rolni o‘ynaydi hamda sanoatni tashqi moliyalashtirishning asosiy ta’minotchilari sifatida namoyon bo‘ladi;

– korporativ qarorlarni qabul qilishda xodimlar ovoz berish huquqining muhimligi korporatsiya ichida mehnat munosabatlarini samarali tashkil etishda hamda bandlikning past darajasiga erishishda muhim o‘rin tutadi;

– boshqaruv tizimi ishtirokchilar o‘rtasida barqaror munosabatlarni tashkil etishni hamda yuqori sifatli mahsulotlar bozorlariga yo‘naltirilgan strategiyalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yaponiya kompaniyalarining Amerika va muayyan darajada Yevropa kompaniyalaridan farq qiluvchi muhim xususiyati keyretsu guruhlarida banklar bilan korxonalarni bog‘lovchi aloqalarning uzoq muddatli xarakterda ekanligi hisoblanadi. Ushbu munosabatlarning eng muhim omillari quyidagilardan iborat: kreditor va aksiyador funksiyalarini birlashtiruvchi banklar bevosita moliyalashtirishda asosiy rol o‘ynaydi, shuningdek, bank korxonalar pul oqimlarini nazorat qilish bilan birgalikda ular faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni boshqarish bilan ham shug‘ullanadi.

Hozirgi sharoitda mamlakat korporativ aktivlarining nazorati amalda muayyan umumiy tamoyillar bo‘yicha tashkil etilgan oltita – “Mitsubishi”, “Mitsui”, “Sumitomo”, “Dai-Ichi Kangyo”, “Fuyo”, “Sanwa” kabi syudanlar tomonidan amalga oshiriladi. “Mitsui” guruhi aksiyalarga qarama-qarshi (o‘zaro kesishgan) egalik qilish asosida 29 ta bosh firmaning (yirik sanoat va moliyaviy majmualar) gorizontal birlashishini tashkil etadi. Bosh banki – “Sakura” banki (“Sakura Bank Ltd”) bo‘lib hisoblanadi. Mazkur bank jahonning yirik banklari ro‘yxatida o‘rin egallagan bo‘lib, bir qator sug‘urta va lizing kompaniyalariga hamda keng ko‘lamdagi filiallar tarmog‘iga ega.

Yapon moliya-sanoat guruhlarining muhim xususiyati – bosh bankdan moliyalashtirishdir. Guruh ichidagi bitimlar bosh savdo

kompaniyasi orqali amalga oshiriladi, bu savdo kompaniyasi guruh a’zolari bo‘lgan kompaniyalar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotadi va xomashyolarni sotib oladi.

Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari o‘zagini banklar va bosh savdo kompaniyalari tashkil etadilar. Yapon moliya-sanoat guruhlarida barcha a’zolar tomonidan ta’sis etilgan kompaniyalar mavjud. Masalan, xorijdagi neft manbalarini rivojlantirish uchun, axborot texnologiyalari bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun, kosmik aloqalar uchun tuzilgan kompaniyalar. Guruh qatnashchilari umumiy axborot manbasidan foydalanadilar.

Yaponiya banklari faqatgina kredit berish bilan cheklanib qolmasdan moliya-sanoat guruhlarining moliyalashtirish va o‘zaro hamkorlik uchrashuvlarini tashkil etadi. Shuningdek, bank o‘z mijozlariga o‘zaro hamkorlik qilishi uchun sheriklar topishda hamda biznes xizmatlar ko‘rsatishda yordamlashadi. Guruhga kiruvchi kompaniyalar faoliyati barqaror bo‘lgan sharoitda bosh bank uning faoliyatiga aralashmaydi. Mabodo kompaniyaning moliyaviy holati yomonlashsa, bosh bank riskli operatsiyalarni kamaytiradi hamda bu holatni boshqarishga yordam beradi.

Asosiy bank keyretsu guruhlari uchun strategik investor bo‘lib hisoblanadi. Banklar bir vaqtning o‘zida ham kreditor ham aksiyador rolida namoyon bo‘ladi hamda muayyan ulushga ko‘ra korxonalar kapitalida ishtirok etadi. Kreditor va aksiyador funksiyalarining birlashishi korxonalar bilan uzoq muddatli barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Asosiy bank guruh korxonalariga barcha bank xizmatlarini ko‘rsatadi, bular jumlasiga, moliyalashtirish, depozit, valyuta operatsiyalari, to‘lovlar, qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish va boshqalar kiradi. Asosiy bank boshqa kreditorlar nomidan ham korxonalar moliyaviy holatini doimiy monitoring qilib boradi.

Janubiy Koreya korporatsiyalari (“chebol” – koreyscha nomi) ko‘proq Yaponiyadagi yetakchi moliya-sanoat guruhlariga (syudanlar) o‘xshaydi. Farqli jihati Koreya guruhlarini asosan oilaviy kapitalga asoslanganligi bilan bog‘liq. Hukumat yirik korporatsiyalar o‘sishini, ularning ishlab chiqarish va moliyaviy bazasini kengaytirish, qo‘shish va

yiriklashtirish yo‘li bilan rag‘batlantiradi. Ular o‘z ichiga moliyaviy institutni olmaydi, lekin hukumat bilan mustahkam aloqalar mavjudligi tufayli arzon bank kreditlari olish imkoniyatiga ega.

Janubiy Koreya cheboli – bu yuqori darajada diversifikatsiyalashgan tuzilma bo‘lib, o‘z faoliyatida markazlashgan rejalashtirish, investitsiyalashni agressiv siyosatiga yo‘naltirilgan asosiy bo‘g‘inga ega.

Janubiy Koreyada yirik moliya-sanoat birlashmalarining vujudga kelishi davlat tomonidan qonuniy tartibga solinib va moliyaviy yordam berish asosida amalga oshirildi. Janubiy Koreya iqtisodiyotining rivojlanishida mamlakat iqtisodining poydevori bo‘lgan va tashqi bozorga mo‘ljallangan yirik kompaniyalarga ustunlik berildi.

Chebollarning boshqa moliya-sanoat guruhlaridan farqli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

chebollarning boshqa moliya-sanoat guruhlaridan, jumladan keyretsudan asosiy farqi chebollarga bank tashkil etish va unga egalik qilish taqiqlangan;

chebollar oilaviy kapitalga asoslangan holda ularni tashkil etgan oilalar tomonidan nazorat qilinadi, boshqa moliya-sanoat guruhlari esa professional menejerlar tomonidan boshqariladi. Shu bois, chebollar yagona ma’muriy va moliyaviy nazoratga ega bo‘ladi;

chebollar odatda ehtiyot qismlarni ishlab chiqarishda o‘zining sho‘ba korxonalariga tayanadi, boshqa ko‘pgina moliya-sanoat guruhlari esa ko‘pincha subpodryadchilardan foydalanishadi. Shuningdek, chebollar juda murakkab boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, chebolga egalik qiluvchi oilaning a’zolari va hattoki sho‘ba korxonalarning bosh menejerlari bir vaqtning o‘zida bir nechta korxonalarni nazorat qiladi;

yuqori darajada diversifikatsiyalashganligi.

Chebollarning tijorat faoliyati rivojlanib ketgani bois, ulardan ko‘pchiligi globallashuv xususiyatlarini tobora egallab bormoqda. Xususan, Janubiy Koreyadagi aktivlari hajmi bo‘yicha yetakchi chebollarga “Samsung”, “Hyundai Motor”, “SK Group”, “LG” va “Lotte”lar kiradi. Mazkur kompaniyalar dunyoga mashhur bo‘lib, asosan elektronika, maishiy texnika yoki avtomobil sanoatida faoliyat

ko‘rsatishadi. Koreya iqtisodiyotida chebollar o‘rni juda muhim bo‘lib 10 ta yirik chebolning sotishdan olgan daromadlari hajmi mamlakat YaIMning 67,8 foizini tashkil etadi. Ularning aktivlari hajmi esa, YaIMning qariyb 110 foiziga teng bo‘lib faqatgina Samsungning aktivlari YaIMning 42,0 foizini tashkil etadi.

Yirik korporativ tuzilmalarni tashkil etish jarayoni sanoati rivojlangan mamlakatlardan tashqari rivojlanayotgan mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu mamlakatlarda ham bank va sanoat kapitali birlashishi jarayoni davom etmoqda. Bunga misol sifatida Xitoy, Saudiya Arabistoni, Meksika, Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya, Moldaviya va boshqa bir qator mamlakatlarni ko‘rsatish mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, g‘arb mamlakatlarida moliya-sanoat birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha yuqori tajriba to‘plangan. Yuqori integratsiyalashgan tuzilmalarning xarakter va tuzilishi alohida mamlakatlarda o‘xshash xususiyatlarga, shuningdek, ma’lum farqlarga ega. Ular mamlakatlar rivojlanishining tarixiy yo‘llari bilan ma’lum darajada aloqador bo‘lib, bozorning rivojlanishiga hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitga chambarchas bog‘liqdir.

Xorijiy tajribani o‘rganish moliya-sanoat guruhlari tashkil topishi va faoliyat ko‘rsatishi amaliyotining asosiy ustunliklarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

Jadal ravishda moliya-sanoat guruhlari tashkil etilishi moliya-sanoat kapitali konsentratsiyasi shakli bo‘lib, buning natijasida risklar kamayadi, mahsulotlarni sotishni prognoz qilish orqali bozordagi o‘rnini mustahkamlovchi va kengaytiruvchi marketing tuzilmalari tashkil topadi.

Mehnat sarfining kamayishiga erishiladi, chunki ilmiy-texnika inqilobi yutuqlaridan foydalanish va innovatsion loyihalarning tezkorlik bilan joriy etilishi natijasida moliya-sanoat guruhlari ichida yangi mahsulotlarning yaratilishi va bozorga olib chiqilishi tezlashadi.

Kreditlardan foydalanishning ancha qulayligi, ta’minlanganligi, kapitalning yuqori darajada harakat qilishi va aylanishining tezlashishi moliyaviy chiqimlarning kamayishiga olib keladi.

Xalqaro darajada raqobatbardosh investitsion salohiyat oshadi. Buning natijasida bosh maqsadga – shaxsiy kapitalning rentabelligi oshishiga va chiqimlar kamayishiga erishiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliya-sanoat guruhi, integratsiya, gorizontal va vertikal integratsiya, dzaybatsu, chebol, keyretsu, konglomerat, konsern, diversifikatsiya, investitsion kompaniya.

Takrorlash uchun savollar

6. Moliya-sanoat guruhlari deganda nimani tushunasiz?
7. Moliya-sanoat guruhlari faoliyatining muhim elementlariga nimalar kiradi?
8. Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning iqtisodiyot uchun qanday ijobiy jihatlari mavjud?
9. Vertikal va gorizontal moliya-sanoat guruhlarini izohlang?
10. Jahon iqtisodiyotida moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining qanday modellari mavjud?
11. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish qanday yo‘llar orqali amalga oshiriladi?
12. Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining asosiy bosqichlarini ayting?
13. Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining turli bosqichlarida bankning roli qanday?
14. AQShda moliya-sanoat guruhlari faoliyatining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
15. Germaniyada moliya-sanoat guruhlari shakllanishining muhim jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
16. Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari faoliyat yuritish mexanizmining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
17. Koreya moliya-sanoat guruhlarining boshqa mamlakatlardan farqli jihatlari qanday?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

- Jahonda moliya-sanoat guruhlari rivojlanishini tahlil eting.
- Moliya-sanoat guruhlarida tijorat banklarining asosiy rolini o‘rganing.
- Moliya-sanoat guruhlarining xalqaro savdo munosabatlariga ta’sirini tahlil eting.
- Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

Moliya-sanoat guruhlari bu –

a) ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatlar samaradorligini ta’minlash maqsadida markazlashgan boshqaruvga ega bo‘lgan va o‘zlarining resurslarini (ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, nomoddiy va boshqalar) to‘liq yoki qisman birlashtirgan ishlab chiqarish, savdo korxonalari va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan mustaqil yuridik shaxslarning integratsiyasi shakli tushuniladi;

b) ishlab chiqarish korxonalari va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan tashkilotlar integratsiyasi shakli tushuniladi;

d) ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatlar samaradorligini ta’minlash maqsadida birlashgan ishlab chiqarish, savdo korxonalari va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan bir-biriga bog‘liq shaxslarning integratsiyasi tushuniladi;

e) moliyaviy faoliyat samaradorligini ta’minlash maqsadida markazlashgan boshqaruvga ega bo‘lgan va o‘zlarining resurslarini birlashtirgan moliya-kredit institutlari tushuniladi.

Vertikal moliya-sanoat guruhlari bu –

a) tayyor mahsulotni sotish, uni shaxsiy ta’minot va transport tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkazib berishgacha bo‘lgan yagona texnologik davrda birlashgan va mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashishidir;

b) qazib olishdan boshlab xomashyoni qayta ishlashdan tortib ishlab chiqarishgacha va tayyor mahsulotni sotish, uni shaxsiy ta’minot va transport tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkazib berishgacha bo‘lgan yagona texnologik davrda birlashgan va mahsulot ishlab

chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashishidir;

d) bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi;

e) har xil turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi.

Gorizontal moliya-sanoat guruhlari –

a) bu guruhlar bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi;

b) bu guruhlar har xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi;

d) bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi;

e) har xil turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi.

4. Jahon iqtisodiyotida moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining qaysi modellari keng tarqalgan:

a) Anglo-amerika, Germaniya, Lotin va Yapon;

b) Anglo-amerika, Lotin, Koreya va Yapon;

d) Anglo-amerika, Germaniya, Lotin, Koreya va Yapon;

e) Anglo-amerika, Fransiya, Lotin va Yapon.

5. Moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining nechta asosiy bosqichlari mavjud?

a) 5 ta;

b) 4 ta;

d) 3 ta;

e) 2 ta.

6. Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari qanday nomlanadi?

a) Dzaybatsu va chebol;

b) Dzaybatsu va keyretsu;

d) Dzaybatsu va konsern;

e) Dzaybatsu va sumitomo.

7. Sinergetik samara bu –

a) bir nechta turli xil omillarning birgalikdagi faoliyatidan yuzaga keluvchi hodisa;

b) bir nechta turli xil omillarning alohida faoliyatidan yuzaga keluvchi hodisa;

d) ikkita omilning birgalikdagi faoliyatidan yuzaga keluvchi hodisa;

e) mahsulotlar harakatining yagona zanjiridan foydalanish orqali erishiladigan natija.

8. Klaster bu –

a) integratsiyalashuv shakli bo‘lib, uning maqsadi biznesning raqobatbardoshligini, yuqori unumdorligini va iqtisodiy o‘sishni oshirish uchun sanoatlashish asosida faoliyatni tashkil etish hisoblanadi;

b) bir xil turdagi korxonalarning alohida shaklda faoliyat yuritishi hisoblanadi;

d) mahsulotlar harakatining yagona zanjiridan foydalanish maqsadida tashkil etilgan xizmat ko‘rsatish majmuasi;

e) moliyaviy institutlarning o‘zaro birlashishi natijasida yuzaga keluvchi yirik bank birlashmasi hisoblanadi.

9. Konglomerat turidagi moliya-sanoat guruhlari bu –

a) iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan va ishlab chiqarishning turli bosqichlarida bo‘lgan o‘zaro texnologik bog‘lanmagan korxonalarning birlashmasidir;

b) tayyor mahsulotni sotish, uni shaxsiy ta’minot va transport tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkazib berishgacha bo‘lgan yagona texnologik davrda birlashgan va mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashishidir;

d) bu guruhlar har xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi korxonalarni birlashtiradi;

e) iqtisodiyotning bir turdagi sohalarida faoliyat yuritayotgan va ishlab chiqarishning turli bosqichlarida bo‘lgan o‘zaro texnologik bog‘langan korxonalarning birlashmasidir.

10. Yaponiya keyretsusi faoliyat yuritish shakliga ko‘ra qanday turlarga ajratiladi?

a) gorizontal va parallel;

b) gorizontal va vertikal;

d) gorizontal va kongomerat;

e) milliy va transmilliy.

17-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

17.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy shart-sharoitlari

17.2. Xalqaro integratsion birlashmalarning asosiy shakllari

17.3. G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari

17.4. Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarning hududiy integratsiyasiga xos xususiyatlar (NAFTA)

17.5. Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy integratsiyasining xususiyatlari (MERKOSUR)

17.6. Osiyo hududiy integratsiyasining xususiyatlari (ASEAN, APEC va h.k.)

17.7. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi

17.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy shart-sharoitlari

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ikkita asosiy tendensiya amal qilmoqda. Bir tomondan jahon xo‘jaligida yaxlitlik kuchaymoqda, buning natijasida mamalakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi, xalqaro savdoning erkinlashuvi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari tizimining tashkil topishi kuzatilmoqda. Ayniqsa bu jarayon TMKlar faoliyati orqali namoyon bo‘lmoqda.

Boshqa tomondan esa, iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashish va mamlakatlarning mintaqaviy darajada o‘zaro birgalikda faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, yirik mintaqaviy integratsion tuzilmalar shakllanishi hamda ularni jahon xo‘jaligi markazlarida mustaqil faoliyat ko‘rsatib rivojlanib borishi sodir bo‘lmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – milliy xo‘jaliklar o‘rtasida o‘zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi hamda mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy

jihatdan birlashuvi bo‘lib, ishlab chiqarish tuzilmalarining turli darajada va turli ko‘rinishlardagi o‘zaro aloqadorligini namoyon qiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda integratsion jarayonlar ikkita asosiy ko‘rinishda, mikro va makrodarajalarda namoyon bo‘ladi. Mikro darajada bu jarayon qo‘shni mamlakatlardagi alohida firmalarning turli shakllardagi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish orqali, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda o‘z filiallarini tashkil etish yordamida yuzaga keladi. Davlatlararo darajada integratsiya mamlakatlarning iqtisodiy birlashmalarini tashkil etish va milliy siyosatlarini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bizga ma’lumki, firmalar hamda ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida aloqalarning tez rivojlanishi, tovar almashuvida xizmat ko‘rsatish, kapital va ishchi kuchlarining mamlakatlar o‘rtasida erkin harakatini ta’minlashga, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, tashqi iqtisodiy va shuningdek, mudofaa siyosatlarini, moliya - valyuta sohasidagi harakatlar yagona siyosatga kelishishga qaratilgan davlatlararo tartibga solish zaruriyatini taqozo etadi. Buning natijasida, yagona valyuta, infratuzilma, moliyaviy fondlar, umumiy mamlakatlararo boshqaruv organlariga ega bo‘lgan iqtisodiy majmualar tashkil topishi yuz beradi.

Mamlakatlar hududiy integratsiyasidan quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi:

1. Bozorlarni kengaytirish imkoniyatlaridan foydalanish va ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish hisobiga ishlab chiqarishdagi xarajatlarni kamaytirish;

2. Mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish;

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi mamlakatlarning jahon bozoridagi mavqeini oshirish.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mamlakatlar o‘rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuv va jamlanish jarayoni yanada tezroq kechadi;

- mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlari bilan jadal almashinuv jarayonlari yuzaga keladi;

- bozorlarning hajmiga qarab mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytira olish imkoniyatlari yuzaga keladi;

- ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish imkoniyati paydo bo‘ladi;

- mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatlashuvning kuchayishi sodir bo‘ladi, bu holat, yanada yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ta’sir ko‘rsatadi;

- iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuviga erishiladi;

- xalqaro savdo munosabatlarida qulay sharoitlar yaratiladi;

- yangi texnologiyalarni keng tarqalishiga va joriy etilishiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy integratsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar jumlasiga, jahon xo‘jaligida tobora rivojlanib borayotgan baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlari, xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining ortib borishi kabilar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maqsadi bo‘lib, istiqbolda mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning subyektlari jumlasiga xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnik hamkorlik hamda ayirboshlashni amalga oshiruvchi mamlakatlar kiradi. Uning obyektlariga esa, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik hamkorlik va ayirboshlash predmeti hisoblangan mahsulotlar, xizmatlar, valyuta va ishchi kuchlarini kiritish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning shart-sharoitlari sifatida integratsiyada ishtirok etuvchi mamlakatlar ichki bozorining rivojlanish darajasi, mintaqaviy jihatdan yaqinligi, mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining umumiyligi kabilarni kiritish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya shakllanishining asosiy shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

6. integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi holatining yaqinligi;

7. integratsiyalashayotgan mamlakatlarning mintaqaviy jihatdan o‘zaro yaqinligi. Jahondagi integratsion birlashmalarning

aksariyati mintaqaviy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, transport aloqalariga ega bo‘lgan bir necha qo‘shni mamlakatlar guruhi orqali shakllangan;

8. integratsion hudud doirasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarida mamlakatlardagi mavjud muammolarning umumiyligi.

Jahon iqtisodiyotida shakllangan ko‘plab integratsion birlashmalar deyarli bir-biriga o‘xshash vazifalarni amalga oshirishni maqsad qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

9. keng ko‘lamdagi iqtisodiy afzalliklardan foydalanish. Iqtisodiy integratsion hudud doirasida bozorlar hajmini kengaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulotlar, xomashyo resurslarining erkin harakati uchun sharoit yaratish va boshqalar. Bu holat, mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishni yanada rag‘batlantiradi;

10. qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Ko‘plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda bir-biri bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishni nazarda tutadi;

11. savdo munosabatlarini rivojlantirishga doir chora-tadbirlarni hamkorlikda amalga oshirish;

12. milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish hamda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko‘maklashish.

Ta’kidlash lozimki, iqtisodiy integratsiya ishtirokchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yaxshilanishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

17.2. Xalqaro integratsion birlashmalarning asosiy shakllari

Jahon xo‘jaligini rivojlanishining zamonaviy bosqichida turli shakllardagi integratsion jarayonlarni ko‘rishimiz mumkin. Kundan kunga xo‘jalik hayotda integratsion jarayonlar chuqurlashib, kengayib bormoqda. Buni biz integratsion jarayonlarni borishini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda savdodan tortib, ilmiy-axborot, tovar ayirboshlash-

gacha bo‘lgan turli ko‘rinishlarini bir-biriga qo‘shilib borishida ko‘rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalarning bir nechta asosiy shakllari mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

- imtiyozli savdo hududi;
- erkin savdo hududi;
- yagona bojxona ittifoqi;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoqlar;
- to‘liq iqtisodiy integratsiya.

Imtiyozli savdo bitimi, mazkur bitim a’zo bo‘lgan mamlakatlarga savdoda qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida tuziladi. Imtiyozli savdo bitimi ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o‘rtasida tuzilib, hududning har bir ishtirokchisi uchun barcha tovarlar importiga bojxona to‘lovlari qisqartiriladi. Bunda dunyoning qolgan mamlakatlar uchun birlamchi savdo tariflari saqlab qolinadi. Iqtisodiy integratsiyaning bunday shakliga misol sifatida 1932- yilda tashkil etilgan “Britaniya Hamdo‘stligi imtiyozlari tizimi”ni kiritish mumkin.

Erkin savdo hududi (ESH) ikki va undan ortiq mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan, bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan o‘zaro savdo qilishda bojlar va boshqa cheklovchi choralarni bekor qilish orqali tashkil etilgan guruhidan iborat. Bitimga a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirishda ESHga kiruvchi har bir davlat o‘zining mustaqil savdo siyosatini yuritadi.

Erkin savdo hududlarida yaratilgan shart-sharoitlar tufayli qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan tashqari deyarli barcha mahsulotlar savdosi amalga oshiriladi. Erkin savdo hududi unga a’zo mamlakatlardan biriga joylashgan mamlakatlararo kotibiyat tomonidan tartibga solinib turiladi.

Erkin savdo hududiga asosan 1960- yilda tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST) kiradi. Uning tarkibida Avstriya, Finlayandiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsiya kabi bir

qator mamlakatlar bor. Yevropa iqtisodiy hududi (1994)da esa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Islandiya va Lixtenshteynlar mavjud.

Boltiq bo‘yi erkin savdo hududi (1993)ga Estoniya, Latviya, Litva davlatlari kiradi;

Markaziy Yevropa erkin savdo hududi 1992- yilda tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga – Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya mamlakatlari kiradi;

Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (1994) a’zolari bo‘lib Kanada, Meksika, AQSh davlatlari hisoblanadi;

ASEAN mamlakatlari erkin savdosi haqida kelishuvi (1992) – Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tayland davlatlarini birlashtiradi;

Iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi haqida Avstraliya va Yangi Zelandiya savdo kelishuvi (1983) tashkil etilgan;

Bangkok kelishuvi (1993) – Bangladesh, Hindiston, Koreya Respublikasi, Laos, Shri-Lanka davlatlaridan iborat.

Bojxona ittifoqi – ikki yoki bir qancha davlatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvidir. Bojxona ittifoqiga kiruvchi davlatlar orasidagi o‘zaro savdoda boj to‘lovlari va yig‘imlari hamda boshqa cheklovchi tadbirlar olib tashlanadi. Uchinchi (Bojhona ittifoqiga kirmaydigan) davlatlar bilan savdo munosabatlarida bu davlatlar yagona bojxona siyosatini amalga oshiradilar.

Ma’lumki, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo tartibga solishning bu ko‘rinishi bojxona ittifoqi qatnashchilari o‘rtasida bojsiz savdonigina emas, balki uning tashqi chegaralarida muvofiqlashtirilgan tarif tizimini joriy qilishni ham nazarda tutadi. Bojxona ittifoqining erkin savdo hududidan farqi ham ana shundadir.

Bojxona ittifoqlarini yaratish va ularning shakllanishining aniq natijalari unga a’zo-mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste’mol sohasida yuz beradigan tarkibiy o‘zgarishlarda o‘z aksini topadi: talab va taklif nisbiy ustunlik tabiatiga mos ravishda o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona ittifoqi savdoning kengayishiga qarab aholining turmush farovonligini oshiradi, biroq, ayni bir paytda ishlab

chiqaruvchilarning arzon mahsulotlaridan qimmatroq tovar ishlab chiqarishga moslashishlari natijasida esa, farovonlikni birmuncha pasaytiradi.

Bojxona ittifoqlari dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida rivojlangan. Ular quyidagilar: Turkiya bilan EI assotsiatsiyasi (1963), uning tarkibiga EI mamlakatlari va Turkiya kiradi. Arab umumiy bozori (1964) – Misr, Iroq, Iordaniya, Liviya, Mavritaniya, Suriya va Yaman. Markaziy Amerika umumiy bozori (1961) – Kosta Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua. Kolumbiya, Ekvador, Venesuela mamlakatlari o‘rtasida tuzilgan erkin savdo hududi (1992) – Kolumbiya, Ekvador, Venesuela. Sharqiy Karib havzasi mamlakatlari tashkiloti (1991) – Antigua va Barbuda, Dominika, Grenada, Montserrat, Sent-Kite va Nevis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsen va Grenadinalar.

Umumiy bozor integratsion birlashmalarning ancha murakkab turi bo‘lib, u bojxona ittifoqiga ishchi kuchi va kapital harakatiga qo‘yilgan cheklashlarni bekor qilishni qo‘shish va iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali tashkil etiladi. Umumiy bozorga integratsiyalashgan mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar erkin harakati haqida kelishishadi, balki ishlab chiqarish omillari-davlatlar o‘rtasida kapital va ishchi kuchlar borasida ham almashuvlar qilishadi.

Umumiy bozorlar qatoriga quyidagi xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR) – Argentina, Braziliya, Venesuela (2006- yil iyuldan), Paragvay va Urugvay kabi davlatlarni birlashtirgan;
- Markaziy Amerika umumiy bozori – Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvador kabi davlatlarni birlashtirgan;
- Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (KOMESA*),* o‘z tarkibiga Afrikaning bir qator rivojlanayotgan davlatlarini birlashtirgan;
- Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) – Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 10 ta (Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin) rivojlanayotgan mamlakatlarni birlashtirgan;

- Fors ko‘rfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi (1981) – Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, BAA;
- And umumiy bozori (1990) – Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Venesuela;
- Lotin Amerikasi integratsion assotsiatsiyasi – LAIA (1990) – Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Peru, Urugvay, Venesuela.

Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqatgina savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi katta miqdordagi qonuniy me’yorlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish masalalarini ham hal etish bilan bog‘liqdir. Shu sababli ichki bojxona to‘siqlari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi dunyo mamlakatlari bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurki, buning natijasida milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining hech qanday to‘siqlarsiz o‘tishiga sharoit yaratiladi. Bundan tashqari umumiy bozorni shakllantirish mobaynida ijtimoiy va hududiy rivojlanish uchun zamonaviy fondlarni yaratishga zaruriyat tug‘iladi. Umumiy bozorni xalqaro iqtisodiy ittifoqqa aylantirish jarayonida bu fondlarning ahamiyati juda katta bo‘ladi. Bunda millatlararo muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan ma’lumki, bunday tashkilotlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik me’yorini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarini bajarilishini nazorat qilish mumkin emas.

Umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirishning zamonaviy bosqichida EIning ahamiyati kattadir. Chunki faqatgina ana shu tashkilot iqtisodiy integratsion jarayonlarning eng yuqori cho‘qqisiga intilishini yaqqol namoyish etmoqda.

Iqtisodiy ittifoq yuqoridagi ko‘rib chiqilgan barcha integratsion tadbirlarga qo‘shimcha ravishda qatnashuvchi davlatlar tomonidan yagona iqtisodiy siyosat o‘tkazilishini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartiblashtirishning davlatlararo tizimini yaratishni taqozo etadi. Unda bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish faktorlari, mikroiqtisodiy

siyosat koordinatsiyalari, valyuta, byudjet, pul sohalarida qonunchilikning unifikatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

Iqtisodiy ittifoq shaklidagi integratsion birlashmalarga – Yevropa ittifoqi, Benilyuks iqtisodiy ittifoqi (1948) – Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi (MDH) – Armaniston, Ozarbayjon, Belorus, Ukraina, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston. Mag‘rib arab ittifoqi (1989) – Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunis. Lagos harakat rejasi (1973) – Afrika janubidan Saxaragacha bo‘lgan mamlakatlar. Manu daryosi itifoqi (1973) – Gvineya, Liberiya, Sverra-Leone. G‘arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi (1994) – Benin, Burkina-Faso, Kot-d Ivuar, Mali, Niger, Senegal, Togo kabilar kiradi.

To‘liq iqtisodiy integratsiya – integratsiya doirasida yagona iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoqning shakllanishi, xalqaro savdo, tashqi siyosat va boshqa hamkorlik sohalarida umumiy siyosatning amalga oshirilishi. Mazkur integratsion hudud doirasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini talab qiladi. To‘liq iqtisodiy integratsiya barcha a’zo mamlakatlar uchun yagona valyuta siyosatini talab qiladi. Valyuta munosabatlarida yagona valyuta tizimi va valyuta mexanizmi amal qiladi.

Savdo iqtisodiy ittifoqlarning zamonaviy turlariga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

17.1-jadval

Iqtisodiy ittifoqlarning umumiy xususiyatlari[59]

Integratsiya shakli	**Ittifoq ichida erkin savdo**	**Uchinchi mamlakatlarga yagona tarif va kvotalar**	**Ittifoq ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati**	**Ishtirokchi mamlakatlarning yagona iqtisodiy siyosati**
Erkin savdo hududi	+	-	-	-

[59] Михайлушкин А.И., Шимко П.Д. Международная экономика: теория и практика: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2008. С. 235.

Bojxona ittifoqi	+	+	-	-
Umumiy bozor	+	+	+	-
Iqtisodiy ittifoq	+	+	+	-
To‘liq iqtisodiy integratsiya	+	+	+	+

17.3. G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari

G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanish jarayonini shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin.

Yevropa ittifoqining tashkil topish va rivojlanish tarixi 1951-yillardan boshlanadi. 1951- yil aprel oyida tarkibiga 6 davlat kiruvchi Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi tashkil topdi. 1957- yilda shu davlatlar Yevropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energetikasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati tuzish to‘g‘risida shartnomaga qo‘l qo‘ydilar. Hamjamiyat tarkibiga iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan davlatlar kirdi.

Birinchi bosqich 50- yillar oxiridan 70- yillar o‘rtalarigacha davom etdi. Bu davr Yevropa iqtisodiy integratsiyasi uchun “oltin asr” bo‘ldi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini yoki “Umumiy bozor”ni tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdodagi barcha cheklovlarni asta-sekinlik bilan bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoga umumiy boj tariflarini o‘rnatish;
- “Insonlar, kapital, xizmatlar”ning erkin harakati uchun to‘siqlarni tugatish;
- Qishloq xo‘jaligi va transport sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va o‘tkazish;

- Valyuta ittifoqini tuzish;
- Soliq siyosatini birxillashtirish;
- Qonunchilikni bir-biriga moslashtirish;
- Iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Ushbu yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun boshqaruv tuzilmasi tashkil etildi: bular, EIH vazirlar kengashi, Yevropa hamjamiyati komissiyasi, Yevropa sudi hamda Yevropa parlamentidan iborat.

EIH a'zo-mamlakatlarning mahsulotlari, kapitallar, ishchi kuchi va xizmatlarining umumiy bozorini tashkil etish masalasini hal qilishni o‘z oldiga birinchi galdagi maqsad qilib qo‘ydi. Buning uchun esa Bojxona ittifoqi tashkil qilindi. Ushbu Bojxona ittifoqi EIH asosida turadi. Bojxona ittifoqi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- a'zo-mamlakatlar o‘rtasidagi savdo aloqalaridagi cheklovlar bartaraf etildi;
- uchinchi mamlakatlar bilan munosabatlar bo‘yicha yagona bojxona tarifi o‘rnatildi;
- kapitallar, kreditlar, pul o‘tkazmalari hamda xizmatlarning erkin harakatiga erishildi;
- ishchi kuchi migratsiyasining erkinligi ta'minlandi.

Yuqoridagi barcha choralar sanoat integratsiyasining jadallashishiga imkon tug‘dirdi.

Ikkinchi bosqich (70- yillar o‘rtalaridan 80- yillar o‘rtalarigacha) EI tarixida turg‘un davr bo‘lib hisoblanadi. Shunday bo‘lsada bu davrda EIga a'zo-mamlakatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturini qabul qilishga, tashqi siyosiy maslahatlar mexanizmini tashkil etishga muvaffaq bo‘ldilar, lekin ba'zi salbiy tendensiyalarning yuzaga kelishi oqibatida g‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasini, "yevroskleroz" nomini olgan jiddiy inqirozga uchrashiga olib keldi. 70- yillarning oxiri va 80- yillarning boshlarida EI mamlakatlari o‘rtasida rivojlanish darajasining buzilishi kuchaydi. 1981- yilda Gretsiyaning EIga kirishi bilan bu tendensiya yanada yaqqol namoyon bo‘ldi, uning iqtisodiyoti

boshqa ittifoq a’zolari bilan solishtirish bo‘yicha ancha past darajada edi.

Uchinchi bosqich (80- yillarning ikkinchi yarmidan 90- yillar boshlariga qadar) – Ittifoq tarkibini kelajakda kengaytirish bosqichi. 1986- yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo‘shilishi oldindan davom etayotgan davlatlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kuchayishiga olib keldi. EIHga kirish vaqtida Portugaliyada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi taxminan EIH bo‘yicha 3/2ni, Ispaniyada esa 3/4 atrofida bo‘lgan. Yangi a’zo – mamlakatlarda taxminan beshtadan bir kishi qishloq xo‘jaligida ishlagan, bu paytda EIHda o‘n uchtadan biriga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birgalikda bu davr G‘arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishida Yagona Yevropa Aktining (YaEA) qabul qilinganligini ifoda etadi. EIH rivojlanishida 1987- yilda qabul qilingan YaEA muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu akt umumiy bozorni iqtisodiy ittifoqqa aylantirish yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ya’ni savdo yo‘lidagi barcha to‘siqlarni olib tashlash, a’zo-mamlakatlarda ichki chegaralarni ochish, tovar ayirboshlashni jadallashtirish, yagona valyuta tizimini joriy etish va barcha fuqarolarning huquqlari tengligi hamda ijtimoiy kafolatlanish tadbirlarini amalga oshirishdan iborat edi.

Mazkur akt qabul qilinishi bilan Ittifoqqa a’zo-mamlakatlarda mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya sohalarida hamda ijtimoiy munosabatlarda integratsiya jarayonlari kuchayib bordi. 90- yillar boshida EIga a’zo mamlakatlar amaliyotda umumiy bozor qoidalarini tashkil etishni tugatdilar va valyuta-iqtisodiy hamda siyosiy ittifoqni shakllantirishga astoydil kirishdilar.

To‘rtinchi bosqich (90- yillar o‘rtalaridan XXI asr boshlariga qadar). Yagona Yevropa Akti qoidalariga muvofiq 1993- yil 1- yanvardan Ittifoq chegaralari ichida mahsulotlarning erkin harakatlanishi kiritildi. Bunga muvofiq hamjamiyatning o‘n ikki davlat rahbarlaridan iborat a’zosi odamlar, tovarlar, kapital va axborotlarning erkin harakatlanishi uchun ishtirokchi-mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralarni ochish to‘g‘risida Shengen bitimini imzoladilar. Haqiqatda Ittifoq doirasida yagona iqtisodiy makon vujudga keldi.

1992- yilda EI to‘g‘risida Maastrix shartnomasi imzolanib, ushbu hujjatga ko‘ra quyidagilar ta’sis etildi:

Yagona Yevropa fuqaroligi.

Siyosiy ittifoqligi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

Maastrix shartnomasiga (1992- yil fevral) asosan EIH 1994- yil 1- yanvardan 15 ta a’zo mamlakatni o‘z ichiga olgan Yevropa Ittifoqiga aylantirildi. EI doirasida to‘liq yagona ichki bozorni tashkil etish amalga oshirildi. Integratsion hamkorlikni rivojlantrish maqsadlari barcha a’zo mamlakatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Bular o‘z ichiga yagona valyuta EVROni emissiya qiluvchi Yevropa bankini tashkil etish hamda ichki chegaralarsiz yagona G‘arbiy Yevropa makonini yaratishni va boshqalarni olardi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, G‘arbiy Yevropada ikkinchi jahon urushidan keyin ikkita yirik integratsion guruhning, ya’ni, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EES) va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST)ning vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar katta tezlikda rivojlanib borgan edi. 90- yillarning o‘rtalariga kelib esa EES deyarli EASTni o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. EAST o‘z tarkibida faqatgina Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveytsariya davlatlarini saqlab qoldi xolos. Bu ikki birlashmani solishtiradigan bo‘lsak, EAST o‘zining taraqqiyotida bojxona ittifoqini yaratishdan boshqasiga o‘tmadi, uning tuzilmasi millatlararo tashkilotlar bilan mustahkamlanmadi. 1990- yilda EI va EAST o‘rtasida Yevropa iqtisodiy makonini yaratish to‘g‘risida kelishib olindi. Bu makon doirasida EAST a’zolarining ishlab chiqaruvchilari EI a’zolari kompaniyalari bilan bir qatorda preferensial bojxona rejimidan foydalanishadi.

Shuningdek, Maastrix shartnomasida milliy valyutalarni asta-sekin muomaladan chiqarib va yagona umumyevropa pul birligini, ya’ni Yevroni joriy etishdek murakkab jarayonga ilk qadam qo‘yildi. Va, nihoyat, 1995- yilda Hamjamiyatga yana uchta davlatni (Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya) kirishi va Yevropa Iqtisodiy

Hamjamiyatining EI deb nomlanishidan so‘ng bu integratsion birlashma o‘zining hozirgi zamonaviy ko‘rinishiga ega bo‘ldi.

1970–80- yillarda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar bilan, 90-yillarda Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST) a’zolari bilan, shuningdek, AQSh va Yaponiya bilan tuzilgan bitimlar EIni jahon iqtisodiyotining yirik markazlardan biriga aylantirdi. EI bilan jahonning barcha yetakchi mamlakatlari o‘zaro aloqalarni olib borishadi.

1960- yilda Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg mamlakatlari o‘rtasida imzolangan shartnoma asosida BENILYuKS iqtisodiy ittifoqi yuzaga keldi. Mazkur ittifoq doirasida mahsulotlar, xizmatlar, kapital va fuqarolarning erkin harakati ta’minlanib, uchinchi mamlakatlarga nisbatan esa, yagona savdo va iqtisodiy siyosat olib boriladi.

1993- yilda Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya hamda Sloveniya mamlakatlari tomonidan imzolangan shartnoma asosida Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) vujudga keldi. So‘ngra bu mamlakatlar Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lganlari tufayli MEESAdan chiqishda, hozirda esa, unda Albaniya, Bosniya va Gertsegovina, Xorvatiya, Makedoniya, Moldova, Serbiya, Kosovo hamda Chernogoriya kabi mamlakatlar ishtirokchi hisoblanadi.

EIining maqsadi Yevropa xalqining uzviy aloqasini tashkil etish, barqaror iqtisodiy tarqqiyotga ko‘maklashish, ichki chegarasiz umumiy makonni yaratish, ijtimoiy sohada o‘zaro aloqalarni kuchaytirish hisoblanadi.

Yevropa ittifoqi faoliyati davomida a’zo mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga eng muhim maqsadlardan biri sifatida qo‘ygan.

17.4. Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarning hududiy integratsiyasiga xos xususiyatlar (NAFTA)

G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish yutuqlari dunyoning rivojlanayotgan mintaqalari diqqatini o‘ziga jalb etdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida bir nechta o‘nlab erkin savdo hududlari, bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar vujudga keldi.

Integratsiya jarayonlarining sezilarli darajada rivojlanishida Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasining (North American Free Trade Area – NAFTA) tashkil qilinishi va faoliyat koʻrsatish jarayoni muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur integratsion hudud jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy ahamiyati jihatidan yuqori oʻrinda turadi. 1992- yilda AQSh, Kanada va Meksika oʻrtasidagi Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasini (NAFTA) tashkil etish toʻgʻrisidagi shartnoma imzolandi va u 1994- yilning 1- yanvardan oʻz faoliyatini yurita boshladi. NAFTA AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini oʻz tarkibiga birlashtirgan. Ushbu integratsion birlashma 456,6 mln. aholini oʻz ichiga olgan keng hududni qamrab olgan boʻlib kuchli iqtisodiy imkoniyatga egadir. Bu mamlakatlarda har yilgi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar 7 trln. AQSh dollarini tashkil etadi. Butunjahon savdosi hajmida ularning ulushi 20% atrofida toʻgʻri keladi. NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, oʻzaro kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning EIga nisbatan oʻziga xos xususiyati integratsion jarayonlarning simmetrik emasligidir. Kanada va Meksika davlatlari integratsiyalashuv jaryonida AQSh bilan koʻproq yaqinlashishga intilishadi, oʻzaro esa kuchsiz bogʻlanishgan.

Bitimning asosiy qoidalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- AQSh, Kanada va Meksika oʻrtasidagi savdo aloqalarida mahsulotlarga nisbatan bojxona bojlarini bekor qilish;
- shimoliy Amerika bozorini oʻzlarining tovarlarini Meksika orqali AQShga reeksport qilish yoʻli bilan Amerika bojlarini toʻlashdan qochishga harakat qilayotgan Yevropa va Osiyo kompaniyalari ekspansiyasidan himoyalash;
- Meksikada sugʻurta va bank ishida Amerika va Kanada kompaniyalarining raqobat va kapital qoʻyilmalariga boʻlgan cheklovlarni bekor qilish;
- atrof-muhit bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni hal qilish uchun uch tomonlama guruhlarni tashkil etish.

NAFTAga a’zo mamlakatlar tomonidan imzolangan shartnoma doirasida quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutilgan:

- erkin savdo hududini shakllantirish orqali mamlakatlar o‘rtasida savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirish;
- mamlakatlardagi kompaniyalar uchun kelishilgan tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqilishi;
- o‘zaro iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish;
- intellektual mulkga doir huquqlarni himoya qilish.

Dastlabki ikki yil ichida NAFTAning eksport hajmini oshishi hisobiga qo‘shimcha ish joylarini tashkil etishdagi munosabatlarda faoliyat ko‘rsatishi ishonchlarni oqlamadi. Bundan tashqari, AQSh bilan Meksika savdosidagi ijobiy savdo saldosi yo‘qolib 1995- yilda uning o‘rnini defitsit egalladi. Oxir-oqibatda NAFTAni tuzuvchilar rejasi bo‘yicha to‘la mukammal shimoliy Amerika umumiy bozorini 2010-yilda tashkil etish mumkin deb hisoblandi. Hozirgi vaqtda Amerika iqtisodchilari yetarli darajada qudratli bo‘lgan Amerika savdo blokini tashkil etishning modelini ishlab chiqmoqdalar.

Shimoliy Amerika integratsion majmuasi o‘zining tuzilish jihatlari bilan Yevropa integratsiya modelidan birmuncha farqli tomonlarga ega. Asosiy farq – AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning asimmetrikligi. Bu intergatsion majmuaning Yana bir o‘ziga xos xususiyati uning ishtirokchilarini turli xil sharoitda ekanliklaridir. Agar Kanada oxirgi o‘n yillik ichida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha AQShga ancha yaqinlashishga erishgan bo‘lsa, Meksika esa uzoq yillardan beri yuqori tashqi qarz bilan iqtisodiy nochor mamlakat holatidadir.

17.5. Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy integratsiyasining xususiyatlari (MERKOSUR)

90- yillar o‘rtalarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsiya jarayonlari kuchayib bordi. 1991- yilda tuzilgan va 1995-yil 1- yanvardan kuchga kirgan Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay o‘rtasidagi shartnomaga asosan ushbu mamlakatlarni o‘zaro

yaqinlashtiruvchi yirik mintaqaviy savdo – iqtisodiy ittifoq MERKOSUR (Mercado Comun de Cono del Sur – MERCOSUR) yuzaga keldi (2006- yil iyuldan Venesuela ham a’zolikka qabul qilingan). Bunda deyarli 90% o‘zaro savdo aloqalarida barcha chegaralovchi to‘lovlar olib tashlandi hamda uchinchi mamlakatlar bilan munosabatlarda yagona bojxona tariflari o‘rnatildi. MERKOSURning maqsadi mintaqada umumiy bozorni shakllantirish hisoblanadi.

MERKOSUR integratsion jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi muqarrar tizimga ega. Unga tashqi ishlar vazirligi tarkibidagi umumiy bozor kengashi, umumiy bozor guruhi – ijrochi organ va unga bo‘ysunuvchi 10ta texnik komissiya kiradi. MERKOSURning faoliyati unga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishini barqarorlashtirishga, shu jumladan inflyatsiyani jilovlashga va ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda valyutani tartibga solish, soliqqa tortishni unifikatsiya qilish hamda mehnat qonunchiligida bir qator hal qilinmagan mavjud muammolarni yechishga yordam beradi.

MERKOSURning tashkil etilishi o‘zaro savdoning birdaniga oshishiga hamda boshqa mintaqaviy savdo guruhlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishiga olib keldi. Shuningdek, o‘zaro investitsion faollik ham sezilarli darajada oshdi va bunining natijasida xorijiy investitsiyalar oqimi jadallashib bordi. MERKOSURning ijobiy faoliyati mintaqadagi siyosiy barqarorlikka sezilarli ta’sirda namoyon bo‘ldi.

G‘arbiy Yevropa integratsiyasidan farqli ravishda Janubiy Amerika birlashmasi turli xil davlatlar o‘zining darajasi bo‘yicha nafaqat yagona tashkilotda birga bo‘ladi, balki samarali hamkorlik ham qiladi. Buning uchun birlashmaning barcha bosqichlariga astoydil tayyorgarlik, uning faoliyatini yuqori malakali boshqaruvi, shuningdek, bu jarayonda har bir mamlakatning o‘z o‘rnini topishi hamda ziddiyatlarni yumshatish uchun yuksak mahorat talab qilinardi.

17.6. Osiyo hududiy integratsiyasining xususiyatlari (ASEAN, APEC va h.k.)

XX asr oxirida Sharqiy Osiyoda integratsiya jarayonlari kuchayib bordi. To‘rtta Osiyo “ajdaho”laridan biri bo‘lgan Singapur, shuningdek, NIS “yangi to‘lqinlar” – Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney, Vetnam, Kambodja, Laos, Myanma va Filippin davlatlari kiruvchi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations – ASEAN) muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu guruhlar doirasidagi o‘zaro muvaffaqiyatli hamkorlik ASEAN qatnashchilari bo‘lgan ko‘pchilik mamlakatlarning kuchli iqtisodiy o‘sishi bilan chambarchas bog‘liqdir, shu bilan birgalikda ushbu mamlakatlarning oldindan amal qilib kelayotgan o‘zaro savdo aloqalarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi hamda hamkorlikning tartibga solib turiladigan shaklining amal qilishidir.

ASEAN 1967- yilda Bangkokda “ASEAN deklaratsiya”si imzolanishi bilan birgalikda tashkil etilgandir. 1976- yilda Bali orolida imzolangan ASEAN kelishuv deklaratsiyasi va Janubi-Sharqiy Osiyoda do‘stlik va hamkorlik shartnomasiga asosan ASEANning shartnomaviy tarzda rasmiylashtirilishi amalga oshirildi.

ASEAN rejasida 2000- yilgacha a’zo mamlakatlar 38 ming turdagi tovarlar bo‘yicha bojxona to‘lovlarini o‘rtacha 5%gacha pasaytirishi belgilangan. 1995- yil oxiridan 2003- yilda to‘la erkin savdo hududini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lib voqealarning ijobiy rivojlanishi davom etsa 2000- yildan kuchga kirishi ko‘zda tutilgan edi. ASEAN – Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy mintaqaviy hukumatlararo tashkiloti bo‘lib hisoblanadi.

ASEANning yuqori organi bo‘lib a’zo-mamlakatlar yetakchilarining 2001- yildan boshlab har yili o‘tkaziladigan sammiti hisoblanadi. Odatda sammit uch kun davom etib bunda, mintaqa bo‘yicha tashkilotning hamkorlari bilan uchrashuvlar olib boriladi. Doimiy sekretariat Jakarta shahrida joylashgan bo‘lib unga bosh

sekretar yetakchilik qiladi. Shuningdek, ASEAN doirasidagi har yili o‘tkaziladigan 300 dan ortiq tadbirlarni o‘tkazishga yordam berishda ishlar 29 ta qo‘mita, 122 ta ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bangkok deklaratsiyasiga muvofiq ASEANning maqsadlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: hamkorlikdagi intilishlar yordamida mintaqada ijtimoiy taraqqiyot va madaniy rivojlanishni hamda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish; Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiy etishi uchun dunyo hamjamiyati bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, BMT nizomidagi tamoyillarga tayangan holda mintaqada tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (Acia Pacific Economic Cooperation – APEC) 1989- yilda Kanberrada, Avstraliya va Yangi Zelandiya bosh vazirlarning tashabbusi bo‘yicha tashkil etilgan. APEC qattiq tashkiliy tuzilishdan yoki yirik byurokratik apparatdan holi bo‘lgan erkin maslahat forumi sifatida tashkil etilgan va shu tufayli u ko‘pincha “APEC forumi” deb ham yuritiladi. APEC sekretariati Singapurda joylashgan bo‘lib, o‘z ichiga faqatgina APEC a’zo-mamlakatlaridan vakil bo‘lgan 23 ta diplomatni, shuningdek, 20 ta mahalliy yollanma xodimlarni oladi. 1993- yildan APEC tashkiliy faoliyatining asosiy shakli APEC mamlakatlari yetakchilarining har yilgi sammiti hisoblanadi, bunda forum umumiy faoliyatining yil yakunlari va keyingi faoliyatining istiqbollari belgilanadi hamda deklaratsiyalar qabul qilinadi.

Sharqiy Osiyoda iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish istiqbollari, Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) tashkil etilishi bilan sezilarli darajada bog‘liqdir. Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) – bu hukumatlararo tashkilot bo‘lib, o‘z ichiga 21 ta davlat mintaqasini birlashtirib olgan. APEC Tinch okeani ko‘rfazida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Avstraliyaning taklifi bo‘yicha 1989- yilda tuzilgan edi. Dastlab unga 12 ta davlat: Avstraliya, Bruney, Kanada, Indoneziya, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Filippin, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand va AQSh kirardi. Keyingi yillar davomida unga Xitoy,

Gonkong, Tayvan, Meksika, Chili, Yangi Gvineya-Papua, 1998-yildan esa Vetnam, Peru va Rossiya ham qo‘shilishdi. APEC investitsion va moliyaviy faoliyat bo‘yicha rasmiy ravishda maslahat berish huquqiga egadir, biroq uning ishchi organlari doirasida mintaqaviy savdo yuritish tartibi belgilangan, bo‘lib tarmoq vazirlari va ekspretlarining u yoki bu mintaqalar hamkorligi masalalari bo‘yicha uchrashuvlari o‘tkaziladi. APEC faoliyatining asosiy maqsadlari 1991- yilda Seul deklaratsiyasida belgilangan bo‘lib quyidagilardan iborat:

- a’zo mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishiga ko‘maklashish;

- a’zo mamlakatlarning yuqori darajada iqtisodiy jihatdan bog‘liqligini hisobga olib ko‘ptomonlama savdo tizimini mustahkamlash;

- a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo va moliyaviy sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish.

APEC – yirik iqtisodiy birlashma bo‘lib, 2007- yil ma’lumotlariga ko‘ra unga jahon YaIMini 57% va jahon savdo hajmining 48%dan ortiqrog‘i to‘g‘ri keladi.

Tashkilotning asosiy maqsadi – erkin, ochiq savdo tartibini ta’minlash hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

1994- yilda strategik maqsadlar sifatida 2020- yildan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida erkin va ochiq savdo tizimlarini hamda liberal investitson rejimini tashkil etish rasmiy ravishda e’lon qilingan. Bir qadar rivojlangan mamlakatlar erkinlashtirishni 2010 yildan boshlab amalga oshirishlari zarur edi. Har bir mamlakat faoliyat yuritishning alohida rejalari asosida yangi tartiblarni joriy etish muddatlarini va o‘zining haq-huquqlarini mustaqil ravishda belgilaydi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini baholash orqali ko‘plab mutaxassislar uni rivojlanishini o‘ziga xosligini va alohida shart-sharoitga egaligini ta’kidlaydilar. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsiya jarayonlarining asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, APEC tashkilotida integratsiya jarayonlari davlatlararo hamkorlik uchun zamin yaratuvchi TMKlarning yetakchiligi orqali amalga oshmoqda. Shu jumladan bu, hukumatga tegishli bo‘lmagan mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar – Tinch okeani iqtisodiy ittifoqi (TES) 1967- yilda va Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi bo‘yicha ittifoq (STES) 1980- yilda yuzaga kelishi APECni tashkil etishiga ancha qulay zamin yaratgandi. Shu bilan birgalikda, TES va STES o‘zlarining hukumati bilan mustahkam aloqaga ega bo‘lgan hamda ulardan har tomonlama yordam olayotgan milliy qo‘mitalar negizida tashkil topgandi.

Ikkinchidan, integratsiya jarayonlari iqtisodiy rivojlanish darajasi turli xilda bo‘lgan mamlakatlarni qamrab olgandi. APECning yagona roli shunda ediki, unga XX asrning ikkita yirik iqtisodiy jihatdan kuchli mamlakatlari AQSh va Yaponiya qo‘shilgandi, shu bilan birgalikda, XXI asrning iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lgan davlati Xitoy ham kirardi.

Uchinchidan, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi ko‘lamidagi integratsiya o‘z ichiga submintaqaviy iqtisodiy ittifoqlarni (ASEAN, NAFTA, Janubiy-Tinch okeani forumi va bosh.) oladi.

Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi integratsion munosabatlar bir butun yetuklik darajasi nuqtayi nazaridan qaraganda hali uncha yuqori darajaga yetmagan. Shunday ekan, ASEAN tizimidagi savdo hududini tariflar va boshqa cheklovlarni bartaraf etilishini hisobga olgan iqtisodiy integratsiya rivojlanishining birinchi bosqichiga kiritish mumkin. Hozircha APECdagi munosabatlarni erkin savdo hududidagi deb gapirib bo‘lmaydi, balki buni “ochiq iqtisodiy assotsiatsiya” deb qarash mumkin.

Iqtisodiy integratsion jarayonlar jahonning turli hudud va mintaqalarida jadal ravishda rivojlanib bormoqda. 1989- yilda Afrika kontinentining shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunislardan iborat Mag‘rib arab ittifoqi tuziladi. 1981- yilda esa Fors ko‘rfazi atrofidagi arab davlatlari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Bahreyn, BAA, Ummon)dan iborat hamjamiyat kengashi tashkil etilgandi

17.7. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida integratsion jarayonlarining rivojlanishi

Ma’lumki, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlar guruhiga Markaziy-Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlarni va sobiq Ittifoq hukumati tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalarni kiritish mumkin.

XX asrning 90- yillari boshiga qadar sotsialistik rejali tizimni boshidan kechirgan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari jahon xo‘jaligiga dadil kirib borishining nazariy va amaliy tomonlarini yechish uchun quyidagi muammolarni hal etishga kirishgan edilar:

- “Ochiq iqtisodiyot” tamoyillari konsepsiyasini nazariy jihatlarini tahlil etib, amaliyotda keng qo‘llash.
- Jahon iqtisodiyotida sotsialistik rejali tizimni boshidan kechirgan (XXR, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari) va hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti asosida dadil rivojlanib borayotgan mamlakatlarni iqtisodiy islohotlarini chuqur tahlil etish va amaliyotda qo‘llash lozim.
- Iqtisodiyotda eksport strategiyasi bilan sanoat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni chuqur tahlil etish.
- Jahon mamlakatlari o‘rtasidagi integratsion jarayonlarni borishini tahlil etib, iqtisodiy faoliyatni jahon standartlariga mos mexanizmini qo‘llab chiqish, takomillashtirish va boshqalar.

Sobiq Sovet ittifoqi parchalangandan keyin mustaqil davlatlarda integratsion tendensiyalar yuzaga kela boshladi. Birinchi bosqichda ular qisman bo‘lsada, oldingi yagona iqtisodiy makonni tarkibiy qismlarga ajralish jarayonidan himoya qilishga harakat qilish bilan namoyon bo‘ldilar hamda birinchi navbatda xalq xo‘jaligi holatiga salbiy ta’sir etadigan sohalardagi aloqalarni qisqartirishga alohida e’tibor qaratildi. Keyingi jarayonlarda esa, xususan 1996–1997- yillarda yuzaga kelgan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda integratsiyaga intilish kuchaytirildi.

Sobiq ittifoq hududida integratsion jarayonlar quyidagi asosiy omillar natijasida yuzaga keldi:

- mehnat taqsimotini ancha qisqa davrda to‘liq o‘zgartirish mumkin emasdi. Mehnat taqsimotining birmuncha darajasi tarixiy va tabiiy-iqlim sharoitlarining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lishi sababli ko‘pgina hollarda bu maqsadga muvofiq bo‘lmaydi;

- bir davlat hududida ko‘p xalqlarning uzoq davr mobaynida birgalikda yashashi. U turli xil sohalarda puxta “munosabatlar to‘qimasini” tashkil etgandi. Millatlararo va dinlararo mojaro yuqori darajada emasdi. Shu sababdan, MDHga a’zo mamlakatlarga ko‘plab aholining istagi o‘zaro do‘stona aloqalarni yetarlicha qo‘llab – quvvatlaydi.

1991- yilning oxirida Belorussiya respublikasining hukumat qarorgohida Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorussiya respublikalarining prezidentlari MDH davlatlari ittifoqini tuzish to‘g‘risida bitimni imzolashdi. Keyinroq esa Boltiq bo‘yi davlatlaridan tashqari barcha sobiq ittifoq respublikalari MDHga qo‘shilishdi. Jumladan, 1991- yilning 21- dekabrida Olma Ota shahrida 11 ta mustaqil davlatlarning rahbarlari (Latviya, Litva, Estoniya va Gruziyadan tashqari) Ozarbayjon, Armaniston, Belorussiya, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Moldaviya, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, va Ukraina respublikalari MDHning teng huquqli davlatlari ekanligini qayd etuvchi Bayonnomani imzolashdi. Bundan ikki yil keyin ya’ni, 1993- yilda esa, Gruziya davlati ham MDH ga a’zo bo‘lib kirdi.

MDH o‘z a’zolarining suveren tengligiga asoslangan bo‘lib, a’zo-mamlakatlar xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli subyekti hisoblanadi.

Tashkilotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- siyosiy, iqtisodiy, ekologik, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlik qilish;

- a’zo-mamlakatlarni umumiy iqtisodiy makon doirasida har taraflama rivojlantirish, shuningdek, davlatlararo integratsiya va kooperatsiyani kuchaytirish;

- insonlarning huquq va erkinligini ta’minlash;

- xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda hamkorlik;

- o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish;

- davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchilik va bahsli munozaralarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish.

A’zo-mamlakatlarning hamkorlikdagi faoliyati quyidagilar doirasida amalga oshiriladi:

- inson huquq va erkinligini ta’minlash;
- tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish;
- umumiy iqtisodiy hududni, bojxona siyosatini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik qilish;
- aloqa, transport tizimi rivojlanishida hamkorlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ijtimoiy va migratsion siyosat bo‘yicha masalalarni hal qilish;
- uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- mudofaa siyosati va tashqi chegaralarni saqlash sohalarida hamkorlik qilish.

Tashkilotning yuqori organi bo‘lib, MDH davlat rahbarlari Kengashi hisoblanadi. Davlat rahbarlari kengashi yiliga ikki marta yig‘ilishga to‘planadilar. Shuningdek, MDH nizomida mamlakatlarning unga a’zo bo‘lish shartlari, maqsad va tamoyillari belgilab berilgan.

Hozirgi kunda MDH doirasidagi hamkorlikning iqtisodiy asoslaridan shuni aytishimiz mumkinki, MDH davlatlari bilan ikkiyoqlama va shuningdek, har tomonlama olib borilayotgan munosabatlarning barcha sohalarida o‘zaro teng huquqli hamkorlik qilish uchun barcha imkoniyatlar mavjuddir. Shu bilan birgalikda MDH yordamida yangi mustaqil davlatlarning o‘zaro hamkorlik qilishlari uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar ham yaratib berilmoqda.

MDH doirasida davlatlararo o‘zaro iqtisodiy hamkorlik munosabatlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- MDH doirasida maqsadlar amalga oshgunga qadar integratsiyaga sakrab o‘tmasdan, sekin-astalik bilan erkin iqtisodiy hududni tashkil qilish;
- MDH doirasida savdo – iqtisodiy hamkorlik sohasidagi salohiyatni ko‘tarish;
- MDH doirasida tovarlarning erkin harakatini ta’minlash, o‘zaro manfaatli va teng huquqli aloqalarni ta’minlash hamda boshqalar.

MDHga a’zo davlatlar hamkorlik aloqalarida hamda iqtisodiy integratsiya darajasiga bog‘liq holda integratsion jarayonlarning keyingi bosqichlarida va mintaqaviy birlashmalarda qatnashish to‘g‘risida mustaqil qarorlar qabul qilishadi, qabul qilingan qarorlarning amaliy bajarilishi esa MDH doirasida samarali hamkorlikda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, integratsion jarayonlarni rivojlanishiga mos kelmaydigan iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan omillarni quyidagilar asosida ko‘rib chiqish mumkin. Integratsiyaning asosiy elementlaridan bo‘lib, asta-sekinlik bilan bojxona bojlarini pasaytirish, qo‘shma korxonalar tuzish, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakati uchun shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Biroq hozirda MDH hududida bojxonalarni joriy etish, kvotalar belgilash, o‘zaro savdoni litsenziyalash va boshqalar kabi teskari jarayonlar sodir bo‘lmoqda. Bunday holatga quyidagi iqtisodiy sabablar undagan: bozorga turli xildagi tezkorlikdagi harakat, iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish xususiyatlaridagi tafovut, xomashyo, oziq-ovqat resurslari va malakali kadrlar bilan ta’minlanishning turli xil darajasi. Sobiq ittifoq respublikalari narxlarni erkinlashtirish xususiyati hamda narxlar darajasi bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi, bu holat resurlarni bir joydan boshqa joyga ko‘chib o‘tishiga sabab bo‘ladi va buning natijasida bunga qarshi bojlar va boshqa cheklovlar kiritiladi.

Ushbu murakkab holatga qaramasdan MDHga a’zo bir qator mamlakatlar puxta o‘ylangan reja asosida harakat qilishlari natijasida integratsiya jarayonlarining asta-sekinlik bilan jadallashuvi yuzaga kelmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Xalqaro iqtisodiy integratsiya, imtiyozli savdo hududi, erkin savdo hududi, yagona bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoqlar, to‘liq iqtisodiy integratsiya, ASEAN, EAST, MERKOSUR, KOMESA, ASEAN, LAIA, MDH, EES, Maastrix shartnomasi, BENILYuKS, MEESA, NAFTA, APEC

Takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga ta’rif bering. Uning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Integratsion birlashmalarning asosiy shakllari qaysilar?
3. Jahon iqtisodiyotidagi asosiy rivoj topgan iqtisodiy integratsion hududlarni ayting?
4. G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlarini izohlang?
5. Yevropa Ittifoqi (EI)ga a’zo mamlakatlarni ayting?
6. MDH davlatlari integratsion taraqqiyotida qanday imkoniyatlar mavjud?
7. Osiyo-Tinch okeani hududi integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos tomonlari nimalarda aks etadi?
8. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish omillarini izohlang?
9. Shimoliy Amerika mintaqasida qaysi iqtisodiy integratsion birlashmalar mavjud?
10. Lotin Amerikasi mintaqasida qaysi integratsion birlashmalar mavjud?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

11. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga tegishli asosiy terminlardan “klaster” tuzing.
12. Jahon iqtisodiyotidagi rivojlangan iqtisodiy integratsion hududlarga tegishli moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘rganing.
13. Xalqaro integratsion hududlarning jahon iqtisodiyoti rivojidagi o‘rnini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tahlil eting.
14. Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya –

a) milliy xo‘jaliklar o‘rtasida o‘zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi hamda mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi;

b) mamlakatlar o‘rtasidagi mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog‘liq munosabatlarga cheklovlar qo‘yilish jarayoni;

d) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi jarayon;

e) milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonlarning tashqi moliyaviy munosabatlarini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.

2. Xalqaro integratsion birlashmalarning asosiy turlari ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

a) erkin savdo hududi, yagona bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoqlar;

b) imtiyozli savdo hududi, erkin savdo hududi, yagona bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoqlar, to‘liq iqtisodiy integratsiya;

d) erkin savdo hududi, yagona bojxona ittifoqi, umumiy bozor, xalqaro moliya tashkilotlari;

e) MDH, yagona bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoqlar.

3. Erkin savdo hududi (ESH) –

a) ikki va undan ortiq mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan, bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan o‘zaro savdo qilish uchun tashkil etilgan hudud;

b) ikki va undan ortiq mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan ma’lum turdagi mahsulotlar bilan o‘zaro savdo qilish maqsadida cheklovlarni bekor qilish orqali tashkil etilgan guruhidan iborat;

d) ikki va undan ortiq mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan, bu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan o‘zaro savdo qilishda bojlar va boshqa cheklovchi choralarni bekor qilish orqali tashkil etilgan guruhdan iborat;

e) mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan hudud.

4. Bojxona ittifoqi –

a) ikki yoki bir qancha davlatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvidir;

b) ikki yoki bir qancha davlatlarning soliqlarni joriy etish yuzasidan o‘zaro kelishuvidir;

d) faqatgina ikki mamlakat o‘rtasida savdo-sotiqni rivojlantirishga oid kelishuvdir;

e) mamlakatlarning o‘zaro kelishuviga asosan ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb etishni tartibga soluvchi ittifoq.

5. Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR) qaysi mamlakatlarni birlashtirgan.

a) Argentina, Braziliya, Venesuela (2005- yil iyuldan), Meksika va Urugvay;

b) Argentina, Braziliya, Venesuela (2006- yil iyuldan), Paragvay va Urugvay;

d) Argentina, Braziliya, Kanada, Kuba, Paragvay va Urugvay;

e) Argentina, Meksika (2006- yil iyuldan), Kanada, Paragvay va Urugvay.

6. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) qaysi mamlakatlar doirasida tashkil etilgan?

a) Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 8 ta mamlakat (Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin);

b) Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 9 ta mamlakat (Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin);

d) Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 10 ta mamlakat (Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin);

e) Tinch va Hind okeani qirg‘oqlarida joylashgan 11 ta mamlakat (Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Hindiston, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin).

7. Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi (NAFTA) qachondan faoliyat yurita boshlagan va qaysi davlatlarni birlashtirgan?

a) 1996- yil 1- yanvardan, AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini o‘z tarkibiga birlashtirgan;

b) 1994- yil 1- yanvardan, AQSh, Kanada va Meksika davlatlarini o‘z tarkibiga birlashtirgan;

d) 1995- yil 11- yanvardan, AQSh, Kanada, Argentina va Meksika davlatlarini o‘z tarkibiga birlashtirgan;

e) 1998- yil 1- yanvardan, AQSh, Kanada, Braziliya va Meksika davlatlarini o‘z tarkibiga birlashtirgan.

8. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (APEC) qachon va qayerda tashkil etilgan.

a) 1990- yil Filippinda;

b) 1989- yil Kanberrada;

d) 1989- yil Xitoyda;

e) 1990- yil Malayziyada.

9. Iqtisodiy integratsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga qaysilar kiradi.

a) jahon xo‘jaliklari tomonidan protektsionizm choralarining qo‘llanilishi, iqtisodiy inqirozning chuqurlashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining sekinlashishi, milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining ortib borishi kabilar kiradi;

b) jahon xo‘jaligida tobora rivojlanib borayotgan baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlari, xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, milliy iqtisodiyotlar ochiqlik darajasining ortib borishi kabilar kiradi;

d) jahon xo‘jaligida tobora rivojlanib borayotgan baynalmilallashuv va globallashuv jarayonlari, xalqaro savdo aloqalarining sustlashishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, milliy iqtisodiyotlar tomonidan ichki bozorlarni himoyalash darajasining ortib borishi kabilar kiradi;

e) globallashuv jarayonlari, moliyaviy inqirozlar, banklar kapitalining oshishi, xalqaro soliqqa tortish darajasining ortib borishi kabilar kiradi.

10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning maqsadi –

a) istiqbolda mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi;

b) milliy iqtisodiyotlarni tashqi muhit omillari ta’siridan himoyalash hisoblanadi;

d) mamlakatlar to‘lov balansi taqchilligini oldini olish va uni bartaraf etish hisoblanadi;

e) istiqbolda mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishiga ta’sir etuvchi to‘siqlar yaratish hisoblanadi.

18-BOB. JAHON MOLIYA TIZIMI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA XALQARO MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNING O‘RNI

18.1. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mohiyati va milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

18.2. Moliyaviy xavfsizlikning asosiy tamoyillari va turlari

18.3. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliyaviy xavfsizlik holati

18.4. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash borasida xalqaro hamkorlik aloqalari

18.1. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mohiyati va milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

Keyingi yillarda barcha darajalarda moliyaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishning roli jadal sur’atlarda ortib bormoqda. Bu jarayonda makroiqtisodiy xavfsizlikni, har xil soha va tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalar yoki alohida shaxslarning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash mamlakat moliya tizimining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu holat hozirgi kunda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida eng dolzarb masala hisoblanadi. Bir tomondan moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashning zarurligi va ahamiyati muhim bo‘lsa, boshqa tomondan uning muhim jihatlarini samarali tarzda amalga oshirish tizimini takomillashtirish talab etiladi. Korxonalar va moliya-kredit tashkilotlarida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash ularning menejerlari tomonidan doimiy ravishda alohida e’tibor beradigan masala sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, mustahkam moliyaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish pirovardida moliyaviy natijalar holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ma’lumki, ishlab chiqaruvchilar va bozorning boshqa ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya siyosati yirik, shunga mos holda muayyan darajada riskli moliyaviy qo‘yilmalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Aniq bir korxona darajasidagi mavjud muhim mikroiqtisodiy omillar qatoriga turli bo‘limlar mutaxassislari tomonidan, shuningdek, boshqaruv personali tomonidan moliyaviy xavfsizlik tizimini amalga oshirishda puxta

asoslanmagan va ehtiyotsizlik bilan qilingan bir nechta siyosatni kiritish mumkin. Shu boisdan, moliyaviy xavfsizlik tizimini mukammal tarzda shakllantirish va mazkur jarayonda risklarni boshqarishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Bundan tashqari, moliyaviy risklarni boshqarish borasida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlardan amaliyotda keng foydalanilmasligi oqibatida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq bir qator muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bularning barchasi, nafaqat mamlakat darajasida, balki alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar darajasida moliyaviy xavfsizlikning mustahkam va samarali tizimini yaratishning muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, alohida olingan shaxsning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash va bu boradagi moliyaviy savodxonligini oshirish ham muhim masala hisoblanadi. Aholining moliya bozorida bu boradagi ommaviy savodxonligining pastligi iqtisodiyotda global inqirozli hodisalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Bunga misol sifatida 2007- yilda AQShda aholining uy-joy kreditlarini qaytarishga qodir emasligi, ularning to‘lov qobiliyatining pastligi sharoitida ipoteka inqirozining yuzaga kelganligini keltirish mumkin. Bu nafaqat AQSh bank tizimiga, balki butunjahon iqtisodiyotiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Hozirgi kunda moliyaviy xavfsizlik nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga, balki har bir shaxsning moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi beqarorlik va inqirozli sharoitning yuzaga kelishi har bir shaxsning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatning zamonaviy moliya tizimi va moliyaviy xavfsizligiga “xufiyona iqtisodiyot”, korrupsiya, “kapitalning xorijga qochishi” va soliqlarni noqonuniy minimallashtirish uchun offshorlardan foydalanish kabilar salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu salbiy ta’sirlarning tuzilmasini va ko‘lamini baholagan holda mamlakat moliyaviy xavfsizligining mazkur tahdidlariga qarshi kurashishning yangi shakllarini topish kerak. Xizmatlar bozoridagi moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun investitsiyalarni jalb etish va adolatsiz raqobatga barham berish lozim.

“Xavfsizlik” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda ilgaridan qo‘llanilib keladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Jahondagi sivilizatsiya va uning rivojlanish bosqichlari

natijasida mazkur atamaga bo‘lgan yondashuvlar ham o‘zgarib borgan. “Xavfsizlik” so‘zining asl ma’nosi xavfning yo‘qligini bildiradi. Ta’kidlash joizki, “xavfsizlik” tushunchasi tarixdan ijtimoiy muhitning turli darajalarida bo‘lgan obyektlarga, jumladan alohida shaxsga, oilaga, jamiyatga, butun mamlakatga muvofiq ishlatiladi.

“Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining to‘liq mohiyatini ochib berishda, mazkur tushunchaga tegishli bo‘lgan barcha elementlarning mohiyatini ifodalash lozim.

Xavfsizlik – ichki va tashqi xatarlar sharoitida hayot kechirish va rivojlanishga qobiliyatlilik shuningdek, oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan va prognozlash qiyin bo‘lgan omillar harakati nuqtayi nazaridan uning aloqalari tizimida obyektning holati.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida “xalqaro xavfsizlik” tushunchasi keng qo‘llaniladi. Odatda xalqaro huquqning me’yorlari va umume’tirof etilgan tamoyillarini barcha davlatlar rioya etishiga asoslangan tahdidlar yoki kuchlar yordamida ular o‘rtasidagi ziddiyat va bahsli masalalarni hal etishni inkor qiluvchi xalqaro munosabatlar tizimi sifatida ta’riflanadi[60].

“Xalqaro xavfsizlik” tushunchasi “xalqaro moliyaviy xavfsizlik” tushunchasiga nisbatan birmuncha keng mazmunga ega hisoblangan holda o‘ziga ijtimoiy, madaniy, siyosiy, harbiy va boshqa ko‘rinishdagi xavfsizlik turlarini qamrab oladi. Shunga muvofiq xalqaro moliyaviy xavfsizlik faqatgina jahon xo‘jaligining barqaror va samarali faoliyat ko‘rsatishiga tegishli bo‘lgan masalalar doirasini o‘ziga qamrab oladi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik masalasini tadqiq etishda xalqaro moliyaviy huquq kabi huquq sohasi muhim hissa qo‘shadi. U o‘zida xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yorlar va tamoyillar majmuasini namoyon etgan holda xalqaro xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash maqsadlarida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga yo‘naltirilgan. Biroq, xalqaro moliyaviy huquqning mazkur o‘quv fani mazmuniga mos kelmaydigan tadqiqot obyektlari va predmeti mavjud, chunki xalqaro moliyaviy

[60] Кондрат Е.Н. Международная финансовая безопасность в условиях глобализации. Основные направления правоохранительного сотрудничества государств. – М.: «Юстицинформ», 2015. – 592 с.

xavfsizlikda jahon iqtisodiyotida xavfsizlikni ta’minlash jarayonlarining iqtisodiy mohiyatiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Hozirgi kunda fanda umume’tirof etilgan nuqtayi nazarga ko‘ra xalqaro moliyaviy xavfsizlik xalqaro moliyaviy munosabatlar va jahon xo‘jaligi holatini o‘zida ifodalovchi tushuncha sifatida quyidagilarni namoyon etadi[61]:

Mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi ta’minlanadi;

O‘zaro foydali iqtisodiy hamkorlik uchun shart-sharoit yaratiladi;

Oxir-oqibatda dunyo mamlakatlari aholisining aksariyat qismida farovonlik darajasi oshishini ta’minlovchi barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sish namoyon bo‘ladi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik – bu xalqaro bitimlar va institutsional tuzilmalar majmuasi bo‘lib, uning asosida bozor xo‘jaligi va demokratiyaning umume’tirof etilgan tamoyillari shakllanadi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik muammosini o‘rganish o‘ziga muammolarning ikki guruhini qamrab oladi:

Umumiqtisodiy jarayonlar (globallashuv, xalqaro savdo va boshq.) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va shular natijasida kelib chiqadigan xavfsizlikning umumiy masalalari;

Moliyaviy xavfsizlikning o‘ziga xos muammolari (xalqaro iqtisodiy nizolar, “xufiyona iqtisodiyot”, iqtisodiy jinoyatlar, kiberxavfsizlik va boshq.).

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni o‘rganishning o‘ziga xos murakkabligi quyidagi muhim jihatlarni o‘ziga qamrab olgan uch darajali tuzilmani o‘zida ifodalashi bilan bog‘liq[62]:

Milliy moliyaviy xavfsizlik darajasi;

Mintaqaviy (geografik mintaqalar va integratsion hududlar) moliyaviy xavfsizlik darajasi;

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik darajasi.

“Milliy moliyaviy xavfsizlik” tushunchasining mohiyatini ushbu bobning keyingi bo‘limida ko‘rib chiqamiz.

[61] Агаркова Л.В. Управление финансовой безопастностью: монография. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2016. – 293 с.

[62] Каранина Е.В. Финансовая безопасность (на уровне государства, региона, организации, личности) – Монография. – Киров: ФГБОУ ВО «ВятГУ», 2015. – 239 с.;

Mintaqaviy moliyaviy xavfsizlik – iqtisodiy xavflar, harbiy tahdidlardan, shuningdek, mintaqaning davlat mustaqilligi va suverenitetiga tajovuz qilish, zarar yetkazish bilan bog‘liq chetdan bo‘ladigan hujumlardan ozod bo‘lgan jahon xo‘jaligidagi aniq mintaqada iqtisodiy munosabatlar holatini tavsiflovchi xalqaro moliyaviy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mintaqaviy moliyaviy xavfsizlikning muhim xususiyati bo‘lib, u o‘zining amalga oshishi uchun mintaqalardagi madaniy, tarixiy an’analar, ulardagi kuchlar tengligining holati, zamonaviy dunyodagi muayyan mintaqalar xususiyatlarini hisobga oluvchi ixtisoslashgan tashkilotlarning mavjudligini talab qilishi hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik – subyektlar iqtisodiy-ijtimoiy evolyutsiyasining turli modellarini saqlagan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishning yuridik, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarini tashkil etuvchi o‘zaro tenglik hamda ishonchga asoslangan milliy, mintaqaviy, xalqaro institutlar va tartib-qoidalarning tizimidir.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik o‘zaro kafillik berishni anglatib hech qaysi tomon jahon xo‘jaligi doirasida tahdidlar va iqtisodiy jihatdan tobelikning mavjudligi sababli na iqtisodiy, na siyosiy, na boshqa turdagi birtomonlama afzallikni ololmaydi. Xalqaro moliyaviy xavfsizlik subyektlari bir-birining ichki ishlariga aralashmaslikni, o‘zaro maqbul va foydali hamkorlikni mo‘ljallaydi.

Shubhasiz, tuzilmasi bo‘yicha bunday murakkab tushuncha umumiy majmua sifatida qabul qilinishi lozim. Xalqaro moliyaviy xavfsizlik tizimining bo‘g‘inlari harakati darajasidan qat’iy nazar bir xil konseptual fikrlar sifatida qaralishi kerak. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bunday yondashuv hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik turli bitimlar va institutsional tuzilmalarning mavjudligida xalqaro shart-sharoitlar majmuini o‘zida namoyon etgan holda jahon xo‘jaligi a’zosi bo‘lgan har bir mamlakat o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish strategiyasini mustaqil ravishda tanlash hamda o‘zaro tushunish va hamkorlik asosida tashqi bosim va aralashuvlarsiz amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning huquqiy kafolati davlatlarning ijtimoiy va siyosiy tizimidan qat’iy nazar o‘zaro tenglik tamoyillarini tan olishni ko‘zda tutadi. Xalqaro moliyaviy xavfsizlik milliy va butun dunyodagi global muammolarni hal etish bo‘yicha qaror qabul qilishda davlatlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlashi kerak. Shuningdek, xalqaro moliyaviy xavfsizlik istiqbolda mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini kuchaytirish hamda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabi maqsadlarni ko‘zda tutadi. Moliyaviy xavfsizlikni baholash uchun zamonaviy matematik apparatning murakkab tizimlaridan foydalanish mumkin. Bunda, eng avvalo, moliyaviy xavfsizlik obyektlarini modellashtirish masalasi yuzaga keladi va mazkur jarayonda o‘rganilayotgan turli obyektlarga mos keluvchi har hil modellarni ishlab chiqish lozim. Agarda milliy darajadagi yoki alohida mamlakat darajasidagi moliyaviy xavfsizlik ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa u holda model bitta bo‘ladi, korxona doirasidagi xavfsizlik uchun esa, boshqa turdagi modeldan foydaladi. Mazkur masala hozirgi kunga qadar ham to‘liq o‘z echimini topmagan. Tabiiyki, bunday modellar turli xo‘jalik yurituvchi seb’ektlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash uchun taqdim etilgan modellardan ko‘ra murakkabroq bo‘ladi, chunki moliyaviy xavfsizlik modellarida ko‘plab tashqi va ichki omillarni hisobga olish lozim.

Moliyaviy xavfsizlikni o‘rganishda yuzaga keladigan ikkinchi masala – bu ishlab chiqilayotgan modellarning tadqiqot usullarini belgilab olishdir. Ta’kidlash kerakki, moliyaviy xavfsizlikni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali tahlil usullarining turli xillari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Ekspert baholash usullari;

Statistik tahlil usullari;

Nazariy-o‘yin usullari;

Noaniq tizimlar nazariyasi usullari.

Ekspert baholash amalda deyarli iqtisodiy tadqiqotlarning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Yetarlicha ishonchli baho olish uchun tekshiruv sxemasini oqilona tuzish va uning natijalarini qayta ishlashning matematik apparatidan foydalanish talab etiladi.

Muayyan iqtisodiy muammolarning shartlarini hisobga olgan holda statistik tahlil qilishning turli usullarini keng rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ularga regression va dispersion tahlil, ko‘p o‘lchamli statistik tahlil qilish usullarini keltirish mumkin.

Ko‘rinishidan, nazariy-o‘yin usullar moliyaviy xavfsizlikni baholashda muhim rol o‘ynaydi.

Ekspert baholash usullari bir xil yoki boshqacha turli darajadagi iqtisodiy vaziyatni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mutaxassis ekspertizasi ham tegishli mutaxassislar tomonidan alohida ekspert ekspertizasi asosida amalga oshirilishi mumkin, olingan natijalarni qo‘llash orqali tekshirish boshqa usullar asosida amalga oshiriladi. Tabiiyki, ikkinchi yo‘l to‘g‘ri. Biroq, vaqtning yetishmasligi va ko‘pincha boshqa omillar tufayli faqat ajratilgan ekspertlar tahlilining natijalari bilan cheklanishi kerak.

Davlat moliyaviy xavfsizligining holati uning organlari faoliyati natijasi orqali namoyon bo‘ladi: ular jumlasiga, davlatning iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta’minlash; to‘lov-hisob-kitob tizimi va asosiy moliyaviy-iqtisodiy parametrlarining barqarorligini ta’minlash; global iqtisodiy inqirozlar va jahon iqtisodiyoti subyektlarining (davlatlar, transmilliy korporatsiyalar, integratsion birlashmalari) kutilmagan ta’sirlarini, shuningdek, milliy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tizimdagi “xufiyona” tizimlarning ta’sirini bartaraf etish; xorijga yirik ko‘lamda kapital chiqib ketishini oldini olish; milliy byudjet tizimi resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida turli darajadagi hokimiyat organlari o‘rtasida nizolarni oldini olish; mamlakat iqtisodiyoti uchun eng maqbul bo‘lgan tashqi qarz mablag‘laridan foydalanish; moliyaviy sohada jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligi korxonaning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash va risklarni bartaraf etish uchun hozirda va istiqbolda korporativ moliyaviy resurslardan samarali foydalanish sharti

hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlik ko‘rsatkichi uning moliyaviy holatiga boshqa hamkorlarning salbiy ta’siridan kafolatli himoyalashni ta’minlash chora-tadbirlari majmuasini amalga oshirish darajasi bilan tavsiflanadi. Moliyaviy xavfsizlik tizimining asosiy segmentlari sifatida: byudjet-soliq; pul-valyuta; bank-kredit kabilar namoyon bo‘ladi.

Ushbu tizimning ustuvor yo‘nalishida nafaqat mablag‘larni maqsadli ishlatish tamoyillarini saqlab qolishning asosiy omili sifatida, balki sarmoyalangan mablag‘larni tez va samarali ravishda qaytarish uchun sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan.

Davlat moliyaviy barqarorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

byudjet defitsiti darajasi;

narxlar barqarorligi;

moliyaviy oqimlarni tartibga solish va hisob-kitob munosabatlari;

bank tizimi va milliy valyutaning barqarorligi;

investorlarning manfaatlarini himoya qilish darajasi;

mamlakatning oltin zaxiralari;

moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasi;

mamlakatning tashqi va ichki qarzi holati;

to‘lov balansi taqchilligi;

investitsiya faoliyatini faollashtirish uchun moliyaviy shart-sharoitla.

Tizim quyidagi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilishi mumkin:

moliya tizimining barcha darajasida moliyaviy oqimlar va hisob-kitob munosabatlarining barqarorligi;

to‘lov majburiyatlarini bajarish, noto‘lovlar darajasi;

moliyaviy oqimlarning “shaffofligi”;

umumiy aylanmada naqd to‘lovlarning ulushi;

chet elga moliyaviy kapitalning ruxsat etilmagan oqimi;

pul muomalasining tezligi;

pul muomalasining qiymati.

Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari ikki guruhga bo‘linadi:

1) chegara qiymatlariga ega bo‘lgan, miqdoriy jihatdan aniqlanishi mumkin moliyaviy barqarorlikka tahdidning yoki tanazzulning tanqidiy xarakteridan dalolat beradi;

2) mumkin bo‘lgan buzilishni bartaraf etish uchun kuzatilishi kerak bo‘lgan sifat shartlari va cheklovlarni tavsiflab beruvchi moliyaviy barqarorlik.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, xalqaro moliyaviy xavfsizlik darajasi jahon iqtisodiyotidagi barcha mamlakatlarning milliy moliya tizimidagi barqarorlik darajasiga, shuningdek, ular o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlar holatiga bog‘liq bo‘ladi. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mustahkam tashkil etilishi va ta’minlanishi jahon moliya tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

18.2. Moliyaviy xavfsizlikning asosiy tamoyillari va turlari

Xavfsizlik muammolari uzoq muddatli davr mobaynida birinchi navbatda harbiy-siyosiy xavfsizlik muammolari sifatida ko‘pincha so‘zning tor ma’nosida talqin etilgan. Faqat XX asrning ikkinchi yarmi XXI ning boshida qator omillarning ta’siri ostida xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash vazifasi xalqaro va milliy harbiy, siyosiy va xavfsizlikning boshqa shakllarining umumiy masalalarida mustaqil yo‘nalishga aylangan.

Moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining ko‘p jihatliligini, uning turli elementlarining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda barcha muammoli masalalarni bir zumda aniqlash va ularni bartaraf etish uchun aniq bir yechimni taklif qilish imkoniyati mavjud emas.

Moliyaviy xavfsizlik tizimining imkoniyati uning tuzilmaviy tamoyillariga, elementlarning o‘zaro ta’siriga, ishlatiladigan vositalar va usullariga bog‘liq bo‘ladi.

Tashkiliy tamoyillarni aniqlash va shartsiz bajarish moliya-kredit tizimining xavfsizligini ta’minlash tizimini yaratish va samarali ishlashning muhim sharti hisoblanadi. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash

va takomillashtirish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lishi kerak:

qonuniylik (moliyaviy xavfsizlikning barcha subyektlari faoliyati amaldagi qonunchilik bazasi asosida, huquqiy normalarda belgilangan tartibda va tartibda amalga oshirilishi kerak);

munosiblik (tizimning barcha komponentlari aniq nazariy va metodologik asosga asoslanishi kerak);

boshqariladigan (tizim strukturasi ierarxiyasining shartliligi, moliyaviy xavfsizlik tizimiga qo‘yilgan vazifalarning murakkabligi va ahamiyatliligi, ularning ijrosi bo‘yicha so‘zsiz va uzluksiz nazorat zaruriyati);

tenglik va adolatlilik;

fuqarolarning moliya manfaatlarini (huquqlarini) ommaviy ravishda va qo‘pol ravishda buzilishi jazosiz qolmasligi;

huquqni muhofaza qilish mexanizmining mavjudligi va samaradorligi, moliyaviy xavfsizlik sohasidagi nizo va nizolarni hal etish mexanizmi;

ko‘p o‘lchovlilik (moliyaviy xavfsizlik tavsifining barcha jihatlarini hisobga olish);

murakkablik (moliyaviy xavfsizlik tarkibiy qismlarining birortasi yo‘qligini to‘liq qoplashi mumkin emas;

bo‘linmaslik (barcha elementlarning (subyektlarning) barcha unsurlarning (subyektlarning) xavfsizligini ta’minlash vositasida umumiy xavfsizlikni ta’minlash;

makroiqtisodiy va mikrodarajada moliyaviy manfaatlar muvozanatini ta’minlash;

moliyaviy xavfsizlik subyektlarining barcha darajalarda o‘zaro javobgarligi;

moliyaviy xavfsizlik sohasida shaffoflik darajasini (davlat sirlarini hisobga olgan holda) maksimal darajada ta’minlash;

tegishli konsepsiyalar va dasturlar doirasida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyati;

moliyaviy ta’minotning milliy manfaatlari davlat darajasida belgilanishi va tasdiqlanishi;

moliyaviy xavfsizlik sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

moliya-kredit sohasining asosiy mezonlari majmui uning xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan mavjudligi;

iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining chegara qiymatlarini aniqlash va ularni hozirgi holat bilan taqqoslash zarurati;

moliyaviy xavfsizlik tizimi subyektlarining funksiya va vakolatlarini aniqlashtirish va aniq amalga oshirish;

moliyaviy xavfsizlik tizimining tuzilmaviy shakllanishi va huquqiy rasmiylashtirilishi;

asosiy moliyaviy xavfsizlik ko‘rsatkichlarining doimiy monitoringi.

Shu bilan birga, bunday holat birinchi navbatda “moliyaviy xavfsizlik” va “moliya-kredit sohasining xavfsizligi” kategoriyalarini aniqlaydi, ikkinchisi esa birinchisining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ikkinchidan, yuqorida ko‘rsatilganlar har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich nuqtalari sifatida moliyaviy xavfsizlikni tashkil qilish tamoyillariga to‘la mos keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, moliyaviy xavfsizlik tushunchasining qanchalik keng ekanligini ko‘rish mumkin, shuningdek, moliya tizimining iqtisodiy tizim sifatida talqin qilinishi markazlashgan va markazlashtirilmagan fondlarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir.

Bundan tashqari, moliyaviy xavfsizlik juda murakkab tizim bo‘lib bir nechta kichik tizimlar tomonidan tashkil etilgan ko‘p tarmoqli tizimni ifodalagan holda ularning har biri o‘z tarkibiy va rivojlanish mantig‘iga ega bo‘ladi.

Moliyaviy xavfsizlik darajasini baholash asosli bo‘lishi, tahlilning mohiyati, murakkabligi, xavf va tahdidlarning asosiy unsurlarini tanlash, baholash ishlarining ketma-ketligi bo‘lgan jarayonlarning mohiyatini kiritish parametrlarining mosligi muhim hisoblanadi.

Davlatning moliyaviy xavfsizligi darajasini oshirish faqat moliyaviy, ijtimoiy va siyosiy choralar majmuasini qo‘shimcha ravishda qo‘llash natijasida erishiladi.

Moliyaviy xavfsizlik o‘z tarkibiga ega bo‘lib moliyaviy tizimning muammolariga mos bo‘lgan xususiyatlarni ajratishga imkon beradi.

Byudjet xavfsizligi	**Moliyaviy xavfsizlik**	Davlat moliyaviy xavfsizligi
Soliq xavfsizligi		Hudud moliyaviy xavfsizligi
Bank-kredit tizimi xavfsizligi		Sohalar moliyaviy xavfsizligi
Investitsion xavfsizlik		Tarmoqlar moliyaviy xavfsizligi
Moliya-pul muomalasi xavfsizligi		Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xavfsizligi
Inflyatsion-narx xavfsizligi		Alohida shaxslarning moliyaviy xavfsizligi
Sug‘urta va fond bozori xavfsizligi		
Valyuta xavfsizligi		

18.1-rasm. **Moliyaviy xavfsizlikning turlari**

Yuqoridagi rasm har xil markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni samarali ta’minlashi kerak bo‘lgan, moliyaviy xavfsizlikning tuzilmaviy tashkil etuvchi omillar asosida ko‘p tomonlama va ko‘p bosqichli elementlarni taqdim etadi.

Moliyaviy xavfsizlik juda murakkab ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, u har birining o‘ziga xos tuzilishi va rivojlanish mantig‘iga ega bo‘lgan bir qator kichik tizimlardan iborat.

Davlatning moliyaviy xavfsizligi quyidagilardan iborat:

byudjet xavfsizligi;

soliq xavfsizligi;

kredit va bank tizimining xavfsizligi;
moliya-pul muomalasi xavfsizligi, investitsiya xavfsizligi;
inflyatsiya narxlarining xavfsizligi;
sug‘urta va qimmatli qog‘ozlar bozori xavfsizligi;
valyuta xavfsizligi.

Fiskal xavfsizlik tushunchasi davlat va mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlar balansini va byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini inobatga olgan holda davlatning to‘lov qobiliyatini ta’minlash holati sifatida tushunilishi kerak. Umuman olganda, davlat byudjetining xavfsizligi byudjet hajmi, byudjet orqali YaIMni qayta taqsimlash darajasi, byudjet defitsitining miqdori, xarakteri va darajasi, ularni moliyalashtirish usullari, byudjetni moliyalashtirish shkalasi, byudjetni shakllantirish, qabul qilishning o‘z vaqtida va naqd pul byudjetini bajarish xususiyati, byudjet intizomining darajasi kabilarni qamrab oladi.

Davlatning soliq xavfsizligi davlat soliq siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi, u davlat va shaxsning soliq manfaatlarini, soliq to‘lovchilarning korporativ manfaatlarini maqbul darajada muvofiqlashtirishi mumkin. Moliyaviy yetarlilik nuqtayi nazaridan, soliqqa oid xavfsizlik masalasi davlatni e’lon qilingan iqtisodiy mezon talablariga muvofiq optimal tarzda zarur bo‘lgan soliq daromadlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Shuni esda tutish kerakki, davlatning moliyaviy xavfsizligiga ko‘pincha asossiz soliq imtiyozlari ta’sir qiladi. Shu bilan birga, davlatning soliq xavfsizligi soliqqa tortish darajasini optimallashtirishni nazarda tutadi, chunki soliq stavkasining haddan tashqari ko‘payishi “xufiyona” iqtisodiyot o‘sishiga, biznesni qisqartirishga, soliqlarni to‘lashdan qochishga hamda soliq bazasining qisqarishiga olib keladi.

Kredit va bank tizimining xavfsizligi bank tizimining qarzdorlik xavfsizligi va moliyaviy xavfsizligini o‘z ichiga oladi.

Davlatning qarz xavfsizligi – muayyan daraja davlat ichki va tashqi qarzlarini hisobga olgan holda mamlakatning ichki va tashqi qarzlaridan samarali foydalanish, zarur ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo‘lgan ular o‘rtasidagi eng maqbul nisbatni

saqlab turish lozim, bu esa, mamlakatning moliyaviy tizimini ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan barqarorligini ta’minlashga, davlatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga imkon beradi, shuningdek, asosiy qarzni va foizni qoplash uchun to‘lovlarni amalga oshirgan holda to‘lov qobiliyati va kredit reytingining yuqori darajasiga erishishga imkon yaratadi.

Umuman bank tizimi va uning moliyaviy xavfsizligi tarkibiy qismlari ikki jihatdan ko‘rib chiqilishi kerak. Birinchidan, umuman mamlakat, shuningdek, alohida mijozlar va kontragentlar uchun o‘z faoliyatining moliyaviy natijalari nuqtayi nazaridan. Ikkinchidan, mamlakatning umumiy bank tizimi va bank muassasalarining moliyaviy ahvoli uchun kutilishi mumkin bo‘lgan tahdidlarning oldini olishga qaratilgan. Umuman olganda, bank tizimining moliyaviy xavfsizligining mohiyati mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, bank muassasalarining iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, bank tizimiga ichki va tashqi tahdidlarning oldini olish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, uning barqaror va samarali ishlashi uchun sharoit yaratishdan iborat.

Moliya va pul muomalasining xavfsizligi – bu pul birligining barqarorligi, kredit resurslari mavjudligi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan inflyatsiya darajasi va aholining real daromadlari oshishi bilan tavsiflangan pul tizimining holatidir. Shu bilan birga, kreditlar bo‘yicha foizlar miqdori pulga bo‘lgan tranzaksion talabni to‘ldirish va “uzun pullar” siyosatiga o‘tish uchun yetarli bo‘lishi va pul massasi xo‘jalik aylanmalariga xizmat qilish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Investitsion xavfsizlik – investitsiyalar darajasiga erishish, bu investitsiyalarni samarali ishlatish va qaytarish, mamlakatdagi va chet elda xorijiy investitsiyalar hajmining optimal nisbati hisobga olinib, ijobiy milliy to‘lovni ushlab turish hisobiga iqtisodiyotning kapital qo‘yilmalar hajmi va tuzilishi jihatidan joriy ehtiyojlarini maqbul darajada qondirishga imkon beradi. Shu bilan birga, davlatning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan investitsiya xavfsizligini ta’minlash tizimini shakllantirish inflyatsiyaga qarshi muvozanatlashgan siyosatni amalga oshirish va byudjet taqchilligining

kamaytirilishiga erishish zarurligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Inflyatsiya-narxlar xavfsizligi narxlarning o‘sishida namoyon bo‘ladi. Lekin, odatda, bu moliyaviy oqimlarning holati va umumiy iqtisodiy muvozanat bilan bog‘liqdir. Narxlarning o‘sishi moliya bozori, valyuta bozori, byudjet holati, savdo va to‘lov balansi bo‘yicha vaziyatni aks ettirishi mumkin. Shu sababli, muayyan omillarning ta’siri natijasida yuzaga kelgan iqtisodiyotning umumiy inflyatsiya holati, ko‘p hollarda moliya xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining moliyaviy xavfsizligi – emitentlar, xaridorlar, savdo tashkilotchilari, treyderlar, investitsiya institutlari, brokerlar, konsultantlarning barqaror moliyaviy ahvolini ta’minlashga qodir bo‘lgan kapitallashuvning optimal miqdorini o‘zida ifodalaydi.

Birja bozori xavfsizligini baholashda davlat qimmatli qog‘ozlar bozori va korporativ qimmatli qog‘ozlar bozori hamda uning segmentlari: fond bozorlari, obligatsiyalar, veksellar, xazina obligatsiyalari, jamg‘arma sertifikatlari, aksiyalar va birjadan tashqari bozorlarning xavfsizligi holati muhim o‘rin tutadi.

Sug‘urta bozorining moliyaviy xavfsizligi, umumiy bozor holati va alohida sug‘urtalovchi sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta shartnomalarida ko‘rsatilgan mijozlar zararini qoplash hamda samarali faoliyat yuritishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar mavjudligi darajasi sifatida tushunilishi kerak. Ko‘p obyektiv va subyektiv, ichki va tashqi omillarga bog‘liq bo‘lgan sug‘urta bozorining moliyaviy xavfsizligi avvalo uning rivojlanish holati, moliyaviy ko‘rsatkichlari va ishlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bu tadbirkorlik subyektlarining real moliyaviy ahvoliga ham bog‘liq.

Davlatning valyuta xavfsizligi – birinchidan, milliy pul birligi barqarorligini saqlash, xalqaro majburiyatlarni bajarish, to‘lov balansining ijobiy qoldig‘ini ushlab turish uchun yetarli bo‘lgan davlatning valyuta mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi; ikkinchidan, xalqaro valyuta bozorlaridagi shoklardan maksimal darajada himoya qiladigan va ichki eksportni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun optimal sharoitlar yaratadigan, mamlakatga xorijiy

investitsiyalarning katta miqdordagi kirib kelishi va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini ta’minlaydigan valyuta kursini shakllantirish.

Moliyaviy xavfsizlikning barcha elementlari (turlari) bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Moliyaviy xavfsizlikni holat, jarayon va ko‘p bosqichli tizim sifatida hamda ko‘p omilli kategoriya sifatida tasniflanishi mumkin. Ammo, moliyaviy xavfsizlikning ko‘p darajali elementlarini tavsiflash uchun ular tarkibining o‘ziga xosligi har bir elementning alohida manfaatlariga bog‘liqligini ta’kidlash kerak.

18.3. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliyaviy xavfsizlik holati

Globallashuv jarayoni jahon umumiy iqtisodiy makonini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Uning rivojlanishi ochiq milliy iqtisodiyotlar, tovar va xizmatlar erkin global bozorlari, moliya va ishlab chiqarish omillari asosida integratsiyalangan jahon xo‘jaligini yaratishga olib keladi. Globallashuv jarayonining institutsional tizimini tashkil qiluvchi asosiy subyektlar bo‘lib milliy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, transmilliy korporatsiya va banklar, xalqaro moliya bozorlari namoyon bo‘ladi. Qonun chiqarish va ijroiya hokimligi va vakolatlari bilan ta’minlangan, pul resurslariga ega iqtisodiy boshqarish va tartibga solish tizimi sifatida milliy xo‘jaliklarning rivojlanishi va mustahkamlanishida katta rol o‘ynadi va o‘ynamoqda ham.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvini harakatlantiruvchi asosiy kuch hisoblangan xalqaro moliya va axborot inqilobi kompyuterlarning keng tarqalishi va takomillashuvi, internet-texnologiyalarning tez joriy qilinishi, global ilmiy-tadqiqot tarmoqlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy sohaning rivojlanishi, ayniqsa uning valyuta-moliya segmentining rivojlanishi YaIM va ichki ishlab chiqarishning o‘sishidan o‘zib ketmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotga xos bo‘lgan jihat — milliy iqtisodiy strukturalar bir-biriga kirib borishining o‘sishi — tashqi savdo kvotalarining ortishi, iste’molda importning ulushi o‘sishi, ichki

investitsiyalarda xorijiy kapitali ulushining ortishi, fan-texnika taraqqiyotida xorij texnologiyalari rolining kuchayishi bilan tasdiqlanadi.

Xususiy sektorning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish uchun rivojlangan mamlakatlarda quyidagi kabi iqtisodiy va byudjet siyosati choralaridan foydalaniladi:

ilmiy tadqiqot va loyihalarga sarflanadigan xususiy sektor xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritish;

ilmiy asbob-uskunalarning katta qismini amortizatsiya tezlashga me’yorlari bo‘yicha hisobdan chiqarish;

yirik korporatsiyalarda ilmiy xarajatlar hajmini doimiy oshirish hamda kichik va o‘rta biznesni yangi texnologiyalar sohasida innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan soliq imtiyozlari taqdim etish;

ilmiy-texnik loyihalarni imtiyozli kreditlash va yirik loyihalarni ulush asosida moliyalashtirish, venchur moliyalashtirish uchun institutsional sharoitlar yaratish;

asosan ta’lim va kichik biznes sohasida innovatson korxonalar tashkil qilish, shuningdek, mintaqalarda ilmiy infratuzilma yaratish uchun davlat mulki yoki yer maydonlarini xayriya asosida yoki imtiyozli shartlarda taqdim etish.

Globallashuv afzalliklaridan avvalo jahon iqtisodiyotidagi yetakchi mamlakatlar foydalandi. Xorijiy kapital oqimining kirib kelishi tarixiy maksimum nuqtasiga yetdi.

Jahon moliya tizimidagi xavfsizlik darajasi bevosita ushbu tizim rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lgan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi holatga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur iqtisodiyoti jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yuzaga keladigan inqirozli holatlar nafaqat hamkor mamlakatlarga balki, butun dunyo moliya tizimiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik muammolari bo‘yicha iqtisodiy tadqiqotlarda keltirilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda xalqaro

moliya xavfsizlik tizimi har bir mamlakatni yoki mamlakatlar guruhini quyidagi xavflardan himoya qilishi kerak[63]:

– jahon iqtisodiyotida bozor kuchlari faoliyati natijasida jahon iqtisodiy rivojlanish sharoitlarining kutilmaganda yomonlashishi;

– mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro kelishuvlarsiz qabul qilingan tashqi iqtisodiy qarorlarning nomaqbul oqibati;

– alohida mamlakatlar tomonidan puxta o‘ylanmagan ichki iqtisodiy qarorlarning salbiy oqibatlari;

– boshqa mamlakatlar tomonidan atayin qilinadigan iqtisodiy tajovuzkorlik;

– transmilliy jinoyatchilik natijasida yuzaga keladigan salbiy global va milliy iqtisodiy oqibatlar.

Yuqoridagi qayd etilganlardan xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar yuzaga keladi:

Birinchi vazifa jahon xo‘jaligining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo mamlakatlari farovonlik darajasining va ishlab chiqarishning o‘sishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, global bozorda kutilmagan tebranishlarni cheklash, ularning global iqtisodiy inqirozlar ko‘rinishida avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, inqirozlar oqibatini tezlik bilan bartaraf etish kabilardan iborat bo‘ladi. Milliy, mintaqaviy va jahon iqtisodiyotini tartibga solishga qaratilgan nazariy yondashuvlar bo‘yicha yirik hajmdagi ma’lumotlar 2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish natijasida shakllantirilgan.

Birinchi vazifani bajarish global bozorda ikkita hodisani mujassamlashtirgan holda murakkablashadi: bir tomondan bozor mexanizmining jiddiy nobarqarorligi; boshqa tomondan milliy suverenitetga asoslangan xalqaro tizimning tarixiy shakllanganligi. Agar alohida davlat doirasida bozor mexanizmidagi muammolarning va inqirozli holatlarning yuzaga kelishi davlat tomonidan bartaraf etilishi mumkin bo‘lsa, butun dunyo miqyosida bunday imkoniyat chegaralangandir.

[63]Господарик Ю.П. Международная экономическая безопасность. – 3-е изд., стер. – М.: Университет «Синергия», 2016. - 416 с.;

Ikkinchi vazifa iqtisodiy siyosatda o‘zaro kelishuv asosida yoki birgalikda qarorlar qabul qilishning u yoki bu shakllarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi.

Har bir davlatning yurisdiksiya sohasi uning chegaralari bilan chegaralanganligi tufayli, istalgan davlat global iqtisodiy jarayonlarga maqsadli ta’sir etish qobiliyatiga ega bo‘lmaydi. Bundan tashqari, davlatlarning individual harakati bir-biri bilan qarama-qarshilikda namoyon bo‘ladi, global jarayonlar esa, milliy iqtisodiyotlar chegarasida paydo bo‘ladi. Bularning barchasi barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha davlatlarning alohida, shuningdek, mintaqaviy darajada hamkorlik qilishini taqozo etadi.

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha uchinchi vazifa xalqaro moliyaviy nizolarni oldini olish, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish uchun foydalaniladigan turli savdo-siyosiy vositalarni qo‘llash tartiblarini o‘rnatish kabilarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro moliyaviy nizolar ichki yoki tashqi iqtisodiy muammolarni tartibga solish bo‘yicha qarorlarni alohida mamlakat qabul qilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunda muammolarni hal etish usullari, metodlari va maqsadlari boshqa mamlakatlarning manfaatlari bilan mos kelmagan holda iqtisodiy nizoni hamda ularning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, ushbu masalalarni har bir davlat tomonidan alohida hal etishning imkoni bo‘lmagan holda xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi hamkorligini talab etadi.

To‘rtinchi vazifa umumiy ko‘rinishda bitta mamlakat chegarasidan chetga chiquvchi jinoyatchilik sifatida belgilanuvchi transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishga yo‘naltirilgan. Transmilliy iqtisodiy jinoyatchilik noqonuniy yo‘l bilan iqtisodiy foyda olishga intilishni chegaralaydi. O‘zining amaliy jihatdan namoyon bo‘lishiga ko‘ra transmilliy jinoyatchilik milliy va xalqaro ko‘lamda g‘arazli maqsadlarda jinoyatchilikning alohida xavfli ko‘rinishi bilan shug‘ullanuvchi birmuncha yirik, barqaror va boshqariladigan kriminal tuzilmalarning mavjudligida yuzaga keladi. Korrupsiya va xalqaro huquq talablariga bo‘ysunmagan holda g‘ayriqonuniy yo‘llardan

foydalanish orqali soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash kabi iqtisodiy jinoyatchilik ko‘rinishlari jahon iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro jinoyatchilik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zarar yetkazadi, investitsiyalar oqimini izdan chiqaradi va iqtisodiy o‘sishni pasayishiga olib keladi. Shuning uchun BMT a’zolari bo‘lgan mamlakatlar tomonidan 2015- yildan keyingi davrda rivojlanishning yangi maqsadlariga transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy usuli sifatida huquq ustunligiga erishish maqsadi qo‘shildi. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga tegishli bo‘lgan strategik va texnik axborotlarni, ish tajribalari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, uslubiy qo‘llanma va ilmiy-texnik adabiyotlarni hamda boshqa ma’lumotlarni almashish, shuningdek, konferensiya, seminar va maslahat kengashlarini o‘tkazish kabi hamkorlik shakllari transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqori natijaga olib keladi.

Shu tarzda, xalqaro iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasini har bir davlat tomonidan erkin tanlash va amalga oshirish;

– jahon iqtisodiyoti globallashuvi jarayonida ishtirok etish shakllari va yo‘llarining xilma-xilligi sharoitida rivojlanish modellarini majburan qabul qilishdan voz kechish;

– insoniyatning global muammolarini hal etishga yo‘naltirilganlik;

– o‘zining iqtisodiy, ishlab chiqarish va demografik salohiyati hamda tabiiy resurslari ustidan davlat suverenitetini ta’minlash;

– ishchi kuchlari, g‘oyalar, axborotlar, kapital harakati, fan va savdo sohasida jahon hamjamiyati barcha mamlakatlarining o‘zaro manfaaatli hamkorligi;

– davlatlarning ular tomonidan o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosat oqibatlari yuzasidan jahon hamjamiyati oldida javobgarligi;

– jahon hamjamiyatining to‘g‘ridan to‘g‘ri ijozatisiz iqtisodiy blokada va sanksiyalardan voz kechish;

– iqtisodiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarga barcha mamlakatlarning rioya qilishi jahon miqyosida xalqaro moliyaviy xavfsizlik tizimini samarali tashkil etishga, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni o‘zaro manfaatli tarzda yo‘lga qo‘yishga va pirovardida mamlakatlar iqtisodiy barqarorligining oshishiga imkon yaratadi.

18.4. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash borasida xalqaro hamkorlik aloqalari

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning, jumladan transmilliy jinoyatchilikning kuchayishi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish borasidagi faoliyatning sustlashishi, norasmiy kapital oqimining kuchayishi kabi holatlar yuzaga kelishi mamlakatlarning bu boradagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Mazkur sohaga qarshi kurashishda ta’sirchan mexanizmlarning ishlab chiqilmasligi oxir-oqibatda mamlakatning xavfsizlik darajasining pasayishiga va natijada milliy iqtisodiyot barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillar davomida jahon mamlakatlarida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda daromadlarni legallashtirish muammosi xalqaro tus oldi va qator mamlakatlar moliya tizimiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan asosiy omilga aylandi.

Norasmiy kapital oqimining kuchayishi, noqonuniy yo‘llar bilan orttirilgan pul va boshqa mol-mulklarni legallashtirish davlatning moliyaviy xavfsizligiga tahdid solgan holda, uni bartaraf etish uchun nafaqat milliy, balki xalqaro darajada chora-tadbirlar belgilashni taqozo etmoqda.

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash tizimini takomillashtirish va bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000- yil 15- noyabrdagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasining 6- moddasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish xalqaro jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Shunga asosan, 2004- yilda

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) hududida faoliyat ko‘rsatuvchi Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Yevroosiyo mintaqaviy guruhi (EAG) tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifalari sifatida aniq yo‘nalishlarni belgilash, hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, uning samaradorligini baholash, bu ishlarni xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish, chuqur tahlil qilish va tajriba almashish belgilangan. O‘zbekiston 2005- yilning dekabr oyidan ushbu guruh a’zosidir.

Vena konvensiyasida belgilangan tartib Yevropa Ittifoqining 1990-yil 8- noyabrda Strasburg shahrida qabul qilingan va keyinchalik mazkur jinoyatga qarshi kurashishdagi Yevropa hamkorligining asosiy huquqiy bazasiga aylangan “Legallashtirish, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risida”gi konvensiyada (Strasburg konvensiyasi) yanada rivojlantirildi.

Ushbu xalqaro hujjat mintaqaviy tashkilot doirasida qabul qilingan bo‘lsada, uning 37-moddasida Yevropa Ittifoqi a’zosi bo‘lmagan davlatlar ham konvensiyaga qo‘shilishi mumkinligi qayd etilgan.

Strasburg konvensiyasida 3 ta muhim yo‘nalishda tartibga solish nazarda tutilgan:

- Ishtirokchi davlatlar milliy qonunchiligida mablag‘larni legallashtirganlikni huquqiy baholashni birxillashtirish;
- Mablag‘larni legallashtirishga qarshi kurashga qaratilgan milliy chora-tadbirlarni birxillashtirish;
- Mablag‘larni legallashtirishga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik shakllari va amalga oshiriladigan tadbirlar.

Yevropa Hamjamiyati Kengashining 1991- yil 10- iyunda qabul qilingan 91/308-sonli direktivasiga asosan Strasburg konvensiyasi nizomi moliyaviy xavfsizlik tizimini kuchaytirish va jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida moliyaviy tizimlardan foydalanishni tugatish borasida:

– moliya-kredit tashkilotlari tomonidan hamma mijozlarni to‘liq identifikatsiya qilish va 20000 dollardan ortiq qiymatdagi barcha bitimlarni qayd etish borasidagi talablar bajarilishini ta’minlash;

– ushbu tashkilotlar bilan mablag‘larni legallashtirishga qarshi kurashuvchi davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma’lumotlar taqdim etilishini mijozlarga yoki uchinchi tomonga oshkor etishni taqiqlash;

– ko‘rsatilgan tadbirlarning barchasi yoki ayrim qismlarini mablag‘larni legallashtirish bilan shug‘ullanuvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin bo‘lgan kazino, valyuta ayirboshlash shoxobchalari kabi tashkilotlar va advokatlar, notariuslar, hisobchilar faoliyatiga nisbatan ham qo‘llash singari bandlar bilan to‘ldirilgan.

Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan hamkorlik universal tashkilotlar darajasida qabul qilingan xalqaro hujjatlardan tashqari maxsus organlar tomonidan belgilangan chora-tadbirlar bilan ham tartibga solinadi.

Xususan, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘yicha maxsus guruh” (Financial Action Task Force on Money Laundering) — FATF guruhi jinoiy faoliyat natijasida olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish standartlarini belgilovchi hukumatlararo tashkilot deb e’tirof etiladi.

FATF guruhi 1989- yilda “Katta yettilik” mamlakatlari tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va joriy qilish hisoblanadi.

FATF guruhining asosiy vazifasi noqonuniy daromadlarni legallashtirish yo‘lida banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan foydalanish amaliyotini cheklash bo‘yicha olib borilgan hamkorlik natijalarini baholash va uni yanada chuqurlashtirishdan iboratdir. FATF guruhi o‘zining asosiy vazifalarini amalga oshirish doirasida unga a’zo davlatlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash borasida ko‘rilayotgan choralar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, FATF guruhi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tendensiyalari va uslublarini tadqiq qiladi

hamda bu uslublar va ko‘rilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumotlar tayyorlab boradi.

Mamlakatimizda ichki normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda xalqaro standartlar asosida jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarni ishlab chiquvchi guruh (FATF), Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevroosiyo guruhi (EAG) hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

FATF – hukumatlararo tashkilot bo‘lib, uning asosiy maqsadi kelib chiqishi noqonuniy mablag‘lar va daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan siyosatni, ya’ni xalqaro standartlarni ishlab chiqish va barcha davlatlarni ularga amal qilishga da’vat etishdan iboratdir.

Bugungi kunda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda jahon amaliyotining tahlili asosida bu boradagi qonunbuzarliklarni sodir etish mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu ishlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar jamlanib, xalqaro hujjat sifatida FATFning 40 tavsiyasi ishlab chiqilgan va bu tavsiyalar 2012- yilda yangilangan. BMT Xavfsizlik Kengashining 2005- yil 29- iyuldagi 1617- sonli Rezolyutsiyasida barcha davlatlarga FATFning ushbu tavsiyalariga amal qilish belgilangan. FATF tipidagi guruh hisoblangan Yevroosiyo guruhiga (EAG) 9 davlat – O‘zbekiston, Rossiya, Belarus, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Hindiston a’zodir. Yevroosiyo guruhining asosiy maqsadi a’zo davlatlarning o‘zaro hamkorligini va FATF tavsiyalariga asosan jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish xalqaro tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston ushbu guruhga 2005- yilda a’zo bo‘lgan va uning ishida faol ishtirok etib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda FATFning yangi standartlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish, bu borada O‘zbekiston tajribasini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2018- yilda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun asosida Markaziy bank banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va kredit byurolari tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazorat qilish vazifalarini bajarishni davom ettirib, bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni talablari hamda Moliyaviy choralarni qo‘llash bo‘yicha maxsus guruh (FATF) tavsiyalaridan kelib chiqib, maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda kredit tashkilotlarida sohaga oid faoliyatni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqildi[64].

Xususan, “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” (ro‘yxat raqami 2886, 23.05.2017) hamda “Nobank kredit tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” (ro‘yxat raqami 2925, 04.09.2017) yangi tahrirda ishlab chiqildi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhining xalqaro ekspertlari tomonidan 2019- yilda soha bo‘yicha respublikamizda olib borilayotgan ishlar “O‘zaro baholash”dan o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Mazkur jarayon oldidan har bir davlat o‘zining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va

[64]Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2018-yil. 119 bet.

terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini “Milliy baholash”dan o‘tkazishi maqsadga muvofiqligini inobatga olgan holda Markaziy bank tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan hamkorlikda bank tizimidagi sohaga oid tavakkalchiliklarni baholash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Markaziy bank hamda tijorat banklari xodimlaridan iborat Ekspert guruhi tashkil qilinib, guruh tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirishda jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq xatarlarni aniqlash bo‘yicha tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan “Uslubiyot” ishlab chiqildi va Markaziy bank Boshqaruvining farmoyishi bilan tasdiqlanib, tijorat banklariga ishda foydalanish uchun yuborildi. Shuningdek, 2017- yilda sohaning “Milliy baholash”dan o‘tkazilishi doirasida tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan har bir xizmatda jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan tahliliy ma’lumotlar to‘planib, umumlashtirildi va hozirda respublika bank tizimi bo‘yicha yagona bahoni belgilash uchun Markaziy bank tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Moliyaviy xavfsizlik, xalqaro moliyaviy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik, byudjet defitsiti, “xufiyona” iqtisodiyot, byudjet xavfsizligi, soliq xavfsizligi, kredit va bank tizimi xavfsizligi, valyuta xavfsizligi.

Takrorlash uchun savollar

Xalqaro moliyaviy xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?

Mintaqaviy moliyaviy xavfsizlikning mohiyatini izohlang?

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni o‘rganishning muhim jihatlari nimalardan iborat?

Moliyaviy xavfsizlikni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali tahlil usullariga nimalar kiradi?

Davlat moliyaviy barqarorligini belgilovchi ko‘rsatkichlarni ayting?

Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?

Moliyaviy xavfsizlikning asosiy tamoyillarini izohlang?

Moliyaviy xavfsizlikning turlarini ayting?

Davlatning moliyaviy xavfsizligini izohlang?

Investitsion xavfsizlikning mohiyati nimada ifodalanadi?

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalarni izohlang?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mohiyatini izohlovchi asosiy tushunchalardan “klaster” tuzing.

Jahonda xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash borasidagi chora-tadbirlarni o‘rganing.

FATFning tavsiyalarini o‘rganing.

Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

1. Xalqaro moliyaviy xavfsizlik –

a) subyektlar iqtisodiy-ijtimoiy evolyutsiyasining turli modellarini saqlagan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishning yuridik, iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlarini tashkil etuvchi o‘zaro tenglik hamda ishonchga asoslangan milliy, mintaqaviy, xalqaro institutlar va tartib-qoidalarning tizimidir;

b) iqtisodiy xavflar, harbiy tahdidlardan, shuningdek, mintaqaning davlat mustaqilligi va suverenitetiga tajovuz qilish, zarar yetkazish bilan bog‘liq chetdan bo‘ladigan hujumlardan ozod bo‘lgan jahon xo‘jaligidagi aniq mintaqada iqtisodiy munosabatlar holatini tavsiflovchi xalqaro moliyaviy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanadi;

d) faqatgina milliy iqtisodiyot doirasidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi;

e) xalqaro moliya tashkilotlari ichki moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi.

2. Mintaqaviy moliyaviy xavfsizlik –

a) bu milliy iqtisodiyotlarni jahon xo‘jaligidagi o‘zgarishlardan himoyalashga qaratilgan tizimdir;

b) iqtisodiy xavflar, harbiy tahdidlardan, shuningdek, mintaqaning davlat mustaqilligi va suverenitetiga tajovuz qilish, zarar yetkazish bilan bog‘liq chetdan bo‘ladigan hujumlardan ozod bo‘lgan jahon xo‘jaligidagi aniq mintaqada iqtisodiy munosabatlar holatini tavsiflovchi xalqaro moliyaviy xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanadi;

d) valyuta munosabatlari ifodasi bo‘lib xizmat qiladigan jahon pul tizimidir;

e) xalqaro savdo munosabatlari rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tizimdir.

3. Moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash va takomillashtirish tizimining tamoyillariga nimalar kiradi?

a) qonuniylik, munosiblik, tenglik va adolatlilik, murakkablik, bo‘linmaslik;

b) qonuniylik, munosiblik, tenglik va adolatlilik, murakkablik, bo‘linmaslik, iqtisodiy nochorlik;

d) qonuniylik, munosiblik, tenglik va adolatlilik, murakkablik, bo‘linmaslik, samaradorlik;

e) xalqaro moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi tizimdir.

4. FATF –

a) hukumatlararo tashkilot bo‘lib, uning asosiy maqsadi kelib chiqishi noqonuniy mablag‘lar va daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan siyosatni, ya’ni xalqaro standartlarni ishlab chiqish va barcha davlatlarni ularga amal qilishga da’vat etishdan iboratdir;

b) xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatini tartibga solishni amalga oshiruvchi tashkilot;

d) investitsion munosabatlar, valyuta kurslarini aniqlash, milliy buxgalteriya standartlarini ishlab chiquvchi tashkilot;

e) investitsion loyihalarni moliyalashtirish, milliy valyuta devalvatsiyasi, to‘lov balansi taqchilligini moliyalashtirishni muvofiqlashtiruvchi tashkilot.

5. FATF guruhi qachon tashkil etilgan?

a) 1989-yil;

b) 1991-yil;

d) 1986-yil;

e) 1990-yil.

6. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash birinchi vazifaning mohiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

a) jahon xo‘jaligining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo mamlakatlari farovonlik darajasining va ishlab chiqarishning o‘sishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, global bozorda kutilmagan tebranishlarni cheklash, ularning global iqtisodiy inqirozlar ko‘rinishida avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, inqirozlar oqibatini tezlik bilan bartaraf etish kabilardan iborat bo‘ladi;

b) jahon xo‘jaligining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo mamlakatlari farovonlik darajasining va ishlab chiqarishning o‘sishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, korporatsiyalar faoliyatini cheklash, shuningdek, inqirozlar oqibatini tezlik bilan bartaraf etish kabilardan iborat bo‘ladi.

d) jahon xo‘jaligining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo mamlakatlari farovonlik darajasining va ishlab chiqarishining o‘sishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, xalqaro moliya institutlarini tugatish, shuningdek, inqirozlar oqibatini tezlik bilan bartaraf etish kabilardan iborat bo‘ladi.

e) jahon xo‘jaligining barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, butun dunyo mamlakatlari farovonlik darajasining va ishlab chiqarishining o‘sishiga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, global bozorda kutilmagan tebranishlarni cheklash, ularning global iqtisodiy inqirozlar ko‘rinishida avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, kreditlar hajmini oshirish kabilardan iborat bo‘ladi

7. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?

a) 2004- yil 28- avgust;

b) 2004- yil 26- avgust;

d) 2005- yil 26- avgust;

e) 2005- yil 28- avgust.

19-BOB. O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIGA INTEGRATSIYALASHUVI

19.1. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy tamoyillari

19.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

19.3. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari

19.4. O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari

19.1. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy tamoyillari

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosati eng avvalo, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilgan holda xalqaro moliya munosabatlarida faol ishtirok etishga qaratilgan.

Respublikamizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o‘sishini ta’minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda jahon bozorlarida mustahkam o‘rin egallash, pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan strategiya izchil amalga oshirilar ekan, bu maqsadlarga erishishda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatning subyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga:

15. tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonun asoslarini belgilash;

16. tashqi iqtisodiy siyosatni, shu jumladan valyuta-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi valyuta fondini shakllantirish va undan foydalanish;

17. tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni ijro etish;

18. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida respublikaning, uning yuridik shaxslari va fuqarolarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;

19. respublika hududida chet ellik investorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilash;

20. O‘zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va birlashmalarda vakillik qilish;

21. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan boshqa vakolatlar kiradi.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

22. birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish borasida aniq maqsadni ko‘zlab o‘tkazish, tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar o‘z daromadlaridan erkin foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibni joriy etish;

23. ikkinchidan, xorijiy sarmoyadorlarni, asosan bevosita kapital mablag‘lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng jalb etish uchun huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

24. uchinchidan, O‘zbekistonga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib keladigan, xalq xo‘jaligining zamonaviy strukturasini vujudga keltirishda yordam beradigan sarmoyadorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o‘tkazish;

25. to‘rtinchidan, mablag‘larni eng ustuvor sohalarga – respublika mustaqillgini ta’minlaydigan agrar sektorni, yoqilg‘i-energetika kompleksini hamda boshqa bazaviy tarmoqlarni rivojlantirishga qodir, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga sarflash.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslari yaratildi.

Bular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi, “Boj tarifi to‘g‘risida”gi, “Eksport nazorati to‘g‘risida”gi qonunlarni hamda “Chet el investitsiyalari bilan loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini kiritish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

26. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;

27. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;

28. savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

29. tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;

30. tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatning obyektlari oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti bo‘lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk obyektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari hisoblanadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjatlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o‘z xohishiga ko‘ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Mulkchilikning shakllari va tashqi iqtisodiy faoliyatining turlaridan qat’iy nazar, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda teng huquqlarga ega bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari:

tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etishi;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning O‘zbekistonda belgilab qo‘yilgan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

tashqi savdo faoliyati;

chet el investitsiyalarini jalb qilish;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik ishlab chiqarish, moliya, bank va sug‘urta faoliyati, ta’lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro

tashkilotlar bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, tovarlar eksportidir.

Tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish), ularning bajarilish (ko‘rsatilish) joyidan qat’i nazar, ishlar (xizmatlar) eksportidir.

Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish), ularning bajarilish (ko‘rsatilish) joyidan qat’i nazar, ishlar (xizmatlar) importidir.

Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne’matlarning barcha turlari hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va nomoddiy ne’matlarni hamda ularga bo‘lgan huquqlarni qo‘yish bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyat

subyektlari harakatlarining yig‘indisi O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

yuridik shaxslar tashkil etish yoki ustav fondlarida (kapitallarida) ulushbay asosda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar sotib olish yo‘li bilan qatnashish;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar ta’sis etish;

qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan xorijiy davlatlarning rezidentlari tomonidan tasdiqlangan qarz majburiyatlarini sotib olish;

konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, izlab topish, qazib olish yoxud ulardan foydalanishga mo‘ljallangan konsessiyalarni qo‘lga kiritish;

mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati xorijiy davlatning qonun hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ta’minlanishini kafolatlaydi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ulardan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilib olishga haqli emas.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

valyuta bilan tartibga solish;

soliq bilan tartibga solish;

tarif va notarif tartibga solish;

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash;

tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish;

eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilash;

o‘z xossa hamda xususiyatlariga ko‘ra yalpi qirg‘in qurolini (yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharlovchi qurol) hamda uni yetkazib berish vositalarini (raketalar va yalpi qirg‘in qurolini yetkazib berishga qodir boshqa texnika vositalarini), boshqa turdagi qurol-yarog‘ hamda harbiy texnikani yaratishda muhim hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan, eksport nazorati obyektlari ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan tovarlar, asbob-uskunalar, ilmiy-texnika axboroti, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan eksport nazoratini o‘rnatish;

olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash;

tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlariga muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

19.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

Keyingi yillarda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatda hamda iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei oshib bormoqda. Bunda davlatimiz hukumati tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish yo‘llarining aniq va to‘g‘ri ko‘rsatib berilganligi bu yo‘ldagi yutuq hamda marralarning salmoqli bo‘lishiga imkoniyat yaratmoqda.

Ma’lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo‘lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat ichida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga erishiladi. Mamlakat eksporti hamda importining qiymati o‘rtasidagi farq, ya’ni saldo tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich milliy daromad darajasiga ko‘p tomonlama ta’sir etadi. Sababi, import va eksport hajmidagi sezilarli o‘zgarish ham mamlakatdagi daromad, bandlik va narx darajalarida muayyan tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda keskin raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo‘lishi va mustahkam o‘rin egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo‘nalishlarga keng jalb qilish, ularga kafolat va imkoniyatlar berish, litsenziyalar, nou-xaular sotib olishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirishda quyidagilarni ustuvor yo‘nalishlar sifatida keltirish mumkin:

31. respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

32. eksport imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalarni rivojlantirish zarur. Eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo‘llash bilan bir qatorda importning salmog‘ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o‘tkazish, o‘zimiz ishlab chiqarishimiz mumkin

bo‘lgan tovarlar va mahsulotlarning chetdan keltirilishini oqilona darajada kamaytirib borish talab qilinadi;

33. tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo‘jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o‘rnatishda, o‘z mahsulotini chet ellarda sotishda ko‘proq erkinliklar berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko‘zlab siyosat o‘tkazish;

34. xorijiy investitsiyalar jalb qilish orqali amalga oshirilayotgan sanoat loyihalarning bir-biriga bog‘liqligini ta’minlash, ular o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy va ishlab chiqarish hamkorlik va infratuzilmani rivojlantirish va bu orqali import o‘rnini bosuvchi va eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirishga erishish;

35. olib borilayotgan islohotlarda hududiy diversifikatsiya siyosatini yanada kuchaytirish, nafaqat markaziy hududlarda, balki chekka tumanlarda ham yirik sanoat obyektlarini qurishni keng yo‘lga qo‘yish;

36. tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuini ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug‘urta firmalari, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish;

37. xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisob sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mazkur yo‘nalishlarini izchil tarzda amalga oshirish orqali mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha yaqin kelajakka mo‘ljallangan strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, eksportni rag‘batlantirish uchun barqaror makroiqtisodiy sharoit yaratish, inflyatsiya sur’atini prognoz darajasida

ushlab turish, valyuta almashtirish kurslarining keskin tebranishlariga yo‘l qo‘ymaslik;

ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulk shaklidan qat’I nazar, import qilinayotgan ishlab chiqarish vositalarini olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo‘lishlarini ta’minlash;

uchinchidan, yetuk mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi islohotlarni davom ettirish;

to‘rtinchidan, eksport salohiyatini rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqori texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

beshinchidan, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirish.

19.3. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo‘nalishlardan biri – O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a’zosiga aylanishi e’tiborga molikdir.

Tashqi savdo aloqalari xalqaro hamkorlikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, turli mamlakatlar bilan ilmiy-texnik, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish ular o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish iqtisodiyotni faol va har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beruvchi vositadir.

Mamlakatimizda tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, jahon bozorlariga yuqori sifatli tayyor mahsulotlar bilan kirib borish va mustahkam o‘rin egallash, eksport hajmini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil

qilish bilan birga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o‘zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish”[65] alohida ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajaralishi mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhitining yanada yaxshilanishini, korxonalar ishlab chiqarishiga xorijdan zamonaviy texnika-texnologiyalarni jalb etishni faollashtirishni taqozo etadi, bu esa o‘z navbatida mahsulotlar eksportini ko‘payishiga, umuman olganda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol tarzda amaliyotga joriy etishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvida uning hududiy va global darajadagi raqobatbardoshligi bo‘yicha qiyosiy ustunligi, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan ko‘p jihatdan bog‘liq. Amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar bo‘yicha qizg‘in munozaralarning mavjudligiga qaramasdan, tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda, mamlakatning geografik, ishlab chiqarish va texnologik, mehnat resurslaridan foydalanish samarasini inobatga olish muhim o‘rin tutadi. Chunki, xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi xalqaro moliyaviy munosabatlar ishtirokchilaridan yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni talab etadi.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma’muriy to‘siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to‘lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

[65] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiy ijobiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o‘sish sur’atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur’atlariga muvofiq emasligini ko‘rsatmoqda.

Birinchi navbatda raqobatbardosh afzalliklarga ega bo‘lgan tarmoqlarda bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarning saqlanib qolayotganligi eksport hajmlarining salmoqli o‘sishini ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Jumladan:

birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va keng turdagi xomashyo, shuningdek, mehnat resurslari mavjud bo‘lgan hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta’minlovchi afzalliklardan to‘liq hajmda foydalanilmayapti;

ikkinchidan, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalari rivojlanmayapti, eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlari mavjud emas;

uchinchidan, chuqur marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, uzoq muddatli barqaror tashqi bozorlarni shakllantirish va xorijda tashqi savdo infratuzilmasini yaratishga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti;

to‘rtinchidan, har xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish va ilgari surish bo‘yicha tizimli ishlar mavjud emas, ularni ko‘rsatish uchun zarur infratuzilma rivojlanmagan.

Tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini tubdan oshirish, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, tashqi savdo muvozanatini ta’minlash va valyuta tushumlarini ko‘paytirish maqsadida 2018- yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlariga quyidagilarni har tomonlama ko‘maklashish asosiy vazifalari etib belgilandi:

yuqori qo‘shilgan qiymatga ega eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, xizmatlar (turistik, tibbiy,

ta’lim, transport, qurilish va boshqalar) eksporti hajmini keskin oshirish hamda ularni ko‘rsatish uchun tegishli infratuzilmani jadal barpo etish;

o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni yetkazib berishda hamkorlarni izlash hamda tashkilotlar va korxonalar bilan shartnomalar tuzish.

Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta’minlash maqsadida eksportni qo‘llab-quvvatlash milliy tizimini tashkil etildi va uning asosiy vazifalari belgilandi:

a) eksport faoliyatiga axborot-tahliliy ko‘maklashish bo‘yicha:

eksportni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini takomillashtirish, eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;

marketing, narx shakllanishi, transport logistikasi, sertifikatlash, standartlashtirish va sifat nazorati, soliq hamda bojxona ma’muriyatchiligi (shu jumladan, xorijdagi) masalalari, “yagona darcha” tamoyili asosida tashqi bozorlarga kirish sharoitlari bo‘yicha eksport qiluvchilarga va ularning chet eldagi hamkorlariga axborot va maslahat ko‘magini ko‘rsatish;

xorijiy xaridorni izlashga va eksport shartnomasini tuzishga qadar muzokaralar jarayoniga, shu jumladan, ularning loyihalarini tayyorlashga ko‘maklashish;

respublika vazirliklari va idoralari, viloyatlar hamda tuman hokimliklari bilan milliy mahsulotlarni chet elga eksport qilish, eksport qiluvchilarni eksportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar, mavjud imtiyozlar va preferensiyalar, vakolatli davlat organlarining vazifalari va funksiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashda tizimli hamkorlikni ta’minlash;

hududlarda axborot-maslahat markazlari tarmog‘ini tashkil etish;

mahalliy eksport qiluvchilar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar bazasini ta’minlash orqali elektron tashqi savdo maydonchalarini yuritish, ishlab chiqarish va eksport faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga yetakchi xalqaro elektron tijorat maydonchalariga kirish uchun yordam ko‘rsatish;

ishonchli sifatli mahsulot yetkazib beruvchi sifatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning halolligini isbotlash uchun, shu jumladan, har

yili “Made in Uzbekistan” milliy koʻrgazmasini, tarmoq va mintaqaviy tovarlar koʻrgazmalari va savdo yarmarkalarini oʻtkazish, xalqaro koʻrgazmalar va taqdimotlarda ishtirok etish yoʻli orqali oʻzbek brendlari va mahsulotlarini xorijda ilgari surish boʻyicha “Made in Uzbekistan” dasturini amalga oshirish;

eksport qilishni boshlayotganlar uchun oʻquv seminarlari va treninglar, tadbirkorlar uchun xorijiy mamlakatlarga tashqi savdo masalalari boʻyicha savdo missiyalari tashkil etish va oʻtkazish;

b) eksport faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash qismida:

eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, noxomashyo eksport hajmi, milliy eksport qiluvchilar va ularning mahsulotlarini sotib oladigan mamlakatlar sonini oshirishga koʻmaklashish;

koʻrgazma stendlarini tashkil etish va respublika korxonalarining xalqaro savdo yarmarkalari, taqdimotlarida ishtirok etishi, shu jumladan, an’anaviy milliy mahsulotlar va brendlarni potensial bozorlarda ilgari surishni moliyalashtirish;

milliy mahsulotlarni xorijiy vakolatli organlar tomonidan rasmiylashtirilishi orqali standartlashtirish va sertifikatlashtirishning ham respublikadagi, ham xorijdagi xalqaro tizimlarini joriy etish bilan bogʻliq xarajatlarni qoplash maqsadida eksport qiluvchi korxonalarga maqsadli moliyaviy yordam koʻrsatish;

moliyaviy qoʻllab-quvvatlash va milliy eksportni sugʻurtalashning zamonaviy mexanizmlarini muvaffaqiyatli qoʻllagan xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olib, shu jumladan, xalqaro moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda eksportoldi va eksportni moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiligini sugʻurtalash mexanizmlarini joriy etish;

savdoni moliyalashtirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlari va imtiyozli kreditlarini jalb qilish;

boshqa kompleks moliyaviy va konsalting xizmatlarini koʻrsatish.

Mamlakatimizning xalqaro moliya munosabatlari va jahon xoʻjaligiga integratsiyasi majmui aniq belgilangan maqsadlar hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo‘g‘inini tashkil etuvchi va uning jahon bozorida munosib o‘rinni egallashini ta’minlovchi bo‘g‘inlarni aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport sohasida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usulidan keng foydalanish.

Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo‘yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish, mo‘ljallangan investitsiyalarni sug‘urtalash;

- eksportyorlarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o‘rtasidagi farqni qoplash;

- davlat tomonidan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, tajribalar va bilimlarning kirib kelishi uchun subsidiyalar ajratish;

- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltirilgan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar hamda jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga xalqaro moliya sohasidagi siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta’minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me’yoriy-huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston uchun bu sohadagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimi integratsiyasiga qo‘shilib borishini ta’minlash;

- eksport potensialini rivojlantirish;

- import va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlatirish:

- investitsiya siyosatini takomillashtirish;

- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

- eksport mahsulotlari ishlab chiqarish zonalari va erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat infratuzilmasini rivojlantirish.

Hozirgi kunda quyidagilar O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo‘nalishlari bo‘lishi lozim:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo‘naltirgan holda liberallashtirish siyosatini o‘tkazish;

- eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish yo‘li bilan takomillashtirish;

- respublikamizdagi eksportga mo‘ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash;

- xorijiy kapitalni avvalo moddiy eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;

- mamlakatni jahon transport tizimiga yanada integratsiyalashuvini rivojlantirish.

Yuqori texnikaviy saviyadagi tayyor mahsulot ulushining oshirilishi yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar ichida muhim o‘rin tutishi lozim, buning uchun esa quyidagilarni bajarish zarur:

- respublikamizdagi eksportchilarning mahsulotini sotish bozorini shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O‘zbekistondagi eksportchi korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko‘maklashish;

- yuqori ilmiy sig‘imli mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyihalarni amaliyotga keng joriy etish;

- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnika va tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko‘rsatish kabi turini rivojlantirish yo‘li bilan respublikamizda erishilgan fan-texnika yutuqlarining jahon xo‘jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish.

- ilmiy loyihalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy loyihalarga bozor yo‘nalishini berish uchun sharoitlar yaratish maqsadida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijoriy qo‘llab-quvvatlashning optimal uyg‘unlashuvining asosiy yo‘llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijorat ahamiyatiga ega bo‘lgan natijalar darajasigacha yetkazish;

- o‘zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi yetakchi institutlar, tashkilot va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o‘tkazish, tijoratlashtirish va texnologiyalar menejmenti sohasidagi yutuqlarni o‘rganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi sig‘imi, talabning mavjudligi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo‘shma korxonalar tashkil etish bo‘yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni o‘rganish zarur bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida milliy xo‘jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda.

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatini yanada yuksaltirmoqda. O‘zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan tashqi savdo siyosatining oqilona tarzda yuritilayotganligi tashqi iqtisodiy aloqalarning jadal sur’atlarda rivojlanishini ta’minlamoqda. Ushbu barqaror rivojlanish sur’atlarini ta’minlash mamlakatimizning xalqaro moliya munosabatlari tizimida munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

19.4. O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni

barpo etish yillari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror bank tizimi yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko‘lami yanada kengayib bordi, bu holat o‘z navbatida xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlari o‘rtasida bir qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy etishida mustahkam rol o‘ynamoqda.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, ulardan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YeTTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo‘l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to‘g‘ri ekanligiga qat’iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992- yil 2- iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valyuta fondi (XVF)ga a’zolik to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi 1992- yil 21- sentyabrda XVFga a’zo bo‘lib kirdi hamda Vazirlar Mahkamasining 93-F raqamli 1993- yil 27- martdagi Farmoyishiga muvofiq respublikaning XVF imzo kvotasiga to‘lov amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki xalqaro moliya tashkilotlarining aloqa agentligi va avuarlar depozitariysi hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasining mazkur muassasalarga a’zoligi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining hukumati bilan kelishgan holda Moliya vazirligi va Markaziy bank yuqorida qayd etilgan xalqaro tashkilotlar oldidagi qarz mablag‘lar olish, to‘lov foizlarini berish va respublika nomidan qarz majburiyatlarini joylashtirish bilan bog‘liq moliyaviy majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonga XVFning missiyasi texnikaviy yordam ko‘rsatish va hukumatda hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida

konsultatsiyalar o‘tkazish maqsadida muntazam kelib turadi. Missiyaning faoliyati iqtisod, moliya sho‘basi va statistika sohasidagi ishning ahvolini o‘rganishga, shuningdek, keyingi iqtisodiy islohotlar yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan.

XVF ekspertlarining o‘rganishlari natijasi bo‘yicha tavsiya va analitik materiallar ishlab chiqiladi, makroiqtisodiyot sohasidagi mavjud muammolarni xal qilish yo‘llari haqida tavsiyalar tayyorlanadi, bular barchasi Markaziy bank tomonidan amaliyotda hisobga olinadi.

Bundan tashqari XVF bilan bitimning “Valyuta tartibiga nisbatan majburiyatlar” moddasiga muvofiq Fond missiyasi bir yilda kamida bir marta O‘zbekistondagi joriy makroiqtisodiy va valyuta siyosatining obzorini o‘tkazadi. Missiya ishi natijalari bo‘yicha tegishli hisobot tayyorlash bilan birga XVF ijrochi direktorlari kengashi muhokamasiga olib chiqiladi.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari bilan birgalikdagi hamkorlik va ishlash muayyan ijobiy natijalarni berdi.

XVF bank qonunchiligini, buxgalteriyaning hisobga olish hisob raqamlari yangi rejasini xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqishga, shuningdek, hisobga olish va hisobotning yangi tizimini joriy etishga ko‘maklashdi, bu bank nazorati samarasi va uning me’yoriy negizi darajasini oshirish imkonini berdi. XVFning texnikaviy ko‘magi to‘lovlar elektron tizimini joriy etish va statistika ma’lumotlari yig‘ish tizimini yaxshilashga olib keldi.

XVF kreditlari milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash, to‘lov balansini mustahkamlashga ajratiladi va bevosita O‘zbekiston hukumatiga beriladi.

XVF rahbariyati va ekspertlari texnik yordam berish va hukumat hamda Markaziy bankda maslahatlar o‘tkazish maqsadida bir necha bor O‘zbekiston Respublikasiga tashrif bilan keldi.

O‘zbekiston Respublikasi va XVF tomonidan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo‘yicha imzolangan Memorandumda respublika iqtisodiyoti islohotini davom ettirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, xalqaro joriy operatsiyalar bo‘yicha milliy valyutani ayirboshlash

qilinishini ta’minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rsatilgan.

1992- yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli a’zosi hisoblanadi. 1992- yil 2- iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro taraqqiyot assotsatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlikda O‘zbekiston Respublikasining a’zoligi to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirdi. Hozir Toshkentda Jahon bankining vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

Jahon bankining mamlakatga ko‘mak berish bo‘yicha mo‘ljallangan Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to‘plami asosiy 4 yo‘nalishga qaratilgan:

1) iqtisodiy o‘sish uchun sharoitni yaxshilash;

2) qishloqlarda iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini oshirish;

3) aholiga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish;

4) atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Jahon banki bilan hamkorlikda quyidagi loyihalar amalga oshirilmoqda:

6. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyihasi;
7. Irrigatsiya infratuzilmalari va drenajlarni rekonstruksiya qilish loyihasi;
8. Maktab ta’limini rivojlantirish loyihasi;
9. Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi;
10. Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish loyihasi;
11. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish loyihasi;
12. Sirdaryo viloyatida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi;
13. Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasi (IES) qurilishi loyihasi;
14. Sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi (Salomatlik-3);

15.Elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi;

16.Olot va Qorako‘l tumanlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi va boshq.

Mamlakatimizning Osiyo Taraqqiyot Banki bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yetarli darajada faol rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi 1995- yilda Osiyo taraqqiyot bankiga (OTB) a’zo bo‘lgan.

O‘zbekistonda OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 ta muhim sohalarga yo‘naltirilgan. Bular:

17.qishloq xo‘jaligi;

18.xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

19.transport va bojxona tranziti sohalarida mintaqaviy hamkorlik;

20.bolalikni himoya qilish va boshlang‘ich ta’limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

OTB va O‘zbekiston o‘rtasida so‘nggi yillarda infratuzilma, transport va aloqa tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi doirasida Maroqand – Qarshi uchastkasida temir yo‘llarni elektr energiyasi bilan ta’minlash loyihasi, qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishi loyihasi, Andijon shahrida suv ta’minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash loyihasi, Jizzax viloyatining Zafarobod va Arnasoy tumanlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qishloq aholi punktlarida suv ta’minotini yaxshilash loyihasi, elektr energiyasidan foydalanish samardorligini oshirish hamda elektr energiyasini nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi bo‘yicha bitimlar imzolangan.

Shu bilan bir qatorda OTB va mamlakatimiz hukumati o‘rtasida Quyosh energiyasi bo‘yicha qo‘shma xalqaro ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida Memorandum imzolangan. Mazkur Memorandumga asosan OTB tomonidan quyosh energetikasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishga mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda Osiyo Taraqqiyot Banki bilan amalga oshirilgan dasturlar va loyihalar xususan qishloq xo‘jaligi, xususiy tadbirkorlikni

rivojlantirish, irrigatsiya, suv resurslarini boshqarish, transport va bojxona tranziti hamda bolalikni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish turlari va boshlang‘ich ta’limni yaxshilash kabi sohalarni qamrab olgan.

O‘zbekiston 1992- yildan Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki a’zosi hisoblanadi. YeTTB O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi eng yirik investorlardan biri hisoblanadi.

YeTTB O‘zbekistonda o‘z faoliyati yettita yo‘nalishini belgiladi. Bular quyidagi sohalarni rivojlantirishga qaratiladi:

21. moliya sektori va bank infratuzilmasi;
22. kichik va o‘rta korxonalar;
23. bozor infratuzilmasi;
24. energetika majmuasi;
25. paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari;
26. sayyohlik infratuzilmasi;
27. tabiiy resurslarni o‘zlashtirish.

O‘zbekiston Islom Taraqqiyot bankiga 2003- yil 3- sentyabrda a’zo bo‘lib kirgan. Ushbu bank tomonidan mamlakatimizda qator loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirildi, jumladan, mintaqaviy tez tibbiy yordam markazlarini zarur jihozlar bilan ta’minlash, elektr energiyasi uzatish tarmoqlarini qurish, kichik va xususiy biznes uchun moliyalashtirish liniyalari, kollejlar va umumta’lim maktablarini qurish va jihozlash, davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o‘tkazishga ko‘maklashish va boshqalar.

Islom taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi sohalarga yo‘naltirilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish borasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirda Islom taraqqiyot banki O‘zbekiston hamkorlik qilayotgan xalqaro moliya institutlari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga qisqa vaqt oralig‘idagi a’zoligi mobaynida, Bank bilan moliyaviy va texnik hamkorlik barqaror rivojlanib, ijobiy istiqbollarga ega bo‘ldi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot banki mamlakatimizda qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda o‘zining mablag‘larini ajratish bilan faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi bir qator investitsion loyihalarni amalga oshirishda ham mazkur tashkilotlarning o‘rni muhimdir.

Tayanch so‘z va iboralar

Investitsiya, eksport va import, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘iga, tovar konsignatsiya shartlari, bank kafolatnomasi, MDH, IHT, ShHT.

Takrorlash uchun savollar

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining tasarrufiga nimalar kiradi?

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy vazifalarini ayting?

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida qabul qilingan huquqiy hujjatlarni ayting?

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish nimalarni o‘z ichiga qamrab olgan?

O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini izohlang?

O‘zbekistonda eksport qiluvchilar faoliyatini rag‘batlantirish uchun qanday imtiyozlar yaratilgan?

O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini izohlang?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar

O‘zbekistonning tashqi savdo hajmi o‘zgarishini tahlil eting.

O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi loyihalarini o‘rganing.

O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni o‘rganing.

Asosiy terminlar lug‘atini tuzing.

Test savollari

- Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda –

a) O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarining, yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali hamkorlik o‘rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi;

b) milliy xo‘jaliklar o‘rtasida o‘zaro barqaror aloqalarning rivojlanishi hamda mehnat taqsimoti negizida yuzaga kelgan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan birlashuvi;

d) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi jarayon;

e) mamlakatlar o‘rtasidagi mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog‘liq munosabatlarga cheklovlar qo‘yilishi jarayoni.

- O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatini ko‘rsating:

a) “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonun;

b) “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonun;

d) “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonun;

e) “Boj tarifi to‘g‘risida”gi qonun.

- O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta fondiga qachon a’zolikka qabul qilingan.

a) mazkur fondga a’zo emas;

b) 1992- yil 21- sentyabrda;

d) 1994- yil 15- avgustda;

e) 1995- yil 12- martda.

- O‘zbekiston Respublikasi Osiyo Taraqqiyot Bankiga qaysi yilda a’zolikka kirgan.

a) 1995- yilda;

b) 1992- yilda;

d) 1993- yilda;

e) 2001- yilda.

- O‘zbekiston Respublikasi Islom Taraqqiyot bankiga qachon a’zolikka kirgan.

a) 2004- yil 10- sentyabrda;

b) 2002- yil 5- mayda;

d) 2005- yil 16- aprelda;

e) 2003- yil 3- sentyabrda.

6. Islom Taraqqiyot banki qachon tashkil topgan va uning asosiy maqsadi nima.

a) 1975- yilda tashkil topgan bo‘lib, maqsadi a’zo mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo hamda sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat;

b) 1970- yilda tashkil topgan bo‘lib, maqsadi a’zo mamlakatlardagi tijorat banklari faoliyatini barqarorlashtirish hisoblanadi;

d) 1972- yilda tashkil topgan bo‘lib, maqsadi a’zo mamlakatlardagi qashshoqlik darajasini qisqartirish hamda korxonalarni kreditlash hisoblanadi;

e) 1968- yilda tashkil topgan bo‘lib, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qisqa muddatga kredit ajratish bilan shug‘ullanadigan yirik davlatlararo moliya institutlaridan biri hisoblanadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Shanxay hamkorlik tashkilotiga (ShHT) qachon a’zo bo‘lib kirgan.

a) 2001- yil iyun oyida;

b) 2002- yil may oyida;

d) 2003- yil iyun oyida;

e) 1999- yil avgust oyida.

8. O‘zbekiston Respublikasida bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni nazorat qiluvchi davlat organi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

a) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

b) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

d) O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi;

e) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

– O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 11-noyabr, O‘RQ-582-son.

– O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 5-noyabr, O‘RQ-580-son.

– O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 22-oktyabr, O‘RQ-573-son.

– O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 2014-yil 9-dekabr.

– O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. 2000-yil 26-may.

– Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

– Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

– Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

– Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

– Ataniyazov J., Alimardonov E. “Xalqaro moliya munosabatlari”. Darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2014 y. – 432 b.

– Господарик Ю.П. Международная экономическая безопасность. – 3-е изд., стер. – М.: Университет «Синергия», 2016. - 416 с.

– Звонова Е. Мировые финансы. Практикум. Учебно-практическое пособие.– М.: КноРус, 2018. – 234 с.

– Климачев В.В. Международные финансовые центры в глобальной финансовой системе. Автореф. дис. … кан. экон. наук. – М., 2011. – 24с.

– Кондрат Е.Н. Международная финансовая безопасность в условиях глобализации. Основные направления правоохранительного сотрудничества государств. – М.: «Юстицинформ», 2015. – 592 с.

– Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. - 576 с: ил. С. 295.

– Свиридов О., Лысоченко А. Международные финансы. – Ростов н/Д.: Феникс, 2015. – 395 с.

– Хасбулатов Р.И. Международные финансы в 2 ч. Часть 1. 2-е изд., пер. и доп. Учебник. / Р. И. Хасбулатов. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 408 с.

– Хасбулатов Р.И. Международные финансы в 2 ч. Часть 2. 2-е изд., пер. и доп. Учебник. / Р. И. Хасбулатов. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 332 с.

– Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. – М.: КноРус, 2019. – 424 с.

– Felix I. Lessambo. International Financial Institutions and Their Challenges. A Global Guide for Future Methods. Palgrave Macmillan Us. Textbook. 2015. – 261 p.

– Paul R. Krugman. Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International economics:theory & policy/Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. – 9th ed. Textbook. 2018. – 782 p.

Internet saytlari:

– http://www.gov.uz
– http://www.worldbank.org
– http://www.imf.org
– http://www.adb.org
– http://www.bis.org
– http://www.unctad.org
– http://www.oecd.org

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Aktiv to‘lov balansi – to‘lov balansida tushumlar summasi to‘lovlar summasidan ortiq bo‘ladi.

Arbitrajchilar – bir vaqtning o‘zida turli bozorlarda, turli narxlar asosida moliyaviy resursni sotib olish va sotish orqali foyda ko‘radigan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Asean – 1967-yilda Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin tomonidan tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi.

Autrayt forvard kursi – bitim tuzilgan kunda qayd etiladi va uning ijro kuni uchun haqiqiy.

BRIK – barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida katta ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoydan iborat mamlakatlar guruhi.

Bojxona ittifoqi – o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bekor qilgan va a’zo bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi.

BENILYuKS – 1960-yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o‘rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq.

Birja – strandartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori yoki qimmatli qog‘ozlar, oltin, chet el valyutalari (fond birjasi) bozori.

Bevosita kotirovka – Milliy valyuta birliklarida ifodalangan xorijiy valyuta birligining narxi.

Bretton-Vuds valyuta tizimi – 1944-yilda Bretton-Vuds konferensiyasida mamlakatlar tomonidan yangi valyuta tizimini barpo etish to‘g‘risidagi bitim asosida tashkil topgan. Bretton-Vuds tizimi – savdo hisob-kitoblari va pul munosabatlarini tashkil etishning xalqaro tizimidir.

Valyuta – tashqi iqtisodiy va xalqaro aloqalarning boshqa shakllarida ishtirok etuvchi mamlakat milliy pul birligi.

Vaqtinchalik usul – to‘lov balansi defitsitini chet el kapitalini, ya’ni tadbirkorlik va ssuda kapitallarini kiritish yo‘li blan qoplashga aytiladi.

Valyuta qamali – xalqaro tashkilotlar yoki ayrim mamlakatlar guruhi tomonidan ba’zi bir mamlakatlarga nisbatan valyuta tushumlarining kelish jarayonida to‘sqinlik qilish tushuniladi.

Valyuta bozorlari – bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar – tashqi savdo bo‘yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog‘liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta interventsiyasi – Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursiga ta’sir etish maqsadida chet el valyutani sotish va sotib olish operatsiyalaridir.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Valyuta munosabatlari – valyutaning jahon oborotidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul munosabatidir.

Valyuta operatsiyalari – chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqining almashinishi bilan bog‘liq operatsiyalarga aytiladi.

Valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish – bir vaqtning o‘zida bir necha yetakchi erkin almashinadigan valyutalarda chet el valyuta zaxiralarini tashkil qilish.

Valyuta riski – valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko‘rish xavfi tushuniladi.

Valyuta siyosati – bu xalqaro valyuta munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar yig‘indisidir.

Valyuta tizimi – valyuta munosabatini tashkil qilishning davlat huquqi shakli.

Valyutaning kurs rejimi – birinchidan, agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida aniqlansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimi deb ataladi.

Valyutaviy inqiroz – xalqaro valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan keskin ziddiyatlarga aytiladi.

Vekselli kredit – eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o‘tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo‘natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib aktseptlaydi, ya’ni unda ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Vositalashgan kafolatlar – kafolat beruvchi o‘ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o‘taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Valyuta kurslari mexanizmi – milliy valyutaning yevroga nisbatan asosiy paritetini tartibga solish mexanizmi bo‘lib, valyutalar kursi paritetdan 15%gacha farqlanishi mumkin.

Devalvatsiya – bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosda pasaytirilishi.

Deviz siyosati – bu davlat organlarining chet el valyutalarini sotish yoki sotib olish orqali milliy valyuta kursiga ta’sir etish siyosatiga aytiladi.

Devizlar – banklarning xorijda joylashtirilgan xorijiy valyutadagi aktivlari, shuningdek, chet elda to‘lanishi lozim bo‘lgan xorijiy valyutadagi cheklar va veksellar.

Demping – savdo siyosatining moliyaviy metodi bo‘lib, tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish.

Derivativlar – biron-bir moliyaviy dastakning hosilaviy shakli hisoblanadi.

Deflyatsiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Diskont stavkasi – uchyot stavkasi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Diskont siyosati – Markaziy bankning uchyot stavkasini o‘zgartirish yo‘li bilan milliy valyuta kursiga va to‘lov balansining holatiga ta’sir etish siyosatidir.

Yevrobozor – savdo-sotiqlar o‘tkazilgan mamlakat valyutasidan boshqa valyutalarda aks etgan depozitlar va kreditlar bilan savdo qilinadigan xalqaro pul bozorlari va kapitallar bozorlari uchun umumiy tushuncha.

Yevropa valyuta kelishuvi – 1958-yilda imzolangan kelishuv bo‘lib, ishtirokchi mamlakatlar valyutalari bir-biriga va dollarga ayira boshlangan. Kurs tebranishlari chegarasi + 0,75% darajasida o‘rnatildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) – 1991-yilda tashkil etilgan. YeTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashish maqsadida tuzilgan.

Yevro hududi – Yevropa Ittifoqiga a’zo, yagona valyuta yevro muomalada bo‘lgan mamlakatlar hududi.

Yevropa valyuta tizimi – 1979-yilda asos solingan. Uning bosh maqsadlari — EIga a’zo mamlakatlar iqtisodiy hamkorligini kuchaytirish va ularni uchinchi mamlakatlarning beqarorlashtiruvchi ta’siridan muhofaza etish. Valyutalarning tebranish chegarasi + 2,25% darajasida belgilandi, 1993-yilda ular 15% gacha kengaytirildi.

Yevropa to‘lov ittifoqi – 1950-yilda 16 mamlakat tomonidan Yevropa valyutalarining erkin konvertatsiyalanishi uchun ko‘ptomonlama to‘lovlar va asoslar tizimi yaratish maqsadida tashkil qilingan.

Yevropacha opsion – faqatgina belgilangan sanada ijro etilishi mumkin bo‘lgan opsion turi.

Jahon moliya bozori – mamlakatlar o‘rtasida kapital resurslarini jamlash va taqsimlashni ta’minlab beruvchi bozor munosabatlari yig‘indisi.

Jahon moliyaviy muhiti – investorlar va korporatsiyalar moliyasi, banklar boshqaruvchilari qabul qiluvchi qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi hamda jahon moliya bozori o‘sishi sharoitini aniqlaydi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi – jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayoni.

Import – xorijdan mahsulot va xizmatlarning kelishi (shuningdek, kapitallar, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar). Ichki bozorda bu mamlakatlar tovarlarining sotilishi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR-IHTT) – dunyoning iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish munosabatlariga kirishuvchi tashkiloti. U 1960-yilda tashkil etilgan bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirib turadi. Unga a’zo mamlakatlar 1997-yilda 29 tani tashkil etgan. (Tashkilotning so‘nggi a’zosi Koreya Respublikasi, 1996-yil, noyabr).

OESR hozirgi bosqichda EI ning integratsiyalashgan qo‘shilmasi turiga kirmaydi, ammo bu tashkilot unga a’zo bo‘lgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy muammolari va ichki ijtimoiy taraqqiyoti muassasalariga aralashadi.

Ichki qiymat – Opsion narxini (rag‘batni) belgilovchi qiymat. Ichki qiymat joriy forvard kursi va ijro narxi o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

Islom taraqqiyot banki – 1975-yilda tashkil topgan bo‘lib, maqsadi a’zo-mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo hamda sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi – ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta’minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyutani muomalaga kiritgan mamlakatlar guruhi.

Kafolatli marja – pozitsiyani ochishda kafolat sifatida opsionlar birjasining kliring palatasiga kiritish lozim bo‘lgan summa.

Kapitallar va kreditlarning harakati balansi – tadbirkorlik bilan ssuda kapitalining harakati aks ettiriladi.

Kliring – tovarlar, qimmatbaho qog‘ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob – kitob qilish tizimi. Bu tizim o‘zaro talablar va majburiyatlarni bajarilishiga asoslangan. Aytish mumkinki, kliring rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida valyutani erkin

konvertatsiya qilish borasida chegaralanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kliring palatasi – muddatli birjadagi, xar bir bitim bo‘yicha sherik sifatida chiquvchi hisob-kitob palatasi. Birja savdosi ishtirokchilari kliring palatasiga sug‘urta garovlarini kiritadilar va har kuni ochiq pozitsiyalarini qayta narxlaydi.

Kompensatsion bitim – uzoq muddatli tashqi savdo kelishuvlari shakli xaridorga takdim etilgan maxsulot yoki ko‘rsatilish lozim bo‘lgan xizmatning to‘lov borasidagi engilligi. Tajribada ko‘rinishicha, tomonlarning aniq kelishuvlari so‘nggida ro‘yxatdagi tovarlarning soni va bahosi sifat darajalariga mos kelishi shart etib belgilangan.

Konyunktura – ayni paytdagi iqtisodiyotda kechayotgan qandaydir o‘zgarishlar va obyektiv ahvolning holati.

Konglomerat birlashishi – ishlab chiqarish yoki ta’minot munosabatlari bo‘yicha o‘zaro aloqador bo‘lmagan kompaniyalarning birlashish bo‘lib, bunda bir tarmoqda faoliyat yurituvchi kompaniyaning boshqa tarmoqdagi kompaniya bilan qo‘shilishi sodir bo‘ladi.

Kotirovka valyutasi – savdo qilinayotgan valyutaning standart birliga narxini ko‘rsatadi.

Kredit – yevrobozordagi o‘rta va uzoq muddatli kreditlar. Ular bo‘yicha, suzuvchi foiz stavkalari belgilangan davr uchun qat’iylashtirib qo‘yiladi.

Kross-kurs – bir mamlakatning valyutasini ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross-kurs xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladi. Uni asosan yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo‘llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo‘li hisoblanadi.

Kunlik limit – savdo-sotiq ishtirokchisiga kun davomida o‘ziga olishga ruxsat etilgan maksimal valyutaviy yoki foiz xatari.

Kredit diskriminatsiyasi – bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to‘lashda ma’lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og‘ir va qiyin shartlarni qo‘yishdir.

Ko‘pmillatli korporatsiyalar – bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib, xorijiy bo‘limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar.

Libor – «London banklararo depozitlar bozorida taklif (sotuvchi)ning stavkasi» tushunchasining qisqartmasi (abbreviaturasi), Londonning etakchi banklari har kuni teng darajadagi banklar uchun o‘z valyutaviy kredit stavkalarini ma’lum qiladilar.

Likvidlilik – foydalanishda (ixtiyorda) bo‘lgan naqd mablag‘lar va tezda pul mablag‘lariga aylanadigan aktivlar.

Limitlangan topshiriqnoma (cheklangan narxli e’lon) – bitim amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan topshiriqni maksimal yoki minimal kursda valyutani sotib olish yohud sotish uchun topshiriqnoma.

Lombard krediti – tijorat banklari Markaziy bankdan o‘zlarining portfelidan qimmatbaho qog‘ozlarni garovga qo‘yish orqali kredit olish - bu lombard krediti hisoblanadi.

Loro hisobvarag‘i – A bankning korrespondentlik hisobvarag‘i bo‘lib, B banki uni o‘z pozitsiyasidan yuritadi.

Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) – 1993 yilda Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi.

MERKOSUR – Janubiy Amerika umumiy bozori yoki Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori.

Marja – sotib olish va sotish kurslari o‘rtasidagi farq. Mijozlik bitimlarida banklararo kurslar va mijozlar bilan hisob-kitob qilinadigan kurslar hamda foiz stavkalari o‘rtasidagi farqni belgilash uchun qo‘llanadi.

Milliy valyuta tizimi – ma’lum bir mamlakat hududida valyuta munosabatlarini tashkil etish, tartibga solish bilan bog‘liq tadbirlar majmuasini ifodalaydi.

Mintaqaviy valyuta tizimi – muayyan bir mintaqa doirasidagi mamlakatlar tashabbusiga ko‘ra tashkil etilgan valyuta tizimini ifodalaydi.

Minimal zaxiralar – tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishlari shart bo‘lgan pullar. Minimal zaxiralar darajasi Markaziy bank

tomonidan muayyan depozit bitimlar miqdoridagi qat’iy foiz ulushida o‘rnatiladi.

Milliy valyutaning pariteti – milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati bo‘lib, u hisoblanadigan ko‘rsatkich hisoblanadi va milliy valyuta kursini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy fyuchers kontrakti – valyuta yoki moliyaviy vositalar oldi-sottidisining standart birja kontrakti. Moliyaviy fyuchers kontrakti oldindan belgilangan kurs bo‘yicha, kelishilgan muddatda savdolashiladigan summani etkazib berish yoki qabul qilish to‘g‘risidagi standartlashtirilgan qat’iy kelishuv.

Maastrixt shartnomasi – 1992-yilda Maastrixt shahrida Yevropa Ittifoqini tuzishning asosini tashkil etuvchi shartnoma.

Moliyaviy investitsiyalar – mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar orqali qo‘yilmalar kiritish.

Moliya-sanoat guruhlari – ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatlar samaradorligini ta’minlash maqsadida markazlashgan boshqaruvga ega bo‘lgan va o‘zlarining resurslarini (ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, nomoddiy va boshqalar) birlashtirgan ishlab chiqarish, savdo korxonalari va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan mustaqil yuridik shaxslarning integratsiyasi shakli.

Norezidentlar – davlatning xorijiy mamlakatlarini boshqarish, ya’ni xorijdagi korporatsiyalar, hukumat ofislari, elchixonalar, qo‘shma korxonalar, chet mamlakatlar chegralaridagi korxona egalari, shuningdek, xorijda doimiy yashovchilar va bu yurtga keluvchilar norezident sanalishadi.

Nisbiy afzallik – manfaat, foyda. U tashqi savdoga a’zo mamlakatlarning turli mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari tushuniladi.

Neft mahsulotlari eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti (OPEK) – Xalqaro hukumatlar o‘rtasida tuzilgan tashkilot. U Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari hududlaridagi neftni qazib olish va

eksport qilish, ularning narxlarini belgilash massalarini amalga oshirish bo‘yicha 1960 yilda tashkil etilgan.

NAFTA – 1992-yilda AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasida tuzilgan Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi.

Nostro hisobvarag‘i – A bankning korrespondentlik hisobvarag‘i, B banki uni A bankining pozitsiyasidan yuritadi.

Oltin demonetizatsiyasi – bu oltinning pul funksiyalarini bajarishdan asta-sekin mahrum etish jarayonidir.

Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kredit – eksportyor jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ochiq iqtisodiyot – tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyotning nisbiy ustunliklariga tayanib, jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyot.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – 1966 yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi qit’aning rivojlanayotgan mamlakatlariga iqtisodiy rivojlanishda ko‘maklashish, hududiy hamkorlikni rag‘batlantirish, a’zo-mamlakatlarga texnik yordam ko‘rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Overnayt-pozitsiya – xorijiy valyutadagi pozitsiya, u eng kamida tun vaqti davomida qoplanmaydi.

Opsion – xaridor muayyan summadagi valyutani sotib olish yoki sotish huquqini oladi, sotuvchi xaridorning istagiga ko‘ra valyutani etkazib berishi yoki sotib olishi shart.

Opsion «Kol» – avvaldan kelishilgan narxda muayyan kunda yohud muayyan muddat davomida muayyan summadagi valyutani sotib olish huquqi.

Opsion «Put» – kelishilgan narxda, ijro etish kunida yoki muayyan davr mobaynida muayyan summadagi valyutani sotish huquqi.

Opsion mukofati – sotuvchi tomonidan opsion xaridoriga to‘langan rag‘bat. Rag‘bat miqdori ikki qiymatdan tashkil topadi: ichki va vaqtinchalik.

Opsion xatar – valyuta kursi yoki foiz stavkalarining noqulay o‘zgarishlari xatari. U shuningdek valyuta xatari yoki foiz xatari deb ataladi.

Passiv to‘lov balansi – tushumlar summasi to‘lovlar summasidan bo‘ladi.

«Parij klubi» – kreditorlar mamlakatlarning hukumatlararo muassasasi, MVF a’zosi. 1961 yilda tashkil etilgan bu «klub» to‘lov muddatini bir tomonlama o‘zaytirishning oldini olish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari shartlarini qayta ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi.

Paritet – diler tomonidan uning kotirovkasi bilan unga qo‘yilgan kurs mosligini belgilash uchun foydalaniladi.

Portfel investitsiyalar – kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog‘ozlariga (korxona ustav kapitalining 10% dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo‘lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Protektsionizm – tashqi savdo siyosati prinsipi, davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Pozitsiyaning yopilishi – ochiq valyutaviy yoki pozitsiyaning qarama-qarshi bitim yo‘li bilan qoplanishi.

Rag‘bat (mukofot) – forvard va spot kurslari o‘rtasidagi farq. Bunda spot-kurs forvard kursidan past bo‘ladi. Tegishli muddatdagi har ikki valyuta foiz stavkalari farqi rag‘batning hisob-kitob bazasini tashkil etadi.

Revalvatsiya – bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan oshirish. Revalvatsiya asosan importni rag‘batlantirish va milliy bozorni o‘sha mamlakat tovarlari bilan to‘ldirish maqsadida qo‘llaniladi.

Rezerv (Stand-By) kelishuvlari – asosan qisqa muddatli to‘lov balansi muammolarini bartaraf etishga mo‘ljallangan.

Rezidentlar – jismoniy yoki yuridik shaxslar, ya’ni boshqa mamlakatda doimiy yashayotgan fuqarolar.

Reimport – ichki bozorda sotish, importdan farqli o‘laroq mamlakatga xorijiy tovarlarni qayta ishlash va xizmatlarni ko‘rsatish uchun kirtish. Reimport miqdori va tarkibi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rniga bog‘liq. Uning tarkibini yarim fabrikatlar, xomashyolar, mashina va asbob-uskunalar, yarim qayta ishlangan iste’mol mollari tashkil qiladi.

Real ish haqi – tovar va xizmatlar uchun haq to‘lash majmuasi, ayni davrda ish haqi uchun berilayotgan summa. Bu summa soliqlar iste’molchi indeksi va boshqa to‘lovlardan tashqari bo‘lgan mehnati haqidir.

Savdo balansi – eksport va import operatsiyalari bo‘yicha valyuta to‘lovlari va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar qiymati bu yerda aks ettirilmaydi.

Savdo to‘sig‘i – odatda tariflar, cheklashlar yoki valyuta nazorati tarzida mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar erkin almashinuvining sun’iy cheklanishi.

Savdo (ish) kuni – foiz va valyuta bitimlari to‘g‘risidagi bitim tuziladigan kun.

Savdo qilinadigan valyuta – karrali standartli birliklar bilan savdo qilinadigan va narxi boshqa valyutaning o‘zgaruvchi birliklarida ifodalanadigan valyuta.

Svop operatsiyasi – bir valyutani spot operatsiyasi bo‘yicha sotib olish va forvard sharti bo‘yicha sotishiga yoki forvard sharti bo‘yicha sotib olish va spot sharti bo‘yicha sotishga aytiladi.

Svop-bitim – kontragentlar o‘rtasida bir vaqtning o‘zida "spot» bitimi va qarama-qarshi forvard bitimini tuzish.

Svop-stavka (qo‘shilma) – spot va forvard kurslari o‘rtasidagi, punktlarda ifodalangan foizlar farqi. Foizlar tuzilmasiga bog‘liq holda diskont yoki rag‘batdan tarkib topadi.

SDR – maxsus qarzdorlik huquqi. XVF tomonidan emissiya qilinuvchi xalqaro hisob birligi.

Smitson bitimi – 1971-yilda Bretton —Vuds tizimiga a’zo mamlakatlar Vashishtondagi Smitson institutida o‘z valyutalarining almashtirish kurslari va tebranish chegaralarini belgilab qo‘ydilar.

Sotib olish kursi – u bo‘yicha oldi-sotdi qilinadigan valyuta sotib olinadigan kurs.

Sotish kursi – u bo‘yicha oldi-sotdi qilinadigan valyuta sotiladigan kurs.

Spot operatsiyalari – valyuta bitimi tuzilgandan so‘ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar.

Spot kursi – spot bitimini tuzishda oldi-sotdi qilinayotgan valyutaning muayyan birligi qiymatini ifodalovchi kurs.

Spekulyantlar – moliyaviy instrumentlarning kurslaridagi farq hisobiga foyda olishni ko‘zlagan ishtirokchilar.

Spot-nekst – keyingi ish kunida teskari bitim amalga oshiriladigai qisqa muddatli svop yoki foizli kelishuv.

Spred – valyutani kotirovkalashda sotib olish va sotish kursi o‘rtasidagi farq.

Stagflyatsiya – iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o‘zida o‘sishi.

Strategik pozitsiya – muayyan muddatda yoki to‘lov kunida kurslarning kutilmagan o‘zgarishidan foyda olish uchun foydalaniladigan ochiq forvard pozitsiya.

Strategik alyanslar – jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo‘lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to‘sqinlik qilmaydi.

Sug‘urta xatari – bitim bo‘yicha sherik o‘z mamlakatidagi siyosiy xodisalar yoki qonunchilikdagi cheklovlar oqibatida to‘lov majburiyatlarini bajara olmasligi xatari.

Tarif cheklovlari – iqtisodiy va ma’muriy qonunchiligiga asoslangan summa, u tashqi savdo boshqaruvida boj-tarif siyosatini aks ettiruvchi funksiyadir.

Tasdiqlangan kafolatlar – kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, bank o‘z mijozi bo‘lgan importyorning

to‘lov majburiyatlari bo‘yicha kafolat bergan bo‘lsa, eksportyorning banki ham ushbu kafolatlar bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tashqi savdo siyosati – milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga, qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Tashqi savdoni kreditlash – pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma’lum foiz to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatga qarzga berish.

Tashqi qarz – davlatning xorijiy mamlakatlar qarz beruvchi bank va moliya muassasalaridan zayom va kreditlar olishi, natijasida paydo bo‘lgan qarzi.

Teskari (bilvosita) kotirovka – xorijiy valyuta birliklarida ifodalangan milliy valyuta birligining narxi.

Teskari kurs – ikki mamlakatda turlicha ifodalangan valyuta kursi. Bir mamlakatda oldi-sotdi qilinadigan valyuta boshqa mamlakatda kotirovka valyutasi sifatida amal qiladi.

Transmilliy bank – jahon ssuda kapitali va moliya-kredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar tushuniladi.

Transmilliy korporatsiyalar – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Transmilliylashuv indeksi – TMKning xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasidir.

Treyderlar – moliyaviy instrumentlarning kurslari o‘zgarishidan foydalangan holda bir yoki bir nechta shartnomalar asosida foyda olishni ko‘zlagan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Transfertlar – iqtisodiy boylik, bir tomonlama tartibda ikkinchi tomon ishtirokini ta’minlash.

To‘g‘ri kafolatlar – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to‘lov bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar

to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi.

To‘lov balansi – mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to‘lovlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo‘lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to‘la ega bo‘lish yoki kamida 10 foizi xo‘jalik faoliyatining ta’sirchan nazorat qilinishini ta’minlaydi.

To‘liq iqtisodiy integratsiya – yagona iqtisodiy siyosat yuritish, umumiy valyuta va milliy boshqaruvdan yuqori tashkilotlarni joriy etish.

To‘lov sanasi – bitim bo‘yicha sherik o‘sha kunga qadar valyutani o‘tkazib berishi, ya’ni to‘lovni amalga oshirishi lozim bo‘lgan sana.

Uzun pozitsiya – xorijiy valyutaga nisbatan kurs xatar (tavakkal)laridan iborat talablar.

Umumiy bozor – a’zo mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta’minlashga erishishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruhi.

Umumiy pozitsiya – to‘lovlarning turli muddatlari hisobga olinmaydigan sof valyutaviy yoki foizli pozitsiya.

Firma krediti – eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishi tushuniladi.

Forvard operatsiyalari – belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo‘lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda forvard bitimlarini amalga oshirishning standart muddatlari uchraydi. Standart muddatlarga 1; 3; 6; 9; va 12 oylarni kiritish mumkin.

Foiz stavkasi kafolati – IRG –“Interest Rate Guarantee”ni odatda qarz oluvchilar yoki kreditorlar opsioni deb atashadi.

Foizli svop – ayni bir valyutadagi foiz to‘lovlari almashinuvini o‘zida aks ettiradi. Odatda bunday bitimlar bir yildan ortiq muddatga amalga oshiriladi. Bunday svoplarda asosiy summa almashinuvi hech qachon ko‘zda tutilmaydi.

Forvard bitimi – vaqtinchalnk opsionli bitim tuzilganidan keyingi ikki ish kunidan kattaroq muddatda bir valyutani boshqasiga konvertatsiyalanishi to‘g‘risidagi ikki tomonning kelishuvi.

Foreks-klub – xalqaro valyuta savdosining faol ishtirokchilari bo‘lgan banklar tomonidan professional standartlarni va valyuta bozoridagi muomala me’yorlarini belgilab qo‘yish maqsadida asos solingan tashkilot.

Xalqaro kafolatlar – tovarlar va kapitallar harakatining uzluksiz va doimiy harakat qilinishini ta’minlanishiga xizmat qilib Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari – tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Xalqaro hisob-kitoblar – tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog‘liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmui tushuniladi.

Xalqaro Valyuta Fondi – a’zo davlatlar o‘rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va o‘rta muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilotdir.

Xarid krediti – eksportyor bankning to‘g‘ridan to‘g‘ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya’ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi.

Xalqaro korporatsiyalar – jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi yirik kompaniyalardir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar keltiruvchi xavflar va ularning iqtisodiyotini izdan chiqarishga bo‘lgan urinishlarni bartaraf etishning kafolatlangan mexanizmini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig‘indisi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo‘shilishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – bu davlatlar o‘rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimlanishi bo‘lib, u alohida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari – jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlash uchun moliya va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida davlatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi.

Xalqaro birlashish va qo‘shib olishlar – kompaniyalarning xalqaro bozorlarda aksiyalarning yirik paketi yoki korxonani to‘liq sotib olishlari jarayoni.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) – hukumatlararo kredit-moliya tashkiloti bo‘lib, uning asosiy vazifalari a’zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish, xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berish va to‘lov balanslarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo‘lib, u 1960 yilda tashkil etilgan. Uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan a’zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, ana’naviy kreditlarga nisbatan og‘ir bo‘lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko‘mak berish hisoblanadi.

Xedjerlar – valyuta kurslarining kelgusida salbiy tomonga o‘zgarishidan ko‘riladigan moliyaviy zararning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi ishtirokchilar.

Xizmatlar va tijorat xarakteriga ega bo‘lmagan to‘lovlar balansi – transport, pochta, telegraf, telefon, turizm, madaniy aloqalar, perevodlar, xorijiy mamlakatlar hududida harbiy qismlarni saqlash, chet elda savdo va diplomatik vakolatxonalarni ochish, xalqaro kreditlar

bo‘yicha to‘lanadigan foizlar va boshqa shu kabi sohalarda yuzaga keluvchi valyutaviy tushumlar va to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

Xorijiy valyuta – boshqa bir mamlakatda qonuniy to‘lov vositasini ifodalovchi valyuta.

Chet el valyutalarini diversifikatsiya qilish – bir vaqtning o‘zida bir nechta chet el valyutasida rezervlar tashkil qilish tushuniladi.

Erkin almashinuvchi valyuta – mamlakatning to‘lov balansini joriy operatsiyalar bo‘limiga valyutaviy cheklashlar bo‘lmasa, bu mamlakatning puli erkin almashadigan valyuta deb tan olinadi.

Erkin iqtisodiy zonalar – ushbu hududlarda mamlakatda amal qiluvchi xo‘jalik faoliyatiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash tartibi joriy etiladi.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitalni tashqi savdoga chiqarish. Eksport predmetlari tovar singari xizmat qiladi, u mamlakat ichkarisida qayta ishlanib, chegraga olib boriladi.

Eksport (import) kvotasi – ma’lum tovarlarni ishlab chiqarish va eksportga etkazib berishning belgilab qo‘yilgan hajmi; import kvotasi esa har yili xorijiy mamlakatdan keladigan mahsulotlar hajmini miqdor jihatidan cheklab qo‘yish.

Eksport krediti – eksport kreditorlar (firma, bank va hukumat kabilar) xorijlik sheriklariga ularni qiziqtirgan mahsulot va xizmatlarni tasarruflariga olishlari uchun kredit ajratishi. Eksport krediti sug‘urta tizimi eksportchilarning mablag‘lari qadrsizlanishi va foizi bilan qaytishini kafolatlaydi.

Yamayka valyuta tizimi – zamonaviy jahon valyuta tizimi bo‘lib, alohida mamlakatlarning valyuta tizimlariga emas, balki huquqiy mustahkamlangan davlatlararo tamoyillarga asoslangandir. Yamayka valyuta tizimining o‘ziga xos xususiyati erkin suzib yuruvchi valyuta kurslarini joriy etilishi bo‘ldi.

Yarim marjali kurs – mijoz bilan valyuta bitimini hisob-kitob qilishda to‘liq marja emas, balki yarmi olinadi. Agar odatdagi marjaning chorak qismi hisobga olinsa, bu holda gap faqat chorak marja kursi haqida boradi.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

1-BOB. JAHON IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING ROLI

1.1. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari va rivojlanish omillari ... 6
1.2. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o‘rni 10
1.3. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati 13

2-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI

2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tushunchasining mohiyati va uning asosiy jihatlari..... 21
2.2. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari, omillari va rivojlanish bosqichlari 24
2.3. Globallashuvning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri..... 29

3-BOB. JAHON MOLIYAVIY ARXITEKTURASI VA XALQARO MOLIYA TIZIMI

3.1. Jahon moliyaviy arxitekturasining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi..... 36
3.2. Xalqaro moliya tizimining mohiyati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari..... 43
3.3. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlari 48

4-BOB. XALQARO MOLIYAVIY MARKAZLAR VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

4.1. Jahon moliyaviy markazlari: zamonaviy nazariyalar, rivojlanish bosqichlari va shakllantirish shart-sharoitlari 57
4.2. Global va xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tizimi 62
4.3. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar va masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanish xususiyatlari..... 75

5-BOB. XALQARO MOLIYA BOZORI VA UNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

5.1. Xalqaro kapital harakatining mohiyati va xalqaro moliya bozorining tarkibiy tuzilishi 86
5.2. Xalqaro moliya bozorining rivojlanish va xalqaro kapital haratining zamonaviy tendensiyalari..... 93
5.3. Xalqaro moliya bozorini tartibga solish usullari va mexanizmi 97

6-BOB. XALQARO VALYUTA OPERATSIYALARI

6.1. Valyuta kursi va uning turlari..... 110
6.2. Valyuta operatsiyalarining mohiyati 124
6.3. Valyuta siyosati 135

6.4. O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi 146

7-BOB. JAHON VALYUTA TIZIMI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

7.1. Jahon valyuta tizimi va uning asosiy funksiyalari 173
7.2. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari..... 175
7.3. Yevropa valyuta tizimining asosiy elementlari va rivojlanishi bosqichlari... 195

8-BOB. XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISH

8.1. Valyuta risklari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va turlari 204
8.2. Valyuta riskining yuzaga kelish sabablari..... 208
8.3. Valyuta riskini boshqarish usullari va ularning mohiyati 213

9-BOB. MOLIYAVIY DERIVATIVLAR BOZORI

9.1. Moliyaviy derivativlar mohiyati va ularga xos xususiyatlar..... 222
9.2. Hosila moliyaviy vositalarning asosiy turlari 226
9.3. Kredit va foiz derivativlari 240
9.4. Hosilaviy moliya instrumentlarining global bozori rivojlanishi 255

10-BOB. YEVROBOZORLARNING YUZAGA KELISHI VA ULARDAGI OPERATSIYALAR

10.1. Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar..... 264
10.2 Yevrokredit bozori 269
10.3. Yevrovalyutadagi qimmatli qog‘ozlar bozori 272
10.4 Yevroobligatsiyalar muomalasi..... 280

11-BOB. XALQARO KREDIT VA INVESTITSIYA MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI

11.1. Xalqaro kredit, uning funksiyalari va tamoyillari..... 297
11.2. Xalqaro kreditning asosiy shakllari..... 302
11.3. Xalqaro kredit operatsiyalarida faktoring va forfeyting 308
11.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni uzoq muddatli moliyalashtirish shakllari..... 319
11.5. Investitsiya loyihalarni uzoq muddatli xalqaro kreditlash 322
11.6. Xalqaro lizing operatsiyalari 328
11.7. Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari..... 334

12-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR VA ULARNING ASOSIY SHAKLLARI

12.1. Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va asosiy xususiyatlari..... 347
12.2. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta-moliyaviy va to‘lov shartlari..... 352
12.3. Xalqaro hisob-kitob shakllarining tasniflanishi 357

13-BOB. XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA TO‘LOV BALANSINI BOSHQARISH

13.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari 374
13.2. To‘lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar 376
13.3. To‘lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o‘tkazib yuborishlar 386
13.4. Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modeli 388
13.5. To‘lov balansiga ta’sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari 391

14-BOB. XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARINING XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

14.1. Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi va umumiy tavsifi 400
14.2. Xalqaro Valyuta Fondining maqsadi va faoliyatining mohiyati 404
14.3. Jahon banki guruhi va unga kiruvchi tashkilotlar faoliyati 412
14.4. Mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari 424

15-BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI SUBYEKTI SIFATIDA

15.1. Xalqaro korporatsiyalarning yuzaga kelishi va ular faoliyatining mohiyati 443
15.2. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining asosiy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari 449
15.3. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining iqtisodiyot uchun afzalliklari 454
15.4. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari 460
15.5. Globallashuv sharoitida TMKlar o‘rtasidagi birlashish va qo‘shib olish (M&A) jarayonlari 462

16-BOB. XALQARO MOLIYA TIZIMIDA MOLIYA-SANOAT GURUHLARI

16.1. Moliya-sanoat guruhlari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ularning tasniflanishi 470
16.2. Jahonda moliya-sanoat guruhlari shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihatlari 477
16.3. Xorijiy mamlakatlarda moliya-sanoat guruhlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari 486

17-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI

17.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy shart-sharoitlari 503
17.2. Xalqaro integratsion birlashmalarning asosiy shakllari 506
17.3. G‘arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari 512
17.4. Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarning hududiy integratsiyasiga xos xususiyatlar (NAFTA) 516

17.5. Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy integratsiyasining xususiyatlari (MERKOSUR) 518
17.6. Osiyo hududiy integratsiyasining xususiyatlari (ASEAN, APEC va h.k.) 520
17.7. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi 524

18-BOB. JAHON MOLIYA TIZIMI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA XALQARO MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNING O‘RNI

18.1. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mohiyati va milliy iqtisodiyotdagi o‘rni 533
18.2. Moliyaviy xavfsizlikning asosiy tamoyillari va turlari 541
18.3. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliyaviy xavfsizlik holati 548
18.4. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash borasida xalqaro hamkorlik aloqalari 553

19-BOB. O‘ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIGA INTEGRATSIYALASHUVI

19.1. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy tamoyillari 563
19.2. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari 569
19.3. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari 572
19.4. O‘zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari 579
ADABIYOTLAR RO‘YXATI 589
ASOSIY TUSHUNCHALAR 591

J.X. ATANIYAZOV

XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI

Muharrir **N. Rustamova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo‘jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug‘bekova**

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 26.10.2020.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 34,8.
Hisob-nashr tabog‘i 42,2. Adadi 50.
9-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60[a].